O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI
ANTROPOLOGIYA VA ETNOLOGIYA KAFEDRASI

“TARIXIY OBYEKTLAR VA TABIIY MASKANLAR UYG‘UNLIGI ASOSIDA O‘ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MAQOLALARI TO‘PLAMI

****

СБОРНИК СТАТЕЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

«ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ГАРМОНИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ И ПРИРОДНЫХ ОБЪЕКТОВ»

****

COLLECTION OF ARTICLES OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

"MAIN DIRECTIONS AND PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF THE TOURIST ORGANIZATION OF UZBEKISTAN BASED ON THE HARMONY OF HISTORICAL AND NATURAL OBJECTS"

Etnoturizm

Toshkent – 2024-yil, 17-aprel

UO‘K: 725.94(09)(575.1)

Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg‘unligi asosida O‘zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari [Matn]: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasidagi maqolalar to‘plami. – Toshkent: Universitet, 2024. – 515 b.

Mazkur to‘plamda 2024-yil 17-aprelda o‘tkazilgan “Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg‘unligi asosida O‘zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasidagi maqolalar o‘rin olgan.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug‘i bilan ro‘yxatga olingan hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milli universiteti rektorining 2024-yil 8-fevraldagi 01-43-son buyrug‘i asosida o‘tkazilgan.

Mas’ul muharrirlar:

Bababekov A.D. PhD, Antropologiya va etnologiya kafedrasi mudiri
Ubaydullayeva B.M. DSc, Antropologiya va etnologiya kafedrasi dotsenti

Tahrir hay’ati:

Bababekov A.D.
Ubaydullayeva B.M.
Anarkulov S.M.
Abdusattorov Sh.M.
Abdullayeva M.M.
Abduzohirov R.X.
Babarahimov T.G.
Abdurahmonova K.R.

Nashrga tayyorlovchilar:

Anarkulov S.M.
Abdullayeva M.M.

Mazkur to‘plamdagi maqolalar Antropologiya va etnologiya kafedrasining 26.04.2024-yildagi 23-son majlisida muhokama qilinib, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti Ilmiy kengashining 06.05.2024-yildagi 6-son bayonnomasi bilan nashr qilishga tavsiya etilgan.

Maqolada keltirilgan ma’lumotlar va mulohazalar uchun mualliflar shaxsan javobgar hisoblanadi.

© Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
© “Universitet” nashryoti, 2024.

MUNDARIJA

	KIRISH	**7**
	XOTIRA*	**9**
Жабборов И.М.	Қадимий обидаларни тилга киритган улуғ аллома …….	**9**
Кабиров А.	Сармишсой суратлари - “зангори осмон остидаги музей” (ЮНЕСКО ташкилотининг эътиборига тушган ёдгорлик) ……	**21**
Salimov T.U.	Nurota vohasi tarixidan lavhalar ……..	**33**
	1-SHO‘BA. TURIZMNING SHAKLLANISHI, VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI	
Aimei Zhang	The historical practice and significance of promoting han culture in the western regions during the han dynasty ……	**48**
Anarkulov S.M.	Shahar turizmi – sayyohlikning yangi yo‘nalishi sifatida ……	**53**
Ауанасова А.М., Черниенко Д.А.	Перспективы развития туристического кластера Акмолинской области Республики Казахстан на основе историко-культурного наследия ……	**60**
Mamatov J.Q.	Chust tumani ziyoratgohlari tarixidan (Mavlono Lutfulloh ziyoratgohi misolida) ……	**71**
Matxoliqov Q.	Xalqaro turizm rivojlanishining tarixiy bosqichlari	**76**
Murodov H.	Mustaqillik arafasida O‘zbekistonda turizm rivojlanishi va muammolari ……..	**81**
Nigmatov A.X.	Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligini rivojlantirishi ……...	**87**
Убайдуллаева Б.М.	Этнотуризм тушунчаси, Ўзбекистонда этнотуризм шарт-шароитлари ва муаммолар ……	**97**
	2-SHO‘BA. ETNOTURIZMNING ILMIY NAZARIY MUAMMOLARI VA METODOLOGIYASI	
Abduqodirov M. A.	Toshkent viloyati ziyoratgohlarining hudud turizmini rivojlantirishdagi ahamiyati	**110**
Avezov M. M., Elmurotova A. M.	Kattaqo‘rg‘on tumanida turizmni rivojlantirish hamda madaniy meros obyektlarini kartalashtirish masalalari	**116**
Адилова Н., Утебаев М.	Природа и культурные артефакты Муйнакского района в перспективе туристичесского развития региона ……	**123**
Аширов А. А.	Жиззах воҳасида эко ва зиёрат туризмини ривожлантириш бўйича айрим мулоҳазалар ……	**129**
Bababekov A.D.	Forish tumanining tarixiy-etnografik turizm resurslari va salohiyati	**136**

* O‘zbekistonda etnologiya fanining rivojlanishida bir qator olimlar o‘zlarining zabardast mehnatlari va fidoyiliklari bilan ulkan hissa qo‘shib ketdilar. Jumladan, ustoz Iso Murodovich Jabborov qariyib yarim asr davomida O‘zMU Tarix fakultetida talabalarga “Jahon xalqlari etnografiyasi”, “O‘zbek xalqi etnografiyasi” fanlaridan dars berdi va ushbu fanlarning darsligini yaratdi. O‘tgan asrning 2-yarmidan boshlab to bugunga qadar talabalarga etnologiya fanlarini o‘qitishda olim tomonidan yozilgan asarlardan keng foydalanib kelinmoqda. Shunday darg‘alardan yana biri – bu marhum ustozimiz, Abdijabbor Kabirovdir. Olim va mehribon ustoz Abdijabbor Kabirov dastlabki etnografik ekspeditsiyalarga bosh-qosh bo‘ldilar. Talabalarga “Toponimika”, “O‘rta Osiyoning sug‘orma dehqonchiligi tarixi” kabi fanlardan dars berish bilan bir qatorda, o‘rta maktablarning 6-sinf o‘quvchilari uchun “Tarix” darsligini yaratdilar. O‘zbekiston etnologiyasi deyilganda ustoz Tursun O‘sarovich Salimovni yodga olmaslikni iloji yo‘q. Ilmiy va pedagogik faoliyati davomida olim ko‘plab darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlab, chop ettirdilar. T.Salimov o‘rta maktablarning 7-sinf o‘quvchilari uchun “Jahon tarix” darsligining muallifi ham hisoblanadi. Yuqorida nomlari qayd qilingan ustozlarimiz o‘zlarining fidokorona mehnatlari tufayli kelajak avlodga ulkan ma’naviy meros qoldirib ketdilar. Shuningdek, etnologiya fanini rivojlantirishda davomchi bo‘ladigan shogirdlarni tarbiyaladilar. Shu tufayli ular o‘z mehnatlarini ayamagan zahmatkash inson sifatida qalbimizda mangu qoladilar. Ushbu to‘plamga olimlarning maqolalaridan namunalarni kiritish orqali ularning xotiralarni yod etishni maqsad qildik. Zero, ularning xotiralarini kelajak avlodga yetkazish bugungi avlodning vazifasidir.

Davlatova S.T.	Yangi O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda Qashqadaryo ziyorat obyektlarida diniy bag‘rikenglikning ahamiyati ……..	**143**
Jo‘rabekova M.	O‘zbekistonda etnoturizmni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini o‘rganish va uni oshirishning ahamiyati …….	**151**
Islamova Q.	O‘zbekistonda rivojlanayotgan yangi turizm turlarining bayoni	**158**
Илмуродова Ф.Ш.	Туризм фаолиятини ривожлантиришнинг миллий иқтисодиётдаги ўрни ……..	**163**
Кобзева О.П., Валижонов С.С.	Раннемусульманские объекты на территории Узбекистана, как места для развития паломнического туризма ……..	**169**
Mirislomov M.M.	Toshkent viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari …….	**177**
Mo‘ydinov H.	O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasinining huquqiy asoslarini yaratilishi ……..	**181**
Одилов Б.А.	Ўзбекистонда этнотуризмнинг ривожлантириш имкониятлари хусусида баъзи мулоҳазалар …….	**185**
Ozodova O‘.D.	Turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari – Toshkent viloyati parkent tumani misolida ……...	**192**
Салимова С.Ф.	Возможности устойчивого развития туризма за счет диверсификации туристских маршрутов в регионах ……..	**196**
Solijonov O.U.	Etnoturizm ……	**201**
Turdimuratov Y.A.	Etnoturizm shakllari, yo‘nalishlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari ……..	**205**
Турсунов Ф.Ғ.	Ўзбекистон тожикларига хос кийиниш ва тўқувчилик маданиятининг этнотуризмни ривожлантиришдаги ўрни	**212**
Убайдуллаева Б.М. Юлдашева Г.К.	Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш амалиёти ва истиқбол режалар	**217**
G‘aniyeva O.B.	Buxoroda etnoturizmni rivojlantirish istiqbollari (shirin etnoturizm qishlog‘i misolida)	**224**
3-SHO‘BA. TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA JAHON TAJRIBASI		
Abduvohidov A.M., Komilov D.R.	O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va diversifikatsiya qilishda innovatsion omillardan foydalanish ……	**231**
Ерметов А.А.	Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривождантириш борасидаги ислоҳотлар	**235**
Kurbanova M.X.	Ziyorat turizmini rivojlantirishning ilg‘or xorijiy tajribasi va uni O’zbekistonda qo‘llashning ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklari ……..	**240**
Mukhtarova U.K.	Development of tourism in Uzbekistan and world experience ……	**246**
Raxmonova N.Y.	O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini turizmda qo‘llash usullari (jahon tajribasi asosida) ……..	**251**
Sayfullayeva M.S.	Sustainable agritourism services: enhanced quality control in Uzbekistan ……	**255**
Tilavoldiyev A.U.	Turizmni rivojlantirishda Koreya Respublikasi tajribasi	**259**
Turdimuratov Y.A.	O‘zbekistonda turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari ……...	**265**
Xaynazarov B.B.	Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda tarixiy-madaniy turizmning ahamiyati ……	**272**
Хашимов Б., Эштаев А.	Қорақалпоғистон Республикасида туризмни ривожлантириш ва унда хориж тажрибаси	**279**
Хашимов Ш.Ж.	Ўзбекистоннинг халқаро имиджини юксалтиришда халқаро туристик ташкилотларнинг тутган ўрни	**288**
Шакиров И.	Туристический потенциал стран ASEAN	**294**
O‘ralov O.X.	Yaponiya turizmi: tahlil va tajribalar ……...	**299**
Ғуломова Н.	Туризм - мамлакат иқтисодий тараққиётининг муҳим омили	**303**

сифатида ……..

4-SHO‘BA. TURIZM VA ANTROPOLOGIYA

Abdusatorov Sh.M. Gastronomik turizm va uni mobil ilova (APP) orqali rivojlantirish yo‘llari (Farg‘ona vodiysi misolida) ……. **309**

Abduzohirov R.H. Migratsiya jarayonlari va turizm haqida ayrim mulohazalar ……... **317**

Abduraxmonova K.R. Tibbiy turizmning jamiyat salomatligini rivojlantirishdagi o‘rni …. **324**

Азизов А.А. Ўзбек миллий ўйинларининг тарихий илдизларига назар (ҳайвонлар билан боғлиқ ўйинлар мисолида) **328**

Аскаров М.М. Роль национальной культуры и наследия узбеков в строительстве национальной идентичности **334**

Zoyidova A.F. Bozor antropologiyasini o‘rganishdagi nazariy qarashlar **340**

Каюмов А.Р. Ўзбек жамиятида аждодлар хотирасинининг тикланиши ва генеалогик туризм **345**

Sultonov Sh. Qishloq turizmining ta’rifi va uning o‘ziga xos xususiyatlari …….. **352**

Qilichev U.A. O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikning o‘ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanishi …….. **357**

Qo‘shboyev Q.S. Hunarmandchilikda zoomorfik ramzlar tasviri (Marg‘ilon va Rishton hunarmandchiligi misolida) **365**

5-SHO‘BA. MADANIY MEROS VA BARQAROR RIVOJLANISH

Altiboyev Y.E. Madaniy meros obyeklarimizning ma’naviy tarbiyadagi o‘rni (Qashqadaryo vohasi misolida) **371**

Annayev J.T. Sayyohlik tizimini rivojlantirishda tarixiy-madaniy meros obyektlarining ahamiyati …….. **376**

Аширова Н. 3D в области сохранения и реставрации исторических памятников …… **380**

Babarahimov T.G’. Mahalliy aholi madaniy merosini saqlab qolishda turizmning o‘rni **385**

Бегалиева Ш.Б. Духовное и культурное развитие Узбекистана **392**

Ergasheva A.F. Madaniy meros shakllanishida hunarmandchilik mahsulotlarining o‘rni ……..... **397**

Каратаева Д.Д. Тарихий ёдгорликларни сақлаш ва қайта тиклашда 3D технологияси ахамияти ……..... **403**

Kurbonova Z.A., Nuriddinov O.B. Cultural tourism: exploring the role of tour operators in preserving and promoting local cultures and heritage …… **406**

Narziyev N.N. O‘zbek madaniy merosida salomlashishning antropologik xususiyatlari ……..... **410**

Qo‘shshiyeva D.A., Dushanova Y.F. O‘zbekistonda madaniy meros va uning barqaror rivojlanishga ta’siri ……..... **416**

6-SHO‘BA. TURIZMGA OID MA’LUMOTLARNI YIG‘ISHDA MANBALARNING O‘RNI

Madyarova S.N. Turkiston xmn* qoshidagi ilmiy komissiyalar tomonidan turkiston tarixi va etnografiyasi masalalarini o‘rganilishi …….. **422**

Normurodov D. R. 2023-yilda chorvoq suv ombori sohilidagi arxeologik qidiruv ishlari xususida ……..... **428**

Нурузаде Ш.Т. Традиционные ценности азербайджанцев в контексте этнокультурных и этносоциальных процессов ……... **436**

Сайтов А.Т. Антропологический подход в изучении экологического кризиса (на примере одного растения) ……. **443**

Ergashova R.T. Zamonaviy muzeylar faoliyatida innovatsiyon yondashuvlar **448**

7-SHO‘BA. IJTIMOIY- GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MASALALARI

Abdullayeva Z.X. Turkistonlik qrim-tatarlar va boshqirdlar tarixi …… **454**

Akramova Y.U. Afg‘oniston hududi va shaharlarining chet mamlakatlari uchun ahamiyati …….. **457**

Байжиенова К.Т.	Система здравоохранения Казахстана в первые годы после независимости ……..	**464**
Кунишева Н.Ж.	Бағрикенглик тушунчасининг ижтимоий-фалсафий ўрганилиши ва таҳлили	**478**
Муминов А.Г.	Ўзбекистонда миллатлараро тотувлик муҳитини мустаҳкамлашнинг айрим жиҳатлари	**484**
Саипова К.Д.	Трансформация национального состава населения тасср (1918-1924 гг.)	**487**
Сактаганова Э.	Значение общественно-исторических явлений в формировании личности (на примере С.Кадырбаева)	**493**
Ummatov J.Q.	Globallashuv va tasavvuf	**499**
Xakimjonova N.	Sovet hokimyatining O‘zbekistondagi diniy konfessiyalarga nisbatan munosabati	**504**
Hidirov M.	Ancient water supply system facilities of Central Asia as cultural heritage objects	**510**

KIRISH

“Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg‘unligi asosida O‘zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-aprel PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 9-fevral PF-61-65-son “O‘zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari kabi normativ huquqiy hujjatlar asos qilib olindi.

Turizm sohasini barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida tadqiq etish, uning raqobatbardoshligini ta’minlovchi omillarni o‘rganish iqtisodiyotning yangi va murakkab tadqiqot predmeti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz hududlarida jami 100 dan ortiq turizm salohiyati hamda uning yangi istiqbolli turlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega maskanlar mavjud. Bizning maqsad aynan shu maskanlarni etnografik va etnologik tadqiqotlar asosida o‘rganib, bu borada tavsiyalar ishlab chiqish hamda uning yangi-yangi tur paketlarini ishlab chiqishdan iborat. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bu kabi respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalar oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar, tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarni turizm va etnoturizmning dolzarb masalalariga oid muammolar va yechimlari bo‘yicha o‘zaro fikr almashishlariga imkon yaratadi.

Mazkur mavzu Davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida bajarilayotgan hamda xalqaro ilmiy loyihalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi uchun konferensiyada xalqaro va respublikada faoliyat yuritayotgan olimlar va iqtidorli yoshlarning innovatsion g‘oyalari hamda ishlanmalarining ilmiy asoslarini muhokama qilish orqali tadqiq qilinayotgan masalaning yechimi, sohani ijtimoiy, moliyaviy rag‘batlantirish imkonini beradigan ilmiy xulosa, tavsiyalar tayyorlandi.

Shuningdek, anjumanda universitetda bajarilayotgan dissertatsiya ishlari natijalari tahlil qilindi.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga mahalliy mutaxassislar, sohalarning malakali kadrlari, talabalar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar bilan bir qatorda xorijning nufuzli oliy ta’lim muassasalari va tashkilotlaridan olimlar va professor-o‘qituvchilari ham taklif qilindi. Konferensiyaga taqdim etilgan maqolalar mualliflari, tadbir ishtirokchilari tomonidan O‘zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlariga qaratilgan takliflar va tavsiyalarni ommalashtirish, ulardan sohaning rivojida amaliy foydalanish ko‘zda tutildi.

XOTIRA

Исо Муродович Жабборов
фалсафа фанлари доктори, профессор

ҚАДИМИЙ ОБИДАЛАРНИ ТИЛГА КИРИТГАН УЛУҒ АЛЛОМА

Ҳар бир халқ ўзининг ўтмишини билишга интилади, бой тарихий мероси ва унутилмас саналари, буюк сиймолари ва баҳодир саркардалари билан ғурурланади. Қадимий даврлардан буён Ўрта Осиёда рўй берган турли хил сиёсий ва ижтимоий ҳодисалар, бир вақтлар Европани ларзага келтирган тарихий воқеалар, ўтмишда кўп жамиятларни тубдан ўзгаришга ва ҳар хил элатларни бириктириб этник жараёнларга сабаб бўлган қудратли давлатлар, ноёб моддий маънавий обидаларни пайдо бўлиши башарият маданиятининг кўҳна марказларидан бири Хоразм билан боғлиқ эканлиги илмий жиҳатдан жуда кўп тарихий-археологик асарларда исботланган.

Машҳур шарқшунос ва тарихчи олим, Ўзбекистон фанлар академияси фахрий аъзоси С.П.Толстов маълумотларига кўра, урушдан олдинги тўрт йил ичида унинг экспедицияси аъзолари аниқлаган ёдгорликлардан 400 дан ортиғи кейинги ярим асрлик тадқиқотлар туфайли ўрганилиб, эрамиздан аввалги IV минг йилликдан эрамизнинг XIV-XV асрларгача Хоразм тарихини янгича кўз билан кўриш имкониятини яратган эди.

Мен Хоразм воҳасида туғилиб, унинг муқаддас тупроғини ялаб, Аму сувини шимириб вояга етдим. Озми-кўпми асарлар ёзиб, тиришиб-тирмашиб олим бўлдим. Эҳтимол, шунинг учундир яқинда ЮНЕСКОнинг қарори билан жаҳонда 2500 йиллиги нишонланган Хива сўзини эшитиб юрагим жизиллаб кетган эди. Бу афсоналарга чўлғанган кўҳна қалъа даставвал менинг онам ва падари-бузрукворим туғилиб ўсган шаҳар бутун Ўрта Осиёнинг зиёратгоҳи. Мана энди Юртбошимиз фармони билан Хоразмнинг буюк фарзанди афсонавий саркарда Жалолиддин Мангуберди таваллуди муносабати билан зўр шодиёналар ўтказилмоқда. Шу туфайли асли хоразмлик бўлганлигимдан

истеъдодли шоир Эркин Самандаровнинг қуйидаги жўшқин сатрларини ғурур билан эслайман:

Мен туғилган воҳа шуҳратини олам билар,

Кўп замондин кўп шуаро унга ашъор битдилар.

Донғини мен ҳам жаҳонга бонг уриб айтгим келар

Хоразм фарзандиман мен, Хоразм фарзанди...

Бундан бир неча йил муқаддам каминангиз Буюк Ипак йўли бўйлаб халқаро экспедицияда иштирок қилиш бахтига муяссар бўлган эди. Сафарга чиқишдан олдин эса кўп тарихий китобларни ва манбаларни варақлаб чиқишга тўғри келди. Албатта, ундан илгари ҳам мен Хоразм воҳаси, Хива, Кўҳна Урганч тарихи билан батафсил танишганман. Ҳатто, буюк рус олими Сергей Павлович Толстовнинг машҳур археология-этнография экспедициясида иштирок этиб, нафақат Ўзбекистон, балки бугунги Туркманистон ва Қорақалпоғистон республикаларига мансуб худудда олиб борилган қазишмаларда иштирок этиб, машҳур устозимни бу тупроқни севишинг, ундаги сон-саноқсиз обидаларни, Хива, Кўҳна Урганч, Хозарасп каби антик шаҳарларни яратган Хоразм халқига абадул-абад хизмат қилишинг керак, деган гаплари ҳали-ҳануз қулоғимда.

Маълумки, Хоразм воҳасида Ўрта Осиёнинг энг катта дарёси Аму дельтаси жойлашган. Бу дельта жуда ҳам кенг бўлиб, эллик минг квадрат километрга яқин майдонни ишғол қилиб ётади. Унинг шимолий-ғарбида Устюрт тепалиги, шарқда Султон Увайс тоғи ҳамда Қизилқум, жанубда ва жанубий-ғарбда Қорақум саҳролари ўраб олган.

Хоразм воҳасида яшовчи турли элат ва халқлар бу гўзал ўлкани чин қалбдан севиб, ўз куй ва қўшиқларида, афсона ва ривоятларида, эртак ҳамда достонларида воҳанинг табиий-географик шароитлари, шунингдек, унда яшовчи уруғ-аймоқ ва қабилалар ўтмиши, уларнинг хўжалик фаолияти, урф-одатларини тараннум этиб келганлар. Тарихий манбалардан ўрин олган айрим ривоят ва афсоналарда Хоразмнинг пайдо бўлиш тарихи ҳам ўз ифодасини топган.

Хоразмликлар тўғрисидаги ривоят, эртак ва ҳикояларда келтирилган маълумотларда воҳа аҳолиси турли уруғ ва қабилалардан ташкил топганлиги айтилади. Хоразм худудида ўтказилган археологик ҳамда палеантропологик текширишлар бу фикрни тасдиқлайди.

Антрополог Т.А.Трофимова ибтидоий ва антик даврга оид бўлган калла суякларини текшириб, қадимги хоразмликларнинг тузилишида бир томондан Жанубий Европадаги саҳро бронза маданиятига хос, иккинчи томондан, яқин Шарқ ва Шимолий Ҳиндистон аҳолиси, яъни қадимий ирқлардан дравидоидларга хос аломатлар борлигини исботлаб берди.

Қадимги грек тарихчиси Страбон хоразмликларни массагет қабилаларнининг бир тури деб таъкидлаб ўтади. Маълумки, массагет ёки сак қабилаларининг йирик иттифоқи бутун Хоразм воҳасида яшаган. Бу ярим кўчманчи ва кўчманчи қабилалар воҳаларда яшовчи халқлардан ажралиб чиққани сабабли уларнинг урф-одати ва тили бир-бирига анча яқин бўлган. Шунинг учун ҳам Страбоннинг айтгани тўғри бўлса, ажаб эмас. Массагет деган сўзни “улуғ гетлар” ёки “катта саклар тўдаси” деб таржима қилиш мумкин.

Шундай қилиб, Ўрта Осиёнинг кенг майдонида массагет иттифоқи узоқ давр ҳукм сурган.

Тарих фанининг отаси Геродот ва бошқа кўпгина қадимги грек муаллифларининг асарларида ҳам Окс, яъни Амударё бўйида яшовчи халқлар тўғрисида мароқли афсоналар келтирилади. Қисман юқорида айтиб ўтганимиздек, жуда кўп араб ёзувчиларининг асарларида, Чингизхон ва Темур даврида ёзилган кўп жилдлик солномаларда, рус тарихчилари солномаларида ҳам қудратли Хоразмга тегишли ҳар хил қимматли ҳикоялар муносиб ўринни эгаллайди. Хоразм довруғи кўп асрлар давомида Шарқда забардаст Чинмочин давлатидан тортиб, ғарбдаги буюк Рум империясигача ёйилган бўлиб, кўплаб давлатларнинг диққат-эътиборини ўзига жалб қилиб келган. Антик даврдан бошлаб бутун ўрта аср давомида Хитой, ғарбий Европа ва яқин Шарқ мамлакатларидан Хоразмга жуда кўп сайёҳ ва элчилар

келиб кетган. Афсоналарда бой ва гўзал деб таърифланган бу ўлкани босиб олиш учун ахмоний шоҳлари ва македониялик Искандарнинг қилган юришлари, кучли эфталит ва турк хоқонларининг босқинчилик хужумлари, қудратли салжуқийларнинг истилоси ва ҳукронлиги, қорахитойлар билан бўлган ғолибона урушлар илк ўрта асрларда ҳам Хоразм жаҳонда кўзга кўринарли ўрин тутганлигини тасдиқлайди.

Айниқса, Хоразм империясининг мўғул босқинчилари зарбасига учрагунга қадар ўзининг буюклигини сақлаб келганлигини тарихий обидалар тасдиқлайди. Археологик тадқиқотлар Ўрта аср Хоразм иқтисодий юксалиши жараёнини асосли ёритиб берган. Кўҳна харобаларни текшириш натижасида бу ўлкага хос катта сув иншоотлари, қалъалари, ўнлаб карвонсаройлари, шаҳардаги ҳаёт, ҳунармандчилик ва савдонинг гуркираб ўсиши, санъатнинг шукуҳли ривожи кўз ўнгимизда очиқ намоён бўлади. Ўрта асрларда мўғуллар истилоси арафасида бу ерга келган машҳур араб сайёҳи ва олими Ёқут ўзининг ажойиб илмий қомусида шундай деб ёзади: “Хоразм ерларидай кенг ва аҳоли кўп яшайдиган жой дунёнинг ҳеч бир ерида бўлмаса керак, деб ўйлайман; бунинг устига аҳолиси машаққатли ҳаётга ва оз нарсага қаноат қилишга ўрганиб қолган. Шу билан бирга бу ерларда умумий хавфсизлик ва хотиржамлик ҳукмрондир”.

Аммо кетма-кет талон-тарож қилинган йирик шаҳар ва қишлоқлар, харобага айланган, аҳолисининг анча қисми қирилган, ҳайдалган ёки қул қилинган Хоразм XV-XVII асрларда оғир тушкунликни бошидан кечирган. Чет эл истилочилари ва маҳаллий ҳукмдорлар ўртасидаги муттасил тахт талашиш курашлари ва кўчманчи қабилаларнинг воҳага кетма-кет ҳужумлари мамлакатни оғир аҳволга солган.

Шундай фожеали вазиятда ҳам харобалардан қайта қад кўтариб тикланган Хива хонлиги ва унинг аҳолиси қадимий маданиятнинг мустаҳкам заминида қарор топган эди. Ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, одддий заҳматкаш хиваликлар-деҳқонлар ва ҳунармандлар- ғоят машаққатли бир шароитда эски суғориш иншоотларини қайта тиеклаш ва янгиларини

бунёд қилиш, ҳаробалар ўрнида янги истеҳкомлар, кўшклар, боғу-бўстонлар яратишда катта жасорат кўрсатганлар.

Тадқиқотчиларнинг, айниқса, таниқли рус шарқшунос олими С.П.Толстов бошчилигида ташкил этилган экспедициянинг кўп йиллик самарали меҳнати туфайли Хоразмнинг қоронғуликка айланган узоқ ўтмишдаги тарихи қайтадан тикланди, обидалар тилга кириб ўз сирларини бир-бир очди. Шу ўринда айтиш лозимки, Маъмун Академияси фаолиятининг дастлабки тадқиқотчиларидан бири ҳам С.П.Толстов бўлган эди.

Лекин сон-саноқсиз ҳаробаларнинг сири нимада? Қандай манбалар бу тилсимни еча олади?

Афсуски, узоқ ўтмишда бу ерда яшаган халқлар ҳаётига оид деярли битта ҳам асар бизгача етиб келмаган. Айрим сайёҳларнинг ҳикоялари, грек тарихчиларининг тўлиқ бўлмаган маълумотларигагина асосланиб халқимизнинг исломга қадар кўп асрлик ҳаётини тўлиқ тасвирлаш мумкин эмас, албатта. Бинобарин, амалда бутун Ўрта Осиё тарихи, шу жумладан Хоразм тарихи ҳам VII-VIII асрлардаги араб истилоси давридан бошланар эди. Бунга асосий сабаб ислом динини тарқатувчи аҳлларнинг ўша даврга ўзга диндаги халқларни ўзига бўйсундириш йўлида олиб борган сиёсатидир. Хоразмнинг араб халифалигининг истилосидан илгариги тарихига оид илмий ва бошқа асарлар, уларни яратган маҳаллий олимлар араб истилочилари томонидан ваҳшийларча йўқ қилинган. Ўрта асрнинг машҳур мутафаккир олими Абу Райҳон Беруний бу тўғрида “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” деган асарида шундай ёзади: “Қутайба турли йўллар билан хоразмликларнинг ёзув ва ривоятларини сақлаган кишиларни ва шу қаторда барча олимларни тарқатди ва уларга барҳам берди. Натижада ислом келгунига қадар бўлган уларнинг тарихи қоронғуликка айланиб, бу тўғрида ҳақиқий билим қолмади”.

Шу сабабли охирги вақтларгача Ўрта Осиёда исломгача бўлган даврда қандай ижтимоий тузум бўлганлиги тўғрисида ниҳоятда мужмал, чалкаш ва қарама-қарши ҳар хил фикрлар ҳукм суриб келган.

Узоқ ўтмишнинг тилсиз шоҳиди бўлган ва чексиз саҳро ичида қад кўтарган беҳисоб ҳаробалар асрлар давомида халқнинг ажойиб эртак ва достонларида куйланиб келган, холос. Қорақум саҳролари ичида ўрнашган дабдабали қалъалардан бирининг номи халқимизнинг лирик поэмаси “Шоҳсанам ва Ғариб” достони билан боғлиқ. Ана шу ва бошқа кўпгина достонларда учрайдиган Ширвон, Ёрбакир, Бадиркант, Қирққиз каби сўзлар билан маҳаллий аҳоли кўҳна ҳаробаларни атайди. Аммо айрим қалъаларнинг ҳозир халқ оғзида тарқалган номлари кишида даҳшат ва қўрқинч туғдиради. Қўйқирилганқалъа, Одамликалъа, Қумбосганқалъа, Қумқалъа, Тупроққалъа каби ҳаробаларнинг номи бу ерларда узоқ вақтлардан бери ҳаёт сўнганлигидан, табиатнинг жоҳил кучлари остидаги бир қанча фожеали воқеалар бўлганлигидан дарак беради.

Демак, археологлар олдида Қизилқум ва Қорақум саҳролари орасида, Амударёнинг қуйи оқимида жойлашган қадимги Хоразмнинг узоқ ўтмиш тарихини қайтадан тиклаш, тилсиз ҳаробаларни сўзлатиш вазифаси турар эди. Тадқиқотчилар ихтиёрида ўтмишдан қолган жуда кам манбалар ва шу манбалар асосида ёзилган чет эл олимларининг айрим асарлари бор эди, холос.

Кейинги ўн йилликларда археологик текширишлар кўлами анча кенгайди. Бу текширишлар натижасида Ўрта Осиё, шу жумладан, Хоразм халқларининг энг қадимги давридан то XIX асргача бўлган давр ичида босиб ўтган тарихини аниқлаб олишга муяссар бўлдик.

Собиқ СССР Фанлар Академияси ва Германия Демократик Республикаси Фанлар академияси мухбир аъзоси, Ўзбекистон Фанлар академиясининг фахрий академиги, профессор Сергей Павлович Толстов бошчилигида машҳур Хоразм археология-этнография комплекс

экспедицияси Ўрта Осиё, жумладан, Хоразм воҳаси халқлари қадимий тарихини ўрганишда катта аҳамиятга эга бўлди.

Ислом дини Ўрта Осиёга келгунигача даврни, яъни қадимги Хоразмни биринчи марта ўзбек археологилари Я.Ғуломов ва Т.Мирғиёсовлар текширган. Улар 1936 йилда Манғит қошидаги Кубатов тепалигидаги эрамиздан илгариги биринчи минг йилликнинг ўрталарига оид қабристонни қазиб кўрганлар. Бир йилдан кейин Я.Ғуломов Жанубий Қорақалпоғистондаги қадимги суғорилган ералрни текширишга қайтадан киришган.

Ўша йили Хоразм экспедицияси шу худудда ўзининг кенг фаолиятини бошлаган эди. Экспедиция раҳбари С.П.Толстов ҳам ажойиб археологик дурдоналарга эга бўлган бой хазина-Хоразмга биринчи марта 22 ёшда -1929 йилда Ижтимоий фанлар илмий текшириш институти Россия ассоциациясининг экспедицияси таркибида келганди.

Моҳир тадқиқотчи С.П.Толстов бепоён қум дарёси ўртасида йўқолиб кетган бу ўлкага жуда қизиқиб қарарди. Бу ишда у ёлғиз эмасди. С.П.Толстовнинг шогирдлари анчагина эди. Шулар қаторида мен ҳам борлигимдан фахрланиб юраман.

С.П.Толстовнинг ҳаёт фаолияти М.В.Ломоносов номли Москва Давлат Университети билан бевсита боғлиқ. Бу илм даргоҳида ушбу сатрлар муаллифи ҳам С.П.Толстовдек истеъдодли устоздан таълим олиш шарафига муяссар бўлди. Ўша вақтда С.П.Толстов этнография кафедраси мудири лавозимида ишлаб, дарс ҳам берар эди.

Дастлабки таассуротларим университетнинг бош корпусида етакчи олимлар ўқийдиган лекциялар билан боғлиқ. Эсимда, бир куни бизнинг курс талабалари учун этнография фанидан лекция бўлиши керак эди. Унга ҳатто бошқа факультетлардан ҳам талабалар келишган. Зал лиқ тўла. Ўша куни лекцияни атоқли этнограф ва шарқшунос олим Сергей Павлович Толстов ўқиши керак эди. Унинг майин овози, сермазмун нутқлари ҳамон менинг

қулоғимда янграйди. Ўша пайтларда нафақат мен, бошқа талабалар ҳам бундай жўшқин донишманд домланинг шогирди бўлишини орзу қилган эди.

Юқори курсда ўқиётган вақтимда кафедра мудири вазифасини адо этаётган, айни вақтда Н.Н.Миклухо-Маклай номли этнография институти деректори, профессор С.П.Толстов мени хоразмлик эканимни билиб, йўқлатган экан. У мени ўзи бошчилик қилаётган катта экспедицияда хизмат қилишга, таржимонлик ёки лаборантлик вазифасини бажаришга таклиф этди. Мен ҳам бу таклифдан қувониб, “Сергей Павлович, илтимос, менга илмий раҳбар бўлсангиз, барча топшириқларингизни бажаришга тайёрман”,-дедим.

Кейинчалик С.П.Толстов мени ўзи билан Хоразм экспедициясига олиб кетди. Экспедиция давомида бўлиб ўтган сермазмун суҳбатлар келажак илмий тақдиримни аниқ ҳал қилиб берди. Мен тарих факультетини тугатгач, у кишининг раҳбарлигида аспирантурада ўқишга муяссар бўлдим.

Бундай истеъдод эгаси, оташин нотиқ, Хоразм обидаларини кўп йиллар давомида текшириб жаҳонга танитган катта олимга шогирд бўлиш катта бахт. Мен ўз олдимда турган маъсулиятни яхши англар эдим. Шунинг учун ҳам куч-ғайрат ва имкониятимни устоз маъқуллаган режа асосида ишлашга сафарбар қилдим.

Албатта, мени кўпроқ домланинг илмий изланишлари, унинг Ўрта Осиёга қандай келиб қолганлиги, нима учун Шарқ тарихи ва этнографиясини танлаганлиги жуда ҳам қизиқтирар эди.

“20-йиллар охирига келиб ўзим севган соҳанинг илмий ходими бўлиб олгач, мен этнографиянинг ниҳоятда кўп муаммолари ичида ўша вақтда жуда кам ўрганилган Ўрта Осиё этнографиясини, шу жумладан, Хоразмнинг қарийб мутлақо ўрганилмаган этнографиясини танлаб олдим. Бу борада қилиниши лозим бўлган ишлар беҳисоб эди...

Хоразмга боришимнинг бошқа боиси ҳам бор эди. Талабалик йилларимда аксари Волга бўйи халқлари этнографияси билан шуғулландим. Бу халқларнинг моддий ва маънавий маданиятларини ўрганиш жараёнида ўша вақтдаёқ мен бир нарсага эътибор берган эдим: бу халқлар

маданиятининг талайгина элементлари қадимги замонларда унинг Ўрта Осиё билан алоқалари бўлганлигидан далолат берарди. Мамлакатимиз халқлари ўртасидаги қадимий тарихий алоқалар бизнинг кунларимизда халқлар дўстлигини янада мустаҳкамлашга, миллатлар ўртасидаги ўзаро ишончсизликни батамом тугатишга хизмат қилиши керак эди. Миллий маданиятларнинг бир-бири билан яқинлашув жараёнини ўрганиш учун шу соҳага оид китобларни ўқиб чиқиш ва музей экспонатлари билан танишишнинг ўзи камлик қилган бўлур эди. Энг муҳими, ўша жойларга ўзим боришим, Хоразмнинг жонли маданиятини ўз кўзим билан кўришим, шундан кейингина муҳим тарихий-маданий хулосаларга келишим керак эди".

С.П.Толстовнинг Хоразмга қизиқишига яна бир муҳим сабаб бор эди. Узоқ вақтлар ғарб фани Шарқ тарихини ҳаддан ташқари чалкаштириб, шарқ халқлари прогрессив тараққиётини инкор этувчи, Шарқ мамлакатлари азалдан сира бартараф қилиб бўлмайдиган турғунликка маҳкумдир, деган сохта даъволар тарқатган эди. С.П.Толстов шарқ халқлари ҳам мураккаб тараққиёт йўлини босиб ўтганликларини, улар ҳам ижтимоий-иқтисодий тузумларни бошидан кечирганликларини, тарих шарқ бошқа-ю, ғарб бошқа деган гапни билмаслигини исботлаш учун зўр умидлар билан Хоразмга йўл олади.

С.П.Толстов бу ўлкани севар, унинг тарихий қимматини яхши тушунар эди. "Қадимги Хоразм" деган монументал асарида шундай деб ёзади: "Бу экспедиция муаллифнинг келажакда қиладиган ишларининг йўналишини белгилаб берди. Хилма-хил тасодифий вазифалар унинг эътиборини ҳар қанча чалғитмасин, бари бир ўзига хос Ўрта Осиё "Мисри"нинг тарихи, этнографияси ва археологияси билан қизиқди.

То 1936 йилга қадар мен Хоразм воҳасининг ва унга чегарадош жойларнинг ҳозирги аҳолиси ҳаёти билан машғул бўлиб, асосан, этнографияга оид материал тўпладим. 1937 йилдан бошлаб, гарчи Хоразмни ва унинг теварак-атрофидаги чўлларни этнографик жиҳатдан текширишни давом эттираверган бўлсам-да, тадқиқотларимда асосий эътибор ажойиб

археологик ёдгорликларга қаратила бошлади. Археология материаллари ҳам, этнография материаллари ҳам мен кутган натижаларни берди”.

С.П.Толстов бошчилигида ўша йиллари олиб борилган археология-этнография соҳасидаги кенг кўламдаги ажойиб кашфиётлар, юқорида қайд қилинганидек, фақат илмий-назарий жиҳатдангина эмас, балки амалий жиҳатдан ҳам катта аҳамиятга эга. Экспедиция ходимлари иккинчи жаҳон урушига қадар илмий разведка олиб бориб, сувсиз Қорақум ва Қизилқум саҳроларида туяда ва пиёда юзлаб километр масофани босиб ўтганлар. Бу жасурона юриш натижасида маълум бўлмаган сон-саноқсиз тарихий ёдгорликларни кашф қилиб, қўлга қурол олиб, азиз Ватанни ҳимоя қилишга отландилар. Экспедиция бошлиғи С.П.Толстов ҳам ўзининг қонли урушда бевосита иштирок этилди.

Уруш тугаб, археологларимиз ҳам ўзларининг саҳро томон юришларини ҳар қандай шароитда юра оладиган (вездеход)лар ва авиация ёрдамида қайтадан бошлаб юборадилар. Мазкур экспедициянинг кўп йиллик самарали меҳнати туфайли яратилган тадқиқотлар бир неча жилдлик қимматбаҳо илмий асарларни ташкил қилади. Бу асарлар бепоён Хоразм воҳасида яшовчи халқ ва қабилаларнинг ибтидоий жамоа тузуми давридан, антик қулдорлик тузуми оша сўнгги феодализм давригача бўлган тарихий ривожланиш жараёнини кузатиш имконини беради.

Шу билан бирга бир қатор қадимги суғориладиган ерларни кенг тадқиқ қилиш натижасида С.П.Толстов ва унинг жасур ҳамкасблари ҳозирги даврда шу районларда қўриқ ерларни ўзлаштириш учун ниҳоятда муҳим бўлган амалий хулосалар қилишга муяссар бўлдилар.

Машҳур Хоразм экспедициясининг дастлабки ўн йиллик иш натижалари кўпгина шарқ ва ғарб тилларини эгаллаган зўр қобилиятли тадқиқотчи С.П.Толстовнинг “Қадимги Хоразм”, “Қадимги Хоразм маданиятини излаб” номли мукаммал монографияларида мужассам ўз ифодасини топган. Бу асарлар илмий жамоатчилик томонидан юксак баҳоланиб, биринчи даражали Давлат мукофотига муяссар бўлган эди.

Юқорида зикр қилинган китобларнинг иккинчиси чех, поляк, румин, венгер, немис, француз, урду ва бошқа тилларда 1964 йили эса ўзбек тилида босилиб чиқди.

С.П.Толстов кашфиётларининг энг муҳими шундан иборатки, у халқимизнинг узоқ ўтмишдаги номаълум бутун бир тарихий даврини тўлиқ гавдалантириб берди. Хоразм худудида неолит ва бронза даврларига оид кўп сонли ибтидоий маконларнинг топилиши археология фанида янги саҳифа очди. Кашф этилган неолит давр маконлари ичида жаҳон фани томонидан тан олинган Калтаминор маданияти алоҳида ўринни эгаллайди. Нисбатан юқори даражада тараққий этган бронза даврига оид Тозабоғёп маданияти қазишмаларининг Сибирь ва Қозоғистонда топилган Андронов маданиятига яқинлигининг аниқланиши ушбу худудларда яшаган халқлар ибтидоий жамоа тузуми даврларидан бери ўзаро муносабатда бўлганлигини исботлаб берди.

Хоразм ва бошқа экспедициялар Ўрта Осиё халқларининг қадимги даврда ўзига хос мустақил маданиятга эгалигини аниқ кўрсатиб берди. Бунинг натижасида баъзи бир ғарб олимларининг ирқий назария асосида “цивилизациялик Ғарбни” “варварлик Шарққа” қарама-қарши қўйиш учун қилган интилишларига янгидан қатъий зарба берилди. Шу билан бирга айрим сохта “тарихчи”ларнинг гўё Ўрта Осиё халқлари тарихий халқ “эмаслиги”, уларнинг маданияти Эрон ва бошқа мамлакатларнинг маданиятига “тобе эканлиги” ҳақидаги даъволари фош қилиб ташланди. Экспедиция рад қилиб бўлмайдиган бой далиллар билан Шарқ халқлари, шу жумладан, Ўрта Осиё халқлари ҳам худди Ғарб мамлакатлари халқларидек умумий тарих қонунлари асосида тараққий этганлиги исботлаб берди. Хоразм тарихи, унинг ажойиб маданияти ўз худуди билан чекланиб қолмай, анча ташқарига чиққанини, Хоразм билан Ўрта Ер денгизи бўйидаги қадимги давлатлар, Шарқий Европа, Ҳиндистон, Хитой ва айрим Узоқ Шарқ мамлакатлари ўртасидаги қадимий иқтисодий ва маданий алоқалар мавжуд бўлганини,

ҳаттоки аждодларимизнинг бу мамлакатларга маълум даражада ўз таъсирини ўтказгалигини ёрқин тасвирлаб берди.

Хоразм комплекс археология-этнография экспедицияси урушдан кейинги эллик йилга яқин давр ичида кенг миқёсда тадқиқотлар ўтказиши натижасида қўлга киритган муҳим илмий кашфиётлар С.П.Толстов яратган 400 га яқин илмий асарларда, айниқса, унинг юқорида тилга олинган "Қадимги Хоразм" ва "Қадимги Хоразм маданиятини излаб" номли китобларида, кўпжилдлик экспедиция тўпламларида ўз ифодасини топган.

Таниқли ўзбек олими академик Я.Ғ.Ғуломов С.П.Толстов тўғрисида шундай ёзган эди: "Ўзбекистон, умуман Ўрта Осиёнинг олис ўтмишини ўрганиш ҳақида гап кетганда, кўҳна тарихимиизнинг етук билимдони, тарихчи, археолог ва этнограф, СССР ФА мухбир аъзоси, тарих фанлари доктори, профессор Сергей Павлович Толстов ҳақида гапирмай бўлмайди. Зотан, у мозий сирларини очишдаги тинимсиз ғайрат-шижоати, Ўрта Осиё тарихини ўрганишдаги салмоқли мавқеи билан... бутун дунёда тан олинган ажойиб олимдир. Сергей Павловичнинг фанга бахшида этилган ҳаёти ҳам чинакам илм аҳлига хос ва ибрат олса арзигулик даражада...Мен кўрган йирик экспедициялар ичида Хоразм экспедициясидек интизомли, серғайрат ва ғаракатчан экспедиция бўлмаган. У гўё илмий тадқиқот институтига ўхшарди. Шунча илмий кучга эга бўлган экспедицияда С.П.Толстовнинг ўзи энг оғир ишларни биринчи бўлиб бошлаб берарди".

Юзлаб кўҳна ҳаробаларни текшириб тилга киритган Хоразм экспедициясининг раҳбари С.П.Толстов Ўрта Осиёда урушдан олдинги ва кейинги йилларда ўтказилган тадқиқотларнинг натижаларни ҳам якунлаб, шундай ёзган эди: "Бизнинг Хоразмда иш олиб борган археология-этнография экспедициямиз олдида ҳам турган марказий илмий муаммо – ислом динидан аввалги Ўрта Осиёнинг ижтимоий тузуми масаласи эди. Бизнинг экспедицияларимиз тўплаган талай материаллар 1940 йиллар охирига келиб, бу муаммолар ҳал бўлди, деб ҳисоблаш имконини берди... Энди шу нарсани узил-кесил аниқланган деб ҳисоблаш мумкинки, Ғарб ва

Шарқ мамлакатлари сингари Ўрта Осиё халқларининг қадимги тарихи ҳам ибтидоий жамоа тузумидан қулдорлик тузумига ва ундан феодализмга прогрессив ривожланиш орқали ўимишдан иборат бўлган узундан-узоқ йўлни ташкил этади".

Азиз устознинг бундай теран ва доно хулосаси ҳозирги авлод учун тарихни замона хизматига қўйишнинг энг ёрқин ва ишончли намунаси эканлигини исботлаб беради.

Кабиров Абдижаббор
тарих фанлари номзоди, доцент

САРМИШСОЙ СУРАТЛАРИ - "ЗАНГОРИ ОСМОН ОСТИДАГИ МУЗЕЙ" (ЮНЕСКО ташкилотининг эътиборига тушган ёдгорлик)

Маълумки, Ўрта Осиё ва унинг таркибий қисмини ташкил этган Ўзбекистон Буюк Шарқнинг энг кўҳна, қадимий, айни вақтда маданий ўлкаларидан бири ҳисобланади. Бу ўлка халқлари Шарқ, жаҳон халқлари хазинасига улкан ҳисса қўшганликлари билан ажралиб турадилар.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, зардуштийларнинг мил.авв. VIII-VII асрларда яратилган "Авесто" китобида Ўрта Осиёдаги қадимги воҳалар: Хоразм, Марв, Сўғд ҳамда унинг тоғлик ерлари ва дарёлари ҳақида қимматли маълумотлар берилган. Шунингдек, милоддан аввалги VI асрда қадимги Эрондаги аҳамонийлар давлати ҳукмронлик қилган Доро ва Ксеркс томонидан Бехиштун тоғидаги қоя тошига ўйдириб ишланган суратлар, ёзувлар, Персополь шаҳридан топилган деворий ёзувлар Ўрта Осиёдаги вилоятлар, уларда яшаган халқлар, уларнинг қадимги Эрон давлати билан қандай муносабатда бўлганликлари баён этилган. Қадимги юнон ва римлик олимлардан Геродот, Хекатай, Ксенофонт, Ксетий, Арриан, Аристабул, Трог Помпей ва бошқаларнинг асарларида Ўрта Осиё халқлари ҳақида жуда қимматли маълумотлар бор.

Кейинги 40-50 йил ичида, айниқса 80-90 йилларда Ўрта Осиё, шу жумладан Ўзбекистонда олиб борилган археологик қазув ишлари натижасида

топилган ашёвий далилларга асосланиб шуни айтиш жоизки, бу ўлкада одамлар ибтидоий жамоанинг илк босқичидан бошлаб яшаб, фаолият кўрсатиб келишган. Ўрта Осиё, шу жумладан, Ўзбекистоннинг қулай географик муҳити бу ўлкада кишилик тарихининг ҳамма босқичларида одамлар ҳаёт кечириб, яшашлари учун имкон берган.

Маълумки, Миср ва Месопотамия (Фрот ва Дажла дарёларининг оралиғи) – башариятнинг илк маданий марказларидан бири эканлиги адабиётларда баён этилган.

Юнон манбаларига кўра Ўрта Осиё тупроғида яшаган халқлар скиф, форс манбаларида эса улар шак (сак) номи билан аталганлар.

Милоддан аввалги I асрда яшаган Трог Помпей ўзидан олдинги замондан олиб берган маълумотларида Ўрта Осиё скифлари –сакларини жуда қадимги бир халқ деб кўрсатади....."Қадимийликда –деб ёзади, Трог Помпей-скиф-саклар мисрликлар билан баҳслашадилар".

Шуни таъкидлаш лозимки, Ўрта Осиё, хусусан, Ўзбекистон тарихининг 2,5-3 минг йиллик ўтмишини ёзма манбаларга асосланиб ўрганиш мумкин. Бу ўлка аҳолисининг қарийб 1 миллион йиллик тарихини эса асосан археологик ёдгорликларнинг маданий қатламларидан қазиб топилган тош асри, мис-тош асри, жез даври, илк темир даври, қадимги ва ўрта аср даврига оид буюм-ашёвий далилларга асосланиб ўрганиш мумкин.

Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда ҳамма даврга мансуб археологик ёдгорликлар бениҳоя кўп ва улар анча яхши ўрганилган. Шулар орасида Ўрта Осиё ва Ўзбекистоннинг тоғлик худудларида кенг тарқалган қоя тош суратлари-петроглифлар, ғор, унгурларнинг деворлари ва шипларига охра-ангоб бўёғи билан чизилган ёдгорликлар мажмуаси ҳам аждодларимиз тарихини ўрганишда муҳим манбалардан бири ҳисобланади.

Ўрта Осиёдаги қоятош ёдгорликларини ўрганишга киришиш XIX асрнинг охири ва XX асрнинг биринчи чорагидан бошланган. Қоя тош ёдгорликларини жиддий равиршда ўрганиш ишига XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб киришилди. Кейинги вақтларда Қозоғистон, Ўзбекистон,

Қирғизистон ва Тожикистоннинг тарихчи олимлари, этнографлари, географлари, археологлари ва ҳаваскорлари томонидан Қоржонтов, Угом, Пском, Сандалаш, Чотқол Қурама, Нурота, Томдитов, Оқтоғ, Қоратоғ, Тянъ-Шанъ, Помир, Олой, Орқа Олой, Моргузар, Туркистон, Зарафшон тизмалари, Ҳисор тоғларининг қорли чўққилари, Талас Олатови, Фарғона тизмаси, Қозоғистон Қоратоғи ва бошқа жойлардан кўплаб қоя тош расм-тасвирлари ишланган ёдгорликлар топилиб, уларни жиддий ўрганишга киришилди.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, юқорида номлари зикр қилинган қоя тош расм-тасвирлари орасида Навоий вилояти Навбаҳор тумани худудида жойлашган Сармишсой суратлари мажмуаси алоҳида аҳамиятга молик ёдгорликлар сирасига киради. Қадимги Зарафшон дарёси ўрта оқимининг ўнг соҳили бўйлаб чўзилган Қоратоғ жанубий ёнбағирларидан Зарафшон воҳаси томон ўнлаб сойлар ва жилғалар оқиб чиқади. Улар Биронсой, Ғўртутсой, Отчопарсой, Қорачорвоқсой, Найчаликсой, Кўксаройсой, Олтинсой, Сармишсой каби сойлардир. Бу сойларнинг аксарияти қор, ёмғир ва кўп сонли булоқларнинг суви билан тўйинади. Маҳаллий кексаларнинг ахборотларига кўра, илк баҳорнинг совуқ ойларида бу сой ва жилғаларда сув нисбатан кўп бўлиб, баъзан тўлиб оқади, баъзан бу сойлардан шиддатли ёмғирдан ёки қор эриши натижасида ҳосил бўладиган кучли сув оқими-сел келиб сой қирғоқларини бузиб-ёриб, вайрон қилиб кетган ҳоллар ўтмишда ҳам, яқин кунларда ҳам бўлиб турган. Аммо май ойларидан бошлаб, сойларнинг суви камая бориб, ёз ойларида ҳатто қуриб қолади.

Қоратоғнинг жанубий ёнбағридаги сойларнинг энг каттаси Сармишсой дараси бўлиб, у Сувбоши деган жойдан чиқадиган катта булоқдан, шунингдек, Сармишсой дарасининг ҳар икки томонидан унга келиб қўшиладиган кичик-кичик сойлардаги булоқлардан сув олади.

Сармишсой дараси ўзининг гўзал манзараси, зилол сувлари, соф ва оромбахш ҳавоси билан кишиларни ўзига ром, мафтун этувчи масканлардан биридир. Бу маскан Навоий шаҳри таркибидаги қадимий Кармана

шаҳарчасидан 20-25 км шимолий-шарқда жойлашган бўлиб, у навоийликларнинг гўзал, ҳушманзара оромгоҳларидан ҳисобланади.

Шунингдек, Сармишсой дараси дара бўйлаб қад кўтарган тоғ қоялари, қояларнинг силлиқ суратига ишланган ҳар турли расм-тасвирлар, ибтидоий ва қадимги даврнинг бебаҳо ёдгорлиги сифатида кишилар диққатини ўзига жалб қилиб келган.

Сармишсойдаги қоя тош расм-тасвир ёдгорликлари 1958 йилда Ўзбекистон фанлар академияси тарих ва археология институтининг илмий ходими Ҳ.Муҳамедов томонидан кашф этилиб, кенг жамоатчиликка ва илм оламига маълум қилинди. Йиллар ўтди, ниҳоят 1966 йил Ўзбекистон фанлар академияси “Тарих ва археология” илмий текшириш институтининг академик Я.Ғуломов раҳбарлигидаги “Моҳандр экспедицияси” қошидаги “Учтут археологик гуруҳи” таркибида ушбу сатрлар муаллифи, кичик илмий ходим А.Кабиров ҳам фаол иштирок этиб, Сармишсой дарасида дала тадқиқот ишларини бошлаб юборди. Чунки марҳум академик Я.Ғуломов “Ўзбекистоннинг қоя тош суратлари” ёдгорликларини ўрганиш бўйича илмий иш қилишни менга топширган эдилар. Мен марҳум Турғун Мирсоатов бошлиқ “Учтут археологик гуруҳи”да фаолият кўрсатар эканман, аввало ишни Қоратоғнинг географик ўрни, табиий шароитлари-ер усти тузилиши, об-ҳавоси, сув манбалари, ўсимликлар олами, ҳайвонот дунёси, қисман геологияси ва маҳаллий аҳолининг анъанавий хўжалиги билан танишиш ва ўрганишдан бошладим. Айни пайтда маҳаллий аҳолининг кекса авлодлари билан мулоқатда бўлиб, худуднинг топонимикаси-айрим жой номларининг этимологияси маъноси ҳақида ҳам маълумотлар тўплай бошладим.

Мен “Учтут археологик” гуруҳида ишлаб турган ҳолда Қоратоғ ораларига саёҳатлар уюштириб, тоғ ораларига Биронсой, Қорчарвоқсой, Дўланасой, Ғуртутсой, Зардоликамарсой, Сармишсой ва Қоранғиунгурсой дараларидаги қоя тошларга ишланган расм-тасвирларнинг янги намуналари мажмуасини аниқлашга муваффақ бўлдим.

Юқорида номлари эслатилган даралар орасида Сармишсой дараси ва ундаги қоятош расм-тасвирлари алоҳида аҳамиятга молик ёдгорлик ҳисобланади.

Ниҳоят, 1969 йилнинг июнь ойида академик Я.Ғ.Ғуломовнинг ташаббуслари ва маслаҳатлари билан Қоратоғ суратларини ўрганувчи махсус гуруҳ тузилди. Камина ёнимга 3-4 ёш йигитларни олиб Қоратоғ ғорларидаги дарё ва сойлардан қоя тош суратларини қидириб топиш, суратга олиш, калькалаш ва уларни тавсифлаш ишини бошлаб юбордик.

Аввало, бизнинг диққат эътиборимизни Сармишсой дараси ва қоя тошларига битилган ноёб, бетакрор расм-тасвирлар ўзига ром қилиб олди. Сармишсой дараси ўзининг хушманзара табиати, маҳобатли қоялари, зилол, шифобахш булоқ сувлари ва соф ҳавоси билан қадимдан кишиларни ўзига мафтун қилиб келган.

Ҳа, Сармишсой дараси –Навоий вилояти Навбаҳор тумани худудидаги ажойиб масканлардан бири. Сой дараси бўйлаб юқори томон борар экансиз кўз ўнгингизда янги-янги гўзал манзаралар намоён бўлади. Даранинг ҳар икки томонида кўкка қад кўтарган азамат қоялар мозийдан нималар ҳақида ҳикоя қилаётгандек. Сой ўзанида қуйи томон оқаётган тиниқ, зилол сув кишида аллақандай кўтаринки кайфият ва ҳис уйғотади.

Сармишсой дараси билан илк бор танишар эканмиз, сойнинг Булоқбоши деган жойидан Зардоликамар жилғаси орасидаги 5-6 км масофага чўзилган, сойнинг ҳар икки соҳили бўйлаб қад кўтарган қоялар бизни ўзига мафтун эта бошлади. Бу қоялар бирнеча юз, эҳтимол миллион йиллар давомида, қуёш нури, иссиқ-совуқ, қор-ёмғир, сел-совур, ер силкиниши ва бошқа табиий ҳодисалар натижасида нураб, парчаланиб, алоҳида-алоҳида харсанг тошлар шаклида сой ўзани бўйлаб сочилиб ётади.

Даранинг ҳар икки томонидаги азамат қоя ва сой ичидаги харсанг тошлар қорамтир, тўқ жигарранг тусда бўлиб, офтоб нурида ажиб тобланади. Қоя тошларнинг баъзилари нотекис, айримлари эса марамар каби текис, силлиқ кўринишга эга. Бу тошларнинг сатҳи офтоб нури, қор-ёмғир ва иссиқ-

совуқ натижасида куйиб униққан, дарз кетган, айримлари синиб кетган. Ушбу сатрлар муаллифи 1966-1974 йиллар давомида Сармишсой дарасида қидирув-тадқиқот ишларини олиб бориб, 5-6 км масофадаги қоялар сатҳидан 5000-5500 га яқин қоя тошларга уриб-ўйиб ишланган расм-тасвирларни топиб, уларни тадқиқ қилишга муваффақ бўлди.

Сармишсой қоя тошлари узоқ ўтмишда шу худуд ва унинг атрофларида яшаган аждодларимизнинг иқтидорли рассомлари-замонасининг Бекзодлари томонидан ишланган расм-тасвирлар ўзининг хилма-хиллиги, нафислиги, бой мазмуни, қадимийлиги ифода этилган манзараларнинг бойлиги билан уларни кўрган одамларни ҳайратда қолдиради. Дара қояларига ишланган расм-тасвирларни туркумларга ажратадиган бўлсак, улар ўқ-ёй, қилич, ханжар билан қуролланган одамларнинг, турлар-ёввойи буқа, сигир, бузоқ, “дарандалар султони”, “ҳайвонларнинг подшоҳи”-“арслонларнинг, мушуксимонлар оиласига мансуб йўлбарс, қоплон-барс, қир қоплонлари-гепард, дашт ҳайвонлари қулон-ёввойи эшак, сайгак жайрон” тоғ эчкиси, тоғ қўйлари архарларнинг асл ёввойи чўчқа-тўнғиз, мегажинларнинг, бўри, тулки, илон, чиябўри ва бошқа ҳайвонлардан иборат эканлигини кўришимиз мумкин.

Айни пайтда қояларга хонаки хайвонлардан ит, буқа, сигир, бузоқ, от, туя хонакилаштирилган қир қоплони ва бошқа ҳайвонларнинг тасвирлари ҳам битилган.

Қояларда яна қуёш рамзи, қопқон, бош кийимлардан чўққи учли дубулға ёки ўрта осиёлик қадимги қавмлардан бири саклар кийиб юрадиган тиграрахауда қалпоғи, оёқ ва бошқа енгил бошлар, тизимга, арқон от абзаллари, жанг қуролларидан ўқ-ёй, қилич, ханжар-калта дудама, найза, шунингдек, баъзи уй-рўзғор буюмларининг ҳам тасвир-расмлари кўзга ташланади.

Сармишсой қояларига битилган тасвир-расмларни жамлашимиз оқибатига қараганда у ерда 5000-5500 мингдан ортиқ расм-тасвир ва турли

белгилар мавжуд эканлиги аниқланди. Расм-тасвирларнинг тури 40 хилдан ортиқлиги маълум бўлди.

Сармишсой дарасидаги расм-тасвир ўзининг хима-хиллиги жиҳатидан Ўзбекистоннинг, Ўрта Осиёнинг ва дунёдаги барча қоя тош ёдгорликларидан устун туради, десак муболаға бўлмас. Бу ёдгорлик қояларида ифода этилган хилма-хил мавзу ва ўша давр кишилари ҳаёти билан боғлиқ манзаралари жиҳатидан ҳам ниҳоятда бой ва сермазмундир. Шу жиҳатдан Сармишсой қоя тош тасвирларини, жаҳон қоя тоши ёдгорликларининг "гул тожи" десак мубоғала бўлмас деган фикрдамиз.

Агар Сармишсой қоя тош суратларини Ўрта Осиёдаги Саймалитош, Талас воҳаси, Помирдаги Куртаксой, Боботоғдаги Биттик чашма, Араван, Зараутсой, Улуғтоғ, Тамғалитош, Марказий ва Шимолий Осиёдаги, Ленабўйи, Ангара, Катта ва Кичик Бояр, Мўғулистондаги, Тувадаги, Шарқий Европадаги Урал, Оқ денгиз, Онега кўли соҳиллари, Қозоғистондаги Қоратов, Озарбайжондаги Гобустап, Ғарбий Европадаги машҳур "Уч биродар" ғори, Африканинг Сахрои Кабирдаги қоя тош ёдгорликларидаги расм-тасвирларга қиёс қилинса, Сармишсой суратларининг тури ва ифода этилган мавзу-манзаралар жиҳатдан ниҳоятда бой эканлигига ишонч ҳосил қилиш мумкин.

Маълумки, кейинги 15-20 йил ичида академик Я.Ғ.Ғуломов номидаги "Археология" институти ташаббуси билан, мазкур институт олими М.Хўжаназаров Сармишсойда кенг кўламдаги тадқиқот ишларини олиб борди ва бормоқда. Бу ёдгорликни ўрганишга Чехия, Польша, Норвегия ва бошқа мамлакатларнинг қоя тош суратлари билан шуғулланувчи мутаххасис олимлари ҳам жалб этилди. Сармишсой дараси ва қояларга битилган расм-тасвирларни атрофлича ўрганишга киришилиб, ёдгорлик ҳақида ўзбек, чех, поляк, норвег ва бошқа тилларда, шунингдек, рус тилида монографиялар ва кўплаб мақолалар ёзилиб, нашр этилди. Шу муносабат билан Сармишсой дапрасидаги қадимий қоя тош суратларининг донғи дунёга машҳур бўлиб кетди ва ЮНЕСКО ташкилотининг нигоҳига тушиб, унинг эътиборини ўзига

жалб қилди. ЮНЕСКО-Бирлашган миллатларнинг маориф, фан ва маданият масалалари билан шуғулланувчи ташкилоти.

Шу муносабат билан ЮНЕСКОнинг Ўзбекистондаги ташкилоти, Ўзбекистон фанлар академияси Я.Ғ.Ғуломов номидаги Археология институти ва Ўрта Осиёни тадқиқ этиш марказий институтларнинг ташаббуси билан 2004 ва 2008 йилларда Сармишсой қоя тош ёдгорликларига бағишланган иккита йирик халқаро анжуман-конференция бўлиб ўтди. Мен бу икки халқаро конференцияда ҳам фаол иштирок этдим. Ҳар икки конференция мажлислари Навоий шаҳри ва Сармишсой дарасида бир неча кун давомида фаолият олиб борди.

Ҳар икки конференцияда жаҳондаги 30 дан ортиқ мамлакатларнинг қоя тош суратлари ва бошқа соҳалари билан шуғулланувчи олимлари, Ўзбекистондаги тегишли ташкилотларнинг вакиллари фаол иштирок этадилар.

Конференцияда Сармишсой дараси, қоя тош суратлари, хорижий мамлакатлардаги қоя тош суратлари ҳақида жуда кўп маърузалар тингланиб, Сармишсой суратлари мазмун ва мавзу жиҳатдан жаҳондаги қоя тош ёдгорликларининг энг нодир, энг бой, айни пайтда қадимий намунаси эканлиги конференцияда иштирок этган олимлар томонидан зўр мамнуният билан эътироф этилиб, алоҳида ёдгорлик ва қўриқхона сифатида ЮНЕСКО рўйхати ва мухофазасига олиниши зарурлиги таъкидланди.

Таъбир жоиз бўлса шуни айтиш мумкинки, дунёнинг ҳеч бир жойидаги қоя тош суратлари қошида Сармишсой ёдгорлигига бағишланганидек икки марта жаҳон миқёсидаги анжуман ўтказилмаган бўлса керак. Анжуманда иштирок этган ҳамда дарага бориб бу ноёб ёдгорликни ўз кўзлари билан кўрган олимлар ва мутахассислар уни юксак баҳоладилар ва жаҳоннинг ажойиб тасвирий санъати обидаси деб тан олдилар.

Сармишсой суратлари мазмуни-расмларнинг хиллари билан қанчалик бой бўлса, қояларда ўтмиш аждодларимизнинг кундалик ҳаётидан олиниб ифода этилган манзаралар ҳам шунчалар бой.

Чунончи, қояларда белига ханжар тақиб бошига дубулға кийиб олган икки кишининг-бир эркак ва аёлнинг рақс тушаётгани, тоғ эчкиси, архар бўри, буғиларга қарата камондан ўқ узаётган мерганнинг, отда кетаётган чавандознинг, олис йўлга отланган туя карвонларнинг, бир-бирлари билан уришаётган отларнинг, тур-ёввойи буқаларни яккама-якка тўқнашуви, қоплон, йўлбарс каби йиртқич ҳайвонларни овчилар иштирокида ов қилиш, тўнғиз ови, арслонларнинг қулон-ёввойи эшакларни шитоб билан қувиб бораётгани ифода этилган ажойиб манзаралар кишини ҳайратга солмай иложи йўқ.

Қоялар сатҳидаги расмларга диққат билан эътибор берилса, уларда ёввойи чўчқа-тўнғизларни овлаш, тулки, бўриларни қопқон ёрдамида тутиш; бўри, қоплон ва бошқа йиртқич ҳайвонларнинг тоғ эчкиси, тоғ қўйи-архар, буғи ва бошқа ҳайвонларга ҳамла қилиб, човут солаётган, шунингдек, ўтмиш аждодларимизнинг кундалик турмуш тарзи, диний эътиқоди билан боғлиқ манзараларни жуда кўп учратиш мумкин.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, қояларда арслон-шер, айниқса тур-ибтидоий буқа, ёввойи сигир ва бузоқларнинг тасвирлари билан боғлиқ ов манзаралари ҳам кўп учрайди. Қадимги қазилма ҳайвонлар тарихи билан шуғулланувчи палеозоолог олимларнинг фикрича турлар ва арслонлар мил.авв. I минг йилликнинг иккинчи ярмигача бўлган даврда Ўрта Осиёда яшаб, сўнгра улар бу жойда яшамаганлар. Баъзи маълумотларга қараганда улар маҳаллий чорвадорлар томонидан қириб юборилган ёки улар бу ердан жанубий минтақаларга кўчиб кетган бўлишлари мумкин.

Ёки бу икки ҳайвон тури номаълум сабабларга кўра-ўлат, қурғоқчилик ва қаттиқ совуқ каби табиий ҳодисалар оқибатида қирилиб кетган бўлишлари эҳтимолдан ҳоли эмас.

Камина Сармишсой дарасидаги суратларни ўрганиш билан қарийб 12-13 йил тадқиқот олиб бордим. Бу ёдгорлик бўйича бир неча мақола ва “Сармишсойнинг қоя тошларидаги расм” (1976) деган монография нашр этилди.

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, Қоратоғ хусусан Сармишсой қоя тошларига битилган расм-тасвирлар ўзининг ишланиш услуби, техникаси ва ифода этилган манзаралари жиҳатидан бир-биридан фарқ қилади.

Аввало шуни айтиш керакки, қоядаги расмлар қандайдир қаттиқ металл-жез ёки темир буюмлардан ясалган асбоблар билан уриб-чўкичлаб ишланган. Дара қояларидаги расм-тасвирларнинг ишланиш техникаси, мазмун-манзаралари, ишланиш техникаси услубий хусусиятлари, қиёсий ўрганилиши, сақланиш даражаси, шартли равишдаги “қатламли” ва бошқа мезонларига асосланиб учта тарихий даврга –бронза-жез, темир ва илк ўрта асрга мансуб деб хулоса чиқардик. Сармишсой суратларини биздан кейин тадқиқ қилаётган М.Хўжаназаров ва Сармишсой қоя тош ёдгорлигига бағишланган икки халқаро анжуманда қатнашган чет эллик мутахассис олимлари бизнинг даврлаштириш ҳақидаги фикримизга тўла қўшилганликларини билдирдилар. Айни пайтда улар Қоратоғ, хусусан, Сармишсой дарасидаги расмлар орасида янада қадимийроқ расмлар кашф этилиши мумкинлигини айтишди. Бу фикрни камина 25 март 1970 йилда “Совет Ўзбекистони” газетасининг №70 (14,536) сонида чоп этилган “Тоғдаги Музей” номли мақоламда баён этганман.

Шуни таъкидалаш керакки, қоя тош суратлари нима учун қандай мақсадларни кўзлаб ишланган деган масала юзасидан олимлар орасида якдиллик йўқ. Баъзи калтабин олимлар мазкур қоя тош суратлари оддий чўпон-чўликлар томонидан эрмак учун ишланган, уларнинг асосида ҳеч қандай маъно-мазмун ёки ғоя, эътиқод йўқ деган фикрни илгари суриб келадилар. Аммо олимларнинг катта гуруҳи эса беш қитъанинг ҳаммасида кенг тарқалган қоя тош ёдгорликлари анчики “эрмак” учун эмас, балки ибтидоий, қадимги ва ўрта асрларда яшаган одамларнинг кундалик хўжалик ҳаёти, турмуш тарзидан олинган лавҳалари ва диний эътиқоди билан чамбарчас боғлиқ эканлигини таъкидлайдилар.

Ибтидоий қадимги давр кишилари ўтмишда қуёшга, юлдузларга, ҳар турли буюмларга ва ҳайвонларга сиғиниб, уларни улуғлаб келганлар ҳамда

улардан баъзиларини ўзларининг аждодлари деб билишган. У ёки бу буюм ва ҳайвонларнинг тасвирларини қояларга, ҳар турли идишларнинг сиртига чизиб, ёғоч, тош, лой ва бошқа нарсалардан уларнинг ҳайкалларини ишлаганлар. Тасвирлар ишланган, қоялар, ғор-унгурлар, даралар ўша давр кишилари учун муқаддас ҳисобланиб, мазкур жойда ҳар турли маросимлар ўтказаганлар.

Фикримизча, Қоратоғ ораларидаги қояли даралар ва Сармишсой дараси ҳам мазкур жойда яшаган қадимги овчи, термачи ва чорвадор қабилаларнинг муқаддас диний масканларидан бири бўлиб, бу ерда вақти-вақти билан турли маросим ва байрамлар ўтказилиб турилган. Маросим ва байрам вақтларида ўйин-кулги, рақс ва ов билан боғлиқ жанговар машқлар ўтказиб турганлар. Эҳтимол, қоядаги расмлар маскан эгалари бўлмиш қадимги сармишсойликлар орасидан етишиб чиққан ўша замоннинг “Беҳзодлари” томонидан ишланган бўлса ажаб эмас. Чунки расмларнинг аксарияти ўта нозик қилиб ишланганки, уларни чизиш, ишлаш ҳамманинг ҳам қўлидан келавермаган. Бу расмларни ишлаган рассом ўз касбининг моҳир устаси бўлган бўлса керак.

Бизнингча, Сармишсой дарасидаги қояларга ишланган кўп сонли суратлар фақатгина диний мақсадни кўзлаб ишланмаган бўлса керак.

Маълумки, Ўрта Осиё шу жумладан Ўзбекистон, Хусусан Қоратоғ, шунингдек, Сармишсойда яшаган қадимги қабилалар ва этник гуруҳлар овчилик, термачилик ва зироатчилик билан шуғулланганлар.

Қоратоғ ва унга туташ бўлган тоғ яйловлари ва даштларида тоғ эчкилари, асл буғу, архар, ёввойи чўчқа, бўри, тулки, жайрон, сайгак, хатто, арслон, йўлбарс, қоплон, йирик ёввойи ҳайвонлардан ҳозирги йирик шохли қорамолларнинг аждоди ҳисобланган турларни, ёввойи эшак-қулан каби ҳайвонларни овлаганлар. Маълумки, мил.авв. III-II минг йилликларда юқорида номлари зикр қилинган ҳайвонлар Ўрта Зарафшон, Қоратоғ оралари ва Қизил Қумда анча кенг тарқалган эди. Бу худуд йилқичилик, туячилик, йирик ва майда шохли ҳайвонлар-от, туя, буқа, сигир, қўй-эчки каби хонаки

ҳайвонларни боқиш ва парвариш қилиш учун ҳамма қулайликларга эга бўлган.

Бу ҳайвонлар мил.авв. III-I минг йилликларда мазкур худудда яшаган аҳолининг асосий озиқ-овқат манбаи бўлиб хизмат қилган десак хато бўлмаса керак. Зарафшон воҳаси, Қоратоғ оралари, даралари ва атрофларига тош асридан бошлаб то ўрта аср даврларига мансуб жуда кўп археологик ёдгорликлар кўп топилган. Археолог олимларимиз бу ёдгорликларни қазиб ўрганишлари натижасида уларнинг маданий қатламларидан тош қуроллар, ҳар турли ёввойи ва хонаки ҳайвонларнинг суяк қолдиқлари, одам устихонлари, қилич, ханжар қолдиқлари, сопол идишлар, металл буюмлар ва бошқа ашёвий нарсалар топилганки, уларнинг баъзилари Сармишсой дараси қояларидаги расм-тасвирлар билан билвосита ёки бевосита боғланиб кетади. Мазкур ёдгорликлардан топилган ашёвий далилларга асосланиб шуни айтиш мумкинки, бу худудда яшаган ибтидоий одамлар дастлаб термачилик, оввчилик ва дарё бўйларида балиқчилик қилиб кун кечирганлар. Кейинчалик эса улар овчиликдан чорвачиликка, термачиликдан эса зироатчиликка ўтиб ҳаёт кечирганлар.

Демак, Сармишсой қояларидаги қоя тошларда ибтидоий, қадимги давр кишиларининг овчилик, чорвачилик, маиший турмуш тарзи билан боғлиқ ҳаётий манзараларидан лавҳалар ўз ифодасини топган.

Сармишсой дарасидаги қоя тош суратлари ўзининг мазмуни, ифода этилган манзаралари, ишларини техникаси, услуби, сақланиш даражасига кўра бир эмас, турли тарихий даврларга бўлинади. Уларнинг энг қадимгиси мил.авв III минг йилликнинг охири ва II минг йилликка мансубдир. Бошқа қатлами эса қадимий давр деб аталмиш мил.авв I минг йилликда ишланган. Қояларда милоднинг I-IX асрлари ва ундан кейинги даврда ишланган расмлар ҳам учрайди.

Хулоса шуки, Сармишсой дарасидаги қоя тош суратлари қадим аждодларимизнинг машғулотлари, худуднинг ёввойи ва хонаки хайвонлари, уларнинг турлари, у давр кишиларининг кийим-кечаклари, қурол-аслаҳалари,

диний эътиқоди, дунёқараши, илк тасвирий санъати тарихини ўрганиш учун ноёб археологик ёдгорлик ва тарихий манба сифатида жуда катта аҳамиятга эгадир.

Шу боис, Сармишсой қоя тошларидаги бу ноёб расм-тасвирларни “Зангори осмон остидаги музей” дейиш мақсадга мувофиқдир. Тарихчи ва этнолог, географ ва зоолог, санъатшунос антрополог ва ҳатто юлдузшунослар ҳам бу “Зангори осмон остидаги музей”дан ўзларининг илмий тадқиқот ишлари учун кўп нарса олишлари мумкин, олмоқдалар.

Salimov Tursun Usarovich
tarix fanlari nomzodi, professor

NUROTA VOHASI TARIXIDAN LAVHALAR

Annotasiya: Mazkur maqolada Nurota vohasining asosiy aholi guruhlaridan bo‘lgan o‘g‘uz turkman qabilalari, ularning asrlar davomida assimiliatsiyaga uchrab o‘zbek turkmanlarga aylangani hamda boshqa etnoslar haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Nurota, etnik tarix, tarixshunoslik, etnografiya, etnik tarkib, urug‘-qabila, o‘g‘uz, o’g‘uz-turkman, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi, savdo-sotiq, turmush tarzi.

Voha aholisi qadimdan Nurota tog‘lariga shimoldan tutashgan Qizilqumda yashagan ko‘chmanchi qozoqlar va qoraqalpoq urug‘lari bilan iqtisodiy aloqada bo‘lganlar.

Nurota etnografiyasini nomzolik dissertatsiyasi mavzusi sifatida tadqiq etgan yosh elshunos olim A.R.Tog‘aev aholini vohada yashagan davri va turmush tarziga qarab quyidagi qatlamlarga bo‘ladi:

- O‘troq turmush tarzi olib borgan ilk aholi vakillari o‘zbek va tojiklar, turkiy tili: sayid, eshon, xo‘jalar guruhlari.

- O‘rta asrlar (X asrdan) boshlab Nurota tog‘ vohalarida bosqichma-bosqich ko‘chib kelib joylashgan o‘g‘uz qabilalariga mansub turkmanlar. Ularning

xo‘jaligi yarim o‘troq chorvachilikdan asta-sekin dehqonchilik – chorvachilikka aylana borgan.

- Nurota vohasiga XVI asrdan kela boshlagan o‘zbek qabila urug‘lari: mang‘itlar, natsmanlar, jaloirlar, mirishkorlar, yuzlar va boshqalarni tashkil qilgan. Bu aholi ham uzoq davr yarim o‘troq chorvachilik xo‘jaligini yuritgan.[1, p.12]

“Avesto” ning “Yasht” kitobida tilga olingan “Gava makoni” –So‘g‘d, So‘g‘diyonaning eng qadimgi viloyati bo‘lishi mumkin. davlat uyushmalarining vujudga kelishi tezlashuviga ichki ijtimoiy sabablardan tashqari, cho‘l ko‘chmanchilari hujumlari, janubi-g‘arbdan Midiyaning bosqinchilik siyosati ham turtki bergan. [2, p.16]

Mazkur davrda Nurota vohasi So‘g‘dga qarashli bo‘lib, uning o‘troq aholisi soy suvlari va buloqlardan foydalanib, sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. O‘troq dehqonchilik bilan mashg‘ul aholi qo‘shimcha uy chorvachiligi bilan ham shug‘ullangan. Erta bahordan to kech kuzgacha qishloqqa yaqin tog‘ yonbag‘irlari va tog‘lardagi yaylovlarda qo‘y-echki, qoramol, yilqi boqilgan.

Nurotaga chagaradosh Qizilqumda tuyalar boqilgan. Nurota tog‘oldi va daralaridagi qishloqlarda kulolchilik, temirchilik, to‘qimachilik boshqa hunarmandchilik tarmoqlari rivoj topgan.

Nurotaning yer osti boyligi bo‘lmish olitini antik davrdayoq qo‘shni mamlakatlar, xususan, xitoyliklarni o‘ziga jalb qilgan. Tarixchi Gerodotning yozishicha,[3, p.36] o‘lkamizda yashagan sak-massagetlar o‘z jang qurollarini temirdan yasab, mis va oltin bilan bezaganlar. Aholi shuningdek, kulolchilik, zargarlik, to‘qimachilik, quruvchilik kasb-korlarini rivojlantirgan. Qoratog‘, mang‘ishloq, Nurota, Qizilqum, Zarafshon, So‘g‘d, Chotqol, Farg‘onada oltin qazib olish, undan turli zeb-ziynatlar ishlab chiqarish ahomoniylar (m.av. VI asr) kelmasdan avval ham ma'lum edi. Azamat Ziyoevning “Qoraxoniylar” maqolasida “Nurota tog‘larida oltin, mis, qo‘rg‘oshin, simob, marmar konlari ishlab turgani aniq” – deb yozilgan. [4, p.2]

M.av. VI asrda Eron ahomoniylari hukmronligiga qarshi ozodlik va erki uchun bosh koʻtargan elatlar orasida nurotaliklarning ham ajdodlari soʻgʻdiylar ham ishtirok etgani aniq. Bu borada saklar choʻponi Shiroq haqidagi rivoyat alohida oʻrin tutadi. Yunon tarixchisi Polien (m.av.II asr) saklar rivoyatini oʻzining "Harbiy hiylalar" deb nomlangan asarida keltirgan. Shiroqning sak qavmlari Qizilqumning Nurota togʻlariga chegaradosh hududlarida soʻgʻdiylar bilan qoʻshni yashaganlar. Forslar qoʻshinining bir qismini suvsiz choʻlga boshlagan Shiroq Doro I ning sarkardasi Ranosbat tomonidan chopib tashlangan. Lekin, Shiroq uchun bu oʻlim magʻlubiyat boʻlmagan, sababi uning ortida ona Vatan, elu-yurti taqdiri turgan. Shiroq oʻzi halok boʻlsada, yurtdoshlarini, xususan Nurotadagi soʻgʻdiylarni oʻz vatanini katta ofatdan saqlab qoladi. Eron ahomoniylari yurtimizda 200 yildan ortiqroq hukmronlik qilgan. [5, pp.64, 65]

Oʻlkamizda m.av. 329-327 yillari istilolar olib borgan makedoniyalik Iskandar nomi bilan Nurotada koʻplab rivoyatlar, afsonalar mavjud. Zulqarnayn qishlogʻida uning ramziy qabri boʻlsa, Nurotada jahongirni shaharga asos solgani, vohada 360 ta koriz qazdirgani haqida rivoyatlar koʻp asrlardan buyon avval xalqda ogʻizdan-ogʻizga, hozir esa bir asardan ikkinchisiga oʻtib kelmoqda. Umuman olganda, buning ajablanarli joyi yoʻq, sababi xalq orzusida barcha ezgu niyatlar, orzular buyuk shaxslar nomi bilan bogʻlanadi. Iskandarning vafotidan koʻp oʻtmay tarkibida Nurota boʻlgan Soʻgʻd Salavkiylar, soʻng Yunon-Baqtriya davlatlari tarkibiga kirgan.

Yunon tarixchilari Salavka I va Antiox davrida Oʻrta Osiyoda 75 ta shaharning qurilganini yozishadi. Ushbu davrda oʻlkada iqtisodiyot, madaniyat yuksalgan. XX asrning 70-80 yillarida Nurota, Oqtogʻ, Qoratogʻ va ular orasidagi vohalarda olib borilgan arxeologik-etnografik qidiruv ishlari natijasida hududning koʻp joylarida qadimgi istehkomlar, qal'alar va katta-kichik shaharalarning xarobalari qayd etilgan. 2013 yil aprel va iyun oylarida safarimiz vaqtida (prof.R.Sulaymonov, dots. A.Kabirov, T.Salimov) tuman hududini kuzatar ekanmiz, biz Soʻgʻdiyonaning iqtisodiy markazlaridan boʻlgan bu hududdagi Nur qal'asi, Gʻazgʻontepa, Dehibaland qoʻrgʻoni, Pashshot qoʻrgʻoni, Boʻshang qal'a

arxeologik yodgorliklarini o‘rganish zarurligiga yana bir bor ishonch hosil qildik. [6]

Nur qal'asi, Nurota shahar o‘lkashunoslik muzeyi, Oqtepa, Pashshot qo‘rg‘onlaridan topilgan sopol buyumlar orasida antik davrga m.av. III- milodiy IV asrlarga oid sopol idishlar parchalari borligi ma'lum bo‘ldi. Bu qo‘rg‘on va qal'alar shimoliy So‘g‘d, qolaversa, Nurota vohasini va uning atrofidagi yerlarni dushmanlar hujumidan himoya qilish maqsadida bunyod etganligi shubhasiz. Yunon-Baqtriya davlati (m.av. 250-130 yy) hukmronligi so‘nggida shimoli-sharqdan yueji qabilalari hujumlari boshlanadi. Iskandar Esxatasi va Iskandar Marg‘iyonasi kabi shaharlar vayron qilinadi. Bu hujumlardan So‘g‘dning shimolidagi Nurota hm chetda qolmagan bo‘lgani ehtimol. [7, pp.160, 166]

M.av. III-II asrlarda So‘g‘diyonada tasviriy san'at, me'morchilik, zargarlik va amaliy san'atning boshqa turlari yuksak darajada rivoj topgan. Bu borada Nurota Oqtog‘, Qoratog‘ oralaridan oqib o‘tuvchi soylarning qoyatoshlariga ishlangan turli mazmun, manzaraga oid qoyatosh suratlari diqqatga sazovordir.

Nurota va unga tutash joylarda so‘g‘diylarning diniy e'tiqodiga kelsak, ularnig ajdodlari dastlab tabiat kuchlariga, baland qoyalarga, azim daraxtlarga, buloqlarga, keyinchalik esa zardushtiylik (otashparastlik) diniga sig‘inganlar. Tabiiy Nurota so‘g‘diylarining nazdida buloqlarga, suvga, yerga, quyoshga e'tiqod alohida e'tiborga loyiq.

Biz 2013-yil aprel oida Nurota tumanidagi Zulqarnayn qishlog‘ida ham bo‘ldik. Qishloqning bir chekkasida devori marmartoshdan tiklangan xona uning ichida 2 ta mozor qabr, ularning uzunligi 10 metrdan kam emas. Qabrning ustiga oq mato tortilgan. Axborotchilarning aytishicha, qabrning biri Zulqarnaynniki, ikkinchisi, uning onasiniki ekan. Fikrimizcha, bu ramziy qabr xolos. [6]

Aleksandr Sirdaryo bo‘yida turganida Maroqandani Spitamen boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar egallagan. Politimet (Zarafshon) daryosi bo‘yida so‘g‘diylar pistirma qo‘yib, jahongirning 2000 askarini qirib yuboradi. Iskandar asosiy qo‘shin bilan qaytib Spitamen boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilarni cho‘lga qadar ta'qib etib boradi. Fikrimizcha, Iskandar shu yurishi davomida hozirgi

Zulqarnayn toshlar bilan o‘ralgan kichik vodiyda to‘xtab dam olib, so‘ng ortiga qaytgan. Aholi esa qishloqni uning nomi atagan bo‘lishi ehtimol. [9, p.156]

Umuman olganda, antik davrda O‘rta Osiyo xalqlari shu jumladan, tarkbida Nurota bo‘lgan So‘g‘diyonada yunon-ellin moddiy va ma'naviy madaniyatining o‘lkamizga ijobiy ta'siri davri bo‘lgan.

Mazkur davrda Shimoliy So‘g‘dda, xususan, Nurotaning o‘sha zamondagi katta-kichik qishloqlarida ichki va tashqi savdo rivoj topgan.

Ipak yo‘li karvon savdosida So‘g‘d savdogarlari, xususan, Nurota so‘g‘dlaridan chiqqan savdogarlar, karvonboshilar, qo‘riqchilar ham ko‘p bo‘lgan. Shuni ta'kidlash joizki, “Buyuk Ipak yщli” Shimoliy So‘g‘dga kirib kelgach, Samarqad, Ishtixon, Ko‘rsaraf, Qo‘shrabot orqali Nurota vohasidagi qishloqlarni oralab o‘tgan. Ipak yo‘li Shimoliy So‘g‘d, shuningdek, Nurota so‘g‘diylarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va savdo sohasidagi hayotida katta o‘rin tutgan. So‘g‘diyona xalqi bu yo‘l tufayli Sharq va G‘arb dunyosi hamda ularning xo‘jalik yutuqlari, ixtirolaridan keng foydalangan.[10, s.27]

Xitoyning Dunxuan shahrida III-IV asrlarda so‘g‘diylarning ming xo‘jaligi yashagan. Kushonlar davrida “Buyuk ipak yo‘li”da karvonlar harakati faollashib, so‘g‘dlik, nurotalik karvonboshi va savdogarlar tog‘ dovonlari, qum barxanlari, Farg‘ona vodiysi, yettisuv, Ili daryosi daralaridan o‘tib, Sharqiy Turkiston orqali Xitoy va Janubiy Sibirga (Markaziy Osiyoga) kirib borganlar. G‘arbdan Sharq tomon yo‘lga chiqqan nurotalik so‘g‘diy karvonboshi va savdogarlar ona vatanlariga intilib So‘g‘d markazi Marokandaga kirib kelganlar. Marokanda, Ishtixon, Mitan, Oqtepa, Ko‘rsafar va Qo‘shrabot yo‘llari ularni Nurota va uning atrofidagi katta qishloqlarda katta bozorlar bo‘lib, u yerda mahalliy aholi va Qizilqumni ichkarisidan kelgan xaridorlar bilan savdo-sotiq qilganlar, mol ayriboshlaganlar[11, s. 170].

Shu tariqa O‘rta Osiyo, O‘zbekiston, So‘g‘diyona va Nurota aholisining antik davri yakun topib, jamiyat tarixining navbatdagi bosqichi o‘rta asrlarga o‘tadi.

Eftaliylar bilan bog‘liq etnonimlar vohada hozirga qadar mavjud. Forish tumaniga kiradigan Qorabdal qishlog‘ining nomi ikkinchi qismi Abdalhaftal “xaytal”, “abtal” ko‘rinishida Kichik Osiyoning Anadoli viloyatigacha bo‘lgan hududlarda uchraydi. Arxeologik tadqiqotlar va yozma manyualarda eftal qabilalarini o‘lkamizda o‘troqlashuvi V-VI asrlarda kuchaygan. Vizantiya imperatori Yustin II (568-569 yillari) So‘g‘d elchisi Maniaxdan eftallar haqida so‘raganida elchi ularni o‘troq yashaydigan qabilalar tarzida javob beradi[12, pp. 137, 138, 139].

Qadimda shahristonga bitta darvoza orqali kirilgan. U “Darvozayi qo‘rg‘on” deb nomlangan. Undan chiqqan yo‘l shimol mudofaa devori bo‘lgan Pirostaning o‘rtasiga yo‘naltirilgan. Pirosta devori haqida arxeolog, sharqshunos, tarixchi olim H.M.Muhamedov o‘zining "Qadimgi mudofaa devorlari" (1961-1973) asarida quyidagicha axborot beradi. “Pirosta devori m.av.III asrlardan to milodning X asrlariga qadar mavjud bo‘lib, unnig uzunligi 20-21 km.ni tashkil qilgan.”Akademik Ya.G‘ulomov “O‘rta Osiyo etnologiyasi va arxeologiyasi” asaridagi “Buxoro Nuri” maqolasida[13, s.135] qadimgi Pirosta devorini qariyib to‘rtburchak shaklida bo‘lganligi, hamda shahar aholisi esa har qanday vaziyatda o‘zini himoya qilganini yozadilar. Arxeolog O.M.Rostovsev 1974 yili olib borgan arxeologik tadqiqotlaridan so‘ng Pirosta mudofaa devori reja chizmasini yaratadi. Nurotalik R.Ahmedov Nur qal'asi va shahrining “Darvozayi Pirosta”, “Darvozayi Rabot” va “Darvozayi Shodi” nomli darvozalari bo‘lganini ta'kidlaydi. Vengriyalik sayyoh A.Vamberi “Buxoro yoki Movaraunnahr tarixi” asarida “Nur qal'asining darvozalari ochildi” deb shahar darvozalarini bir nechta ekanligini yozgan edi.[14, p.22]

Arxeolog olim A.Kabirov 1966-1978 yillari tog‘ oralaridagi Ko‘ksaroy, Bironsoy, Qoracharvoqsoy, Katta Ej, ayniqsa Sarmishsoy darasidan qoyatoshlarning silliq sirtiga urib-o‘yib, chizib, ishqalab ishlangan minglab qoyatosh suratlarini topib o‘rganganlar[15, s.50]. Qoyalar sathida odam, turli xil qurol –aslaha, xilma-xil yovvoyi hayvonlar suratlari chizilgan. Qoyalarda xonaki qo‘y-qo‘zi, echki-uloq, eshak, safga tizilgan tuyalar karvonlari, otga mingan

chavandoz va turli zamonlarda ishlangan boshqa hayvonlarning tasviri koʻzga tashlanadi. Bu rasmlarning bir qismi xioniy, kidariy va eftaliylar davrida ishlangan.

Eftaliylar davrida diniy e'tiqodning turli shakllari boʻlgan. Arxeologik va yozma manbalarga koʻra Soʻgʻdda xususan uning tarkibida boʻlgan Nurota vohasida zardoʻshtiylik keng tarqalgan edi. Aholining tili xususida soʻz borsa, chorvadorlar turkiychada soʻzlashgan va u tobora keng tarqala borgan. Ammo Soʻgʻd va Nurotaning oʻtroq aholisi soʻgʻd tilida soʻzlashar edilar. Soʻgʻd tili xalqaro til sifatida yettisuv, Fargʻonadan oʻtib, Sharqiy Turkistongacha kirib borgan.

Turklar eftaliylarni 563-567 yillari tor-mor etib oʻlkani Turk hoqonligiga qoʻshib olishsada, oʻzlari yettisuvda qolib mahalliy voha hokimliklari boshqaruvi saqlanib qoladi. Ulardan eng yirigi Soʻgʻdiyona boʻlib, unnig hokimi – ixshid unvonida boʻlgan.

Professor R.H.Sulaymonov va dotsent A.Kabirovlarning 2013 yil 15-16-iyundagi safari chogʻida Avazsoydagi Oqtepa qishlogʻida maktab oʻqituvchilari T.Ergashev va N.Ergashevlar topgan xumning tepa qismida Soʻgʻd hokimi Varxumaning davlat tamgʻasi chizilganligi aniqlandi. Ushbu noyob topilma Nurota togʻlari va uning atroflari Shimoliy Soʻgʻdga qarashli boʻlganini tasdiqlovchi daliliy ashyodir. Shimoliy Soʻgʻd va uning betakror goʻshasi Nurota atroflarida aholi zich va gavjum yashagan. Buni Nurota tumani boʻylab Sintobgacha boʻlgan yerlarda topilgan osoru-atiqalarning moʻlligi ham tasdiqlaydi.[17]

Mahalliy aholidan yozib olingan rivoyatlarga koʻra, Sintobsoyning yuqorisidagi Fozilmon koʻlida mashhur “Suv aygʻirlari” yashagan ekan[20].

Bu albatta rivoyat, lekin buning zamirida tarixiy haqiqat mavjudligi shubhasiz. Nurotaning Oqtogʻ, Qoratogʻ yaylovlarida oʻta qadim zamonlardan boshlab yilqichilik yuksak darajada rivoj topgan. Ushbu joylardagi qoyatoshlariga ishlangan otlar, qulunlar va ot mingan chavandozlarning tasvir rasmlari orasida m.av. I ming yillikdan milodiy VII asrga mansublari ham uchraydi.

Gʻazgʻon qoʻrgʻoni haqidagi “Gʻazgʻonnoma” asarida mahalliy iqtidorli ijodkor muallim R.Asatov quyidagilarni yozadi: “Mashhur oʻzbek tarixchi olimi

Ya.G‘ulomov o‘z asarlarining birida Nur atrofidagi tuproq qo‘rg‘onlar haqida yozar ekan, ularni "himoya qo‘rg‘onlari”[13, s.134] deb atagan.

Bobokalonlarimizning aytishicha, - de yozadi R.Asatov[19, p.42] – bu qo‘rg‘onlar dushman bosqinidan xalqni ogohlantirish uchun qurilgan. Bo‘shangga bostirib kelayotgan dushmandan xalqni ogohlantirish uchun qo‘rg‘on tepasiga to‘plangan o‘tin, shox-shabbalar, gulxan qilib yoqilgan. Buni ko‘rgan xalq dushmandan yashirinish chorasini ko‘rgan.

Pashshot qo‘rg‘oni Nurotadagi qadimgi arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi. U qal'a, shahriston va devor bilan o‘rab olingan rabotdan iborat bo‘lgan. Mahalliy kolxoz raisi Mansur Jumaev qo‘rg‘on atrofidan 1994 yil qimmatbaho ko‘zli uzuk topib olgan. Rais bu yerda xazina borligini taxmin qilib kolxozchilar bilan qazish ishlarini olib borgan. Qo‘rg‘on yo‘lidagi ariqda sopol quvurlar borligi, ular bir-biriga kirgizilib shimol tomonga yo‘nalgani aniqlangan. Sopol quvurlarni brigadir Qahramon Ramazonov ham kovlab olgan.

Bu yerdagi buloq suvi ancha katta ariq bo‘lib, hovuz band tarzida suv to‘planib ekinlarga yo‘llangan. Qadimdan Korizga va Sumbulbuloqning suvi chorva otarlariga quvurlar orqali yuborilgan. Bir vaqtlar bu suvlar bilan g‘azg‘onlik ziroatkorlarning qovun-tarvuz va sabzavot paykallari qadimdan sug‘orib kelingan. Aholi qovun – tarvuz, sabzavot bilan ta'minlangan.

Biz 2013-yilning aprel va iyun oylaridagi safarimizda Pashshotda, G‘azg‘ontepada, Dehbalandda, Nur qal'asi va qo‘rg‘onida bo‘lganimizda bu yodgorliklardan tariximizning turli davrlariga, hatto Pashshot bulog‘i ostidan qadimgi paleolit davriga oid qurol chaqmoqtosh parchalari m.av. III-I, milodiy I-IV va undan keyingi davrlarga mansub turli tuman sopol parchalari, jezdan buyum hamda butun saqlangan hum va ko‘zalar topdik. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, Nurota va uning atroflarida odamlar tosh asridan 120-100 ming yillardan buyon yashab kelganlar[6].

Ma'lumki milodiy VIII asrning boshida Arab xalifaligi So‘g‘dni ham istilo qilgan. Ayni paytda So‘g‘d va Nurota vohasi aholisi m.av. III-II asrlarda shakllangan So‘g‘d yozuvidan foydalangan. Arab geografi Maqdisiyning

ma'lumotlariga koʻra X asr oxirlarida ham Buxoro atroflaridagi qishloqlarda soʻgʻd tili saqlanib qolgan. Bundan xulosa qilib, Soʻgʻd aholisi turkiy va soʻgʻd tillarida soʻzlashganlarini faraz qilish mumkin[20, s.272].

Professor G.A.Hidoyatov Hindistonda ilmiy safarlari chogʻida hind hamkasblarining taklifi bilan tunda zardushtiylar mayiti olib borib qoʻyiladigan atrofi devor bilan oʻralgan tepalikka borganlarini soʻzlab berganlar. Murda qoʻyilishi bilan tepalik atrofidagi daraxtlardan koʻtarilgan oq rangli quzgʻunlar unga tashlanadi. Uzoq oʻtmishda oʻzimizda boʻlgani kabi suyaklar oftobda qurib sargʻaygach ularni maxsus xodimlar toʻplab sopoldan-ostadonlarga (tobutchalarga) solib, maxsus xilxonalar (nous)larga kiritilib supa ustiga terib qoʻyilgan. Hindistondagi porsiyon-zardushtiylar arablar istilosi paytida oʻz dinlarini saqlab qolish uchun Erondan Hindistonga koʻchi ketganlar va hozirga qadar otashparastlikni saqlab qolishgan. Avestoning bizgacha yetib kelgan qismlarini aynan Hindiston zardushtiylari saqlab qolishgan.

Xalifalik istilosidan keyin Movaraunnahr aholisini yangi din, til va ma'naviy qadriyatlarni qabul qilishi oson kechmagan. Aholining oldingi dinlari, yozuvlari, udum va marosimlari ta'qiqlangan. Islomni qabul qilmaganlardan “jiz'ya” soligʻi undiriladi. Masjidga borganlarga 2 dirhamdan hayoriya ham tarqatadilar. Bu haqda Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida ham ma'lumotlar berilgan. Xalq qoʻzgʻolonlari butun Movaraunnahrni va ayniqsa Soʻgʻdiyona viloyatini qamrab oladi. Halifalik hukmronligi davrida oʻlka eng isyonkor hududlardan biri boʻlib qoladi[21, s.53].

Oʻlkada Somoniylar hokimiyati oʻrnatilganidan keyin IX-X asrlardan xalq xoʻjaligining barcha jabhalarida rivojlanish, yuksalish kuzatiladi. Shimoliy Soʻgʻd va uning tarkibiy qismi boʻlgan Nurota vohasida yangi toʻgʻonlar, suv omborlari qurilib, yangi yerlar oʻzlashtiriladi[22, p.107].

Oʻgʻuzlar Oʻrta Osiyo va Janubiy Qozogʻistondagi qadimiy turkiy qabilalardan biri. Ularning ilk makonlari Moʻgʻilistonning shimoliy-sharqidagi hudud boʻlgan. Taniqli elshunos olim Qozoqboy Maxmudovning fikricha, saljuqiylar Oʻgʻuz qabilasining qiniq urugʻiga mansub boʻlgan.

Arab geografi Ibn Xavqalning (X asr) bergan ma'lumotlariga qaraganda, islom dinini qabul qilgan mingga yaqin turk oilasi sharqdan Farob, Kenjit va Shosh orasidagi hududda, ya'ni hozirgi Chimkentning janubi-g‘arbiga ko‘chib kelganlar. O‘g‘uz – o‘g‘ – qabila – urug‘ ma'nosini anglatgan, “o‘z” esa qo‘shimchadir.

O‘g‘uzlar ittifoqi IX asrning oxiri – X asr boshlarida Orol va Kaspiy dengizlari bo‘ylarida shakllanadi. Sirdaryo etaklarida poytaxti Yangikent bo‘lgan, O‘g‘uzlar davlati X asrda tashkil topadi. Ammo ko‘p o‘tmay ular qipchoqlar tomonidan tor-mor etilib, bir qismi g‘arbga Rus dashtlariga borib joylashadi. O‘g‘uzlarning boshqa qismi saljuqiylar boshchiligida hozirgi Turkmaniston, Orol dengizining shimolida joylashib qoladilar. Yozma manbalarda qayd etilishicha, o‘g‘uzlarning islom dinini qabul qilganlari, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan qismi turkmanlar deb atalgan. Maxmud Qoshg‘ariy (XI asr), Ibn al Asir (XI asr), Rashididdin (XIII-XIV asrlar), Abulg‘ozixon (XVII asr)larning xabar berishicha, o‘g‘uzlar 22 yoki 24 qabiladan iborat bo‘lgan. Ular chovdir, chandir, emreli, igdir, yazir, samir, qoradoshli, bayot, koyi, tuturga va boshqalar.

Sirdaryoning quyi oqimi, Orol dengizining shimolida barpo bo‘lgan O‘g‘uz davlatining yabg‘usi Saljuqbek Saljuqiylar sulolasining asoschisi bo‘lgan. Ibn al Asirning yozishicha, u uzoq umr ko‘rib, 107 yoshida dunyodan ko‘z yumadi[23, s.52, 76].

Saljuqbek dastlab Yangikent yabg‘ulari xizmatiga kirgan. Lekin ular bilan murosa qila olmay Sirdaryoning quyi chap sohilidagi Jand hokimi bilan yaqinlashadi. Jand hokimi Shohmalik bilan ham kelisha olmagach, Nurota tog‘lariga ko‘chgan. Somoniy hukmdorlari o‘g‘uzlarga Nurota dasht yaylovlarida yashashga izn beradi. Nurota o‘g‘uzlarining bir qismi qolib, qolganlari Amudaryodan o‘tib, hozirgi Turkmaniston hududiga borib joylashadilar.Zarafshon vodiysida va Nurota tog‘ etaklarida o‘g‘uz saljuqlar yashagan. Ularning ilk guruhlari VIII-IX asrlarda shu hududlarga kelib o‘rnashganlar. X asr davomida ularning soni bir muncha ko‘paygan. O‘g‘uz saljuqiylarning katta qismi XI asrning birinchi choragida Xurosonga ko‘chgan bo‘lsada, ularning bir qismi Nurota tog‘oldi rayonlarida qolib o‘zbek qabilalari bilan ralashib ketgan. [24, p. 95]

Somoniylar davlati 999 yili tugatilgach, Nurota Qoraxoniylar tasarrufiga o‘tadi. Xurosonga borib joylashgan o‘g‘uzlar 1038-yili Ma'sud G‘aznaviyga qarshi kurash boshlab, Saljuqiylar davlatini tuzadi. Bu davlatning dastlabki poytaxti Erondagi Ray shahri bo‘lgan. Saljuqiylar sultoni Sulton Sanjar Qoraxoniylarni yengib, o‘ziga qaram davlatga aylantiradi. Lekin, 1137, 1141-yillari o‘lkaga shimoliy-sharqdan bostirib kirgan Qoraxitoylarning Qatvon jangida qoraxoniylar va saljuqiylarning birlashgan qo‘shinini mag‘lub etishi, so‘ng Xorazmshohlar davlatining yuksalishi saljuqiylarni Kichik Osiyoga chekinishga majbur etadi.

H.Vamberining “Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi” asarida: “Chingizxon o‘g‘li To‘lixon bilan tirga .... O‘trordan Buxoroga borishda biz faqat uning birinchi to‘xtagan joyi Sartoq (Zarnuq) shahri ekanini bilamiz. Bu shahar Buxoroning shimolida joylashgan. Bu shaharni jangsiz oladilar. Mo‘g‘ullar Sartoqqa (Zarnuqqa) “Qutlug‘ baxt” (Baxt shahri) deb nom berishgan. Buxoro elatida Chingizxon zabt etgan ikkinchi shahar Nur bo‘lgan”.[25, pp.21,22]

So‘ngra mo‘g‘ullar shaharga kirdilar uylarini taladilar, faqat odamlarni o‘ldirmadilar, xalos. Aholi nomidan Chingizxonning oldiga borgan muzokarachilar iltifot bilan qabul qilindi. “Hozirgacha qancha soliq to‘ladinglar?” – degan savolga, ular 1500 dinor deb javob berishgan. Shundan keyin bu miqdor pulni qo‘shinning mahkamasiga berishni amr etib, hay'atni xushxollik bilan qaytarib yubordi.

Chingiz Nurdan Buxoroga ketdi. Hijriy 617 (1220) sana mukarram oyining boshida u o‘zining qarorgohini Buxoro devorlari yoniga tikdi.[25, pp.21,22]

Mo‘g‘ullarning deyarli bir yarim asr davom etgan hukmronligiga buyuk bobokalonimiz Amir Temur 1370-yili chek qo‘yadi.[16, p.430]

Amir Temur safarlari vaqtida bir hafta Raboti Malik saroyida yashar ekan. Ushbu payt davomida atrofdagi muqaddas joylarni ziyorat qilgan. Manbalarda yozilishicha, bobokalonimiz Nur chashmasi suvidan ichib, alloma Hasan Nuriy qabrini ziyorat qilgan.

Tarix fanlari doktori Ubaydulla Uvatov Karmanada bo‘lganida Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sidan bir rivoyat keltiradi. Rivoyatga ko‘ra, Amir Temur Nurota va Karmana atroflarida bir otini yo‘qotganligi, askarlari otni olti oy

qidirgani, bu joylar o‘rmonzor va to‘qayzor bo‘lganini maroq bilan so‘zlab bergan edi.[26, pp. 109, 168, 229, 271, 282, 375]

Sharofiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylar “Zafarnoma”larida shahodat berishlaricha, Muhammad Jahongir Mirzo Karmana atroflarida jangu-jadallarda otasidan o‘rgangan harbiy mahorat sirlarini ishlatib, mardlik va jasorat namunalarini ko‘rsatib, 20 minglik dushmanni yer tishlatdi.[26, pp. 11, 128, 143]

Amir Temurning sevimli nabiralaridan Mirzo Ulug‘bek ham Karmanada, Raboti Malikda, Nurota, Dabusiya qal'asida bo‘lgan. Ba'zi minatyuralarda Ulug‘bekni Zarafshon daryosi bo‘ylari, Sarmish, Nurota, Oqtog‘ va Qoratog‘ tizmalari orasida ov qilgani haqida ma'lumotlar bor.

Akademik B.Ahmedov “O‘zbek ulusi” asarida quyidagilarni yozadi: “Sharqshunos akademik V.V.Bartold Buxoro yaqinida Nur qishlog‘ida yashagan amir Nursaidbek 1460 yili Samarqand va Buxoro atroflarida xuruj qilib turganligini ta'kidlaydi. Sulton Abusaidning ishni tinch yo‘l bilan hal qilishga intilishi befoyda bo‘ladi.”[27, p.13]

Nursaidbek Shohmalikning o‘g‘li “Shayboniynoma” asarining muallifi Muhammad Solihning otasidir. Shohmalikning avlodi Shohruh Mirzo davrida katta mansablarda bo‘lgan. Masalan, Shohruh Mirzo o‘g‘li Ulug‘bekni Samarqandga hokim etib tayinlanganda (1409-yil noyabr) unga otaliqlikka o‘z ayonlaridan Shohmalikni tayinlaydi. Ana shu paytda Ulug‘bek va Shohmalik Nursaidbekni Nurotaga bek qilib tayinlaganlar[28, p. 111].

Nursaidbek avval Ulug‘bekka so‘ngra Sulton Abusaidga (1415-1469), keyinchalik esa Muhammad Jo‘qiyga xizmat qiladi. Bunga sabab shuki, Shohmalik avvallari tayinlangan vazifasini sidqidildan bajarardi. Lekin keyinchalik Ulug‘bekni mensimay boshlaydi va davlat ishini u bilan maslahatlashmay o‘zboshimchalik boshqaradi. Buni sezgan Ulug‘bek Shohmalik ustidan otasi Shohruh Mirzoga arz qiladi. Shundan keyin Shohruh Shohmalikni Hirotga chaqirib olib, unga yangi lavozim beradi. Shu sababli bo‘lsa kerak, Nursaidbek Xuroson hokimi Sulton Abusaid tomoniga o‘tib ketadi. Abusaid uni Xorazm hokimi etib (1466-1468) tayinlagan. U avval Sulton Abusaidga chin dildan xizmat qiladi.

Masalan, Abusaid yuborgan Ali Forisa barlos, Hasan shayx Temur va Said Mazidlar bilan birga Nursaidbek Sulton Husaynni Astroboddan surib chiqaradi. Keyinchalik esa Nursaidbek Abusaiddan ham yuz o‘girib, Ulug‘bekning nabirasi (Abdullatifning o‘g‘li) Muhammad Jo‘qiyga qo‘shiladi. [2, p. 14, 15]

B.Ahmedovning “Mirzo Ulug‘bek” asarida 1463 yili Muhammad Jo‘qiy bilan Nursaidbek Nurota va Shohruhiya atroflarida qo‘zg‘olon ko‘targanda Xo‘ja Ubaydulla Ahror bu majoralarga aralashib tarafkashlarni yarashtirganini yozadi.[28, p.111] Ulug‘bek va Shohmalik tomonidan shunday e'tiborli zotning o‘g‘lini Nurotaday bir uzoq va chekka joyga bek qilib, tayinlanganligining o‘zi ham Nurotaning o‘sha vaqtda katta nufuzga, Nursaidbekning esa katta mavqyega ega bo‘lganidan dalolat beradi.[2, p. 10]

Temur va temuriylar hukmronligi davrida Samarqand va unga tobe yerlar, tumanlarga bo‘lib idora qilingan. Ushbu tartib Chig‘atoy xoni Kebekxon (1318-1326) tomonidan kiritilib, keyingi asrlarda davom etgan.[29, p.175] Ma'lumki, so‘nggi temuriy hukmdorlar davrida o‘zaro urushlar natijasida davlat zaiflasha borgan. O‘lkaning shimolida Dashti Qipchioqda yashagan qabilalar vujudga kelgan vaziyatdan foydalanib XVI asr boshlarida Turkistonni istilo qilganlar.[30, s. 9]

Ma'sud ibn Usmon Ko‘histoniyning yozishicha, ko‘chmanchi o‘zbeklar tarkibiga: burqut, qiyot, qushchi, qo‘ng‘irot, usun, o‘tachi, nayman, jot, chimboy, qorliq, kenegas, do‘rmon, qurlovut, tub osti, mang‘it, no‘ko‘z, uyg‘ur, xitoy, toymas, ichki, tuman, ming kirgan. Binoiyning “Shayboniynoma”sida XV asrning 80-yillarida Shayboniyxonni qo‘llagan qabilalar orasida shodbog‘li va shunqorlilar ham bo‘lgan. Bu qabilalarning kelib chiqishi turlicha. Xususan, qo‘ng‘irot, no‘ko‘z va qiyotlar mo‘g‘ullardan bo‘lsa, tangutlar-tibetdan chiqqanlar. Xitoylar esa X-XI asrlarda Xitoyning shimoliy-sharqida yashagan kidanlardir. Fazlulloh Ro‘zbexonning ta'kidlashicha, XVI asrning boshlarida Dashti Qipchoqda o‘zbeklarga Shaybon urug‘i qabilalari qozoqlar va mang‘itlar kirgan.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma”sida M.Shayboniyning 1503 yildagi 10 ming qo‘shini: sixshut, qiyot, qo‘ng‘irot, burqut, mang‘it, nayman,

do‘rmon, uyshun, qushchi, jaloiir, qarluq, sulduz, no‘ko‘z, tama, tatar, adgu, adluy-o‘g‘li, ichki, oyratlardan bo‘lgan[31, pp. 137, 139].

Idikuning katta akasi Isabek To‘xtamishxon davrida (1380-1395 yy) lashkarboshilardan biri bo‘lsa, Fo‘zlodxon 1409-1411 yillarda amiril-umaro lavozimida bo‘lgan. Idikuning nabirasi Vaqqosbiy Abulxayrxon bilan yaqinlashgan. Abulxayrxonni 1428 –yili xonlikka ko‘tarishdi. Qiyot, mang‘it, do‘rmon, qushchi, o‘toji, nayman, uqarash-nayman, tubay, toymas, jot, xitoy-uyg‘ur, qarluq, usun, karlaut, ichki, tuman-ming, tangut, qo‘ng‘irot, jami uni 200 ga yaqin qabila urug‘ vakillari qo‘llagan[31, s.10].

Internet ma'lumotlaridan. Nurota qishlog‘i neolitdan beri mavjud bo‘lsada[32, p. 8], u haqdagi dastlabki ma'lumot Muhammad Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarida (X asr) uchraydi. Shaharda qadimgi qal'a, uning ostida neolitdan beri mavjud buloq bo‘lib, unda yuzlab, minglab shirmohi baliqlar suzib yuradi. Milodiy VII-VIII asrlarda bu joyda Arab xalifaligi forti (qal'asi) bo‘lgan. Nurota qadimgi va muqaddas qadamjo-ziyoratgohdir. Chashma suvi muqaddas hisoblangan. Nurota tog‘larida ko‘plab antiqa, g‘aroyib joylar, narsalar mavjud. Mojirim qishlog‘ida “Sharq biotasi” - yoshi 1500-2500 bo‘lgan daraxt bo‘lib uning tanasi aylanasi 24 metr, markaziy shohining aylanasi 12m. Daraxtning pastdagi tanasida 5-6 ta odam joylashishi mumkin. Daraxt shoxlariga mahalliy aholi tibetliklar va yaponliklar singari o‘z niyatlari ruyobga chiqishini istab ro‘molcha bog‘laydilar.

Yana bir rivoyatga ko‘ra, Hayotbash tog‘i cho‘qqisida Nuh payg‘ambar kemasi to‘xtagan. Ushbu rivoyatni Buxoroga sayoxat davomida 1824-yili eshitgan rus olimi Eversman, 1848 - yili Berlinda nashr qilingan kitobida yozgan. Tog‘ning shimoliy-sharqida Nurota va Morguzar tog‘lari uchrashgan joyda mahalliy aholi orasidagi rivoyatga ko‘ra, Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Sim taxti ravoni joylashgan g‘or bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tog‘aev A.R. Nurota vohasida etnomadaniy jarayonlar (XX asrning I-yarmi) t.f.n. Dissertatsiyasi. 2011.
2. Mirzaev B, Axmatqulov K. Nurota tarixidan lavhalar. –Toshkent, 1997 y.

3. Sagdullaev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. –Toshkent, O‘qituvchi, 1996 yil.
4. Ziyoev A. Qoraxoniylar // O‘zbekiston ovozi gazetasi. 1994 yil. 18 –oktyabr soni.
5. Ergashev Q, Hamidov X. O‘zbekiston tarixi. G‘.G‘ulom nashriyoti. –Toshkent, 20105.
6. Muallifning dala etnografik yozuvlari. 2013 yil. G‘azg‘on, Pashshot.
7. Eshov B, Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I - jild. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2014.
8. Muallifning dala etnografik yozuvlari. 2013 yil.
9. Eshov B, Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I - jild. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2014.
10. Kobzeva O.P, Djalilov O.Z. Stranitsы istorii velikogo shelkovogo puti: shelk, spetsii i chay. Tashkent, 2013.
11. Drevnie avtori v Sredney Azii (VI v do n.e. – III v n.e.) Xrestomatiya // Pod red. L.V.Bajenova. –Tashkent, 1940. .
12. Shoniyozov K.Sh. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni.
13. Gulyamov Ya. Nur Buxarskiy // Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. –M.., Nauka, 1979.
14. Vamberi A. Buxoro yoki Movaraunnahr tarixi. –Toshkent, 1990.
15. Kabirov A. Naskalnыe izobrajeniya Sarmыshsaya. V kn: Istoriya materialnoy kulturi Uzbekistana. Vipusk. 9. Tashkent, 1972.
16. Eshov B.M. Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi, 2014.
17. Dots. A.Kabirovning dala yozuvlaridan, 2013 yil.
18. Gulyamov Ya. G. Nur Buxarskiy // Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. –M., 1979.
19. Asatov R. G‘azg‘onnoma.-T., 1997.
20. Maqdisi Decscriptio imperimsliemice // BGA: 1877. t. III. Qarang: Shoniyozov K.Sh. O‘zbek xalqining shakllanishi jarayoni. 191 b.
21. Muhammad an Narshaxi. Tarix-i Buxara. istoriya Buxara. Tashkent. SMI-Asia, 2011.
22. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi. 7-sinf uchun. –Toshkent, “Sharq” 2017 yil.
23. Ibn al Asir. Al Komil fit-tarix. T. 1. –M., 1973.
24. Shoniyozov K.Sh. Qarluq davlati va qarluqlar. Toshkent, Sharq, 1999.
25. Vamberi X. Buxoro yoxud Movarannahr tarixi. –T.: 1990.
26. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma Toshkent, 1996.
27. Akramov A. “Muhammad Solih”. –T,1996, 5-6 bb. Nuratoniy Q.X. Ajdodlaringizni bilasizmi? Samarqand, 1998.
28. Ahmedov B. O‘zbek ulusi. Toshkent, 1992.
29. Ahmedov B. Chingizxon va uning vorislari davrida Markaziy Osiyo // Tarixdan saboqlar..
30. Sultanov V. Kochevie plemena Priaralya v XV-XVII vv (Voprosi etnicheskoy i sotsialnoy istorii). –M., Nauka, 1982.
31. Muhammad Solih. Shayboniynoma. 137-139 bb. // Sultonov T.I. Ko‘rsatilgan asar. 10 b.
32. Markov G.ye. Kochevniki Azii. –M., 1976, Jo‘raqulov M.J, Xodjoyov T.Q. Zarafshon vohasi aholisining etnik shakllanishi. Samarqand, 1980.

1-SHO‘BA. TURIZMNING SHAKLLANISHI, VUJUDGA KELISH VA RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI

Aimei Zhang
PhD student of the National University of Uzbekistan，Tashkant
Associate professor of the Jining Normal University, China

THE HISTORICAL PRACTICE AND SIGNIFICANCE OF PROMOTING HAN CULTURE IN THE WESTERN REGIONS DURING THE HAN DYNASTY

Abstract： The Han Dynasty's historical practice of promoting Han culture in the Western Region had many impacts on the Western Region, especially on Xinjiang, and was historically important for Xinjiang's later status as a land of the Han Dynasty and for the sense of belonging of the people of Xinjiang to the Han Dynasty.

Introduction. From the Han Dynasty onwards, the Western Regions became closer and closer to ancient China, and even gradually became an integral part of China's territory. This historical reality was not only due to the fact that the Han Dynasty took favorable military actions to acquire the land in the Western Regions, but also due to the fact that the Han Dynasty promoted the Han culture in the Western Regions, which promoted the symbols of the Han culture through the administration, economic and cultural exchanges, and by means of the peace and kinship of the people of the Western Regions and the cantonment. It was a historical choice made by the people of the Western Regions to build up a deep feeling of mutual support and dependence, so that the people of the Western Regions developed a sense of belonging to the Han Dynasty and gradually recognized Han culture.

Research Methodology and literature review:

Li Shuhui said in his article "Ancient Western Chinese Language and Culture Education" that "the education of Chinese language and culture in the western region began in Han and flourished in Tang" [1], and analyzed the way and process of the spread of Chinese language in the ancient western region. In their

paper "The Unity of Chinese Civilization from the History of the Western Regions", Wang Xin and Wang Tianrui analyzed that the official positions set up by the Han Dynasty in the Western Regions were set up according to the customary official system of the Han Dynasty [2]. Jiang Guofeng in his article "Historical Mirror Image of Cultural Generation and Diffusion on the Silk Road during the Han Dynasty" studied the diffusion of culture, art and science and technology of the Han Dynasty to the Western Regions in the context of the Silk Road [3]. All of their studies examined the spread and influence of Han culture in the western regions from one perspective, which brought up the research basis and new perspectives for the study of this article. This paper examines the historical practice and significance of the promotion of Han culture in the West and during the Han Dynasty by means of historical analysis and comparison.

Analysis and results.

During the Han Dynasty, the Western Regions were in a stage of historical change, and the Han Dynasty and the Xiongnu fought over the Western Regions for a long period of time, In the end, history proved that the Han Dynasty was victorious, not only turning a part of the Western Regions into its own territory, but also making the vast number of people in the Western Regions dependent on and belonging to the Han Dynasty, as well as identifying themselves with its culture.

When Zhang Qian traveled to the Western Regions, Emperor Wu of Han Dynasty had the desire to "extend the land for ten thousand miles, The language is translated into nine translations, and to make a difference to the customs, so that the virtue of the Emperor would be spread over the world" [4]. In terms of cultural promotion, the Han Dynasty mainly propagated the concepts of "China", "orthodoxy" and "centralization", promoted the Han Dynasty's system of control as well as its products and carriers of writing, and infiltrated the Han Dynasty's concepts of protection and benevolence. The concepts of protection and favor of the Han Dynasty gradually formed a kind of border centripetal force in the Western Regions.

Diplomatic envoys of the Han Dynasty spread Han culture. Starting from

138 B.C., Zhang Qian went on a mission to the Western Regions, and in the course of Zhang Qian's mission, he constantly propagandized and introduced the Han Dynasty to the people in the places he visited. During his second mission to the Western Regions, Zhang Qian brought with him a wealth of materials, which demonstrated to the countries in the Western Regions the bountifulness of the Han Dynasty's products and the development of material civilization, and even Zhang Qian brought the emissaries of some of the Western Regions back to the Han Dynasty, so that they would "know that Han was vast! "After Zhangqian, the envoys to the Western Regions were not only able to see the richness of the Han Dynasty, but also its material civilization. After Zhang Qian, emissaries to the Western Regions "looked at each other on the road" in an endless stream, and the purpose of their mission to the Western Regions was to communicate with the countries in the Western Regions, to learn from Zhang Qian, and to build up their achievements on the frontier. while many of them carried Han Dynasty's unique commodities to the Western Regions to exchange and gain economic benefits. Some of the emissaries at this time were experts in Chinese studies, some had literary talents, and their missions had already brought the culture of the Han Dynasty to the western regions.

The Han Dynasty spread Han culture through administration. In the third year of Emperor Xuan Di's Shen Jue (59 BC), the central government of the Western Han Dynasty set up the Western Regions Defense Office in the city of Wubi in the Western Regions and appointed Zheng Ji as the first Western Regions Defense Officer, which officially started the administrative management of the Western Regions by the Han Dynasty. Under the direct control of the Western Region Protector, there were Yi xun Lieutenants and Wuji Lieutenants, and officials at all levels were set up under them. The names and grades of these officials were set up according to the official system of the Han Dynasty, and they traveled to and from the Western Regions to convey all kinds of orders and messages from the Han Dynasty, and their identities were known to the nobles in the Western Regions, and the political culture of the Han Dynasty had already

spread in the Western Regions through subtle influence. The Han Dynasty enthroned the nobles of the Western Regions and issued them with seals and ribbons in Chinese seal script, recognizing their status as agents of the central dynasty in the localities. The enthroned nobles of the Western Regions were subjected to the ear of the Han Dynasty, and the official documents and letters were translated from one layer to another to analyze and understand the policies of the central dynasty, so that they became the receivers of the Han culture and its further spreaders. The ennobled nobles wore the seal of the Han Dynasty as an honor.

Jumladan, Farg‘ona vodiysi aholisining sevimli maskanlaridan biri bo‘lgan Chust madaniyat va istirohat bog‘i xalq orasida Mavlono Lutfulloh nomi bilan ataladi. O‘sha davrdan boshlab rasmiy ravishda maqbara qayta ta’mirlangandan so‘ng “Mavlono Lutfilloh nomli madaniyat va istirohat bog‘i” deb atala boshlandi. Ushbu bog‘ hududida Mavlono Lutfilloh maqbarasi qad rostladi. Aynan o‘sha vaqtlarda Sharqona uslubdagi ushbu obidani Qo‘qon shahridan kelgan “Farg‘ona maxsus ilmiy ishlab-chiqarish, ta’mirlash ustaxonasi”ning ustalari tiklashga muvaffaq bo‘ldilar. Ushbu xayrli ishlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi katta hissa qo‘shdi. Ta’mirlash va qurilish loyihalari me’mor Abdujobbor Yahyoyevning bevosita rahbarligida tayyorlandi[4].

Tarixdan ma’lumki, Mavlono Lutfullohning Chust istirohat bog‘i ichida xonaqoh va masjidi bo‘lgan (ushbu masjid hali ham saqlanib turibdi). Mavlono Lutfulloh majmuasi Chust tumanidagi tarixiy me’moriy yodgorlik bo‘lib, dastlab masjid, madrasa, minora, maqbara va boshqa binolardan iborat ansambl bo‘lgan. Bizgacha bir tomoni ustunli masjid ayvoni (28x7,2 m) saqlanib qolgan. Ayvon shiftini 3 qatorli 7 ta yog‘och ustunlar ko‘tarib turadi. Markaziy ravoqlar zinali karniz-kayvon (karnizning alohida ko‘tarilgan qismi) hosil qilib, yuqori ko‘tarilgan. Qirrali ustunlar sodda, shifti esa serhasham handasiy naqshlar — gulsafsar va pechakgul chirmovuqlari bilan uyg‘unlashgan. Toqilariga ishlangan

gullarning takrorlanishi muayyan izchillik hosil qiladi. Naqshlarida ko‘k, yashil va qizil ranglar ko‘proq qo‘llanilgan. Masjidning janubiy-sharqiy burchagidan bir necha metr narida minora (balandligi 13 m.) qad ko‘targan. Minora tanasi feruza rang koshinlar bilan qoplangan. Mavlono Lutfulloh masjidi shahar istirohat bog‘i hududida ta’mirdan so‘ng tarix muzeyi sifatida foydalanilmoqda[5].

Mavlono Lutfilloh nomini tiklash borasidagi muhim amaliy ishlardan biri sifatida 1986–1991- yillarda chustlik Murodxon to‘ra rahbarligida mahalliy aholi vakillari hamda marg‘ilonlik usta Abdusattor Mavlono Lutfilloh nomiga atab, shaharning Kamarsada mahallasi hududida, tuman istirohat bog‘ining yuqori qismida Jome’ masjidi qurilishini ham misol qilib keltirish mumkin.

Bugungi kunda ushbu maskanga tashrif buyuruvchilarning soni keskin oshib bormoqda. Yurtimiz va dunyoda eng tez rivojlanib borayotgan ziyorat turizmi sohasi natijasida Mavlono Lutfulloh monidagi madaniyat va istirohat bog‘i nafaqat viloyat, balki Respublikadagi mashhur manzillardan biri sifatida sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda.

O‘z navbatida, bu yerga keluvchilarni shartli ravishda turli guruhlarga ajratish mumkin. Misol uchun, aholi orasida o‘zining turli xil muammolarini yechimi sifatida muqaddas joylarni ziyorat qiluvchilar va insonlar orasida o‘zining mashhurligi uchun tashrif buyuruvchi sayohatchilarga ajratish mumkin. Shuning uchun asosan, bahor va yoz mavsumlarida Chust shahri tashrif buyurganlar bilan gavjum holda bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Namangan viloyati Chust tumani aholisi o‘zining ko‘p asrlik tarixi mobaynida muqaddas ziyoratgohlar bilan bog‘liq rang-barang dunyoqarash, urf-odat, ko‘nikma, udum va marosimlar tizimini yaratgan. Ana shunday xalqona marosimlar tizimlaridan biri bo‘lgan ziyoratgohlar bilan bog‘liq qarashlar hududda bir nechta muqaddas qadamjolarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Jumladan, Chust tumanidagi muqaddas ziyoratgohlardan biri bo‘lgan Mavlono Lutfulloh majmuasida farzand ko‘rish maqsadida jonliq so‘yish, aziz avliyolar va ajdodlar ruhiga atab is chiqarish, turli xil taomlar pishirish, kabi odatlarning ayrimlari hayotdagi ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va

mafkuraviy o‘zgarishlar, ayniqsa, ilmiy-texnika taraqqiyoti ta’sirida asta-sekin yo‘qolib, ayrimlari o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, biroq ularning barchasi qanday g‘oyaviy yo‘nalishda bo‘lganligidan qat’iy nazar, xalqning amaliy faoliyati, o‘tmish va hozirgi kunda qo‘llanilib kelinayotganligi bilan muhim tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust shahri. 2024-yil.
2. Муҳаммад Муфти Оҳангароний. Мавлоно Лутфуллоҳ маноқиби. – Тошкент, 2002. – Б. 8.
3. Yuqoridagi asar… – Б. 11.
4. Нажмиддин Файзиддин ўгли ва бошқ. Чуст тарихи. – Чуст, 1995. – Б. 171.
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000. “М” ҳарфи. – Б. 975.

Matxoliqov Qahramon
O‘zMU, "Jahon tarixi" kafedrasi dots. v.b.t.f.n.

XALQARO TURIZM RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI

Annotatsiya: Maqolada xalqaro turizmni rivojlanishining tarixiy bosqichlari, uning o‘ziga xos jihatlari, turlari va ularni vujudga kelishining tarixiy omillari, iqtisodiy imkoniyatlari, tabiiy resurslar va ma’naviy boyliklarni asrashdagi hissasi adabiyotlar hamda mabaalar asosida tahlil qilingan. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasining bu borada olib borayotgan islohatlari BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha maqsadlariga mos ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro turizm, moddiy, ma’naviy, resurslar va ularni asrash, yangi ish o‘rinlarni yaratish, aholi bandligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish.

Bugungi kundagi jahon hamjamiyati oldida turgan eng katta masalarlardan biri butun dunyodagi barcha insonlarni farovon yashashi uchun munosib sharoit yaratish, ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya qilish, kambag‘allikni kamaytirish hisoblanadi. Shu sababli BMTning barcha a’zo davlatlari tomonidan 2015-yildan 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha 17 maqsad ishlab chiqildi. Unda kambag‘allikni qisqartirish, munosib ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni

ta'minlash kabi maqsadlar belgilangan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda ham "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"[1] hamda "O‘zbekiston 2030" strategiyasi[2] qabul qilindi va islohotlar amalga oshirilmoqda. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda turizm sohasini ham rivojlanitirish, uning imkoniyatlaridan munosib foydalanishga alohida e’tibor qaratilgan. Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek turizm – bu ham investisiya, ham eksport, ham yangi ish o‘rinlari va kambag‘allikni qisqartirish degani[3]. Shu o‘rinda turizm shakllanishi, vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, tegishli xulosalar chiqarish tarix fanining dolzarb masalalaridan biridir.

Insoniyat o‘zining ilk tarixidan boshlab turli xil ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalar o‘rnatib, boshqa xalqlarning hayoti, turmush tarzi, o‘ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot yutuqlaridan xabardor bo‘lishga intilgan. Buning natijasida xalqaro turizm vujudga keldi va u tarixiy bir nechta bosqichlarni bosib o‘tdi.

Xalqaro turizmning birinchi ko‘rinishlari qadimgi davrlarda sivilizatsiyalar o‘rtasida sayohat va savdo aloqalari orqali amalga oshirilgan. Jumladan, qadimgi shumerliklar va finikiyaliklar ilk sayohatchilar sifatida tilga olingan bo‘lsa, qadimgi Misrda asosiy transport yo‘li bo‘lib xizmat qilgan Nil daryosining mavjudligi shimol va janub xalqlari o‘rtasidagi savdo aloqalarini olib borishga yordamlashishi bilan birga turli binolar (piramidalar, ibodatxonalar), sug‘orish inshootlari va boshqalar bilan tanishish uchun Misrga keluvchilarni ko‘paytirgan. O‘z navbatida misrliklar ham qo‘shni davlatlarga ekspedisiyalar uyushtirdi [4]. Qadimgi yunonlarda esa muqaddas joylarni ziyorat qilish va diniy bayramlarda qatnashish an’analari mavjud bo‘lib, ayniqsa Olimpiya o‘yinlari turli yunon shahar-davlat (polis)lardan sportchilar, tomoshabinlar va savdogarlarni jalb qilgan.

Rim imperiyasining tashkil topishi uning hududlari bo‘ylab sayohat va madaniy almashinuvni osonlashtirdi. Boy rimliklar G‘arb va Sharqning mashhur diqqatga sazovor joylarni ko‘rish uchun sayohatga chiqishardi. Rim yo‘llari tarmog‘i, pochta tizimining rivojlanishi sayohat va aloqani yanada osonlashtirdi.

Yevroosiyo mintaqasida esa Xitoydan O‘rta Yer dengizigacha cho‘zilgan Ipak yo‘li Sharq va G‘arb o‘rtasida tovarlar, g‘oyalar va madaniyatlar almashinuvini osonlashtiradigan savdo yo‘llari tarmog‘i edi. U birinchi navbatda savdo yo‘li bo‘lsa-da, sayohatchilar, savdogarlar, olimlar, diplomatlar orqali bir necha davlatlar, xalqlar bilan muloqot o‘rnatishiga va sivilizasiyalarning yaqinlashuviga hissa qo‘shdi.

O‘rta asrlar davrida jamiyatdagi dinning ustunligi xalqaro ziyorat turizmning rivojlanishiga asos bo‘ldi[5]. Muqaddas amallarni bajarish, gunohlardan poklanish va boshqa maqsadlarda muqaddas ziyoratgohlarga borish odat tusiga aylangan. Bunga yaqin Sharq, Arabiston, Hindiston, Tibet hududlaridagi ziyoratgohlarni misol qilib keltirish mumkin. Buyuk geogrfik kashfiyotlar esa uni qit’alararo sayohatlarni amalga oshirish imkonini berdi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib ta’kidlash lozimki, faqat zavqlanish uchun sayohat qiladigan dam olish turizmi tushunchasi bu davrda unchalik keng tarqalmagan edi. Bugun biz tushunadigan xalqaro turizm - bo‘sh vaqtni maroqli o‘tkazish, dam olish va diqqatga sazovor joylar bilan tanishish maqsadida o‘zi yashab turgan hududdan tashqariga sayohat qilish tarixda ancha keyin paydo bo‘lgan. Oksford ingliz lug‘ati (Oxford English Dictionary)ga asoslanib ta’kidlash lozimki turizm atamasi ilk bor 1643-yilda tilga olingan va u inglizlar uchun The Grand Tour - Katta sayohat sifatida mashhur bo‘la boshlagan[6]. Zamonaviy turizm sanoati va infratuzilmasining rivojlanishi birinchi navbatda XVIII-XIX asrlarda sanoat inqilobi va transport tizimining rivojlanishi bilan sodir bo‘ldi.

Britaniyada XVIII asr oxirida boshlangan sanoat inqilobi ishlab chiqarish, transport va texnologiyada sezilarli yutuqlarga olib keldi. Ushbu jadal sanoatlashtirish davri farovonlikning oshishiga, urbanizasiyaga va bo‘sh vaqtga ega bo‘lgan o‘rta sinfning moddiy jihatdan ko‘tarilishiga olib keldi. Transport infratuzilmasining rivojlanishi turizm sanoatining tug‘ilishida hal qiluvchi omil bo‘ldi. Kanallar qurilishi va takomillashtirilgan yo‘l tarmoqlari sayohatlarni oson va samaraliroq qildi.

XIX asrning boshlarida bug‘ bilan ishlaydigan poyezd (parovoz)larning ixtirosi[17] uzoq masofalarga sayohat qilishda inqilob qildi. Bu davrga kelib, sayohatlar uyushgan va yo‘naltirilgan holda tashkil etila boshlandi va birinchi turistik agentlik 1841-yil ingliz ruhoniysi Tomos Kuk tomonidan tashkil etildi. U 1843-yilda Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayohatchilar uchun transport, turar joy, turli marshrutlarni o‘z ichiga olgan sayohat tashkil qildi va xalqaro turizm asoschisiga aylandi.

XX asrning boshlarida avtomobilsozlik va tijorat aviatsiyasining rivojlanishi kabi transportdagi yutuqlar xalqaro sayohatlarni yanada osonlashtirdi. 1914-yilda Panama kanalining ochilishi ham kemalarning Atlantika va Tinch okeanlari o‘rtasida sayohat qilishini osonlashtirdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda xalqaro turizm yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu asosan aholining daromadlarini oshishi, sayohatlarning yanada qulay va arzonlashishi, tijorat aviakompaniyalarining o‘sishi, yangi aeroportlarning qurilishi va ko‘plab mamlakatlarda turizm infratuzilmasining kengayishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda, xalqaro turizm uchun turli xalqaro tashkilotlar tashkil etilishi ham alohida ahamiyatga ega. Jumladan, 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro havo qatnovini tartibga solish uchun xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotida ICAO (International Civil Aviation Organization)ga asos solindi. 1974-yilda Xalqaro rasmiy sayyohlik tashkilotlari Ittifoqi (International Congress of Official Tourism Associations-1947 yil)[18] Birlashgan Millatlarning Jahon sayyohlik tashkiloti UNWTOga aylantirildi va turizmni rivojlantirishga, sohadagi xalqaro tartiblarni o‘rnatilishiga, xalqaro turistlar va xizmatlarni har tamonlama kafolatlanishiga xizmat qildi.

Turizmni ommaviy tus olishi mehmonxona, ovqatlanish, dam olish zonalari, davolanish maskanlari, kurortlar va boshqa infratuzilmalarni rivojlanishiga olib

[17] Parovozni birinchi bo‘lib ingliz muhandisi Richard Trevitik yasadi. Trevitik bir nechta parovoz modellarini yaratgan bo‘lib ulardan birinchisi "Puffing Devil" 1801 yilda yaratgan, 1802 yilda esa "Coalbrookdale" parovozi shu nomdagi ko‘mir kompaniyasi uchun yaratgan. "Pen-y-Darren" nomini olgan eng mashhur parovoz modeli 1803 yil oxirida yaratilgan. Ixtirolari uchun patent 1804 yilda olingan.

[18] Xalqaro rasmiy sayyohlik tashkilotlari Ittifoqi (IUOTO) Xalqaro turizm targ'iboti assotsiatsiyalari Kongressi (1925 yil) Xalqaro rasmiy turizm tashkilotlari Kongressi (1927) va Xalqaro turizm targ'iboti tashkilotlari Ittifoqi (1930)ning merosxo‘ri hisoblanadi.

keldi. Xalqaro turistlarni sayohatlarni amalga oshirish maqsadlariga koʻra qabul qiluvchi davlatlar paydo boʻldi. Bu davrning yana bir xususiyati shundaki, insoniyatning tabiat, madaniy hayot, moddiy va maʼnaviy merosga salbiy taʼsir koʻrsatishiga qarshi yoʻnaltirilgan turlari paydo boʻldi. Ekoturizm, agroturizm, etnoturizm, madaniy turizm, koʻngillilar turizmi kabi shakllari atrof-muhitga inson taʼsirini minimallashtirish, tabiiy resurslarni, moddiy va maʼnaviy boyliklarni asrab avaylash, turli etnoslarni qoʻllab-quvvatlash va madaniy almashinuvni rivojlantirishga qaratilgani bilan izohlanadi.

Bugungi kunga kelib esa xalqaro turizmning rivojlanishi yangidan yangi raqamli texnologiyalar: mobil ilovalar, onlayn xizmat koʻrsatish, virtual sayohatlar, iqtisodiy-moliyaviy platformalarning taraqqiy etishi bilan bogʻliq boʻlib qolmoqda[19]. Ular sayyohlar uchun turizmning barcha turlaridan foydalanishni shaxsan oʻzlari rejalashtirish, xizmatlar va paketlarni tanlash, bron qilishni osonlashtirmoqda. Tashrif buyuriladigan joylar haqida tushunchaga, tasavvurga ega boʻlish imkoniyatini yaratmoqda.

Xalqaro turizmni vujudga kelishi, rivojlanishiga sabab boʻluvchi omillar bilan bir qatorda unga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi omillar ham mavjud boʻlib, mintaqalardagi urushlar, xalqlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy tafovutlar turli cheklovlarni oʻrnatilishiga olib keladi. Bu esa sayyohlar soninining kamayishiga, iqtisodiy oʻsishning pasayishiga, aholi daromadlaridan ayrilishiga sabab boʻladi. Birgina 2019-yilda boshlangan pandemiya xalqaro turizmga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Xalqaro turizmning umumiy ulushi tovarlar va xizmatlarning jahon eksportida 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 2,5 baravar kamayib, atiga 2,4 % tashkil etdi. Shu bilan birga, dunyoda xalqaro turistlar soni xuddi shu davrga nisbatan 3,6 baravar kamaydi. 2021-yilga kelib 23,7 millionga (2020 yilga nisbatan 5%) oshdi. Bundan Osiyo va Okeaniya hududi juda katta zarar koʻrdi. Xalqaro turistlar kelishini 2019-yil bilan taqqoslaganda 2020-yilda 83% dan koʻproqqa kamaydi[7].

[19] Foursquare, Visit a City, Culture Trip, TripAdvisor, Flightradar24, Aviasales, Skyscanner, Booking.com, Travelata, Uber, Busradar va b.

Xulosa qilib aytganda xalqaro turizm boshqa mamlakatlar xalqlarning madaniyati, turmush tarzi bilan tanishishga yordam beradi. Moddiy va ma’naviy boyliklarni asrash hamda ulardan foydalanish, kelajak avlodga yetkazish, tabiiy resurslardan unumli foydalanish, ularni tejash imkonini beradi. Turizmning rivojlanishi yangi ish o‘rinlarni yaratish, aholi bandligi oshirish, daromadlarini ko‘tarish orqali kambag’allikni kamaytirishga hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi" O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi " PF-60 farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 yil 2023 sentyabrdagi "O‘zbekiston — 2030" PF-158 strategiyasi to‘g'risidagi farmoni.
3. Turizm sohasidagi ulkan imkoniyatlar va ulardan foydalanish bo‘yicha vazifalar ko‘rsatib o‘tildi. // Xalq so‘zi. 2022 yil 21 sentabr.
4. Ганский, В. А. История путешествий и туризма: учеб.-метод. комплекс для студентов специальности «Туризм и гостеприимство». – Новополоцк: ПГУ, 2015. – Ч. 1. Ст. 52-53
5. Соболевская В.В., Зайцев В.М. Региональные особенности развития паломнического туризма в мире. https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/170711/1/193-196.pdf
6. Дулов А.Н., Дюхова К.А., Юрчак Д.В. История путешествий и туризма. «ВГУ им. П.М. Машерова», 2011 Ст.9
7. Нижникова А. К. Влияние пандемии COVID-19 на международный туризм в контексте устойчивого развития // Вестник Псковского государственного университета. Серия: Естественные и физико-математические науки. 2022. Т. 15. № 4. Ст. 66–77.

Murodov Halim
Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi, PhD

MUSTAQILLIK ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda mustaqillik arafasidagi turizm ijtimoiy – iqtisodiy tashkilot sifatida mustaqil faoliyat ko‘rsatmaganligi, turizmdagi muammolar va kamchiliklar hamda ularning sabablari, shuningdek turizm sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: bazalar, kemping, pansionatlar, turizm, meros, gid, ekskursiya, viza, mehmonxona, pullik xizmat, Rashidov, sanatoriy-kurort.

O‘tgan asrning 50-90 yillarigacha bo‘lgan sobiq Ittifoq turizmi rivojlanishidagi to‘siqlarning birinchisi turizm sohasida xususiy sektorning faoliyatiga chek qo‘yilganli, sohada davlat monopoliyasi o‘rnatilganligi va raqobat muhitining yo‘qligi, ikkinchidan esa turistik industriyadagi jahonda ro‘y berayotgan yangiliklar va diversifikatsiya jarayonlaridan Ittifoq turizmining uzilib qolganligi, hamda turistik xizmatlar sifatining pastligi, uchinchidan AQSH boshchiligidagi G‘arb davlatlari bilan “Sovuq urush” davridagi raqobati, to‘rtinchidan esa Sovet Ittifoqida turizmdan dunyoning rivojlangan davlatlarida bo'lgani kabi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yuksaltirishga emas, balki soxta sotsializm yutuqlarini targ‘ib qilish quroli sifatida foydalanishida edi. Bu borada turizmning iqtisodiy faktori ikkinchi darajaga surib qo'yilgan edi. 1970 – 1980 yillar boshlarida mehmonxona va boshqa joylashtirish, sog‘lomlashtirish vositalarini barpo etishda ijobiy tendensiya kuzatilib, Toshkentdagi Chorsu, O‘zbekiston, Buxorodagi Zarafshon, Varaxsha, Buxoro mehmonxonalari, mashhur Moxi xossa sanatoriyasi yoki Jizzaxdagi Zomin sanatoriyasi kabilar shular jumlasidandir. Albatta turizm va sayyohlik sohasidagi bunyodkorlik qurilishlarini amalga oshirishda shu davrdagi O‘zbekiston rahbari Sharof Rashidovning tashabbuskorligi va homiyligi katta rol o‘ynadi. Sh. Rashidov O‘zbekistonda turizm rivojlanishini yangi bosqichg ko‘tarish uchun Ittifoqning mashhur arxitektorlari va mahalliy arxitektorlari bilan O'zbekistondagi turistik markazlar loyihasi asosida Samarqand da 620 o‘rinli, Buxoroda 420 o‘rinli milliy dizayndagi turistik markazlar loyihalari 1980 – 1983 yillarda ishlab chiqilib, amalga oshirish jarayonlariga yetganda afsuski Sh. Rashidovning vafot etdi. Natijada milliy turizm uchun xizmat qilishi mo‘ljallangan ushbu loyihalar qurilish uchun qabul qilinsada, lekin amalga oshmadi[1]. O‘zbekistonda turizm industriyasini barpo etish borasida siljishlar bo‘lsada, lekin soha va u bilan bog‘liq bo‘g‘inlarda kadrlar masalasida hali ham muammolar – kardlar yetishmovchiligi dolzarb bo‘lib, buni 1975 yilda o'tkazilgan so'rovnomada qatnashgan 34,2 foiz turistlar transport va xizmat ko'rsatish sohasida malakali mutaxassislar va gid tarjimonlar yetishmasligini qayd etgani ham tasdiqlamoqda[2, 12]. Turizm sohasidagi kadrlar masalasi sobiq Ittifoq davrida

juda dolzarb muammolardan bo‘lib, ayniqsa markazdan uzoqda joylashgan respublika larda aynan O‘zbekistonda ham bu masala yanada keskinroq edi. Jumladan buning birinchi sababi, O‘zbekistonda turizm sohasi bo‘yicha oliy va malakali kadrlar tayyorlaydigan maxsus oliy o‘quv yurtlari faqat Toshkent va Samarqandda bo‘lib, bu esa kadrlar taqchilligi muammosini bartaraf etishga imkon bermadi, ikkinchidan esa aynan sayyohlik sohasidagi kadrlar tayyorlashning zaruriy talablaridan biri bo‘lmish xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilmaganligi natijasida jahon standart lariga javob beradigan malakali kadrlar yetishmovchiligi yana ko‘p yillar saqlanib qolishiga sabab bo‘ldi. Ittifoq hukumati 1980 yil dekabrda “Mamlakatda turistik – ekskursiya ishlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida turizmni yanada takomillashtirish, kasaba uyushma, davlat organlari yoshlar va turistik tashkilotlar ning ish faoliyatini jadallashtirish, ommavioy turizmni yanada rivojlantirish, kadrlarni tayyorlash masalasi, turistik bazalar, bolalar turistik bazalarini yangi talablar asosida tashkil etish va chet el turizmi masalalarini tubdan yaxshilash choralari belgilandi[3, 44]. O‘zbekistonning tarixiy shaharlari Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent va Farg‘ona vodiysini o‘z ichiga olgan sayyohlik marshrutlarini tashkil etishning strategiyasi 1970-80-yillarda ishlab chiqilib, unda qadimiy shaharlardagi tarixiy va inqilobiy voqealarni aks ettiruvchi yodgorliklarni ekskursiya obyektlari sifatida namoyish etish zarurati belgilandi. Rejaga ko‘ra, 20 kunlik “O‘zbekiston bo‘ylab ekskursiya”, 12 kunlik “O‘zbekiston arxeologik yodgorliklari orqali” va 20 kunlik “O‘zbekistonning qadimiy shaharlari” ekskursiyalari uchun yo‘nalishlar loyihalari ishlab chiqildi. Har bir obyektni dasturga kiritish uchun maxsus pasport rasmiylashtirildi. Unda obyektning nomi, joylashgan joyi, tasviri, obyekt bilan bog'liq tarixiy manbalar va boshqa ma'lumotlar mavjud edi. Lekin bu davrda O‘zbekistonda hali turistlarga ma`lum bo‘`lmagan tarixiy yodgorliklar va milliy hunarmandchilik ananalarni, xalqimiz turmsh tarzi va u bilan ming yilliklardan buyon yashab kelayotgan urf odatlarimizni namoiyish etadigan, tanishtirishga imkon beradigan turistik yo‘nalishlar, turmahsulotlar qisqasi yangi turistik resurslar majmualarini yaratish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilmagan.

Jumladan sovetlar davrida O‘zbekistonning mavjud turistik brendlar Buxoro, Samarqand, Xiva kabilarni jahonga keng miqyosda reklama va targ‘ibot tashviqot qilish borasida hamkorlik aloqalari juda sust bo‘lib, mavud aloqalar ham tor doirada Yevropaning sotsialistik davlatlari bilan qisman yo‘lga qo‘yilgan edi xolos. Afsuski O‘zbekiston va uning turistik salohiyati haqida ma`lumotlar juda kam e`lon qilingan edi. 1981 – 1985 yillarda Ittifoq miqyosida ya`ni respublikalarda ijtimoiy mehnat unumdorligi oshishi hisobiga milliy daromadning ortishi (foizlarda) Ukrainada 100 %, Belorussiya 95 %, Estoniya 91 %, Gruziyada 76 %, Armaniston 65%, Qirg‘iston 39 % va O‘zbekistonda esa 13 % oshgan[4, 16]. Ikkinchidan O‘zbekiston aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligida bandligini hisobga olsak, kolxoz ishchilarining o‘rtacha ish haqlari bo‘yicha 1988 yilda Estoniyada 304 rubl, Litva 223 rubl, Armaniston 185 rubl, Qozog‘istonda 199 rubl, Turkmanistonda 179 rubl va O‘zbekistonda esa 149 rublni tashkil etgan[4, 80,83]. Bunday past milliy daromad va kam ish haqi haqi bilan O‘zbekiston fuqarolari dam olish yoki o‘z sog‘ligini tiklash uchun turistik sayohatga yoki sanatoriylarga borishga albatta iqtisodiy imkoniyatlari yo‘l bermas edi. Shuningdek chet elga sayohatga chiqish juda qimmat edi. Shunday bo‘lsada sohadagi bir oz ijobiy siljishlar ko‘zga tashlanib, joylashtirish vositalari hamda ulardagi o‘rinlar soni ko‘payishiga imkon yaratildi. O‘zbekistonda 1980 yilda turistik mehmonxona, bazalar, kemping va pansionatlar soni 31 ta, 1988 yilda esa 32 taga yetib, ulardagi o‘rinlar soni mos ravishda 5,8 mingdan 8,5 mingtaga ko‘payib, dam oluvchilar soni esa mos ravishda 559 mingdan bir million o‘n besh ming kishiga turistik xizmatlar ko‘rsatildi[4, 239]. Sobiq Ittifoq davridagi ushbu statistikani tahlil qiladigan bo‘lsak, turizmni rivojlantirish imkoniyatlari O‘zbekistonda keng miqyosli bo‘lsada, afsuski sovetlar davrida bu sohaga katta foyda keltiradigan davlat iqtisodiyotining muhim sohasi sifatida alohida e`tibor berilmadi. Aynan shunday e`tiborsiz yondashuv mamlakatda turizm industriyasi rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Jumladan turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko‘rsatishni ta`minlovchi turli subyektlar majmuasi ya`ni mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari hamda soha bilan bog‘liq boshqa tarmoq korxonalarini

qurilishi yoki tashkil etilishi jarayoni juda sust bo‘lib, keng amaliy ishlar olib borilmagan. Bu sustkashlikning sababi esa Ittifoqda xalq xo‘jaligi sohalarini rivojlantirish uchun davlat byudjetidan mablag‘ ajratishning qoldiq prinsipiga amal qilinishi tufayli katta va istiqbolli loyihalar, sohani davrga mos rivojlantirishga xizmat qiladigan chora tadbirlari uchun mablag‘ defitsiti jarayoni kuzatildi. Bu esa ayniqsa O‘zbekistonda yanada salbiy oqibatlarga olib keldi. Birinchidan mablag‘ kamligi tufayli milliy turizmning asosiy qiziqishb manbasi bo‘lgan tarixiy me`moriy obidalarni asrash, restavratsiya qilish hamda saqlab qolish borasidagi chora – tadbirlarni keskin kamayishiga, ikkinchidan esa bu davrdagi turistik sohaning juda cheklangan imkoniyatlari tufayli 1980 yillar oxirida mamlakatimizning qariyib yigirma million aholisidan atigi 5% i turistik xizmatlardan foydalana olgan xolos. Sobiq Ittifoq davida 15 ta mustamlaka davlatlar ichida aholisi soni bo‘yicha Rossiya va Ukrainadan so‘ng uchinchi o‘rinda bo‘lgan O‘zbekiston turizm rivoji borasida esa ancha orqada bo‘lib, butun ittifoqning turistik mehmonxonalar, bazalar, lagerlar va pansionatlar umumiy sonidagi ulushi atigi 3% ni va dam oluvchilar soni bo‘yicha ham 3% lik ko‘rsatkich bilan bu borada o‘z salohiyatidan ancha past natijani qayd etgan[4, 20]. Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O‘zbekiston sobiq Ittifoq nazarida birinchi navbatda xom ashyo manbai sifatida e`tiborga olinib, xalqning ming yillar davomida yaratgan tarixiy madaniy yodgorliklari, obidalari esa ta`mir talab va hatto restavratsiyaga muhtoj bo‘lsada afsuski mablag‘ ajratilmasdan vayrona holatda qolib ketdi. 1983 yil 27 oktyabr Xorijiy turizm departamenti O‘zbekiston Tashqi turizm bosh boshqarmasi deb o‘zgartirildi. 1988 yil 26 iyunda hukumat qarori bilan ushbu bo‘lim faoliyati tugatildi. 1989-yilda O‘zbekiston Vazirlar Kengashi qoshida “Sayyoh-Intur” xo‘jalik birlashmasi tashkil etildi[5, 90]. 1990 yilga kelib butun Ittifoqdagi iqtisodiy inqiroz boshqa sohalar kabi O‘zbekiston turizmi sohasini ham og‘ir ahvolga solib, bu holat mustaqillikning dastlabki yillarigacha davom etdi.

Xulosa qilib aytdigan bo‘lsak, 1989-1991 yillarda O‘zbekiston turizm sohasi yillar davomida olib borilgan noto‘g‘ri siyosat tufayli chuqur inqirozga yuz tutdi.

Bu inqirozning sabablari **birinchidan** sobiq Ittifoq davrida xalq xo‘jaligining boshqa barcha sohalari kabi turizm va ekskursiya ishlari ham markaz tomonidan boshqarilishi va respublikalardagi mahalliy turizm tashkilotlarining mustaqil harakat qila olmasligi mahalliy hududlarda samarali va istiqbolli rejalar, yangi turistik mahsulotlar, yangi turyo‘nalishlar yaratish hamda xorijiy hamkorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar o‘rnatish imkonini bermagan, **ikkinchidan** esa turizm va ekskursiya ishlaridan kelayotgan daromadlarining bir qismi mahalliy hudud g‘aznasiga tushayotgan bo‘lsada, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan turizmning iqtisodiy va ijtimoiy samarador faoliyatini tan olib, mablag‘larni sohaning respublika yoki viloyat hududida keng rivojlantirish uchun yo‘naltira olmasligi, ya`ni qisqasi turizmni hududiy rivojlantirishga e`tibor berilmaganligi, **uchinchida** turizm sohasi sovet mafkurasining xizmatchisiga ya`ni tenglar jamiyati mafkurasi bo‘lmish komunistik jamiyatni targ'ib qilish quroliga aylantirilib, uning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy roli ikkinchi darajaga tushirib qoldirilshI, **to‘rtinchidan** jahonda turizmni rivojiga asosiy omil bo‘lgan xususiy sektor faoliyatiga yo‘l berimganligi, **beshinchidan** O‘zbekistonda turizmni rivojlantirshning va sayyohlarni jalb etishning omili bo‘lgan tarixiy – madaniy yodgorliklar, masjid va maqbaralarning ko‘pchiligi xaroba yoki butunlay yo‘qolib ketish holatiga tushib, ularda obodonchilik hamda ta`mirlash chora tadbirlarining tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, **oltinchidan** sobiq Ittifoq davrida xalq xo‘jaligini markazlashtirilgan rejalashtirish va direktiv (yuqori hokimiyat organlar tomonidan berilgan va bajarilishi majburiy sanalgan rasmiy yo‘l-yo‘riq, dastur, reja, ko‘rsatma) boshqaruv usuli o‘zini oqlamadi. Bunday boshqaruvda asosan ustuvor sohalarga (harbiy, metallurgiya, neft va gaz kabi sohalarga) katta e`tibor va mablag‘ ajratilib, lekin 1980 yillar davomida iqtisodiy samaradorligi ko‘tarilib borayotgan turizm sohasi esa muhim strategik sohalar qatoriga kiritilmagan. Shuningdek hozirgi kundagi kabi yagona turistik siyosat hamda turistik salohiyati yuqori bo‘lgan viloyatlar uchun aniq va tizimli davlat dasturlari, rejalari va konsepsiyalari ishlab chiqilmaganligi, **yettinchidan** sobiq Ittifoq hududida boshqaruvning sotsialistik shakli o‘rnatilganligi tufayli turizm va ekskursiya sohasi

rivojlanmadi. Chunki turizm rivojiga xizmat qiladigan zamonaviy yondashuv va raqobat, xalqaro hamkorlik hamda sohadagi xususiy tadbirkorlikka ya`ni nodavlat turizm tashkilotlari faoliyatiga yo‘l berilmaganligi bilan ham ushbu davr xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://татлин.ру/артислес/туристскиэ_сэнтрй_в_узбекистане
2. Mansurov M.Sh. Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanish jarayonlari va holati (1980-2018 y). Avtoreferati. Toshkent – 2020. B-12.
3. R.Abdumalikov. T.Xoldorov. Turizm “O`qituvvchi” Toshkent-1988. B-44.
4. Народное хозяйство СССР в 1988 г. Статистический ежегодник. – Издательство «Финансы и статистика». – Москва,1989.
5. Egamberdieva G. O'zbekistonda turizm sohasini isloh qilish bosqichlari (XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning birinchi choragi). FarDU. ILMIY XABARLAR – NAUCHNIY VESTNIK.FerGU» Farg'ona, 2020/№2.B-90.

Nigmatov Alisher Xayrulla o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi
alishernigmatov911@mail.ru

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DAVLATLARNING TURIZM SOHASIDAGI HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligini rivojlantirishi haqida so‘z boradi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlarining o‘zaro hamkorligining istiqboli yo‘nalishlaridan bir bu turizim bo‘lib, bu hamkorlik asosida qilingan ishlar haqida fikr va mulohaza yuritilgan

Kalit so‘z: SHHT, turizm, iqtisodiyot, rivojlantirish, UNWTO, Toshkent, hamkorlik.

SHHT ishtirokchi mamlakatlari o‘rtasidagi gumanitar va madaniy almashinuv ko‘p tomonlama muloqot formatida 10 yildan ortiq davom etmoqda, ammo turizm sohasiga katta e’tibor berilmagan edi. Turizm iqtisodiyotni rivojlantirishda va xalqlar o‘rtasidagi madaniyatlar muloqotini chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, 2016 yildagi Toshkentda o‘tkazilgan

SHHTning 15-sammitda tarixda birinchi marta sayyohlik munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma dastur qabul qilindi. U Rosturizm tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, hujjatning asosiy maqsadi umumiy turizm makonini shakllangan madaniy — tarixiy va iqtisodiy aloqalar asosida shakllantirish uchun turizm sohasida teng huquqli, o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirishga ko‘maklashishdir. Ushbu chora-tadbirlar sayyohlik almashinuvining kuchayishiga, ShHTga a’zo barcha davlatlar tomonidan ushbu sohadan olinadigan daromadlarning o‘sishiga, yangi ish o‘rinlarini yaratishga, fuqarolarning turmush darajasi va sifatini oshirishga yordam beradi[1].

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning vakolatli organlari (keyingi o‘rinlarda SHHT deb ataladi), keyinchalik tomonlar deb ataladi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) maqsad va tamoyillariga amal qilib, yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlashga hamda turistik hamkorlik qilishga intilmoqda. Shanxay hamkorlik tashkiloti Xartiyasining 2002-yil 7-iyundagi 3-moddasi va Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning 2007-yil 16-avgustdagi uzoq muddatli yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomasining 19-moddasi qoidalaridan kelib chiqqan holda, 2016-yili 24-iyunda SHHT strategiyasini 2025 yilgacha amalga oshirish maqsadida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha dastur qabul qildilar. Unda quyidagilar o‘z aksini topgan:

Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari

Turizm sohasidagi teng huquqli va o‘zaro manfaatli ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirishga intilishadi, bunda turistik almashinuvlarni jadallashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, fuqarolarning turmush darajasi va sifatini oshirish. ShHTga a’zo barcha davlatlar tomonidan ushbu sohadan olinadigan daromadlarning o‘sishi manfaatlarida umumiy turistik makonni tashkil etish maqsadida mavjud madaniy-tarixiy va iqtisodiy aloqalar asosida shakllantiriladi.

Taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini birgalikda oshirish, sayyohlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, turizm xavfsizligini ta’minlash masalalarida hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘radilar. Turizm industriyasi korxonalari va unga aloqador tarmoqlar o‘rtasidagi hamkorlikka, investitsiyalarni jalb qilishga, ShHTga a’zo davlatlarning turizm infratuzilmasini yaratish va takomillashtirishga ko‘maklashadilar. ShHTga a’zo manfaatdor davlatlar o‘rtasida turizm sohasida chegara va mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirishning muhim roli va istiqbolli xususiyatini ta’kidlaydilar.

Hamkorlik shakllari:

ShHTga a’zo davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligining asosiy shakllari quyidagilar bo‘lishi mumkinligiga ishonishadi:

milliy turistik ma’muriyatlar ko‘magida tashkil etiladigan xalqaro turistik ko‘rgazmalar, yarmarkalar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish orqali turistik mahsulotni birgalikda targ‘ib qilish;

turizm idoralari va kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish;

ShHTga a’zo davlatlar fuqarolarining o‘zaro turistik sayohatlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

SHHT doirasida elektron va bosma ommaviy axborot vositalari, ixtisoslashtirilgan turistik-axborot markazlari imkoniyatlaridan foydalangan holda qulay turistik axborot muhitini shakllantirish maqsadida turistik resurslar to‘g‘risidagi axborot materiallarini almashish;

turizm faoliyatini tashkil etishda tajriba almashish va umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish, turizm infratuzilmasini yaratish va takomillashtirishga investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha turistik forumlar, seminarlar, davra suhbatlari o‘tkazish;

sayyohlik sanoati korxonalarining yangi sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish va ilgari surish bo‘yicha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

ilmiy tadqiqotlar va turizm texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi ishlarni tashkil etish;

turizm faoliyati xavfsizligini ta’minlash, turizm sohasida sug‘urta tizimini takomillashtirish sohasidagi hamkorlik kiradi.

Hamkorlik mexanizmi:

Ushbu dasturni amalga oshirish bo‘yicha hamkorlikni muvofiqlashtirish ShHTga a’zo davlatlarning turizm sohasidagi hamkorlik masalalari bo‘yicha ekspert ishchi guruhi tomonidan amalga oshiriladi, ularning majlislari har yili SHHT kotibiyati negizida yoki tashkilotga a’zo davlatlardan birida o‘tkaziladi.

Ekspert ishchi guruhi faoliyati doirasida konsensus asosida ishlab chiqilgan turizm sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar tashkilotga a’zo davlatlardan birida ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan ShHTga a’zo davlatlarning turizm ma’muriyatlari rahbarlarining uchrashuvlarida ko‘rib chiqiladi.

ShHTga a’zo davlatlarning turizm sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorligini yanada rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida tomonlar tegishli xalqaro shartnomalar va boshqa zarur hujjatlar tuzishlari mumkin.

Ushbu dastur 2016 yil 24 iyun kuni Toshkent shahrida bir nusxada rus va Xitoy tillarida imzolangan bo‘lib, ikkala matn ham bir xil kuchga egadir.

Sammitda Rossiya prezidenti Vladimir Putin o‘z nutqida: “Tashkilot doirasida tobora kuchayib borayotgan gumanitar hamkorlik qoniqarli bo‘lishi mumkin emas. Turizmni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan dastur yagona sayyohlik makonini shakllantirish va sayyohlar xavfsizligini oshirishga qaratilgan”[2], deya e’tirof edigan.

SHHT bosh kotibi Rashid Alimov shunday ta’kidlaydi: “ShHTning Toshkent sammiti doirasida turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirish dasturini imzolash, qo‘shma madaniy-ma’rifiy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish ShHTga a’zo davlatlarning boy tarixiy-madaniy merosini targ‘ib qilishga qo‘shimcha turtki beradi, Yevrosiyo makonida madaniy aloqalarni chuqurlashtirishga yordam beradi".

Turizmni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rib chiqsak, bugungi kunda ShHTga a’zo davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligi to‘g‘risidagi dastur imzolanishini juda ijobiy qadam deb bilish mumkin.

Yig‘ilishda davomida "Madaniy-gumanitar hamkorlik Shanxay ruhining ajralmas qismi bo‘lib qolishi kerak", – deb tushuntirdi Qirg‘iziston prezidenti Olmazbek Atambayev.

Turizm salohiyatidan samarali foydalanish masalasi 2017 yil 25-26 aprel kunlari Qozog‘iston Respublikasi raisligida Pekin shahridagi tashkilotning shtab-kvartirasida bo‘lib o‘tgan ShHTga a’zo davlatlar ekspertlarining turizm sohasidagi hamkorlik masalalari bo‘yicha uchrashuvi kun tartibida asosiy o‘rinni egalladi.

Uchrashuv ishtirokchilari tomonidan turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va milliy qonunchilikni rivojlantirish tajribasi, shuningdek, ShHTga a’zo davlatlarning milliy turizm ma’muriyatlari ko‘magida tashkil etilayotgan xalqaro turizm ko‘rgazmalari va yarmarkalari haqida ma’lumot berildi[3].

Ekspertlar tomonidan 2017-2018 yillarda Shanxay turizm sohasidagi hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning hamkorlik dasturini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi loyihasi ishlab chiqilgan. Reja davlat boshqaruvi organlarining turizm sohasidagi hamkorligini chuqurlashtirish, turizm mahsulotini ilgari surish, ko‘rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini oshirish, sayyohlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, turizm xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan.

Ushbu sohaning rivojlanishi nisbatan endi boshlangan bo‘lsa-da, SHHT mamlakatlarida sayyohlar soni yil sayin o‘sib bormoqda. XXR turizm bo‘yicha davlat idorasining so‘nggi statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2016 yilning birinchi yarmida Xitoy sayyohlik agentliklarining Yevropa mamlakatlariga sayohat qilish uchun buyurtmalari soni 1/4 dan kamaydi va SHHT davlatlariga boradigan xitoylik sayyohlar soni sezilarli darajada oshdi.

2015 yilda Xitoy, Mo‘g‘uliston va Rossiya o‘rtasida tuzilgan “o‘n ming li choy yo‘li" dasturini amalga oshirish to‘g‘risida bitim faol ravishda amalga oshirila

boshlandi[4]. SHHT tashkiloti ushbu dastur mintaqaviy rivojlanishga hissa qo‘shishiga va yanada ko‘proq sayyohlarni jalb qilishiga ishonadi. SHHT davlatlari va Rossiyalik sayyohlar uchun Xitoy eng jozibali sayyohlik joylaridan biri, ya’ni Pekin, Shanxay va Xaynan orollari kabi shaharlardir.

Bu SHHT doirasidagi Rossiya va Xitoyning ikki tomonlama sayyohlik munosabatlariga oid ma’lumotlar, shuningdek, har yili Markaziy Osiyoda sayyohlar soni ortib bormoqda, chunki butun dunyoda ShHTga a’zo barcha mamlakatlarni qamrab olgan Markaziy Osiyo hududi bo‘ylab o‘tadigan buyuk transkontinental yo‘l qiziqish uyg‘otmoqda. Ushbu yo‘lning mashhurligi abadiy Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab o‘nlab turli xalqlar va madaniyatlarning noyob va nihoyatda boy merosi, tabiati va an’analariga asoslangan. Biroq, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistonda turizmni rivojlantirish muammosi chet ellik sayyohlarning eng jozibali diqqatga sazovor joylari to‘g‘risida xabardorligi bo‘lmagan va shunday bo‘lib qolmoqda. ShHTning barcha mamlakatlari uchun umumiy muammo bu xizmatga nisbatan vijdonsiz munosabat, u yoki bu obyekt haqida ma’lumotni chiroyli taqdim eta olmaslik sabablari keltiriladi.

Turizm sohasidagi hamkorlik dasturiga ko‘ra, yuqoridagi barcha muammolar hal qilinishi va batafsil ko‘rib chiqilishi kerak.

Hamkorlar taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini birgalikda oshirish, sayyohlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, turizm xavfsizligini ta’minlash masalalarida hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rishlari kerak. Turizm industriyasi va unga aloqador tarmoqlar korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikka, ShHTga a’zo davlatlarning turizm infratuzilmasini yaratish va takomillashtirishga investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashish kerak.

Uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun ijodiy yondashuvni izlash kerak, ya’ni yoshlarni hamkorlikka jalb qilish. 2013 yilda Qirg‘izistonda “Turizmni rivojlantirish” forumi bo‘lib o‘tdi, u Qirg‘iziston Respublikasi Milliy qismining SHHT yoshlar Kengashiga raisligi doirasida o‘tkaziladi. Forum ekspertlar, turli mamlakatlardan kelgan tashkilot delegatlari, sayyohlik operatorlari va ixtisoslashtirilgan davlat idoralari vakillari uchun

muloqot maydonchasiga aylandi. Forumning maqsadi SHHT yoshlar kengashi raisi Taalaybek Dayirbekovning ta’kidlashicha: “Barcha manfaatdor tomonlarni to‘plash, hozirgi vaqtda turizmning ahvolini muhokama qilish, sohani rivojlantirish uchun yangi g‘oyalarni taqdim etish"[5], — kerak ekanligini bildirdi .

Rossiya ShHTga a’zo davlatlar bilan turizmni rivojlantirish dasturini imzoladi.

2017 yil 9 iyun kuni Ostona shahrida (Qozog‘iston Respublikasi) Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning Shanxay hamkorlik tashkilotiga (SHHT) A’zo davlatlar rahbarlari sammitiga rasmiy tashrifi doirasida turizm bo‘yicha Federal agentlik rahbari Oleg Safonov 2017-2018 yillarda ShHTga a’zo davlatlarning turizm sohasidagi hamkorlik dasturini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasini imzolashda ishtirok etdi[6].

Hujjatda SHHT mamlakatlarining turistik mahsulotni ilgari surish, ko‘rsatilayotgan turistik xizmatlar sifatini oshirish, sayyohlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, turizm xavfsizligini ta’minlash, ilmiy tadqiqotlar va turizm texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi qo‘shma tadbirlari majmui amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Rossiya Prezidenti Vladimir Putin Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlarining sammitidagi nutqida ta’kidlaganidek: "Shanxay hamkorlik tashkilotining butun makonida sa’y-harakatlar, milliy strategiyalar va ko‘p tomonlama loyihalarni muvofiqlashtirishga e’tibor qaratish lozim".

2015 yilda qabul qilingan “Shanxay hamkorlik tashkilotini 2025 yilgacha rivojlantirish strategiyasi” ShHTga a’zo davlatlarning turizm sohasidagi asosiy vazifasi o‘zaro turizm oqimlarini yanada oshirishga ko‘maklashish va ushbu sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishni belgilab berdi.

"Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari Sammitining muhim voqeasi Hindiston va Pokistonning ShHTga a’zo bo‘lishi bo‘lib, turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirishning yangi istiqbollarini ochib beradi. Xususan, Hindiston sayyohlik bozori kirish turistik oqimini ko‘paytirish uchun juda jozibali ekanligi bilan ajralib turadi. So‘nggi 7 yil ichida Rossiya va Hindiston o‘rtasidagi

sayyohlik almashinuvi deyarli 2 baravar oshdi va bu chegaradan uzoqdir. Har yili 30 milliondan ortiq hind fuqarolari chet elga sayohat qilishadi va mamlakatda potensial sayyohlar soni 300 million kishini tashkil qiladi. 2018 yil Rossiya va Hindiston uchun turizm yili deb e'lon qilindi. Va, albatta, biz kelgusi yilda mamlakatimizda bo‘lib o‘tadigan jahon kubogi o‘yinlarida hind va pokistonlik muxlislarni kutmoqdamiz", dedi Federal turizm agentligi rahbari Oleg Safonov[7].

Kazakhstan Today Yangiliklari xabar berishicha: “SHHT mamlakatlari o‘rtasida turizmni rivojlantirish salohiyati juda katta, bu haqda Pekinda 2020-yil 5-sentyabr kuni Xitoyning xizmatlar savdosi bo‘yicha xalqaro yarmarkasi (KMYAT-2020) doirasida "jahon turizmini farovonlik yo‘lida jonlantirish" mavzusidagi hamkorlik va turizmni rivojlantirish bo‘yicha jahon konferensiyasi chog‘ida SHHT Kotibiyatiga ma'lum qilindi[8].

Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) 2001 yilda oltita ta'sischi davlat-Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tashkil etilgan. 2017 yilda Pokiston Islom Respublikasi va Hindiston Respublikasi qo‘shilganidan so‘ng, SHHT eng katta geografik qamrov va aholi soniga ega bo‘lgan mintaqaviy hamkorlikning eng yirik tashkilotiga aylandi. U Yevrosiyo qit'asining 60% dan ortig‘ini va yer aholisining 42% ni egallaydi. Bu yerda 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan 800 millionga yaqin odam yoki insoniyatning barcha yoshlarining yarmi yashaydi.

ShHTga a'zo davlatlar ShHTning 2002 yil 7 iyundagi Xartiyasi qoidalariga amal qiladilar, unda mamlakatlarning ko‘p qirrali hamkorligining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri madaniy-gumanitar hamkorlikdir. ShHTning ushbu muhim yo‘nalishdagi asosiy maqsad va vazifalari a'zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash, madaniy, ta'lim va boshqa umumiy manfaatli sohalarda samarali hamkorlikni rag‘batlantirishdan iborat. Nizomning 3-moddasida (hamkorlik yo‘nalishlari) shunday deyilgan: "SHHT doirasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari fan va texnika, ta'lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishdir"[9].

2020-yil 22-may kuni Rossiya Federatsiyasi iqtisodiy rivojlanish vazirligining turizm bo‘yicha federal agentligi (Rosturizm) rahbari Z.V.Doguzova raisligida videokonferensiya shaklida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning turizm ma’muriyatlari rahbarlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda SHHT Bosh kotibi Vladimir Norov ishtirok etdi.

SHHT bosh kotibi tadbirni tashkil etgani uchun Rossiya tomoniga minnatdorchilik bildirdi. Uning ta’kidlashicha, Jahon sayyohlik tashkiloti va UNCTAD[10] (Birlashgan Millatlar tashkilotining savdo va taraqqiyot konferentsiyasi) mutaxassislarining fikriga ko‘ra, iqtisodiyotning eng ko‘p zarar ko‘rgan sohalaridan biri aynan turizm, shuningdek, u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan mehmonxona va restoran biznesi, dam olish, transport sanoati va boshqalar bo‘lgan (gap CAVID-19 haqida ketmoqda). Shubhasiz, pandemiyadan keyin turizm sanoatini tiklash faqat karantin va harakat erkinligi va iqtisodiy faoliyatdagi boshqa cheklovlar bekor qilingandan so‘ng, eng qat’iy xavfsizlik choralarini ko‘rgandan va mamlakatlarimiz aholisining sog‘lig‘ini ta’minlashdan keyin mumkin bo‘ladi.

ShHTga a’zo davlatlar iqtisodiy ahvol va mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda iqtisodiyot va uning eng ko‘p zarar ko‘rgan tarmoqlari (turizm, transport transporti, mehmonxona biznesi va boshqalar.)ni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli dasturlarni qabul qilindi va amalga oshirdi.

SHHT bosh kotibi, shuningdek, Kotibiyat a’zo davlatlar bilan birgalikda tashkilotga a’zo davlatlar madaniyati kunlari, milliy bayramlar, simpoziumlar, konferensiyalar va davra suhbatlari o‘tkaziladigan "SHHT-bizning umumiy uyimiz" dasturini amalga oshirayotganini ta’kidladi.

V. Norovning ta’kidlashicha, ShHTga a’zo davlatlarning mamlakat sayyohlik brendini targ‘ib qilish maqsadida Kotibiyat tomonidan "ShHTning sakkiz mo‘jizasi" tadbirlari sikli konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, yuqorida ta’kidlanganidek. u birlashmaning madaniy xilma-xilligi va sayyohlik salohiyatini namoyish etishga qaratilgan va turli mamlakatlarda muvaffaqiyatli o‘tgan.

Bosh kotibning ta’kidlashicha, SHHT koronavirus pandemiyasiga qaramay, yaqin kelajakda jahon iqtisodiy markazlaridan biriga aylanish uchun haqiqiy salohiyatga ega, bu esa turizm sohasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uning fikricha, turizm sohasi iqtisodiyotning "pandemiyadan oldingi" darajasini tiklash, tiklash va uning keyingi o‘sishi uchun haydovchi bo‘lishi mumkin va bo‘lishi kerak. Pandemiya barcha mamlakatlarga ko‘plab sohalarda katta qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqardi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishi aniq. Bunga misol sifatida davlat-xususiy sheriklikni, shu jumladan turizm sohasini rivojlantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan Xitoy keltirsak bo‘ladi. Alibaba guruhi va boshqalar kabi kompaniyalar “kontaktsiz” xizmatlarni taqdim etish uchun "katta ma’lumotlar", "sun’iy intellekt" va boshqalarni o‘z ichiga olgan ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash imkonini beruvchi platformalarni yaratdilar, virtual sayohatlar, "bulutli ko‘rgazmalar" operatsion xarajatlarni kamaytirish, turistik tajriba almashish, yuqori texnologiyalar va boshqalarni sifatli xizmat ko‘rsatish va hozirgi koronavirus epidemiyasi kabi favqulodda vaziyatlarga moslashuvchan javob berish qobiliyati beradi. Axborot texnologiyalari va innovatsiyalar yordamida SHHT mamlakatlarida sifat jihatidan yangi sayyohlik muhitini yaratish mumkinligi muhimdir.

O‘zbekiston turizim sohasida samarali xizmat qilish taklif qilishi mumkin. Samarqandda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmoniga binoan ShHTning barcha mamlakatlari uchun turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi oliy o‘quv yurti bo‘lishi mumkin bo‘lgan "Ipak yo‘li" xalqaro turizm universiteti ochilishi bejiz emas.

Turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitim mintaqaviy iqtisodiy va madaniy rivojlanishga yordam beradi. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirishning jahon amaliyotidan ko‘rinib turibdiki, ushbu sohaning yuqori rentabellikga ega bo‘lishi uchun bozorning barcha ishtirokchilarining sa’y-harakatlarini birlashtirish zarur. SHHT makoni bu sohada ham katta istiqbolga ega.

FOYDALANILGAN DABAIYOTLAR RO‘YHATI

[1]. Программа по развитию сотрудничества государств-членов Шанхайской организации сотрудничества в сфере туризма // Персональный сайт Шанхайской Организации Сотрудничества. – 2016 [Электронный ресурс]. – URL: http://rus.sectsco.org/documents.html (дата обращения: 12.04.2017).

[2]. Путин призвал глав государств ШОС определить перспективы взаимодействия // Информационный сайт. –2007 [Электронный ресурс]. –URL: http://www.newsry.com/world/16aug2007/putin_shos.html (дата обращения: 16.05.2017)

[3]. Демкин, В.П. Гуманитарная информатика как модель гуманитарного образования в информационном обществе / В.П. Демкин, Г.В. Можаева // Высшее образование в России. – 2003. – № 2. – С. 17-20.

[4]. Цюй Сун Невозможно сдержать энтузиазм / Сун Цюй // Китай, 2017. –№1. – С.52–56.

[5]. Сафронова, Е.И. Значение гуманитарного сотрудничества стран ШОС и интересы России / Е.И. Сафронова // Китай в мировой и региональной политике. История и современность. –2014[Электронный ресурс]. Систем. требования: Adobe Acrobat Reader. – URL: http://elibrary.ru/item.asp?id=22653034.html (дата обращения: 10.05.2017).

[6]. https://profi.travel/pages/28612/details

[7]. https://profi.travel/pages/28612/details

[8].https://www.kt.kz/rus/velikiy_shelkovyy_put/potentsial_razvitiya_turizma_mezhdu_stranami_shos_yavlyaetsya_1377905725.htm

[9].https://www.kt.kz/rus/velikiy_shelkovyy_put/potentsial_razvitiya_turizma_mezhdu_stranami_shos_yavlyaetsya_1377905725.html

[10]. Конференция ООН по торговле и развитию (ЮНКТАД) (англ. United Nations Conference on Trade and Development) — орган Генеральной Ассамблеи ООН.

Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
ЎзМУ Тарих факультети
“Антропология ва этнология” кафедраси доценти, т.ф.д.

ЭТНОТУРИЗМ ТУШУНЧАСИ, ЎЗБЕКИСТОНДА ЭТНОТУРИЗМ ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ ВА МУАММОЛАР

Аннотация: Мазкур мақолада этнографик ва этник туризм тушнчаларининг мазмуни, дунё мамлакатларида этнотуризмнинг аҳамияти, афзаллиги бўйича маълумотлар берилади. Шунингдек, Ўзбекистонда этнотуризмни ривожлантириш амалиёти, шарт-шароитлари, бу борадаги муаммолар таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: туризм, этнотуризм, этнографик, турист, маданий, мерос, этник, маданият, мамлакат, муаммо, миллий, Ўзбекистон.

Сўнгги йилларда туризм бутун дунё бўйлаб кенг ёйилиб, жадал ўсиб борар экан, унинг истиқболли йўналишларидан бири бўлган, этнографик туризм ҳам фаол ривожланмокда. Мутахассисларнинг прогнозларига кўра,

XXI асрнинг иккинчи чорагида ҳам этник-маданий ўзига хослик билан танишиш кўпчиликка саёҳат учун кучли рағбат беради ва этнотуризм халқаро туризмнинг барқарор турларидан бирига айланади. Бу бежиз эмас, туризмнинг ушбу тури ўзининг ўзига хослиги ва ноёблиги туфайли келажакда катта эҳтиёжни келтириб чиқаради, чунки ҳозирги даврда этник хилма-хиллик шиддат билан камайиб бормоқда.

XX асрнинг охирги йилларда олимлар этнографик ва этник туризм атамаларни тез-тез қўллай бошладилар. Аммо шунга қарамай, умумий, барча учун бирдек қабул қилинган таъриф мавжуд эмас. Бу борада якуний хулосанинг йўқлиги, туризмнинг ушбу турларини таснифлашда кўплаб фикрлар ва ёндашувлар борлиги билан боғлиқ. Масалан, Е.Н.Трофимовнинг фикрича, этнографик туризм бу – турли халқларнинг анъанавий маданияти ва ҳаётининг хусусиятларини сақлаб қолган аҳоли масканларига ташриф буюриш, шу жумладан халқ турмуш тарзига оид музейлари билан танишишга асосланган маданий-маърифий туризм йўналишидир [Трофимов, 2014. С.48].

А.В.Бабкиннинг қайд этишича этнографик туризм қуйидаги учта шаклда намоён бўлади:

1. Аниқ этник гуруҳларнинг анъанавий маданияти хусусиятларини сақлаб қолган (доимий ва вақтинчалик) этник аҳоли пунктларига ташриф буюриш.

2. Халқ аънавий турмуш тарзи намойиш этилган музейларига ташриф буюриш.

3. Ижтимоий-маданий мероснинг номоддий шакллари, яъни анъаналар, байрамлар ва халқ сайиллари, урф-одатлари ва маросимлари билан таништириш[Бабкин, 2008].

Ч.Б. Сундуев эса, этнографик туризмни “маданий-маърифий туризмнинг йўналишларидан бири, туристни маҳаллий аҳоли муҳитига сингдириш, маҳаллий миллий маданият билан танишиши, деб ҳисоблайди [Сундуев, Хышектуева, 2009.].

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, баъзи муаллифлар, масалан, В.Н. Пресняков ва М.А. Жулин ўз тадқиқотларида этнографик туризмни этник туризм билан синоним сифатида белгилайди [Пресняков, 2010. С.157].

М. Ю. Балаганскаянинг фикрича: “Этнографик туризм – анъанавий маданият жойларига, этнографик қишлоқларга ташриф буюриш, шунингдек, этник маданият ва ҳунармандчилик билан танишиш билан боғлиқ маданий-маърифий туризм турларидан бири”[Балаганская].

Аксарият тадқиқотчилар этнографик туризмни ҳам этник туризмни ҳам этник гуруҳлар ёки маълум этноснинг маданий меросига қизиқишдан келиб чиққан туристик саёҳат сифатида белгилайдилар.

Мазкур мақолада этнографик ва этник туризмни битта тушунча, яъни этнотуризм сифатида қўлланилган. Бизнинг фикримизча, этнотуризм (этнографик ёки этник туризм ҳам) дунёнинг турли ҳудудларидаги халқлар, этник гуруҳлар, қисқаси, тиллари ва маданиятининг хилма-ҳиллиги билан ажралиб турадиган маҳаллий жамоалар билан танишиш мақсадида ташкил этиладиган туризмдир. Одатда сайёҳлар маданий қадриятлари ўз халқиникидан сезиларли даражада фарқ қиладиган халқларни, мазкур халқларнинг турмуш тарзи, анъаналари ёки ошхонаси орқали ўрганишга қизиқади.

Демак, этнотуризм туфайли сайёҳ анъанавий турар-жой ва хўжалик иншоотларига эга маҳалла ва қишлоқларни зиёрат қилиш; маҳаллий халқ ва уларнинг миллий либослари билан танишиш; маҳаллий халқларнинг маиший ва ҳунармандчилик ишларида қатнашиш; анъанавий ошхона таомларидан баҳраманд бўлиш каби ноёб имкониятларга эга бўлади. Бошқа маданиятларнинг этник хусусиятларини билиш, ўзига хослиги билан ноёб бўлган турли этник гуруҳлар аҳолиси маданиятига оид яхлит тассавурга келишга ёрдам беради. Шу билан бирга этнотуризм халқлараро яқинроқ алоқаларнинг шаклланишига ва бу халқлар вакилларининг ўзаро маданият алмашинувига ёрдам беради.

Этнографик ёки этник туризм билан чамбарчас боғлиқ бўлган яна бир тушунча, яъни "этномаданий туризм" тушунчаси бўлиб, этник мазмунга йўналтирилган саёҳатнинг барча турларини бирлаштириш мақсадида қўлланилган.

А.Г. Бутузовнинг сўзларига кўра, этномаданий туризм – бу этник-маданий соҳанинг ҳилма-хиллигини тушуниш истаги билан белгиланадиган турли туристик фаолият турларининг комбинациясидир. Яъни маълум бир этномаданий муҳит, жумладан, муайян халқнинг маданияти, анъаналари, турмуши ва меъморчилиги каби ўзига хос хусусиятлари ҳақида билим олишга қаратилган саёҳатлар йиғиндисидир. Шунингдек, этномаданий мотивация билан қилинган саёҳатни фақат этнографик ёки этник туризм билан боғлаб қўймаслик керак. Олим этномаданий туризмнинг кичик кўринишлари сифатида: этнографик, этник, носталгик, экологик-этнографик, этно-маърифий ва антропологик ёки турмуш тарзи туризми кабиларни белгилаган [Бутузов, 2017. С.3].

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, замонавий туристларда очиқ осмон остидаги этнографик музейларга ёки маълум этносга хос бўлган меъморий бинолар ва уй-рўзғор буюмларини намойиш этувчи анъанавий қишлоқларга қизиқиш ортиб бормоқда. Шу билан бирга, турист маълум бир тарихий даврга тегишли бўлган объектни шахсан кўриши, унинг мақсадини билиши ва шу орқали ўз ўтмиш маданияти ёки бошқа этник гуруҳларнинг маданияти билан алоқада бўлиши мумкин. Айтайлик, қишлоқ уйларида миллий либослар кийиб, халқ ҳунармандчилиги билан шуғулланувчи аҳоли билан танишиши мумкин.

Юқоридаги фикрлардан маълум бўладики, этнотуризмда туристларни этнографик объектлар ўзига жалб этади. Маълум бир ҳудудда этнографик мерос объектлари қанча кўп бўлса, унинг туризм учун жозибадорлик даражаси шунчалик юқори бўлади.

Этнографик объект эса анъанавий маданиятнинг этник ўзига хослигини ўзида намоён акс эттирадиган маданий-тарихий объект ёки ҳодисадир.

Уларни бир этник гуруҳ маданиятини бошқасидан ажратиб турувчи белгилар тизими сифатида тавсифлаш мумкин.

В.Ю.Воскресенский этнографик объектларга қуйидагиларни киритади:

• этноснинг анъанавий услубида қурилган ва унинг маданий ҳаётининг ўзига хос даври билан боғлиқ бинолари бўлган этнографик қишлоқлар ва бошқа масканлар;

• этник-маданий ўзига хослик намоён бўлган қишлоқ аҳоли пунктлари, шаҳар массивлари ва алоҳида бинолар;

• анъанавий интерер, безаклари ва анъанавий уй-рўзғор буюмлари тўпламига эга анъанавий уй-жойлар;

• архитектура ва безакдаги анъанавий услублар мажмуаси билан ажралиб турадиган, муайян этник гуруҳ вакилларининг диний мансублигини акс эттирувчи диний бинолар;

• этник хусусиятга эга археологик обидалар (маданий ёдгорликлар);

• анъанавий хўжалик турига мос келадиган халқ ҳунармандчилиги ва кундалик турмуш объектлари;

• фольклор жамоалари иштирокида ва миллий либослардан фойдаланган ҳолда халқ сайиллари ва тантаналари ўтказиладиган жойлар;

• музейлар (этнографик, тарихий-маданий, музей-қўриқхоналар, ўлкашунослик) ва кўргазмалар;

• халқ ҳунармандчилиги ва анъанавий фаолият турларини намоён этувчи жойлар [Воскресенский, 2007. С. 68.]

Бугунги кунда этнографик объектларнинг этник-маданий ўзига хослигини сақлаб қолишлари муҳим масала. Юқорида кўриб чиққанимиздек, этнотуризм нафақат этнографик объектларни, балки номоддий маданият элементларини, масалан, миллий байрамлар ва фольклор байрамларини, урф-одат ва анъаналарни, махсус маросимлар ва ҳунармандчиликни ўз ичига олади.

Этнотуризмнинг афзаллиги шубҳасиз этнографик қишлоқларни оммалаштириш имкониятидир. Ҳозирги пайтда Шимолий Европа, Волга

бўйи, Ғарбий ва Шарқий Сибир минтақаларида алоҳида этнографик қишлоқлар ва уларнинг мажмуалари ташкил этилган ва улар ривожланиб бормоқда. Айниқса, Россиянинг Перм, Иркутск ва Саратов яқинларида жойлашган этнографик қишлоқлар машҳурдир.

Этнотуризмнинг яна бир афзаллиги этник маданий меросни сақлашга ҳисса қўшиши ва ҳудудларнинг иқтисодий ривожланишининг омилига айланиши мумкин.

Этнотуризм туфайли инсон анъанавий уй-жой ва хўжалик биноларини, маҳаллий аҳолини миллий либосларда кўриш, шунингдек, анъанавий байрамларда қатнашиш, миллий таомлардан татиб кўриш ва анъанавий уй-рўзғор буюмларини эсдалик совғалари сифатида сотиб олиш имкониятига эга бўлади. Саёҳатдан қайтган туристлар ўз қариндошлари ва дўстларига сотиб олинган маҳсулотларни кўрсатадилар ва ташриф буюрган минтақадаги этник гуруҳларнинг маданий хусусиятлари ҳақидаги ўз таассуротлари билан ўртоқлашадилар. Буларнинг барчаси, умуман олганда, турли этник гуруҳлар вакиллари ўртасида бағрикенглик муносабатларини мустаҳкамлашга ёрдам беради.

Дунё мамлакатларида этнотуризмни ривожлантириш бўйича лойиҳаларнинг асосий вазифаси, унинг ривожланиш жараёнини нотўғри, лаҳзали тенденциялардан ҳимоя қилишга, унга барқарорликни таъминлашга – биринчи навбатда, маҳаллий аҳолини туризм бизнесига фаол жалб этишга қаратилган. Аҳоли пунктларида туризмнинг этнографик йўналишини ишлаб чиқишда эҳтиёт бўлиш ва туристлар қабул қилинадиган қишлоқларда ўрнатилган анъанавий турмуш тарзини бузмасликка ҳаракат қилиш керак. “Меҳмонхонадагидек” қулайлик, яъни замонавий ресторан типида хизмат кўрсатишга интилиш, кафе, бар ва ресторанларнинг очилиши қишлоқдаги маънавий муҳитга ҳам салбий таъсир кўрсатиши, шунингдек, ўзаро уйғунликка интилаётган хорижлик сайёҳларни қайтариши мумкин. Фақатгина маҳаллий сайёҳларга эътибор қаратиб, улардан қисқа муддатли фойда кўришни ўйлаш эмас, балки турли этник гуруҳларни жалб қиладиган,

узоқ муддатли ва барқарор модел яратиш устида ишлаш муҳим [Этнографический музей под открытым небом].

Этнотуризмни ривожлантириш дастурларини ишлаб чиқиш ва туб аҳолининг яшаш жойларига аниқ йўналишларни ташкил этишда тайёргарлик босқичи муҳим аҳамиятга эга. Лойиҳа ҳудудларида туризмни ривожлантириш бўйича барча мавжуд материаллар, ҳужжатлар, дастурлар ва режаларни тўплаш; ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ҳолатини ҳисобга олиш; барқарор этнотуризмни ривожлантириш учун инвестиция имкониятларини баҳолаш ва маълумотлар базаси кўринишида инвестисия таклифлари пакетини яратиш; этнотуризм хизматларига бўлган талабни ўрганиш; этнотуризмни ривожлантиришдан манфаатдор турли ташкилотларнинг ҳамкорлик тармоғини яратиш зарур бўлади. Бундан ташқари, этник жамоалар томонидан барқарор этнотуризмни ривожлантириш имкониятларини баҳолаш, шунингдек, маҳаллий аҳолининг ўз ҳудудларида этник туризмнинг потенциал ресурсларидан фойдаланишга тайёрлиги ва қобилиятини аниқлаш ва уни ривожлантириш устида ишлаш лозимдир. Табиийки, тегишли мутахассисларсиз лойиҳани амалга ошириш мумкин эмас, бу эса маҳаллий аҳоли орасидан этнотуризм соҳасида малакали мутахассислар тайёрлашни тақозо этади.

Мамлакатимиз учун янги йўналиш бўлишига қарамай, этнографик туризм кундан-кун кенг ёйилиб бормоқда. Айниқса бу борада Ўзбекистон Президентининг 2018 йил 3 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси туризм салохиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш буйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5326-сон фармони, 2018 йил 15 мартдаги **«Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ - 3514-сон қарори,** 2019 йил 5 январдаги ПФ–5611-сон “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 мартдаги «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада қўллаб-қувватлаш ва

ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 137-сон қарори каби норматив хужжатлар [https://lex.uz/docs] туризим соҳаси, шу жумладан этнотуризм соҳасини таркиб топиши ва ривожланишига муҳим ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Таъкидлаб ўтилганидек, этнотуризм сайёҳларнинг халқларнинг ҳақиқий ҳаётига, халқ анъаналари, маросимлари, ижоди ва маданияти билан яқиндан танишишга бўлган қизиқишига асосланади. Бугунги кунда Ўзбекистоннинг этнографик саёҳат доирасидаги сайёҳлик кампаниялари стандарт классик маршрутдан кўп жиҳатдан фарқ қилувчи дастурни таклиф этмоқда. Бундай дастурлардан кўзланган мақсад – шаҳар шовқинидан узоқлашиш, тинчлик ва осойишталикни ҳис қилиш, тотувлик ва хотиржамликни ҳис қилиш, миллий муҳитга шўнғиш, оила ва қишлоқ ҳаётида иштирок этиш орқали маҳаллий халқнинг маданияти ва турмуш тарзи билан бевосита алоқада бўлишдир.

Анъанавий қишлоқ типига хос меҳмон уйларини яратиш бизга Ғарб дунёсидан кириб келди. Айни пайтда бу шарқ анъаналарига ҳам мос бўлиб, қишлоқ одамлар ҳар доим меҳмонларни кутиб олишдан хурсанд бўлишади. Масалан, Нурота қўриқхонаси яқинидаги Ухум, Ҳаят, Жиззах вилоятининг Фориш туманидаги Мажерум, Навоий вилояти Нурота туманидаги Сентоб қишлоқларида ана шундай типдаги меҳмон уйлари ташкил этилган. Улар тоғли ҳудудда жойлашган бўлиб, автомашинада бориш мумкин. Бундай меҳмон уйлари дарахтзорлар билан ўралган, булоқлар оқиб турувчи, табиат манзаралари гўзал жойларда барпо этилган.

Барча уй-жойлар миллий, қишлоқ хўжалиги техникаси асосида қурилиб, жиҳозланиб, ётоқхона, овқатланиш хонаси, душ, булоқ суви ва бошқа маиший жиҳозлар билан таъминланган. Меҳмонхона эгалари меҳмонларга турли ҳил миллий таомларни таклиф қилишади. Туристлар меҳмондўст мезбонлар билан бирга уй-рўзғор юмушларини бажаришлари, масалан, тандирда нон пишириш, ўчоқда овқат пишириш, гилам тўқиш, кашта тикиш ёки мева ва сабзавотларни йиғишда ёрдам беришлари мумкин.

Шунингдек, туристлар қишлоқ атрофида пиёда ёки отда сайр қилиши, тоғ дарёсида балиқ овлаши, халқ оғзаки ижоди оқшомида иштирок этишлари мумкин. Саёҳатдан эсдалик сифатида анъанавий сувенирлар: гиламлар (алача), туморлар, сумкалар ва хуржунларини сотиб олишлари мумкин[Этнографический музей под открытым небом].

Бундан ташқари, барча турдаги ўйинлар, мусобақалар ва санъат усталарининг чиқишлари ўтказиладиган халқ сайиллари: жанг санъатининг қадимий тури кураш, бахшилар мусобақаси, “Кўпкари” чавандозлар мусобақаси, ўйин-кулгилар, анъанавий ўзбек масхарабозлари ва қизиқчилари, миллий таомлар танлови (сумалак, қатлама, буджак, ғилминди)да иштирок этиш мумкин.

Ҳозирги босқичда ички этнотуризмда турли профилдаги музейларнинг илмий ва ташкилий салоҳиятидан фаол фойдаланиш тенденцияси кузатилмоқда.

Этнотуризм иҳлосмандлари учун турар жой дастури минтақавий миқёсдаги музейларга ташриф буюришни ҳам ўз ичига олади.

Этнотуризмни бой меъморий мероси билан бутун дунёга машҳур бўлган шаҳарларда ҳам ташкил этиш мумкин. Сўнгги йилларда қадимий шаҳарни кўришга хавасманд туристларга тақдим этилаётган дастурларда маҳаллий халқ ҳунармандчилиги ва амалий санъати билан таништиришга катта эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон бу борада катта салоҳият ва тажрибага эга. Самарқанд, Бухоро, Хива каби қадимий шаҳарларимиз бутун дунё сайёҳларини ўзига тортиб келган. Хусусан, Самарқандлик ҳунармандларнинг маҳсулотлари азалдан дунёга машҳур. Буюк Ипак йўли тармоқлари бўйлаб бу ердан турли мамлакатларга беқиёс гўзал газламалар – қип-қизил бахмал, парча, шойи, гиламлар, металл ва чарм буюмлар, заргарлик буюмлари, машҳур Самарқанд қоғози ва бошқа кўплаб товарлар етказилган. Энди эса тўғридан-тўғри кўчада, ҳунармандчилик устахоналари ва савдо майдончалари бўйлаб халқ ҳунармандларининг гўзал асарларини яратаётганини кўриш мумкин.

Хиванинг тор кўчаларида, шинам устахоналарда ўйилган дарвоза ортида халқ ҳунармандлари кўз ўнгингизда қумғоннинг мис қирраларига нафис нақш зарб ёки нозик ёғоч устунларга нақш ўйиб безак беришини кузатасиз.

Сўнгги йилларда қуйидаги манзиллар бўйича ташкил этилган этнографик йўналишлар орасида Фарғона водийсидаги Риштон, Қувадаги этнотурстик манзиллар; Нурота тоғи бўйлаб Хаёт, Ухум, Меджерум қишлоқларидаги манзиллар; Бойсун тоғи этагиларида жойлашган Работ, Дарбанд, Педанг, Коферун қишлоқлари машҳур саналади. Бу саёҳат йўналишлари бўйича ўзбек қишлоқларини кўриш, анъанавий кўринишдаги меҳмонхона ва ўтовларда бўлиш, қишлоқдаги хўжалик юмушлари (тандирда нон ёпиш, гилам тўқиш, кашта тикиш, кулолчилик ишлари, пахта, полиз маҳсулотлари, меваларни териш ва ҳак) да иштирок этиш, анъанавий урф-одатлар ва маросимлар билан танишиш, «Наврўз» байрами, «Шарқ тароналари», «Бойсун Баҳори», «Қадимий Хоразм маданияти» каби фестивалларда иштирок этиш, қишлоқ анланиб пиёда ёки отда юриш, шарқона бозорларни кўриш каби имкониятлар яратилган.

Фарғона водийсининг Марғилон шаҳрида ипак ишлаб чиқариш цехларига ташриф буюрган туристлар халқ шойи тўқиш анъаналарини авайлаб сақлаган машҳур усталар – абрбандларнинг ипакдан яратган бетакрор ижодига қойил қолишлари, ипак матолар тўқишнинг ноёб турларини тайёрлаш жараёнини кузатишлари мумкин бўлади.

Фарғонадан эллик километр узоқликда жойлашган Риштон шаҳри аҳолиси қадимдан сопол буюмлари билан машҳур. Саккиз юз йилдирки, усталар тоғ ўсимликларининг табиий минерал бўёқлари ва маҳаллий қизил лойдан кулолчилик маҳсулотлари яратиш сирларини авлоддан-авлодга ўтказиб келмоқда [Этнотуризм в Узбекистане].

Ҳозирги пайтда этнотуризмга мослашган қишлоқ ва маҳаллаларни барпо этиш кўлами кенгайиб, бу соҳадаги дастурлар сони ҳам кўпайиб бормоқда. Хусусан Бухоро вилоятида этнотуризмга мослашган “Жонгелди”

овули (Пешкў тумани), "Ипак ва зираворлар" тадбири, Ғиждувон кулолчилик мактаби ҳамда Вобкент туманидаги "Ширин" этнотуризм қишлоғи, Чиноз туманидаги "Эшонобод" этнотуризм қишлоғи шулар жумласидандир.

Наманган вилоятига борган туристларни Тўракўрғондаги Ибрат мемориал мажмуаси ва Ахсикент археологик ёдгорлигини кўриш билан бир вақтда Чуст пичоқлари ва дўппиларининг тайёрланиш жараёни, Чортоқдаги минерал сув ишлаб чиқарадиган корхона билан танишиш имкониятга эга бўладилар [Этнотуризм нима бу?].

Бугунги кунда Қорақалпоғистон Республикасининг шаҳар ва туманлари алоҳида туристик йўналишлар бўлиб, улар қаторига Нукус шаҳри, Чимбой, Элликқалъа, Тўрткўл ҳамда Мўйноқ тумани киради.

Маълумки, Мўйноқ тумани алоҳида туристик йўналиш сифатида бир қатор диққатга сазовор жойлари, ўзига хос жиҳатлари билан ажралиб туради. Жумладан, экотуризм йўналишига оид Орол денгизи, Устюрт платоси, Судочъе кўли каби табиий объектларга ташриф буюрган туристлар учун замонавий йўл танламас автотранспортларда экстремал жип-тур ташкил этилмоқда. Орол денгизи бўйида жойлашган ўтовлар мажмуаси ҳам туристларни бефарқ қолдирмайди. Шу билан бирга маҳаллий аҳолининг Орол денгизи билан чамбарчас боғлиқ бўлган ўтмиши, урф-одатлари ва бугунги кунда ҳам сақланиб қолган турмуш тарзини ифодалашга қаратилган этнотуризм ривожига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Масалан, “Балиқчилар” уй-музейи, “Орол денгизи тарихи” музейи, “Ҳунармандлар хиёбони” каби масканлар Мўйноқ халқининг урф-одатлари, турмуш тарзи ҳақида туристларда яхлит тасаввур уйғотади [Туризм иқтисодий ривожланиш драйвери].

Маълумки, бир неча йиллардан буён ўтказиб келинаётган “Uzbekistan Ethno Games”, “Youth Tourism”, “Баҳодирлар ўйини” ҳамда “Этнотуризм ва этноспорт: хориж тажрибаси ва ривожланиш истиқболлари” каби йирик тадбирлар мамлакат туризм салоҳиятини янада ошириш, хорижий туристлар ташрифини кўпайтиришга қаратилган. Шунингдек, етакчи хориж давлатлари

билан ҳамкорликни кенг йўлга қўйишни мақсад қилган. [Марказий Осиё экспертлари этнотуризмни ривожлантириш ...]

Истиқболда “Кўҳна тарих дурдоналари” миллий дастури доирасида туристларни ўзига жалб қиладиган маданий мерос объектлари сони 800 тадан 2,5 мингтага” етказилиши, “745 та маданий мерос объекти реставрация қилинади, 20 та меъморий ёдгорликда “очиқ осмон остидаги музей”лар ташкил этилиши” [Ўзбекистон Президенти Бутунжаҳон туризм ташкилоти ....] мақсад қилинган.

Юқорида келтирилган маълумотлардан шундай хулоса қилиш мумкинки, Ўзбекистонинг ҳар бир вилояти этнотуризм учун ўзига хос салоҳиятга эга. Асосий масала – барча имконият ва ресурсларни ишга солишдан иборат. Шу билан бирга, дунё миқёсида этнотуризм билан боғлиқ тажрибаларни ўрганиб, мамлакатимизда этнотуризмни янада муваффақиятли ривожлантириш учун яна қуйидаги вазифаларни ҳал этиш зарур:

- этнотуризм индустриясини шакллантириш учун махсус қонунлар ва уларнинг ҳуқуқий механизмини ишлаб чиқиш;

- этнотуризм соҳасида фан, таълим ва амалиётнинг назарий асосларини яратиш;

- этнотуризм орқали маҳаллий аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш масалаларини ҳал этиш;

- этнотуризм бўйича мутахассисларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш;

- этнотуристик обектларни комплекс баҳолаш ва уларнинг кадастрини юритиш;

- этнотуризм бўйича мониторинг олиб бориш ва истиқболларини белгилаш;

- бошқа мамлакатлар ва жаҳон ҳамжамиятининг этнотуризм соҳасидаги тактик режалари, стратегик дастурлари ва тадбирларини ўрганиш ва ҳак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Бабкин А.В. Специальные виды туризма / А.В. Бабкин. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2008 //https://geo.tsu.ru/content/faculty/structure/chair/tourism (Мурожаат санаси: 12.03.24)
2. Балаганская М. Ю. Роль этнокультурного компонента в формировании туристического продукта // https://tourlib.net/books_tourism/balaganskaya21.htm (Мурожаат санаси: 20.03.24)
3. Бутузов А.Г. Этнокультурный туризм. – М.: КНОРУС, 2017.
4. Воскресенский В.Ю. Международный туризм. – М.: Юнити-Дана, 2007.
5. Марказий Осиё экспертлари этнотуризмни ривожлантириш истиқболларини муҳокама қилди // https://sputniknews.uz/20220805/markaziy-osiyo-ekspertlari-etnoturizmni-ri (Мурожаат санаси: 19.03.24)
6. Пресняков В.Н. Народные промыслы республики Мордовия и этнический туризм// География и туризм. Сборник научных трудов. – Пермь, 2010. – С. 156 – 166.
7. Сундуев Ч.Б., Хышектуева Л.В. Этнотуризм как одно из направлений культурного- познавательного туризма //https://cyberleninka.ru/article/n/ (Мурожаат санаси: 11.03.24)
8. Трофимов Е.Н. Социальный туризм – необходимая потребность для жителей Москвы и России// Социально-оздоровительный туризм как основа реализации социальной политики государства в целях устойчивого социально-экономического города Москвы: материалы Круглого стола. – М.: Логос, 2014.
9. Туризм иқтисодий ривожланиш драйвери // https://qqtongi.uz/4591 (Мурожаат санаси: 9.03.24)
10. Этнографический музей под открытым небом// https://works.doklad.ru/view/hsvXATALUZM/ (Мурожаат санаси: 12.03.24)
11. Этнотуризм нима бу? // https://agroturizm.uz/uz/habarlar/470 (Мурожаат санаси: 19.03.24)
12. Этнотуризм в Узбекистане // https://novayaepoxa.com/yetnoturizm-v-uzbekistane (Мурожаат санаси: 18.03.24)
13. Ўзбекистон Президенти Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеясининг 25-сессиясида қатор муҳим ташаббусларни илгари сурди //https://president.uz/uz/lists/view/6764 (Мурожаат санаси: 9.03.24)
14. https://lex.uz/docs (Мурожаат санаси: 15.03.24)

2-SHO‘BA. ETNOTURIZMNING ILMIY NAZARIY MUAMMOLARI VA METODOLOGIYASI

Abduqodirov Muhammadraxim Abdullayevich
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

TOSHKENT VILOYATI ZIYORATGOHLARINING HUDUD TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasini rivojlantirishda ziyoratgohlarning ahamiyati ochib beriladi. Unda, shuningdek, ziyoratgohlarni qayta tiklashning hudud aholisning madaniyati va boy o‘tmishini ochib berishdagi roli xususida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ziyoratgoh, turizm, etnoturizm, islom madaniyati, YUNESKO, Zangiota, Iyk ota, Shodmalik ota, Payg‘ambar ota, Parpi ota, Zarkent ota, Machit Ali, Shayx Umar.

Globallashuv sharoitida ziyoratgohlar va ziyorat qiluvchilarni tadqiq qilish turli madaniyatlar, konfessiyalar, millatlarga xos xususiyatlarni o‘rganish hamda hududning turizm bilan bog‘liq istiqbollarini ishlab chiqishda muhim vositaga aylanmoqda.

XXI asrga kelib, ziyorat sayyohlik sohasining ichki va xalqaro turizm sohasida barqaror taraqqiyotga ega yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu esa o‘z navbatida, ziyorat sohasida ilmiy tadqiqotlarning nazariy asoslarini yaratish hamda ziyoratgohlar va tabarruk qadamjolar tarixiga oid maxsus yo‘nalishlar hamda ilmiy tadqiqot usullari asosida tahlil qilish, turistik mahsulotlarni tayyorlash va innovatsiyalar uchun zaruriy mexanizmni shakllantirishni talab etadi [1, 5].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ziyoratgohlar va shu yo‘nalishdagi turizmning rivojlanishiga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, S.Jo‘rayeva, Sh.Jumayeva, A.Mo‘minov va boshqalarning ishlarini shular sirasiga kiritish mumkin.

Toshkent viloyati insoniyat ilmiy-madaniy tamadduniga hissa qo‘shgan O‘zbekistonning yirik madaniy mintaqalaridan biri. Qadimdan u Choch davlati sifatida dunyoga ma’lumu mashhur bo‘lgan, ilm-fan va madaniyat, davlatchilik

rivojlangan. Ayniqsa, viloyat miqyosida Zangi ota, Shodmalik ota, Payg‘ambar ota, Parpi ota, Zarkent ota, Machit Ali, Shayx Umar Vali Bog‘ustoniy, Balogardan, Shomir Qori Avliyo, Qirqqiz va Ahtam sahoba kabi ziyoratgohlar e’tiborli maskanlar hisoblanib, mazkur mozorlarga atrofdagi viloyatlar va qo‘shni davlatlardan ham ziyoratchilar tashrif buyurmoqda.

Viloyatdagi ayrim qoyatosh suratlar Markaziy Osiyodagi petrogliflar orasida syujeti va kompozitsiyasi jihatidan betakror hisoblanadi. Xo‘jakent, Qoraqiyasoy, Boshqizilsoy, Chotqol, Ohangaron va boshqa joylardan topilgan petrogoliflar o‘ziga xosligi bilan tadqiqotchilardan tashqari tashrif buyuruvchilarda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Ma’lumki, O‘zbekistonda 7-8 mingdan ortiq tarixiy obidalar mavjud bo‘lib, ularning 200 tasidan ortig‘i YUNESKO ro‘xatiga kiritilgan. Islom madaniyati obidalarini saqlash hamda shunday maskanlarga egaligi bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda 9-o‘rinni egallab turibdi [2, 144]. Toshkent viloyati hududida 828 ta moddiy madaniy meros obyekti bo‘lib, shundan 588 tasi arxeologiya, 7 tasi arxitektura, 74 tasi monumental yodgorlik, 159 tasi diqqatga sazovor joylardir. Shuningdek, 223 tasi mahalliy va 605 tasi respublika ahamiyatidagi obyekt sirasiga kiradi. Aytish joizki, 2016-2021 yillar davomida 18 ta madaniy meros obyektida ta’mirlash tiklash ishlari olib borildi. Ushbu maqsadlar uchun jami 18 milliard 582 million so‘m mablag‘ ajratildi [3].

Yuqori Chirchiq tumanidagi “Iyk ota” ziyoratgohi yaqin vaqtlargacha juda xarob holatda edi. Ziyoratgoh 2020-yilda tuman hokimligi tashabbusi bilan to‘liq ta’mirlanib, obod maskanga aylantirildi. Jumladan, majmuada namozxona, kutubxona qurildi, ziyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratildi. Maqbara o‘tmish va bugungi kun bunyodkorligini o‘zida uyg‘unlashtirgani bilan e’tiborni tortadi. Hovlilar keng va shinam. Namozxonasi esa yorug‘ va charog‘on. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu maskan ziyoratga keluvchilar va xorijiy mehmonlar uchun zamonaviy sayyohlik maskaniga aylangan. Prezidentimizning 2021-yil 2-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni [4], Vazirlar Mahkamasining

2021-yil 24-fevraldagi “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizning barcha hududida bo‘lgani kabi Toshkent viloyatidagi tarixiy obidalarning yanada obod bo‘lishi hamda mahalliy va xorijiy sayyohlarga qulay shart-sharoitlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ta’kidlash joizki, 2021-yilda Oqqo‘rg‘on tumanida joylashgan “Shomirqori avliyo” ziyoratgohi, Bekobod tumanidagi “Buzruk buva” maqbarasi va “Temirtaki ota” majmuasida keng ko‘lamli qurilish ishlari olib borildi. Maqbaralar va ayvonlar barpo etildi. Ziyoratgohlar hududi obodonlashtirildi. Bo‘stonliq tumanidagi “Shayx Umar Vali Bog‘istoniy” va Parkent tumanidagi “Zarkent ota” ziyoratgohlarida ayni paytda ta’mirlash va tiklash ishlari, maqbaralar qurilishi davom etmoqda. Shu bilan birga, 20 ta moddiy-madaniy meros obyektiga olib boruvchi yo‘l ko‘rsatkich belgilari va 1 ta elektron hisobga oladigan turniket, “Shoabdumalik ota”, “Zangiota” ziyoratgohlarida WI-FI nuqtalari hamda 20 dan ortiq obyektda muhofaza belgilari o‘rnatildi. Shuningdek, 200 ta moddiy madaniy meros obyektini qayta tarixiy madaniy ekspertizadan o‘tkazish, raqamlashtirilgan pasporti va katalogini ishlab chiqish, ularning 200 tasining qo‘riqlanadigan hududlarini belgilash hamda raqamlashtirish ishlari bajarildi. Viloyatda nafaqat mavjud tarixiy obidalarni tiklash va ta’mirlash ishlariga, balki yangi arxeologik yodgorliklarni izlab topishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. 2022-yilda olib borilgan tadqiqotlar, izlanishlar natijasida Parkent tumanida “Patir tepa” hamda Ohangaron tumanida “Marjontepa” madaniy meros obyektlari aniqlandi.

Muzeylar – tarixdan guvohlik beruvchi, ajdodlarimizning ma’naviy merosini namoyon etuvchi maskan. Ular yoshlarning bilim va dunyoqarashini boyitib, qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini ko‘chaytirishga xizmat qiladi. Qolaversa, muzeylar muayyan hudud tarixi bo‘yicha odamlarda yaxlit tasavvur uyg‘otadi. Shu nuqtayi nazardan Toshkent viloyatida joylashgan bunday maskanlarni zamon talablari asosida ta’mirlash va faoliyatini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Viloyatda Olmaliq shahar o‘lkashunoslik muzeyi, Chirchiq shahar tarixi muzeyi, Oqqo‘rg‘on tumani tarix-

o‘lkashunoslik muzey-memoriali, Angren shahar tarixi muzeyi, Yangiyo‘l shahar Usmon Yusupov memorial uy-muzeyi faoliyat yuritadi. Ulardagi jami eksponatlar soni 85156 dona bo‘lib, ekspozitsiyaga qo‘yilganlari 1743 donani tashkil etadi. Muzeylarni zamon talablariga moslashtirish, shu orqali tashrif buyuruvchilar sonini oshirish maqsadida ta’mirlash ishlari olib borilmoqda. Xususan, hukumatning tegishli qaroriga muvofiq, 2018-2019-yillar davomida 1 milliard 200 million so‘mlik davlat byudjeti mablag‘i hisobidan Chirchiq shahar tarixi muzeyi mukammal ta’mirlandi. Hozirgi kunda Oqqo‘rg‘on tumani tarix-o‘lkashunoslik muzey-memorialida rekonstruksiya ishlari davom etmoqda. Toshkent tumani tarixi muzeyi yangidan tashkil etilib, uning binosi to‘liq ta’mirlandi. Angren shahar tarixi muzeyi uchun 2021-2023-yillar davomida 9 milliard 270 million so‘mlik investitsiya dasturi doirasida yangi bino qurilishi belgilangan. Usmon Yusupov memorial uy-muzeyida ham mukammal ta’mirlash ishlari olib borilishi, buning uchun davlat byudjetidan 800 million so‘mlik mablag‘ yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan [5].

Toshkent viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini ko‘paytirish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda mahalliy aholi daromadini oshirish maqsadida Bo‘stonliq, Ohangaron, Parkent, Bo‘ka, Chinoz, Zangiota tumanlari va Angren shahrida “Oltin halqa” konsepsiyasi asosida zarur infratuzilma shakllantiriladi. Toshkent viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini ko‘paytirish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda mahalliy aholi daromadini oshirish maqsadida Bo‘stonliq, Ohangaron, Parkent, Bo‘ka, Chinoz, Zangiota tumanlari va Angren shahrida “Oltin halqa” konsepsiyasi asosida zarur infratuzilma shakllantiriladi.

Toshkent viloyatidagi “Shohruxiya”, “Qanqa”, “Sardoba”, “Ohangaron”, “Qorixona” kabi arxeologiya madaniy meros obyektlari hamda “Zangiota” majmuasi YUNESKO Umumjahon merosi markazining Sirdaryo-Farg‘ona koridori nomzodnomasiga kiritilish ishlarini yakunlash rejalashtirilgan. Kelgusi yillarda madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish, yemirilish va yong‘inning oldini oluvchi moslamalar, xususan, 7 obyektda turniketlar, 47 ta obyektda tabiiy

ta’sirlarning oldini oluvchi 157 ta marker, datchik, 47 ta obyektda esa 418 ta xavfsizlik moslamalari o‘rnatiladi. 2022-yilda byudjet va homiylik mablag‘lari asosida 16 ta madaniy meros obyektini asrab-avaylashga doir ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Xususan, muzey va uning filiallarida mavzuga oid ekspozitsiyalar yaratiladi, ularga tashrif buyuruvchilar sonini oshirish maqsadida ko‘chma ko‘rgazmalar soni oshiriladi. Toshkent viloyati madaniy meros boshqarmasi mamlakatimizdagi ilk ziyorat turizmi klasterini tashkil etish g‘oyasini ilgari surgan edi. Ushbu turizm klasteri 2022 – 2023-yillarda Ohangaron tumanida joylashgan “Shoabdumalik ota” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida tashkil etiladi. Mazkur mahallada “Shoabdumalik ota” ziyoratgohi joylashgan. Klasterni tashkil etish uchun Toshkent viloyati Madaniy meros boshqarmasining byudjetdan tashqari mablag‘lari hamda homiylar hisobidan 6,5 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Mazkur ziyorat turizmi klasterini 2023-yilgacha qurib, ishga tushirish ko‘zda tutilgan. Loyiha doirasida “ochiq osmon ostidagi” muzey, yopiq muzey, viloyatdagi madaniy meros obyektlari to‘g‘risida sayyohlarga uch tilda ma’lumot beradigan hamda surdo tarjimaga ega axborot maslahat markazi, hunarmandlar shoxobchasi, rassomlar hamda hunarmandlar galereyasi, suratxona, kitob rastalari kabi qator turistik xizmat ko‘rsatish obyektlari bunyod etiladi. Ziyorat turizmi klasteri tashkil etilishi bilan viloyatda mavjud barcha arxeologik yodgorliklar bo‘yicha yaxlit ma’lumotlar bazasi shakllanadi. Bu yerga kelgan mahalliy va xorijiy sayyohlarga Toshkent viloyatida joylashgan tarixiy obidalar haqida ma’lumot berilishi, ularning umumiy tasavvur hosil qilishiga xizmat qiladi. O‘tgan yili viloyatdagi madaniy meros obyektlariga 116 ming 650 nafardan ortiq mahalliy va xorijiy sayyoh tashrif buyurdi [6]. Ziyorat turizmi klasterining qurilishi bilan hududning turistik jozibadorligi yanada ortadi.

Toshkentga borsam, shaharga yaqin hududda joylashgan “Zangiota” maqbarasini, albatta ziyorat qilaman, deb niyat qilgandim, – deydi turkiyalik turist, jurnalist-bloger Serdar Tunjer. Shukrki, orzum ushaldi. Bu ziyoratgoh nafaqat O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, balki butun islom olami uchun ham alohida

ahamiyatga ega tabarruk maskan hisoblanadi. Zangiota haqida tarixiy kitoblarda o‘qiganmiz. Buyuk bobokaloningiz juda ko‘plab allomalarga diniy-ma’naviy ustozlik qilgan. Vafotidan so‘ng u zotning mozori nafaqat mahalliy, balki olis mintaqalardan keladigan kishilar uchun ham ziyoratgohga aylangan. Bugungi kunda majmua tom ma’noda go‘zal va obod maskanga aylanganiga guvoh bo‘ldik. Bu yerdagi inshootlar o‘zaro uyg‘unlashib, yaxlit manzara kasb etgan. Majmuada mahalliy va xorijiy sayyohlarga barcha sharoitlar yaratilgan. Orastalik, yashillik, anvoyi gullar ifori odamga o‘zgacha kayfiyat bag‘ishlaydi. Bularning barchasi mamlakatingizda buyuk ajdodlar xotirasiga ko‘rsatilayotgan ehtirom, qadimiy qadamjolarni obod etish, ziyorat turizmi rivojiga qaratilayotgan yuksak e’tibor namunasidir.

Umumiy qilib aytganda, hozirgi kunda viloyatda ziyoratgohlarni muhofaza qilish, ta’mirlash, ular joylashgan hududda zamonaviy infratuzilma yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa tarixiy obidalarni asrab-avaylash, kelajak avlodga asl holida yetkazish hamda Toshkent viloyatining turistik salohiyatini oshirish imkonini bermoqda [7].

Xulosa qilib aytish mumkinki, viloyatda turizmning ziyorat, ekologik, sayohat, ekstrimal turizmi, gastronomik turizm va yana boshqa ko‘plab yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoni mavjud. Mazkur sohaning rivojlanishi hudud aholisining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yanada yuksaltirish, viloyat byudjetiga turli mablag‘larni yo‘naltirish, ichki va tashqi savdoning o‘sishiga xizmat qiladi. Shuningdek, sohadan tushgan mablag‘larning ortishi, viloyat byudjetidan ziyoratgohlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning holatini jahon standartlari asosida saqlashga ajratiladigan ulushni ko‘paytirish imkoini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жумаева Ш.Б. Тошкент вилояти зиёратгоҳлари: ривожланиш босқичлари ва ўзига хос хусусиятлари. – Тошкент: ILM ZIYO ZAKOVAT, 2023. – 168 б.

2. Жўраева С. Сурхондар вилояти зиёратгоҳлари тарихи. – Тошкент: O‘ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA UYI, 2021. – 224 б.

3. https://legacy.uz/uz/toshkent-viloyatida-nechta-madaniy-meros-obyektlari-bor/

4. https://lex.uz/docs/-5283956

5. https://review.uz/uz/post/turisticheskiy-potentsial-tashkentskoy-oblasti-budet-razvivatsya-na-osnove-kontseptsii-zolotoe-koltso
6. https://www.spot.uz/oz/2023/01/18/tourists/
7. https://yuz.uz/uz/news/korkam-qiyofa-kasb-etayotgan-muqaddas-qadamjolar-toshkent-viloyatida-ziyorat-turizmi-rivojiga-asos-bolmoqda?view=fargonadagi-oqituvchi-ekoturizm-yonalishi-rivojiga-hissa-qoshmoqda

Avezov Muxriddin Maqsud o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, g.f.f.d. (PhD)
muxriddin_avezov@mail.ru, +99894-547-78-18
Elmurotova Aziza Mahmatmurod qizi
Toshkent shahri Mirobod tumani 218-IDUM
elmurodovaaziza237@gmail.com, +99897-264-22-82

KATTAQO‘RG‘ON TUMANIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HAMDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI KARTALASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Kattaqo‘rg‘on tumanida turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari ko‘rib chiqilgan. Tumanning turistik salohiyati, gidrogeologik sharoiti, geografik obyektlari hamda aholisining turmush tarzidan kelib chiqqan holda turizmning bir qancha turlarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, tuman hududida joylashgan madaniy meros obyektlaridan turizm maqsadida foydalanish hamda ularni kartalashtirish masalalari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlari: turizm; ekoturizm; arxeologik yodgorliklar; arxitektura yodgorliklari; ziyorat turizmi; etnik turizm; sport turizmi, tog‘ turizmi; suv turizmi.

Hozirgi vaqtda jahondagi ko‘pchilik mamlakatlar o‘zining turizm salohiyatini oshirishga va mavjud turistik imkoniyatlardan samarali foydalanishga e’tibor qaratmoqda. Chunki, turizm ekologik jihatdan eng toza hamda iqtisodiy jihatdan ko‘p daromadli “sanoat turi” hisoblanadi. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) va Jahon savdo tashkiloti (WTO) ma’lumotlariga ko‘ra 2019-yilda jahondagi jami xizmatlarning 28 foizi xalqaro turizm hissasiga to‘g‘ri kelgan [4]. UNWTO ma’lumotiga ko‘ra, 2022-yilning dastlabki to‘qqiz oyida 700 million kishi turizmda ishtirok etdi va iqtisodiyotga 1,8 trilion dollarlik foyda keltirdi [5].

Turizmni jadal rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda ham qator normativ-huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrdagi 868-son qarori bilan “Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qonuni qabul qilindi [2]. Ma’lumki, Samarqand viloyati, jumladan Kattaqo‘rg‘on tumani ham madaniy meros obyektlariga nihoyatda boy sanaladi. Ularni turli xil tashqi ta’sirlardan muhofaza qilish va foydalanish sohasidagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida 2001-yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan [1].

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi – Kattaqo‘rg‘on tumanida turizmni rivojlantirish va madaniy meros obyektlarini kartalashtirishdan iborat. Vazifalari esa, tuman hududida mavjud madaniy meros obyektlar ro‘yxatini shakllantirish va ularni xaritada aks ettirish, shuningdek, mazkur obyektlardan turizmni rivojlantirishda oqilona foydalanish masalalarini tahlil qilishdan iborat.

Jahonda ko‘plab olimlar, izlanuvchilar turizmni rivojlantirish masalalari bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Turizmni rivojlantirishning nazariy masalalarini chet ellik olimlardan Nelson Velvet, Stefan Uilyam, Franklin, Batler, Gilbert, Hopkins, Korbin, Tovner, Peyj, K.Vidavski, J.Vurzukovski, Kolin Maykl, Uilson, Gibson va boshqalarning ilmiy ishlarida uchratishimiz mumkin [6.]. O‘zbekistonlik olimlardan esa M.R.Usmonov, N.T.Shamuratova, A.N.Nigmatov, O.X.Xamidov, Sh.T.Yakubjonova, B.X.Kamolov, Sh.G‘.Shomurodova, J.Y.Hasanov, Q,To‘rayev kabilar turizm geografiyasining nazariy-metodologik asoslari, ekoturizm, etnoturizm, diniy turizm, garstronomik turizm, agroturizm kabi sohalarga doir tadqiqot ishlarini olib borishgan. Nelsen Velvet, Uilyam, Franklin kabi olimlar o‘z ishlarida turizm geografiyasining nazariyasi va metodologiyasi haqida batafsil ma’lumotlar keltirgan. K.Vidavski, J.Vurzukovskilar Sharqiy Yevropa davlatlarida turizmni rivojlantirish masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borishgan. J.Y.Hasanovning tadqiqot ishida O‘rta

Zarafshon havzasi landshaftlarida ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari o‘rganilgan.

Mazkur ilmiy ishni bajarish mobaynida dala tadqiqot, GIS texnologiyalari, kartografik, adabiyotlar va fond materiallari bilan ishlash kabi metodlardan foydalanildi.

Kattaqo‘rg‘on tumani Samarqand viloyatining markaziy qismida joylashgan bo‘lib, unga tabiiy geografik jihatdan Oqtov tog‘ tizmasining janubiy yonbag‘irlari, Kattaqo‘rg‘on botig‘i, Miyonqol orolining g‘arbiy qismi, Zirabuloq tog‘ tizmasining shimoliy yonbag‘irdagi tog‘oldi shleyfi kiradi.

Kattaqo‘rg‘on tumani boy turistik imkoniyatlar va salohiyatga ega hisoblanadi. Chunki, tuman tabiatining boy va ximla-xilligi ekoturizm, tog‘ turizmini, trekking, ekskursiya kabi turizm turlarini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Shuningdek, Kattaqo‘rg‘on suv omborining mavjudligi hududda suv turizmi, ov turizmi (xususan baliq ovi), sport turizmi (suv sporti) kabi turizm turlarini yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratadi. Hozirgi kunda, suv ombori atrofida umumiy qiymati 3 million dollarlik turizm klasteri qulishi boshlandi. Klasterning tarkibida madaniyat va istirohat bog‘i, tabiat qo‘ynidagi kafe, zamonaviy ovqatlanish shoxobchalari, ochiq va yopiq akvapark, havo sharlarida parvozlar, turli toifadagi dam olish maskanlari, restoranlar, mehmonxonalar, amfiteatr va suv texnikalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur klasterning ishga tushishi nafaqat mahalliy turistlarni, balki chet ellik turistlarni ham o‘ziga jalb etishi kutilmoqda [9].


Kattaqo‘rg‘on tumani hududida tibbiy turizm, sog‘lomlashtirish va sog‘liqni saqlash turizmini shakllantirish uchun ham imkoniyat mavjuddir. Tumanning markaziy va janubiy qismini o‘z ichiga olgan (Qoradaryodan janubdagi) hududlarning gidrogelogik sharoiti yuqori bo‘r-paleotsen davriga tegishli juda yirik artezian havzalar tarqalganligi (yer yuzasidan 180 m dan 330 m chuqurlikkacha) bilan tavsiflanadi. Kattaqo‘rg‘on shahri atrofida ushbu qatlam suvlarining shifobaxshlik xususiyati aniqlangan bo‘lib, ularning minerallashuv darajasi 0,5-10,3 g/l gacha o‘zgaradi hamda kimyoviy tarkibida HCO_3, Na, SO_4, Ca kabi foydali minerallar uchraydi. Suvli qatlamdan tumanning ayrim joylarida aholi

iste’moli uchun foydalanadi [3]. Hozirgi kunda Kattaqo‘rg‘on shahrida mavzkur yo‘nalishda “Marvarid” sanatoriyasi faoliyat yuritmoqda. Mana shu turdagi sanatoriyalarni tumanning janubiy qismida ham tashkil etilishi sog‘lomlashtirish va sog‘liqni saqlash turizmini rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, tumanda turli xil millat va elat vakillari yashaydi va ularning o‘ziga xos madaniyati, hunarmandchilik mahorati etnik turizmni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Misol uchun, tuman hududida faoliyat yuritayotgan kulolchilik, pichoqchilik, haykaltaroshlik, temirchilik, ganchkorlik, sandiqchilik, yog‘och o‘ymakorligi kabi hunarmand ustalarning ishlaridan foydalanib, hududda etnoturizm markazlarini tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Shuningdek, Kattaqo‘rg‘on tumani madaniy meros obyektlariga ham boy hisoblanadi. Xususan, tumanning o‘zida yodgorlik toifasiga ko‘ra respublika ahamiyatidagi 42 ta arxeologik obyektlar ro‘yxatga olingan. Ularning ichida eng qadimgilari Nomsiztepa-III, Nomsiztepa-XIX, Nomsiztepa-XIV, Amirsupa kabi arxeologik obyektlar bo‘lib, ular miloddan avvalgi IV-I asrlarga taalluqli sanaladi (1-rasm).

Tumandagi ko‘plab arxeologik yodgorliklar milodiy IV-VIII asrlarga tegishli hisoblanadi. Mazkur obyektlar Moybuloq, Qushbegi, Boltabek, Alijon, Malik Xo‘ja, Sho‘rak, Olmazor, Yangihayot, Polvontepa kabi aholi manzilgohlari hamda ularning atrofidagi hududlarda joylashgan (1-rasm). Bunday turdagi arxeologik yodgorliklarning mavjudligi tuman hududida tarixiy, madaniy hamda diniy turizmni shakllantirishga imkoniyat beradi. Agar mazkur yodgorliklar atrofida qulay infratuzilma shakllantirilib, reklama-targ‘ibot faoliyati kuchliroq olib borilsa, sohaga qiziquvchi ko‘plab chet ellik turistlarni ham jalb etish imkoniyati vujudga keladi.



1-rasm. Kattaqo‘rg‘on tumani madaniy meros obyektlari xaritasi
(xarita mualliflar tomonidan tuzilgan)

Shuningdek, tuman hududi arxitektura yodgorliklariga ham boy sanaladi. Mazkur yodgorliklar toifasiga koʻra mahalliy hisoblanib, birgina tumanning oʻzida 20 dan ziyod bu kabi obyektlarni uchratish mumkin. Arxitektura yodgorliklarning deyarli barchasi XIX-XX asrlarda qurilgan madrasa va masjidlar iborat. Natijada, asosan, islom diniga mansub turistlar uchun ziyorat turizmni ham tashkil etish mumkin.

Hozirda tuman hokimiyati tomonidan Andoqsoy, Sebiston, Qoʻshqoʻton mahallalarida ziyorat va ekologik turizmni tashkil etish uchun yirik loyiha amalga oshirilmoqda. Kattaqoʻrgʻon tumani Andoq massivi Daraogʻzi qishlogʻini "Turizm qishlogʻi" davlat dasturiga kiritgan holda, qishloqda joylashgan "Xoʻja Hasan Andoqiy" ziyoratgohi atrofida infratuzilmani yaxshilash hamda Oqtov togʻida ekoturizmni yoʻlga qoʻyish, qishloqda yengil konstruksiyali dam olish maskanlari, mehmonxonalar tashkil etish koʻzda tutilgan [8.].

Turistik obyektlarni oʻzganish, ayniqsa ularni kartalashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hududlarning madaniy meros obyektlari xaritalarini ishlab chiqish turistlar uchun qulayliklar yaratish va turizmni rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Chunki, bunday xaritalarni ishlab chiqish orqali qulay va samarali turistik marshrutlarni rejalashtirish imkoniyatiga ega boʻlish mumkin. Shu sababli biz Kattaqoʻrgʻon tumanidagi madaniy meros obyektlari xaritasini tuzdik (1-rasm). Madaniy meros obyektlarini kartalashtirishda dastlab hududdagi madaniy meros yodgorliklarining elektron katalogi shakllantirilib, ularni ikki turga – arxeologik va arxitektura yodgorliklariga ajratib chiqdik. Soʻngra ArcGIS daturining 10.8 versiyasi asosida, topografik xaritalar va Yerning koinotdan olingan tasvirlari uygʻunligida hududning tabiiy xaritasini ishlab chiqdik. Unda xaritaning matematik va geografik asos elementlarini aks ettirdik. Shundan soʻng tuman hududidagi madaniy meros obyektlarini geografik koordinatalar asosida xaritaga biriktirdik. Soʻng xaritaning masshtabi va legendasini shakllantirdik (1-rasm). Bundan shuni aniqlash mumkin boʻldiki, tumandagi asosiy arxeologik yodgorliklar Zarafshon daryosi orqali ikkiga boʻlinib

qolgan Suqayti kompleksi yotqiziqlarida joylashgan bo‘lib, daryoning har ikkala tomonidagi tog‘oldi shleyflarini qamrab olgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Kattaqo‘rg‘on tumanining turizm salohiyati yuqori hisoblanadi. Shuningdek, tuman Samarqand shahriga yaqin joylashganligi tufayli chet ellik turistlarni ham jalb etish imkoniyati mavjud. Mazkur imkoniyatlardan oqilona foydalanish uchun tuman hududida qulay infratuzilmani tashkil etish, mavjud bo‘lgan turistik, madaniy meros obyektlariga oid ma’lumotlarni keng ommaga turli manbalar orqali tarqatish talab etiladi.

Tuman tabiatining xilma-xilligi, shimolida Oqtov tizmasining mavjudligi (tuman hududidagi eng baland joyi 1708 m) tog‘ turizmi va trekkingni rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi. Shuningdek, Oqtov tog‘ida efemer va efemeroid o‘simliklarning tarqalganligi bahor oylarida mazkur hududlarda ekoturizmning qator turlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Tuman hududida umumiy hisobda 64 ta turli davrga tegishli madaniy meros obyektlarining mavjudligi tarixiy turizmni, turfa xil hunarmandchilik makrazlarining borligi etnik turizmni, shifobaxsh yer osti suv havzalarining mavjudligi sog‘lomlashtirish va sog‘liqni saqlash turizmini, Kattaqo‘rg‘on suv omborining joylashganligi suv turizmini yo‘lga qo‘yishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/-25461
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrdagi “Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/-6325919
3. Avezov M.M., Elmurotova A.M. O‘rta Zarafshon okrugining gidrogeologik sharoiti va yer osti suvlarining minerallashuvi // «Iqlim o‘zgarishi sharoitida arid hududlar suv resurslari: muammolar va ularning yechimlari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 20-oktyabr. –T.: 2023. 267-270-betlar.
4. Butun jahon turizm tashkilotining 2019-yil hisoboti. https://www.unwto.org/global/press-release/2019-09-09/international-tourism-4-first-half-2019-world-tourism-organization-reports
5. Butun jahon turizm tashkiloti 2022-yil sentyabr oyi hisoboti. https://www.unwto.org/news/international-tourism-back-to-60-of-pre-pandemic-levels-in-january-july-2022
6. Stephen Williams and Alan A. Lew. Tourism geography: critical understandings of place, space and experience. Third edition. – New York.: “Routledge”, 2015. -346 b.

7. Шомуродова Ш.Ғ. Чимён-Чорвоқ курорт-рекреация зонасида туризмни ривожлантиришнинг табиий географик асослари. География фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Т.: 2020. –120 б.
8. Kattaqo‘rg‘on tuman hokimiyati ma’lumotlari https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/kattaqorgon-suv-ombori-sohilida-klaster-tashkil-qilinadi

Адилова Надира,
Нукусский инновационный институт, преподаватель
Утебаев Мадияр,
доктор философии (PhD) по ист.наукам, СНС, Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук, докторант

ПРИРОДА И КУЛЬТУРНЫЕ АРТЕФАКТЫ МУЙНАКСКОГО РАЙОНА В ПЕРСПЕКТИВЕ ТУРИСТИЧЕССКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА

Как известно, город Муйнак, когда-то процветавший город-порт, расположенный на бывшем острове Тоқмақ-ата, сегодня привлекает внимание туристов. На бывшем дне Аральского моря представлены руины бывших судов, имеющие название «кладбище кораблей» ассоциируется масштабом экологического бедствия. Муйнак, занимая эпицентр экологического бедствия, территория которого используется как среда для инновационных проектов по частичному восстановлению новой зеленой экосистемы. На этом оснований Муйнак помимо других памятников культуры и архитектуры также является одним из посещаемых туристами мест, привлекая своей природой, ландшафтом, культурой и зоной экологического бедствия.

Муйнакский район расположен на юге бывшего Аральского моря. Площадь Муйнакского района составляла 40 тыс. 800 км² к 1960 году [Материалы к районированию… 1928. С. 10]. Его территория занимала южный рубеж Арала и основную часть дельты Амударьи, которая включала в себя огромное количество островов, озер, болот, камышовых зарослей, лугов и песчаных берегов. Муйнакский район на сегодня окружается уже тремя пустынями: с юго-востока Устюрт, с юго-запада Кызылкум и с севера Арал кум, возникший вследствие высыхания Аральского моря. Основными занятием было рыболовство, отгонное скотоводство и охота.

Обратите внимание, что под термином Муйнак мы понимаем не только современный город Муйнак, бывший порт, но весь Муйнакский район. Этот район был образован как индустриальный.

Воссоздание «образа Муйнака», когда-то занимавшего южный берег моря и прилегающего к нему территории с многочисленными островами, заливами, озерами, зарослями камышей, лугами и болотами имеет ключевое значение для анализа культурного и экологического облика этого региона. На основе исторических материалов и полевых исследований можно обнаруживать масштаб бедствия после кризиса Аральского моря и продолжающегося высыхания основных водных бассейнов - Амударьи и ее протоков, включая озер, в которые впадают воды Амударьи.

Воссозданный образ Аральского моря и Муйнака позволить нам глубже заглянуть экологическую трагедию, трансформацию природы и климата, потерю природных объектов и уникальной культуры может служить для развития туризма, о котором мы будем говорить ниже.

В приморской части дельты, где река сильно размывает берега, преобладали естественные формы – изменение пространства каиров (пойменных земель), ложбины старых и современных русел, старицы, озеровидные депрессии, местами покрытые камышом и массивами серых бугристо-барханових песков, и площадками такыров [Андрианов, 1954: 17].

Сегодня в самом городе Муйнак (бывший порт), особенно в его центральной части мало растительности, укрыться от палящего солнца негде. Город полностью окружен песками, среди которых возвышаются какие-то здания, жилые традиционные кварталы и очень небольшая растительность. Другим словом выглядит как «призрак пустыни», производящий депрессивное впечатление и тоску по бывшему морю. В центре города проходит узкая и длинная улица, вдоль которой располагаются все достопримечательности.

Однако туристы ограничиваются обходом территории «кладбища кораблей», который находиться в городе Муйнак прямо на дне Аральского

моря после крутого спуска, образованного после высыхания моря. Этот спуск представляет собой бывший берег, имеющий форму в виде песчаной скалы, напоминающей американское каноэ. Там же недалеко находиться музей, посвященный Аральскому морю, имеющий не очень богатую экспозицию. Собственно, этим заканчивается экскурс.

Однако, в Муйнакском районе есть места, имеющий живописный вид, так как там сохранились водные бассейны – ручье Амударьи и озера со своим биоразнообразием. Недалеко от города к юго-западу находиться междуречье, образованный в результате слива воды Амударьи в озеро Көксуӯ, а озеро снабжает водой речку Қышақ-дәрья, а эта речка, в свою очередь, течет в северном и южном направлениях.

На вышеотмеченной местности располагаются несколько поселков, бывшие поселки колхозов, затем Муйнакского совхоза – Шағырлық, Қызылжар, Шеге и Порлытаӯ. В местечке Порлытаӯ[20] находиться озеро Көксуӯ, имеющее впечатляющий размер, с одной стороны окружен лесным берегом – тугай из туранга, а с другой вытекающими от него речками и пастбищными равнинами. На одном из берегов расположено место отдыха, которое было организовано местным предпринимателями. Они построили летную кухню для приготовления пищи из рыб, выловленных из озера и речек и установили юрту и небольшой «тапчан» для посетителей.

В виду того, что озеро имеет полукруглую форму, окружённой поступающими и вытекающими от него ручьев Амударьи предстоит перед нами как живописное место, где можно было бы развивать подсобное хозяйство (разводить скота, птиц и выращивать рыбу) и организовать эко-этно парк для туристов, создав условия с учетом местной архитектуры и колорита.

[20] Порлытаӯ – бывший рыболовецкий аул, где находился рыбной завод, чулан – для хранения замороженных рыб и пристань, куда привозили и увозили рыбу.

Там же можно создавать условия для досуга туристов – плавание на лодке, катере, рыбалку, организовать увлечение и национальные игры, даже проводить перформансы (фестиваль, концерт, диско) на природе.

Еще одним из живописных природных мест, где можно увидеть сохраненные реликты бывшего процветавшего Мунака – это озеро Жалтырбас, находящиеся в ауле Қазақдәрья. Это озеро также богат растительностью, особенно зарослями камышей[21], которые, к большему сожалению, больше не растут на вышеприведенном озере Қөксуӯ.

Таким образом в районе расположения озера Жалтырбас также можно создавать условия для развития экотуризма. Там на озере можно воссоздать образ бывшего плывущего дома из дерева и камыша так называемого көшиӯ, который будет интересным и привлекательным для туристов. Кроме того, в недалеко от озера на расстоянии 10 км находится горячие источники. Там уже разбиты лагеря и палатки для просителей в лечебных целях. Посетители, как правило, принимают ванну, которая избавляет от разных недугов.

Таким образом, аул Қазақдәрья также претендует на целый комплекс развития эко и этно-туризма.

Еще одним потенциальным местом развития туризма является озеро Судочьи, расположенный на востоке от города Муйнак на значительном расстоянии. Это озеро также имеет большую растительность из камышовых зарослей, богат как Жалтырбас рыбой. Основной визитной карточкой этого озера помимо своей живописи является то, что оно находиться недалеко от бывшего рыболовецкого острова Үрге (Урга). На этом острове раньше было много рыбацких жилищ и даже церковь уральских казаков, руины которого сохранились по сей день. Раньше это местность называли Венецией, поскольку рыбаки ловили рыбу на лодке через многочисленные протоки, которых окружали камышовые растения внушительных размеров и болота.

[21] Камыши представляет собой важную растительность для сохранения благополучной экосистемой, так как это растение является местом обитания разных рыб, птиц, млекопитающих, скота, которое откармливает всех. Кроме того, камыш широко используется местным насел ение как кустарное изделие.

Однако, следует отметить, что два последних озер за последние 20-30 лет резко сокращается в размерах, значительно уменьшалось рыбы по сравнению начала 90-х годов. Многие местные жители уже бьют тревогу о скором высыхании этих озер и их исчезновении если не будет воды в Амударье, которая является единственным источником экосистемы дельтовой части Каракалпакстана.

Что касается жилища рыбаков, то все его виды подлежать сохранению, поскольку для понимающей аудитории они являются реликтами и визитной карточкой Муйнака. Дома с двускатной крыши были заимствованы казахами и каракалпаками и получило название «ийтарқа» собачья спина. Дома с двускатной крыши было заимствовано у уральских казаков-рыболовов казахами и каракалпаками и получило название «ийтарқа» собачья спина.

Стены домов со всех сторон штукатурили раствором глины с соломой (саманом), кизяком. Раствор готовился заранее, чтобы он «покис» сутки. Эту работу выполняли все члены семьи: дети бросали комья в глины в стену, а женщины разравнивали руками, разглаживая специальной дощечкой или металлической лопаткой. Мажут стены исключительно женщины. По способу отделки стен и крыши, дома и получили название «мазанки». После возведения стен, перекрытия крыши, штукатурки приступали к внутренней отделке: настилали полы, вставляли окна, двери, потолок, клали печи. В таких домах уральцев полы вплоть до середины XX века были земляными. Землю и глину насыпали ровным слоем и утрамбовали, затем замазывали раствором глины с кизяком. Иногда перед последней замазки на пол стелили чипты (камышовые циновки). Дом состоит из 1-2 комнат.

Қаҳра жай – каракасный тип жилища, преобладающий в Муйнакском районе, где земля не пригодна для сооружения глинобитных стен. При строительстве қаҳра с начала выводят остов, который заполняется камышом (шом). Верхние и нижние концы снопов должны быть в одинаковой толщине, для чего снопы перевязывают в нескольких местах, что необходимо для прочности и теплоизоляции. Затем стену укрепляют по середине с двух

сторон жердями (қыспақлаў). Нижние концы шома закапывают в землю. Внешнюю камышовую обкладку земляного фундамента укрепляют толстым камышовым жгутом. На месте оконных и дверных проемов камыш ровно подрезают острым ножом. Середину торцовых стен каҳра делаю выше, чем боковые, чтобы крыша получилась двускатной. На торцовую стену кладут продольную балку (бөрен), которая опирается на столб (треў), поставленный на середине комнаты. На бөрен с двух сторон ставят стропила в нечетном количестве. На полученный каркас крыши стелют циновки (қыйра, бойра), затем обкладывает камышом. Стены и крышу несколько раз обмазывают глиной без соломы, затем с примесью соломы не менее двух раз. Жилище қаҳра строили однокомнатные или двухкомнатные с примыкающей террасой [Тлеубергенова, 1996: 94, Жданко, 1952: 528].

Эти дома до сих пор сохранены в Муйнаке, однако постепенно исчезает под давлением новой архитектуры и домостроителей местных. Нам кажется, этот дом должен быть по мере возможности сохранены местным населением либо предприимчивые предприниматели должны приложить усилия для воссоздания этого экологического дома, обставив современными условиями и интерьером.

По рассказам местных, каҳра жай был самым надежными видом жилища во время шторма Аральского моря и поводков, так как эти дома не тонут и не разрушается при наводнениях, сохраняя свой основной каркас.

Таким образом, местные природно-климатические условия в некоторых местах Муйнакского районов, в частности, озера и культурные артефакты должны быть бережно сохранены для будущего населения, тем более туристов. Мы в этой статье предлагаем выдвигать сохранившие озера и некоторые культурные артефакты быть охраняемым объектами на государственном уровне.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ИСТОЧНИКИ:

1. Адрианов Б.В. Этническая территория каракалпаков в северном Хорезме. Материалы и исследования по этнографии каракалпаков под ред. Т.А. Жданко. М.: «Академия наук СССР», 1954. С. 17

2. Материалы к районированию Каракалпакской Автономной области». Турткуль, 1928
3. Тлеубергенова Н.А. Традиционное жилище каракалпаков XIX начало XX века // Дисс. на соиск. к.и.н. Нукус, 1996. С. 94; Жданко Т.А. 1952. С. 528; 1960. С. 161-162
4. Труды ... / Хорезм. археолого-этногр. экспедиция, [Акад. наук СССР. Ин-т этнографии им. Н. Н. Миклухо-Маклая]; под общ. ред. С. П. Толстого. - М.: Изд-во АН СССР, 1952.

Адҳамжон Азимбаевич Аширов
ЎзР ФА Тарих институти, т.ф.д., профессор

ЖИЗЗАХ ВОҲАСИДА ЭКО ВА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Аннотация: Мазкур мақолада туризм соҳасининг жаҳон иқтисодиётида муҳим ўрин эгаллаётгани, Ўзбекистоннинг иқтисодий тараққиётида ҳам унинг улуши ортиб бораётганлиги, республикада тарихий ва маданий сайёҳликдан ташқари минтақавий, зиёрат, археологик, эко, этно, гастрономик ҳамда тиббий туризм йўналишлари бўйича янги сайёҳлик маршрутларини ташкил этиш масалалари бўйича мулоҳазалар билдирилган.

Калит сўзлар: зиёрат туризми, экотуризм, этнотуризм, гастрономик туризм, тиббий туризм, Тикчасой, Асрафсой, Андагенсой, Мажрумсой, Ҳаётсой, “туризм маҳалласи”.

Сўнгги йилларда жаҳон миқёсида туризм дунё иқтисодиётида энг жадал ривожланаётган соҳаларидан бирига айланган Бу борада қатор ривожланган мамлакатлар, йирик мегаполис ва тарихий шаҳарларда туризм иқтисодиётнинг асосий тармоғига айланиб, ялпи маҳсулот ишлаб чиқаришда муҳим ўрин тутган, юқори даромад келтирувчи соҳага айланди.

Ўзбекистон Республикаси миллий мустақилликка эришганидан сўнг юртимизнинг бой тарихий-маданий мерос объектларига бўлган саёҳлик йўналишларини ташкил этилди. Айниқса, 2016 йилдан бошлаб туризмни Янги Ўзбекистон миллий иқтисодиётини юқори даромад келтирадиган истиқболли тармоқлардан бири сифатида эътироф этилмоқда. Шу боис ҳам юртимизда миллий ва элларараро туризмни ривожлантиришга жиддий эътибор қаратилмоқда. Республикада туризм тараққиёти учун қулай иқтисодий ва

ташкилий-ҳуқуқий шароитларни яратиш, миллий сайёҳлик маҳсулотларини жаҳон бозоридаги рақобатбардошлигини таъминлаш, сайёҳлик объектларидан самарали фойдаланиш, кўрсатилаётган хизмат турлари сифатини ошириш, юртимизга ташриф буюраётган сайёҳлар оқимини кўпайтириш бўйича кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилди. Натижада, Республикада нафақат тарихий ва маданий сайёҳлик, балки минтақавий, зиёрат, археологик, эко, этно, гастрономик ҳамда тиббий туризм йўналишлари бўйича янги сайёҳлик маршрутлари ташкил этилди. Бир сўз билан ифодалаганда, соҳада инқилобий ўзгаришларга амалга оширила бошланди.

Шубҳасиз, ушбу йўналиш ривожида Ўзбекистоннинг турли тарихий-этнографик минтақаларини ўз ўрни бўлиб, ҳар бир ҳудудда ўзига хос жиҳатларини кенгроқ намоён этган ҳолда хорижий ва минтақавий сайёҳларни жалб этишга жиддий эътибор қаратмоқда. Бу борада Жиззах воҳасида ҳам сўнгги йилларда саёҳлик салоҳияти ривожланмоқда.

Тарихий-географик манбалардан маълумки, Жиззах воҳаси Ўзбекистоннинг қоқ марказида жойлашган маъмурий-географик минтақа бўлиб, унинг ўзига хос географик жойлашуви, табиати, иқлими воҳа аҳолиси турмуш тарзи, хўжалиги, маданияти ва миллий қадриятлари шаклланишида муҳим асос бўлиб ҳизмат қилган. Шу билан бирга, минтақа аҳолисининг моддий ва маънавий маданиятида ҳам маълум этник ўзига хосликлар мавжудки, улар узоқ йиллар мобайнида ҳудудда кечган тарихий ҳамда этномаданий жараёнлар ҳосиласидир [1, 3].

2021 йилга оид маълумотларига кўра, Жиззах вилоятида жами 427 та маданий мерос объектлари давлат муҳофазасига олинган бўлиб, уларнинг 100 таси тарихий обида ва зиёратгоҳлар, 268 таси археологик, 59 таси монументал санъат ёдгорликлари ҳамда ушбу объектларнинг 30 таси эса диққатга сазовор жойлар ҳисобланади [2, 50].

Сўнгги йилларда Жиззах вилоятида саёҳликнинг турли йўналишлари ва соҳаларини ривожлантириш борасида амалий ишлар бажарилмоқда.

Жумлалан, тоғли Зомин, Бахмал, Фориш ва Янгиобод туманларида зиёрат, Шароф Рашидов, Ғаллаорол, қисман Дўстлик ҳамда Пахтакор туманларида гастрономик, Айдар-Арнасой кўллар тизими атрофидаги Арнасой, Фориш туманлари ва воҳада ўзининг алоҳида ўрнига эга Жиззах шаҳрида эса эко, гастрономик ҳамда зиёрат туризмини ривожлантириш бўйича қатор амалий ишлар амалга оширилди [3].

Умуман олганда, ўтган йиллар давомида вилоятда сайёҳлик йўналишида 30 га яқин янги маршрут ишлаб чиқилган бўлиб, туризм салоҳияти юқори бўлган ҳудудлар ҳамда бошқа экотуризм манзиллари бўйлаб 3–5 кунлик туризм маршрутлари яратилганлиги ҳам алоҳида таҳсинга лойиқ ҳолат сифатила баҳолаш мумкин.

Шунингдек, минтақада туризм қишлоқлари сонини кўпайтириш борасида ҳам қатор амалий ишлар бажарилмоқда. Жумладан, Зомин туманидаги Дуоба қишлоғига “Туризм маҳалласи” мақоми берилган бўлиб, жорий йилда бундай мақомни Фориш туманидаги Ухум ҳамда Бахмал туманидаги Ўрмончи қишлоқларига ҳам бериш учун амалий ишлар бошлаб юборилган. Афсуски, вилоятнинг туризм салоҳияти юқори бўлган Фориш, Арнасой, Шароф Рашидов ва Янгиобод туманларида ҳам зиёратгоҳлар, туристик ҳамда маданий мерос объектларига олиб борувчи йўлларнинг таъмирлашга муҳтожлиги, ушбу ҳудудларга келувчи сайёҳлар оқимининг янада кўпайишига ўзининг салбий таъсирини кўрсатмоқда.

Маълумки, Форишда бугунги кунда туризм соҳаси тез ривожланаётган соҳалардан бири бўлиб, туманнинг сўлим табиати, тоза ҳавоси, зилол сувлари ва меҳмондўст халқи туристларни ўзига кенг жалб қилмоқда [4]. Шу ўринда, шуни ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, этнографик дала тадқиқотлари жараёнида юқоридаги туманнинг Ухум маҳалласидаги хушманзара Ҳаёт қишлоғида 3 та хостел, 11 та оилавий меҳмон уйлари экотуризм учун келган меҳмонларга хизмат қилаётганлигини биз ҳам гувоҳи бўлдик [5].

Бу ўринда биз ўрганган Ухум маҳалласидаги туризм масканларига 2023 йилда 2,5 миллиард сўм маблағ сарфланган. Шунингдек, ушбу масканга

ташриф буюраётган сайёҳларга қулайликлар яратиш мақсадида бу ерда ҳунармандчилик маркази, сув тегирмони, қўшимча ошхона ва отхона бинолари, 7 та айвон ҳамда суҳбат жойлари барпо этилган.

Умуман олганда, Фориш туманига нафақат маҳаллий сайёҳлар балки хориждан ҳам кўплаб экотуризм йўналишига қизиққан саёҳлар келишини кузатиш мумкин. Хусусан, ўтган йили туманга сайёҳ сифатида 5000 нафардан ортиқ хорижий сайёҳлар ташриф буюрган [6]. Келаётган саёҳлар Фориш тоғларига, Мажрум қишлоғидаги минг йиллик арча, ўтмиши узоқ йилларга бориб тақаладиган “Хонбанди” тўғони, “Нурота” давлат қўриқхонасидаги ўзига хос ҳайвонот ва ўсимлик дунёси, қўриқхона атрофидаги турихий обидалар, Каттабоғдон қишлоғининг сўлим табиати, Тикчасой, Асрафсой, Андагенсой, Мажрумсой, Ҳаётсойдаги петроглифлар, Мажрум ҳамда Ухум қишлоқларидаги қўрғонлар қолдиқлари, Айдаркўл соҳилларининг ажойиб, хушманзара табиатини томоша қилиб, тоза ҳавосидан нафас олиш учун ташриф буюришади [6]. Шунингдек, йигирманчи юз йилликнинг 50- 80 йилларида Форишнинг тоғ қишлоқларидан чўл минтақаларни ўзлаштириш учун кўчириб юборилган кишиларнинг авлодлари ҳар йили баҳор фаслида аждодларини йўқлаб келиш анъанаси ҳам ва “Авлодлар учрашуви” ҳам минтақанинг туризм потенциялини ривожланишига сезилар таъсир қилганлигини кузатиш мумкин.

Фориш минтақасида деҳқончиликда сув таъминоти минг йиллардан буён муаммо бўлган. Шунинг учун бу ерда яшаган қадим аждодларимиз сув муаммосига ечим топиш учун ҳовузлар ва сув омборлари қурганлар. Жумладан, тарихдан машхур бўлган Хонбанди сув омбори Фориш тумани марказидан шимол томонда 9 км масофада жойлашган. Ушбу сув иншооти Осмонсой, Илончисой ва Нурота тоғидан оқиб чиқадиган сел сувларини жамғариб, ёзда экинларни суғориш учун барпо этилган бўлиб, ўрганишлар унинг X асрда қурилганлигини тасдиқлайди [7, 35]. Хонбанди сув омборининг барпо этилиши туфайли Қизилқумнинг Мирзачўл билан туташ

қисмида 1500 гектар ерни суғориб, деҳқончилик ва боғдорчилик билан шуғулланиш имкониятини яратган. Ҳозирги кунда Хонбанди сув иншоотига сув тўпланмайди. Бунинг сабаби, асрлар ўтиши билан иншоотнинг сув тўпланадиган тарафи лойқа ва бошқа жисмлар билан тўлиб, сувни сақлаш имконияти йўқолиб борган. Ўз навбатида, Хонбанди сув омбори тарихий иншоот сифатида ҳам қадрли бўлиб, у ота-боболаримизнинг илмли ва юксак салоҳиятли бўлганлигини кўрсатувчи муҳим далилдир. Ушбу қадимги қурилган сув омборларини бориб кўриш нафақат маҳаллий аҳоли, балки хорижий сайёҳлар учун ҳам аҳамиятлидир. Бу эса вилоятда экотуризмни ривожланишида муҳим аҳамиятга эга. Шундай экан, Хонбандини сув омборини экотуризм объектлари рўйхатига киритишни тавсия қилиш мумкин.

Фориш худуди билан боғлиқ бўлган яна муҳим экотуризм обьектлари сирасига Айдар-Арнасой ва Тузкон кўлларини киритиш мумкин. Шу ўринда таъкидлаш ҳам керакки, “Саҳро марвариди” номини олган ушбу кўл Мирзачўлнинг ўзлаштирилган жойларидаги зах ҳамда Чордара сув омбори сувларининг қуйилиши ҳисобига Арнасой ботиғида ҳосил бўлган. Айнан мазкур кўлда экотуризм, хусусан, балиқ овлаш, чўмилиш, қисқа муддатли дам оладиган жойлар, яъни кемпингларни ташкил этиш соҳанинг ривожланишига асос бўлмоқда. Айдар-Арнасой кўллар тизимига ташриф буюрган сайёҳлар Марказий Осиёдаги кўчманчи халқларнинг анъанавий ҳаёт тарзи, турмуш шароити, чўлнинг ўзига хос табиати ҳамда Айдар-Арнасой кўллар тизимининг мафтункор ландшафтлари билан танишиш имкониятига эга бўлади. Бугунги кунда мазкур минтақага ташриф буюрган сайёҳлар орасида туяга миниш ва унда сайр қилиш, ўтовда тунаб қолиш ҳамда бошқа хизматлардан фойдаланиш кундан-кунга ривожланиб бораётганлигини кўриш мумкин. Дам олишнинг бундай турлари ушбу ҳудудга ташриф буюрган сайёҳларга кишиларнинг қадимий турмуш тарзи, маданияти билан яқиндан танишиш имкониятини яратмоқда [2, 37].

Жиззах воҳасидаги машҳур этнографик туризм масканлари – бу муқаддас зиёратгоҳ ва қадамжолардир. Улар ўзининг географик ҳамда тарихий шаклланиши, воҳага хос айрим локал кўринишлари, халқ қарашлари, тасаввурлари, жойлашган ўрни ва функциясини ҳисобга олган ҳолда авлиёлар ҳамда диний уламолар, табиат мўъжизаси ва географик объектлар ҳамда ҳайвонларни муқаддаслаштириш билан боғлиқ зиёратгоҳлар, маҳаллий, вилоят ва республика миқёсидаги зиёратгоҳлар ҳамда маълум бир касб эгалари, аёллар ҳамда ёшлар ташриф буюрадиган зиёратгоҳлар тарзида таснифланиб, уларнинг давлат томонидан, аҳоли томонидан ҳамда ўзини-ўзи муҳофаза қилиши каби кўринишлари мавжуд эканлигини кузатиш мумкин. Мазкур масканларнинг айнан мана шундай муҳофаза қилиниши зиёратгоҳ ҳудудида экотизмни шаклланишига сабаб бўлади. Натижада, турли зиёратгоҳлар атрофида ўзига хом эколаншафт яратилади.

Эътиборли жиҳати шундаки, воҳадаги кўплаб зиёратгоҳларда муқаддаслаштирилган булоқ ва дарахтлар мавжуд бўлиб, уларни ифлос қилиш ёки худудгаи дарахларни кесишга нисбатан таъқиқ (табу) зиёратгоҳда ўзига хос экотизм шаклланишига сабаб бўлган. Шунингдек, Хўжабоғбон ота (боғдорчилик), Хўжаи Сероб ота (деҳқончилик), Саъд ибн Абу Ваққос (қассобчилик), Кўктўнли ота (дурадгорлик), Оқсоқ ота (чорвачилик), Чўқмозор ота (жувозчилик) каби зиёратгоҳларга номи берилган шахслар маълум касб эгаларининг ҳомий авлиёси бўлиши билан бир қаторда, кишиларда меҳнатсеварлик фазилатлари шаклланишида ҳам муҳим ўрин тутган [1, 6].

Фориш тумани Гараша қишлоғидаги Жондахор ота зиёратгоҳи вилоятнинг энг чекка қадамжоларидан бири ҳисобланади. Ушбу манзилгоҳга яқин жойлашган Муҳаммад Шариф хонақоси 1814–1815 йилларда самарқандлик уста Олимжон томонидан қурилган бўлиб, у 1931–1932 йиллардаги атеистик ҳаракатлар оқибатида ташландиқ аҳволга тушиб, XX асрнинг 70-йилларида у қулаш арафасига келиб қолган эди. Юртимиз

мустақилликка эришгандан сўнг шу қишлоқда яшовчи фахрий отахон Саидмурод Ҳожи Толипов томонидан олиб борилган таъмирлаш ишлари натижасида зиёратгоҳ янгитдан барпо этилиб, обод масканга айлантирилди ва зиёратчиларни ўзига жалб этиб келмоқда. Шунингдек, Фориш туманининг Қоратош қишлоғида жойлашган Хўжа Боғбон ота зиёратгоҳи машҳурлиги билан ажралиб туради. Шунинг учун Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асарида 700 га яқин авлиёлар ва уламолар сингари Хўжа Боғбон ота зиёратгоҳини ҳам алоҳида тилга олинган.

Дарҳақиқат, Жиззах воҳаси зиёратгоҳлари минтақада туризм тараққиётида муҳим йўналишга айланган бўлса-да бу йўналишда ҳам муаммолар мавжуд. Жумладан, айрим зиёратгоҳларда зиёратчилар учун етарли даражада шарт-шароит(кутиш, хордиқ чиқариш, ибодат ва қурбонлик қилиш жойи)лар зиёартчилар учун меҳмонхона, мехмон уйлари, автотранспортлар учун тураргоҳ ва ошхоналар етарли даражада эмас. Қолаверса, айрим зиёратгоҳларнинг санитария-гигиена талаблари, жумладан, зиёратгоҳлардаги ошхона ва хожатхоналарнинг экологик ҳолати ҳам қониқарли ҳолатда эмас. Булардан ташқари вилоятдаги аксарият зиёратгоҳларга олиб борадиган йўлларни мавжуд меёрий талабларга жавоб бермаслиги туризмни ривожлантиришдаги оғриқли ҳолатлардан бири ҳисобланади. Шунингдек, зиёратгоҳлар ва унинг атрофида ташкил қилинган савдо шахобчалари тартибли тарзда ташкил этилмаган. Бир сўз билан айтганда, вилоят ҳудудидаги барча зиёратгоҳлардаги ҳолатни юқори даражада деб баҳолаб бўлмайди.

Умуман олганда минтақада зиёрат туризмини ривожлантириш учун юқорида кўрсатилган камчиликларни бартараф этиш учун бизнингча, маҳаллий хокимят органлари, тадбиркор ва ишбилармонлар билан зиёратгоҳларни доимий ҳамкорлик алоқасини ўрнатиш керак. Қолаверса, зиёратгоҳлар ҳолати учун масъулиятни нафақат зиёратгоҳ масъуллари балки зиёратчилар орасида ҳам оширишга ҳаракат қилиш керак. Бунинг учун ҳар бир зиёрагоҳ ва қадамжойларда ушбу маскан тарихи, зиёрат маданияти ва

одобига оид рисола, альбом ва буклетлар тарқатиш, турли баннер ҳамда видеолавҳалар орқали кўрсатиш ёки зиёратгоҳларда овоз кучайтиргичлар орқали эълон қилиб бориш керак. Бир сўз билан айтганда, зиёратгоҳларга хос зиёрат маданиятини шакллантириш лозим.

Хуллас, сўнгги ўн йилликда Жиззах воҳаси Ўзбекистонннинг ўзига хос туризм масканларидан бирига айланди. Шубҳасиз бу жараёнда давлат сиёсати ва минтақа аҳолисини фаол ҳаракати ўзаро уйғунлашиб бормоқда. Келгусида ушбу ишларни янада такомиллаштириб вилоятда туризмни янада ривожлантириш учун янги сайёҳлик йўналишларини ташкил этиш, воҳа табиати, аҳоли маданиятининг этнолокал хусусиятларини илмий жиҳатдан ўрганиб, оммавий ахборот воситалари ҳамда ижтимоий тармоқлар орқали ҳам кенг тарғибот ишларини амалга оширилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Акчаев Ф. Ш. Жиззах воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари. – Тошкент, 2021. – Б. 3.
2. Комилова Н. К., Усманов М. Р. Жиззах вилоятида туристик дестинацияларни ташкил этишнинг ҳудудий жиҳатлари. – Жиззах, 2023. – Б. 50.
3. Жиззахда туризмни ривожлантириш имкониятлари » Жиззах вилояти ҳокимлиги расмий ахборот сайти (jizzax.uz)
4. Мақоладаги асосий этнографик материаллар Фанлар академияси Тарих институти Этнология ва антропология маркази ходимлари томонидан “Жизах-Фориш тарихи” гранти доирасида Фориш туманида 2023 йил июль ойида ўтказилган дала-этнографик экспедиция жараёнида тўплаган.
5. Дала ёзувлари.. Жиззах вилояти Фориш тумани Ухум қишлоғи. 2023 йил.
6. Сайёҳларни мафтун этган гўшалар (uza.uz)
7. Муҳаммаджонов А. Қадимги сув иншоотлари тарихи. – Тошкент, 1968. – Б. 35.

Bababekov Akbar Davurbaevich
O‘zMU, Antropologiya va etnologiya kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD).

FORISH TUMANINING TARIXIY-ETNOGRAFIK TURIZM RESURSLARI VA SALOHIYATI

Annotatsiya: Quyidagi maqolada Forish tumanining O‘xum, Sayyod, Do‘stlik va Uchquloch “Turizm mahallalari” hamda boshqa turizm salohiyati yuqori bo‘lgan qishloq va mahallalarida etnografik, ekologik va qishloq turizm salohiyatiini rivojlantirish, pirovard natijada turizm salohiyati yuqori qishloqlarda

aholi turmush darajasini oshirish va turizm barqaror rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalarni hal etishga qaratilgan masalalar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Forish, turizm, Mojrum archasi, Hazrati Zaynulobiddin, geneologik turizm, Xo‘jabog‘bon ota, ziyoratgoh, Xonbandi.

Bugungi kunda jahonda turizm taraqqiyotining ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini oshirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida turizm sohasini barqaror rivojlantirishga ilmiy-nazariy asos yaratadigan zamonaviy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bois, turizm sohasini iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish dastagi sifatida tadqiq etishda barqarorlik masalalarini chuqur o‘rganish va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etish zamon talabiga aylanib boryapti.

Hozirda mamlakatimiz hududlarida jami 100 dan ortiq turizm salohiyatiga hamda turizmning istiqbolli turlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega mahalla va qishloqlar mavjud. Jizzax viloyatida turizm potensiali yuqori bo‘lgan hududlariga Forish tumani (11 ta QFY – jami 112 ta qishloq), Zomin tumani (12 QFY – jami 80 ta qishloq), G‘allaorol tumani (14 QFY- jami 106 ta qishloq), Baxmal tumani (10 QFY- jami 102 ta qishloq), Yangiobod tumani (5 ta QFY - jami 30 ta qishloq) hammasi bo‘lib 430 qishloq mavjud [1, 346]. Ular orasida Forish tumanidagi rasman “Turizm mahallasi” maqomini olgan O‘xum, Sayyod, Do‘stlik va Uchquloch kabi mahallalarning o‘ziga xos o‘rni mavjud.

Forish tumani shimol va shimoliy sharq tomondan Qozog‘iston Respublikasining Chimkent viloyati, sharqdan Jizzax, Zafarobod tumanlari, janubdan G‘allaorol tumani, g‘arbdan Qo‘shrabot, Nurota tumanlari bilan chegaradosh. Tuman markazi Yangiqishloq shaharchasi. Relefi pasttekislik, qir, adir va Nurota, Pistali tizma tog‘laridan iborat bo‘lib, Nurota tizmasi shimoli-sharqdan (230-250 m) janubiy-g‘arbga (1400-2000 m ko‘tarila boradi. Eng baland joyi Hayotboshi cho‘qqisi bo‘lib, dengiz sathidan 2169 metr. Janubiy g‘arbda Nurota tog‘lari va Qo‘ytosh, Baliqlitog‘, Pistalitog‘ tizmalari joylashgan. Forish degan nomni o‘rta asrlarda jahongir Amir Temur qo‘ygan degan ehtimoliy fikr ilgari

suriladi. Amir Temur Samarqandni poytaxt deb e’lon qilgach, shaharda katta-katta qurilishlar qiladi. U Samarqand atrofidagi eng bahavo joylarda yana yettita shahar bunyod etib, ularni dunyodagi eng go‘zal shaharlar nomlari bilan atashni niyat qilib qo‘ygan, toki Samarqand yettita dur o‘rtasidagi olmos bo‘lishini orzu qilgan. Nurota tog‘ tizmalari etagida qurdirmoqchi bo‘lgan ilk shaharning nomini Parij deb nomlagan. Keyinchalik Parij mahalliy xalq shevasida Farij, Farish, Forish deb o‘zgarib borgan.

Forish tumani tashkil topish tarixi XX asrning 30-yillariga borib taqaladi. Tuman 1935 yilda tashkil topgan. 1962 yilda bo‘linib Nurota va Jizzax tumanlari tarkibiga qo‘shib yuborilgan. 1964 yilda Forish tumani Sirdaryo tarkibiga kiritilgan 1974 yildan boshlab Jizzax viloyati tarkibida qayta tashkil etilgan.

Jizzax viloyatining **Forish va Arnasoy tumanlari**da 33 ta madaniy meros ob’ekti (shulardan 15 ta arxeologiya, 14 ta me’moriy va 4 ta monumental san’at yodgorliklari) davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, jumladan Gumbaz-Oqtepa (Oyim), Abdullaxontepa arxeologiya yodgorliklari, Band (Xonbandi suv to‘g‘oni), Xasan ota ziyoratgohi va Mavlono Muhammad Sharif (Girihshox) xonaqosi va masjidi me’moriy yodgorliklari turizmni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Forish tumanining turizm salohiyatini ifodalovchi, uzoq o‘tmishga borib taqaluvchi bir qator Uxum, Xayot, Mojrum, Qorobdol, Andigan, Mixin, Eski Forish (Porasht), Garasha kabi qishloqlarida turistik imkoniyatlar yuqori sanaladi [2, 43].

Ushbu turizm qishloqlarida xilma-xil hamda yilning turli fasllarida jozibador va raqobatbardosh tematik turistik zonalarini yaratish orqali turizmning istiqbolli turlari: **ekologik, etnografik, davolovchi-sog‘lomlashtiruvchi, mahalla (qishloq) turizmi**ni rivojlantirish salohiyatiga ega hudud hisoblanadi.

Forish tumani Forish tumanining eng chekka, Navoiy viloyati Nurota tumani bilan chegaradosh hududida Do‘stlik turizm mahallasi tarkibidagi Mojurum qishlog‘ida joylashgan. Bu qishloq Jizzax shahridan 121 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, asosan tog‘ yonbag‘ridagi go‘zal manzarasi, salqin tabiati, so‘lim va bahavo joylari bilan aholini o‘ziga jalb qiladi. Bu qishloq nafaqat ziyoratchilar maskani

balki ko‘plab ko‘plab tog‘ havosini yoqtiradigan dam oluvchilarning ham sevimli makoni hisoblanadi.

Bu qishloqning Mojurum deb atalishi haqida bir nechta rivoyatlar mavjud bo‘lib, mahalliy aholining ma'lumotlariga qaraganda "mojaroli", "janjalkash" ya'ni bir biri bilan kelisholmaydigan, "mojam" - bir birgamiz, yig'ildik ma'nosida, muhojir- " boshqa yerlardan kelgan" kabi ma'nolarni anglatadi. Qishloq aholisi asosan Halaj, Sayf, Quruqsoy, Sentop, Sultonli kabi tojik urug'lardan tarkib topgan. Qishloq aholisi asosan tojik va o'zbek tilida muloqot qiladi. Mojurum qishlog'ining kelib chiqishi bo'yicha aholining qarashlari har xil bo‘lib, aksariyati qishloq hududida joylashgan Hazrati Zaynulobiddin nomi bilan bog‘lanadi.

Mojurum qishlog‘ida joylashgan xalq orasida “Makedonskiy archasi” yoki “Ming yillik” archa kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan Mojrum archasi va Hazrati Zaynulobiddin ziyoratgohlari ekologik va tarixiy-etnografik turizm yo‘nalishidagi muhim ob’ektlar sanaladi.

Mojrum archasi (sharq biotasi) - Nurota-Qizilqum biosfera zahirasi maydonida o‘suvchi tabiat yodgorligi hisoblanadi. **Lokatsiyasi**: 40°34'33.5"N 66°43'18.3"E https://goo.gl/maps/UKFRgEvFe362FdZL9



Tahminiy yoshi bir yarim ming yil. Nurota tog‘larining Mojrum qishlog‘ida, suv tegirmonidan 300 metr balandlikda, soyning chap qirg‘og‘idan 50-60 metr masofada joylashgan. Poya aylanasi 24 metr, markaziy shox aylanasi 12 metr, oldida masjid qoldiqlari va eski qishloq joylashgan. Daraxtning uchta yirik shoxi vaqt mashaqqati tufayli, deyarli yerda yotadi.

2023 yil may-iyun oylarida O‘zbekiston Milliy universiteti “Antropologiya va etnologiya” kafedrasining bir guruh professor-o‘qituvchilari va 2-kurs talabalari bilan o‘tkazilgan ilmiy ekspeditsiya va talabalari amaliyoti davomida to‘plangan etnografik dala ma’lumotlariga ko‘ra, kim mazkur archani 3 marta ziyorat qilsa

uzoq umr ko‘rishi va uning ildizlari orasidagi kovakdan olingan tuproq “chilla tuproq” deb atalib chaqaloqlarning chilla vaqtida badaniga toshib ketadigan toshmalarni yo‘qotadigan xislati haqidagi rivoyat mahalliy aholi va ziyoratchilar orasida keng tarqalganligiga guvoh bo‘lish mumkin. *Masalan, ziyorat maqsadida kelgan axborotchi Abdumurod boboning aytishicha, 3 marta kelib yoshi 90 ga yetganini, 4-safar kelishi uni aniq 100 yoshdan oshishiga yordam berishiga umid qilishini misol tarzida keltirish mumkin [3, 12]* .



Hazrati Zaynulobiddin ziyoratgohi to‘g‘risida dastlab O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Xazinat ul-asfiyo” kitobida ma’lumot berilgan. Unga ko‘ra, Zaynulobiddin (dinga sig‘inuvchilar (xudojo‘ylar)ning eng a’losi, go‘zali degan ma’noni anglatadi) ismni olgan zot Hazrat Hasan ibn Ali Abu Tolibning 24-avlodlari, ya’ni Hazrat Alining 25-avlodlaridan – Zaynulobiddin (taxminan 895 yilda tug‘ilib, 915 yilda vafot etgan) bo‘lib, u zot ayni yigitlik davrlarida Nogur yo‘lida otasining ko‘z oldida yo‘lto‘sarlar qo‘lida shahid bo‘lgan.

Zaynulobiddin nomini berilishi va uning ma’nosi haqida turli qarashlar mavjud bo‘lib, Zaynulobiddin – dinga sig‘inuvchilar (xudojo‘ylar)ning eng a’losi, go‘zali degan ma’noni anlatadi. Dastlab bu nom imom Alining faxriy unvoni bo‘lgan. Hazrati Ali xudoj’oyligi, su’rati va siyratida diniy go‘zallikni namoyon bo‘lishi uni ushbu unvonga sazovor etgan. Oradan ko‘plab asrlar o‘tib, uning 25-avlodi tomonidan ushbu unvonni olinishi, tamomila Hazrati Aliga munosib avlod ekanligidan dalolat beradi [4, 37].

Bu ziyoratgohga mahalliy aholi vakillari yil davomida turli ko‘rinishdagi marosimlarni o‘tkazish uchun tashrif buyurishadi. O‘tgan ajdodlari xotirasiga atab jonliq hayvonlarni qurbonlik qilishib, ziyorat amallarini bajarishadi. Bu orqali esa

o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolarini hal qilishda yengillik bo‘lishiga ishonishadi.

Olib borilgan etnografik ekspeditsiya davomida ushbu ziyoratgoh xalqaro miqyosidagi ziyoratgohlar jumlasiga kirishini hamda istiqbolda viloyat hududidagi yangi turistik yo‘nalish-geneologik (ziyorat) turizmini rivojlantirish orqali turizm salohiyatini oshirish imkoni mavjudligi aniqlandi.

Mazkur fikrning tasdig‘i sifatida, ushbu qadamjoga har yili bahor faslining aprel-may oylarida ota-bobolari asli ushbu qishloqlik bo‘lgan, hozirda yurtimizning turli hududlarida hamda qo‘shni Qozog‘iston va Tojikiston respubliklarida istiqomat qiluvchi kishilar tomonidan “Avlodlar uchrashuvi” tarzida o‘tkaziladigan marosimni misol tarzida keltirish mumkin. Bu uchrashuvdan maqsad o‘zining kelib chiqishi, qishloq tarixi, qishloqdoshlarning o‘zaro qarindoshlik munosabatlarini saqlashga, o‘zaro qondosh avlodlarni bir-biri bilan tanishtirish barobarida, bir-birlariga bo‘lgan ishonch, o‘zaro munosabatlarda mehr-oqibatli bo‘lish, ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan an’ana va marosimlarni yosh avlodga yetkazish ekanligi keksa yoshli nuroniylar tomonidan ko‘p bora ta’kidlandi.

Bundan tashqari Forish tumanida ziyorat turizmi yo‘nalishida “Hazrati Eshon Xalifa” ziyoratgohi istiqbolli sanaladi. Bu muborak joy XIX asrda yashagan mahalliy aholi orasida Eshoni Xalifa sifatida tanilgan Jaloliddin ibn Abdukarim nomi bilan bog‘liq bo‘lib, Forish tumanining olis tog‘li hududidagi Andagin qishlog‘ida joylashgan. Qadamjo Jizzax shahridan 120 kilometr, tuman markazi-Bog‘don shahridan 4-5 kilometr shimoli-g‘arbda joylashgan. Andagin etimologiyasi haqida bir nechta tushuntirishlar mavjud. Qadimgi so‘g‘d tiliga xos bo‘lgan Andagin (andi-“yaqin”, gin- “suv”) so‘zi unga suvning ma’nosini beradi. Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, bu qadimiy qal’a milodiy 4-5 asrlarda qurilgan bo‘lib, devorlar bilan o‘ralgan. Mahalliy aholini xavfdan himoya qilishga xizmat qilgan.

Forish tumani hududagi tarixiy ob’ektlardan biri bu Xonbandi to‘g‘oni va sharsharasi hisoblanadi. Xonbandi to‘g‘oni Forish tumani markazidan 12 *km*

shimolda Pastog‘ining Osmonsoy kesib o‘tgan darasi ichiga qurilgan. 1950-1962 yillarda O‘zbekistan Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutining Moxondaryo arxeologik otryadi tomonidan o‘rganilgan.

Forish tumani yaqinida X asrda qurilgan Xonbandi, Kattaqo‘rg‘on tumani Jom qishlog‘iga yaqin XII asrda bino qilingan G‘ishtband shular jumlasidandir.

Xonbandi to‘g‘oni granit toshlar va suvga chidamli maxsus qorishmalardan ishlangan. To‘g‘onning balandligi 15,25 metr, uzunligi ustki qismida 51,57 metr, asosida 24,35 metr. Xonbandining uzunligi 1,5 km, eni to‘g‘on oldida 52 metr, dara og‘zida 200 metrga va suv sig‘imi esa 1 mln. 600 ming m^3 ga teng bo‘lgan[5, 45]. Xonbandi tufayli Qizilqumning Mirzacho‘l bilan tutashgan chegarasida taxminan 1,5 ming gektar yer maydoni o‘zlashtirilgan[6, 66].

Suv omboridan 6 km shimolida mustahkam rabot qad ko‘targan, uning xarobalari Kaltepa deb yuritiladi. Kaltepada olib borilgan arxeologik tekshirishlar bu kichik vohaning X asrda obod etilib, XII asr oxirlarigacha hayot davom etganini aniqlab berdi. Suvni chiqarish uchun Xonbandi inshootining g‘arbiy chekkasida 9 ta quvur o‘rnatilgan. Ular oqib chiqadigan suvning dinamik ta’siriga qarshi konussimon qilib ishlangan[7, 307].

O‘rta Osiyoda eng qadimgi va eng mahobatli irrigatsiya inshooti sanalmish “Xonbandi to‘g‘oni”ni juda katta mahorat bilan bunyod etishganlari kishini lol qoldiradi. XVII asr fransuz fizigi Blez Paskalning “Suvning bosim kuchi” to‘g‘risida yaratilgan qonun kashfiyotidan 7 asr muqaddam Movarounnahrlik muhandislar tomonidan ushbu qonuniyat asosida qurilgan O‘rta Osiyodagi birinchi suv inshooti hisoblanadi.

Xonbandi to‘g‘onining statistik hisoblarini aniqlab chiqqan 3.H.Husanxo‘jaev, injenerlik tipidagi bu suv inshootini avvaldan tayyorlangan maxsus loyiha asosida bino qilingan[8, 10], degan xulosaga keladi. Shuni qayd qilib o‘tish kerakki, Xonbandini qurgan irrigatorlar inshootning mustahkam bo‘lishini ta’minlovchi choralarni izlab topgan bo‘lsalar-da, ammo suv ombori ichida to‘planadigan loyqani tashqariga chiqarib yuborish yo‘lini topa olmaganlar.

Shu sababli Xonbandi suv ombori asta-sekin loyqaga to‘lib, ishdan chiqqan, to‘g‘on esa hozirgacha to‘la saqlangan.

Hozirgi kunda to‘g‘on suvga to‘lganida, undan oshib chiqayotgan suv ajoyib sharsharani vujudga keltirgan.

Shunday qilib, Forish tumanidagi har bir mahalla (qishloq) o‘ziga xos bo‘lgan turizmning alohida yo‘nalishlariga ega bo‘lib, asosida avtomagistral yo‘l bo‘yida joylashgan O‘xum, Sayyod va Do‘stlik MFY qishloqlari, Uchquloch (Tuzkon ko‘li) (tog‘ oldi hududi o‘zining tabiatga asoslangan ekoturizm va ziyorat turizmi, etnoturizm maskanlari) hamda ilm-ma’rifat o‘chog‘i sanaluvchi Garasha qishlog‘ida ta’lim turizmini keng targ‘ib qilish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Санаева Л, Номохов А, Маннонов Д, Хабиев С. Жиззах вилоятининг қишлоқ ҳудудларида экологик туризмни ривожлантиришнинг муҳим тамойиллари // Multidisciplinary Scientific Journal. March, VOLUME 2, ISSUE 3, 2023. – 343-354.
2. Санаева Л. Жиззах вилоятининг қишлоқ ҳудудларида экологик туризмни ривожлантиришнинг муҳим тамойиллари // Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги. Махсус сон. 1. 2023. – Б. 42-44.
3. Илмий этнографик экспедитсия ҳисоботи. 2023 йил.
4. Рустамжон Раҳматуллозода. Аждодлар меросига эҳтиром. – Тошкент: Фан, 2006. –Б.37.
5. Бабахалов А. О некоторых древних водохозяйственных сооружениях Узбекистана. Известия АН УзССР, Серия общественных наук, 1959. № 4. –С. 45.
6. Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане. – Ташкент: Известия АН УзССР, 1955. № 2, –С.66.
7. Мухаммаджонов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (Қадимги даврдан то XX аср бошларигача). –Тошкент: Фан, 1972. –Б. 307.
8. Ҳусанхўжаев З. Ҳ. Гидротехника иншоотлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. –Б. 10-12.

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna
tarix fanlari doktori, professor
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar qo‘mitasi Markazi rahbari

YANGI O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA QASHQADARYO ZIYORAT OB'EKTLARIDA DINIY BAG‘RIKENGLIKNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo vohasida mavjud ziyoratgohlar, ularning joylashgan o’rni, mahalliy xususiyatlari hamda mazkur ziyorat

ob’ektlarining respublikada diniy bag’rikenglikni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: O‘zbekiston, Qashqadaryo vohasi, ziyorat turizmi, millatl, elat, diniy konfessiya, ziyoratgohlar.

O‘ziga xos etnografik mintaqalardan biri hisoblan Qashqadaryo vohasi o‘zbek xalqining qadimiy tarixi, betakror madaniyati va muqaddas ziyoratgohlari bilan mashhur. Qolaversa, mana shunday o‘ziga xos mintaqalarda mavjud ziyorat va ziyoratgohlar bilan bog‘liq qarashlar hamda qadamjolarning mahalliy xususiyatlarini tarix, etnologiya, madaniy antropologiya, arxeologiya, falsafa, dinshunoslik va sotsiologiya kabi fanlararo yondashuv asosida kompleks tarixiy-etnologik yo‘nalishda tadqiq etishga ehtiyoj sezilmoqda.

Tarixdan ma'lumki, Movarounnahr hududida mavjud bo‘lgan dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, murosa va hamjihatlik madaniyati an'analari hozirgi kunda ham davom etmoqda. Jumladan, O‘zbekistonda yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari e'tiqod qiladigan 16 ta diniy konfessiyaning erkin faoliyatiga ruxsat etilganligi, ular orasida turli dinlar, islom, xristianlik va uning ko‘plab yo‘nalishlari, yahudiylik, buddaviylik vakillari o‘z diniy ibodatlari, urf-odatlarini amalga oshirib kelmoqdalar.

Ayniqsa, muqaddas ziyoratgohlar kishilardagi olijanoblik tuyg‘ularini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga muqaddas joylarni ziyorat qilish insonlarni to‘g‘ri yo‘ldan yurishi, insof-diyonatli bo‘lish va o‘zidan faqat yaxshilik qoldirish singari xayrli ishlarga undagan.

Qashqadaryo vohasi gerografik jihatdan tog‘ va cho‘l qismlarga bo‘linib, o‘troq va ko‘chmanchi aholining urf-odat va marosimlari o‘zaro uyg‘unlashib ketgan hudud hisoblanadi. Bu qadimiy o‘lka o‘z davrida Yunon Baqtriya, Kushon, Sug‘d, Arab xalifaligi va keyinchalik boshqa turkiy xalqlar tarixida muhim ahamiyat kasb etgan voha hisoblangan.

Shuni ta'kilash kerakki, Qashqadaryo ziyoratgohlarini mavqiyega qarab, mahalliy va respublika miqyosdagi muqaddas joylarga ajratish mumkin. Qolaversa, muqaddas ziyoratgohlar o‘zbek xalqining milliy va ma'naviy boyligi

bo‘lib, Qashqadaryo vohasida joylashgan Yakkabog‘ (*Makka Saidota, Tutakota, Xo‘ja Ilg‘or ota, Ukkosho ota), Qarshi shahri (Abu Ubayda Jarroh*), Qarshi tumani (*Imom Muyin an-Nasafiy majmuasi*), Qamashi tumani (*Langar ota, Mushkul ota, Ug‘lon ota*), Kitob tumani (*Hazrati Bashir, Hazrati Sulton, Xoja Ilmgoniy, Xo‘ja Ne'matilloh maqbarasi, Hazrati Sulton maqbarasi, Xo‘ja Ilm Kon maqbarasi, Mavlono Darvesh Muxammad Vaxshuvoriy*), Kosondagi *Xusam ota*, Kasbi (*Mir Xaydar Sulton, Xo‘ja Murodbaxsh*), Mirishkorning *Ko‘hna Fazli*, Dehqonobod tumani (*Xo‘jai Pok ota, Buloq ota*), Nishonning Nazar bobo, Shahrisabz shahrining (*Oq Saroy ва Doruttilovat majmualari, Ko‘k Gumbaz masjidi, Dorussaodat majmuasi, Samarqand Darvozasi, Koba karvonsaroyi, Chubeпь madrasas*i), Shahrisabz tumani Arslonbob ota, Muborakdagi Muborak al-Mervaziy ziyoratgohi va G‘uzor tumanidagi Musofir ota maqbarasi kabi ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarda o‘z aksini topganligini ko‘rish mumkin.

Vohada har bir muqaddas joy, ziyoratgoh, tarixiy obida, qadamjolar kishilar tasavvurida ilohiy kuchga ega bo‘libgina qolmay, qadimdan ziyoratgohlarga nisbatan ilohiy ta'sir ko‘rsatishga qodir, deb qaralgan. Shu sabab ularning o‘rnida o‘zga maqsadlarda turli bino va imoratlar qurish o‘tgan avliyolarga nisbatan hurmatsizlik sifatida qabul qilinadi deb tushunilgan.

Mahalliy aholining ziyoratgoh va qadamjolarga bo‘lgan munosabati ijobiy bo‘lib, ziyoratgohlar, mozorlar, qadamjoylar oldidan o‘tayotgan har bir inson biron bir transportda bo‘lsalar undan tushgan va o‘sha ziyoratgohni ziyorat qilib, so‘ngra yo‘lida davom etganlar.

BMTning Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) 2013-yilda O‘zbekistonni turizm sohasi jadal rivojlanib borayotgan ilg‘or beshta davlat qatoriga kiritdi(5). Butunjahon sayyohlik tashkilotining bergan ma'lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston turizm sohasi eng jadal sur'atlarda rivojlanayotgan 20 ta mamlakat ro‘yxatidan o‘rin olganligi fikrimiz dalilidir.

BMTning 2015-yil qabul qilingan 2030- yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi tadbirlarga turizmga iqtisodiyotning mamlakatlar barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadigan asosiy tarmoqlardan biri sifatida muhim

ahamiyatga ega. Chunki, bugungi kunda turizm yangi ish o‘rinlari yaratish, mamlakat yalpi ichki mahsulotining ortishi, savdo va eksportning o‘sishiga ta'sir ko‘rsatadi hamda dunyodagi madaniy xilma-xillikni saqlashga yordam berishi bilan birga dunyodagi barcha xalqlarning madaniy ma'anviy qarashlarini yaqinlashtiradi. Milliy merosini o‘rganishga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevral “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi 120-sonli Qarorida ko‘rsatilganidek, “Yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda muqaddas maskanlarni saqlash, qadrlash, ajdodlar xotirasiga hurmat-ehtirom ko‘rsatish tuyg‘ularini shakllantirish, shuningdek, vatandoshlarimizni yurtimizdagi qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obod qilishdek ezgu ishlarga faol jalb etish, bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish davr taqozosidir”(9).

Ma'lumki, 2019- yil 19-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish“ nomli rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil aprel oyida Pekinda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan “Bir makon, bir yo‘l“ xalqaro forumi doirasidagi uchrashuvda ilgari surilgan edi. Shunisi diqqatga sazovorki, O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan mazkur hujjatga Shimoliy va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarning 50 dan ortiq mamlakatlar hammualliflik qildi. Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan O‘zbekiston rahbari tashabbusi dolzarb ahamiyat egaligi va yuksak e'tirofini ham namoyon etdi. Hammualliflar orasida Braziliya, Vьetnam, Indoneziya, Hindiston, Irlandiya, Isroil, Xitoy, Kanada, Norvegiya, Marokash, Koreya respublikasi, Rossiya, Singapur, Senegal, Turkiya va boshqa davlatlar vakillari bor.

Rezolyutsiyada Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi global kun tartibini bajarish yo‘lida qilinayotgan sa'y-harakatlar, mintaqada barqaror turizmni yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etilayotgan turli xalqaro tadbirlar, shuningdek,

mamlakatlarning turizm sohasiga xalqaro moliya va investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha ishlab chiqayotgan chora-tadbirlarining muhim ekanligi qayd etiladi.

Mazkur hujjat Buyuk ipak yo‘lining Markaziy Osiyo hududi orqali o‘tgani, mintaqa mamlakatlarining jahon bozorlarida turizmni targ‘ib qilish borasidagi sa'y-harakatlari xorijlik sayyohlarning Markaziy Osiyoga bo‘lgan qiziqishining yanada ortishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, BMTga a'zo davlatlar rezolyutsiyada Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy barqarorlik va izchil taraqqiyotni mustahkamlashga qo‘shgan salmoqli hissasini yuksak baholagan, mintaqada iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakat va tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatlashini qayd etgan.

BMTga a'zo davlatlarni Markaziy Osiyoda barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan yirik tadbirlarda faol ishtirok etishga chaqiradi. Bu esa mintaqada sayyohlik tarmog‘i rivojiga va hududda mavjud ziyoratgohlarning mahalliy ahamiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ushbu rezolyutsiyaning bir ovozdan qabul qilinishi O‘zbekiston rahbariyatining Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida turizmni rivojlantirish, ilm-fan, texnika, innovatsiya va sayyohlik sohalaridagi aloqalarni chuqurlashtirish orqali yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanayotganini namoyish etdi.

Ziyorat – ibodat maqsadidagi sayohat bo‘lib, turizmning eng qadimgi ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi dunyo dinlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Ziyorat turizmi tarixiga ming yildan oshgan. Qadimgi yunon va rimliklar ma'bad uylari va ibodatxonlarga ziyorat uyushtirishgan. Hindistonda azaldan odamlar u yoki bu xudolar ta'sirida muqaddas joylarga ziyoratga borib turishgan .

O‘rta asrlarda ziyorat ommaviy tus olgan. XI-XII asrlarda ro‘y bergan salib yurishlari bunga yorqin misoldir .

O‘zbekistonda boshqa turdagi turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy

sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-2025- yillarda Turizmni rivojlantirish milliy kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Shunga asosan 2025- yilda O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollardan oshirish masalalari ko‘zda tutilgan .

Turizm ma'nosiga kelsak, tanishuv maqsadidagi sayohat hisoblanib, ziyorat turizmi esa turizmning mashhur turlaridan biri sifatida muqaddas joylar tarixi, avliyolar hayoti, ziyoratgohlardagi arxitektura va san'at asarlari bilan tanishish imkoniyatini yaratadi .

Hozirda respublikada turizm ko‘pincha qadimiy shaharlar, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, Yangi O‘zbekistonda boshqa turdagi turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. Jumladan, turizm sohasida gastronomik, etnografik, ekologik, sport, esktremal turlari qatorida ziyorat turizmi ham alohida o‘rin egallaydi.

Shahrisabz tumani G‘elon qishlog‘i - dengiz sathidan 2336 metr balandlikda, shahar markazidan 87 km. uzoqlikda joylashgan bo‘lib, ushbu qishloqda 1174 ta xo‘jaliklarda 5143 nafar aholi yashaydi. G‘elon qishlog‘i aholisi asosan qadimiy madaniyat va urf-odatlarini saqlab qolgan tojik millatiga mansub. Hudud MDH davlatlari rassomlari va fotograflari orasidagi eng mashhur etno qishloq hisoblanadi. Qishloqdagi “Muhammadiy” rassomchilik galereyasidagi G‘elon qishlog‘i hamda qishloq aholisining etno turmushi aks ettirilgan rasmlar jamlanmasi dunyo rassomlari orasida shov-shuvga sabab bo‘lib kelmoqda.

Shahrisabz tumanidagi Ko‘l qishlog‘i-dengiz sathidan 2466 metr balandlikda, tuman markazidan 95 km. uzoqlikda joylashgan bo‘lib, ushbu qishloqda 220 ta xo‘jaliklarda 1240 nafar aholi yashaydi. Bu qishloq tog‘li hududda bo‘lganligi uchun turizmning alьpinizm, etno, speleo, gastronomik, treking turlarini tashkil etish uchun eng boy hudud hisoblanadi. Ko‘l qishlog‘idagi 4 ta temirchi va 7 ta duradgor hunarmandlar uylarida gastronomik turizm

yo‘nalishi bo‘yicha hech qayerda mavjud bo‘lmagan “Rivoch oshi”, “Lotingon” (un, suv, sariyog‘) taomi, “Kashk” (tosh bilan maydalangan bug‘doy, go‘sht, no‘xot, loviya va ziravorlar) taomi va “qo‘y sariyog‘ida pishirilgan mahaliy kartoshka” taomlarini tayyorlash bo‘yicha mahorat darslarini tashkil etish mumkin. Xonadonlarda “mehmon uylari” tashkil etilmoqda.

Tumanlagi yana bir Suvtushar qishlog‘i-dengiz sathidan 1900 metr balandlikda, tuman markazidan 68 km. uzoklikda joylashgan.Suvtushar qishlog‘i Boshkop, Tamshush, Sarchashma qishloqlari bilan chegaradosh. Qishloqda 219 ta xo‘jaliklarda, 1042 nafar aholi yashaydi. Shundan 523 nafari erkaklar, 519 nafari ayollar. Ularning 241 nafari 20 yoshgachar, 218 nafari 20-40 yoshgacha, 583 nafari 40 yoshdan oshgan fuqarolarni tashkil etib, aholisi o‘zbek va tojik millatiga mansub. Suvtushar qishlog‘i axolisi asosan bog‘dorchilik bilan shug‘ullanadi. Shu jumladan, agroturizmni rivojlantirish hamda tashkil etilgan bog‘lardagi mevalardan turistlar uchun “Fresh juice” tayyorlab berish imkoniyati mavjud. Suvtushar qishlog‘ida 80 metrlik Suvtushar sharsharasi borligi, Suvtushar qishlog‘idagi tog‘larda shumtol, zarang, tol, Buxoro bodomi, Regel noki kabi daraxtlari juda mashhur.

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilish mumkinki, Shahrisabz tumanidagi Ko‘l, G‘elon, Sarchashma, Suvtushar, Xisor qishloqlaridagi toza havo va ko‘rkam tabiatdan sayohlar bahramand bo‘lishi uchun yullarda hech kanday to‘siqlar mavjud emas.

Jahon turizm tashkiloti (JTT) ekspertlari va mutaxassislari ziyorat turizmini XXI asr turistik sayohatlarining eng istiqbollari turlaridan biri deb qayd etdi.

Umuman olganda, ziyorat turizmi kishilarning dunyoviy sayohati ham bo‘lib, madaniy – ma'rifiy maqsadlarni amalga oshiradi, diniy ibodat joylari, tarixiy-madaniy, tabiiy ob'ektlarga ekskursiya shaklida alohida odob amalining kommunikativ shakli tarzida o‘tkaziladi. Buning uchun fakat diniy marosim ziyoratchilari bo‘lishi talab etilmaydi . Turizmning ushbu turi zamirida turli dinlar va aholining qatlamlari vakillari bilan nafaqat diniy, balki tarixiy, madaniy va badiiy qiymatga ega joylarga tashrif buyurib, yangi bilimlarni olish imkoniyati

paydo bo‘ladi. Bugungi kunda “ziyorat turizmi”, “ziyorat tur”, “ziyorat ekskurtsiyasi” kabi tarzida ko‘p qo‘llanilayotganligi muqaddas joylarga tashrif buyuruvchilarning sayyoh yoki ziyoratchilar sifatida tanitadi hamda ob'ektning ma'lum funktsiyani bajaruvchiga aylantiradi .

Shuningdek, ziyorat turizmi madaniy-ma'rifiy maqsadlar yo‘lida e'tiqodli kishilarning ziyoratgohlardagi sayohati bo‘lishi bilan birga ziyoratchilarning ziyoratgohlarga oid tarixiy ma'lumotlarga ega bo‘lishi, falsafiy dunyoqarashining kengayishi va estetik zavq olishi ham tushuniladi .

Hozir O‘zbekiston nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Aynan mazkur zamin g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari, tutashgan mintaqa bo‘lishi bilan birga turli madaniyatlar va din vakillarining muqaddas sajdagoh bo‘lgan. Yurtimiz xududlarida bir vaqtda Yer yuzida ilk kishilik manzillari joylashgan deb taxmin qilinayotganligi va bu borada topilgan bir qator isbotu dalillar ham ushbu zaminining tarixi naqadar ko‘hna ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бирюкова Е. В. Религиозный туризм в территориальной рекреационной системе ЦЧР. Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. География. Геология. Том 3 (69). № 1. 2017. – Б..20.
2. Бондаренко Д.В. Аспекты правового регулирования паломничества и религиозного туризма на современном этапе // Вестник ассоциации вузов туризма и сервиса. 2015. Т.3.9. –Б.15.
3. Глушко А.А., Сазыкин А.М. География туризма. – Владивосток.: изд.Дальневосточного университета, 2002.- Б.55.
4. Макаренко С.Н., Саак А.Э. История туризма. –Таганрог.2003.-С.4.
5. Узбекистан признан одним из мировых лидеров в сфере развития туризма //http://news.mail.ru/inworld/uzbekistan/society/12516504/?frommail=1
6. Паломничество и туризм.https://tonkosti.ru.
7. Печерица Е.В., Шарафанова Е.Е. паломнический туризм: сущностные аспекты // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 6.
8. Сенин В.С. Организация международного туризма: учеб. / Сенин В.С. М.: Финансы и статистика, 2003. –400 б.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Муқаддас қадамжолар, зиёратгоҳлар, масжидлар ва қабристонларни ободонлаштириш ишларини самарали ташкил этиш тўғрисида”ги (2018 йил 15 февраль) 120-сон қарори // www.lex.uz
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. (28 декабр 2018 йил). –Т.: “Ўзбекистон”.2019.-Б.39.

Jo‘rabekova Matluba
O‘ZMU Tarix fakulteti Etnografiya, antropologiya va etnologiya
yo‘nalishi I kurs magistranti

O‘ZBEKISTONDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARINI O‘RGANISH VA UNI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. O‘zbekiston ko‘plab tarixiy va madaniy boyliklarga ega. U qadimdan svilizatsiya chorraxasida joylashgan bo‘lib, hozirgi kunda ham Markaziy Osiyoda asosiy turizm yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Ammo hududda etnoturizm sohasini rivojlantirish, dunyo bo‘ylab keng ko‘lamli etnoturistlarni jalb qilish va mavjud etnografik obyektlarni namoyish etish ishlari biroz ortda ketmoqda.

Kalit so‘zlar: Etnoturizm, doimiy rivojlanish, madaniyat, etnografik obyekt, madaniy tafovut, etnoturist,

Аннотасия. Узбекистан обладает множеством исторических и культурных сокровищ. Он с древних времен находился на перекрестке цивилизаций и до сих пор является одним из главных туристических направлений Центральной Азии. Однако развитие сферы этнотуризма в регионе, привлечение масштабных этнотуристов со всего мира, презентация существующих этнографических объектов отстают.

Abstract

Uzbekistan has many historical and cultural treasures. It has been located at the crossroads of civilization times, and is still main tourist destinations in Central Asia. However, the development of the field of ethno-tourism in the country, the attraction of large-scale ethnotourists from around the world, and the presentation of existing ethnographic objects are lagging behind.

Key words: Etno-tourism, sustainable development, culture, ethnographyc object, cultural differences, ehtno-tourist.

Etnoturizm – bu mahalliy shaxslar guruhiga va ularning madaniyatiga yo'naltirilgan turizm turi. Etnoturistlar mahalliy jamoalarning madaniy amaliyotlari

va tajribalarini izlaydilar. Etnoturizm mahalliy jamoalar uchun iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni maksimal darajaga oshirish va atrof-muhit va madaniy merosga salbiy ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan [1, B. 8]. Etnoturizm – bu madaniy turizmning ixtisoslashgan shakli bo'lib, u mahalliy aholining turmush tarziga, madaniyatiga, xo‘jalik faoliyati, milliy va an’anaviy qadriyatlariga, bayram va marosimlariga e’tibor qaratadigan turidir. Turistlar mahalliy aholining uylariga tashrif buyurishadi, ularning raqslari, marosimlari, festivallari va boshqa madaniy ifoda turlarida ishtirok etadilar va kuzatadilar [2, B. 12].

Etnoturizm atrof-muhitni muhofaza qilishga, shuningdek, mahalliy jamoalarga foyda keltirishga e’tibor qaratishi kerak. Etnoturizmda mahalliy jamoalar o‘zlarining shaxsiy madaniyatini targ‘ib qiluvchi faol ishtirokchilar va turistlar tomonidan jalb qiluvchi odamlar sifatida kuzatilishidan tashqari turizm keltiradigan iqtisodiy foydaning asosiy oluvchilari hisoblanadi. Etnoturizm aholi bandligini ta’minlash va daromad olishda katta hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, u mahalliy jamoalarning madaniy o'ziga xosligini targ'ib qiladi. Ko'pgina mamlakatlarda g'arbning katta ta'siri bilan birga kelgan kuchli urbanizatsiya jarayoni sodir bo'ldi va bu madaniy qadriyatlar va o'ziga xosliklarning yo'q qilinishiga olib keldi [3, B. 7]. Etnoturizm odamlarni an'anaviy madaniy ko'nikmalar va bilimlarni qo'llab-quvvatlashga undash orqali madaniy o'ziga xoslik va qadriyatlarning tiklanishiga yordam beradi.

Shuningdek, bu etnoturizm mahsulotlari bo'lgan an'anaviy qo'shiqlar va raqslar kabi ijodiy sohalarni rag'batlantiradi va shu bilan mahalliy raqqosalar va musiqachilarga o'zlarining madaniy amaliyotlari va ko'nikmalarini amalga oshirishlari uchun muhim sharoitlarni taklif qiladi [5, B. 14]. Etnoturizm sohasi bazi davlatlarda hozirgi kunda bir biznesga ham aylanib ulgurdi. Etnoturizm biznesi tasviriy san'at va hunarmandchilik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, etnoturizm korxonalari mahalliy ishlab chiqarilgan hunarmandchilik mahsulotlarini sotuvga qo'yadi va bu sayohatchilar uchun qo'shimcha qiymat va etnoturizm ishtirokchilari uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lib xizmat qiladi [6, B. 22].

Etnoturizm madaniy tafovutlar orasida bog'lovchi vazifasini bajaradi, chunki u turli xil turmush tarziga va madaniyatga ega bo‘lgan turistlarga mahalliy aholining turmush tarzi va madaniyatini namoyish qilishni o'z ichiga oladi. Bu shaxsiy o'zaro munosabatlar orqali amalga oshiriladi va shu bilan madaniyatlararo ta'lim va muloqotni kuchaytiradi. Misol uchun, Rio Grande De Terraba daryosi havzasida joylashgan El Descanso, Asodint mahalliy tashkiloti tomonidan boshqariladi va u yerga tashrif buyuruvchilarga an'anaviy taomlar va ichimliklar taklif etiladi. Sayyohlar Terraba va Katarata daryolari, qadimiy petrogliflar va ko'plab mahalliy jamoalarni ziyorat qilishlari va bu jamoalar tomonidan ishlatiladigan dorivor o'simliklar bilan tanishishlari, an'anaviy mahalliy o'yinlar o'ynashlari va mahalliy hunarmandchilik buyumlarini sotib olishlari mumkin. [7, B. 13] Turizmdan olingan foyda keyinchalik jamiyatni rivojlantirish loyihalariga qayta sarmoya qilinadi. Jamiyat daromadlari to'g'ri boshqarilsa, u juda qimmatli bo'lishi va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Etnoturizm biznesi institutsional salohiyatni oshirishga katta yordam beradi. Mahalliy hamjamiyatlar ham ushbu ishda o‘z xissasini qo‘shishga harakat qilishsa, etnoturizm muhim markaz bo'lishi mumkin, bunda jamoa birligini ta'minlash va mahalliy hamjamiyat tashkilotlarini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Etnoturizm, shuningdek, chekka hududlarda joylashgan mahalliy hamjamiyatlarning tashqi dunyo bilan aloqasini kuchaytirish imkoniyatini oshiradi [8, B. 3].

Etnoturizm sayyohlarga xorijiy mamlakatlardagi mahalliy hamjamiyatlarning madaniyati bilan yaqindan tanishish, ularning madaniy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini tushunish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda ular o‘sha xalqning milliy bayram va festivallarida ishtirok etishi, milliy liboslarini kiyib ko‘rishi va suratga olishi, milliy musiqalari bilan tanishishi mumkin [5, B. 16].

Etnografik turizmning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u sayyohlarning deyarli barcha toifalari uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin. Chet elliklar, ichki turistlar, o‘z ajdodlarining tarixi, an’analari va turmush tarziga qiziquvchi yoshlar

uchun ham. Turizmning alohida turi sifatida etnoturizm juda ko‘p ijtimoiy funksiyalarni bajaradi:

Etnoturizm turli etnik guruhlar vakillariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini targ‘ib qiladi;

Madaniy, ijtimoiy va landshaft-ekologik xilma-xillikni saqlashga yordam beradi;

O‘zlikni anglash tuyg‘usini mustahkamlash va etnik guruh istiqomat qilayotgan hudud madaniyatini yanada saqlashga hissa qo‘shadi;

Mahalliy xalqning an’anaviy oshxonasi, kundalik turmush va hunarmandchilikning an‘anaviy buyumlarini tayyorlashning mahalliy usullarini qayta tiklashga yordam beradi.

Ba‘zan etnoturizm madaniy turizmga yo‘naltirilgan turizmni ifodalash uchun ham ishlatiladi.

So‘nggi yillarda etnoturizmning o‘sishi bilan etnoturistlar toifasi kengaytirildi. Etnik madaniyatlarni o‘rganuvchilar “etnosayyohlar” deb ataladi. Bugungi kunda etnosayyohlar turli madaniyatlarni kuzatish uchun sayohat qiladigan turistlarning alohida turidir. Moskardo va Pirs (1999), Avstraliyadagi aborigen madaniyatida tadqiqot o‘tkazib, etnoturistlarning qiziqish darajasiga qarab to‘rtta alohida guruhlarni ko‘rsatadi. Ushbu to‘rt guruh: Turistik aloqa guruhi, passiv madaniy o‘rganuvchilar guruhi, etnik mahsulotlar va faoliyatlar guruhi, past etnik turizm guruhi.

Moskardo va Pirslarning tadqiqotiga ko‘ra, bugungi kunda post-modern etnik turistlarining ikki turi mavjud: biri guruh madaniyatlararo aloqaning barcha jihatlarini ishtiyoq bilan qamrab oladi, o‘yin-kulgu va mashg‘ulotlarga qiziqadi, boshqasi esa etnik guruhlar bilan bevosita aloqa qilishni istamaydi. Passiv madaniy o‘rganish guruhi sayyohlari o‘zlarining sayohat qilgan etnik guruhlarga ta’sirini o‘rganishga qiziqadi, ammo o‘sha etnik guruhning iqtisodiy jihatlariga qiziqish bildirmaydi. Past etnik turizm guruhi vakillarining aslida etnoturizmga qiziqishi juda past bo‘ladi, ularning aksariyati yon-atrofidagi odamlarning sayohat qilayotganligi sababli sayohatga chiqadi. Ushbu tadqiqot etnoturistlarni va ularning

qiziqish sohalari haqida bilish uchun o‘ziga xos istiqbollarni taqdim etadi. Ko‘pgina tadqiqotlar etnosayyohlarni madaniy tajribalar orttirishni hohlovchilar deb biladi [9, B. 11].

Etnografik obyektlarning mavjudligi etnoturizmni to‘g‘ri tashkil etishning asosiy shartidir. Etnografik obyektlar ijtimoiy-madaniy resurslar tarkibiga kiradi va turistik xizmatlar ishlab chiqishda foydalaniladi. Rivojlanayotgan etnoturizm milliy madaniyatlarning tiklanishi va rivojlanishi omilidir. Chunki u unutilgan an’anaviy hunarmandchilik bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishi, hunarmandchilik maktablarining yaratilishi, va o‘sha hududning tili, urf-odatlari, madaniyati nafaqat saqlab qolinishiga, balki ommalashtirilishiga xissa qo‘shadi. [10, B. 3].

Hozirgi kunda eng ko‘p turistlar tashrif buyuradigan davlatlari qatorida Fransiya, Ispaniya, Tailand, Xitoy, Turkiya, Meksika, Italiya yetakchilik qilmoqda [11, B. 6].

Sayyohlar bugungi dunyoda faqatgina sayohatchilar emas. Ular migrantlarning bir turidir. Xo‘sh nega turistlar aynan yuqorida keltirilgan davlatlarga tashrif buyurishni afzal ko‘rmoqda? Ushbu savolning javobini Ispaniya misolida ko‘rib chiqamiz.

Ispaniya geografik jihatdan juda xilma-xildir. Ispaniyaning dengiz bo‘yida joylashganligi, sayyohlar uchun suv sporti va sarguzashtlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ikkita mashhur sayyohlik yo‘nalishi, xususan, Balear orollari va Kanar orollari Ispaniyaning bir qismi bo‘lib, sayyohlar uchun katta qiziqish uyg‘otmoqda [3, B. 6]. Shuningdek, Ispaniyadagi har bir shaharning o‘z madaniyati bor, ya’ni etnoregional xilma-xillik kuchlidir. Qachonki turistlar Ispaniyaning shaharlariga tashrif buyurganida, bu ularda huddi turli davlatlarga sayohat qilgandek taassurot qoldiradi. Misol uchun ba’zi regionlar aholisining tili bir-biriga umuman o‘xshamaydi. Masalan: Kataloniyaliklar katalon tilida gaplashsa, Pais Vaskoliklar Euskeran tilida gaplashadi. Bundan tashqari, Ispan oshxonasining bir-birini takrorlamaydigan mazali taomlari bu yerga turistlar oqimini yildan-yilga oshirib borayotgan ikkinchi omildir. Sayohat davomida yangi taomlarni tatib ko‘rish sayohatning eng ajoyib qismlaridan biri deyish mumkin.

Ispaniyaga tashrif buyuradigan turistlar har bir regionning turfa xil taomlaridan tatib ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi [12, B. 2].

Ispaniyaga turistlarni jalb qiladigan keyingi omil bu uning an‘anaviy va zamonaviy festivallaridir. Aksariyat festivallar avliyolar, afsonalar, mahalliy urf-odatlar va folklor asosida tashkil etiladi. Eng noyoblariga: Sevilya yarmarkasi (ispanchada Feria de Abril), Almonte, Uelvadagi Romeria de El Rocio, Pamplonadagi dunyoga mashhur Buqalar yugurishi, Valensiyadagi Fallas, Bunoldagi Tomatina (Valensiya) ajralib turadi. Kanar orollarida (Santa Kruz de Tenerife karnavali) va Kadisda karnavallar butun Ispaniyada ham mashhur. Mamlakat bo‘ylab taniqli kinofestivallar mavjud bo‘lib, ularning eng taniqlilari: mashhur San-Sebastyan xalqaro kinofestivali, Malaga ispan filmlari festivali, Seminchi (Valyadolid xalqaro kinofestivali), Mostra-de-Valensiya va Sitges kinofestivallari bo‘lib, ular dunyodagi eng mashhur kinofestivaldir. Fantastik va dahshatli filmlarga ixtisoslashgan xalqaro festival ham bor. Musiqa festivallariga Sonar, FIB, Festimad, Primavera Sound, Bilbao BBK Live, Monegros cho‘l festivali va SOS 4.8 festivali kiradi[13, B. 4].

La Tomatina – bu festival har yili avgust oyining oxirgi chorshanbasida Ispaniyaning Valensiya yaqinidagi Bunol shahrida o‘tkaziladi. Har yili minglab odamlar dunyoning turli burchaklaridan ushbu festivalni tomosha qilish va unda ishtirok etish uchun tashrif buyuradi. Ushbu festivalda 100 metrik tonnadan ortiq pishgan pomidor ko‘chalarga tashlanadi. 2013-yilgacha 40 mingdan 50 mingtagacha bo‘lgan odamlar ushbu festival uchun Ispaniyaga kelgan. Kechki soat 12 lar atrofida bir qancha yuk mashinalari pomidorlarni shahar markaziga, Plaza del Puebloga olib boradi. Ushbu pomidorlar nisbatan arzonroq bo‘lgan Extremaduradan olib kelinadi. Festival boshlanishining belgisi suv to‘plarining havoga otilishi bilan boshlanadi. Festival 1 soat davom etadi. Qisqa vaqtli ushbu festival o‘ziga har yili eng ko‘p miqdordagi turistlarni jalb qiladi [14, B. 2].

Turistlarning aksariyatini Ispaniyadagi muzeylar jalb qiladi. Madrid shahri san’at muzeylari bo‘yicha Yevropaning eng ko‘p tashrif buyuriladigan hudud hisoblanadi. Ulardan eng mashhuri – bu Paseo del Prado bo‘ylab joylashgan va

uchta muzeyni o‘z ichiga qamrab olgan “Oltin san’at uchburchagi” muzeyidir. Bulardan: “Prado” muzeyi, aralash shaxsiy kolleksiyalardan tashkil topgan “Thyssen Bornemisza” muzeylari ham turistlar uchun tashrif maskanlari vazifasini o‘tamoqda [15, B. 5].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda dunyoning eng rivojlangan davlatlari iqtisodiyotini rivojlantirish, shu bilan birgalikda o‘z madaniyatini dunyoga tanitish uchun etnoturizmni rivojlantirishga alohida e’tibor bermoqda, turistlarni jalb qilish maqsadida mavjud etnografik obyektlardan unumli foydalanmoqda va etnoqishloqlar ham tashkil qilishmoqda. Bu xususdagi dunyo tajribasini o‘rgangan holda, O‘zbekistonda ham etnoturizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini keng qamrovda o‘rganib chiqish va imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chambers E, 1997. Tourism and Culture: An Applied Perspective. New York: State Univ.NY
2. Chambers E. 1999. native Tours: The Anthropology of Travel and Tourism: ProspectnHeights, IL: Waveland
3. Dana-Nicoleta Lascu, Lalita A. Manrai, Allison Gan. A cluster of analysis of tourist attractions in Spain: Natural and cultural traits and implications for global tourism- 2018
4. Eugenia Afinoguénova. An Organic Nation: State-Run Tourism, Regionalism, and Food in Spain, 1905–1931 - The journal of modern history.
5. Edward M. Bruner Culture on Tour: Ethnographies of Travel.
6. Edward Bruner and Beyond The Ethnography of Tourism: (The Anthropology of Tourism: Heritage, Mobility, and Society)
7. Emerita Sofia Munoz Estrada. (2018). Eco-Etnoturism: An Option for Sustainable Environmental Management.
8. Harkin, M. (1995) Modernist anthro-pology and tourism of the authentic.Annals of Tourism Research
9. Li Yang. Planning for Ethnic Tourism: Case studies from Xishuangbanna, Yunnan, China.- 2007.Ontario
10. Maya Gvinjila .Features of the development of ethnographic tourism- 2018.
11. [https://daryo.uz/2019/07/05/dunyoning-sayyohlar-eng-kop-tashrif-buyuradigan-davlatlari-haqida-bilasizmi]
12. https://www.reuters.com/article/spain-economy-tourism/spain-tourist-arrivals-mark-record-for-6th-straight-year-in-2018-minister-idINKCN1PA1HK?edition-redirect=in
13. [https://web.archive.org/web/20100924114109/http://www.sanborondon.info/content/view/26362//]
14. http://www.museothyssen.org/en/thyssen/home
15. https://www.expansion.com/directivos/2016/04/15/5710963722601df9628b4673.htm

Islamova Q.
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti Tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi

O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANAYOTGAN YANGI TURIZM TURLARINING BAYONI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotda turizmning roli, eng ko‘p turist tashrif buyuradigan davlatlar, yurtimizda rivojlanib borayotgan turizm turlari haqida ma’lumotlar beriladi. Maqolada turizmning yangi jabhalari astroturizm va etnoturizmga ta’rif beriladi. Etnoturizmga alohida e’tibor berilib, mazkur turizm yo‘nalishi Qoraqalpog‘iston respublikasi va Surxandaryo viloyati misolida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. *Turizm, sayyoh, ichki turizm, ekologik turizm, astroturizm, etnoturizm, qadryatlar, festival.*

Zamonamiz talablaridan biri shubhasiz bugungi kunda turizmning rivoji bo’lib qolmoqda. Har bir davlat katta e’tibor qaratayotgan ushbu soha o‘z dozarbligini mustahkamlab bormoqda. Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) kuzatishlari bo‘yicha dunyo bo‘ylab sayyohlar soni yanada ortishi tahmin qilingan. Xususan 2017-yilda jahon bo’yicha turistlar soni 1,1 mlrd ni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 5,5 mln yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlardir. Eng ko‘p sayyoh tashrifi bo‘yicha Fransiya 93,2 mln, Ispaniya 82,8 mln, AQSH 82, 2 mln, Xitoy 62,9 mln Italiya 62,1 mln kabi davlatlar yuqori o‘rinlarda turadi. Bu davlatlar sayyohlik tizimidan olinadigan foyda YaIM hajmining 10 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Shunga yarasha turizm uchun, sayyohlar xavfsizligi, madaniy meroslarni asrab-avaylash kabilarga katta e’tibor beriladi.

Keling shu o‘rinda turist so‘zining ta’rifiga to‘xtalib o‘tsak, turist-jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi[1]. Ya’ni bunda turist ish faoliyati bilan shug‘ullanish uchun emas, balki sog‘ligi, sayohatga ehtiyoji yoxud madaniy tadbirlarga borish uchun o‘zga hudud yoki davlatga

chiqishi nazarda tutilmoqda. Turizmning tarixi yaqin davrlarga borib taqaladi. Zamonaviy turizm asoschisi deb Tomas Kuk e’tirof etiladi. XIX asrning o‘rtalarida birinchilardan bo‘lib ommaviy safarlarni uyushtirish, tashkil etish foydali ekanligini aniqlab, temir yo‘l orqali dastlabki turlarni tashkillashtirishga muvaffaq bo‘ladi.

Keyinchalik bu soha tezda ommalashib iqtisodiyotning ham muhim bir tarmog‘iga aylandi. Turizmni tasniflashda ikkita katta tarmoqqa ajratsa bo‘ldi. Bular ichki turizm va xalqaro turizm. Ichki turizm bu o‘z davlati chegarasi doirasida doimiy yashovchi fuqarolarni vaqtinchalik tashrif buyuruvchi joyda (to‘lanadigan faoliyatsiz) turistik maqsadlarda sayohat qilishga aytiladi. Xalqaro turizm esa vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to‘lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qlish tushuniladi[2]. Sayohatni maqsadli turlariga dam olish, ijtimoiy maqsadlar, iashga aloqador va kasbiy qarindoshlarnikiga tashrif, ziyorat turizmi va boshqa ko‘plab turlarga tasniflash mumkin.

Bulardan tashqari ta’limiy, sport, sarguzasht, ekzotik, ekologik turlari ham borki, ularni sayyoh o‘z xoxishga ko‘ra tanlab maqsadli sayohat uyushtirishi mumkin. Hozirgi kunda yana boshqa noodatiy sayohat turlari ham vujudga kelmoqdaki, astroturizmdir. Astroturizm u yulduzlarni tomosha qilishni yaxshi ko‘radigan har kecha yulduzlarning yanada o‘zgacha turlarini va gallaktikalarni izlovchi Astro ixlosmandlarni o‘ziga chorlovchi samon yo‘llar, gallaktikalar, Ursa Major va Orion kabi yulduzlar turkumlari, quyosh chiqishi va botishi manzillaridir[3]. Mana shunday manzaralarni ko‘rishni istovchi kishilar uchun geografik jihatdan qulay joylarni taklif qilish, maxsus turlar uyushtirishlar orqali faoliyat yurutuvchi bu tur ham so‘nggi yillarda ommalashib bormoqda.

Yana bir turizm turi bu etnikturizmdir. Bunda qarindoshlarini ko‘rish, ota-bobolarining vatanini bilish, hududlarga sayohat qilish yo‘li bilan etnikmadaniy turizmdir. Bundan tashqari etnoturizmga kam sonli xalqlar yashaydigan hududlarga uyushtirilgan sayohatlar ham kiradi. Qandaydir sabablar bilan o‘z tug‘ulgan yurtda istiqomat qilmayotgan insonlarning o‘z tug‘ulgan davlatiga

tashrif buyurishi, yaqin insonlarinikiga mehmonga borishi kabi vaziyatlar ham etnik turizmga mansub bo‘lib, bugungi kunda ko‘plab sayohatlar ayni shu maqsadda ham uyushtirilmoqda. Bundan tashqari eng oxirgi turlardan biri hozirgi kunda o‘z urf-odatlariga sodiq qolgan holda hayot kechirayotgan, globallashuv shiddati kirib ulgurmagan hududlar tashrif buyurish juda ommalashmoqda. Yana bir nomi jailo turizm bo‘lib, inson qadami deyarli yetmagan ibtidoiy sharoitda yashashga to‘g‘ri keladigan sharoitga duch kelishingiz mumkin. Bu yo‘nalish yevropada oldinroq rivojlangan bo‘lib, bizning mintaqamizga endi kirib kelmoqda. Etnoturizmning bu turida mahalliy aholi turmush tarzini o‘z ko‘zlari bilan kuzatish, bir necha kun birgalikda istiqomat qilish imkoniyatlari ham borki, ko‘plab turistlarni o‘ziga jalb etmoqda.

Bizning yurtimiz ham turizmning ko‘plab yo‘nalishlari bo‘yicha keng imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Boy tariximiz, betakror madaniyatimiz, tengi yo‘q obidalarimiz-u, takrorlanmas urf-odatlarimiz bilan qancha faxrlansak arziydi. Bu boy meroslarimiz ko‘zni quvnatish bilan birga moddiy jihatdan xalqimizga foyda keltirishi ham mumkin. Shularni nazarda tutgan holda davlatimiz ham turizm sohasiga katta e’tibor berib, bu borada maxsus qarorlar qabul qilmoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26-aprel 2023-yildagi PQ-135-son qarori bilan Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarori e’lon qilindi. Qarorga ko‘ra, har bir turistik rayon bo‘yicha turizmni rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

Yurtimizning har bir go‘shasi o‘zining turistik salohiyati bilan ajralib turadi. Shuni inobatga olib har bir hudud uchun alohida rejalar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa bu borada Qoraqalpog‘iston Respublikasi turizmini rivojlantirish bo‘yicha kerakli ko‘rsatkichlar belgilab olindi. Madaniyat va turizm vazirligi Germaniyaning “Gesellschaft fur international Zusammenarbeit-GIZ’’ tashkiloti bilan yaqindan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar tashkil etilyapti. “2023-2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish “ strategiyasi

ishlab chiqilgan bo’lib, unga muvofiq turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va xizmatlar sifatini ko‘tarish, infratuzilmani yaxshilash, yangi sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish, eksportni oshirish, va tashqi turizm bozorlarida targ‘ibot ishlarini olib borish, yangi bo‘sh ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan.

2026-yilga kelib Qoraqalpog‘istonga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 180000 va mahalliy sayyohlar soni 1 millionga yetkazish ko‘zda tutilgan. Eko, etno, madaniy-tarixiy, ziyorat, arxeolagik, gastonamik va safari turizm yo‘nalishlarida yangi mahsulotlar yaratish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari Buyuk Britaniyaning “Bradt Guides” sayyohlik nashri 2023-yilda sayohat qilish uchun tavsiya etilgan dunyoning noyob turistik hududlari ro‘yxatiga Qoraqalpog‘istonni kiritganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Eng e’tiborli jihatlaridan bir bu yerda ham etnoturizmning rivojlanib sayyohlarni o‘ziga jalb etishidir. O‘zining noyob urf-odatlari, kiyimlariyu, baxshichilik san’ati bilan ko‘plab sayyohlarning e’tiborini o‘ziga qarata oladi. Yana bir o‘ziga xos tomoni bu o‘tovlar bo‘lib, sayyohlar uchun maxsus o‘tovli mehmonxonalar ham tashkillashtirilgan.

Yana bir hudud Surxandaryo viloyatida esa, Termiz, Boysun va Jarqo‘g‘on tumanlarida yangi loyiha amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda. Unga ko‘ra hududda ekoturizm rivojlantiriladi va zamonaviy safarlar usulida suv bo‘yida turistik maskanlar tashkil etiladi. Boysun tumanida etnik-folklor yo‘nalishda turizm rivojlantiriladi. Buning uchun hozirdan 2024-yilda o‘tkaziladigan “Boysun bahori” xalqaro festivali uchun joylar tanlanib, qurilish-ta’mirlash ishlari boshlangan.[4]. Bunda katta e’tibor etnikturizmga qaratilgan bo‘lib, festival davomida milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar, folklor qo‘shiqlar ijrosi, milliy o‘ziga xos raqslar namoyish etilishi mo‘ljallangan. Bu kabi festivallar jahon turizmi sahnida juda ommalashgan bo‘lib, ulardan birgina Braziliyada o‘tkaziladigan festival minglab sayyohlani o‘ziga jalb etadi.

Turizmning ijobiy ta’siri birinchi navbatda mintaqadagi milliy qadryatlar va urf-odatlarni mustahkamlash va yanada rivojlantirishga olib keladi. Ya’ni bunda biror davlatning mahalliy aholisi o‘z qadryatlarini dunyoga namoyish etgan holda

turistlarni o‘ziga jalb etadi, bu esa o‘z navbatida unutilib ketayotgan urf-odatlarni qayta tiklashga sharoit yaratadi. Xorijiy sayyohlarning eng qiziqqan yo‘nalishlaridan biri etnoturizm bo‘lib, bunda yuqorida ta’kidlanganidek, biror xalqning o‘zigagina xos qadimiy marosimlar va odatlarni tomosha qilish ba’zan esa o‘zlari ham bevosita ishtirok etishlari ham mumkin. Etnikturizm ayni jihatlari bilan sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda. O‘z kundalik turmushidan boshqa hayotni ko‘rish, tarixning bir bo‘lagini his etib uni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishga bo‘lgan ehtiyoj ayniqsa shiddat bilan o‘sib borayotgan urbanizatsiyalashgan davlatlarda o‘sib bormoqda. Shunday ekan biz unutilib borayotgan qadryatlarimizni qayta tiklash, ularni asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazish bilan birga turizm yo‘nalishida ham samarali foydalanishimiz mumkin ekan.

Zamonaviy iqtisodiyotda tobora mustahkam o‘rin egallayotgan turizm har bir davlat e’tibor qaratayotgan sohaga aylanmoqda. Barcha davlatlar sayyohlarni jalb etish maqsadida turizmning biror bir yo‘nalishiga alohida urg‘u berayotganligi ham ma’lum. Bunda mamlakatning ko‘proq qaysi sohaga ixtisoslashganligi, madaniy, ekologik, etnik tomondan boyligi inobatga olinadi. Yurtimizda ham ko‘plab turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yetarli ekanligni hisobga olsak, bu borada katta imkoniyatlar bizni kutib turganligini ko‘ramiz. Shunday ekan, turizmning har bir jabhasida imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalangan holda diyorimiz rivojiga hissa qo‘shishimiz mumkinligini yaxshi anglamog‘imiz zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.Tuxliyev. G‘. Qudratov. M. Pardayev. Turizmni rejalashtirish. Toshkent. Iqtisod-Moliya-2010. 15-bet.
2. I. Tuxliyev. G‘. Qudratov. M. Pardayev. Turizmni rejalashtirish. Toshkent. Iqtisod-Moliya-2010. 22-bet.
3. E.G‘ulomxasanov. N. Suyunova. S. Akramov. S. Asadova. Turizmning noodatiy turlari. Scientific progress 2022.
4. https://cyberleninka.ru/article/n/turizmning-noodatiy-turlar
https://oz.sputniknews.uz/amp/20230330/termiz-tumanida-ilk-bor-etnik-shaharcha-quriladi-33370848.html

Илмуродова Феруза Шакировна
Чирчиқ давлат педагогика университети

ТУРИЗМ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ

Аннотация: ушбу мақолада юртимизда туризм фаолиятини ривожлантиришнинг аспектлари, мамлакатдаги сайёҳлик халкаро секторларига нисбатан рақобатбардош эмаслиги, туризм соҳасидаги хизматлар ва сервис масалаларининг назарий ва амалий жиҳатлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: туризм, салоҳият, хизмат, иқтисод, соҳа, сифат, даромат, рақобат, ривож, миллий, даромад.

Марказий Осиё мамлакатларида, шу жумладан Ўзбекистонда туризм сифатини ошириш масалалари хорижий адабиётларда деярли кўриб чиқилмаган. Бу эса ўз навбатида Ўзбекистонда туризм соҳасини такомиллаштириш аспектларини ўрганиш долзарблигини билдиради. Мамлакатимизда туризм масалалари билан шуғулланадиган Ўзбекистан Республикаси туризмни ривожлантириш Давлат қўмитаси нисбатдан янги ташкилот эканлиги, мамлакатдаги инфратузилма бошқа сайёҳлик халкаро секторларига нисбатан рақобатбардош эмаслиги; қонунчилик базасида кўплаб баъзи бир бўшлиқлар мавжудлиги; малакали кадрларнинг кескин етишмаслиги ва бошқалар мавжуд. Шунингдек, Ўзбекистоннинг сайёҳлик соҳасини ривожлантиришга тусқинлик қилаётган кўплаб муаммолар соғлиқни сақлаш, жамоат хавфсизлиги, транспорт, молия тизими ва бошкалар билан боғлиқ. Замонавий иқтисодиётда туризмнинг ўрни, туризм саноати ривожланишининг тез суръатлари XX1 асрнинг энг мухим ходисасига айланди, кўпгина мамлакатларнинг иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий компонентларига таъсир кўрсатди. Туризм сохадаги хизматлар ва сервис масалаларининг назарий ва амалий жиҳатлари Ўзбекистонлик

иқтисодчи олимлардан М.Д.Пардаев, Г.Х.Кудратов, И.С.Тухлиев, М.Хошимов, Б.Абдукаримов, А.М. Абдувохидов, Р.Амридиноваларнинг илмий изланишларида тадқиқ қилинган. Агар туризмни ривожлантиришнинг иқтисодий фойдалари осонгина аниқланса (масалан, иш билан бандликнинг ўсиши), унда бир қатор салбий оқибатлар аниқ эмас (масалан, экологик оқибатлар). Бу эса, туризм фаолиятини давлат томонидан тартибга солиш зарурлигини англатади, аммо бундай тартибга солиш соф ижтимоий ва иктисодий фойдаларни вақтида максимал даражада ошириш нуқтаи назаридан мувозанат сақланишини талаб этади. Яқин ўн йил ичида Транспорт ва телекоммуникация соҳаларидаги ўзгаришлар темир йул ихтироси, почта алоқаси сифатини яхшилаш, йўлларнинг кенгайиши туризмни ривожланиш тарихида муҳим роль уйнади. Сайёҳлар сонининг кўпайиши уларга хизмат кўрсатиш ва жойлаштириш учун зарур воситалар яратишга таъсир курсатди, биринчи ўринда мехмонхоналар, шунингдек, Европада сайёҳлик фирмаларининг фаол ўсиши натижасида махсус саёҳат агентликлари пайдо бўлди. Халқаро савдода бугунги кунда энг жадал ривожланаётган шакл бу туризмдир. Жаҳон сайёхлик ташкилоти статистика маълумотларига кура, 2018 йилда сайёхлар келиши сони 1,3 миллиард кишига тенг бўлган[1]. Бугунги кунда жаҳон ялпи ички маҳсулотининг 5% ва жаҳон хизматлари экспортининг 30% (АҚШ йилига 1 триллион доллар) туризм индустрияси хиссасига тўғри келади. Диагностик маълумотларга кўра 2020 йилда халқаро сайёҳлар сони 1561 миллионгача ошади ва йиллик ўсиш барқарор бўлади ва тахминан 4% га тенг бўлиши прогнозлаштирилган эди. (коронавирус эпидемияси инобатга олинмаганда). Минтақалар ривожланишининг турли ижтимоий-иқтисодий даражаси дунёда халқаро туризмни ривожланишига ўз таъсирини кўрсатади. Сайёҳлик оқимининг энг катта улуши Европага тўғри келади ва бу кўрсаткич сайёҳлик бозорининг 70% дан кўпроғи ва валюта тушумларининг тахминан 60%ни ташкил этади. Туризм секторининг ривожланиши илмий моҳияти иктисодий фаолият соҳаси сифатида бир қатор узига хос хусусиятларга эга. Туризм фаолиятини

ривожлантиришнинг миллий иқтисодиётдаги ўрни ва аҳамиятини буйича асосий натижалар шуни кўрсатадики, кўпгина олим-таҳлилчиларнинг фикрига кўра, халкаро туризмни ривожлантириш учун қуйидаги омиллар мавжуд:

1. Иқтисодий ўсиш ва ижтимоий тараққиёт нафакат бизнес сафарлари, балки билим мақсадлари билан саёҳат килиш хажмини кенгайтиришга олиб келди.

2. Транспортнинг барча турларини такомиллаштириш саёҳатни арзонлаштирди, ушбу хол аҳолининг кўплаб қатламлари учун имкон яратди..

3. Иқтисодий ривожланган мамлакатларда ёлланган ишчилар ва ходимлар сонининг кўпайиши, уларнинг моддий ва маданий даражасининг ортиши уларнинг маънавий ва маърифий кадриятларга бўлган интилишларини кучайтирди.

4. Меҳнатни фаолиятининг унумдорлигини ошириш кучайтириш ва ишчилар узоқ, муддатли таътиллар олишлари янада мазмунли дам олишни талаб қилади.

Республикамиз халкаро туризм сохасидаги имкониятларининг катталиги билан қўшни мамлакатлардан тубдан фарқ қилади. Ўзбекистоннинг географик урни ниҳоятда қулай, ажойиб табиий иқлим шароитига эгалиги, у инсоният маданий тараққиётида ҳам катта ўрин тутади. Ўзбекистон нодир тарихий архитектура ёдгорликларига, ширин-шакар мевалар, хилма-хил таомлар, ажойиб миллий анъана, урф-одатга эга бўлган мехмондўст халққа эга. Мамлакатимизда туризм иқтисодиётини ривожлантириш мақсадида бир қатор вазифалар ва устувор йўналишлар белгиланди:

-туризм хизматларини ташкил этишда туристлар ва экскурсантларнинг ҳаёти ва соғлиғи хавфсизлигини таъминлаш бўйича комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш;

-туризмнинг янги салоҳиятли турлари – зиёрат қилиш, экологик, маърифий, этнографик, гастрономик, спорт, даволаш-соғломлаштириш,

қишлоқ, саноат, ишбилармонлик, болалар, ёшлар ва оилавий туризмни жадал ривожлантириш;

-туризм тармоғи учун малакали кадрларни сифатли тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш. Бугунги кунда жаҳон бозори кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат тобора кучайиб бораётгани давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун мутлақо янгича ёндашув ҳамда тамойилларни ишлаб чиқиш ва рўёбга чиқаришни тақозо этмоқда[2]. Ўзбекистон ўзининг бой маданий ва тарихий мероси, меҳмондўст халқи туфайли сайёҳлар орасида тобора оммалашиб бормоқда. Жаҳон иқтисодиётидаги таркибий ўзгаришлар хизматлар соҳасининг жадал ривожланаётганлигини кўрсатмоқда, бунда эса туризмнинг ҳиссаси ортиб бораётганлиги айни ўша мутаносибликни баҳолаш заруратини юзага келтирмоқда. Туризм айни пайтда юқори даромад келтирувчи соҳа ҳисобланиб, сайёҳликнинг янги йўналишлари пайдо бўлмоқда.. Қорақалпоғистон, Андижон ва Қашқадарёда меҳмонхона ўринлари етишмайди. Навоий, Жиззах, Сурхондарё, Қашқадарё ва Тошкент вилоятларида катта имкониятлардан фойдаланилмаяпти. Ёшларга мос туристик хизматлар жуда кам. “Оилавий” ва хизматларни жорий қилиш ишлари суст. Ҳудудлардаги 206 та минерал сувли булоқларнинг 18 тасидан фойдаланилмоқда, холос. Мисол учун, Қамчиқ довонида жойлашган Арашан кўллари сувининг ҳарорати қишин-ёзин 36 градус иссиқликда бўлиб, хорижий курортлардан қолишмайди. Ёки, Чимбой, Қораўзак ва Тахтакўпирда ер остидан 40-70 градус иссиқликда чиқадиган термал булоқлар атрофида санатория-курортлар ташкил қилиш мумкин[3].

Сайёҳларни жалб қилишда юртимиздаги 122 та музей салоҳиятидан ҳам фойдаланилмаяпти. Уларда 2 миллион 500 мингдан ортиқ ашёлар бўлиб, шундан 112 мингтаси жаҳон тарихи ва маданияти учун ҳам ноёб ҳисобланади. Бойсунда дунёдаги энг чуқур ғорлардан бири ҳисобланган Бойбулоқ, неандертал одам қолдиғи топилган Тешиктош ғорлари, қадимий эллин маданияти ёдгорлиги бўлмиш Узундара қалъаси бор. Туманнинг табиати,

иқлими ҳам зўр. У ерда меҳмонхона, кемпинг, “дор йўли”, туристлар уйлари ташкил этиш орқали 500 минг сайёҳни жалб қилса бўлади. Бундай имкониятлар Бўстонликдаги Товоқсой, Оҳангарондаги Овжасой, Ангрендаги Янгиобод, Шаҳрисабздаги Мираки, Янгиқўрғондаги Нанай, Попдаги Чодак қишлоқларида ҳам бор. Шунингдек, Нукусдаги Ашшикўл, Бухородаги Зикрикўл, Жиззахда Айдаркўл ва Тузкон кўлида худди Чорвоқдагидек чўмилиш зоналари ташкил этиш мумкинлиги таъкидланди[4].

“Ўзбекистон туризм магистрали” бўйлаб, 31 та туман ва шаҳар ҳудудидан ўтувчи йўллар бўйида автотураргоҳ, кемпинг, автосервис, овқатланиш, ёқилғи қуйиш каби хизматларни қамраб олган “Карвонсарой”лар барпо этиш лозим.

Юртимизда 186 хил халқаро ва маҳаллий фестиваллар ташкил этилади. Улар орқали қўшимча 1 миллион хорижий ва 5 миллион нафар ички туристларни жалб қилиш имконияти бор. Мутасаддиларга ушбу тадбирларни юқори савияда ва хавфсиз ташкил этиш, бутун дунёга кенг тарғиб қилиш бўйича кўрсатмалар берилди. Юртимиз бўйлаб саёҳат қилаётган фуқароларга авиа, темир йўл ва автобус чипталари нархининг 15 фоизи, меҳмонхона харажатининг 20 фоизи, музей ва бошқа маданият объектларига чипта нархининг 50 фоизини қайтариш тизими жорий этилади. Музейлар фаолиятини самарали ташкил этиш ҳам туризмни ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Шу боис, республика бўйича барча музейлар экспонатларини тўлиқ хатловдан ўтказиб, уларнинг электрон базасини яратиш, музейлар раҳбар ва ходимларининг малакасини ошириш бўйича кўрсатмалар берилди.

Юртимиздаги 4 минг 500 дан ортиқ археология ёдгорлигини очиқ осмон остидаги музейларга айлантириш вазифаси қўйилди. Сайёҳатларни ташкил этишдаги энг муҳим воситалардан бири транспортдир. Ҳозирги кунда транспорт харажатларининг юқорилиги хорижий туристларни жалб қилишда асосий тўсиқлардан бири бўлиб қолмоқда. Халқаро ва маҳаллий йўналишларда “лоукостер”лар кўп эмас. Замонавий “Афросиёб” поездига чипта олиш учун бир неча ҳафта олдин мурожаат қилиш зарур.

Янги “Silk avia” компанияси ташкил этилади. Ҳар йили Ўзбекистонга минглаб хорижликлар ташриф буюришади ва уларнинг сони ҳам худди сармоядорлар ва сайёҳлар орасида мамлакатнинг нуфузи ортиб бораётгани каби ортиб бормоқда. Шунга кўра, олдиндан брон қилиш керак. Онлайн брон қилиш саёҳатингизни соддалаштиради. Ўзбекистондаги меҳмонхоналарнинг кенг ассортиментини, шунингдек, Ўзбекистон бўйлаб Турлар, Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз, Фарғона, Марғилон, Риштон, Қўқон ва Ўзбекистоннинг бошқа кўплаб шаҳарларида таклиф этади. Буларнинг барчаси шуни кўрсатдики, мамлакатимиз иқтисодий ҳаётида туризм саноатининг аҳамияти тобора ортиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида Ўзбекистоннинг халқаро туризм бозорида ўз ўрнини эгаллаётганлигидан далолат беради. Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, ҳар бир мамлакат туризм иқтисодиётини ривожлантириш учун унага маблағ ажратиб туризм хизматлари бозорини кенгайтириш, туристик кластерларини тузиш, ҳамда аҳоли эҳтиёжи учун кўплаб бўш иш ўринларини яратиш лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасини 2030 йилгача интеграциялашган ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш концепцияси лойихаси. ID-8839.
2. Ўзбекистон Республикасининг Солик кодекси, 30.12.2019.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 18 июлдаги УРК-549-сон «Туризм туғрисида» ги қонуни.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги "Узбекистон Респу-бликаси туризм салох,иятини ривожлантириш учун кулай шароитлар яратиш буйича кушимча ташкилий чора-тадбирлар туҒрисида"ги ПФ-5326-сон Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 майдаги "Коронавирус панде-миясининг салбий таъсирини камайтириш учун туризм сохасини куллаб-кувватлашга доир кечиктириб булмайдиган чора-тадбирлар туҒрисида"ги ПФ-6002-сон Фармони.
6. Узбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги "Узбекистон Респу-бликасида туризмни жадал ривожлантиришга оид кушимча чора-тадбирлар туҒрисида"ги ПФ-5611-сон Фармони.
7. Узбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги "Узбекистон Республикасининг туризм сох,асини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари туҒрисида"ги ПФ-4861-сон Фармони.
8.Ильмуродова Ф. The foundation of the era of awakening in Central Asia: alchemy, succession, and historicism //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 213-216.

9. Shokirovna I. F. Trends in the Formation and Development of Professional Competences of a Future History Teacher //World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 27-31.

Кобзева О. П. – д.и.н., проф,
Валижонов С. С. – студент исторического факультета,
Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

РАННЕМУСУЛЬМАНСКИЕ ОБЪЕКТЫ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА, КАК МЕСТА ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

Annotatsiya. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni har tomonlama o‘rganish asosida tuzilgan ushbu maqolada arablarning Movarounnahrga ilk o‘rta asrlarda kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan ikki ziyoratgoh: Qutayba ibn Muslim maqbarasi va Hazrati Xizr masjidi ko‘rib chiqiladi. Bu ziyoratgohlarning musulmonlar uchun ahamiyati haqida xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: ziyoratgohlar, arablar, Movarounnahr, maqbara, Samarqand me'morlari, g'isht, qayrag'och, obodonlashtirish, masjid, sayyohlar.

Во второй половине VII- начале VIII века территория Центральной Азии была завоевана арабами. Включение земель Мавераннахра в состав Арабского халифата привело к формированию в регионе особой культуры и цивилизации, давших такое выдающееся продолжение в IX-XII веках, как Мусульманский Ренессанс. Интеграции земель Центральной Азии в сферу управления и влияния арабов несомненно способствовали военные походы выдающегося арабского полководца Кутейбы ибн Муслима. Именно с его именем связано строительство первой мечети в Самарканде. Его мавзолей также является местом поклонения мусульман, правда не таким известным.

Кутейба ибн Муслим родился в 668 году в Ираке, в семье военного. С юных лет получил военное образование и в дальнейшем представлял интересы Арабского халифата. Он имел опосредованное отношение к исламской науке, учился в школе, где изучал Коран, исламское право и др. науки. С годами он начал склоняться военному делу, усовершенствовал

навыки верховой езды. Молодой Кутейба прославился своей храбростью и умением вести грамотно выстроенные стратегии войны. Эти его качества заметил омейядский полководец Мухалляб ибн Абу Суфра и рекомендовал его правителю Ирака аль-Хадхаджу. У него Кутейба получил опыт управленца, став наместником Рея, а позже всего Хорасана [1]. Отдав 13 лет завоевательным походам, он завоевал в 705 году районы областей Балха и Чаганиана. В 706 году осуществил поход в Мерверуд (Зарафшанская долина), Амуль (Чарджоу), Замма (Керки) до Пайкенда (город, с которого Кутейба получил 775 кг золотых изделий, идолов и других драгоценных вещей). Кутейбе в 707 году удалось завоевать Рамитан и Тумускат. Однако, в 708 году сражение за Бухару не принесло успеха. Понеся большие потери он был вынужден отправиться в Мерв [2].

В 709 году состоялся новый поход на Бухару. По приказу аль-Хадхаджа (правитель Ирака) Кутейба взял Бухару, а варданхудат (правитель Бухары) был казнен.

Осенью 709 года Тохаристан был включен в состав халифата, завоевание Тохаристана связано с именем Абд-аль Рахмана (брат Кутейбы). После этого события цари Шумана и Ахаруна восстали, Кутейба повел свои силы против них, он взял цитадель, правители и их сторонники были казнены. Затем Кутейба направился через «Железные ворота» в Кеш и Несеф и взял их.

В 710 году с Хорезмшахом был подписан договор, согласно которому он должен был платить дань и его войска должны были участвовать в дальнейших походах Кутейбы.

В 712 году Кутейба с Абд-аль Рахманом отправились на завоевание Самарканда. Преимущество арабов было в том, что они выставили 300 стенобитных машин против стен Самарканда и вырыли три траншеи. У правителя Самарканда Гурека не было другого выхода кроме, как подписать договор с Кутейбой. И Гурек выбрал этот путь. Согласно договору, Гурек

обязался выплачивать ежегодно 2200000 драхмов, отправлять 300000 воинов и половину домов местного населения отдать арабам.

Ат-Табари сообщает, что в 713 году Кутейба дошел до Кашгара, но современные ученые отвергают это мнение. В 714 году Кутейбе удалось завоевать Чач и Исфиджаб (современный Сайрам) [3].

В 715 году на трон халифата взошел Сулейман аль-Малик. Сулейман был врагом Кутейбы. Высокий авторитет в обществе Кутейбы привел к зависти со стороны нового халифа и поэтому был организован заговор против него. В результате, Кутейба был убит в августе 715 года в Ферганской долине.

Начиная с первых веков исламизации в Мавераннахре появляются и получают развитие новые, присущие Исламу типы культовых сооружений: мечети трех видов (джума или джами, квартальные или гузарные, и намазгох), первые медресе, мавзолеи, ханака и хазира. Запрещенные исламом изображения живых существ вытеснены растительным, геометрическим и эпиграфическим орнаментами.

Недалеко от Андижана в районе Джалакудук, в махалле Киличмазор находится захоронение Кутейбы ибн Муслима. На сегодняшний день существует несколько версий о месте захоронения и смерти Кутейбы. До сих пор продолжаются дискуссии, но точности нет. Нужно оговориться, что информация о вышеуказанном мавзолее упоминается в труде Наршахи, написанном в X веке.[4]

История мавзолея очень интересная, но, к сожалению, неизвестно когда был построен первый мавзолей. Согласно преданиям, на месте старого мавзолея в XIV веке по велению Амира Темура самаркандскими зодчими был построен новый мавзолей. Этот мавзолей был огромен и выглядел помпезно. Площадь мавзолея равнялась 5 ГА, а высота достигла 20 метров. Однако, в 1935 году во время антирелигиозной пропаганды, он был разрушен. То здание, которое сегодня существует построено в период независимости. Этот мавзолей, несмотря на маленький размер по сравнению

с прошлыми, отличается тем, что имеет декоративную кирпичную кладку, идущую понизу и поверху главного фасада. В этом месте произрастает древний карагач, к которому якобы прикоснулся Кутейба. По поверью, сок капающий со ствола карагача, дарит здоровье, бодрость и силу. Местные власти в последнее время занялись благоустройством паломнической территории, учитывая популярность мавзолея для мусульман.

В Узбекистане разработан проект «Семь чудес Узбекистана» - это акция, целью которого является поиск и определение семи чудес Узбекистана, а также сбор информации о культурном наследии Узбекистана. Конкурс был организован образовательным порталом ZiyoNET, при поддержке Центра UZINFOCOM, Министерства по развитию информационных технологий и коммуникаций Республики Узбекистан и Министерства по делам культуры и спорта Республики Узбекистан. Выборы «семи чудес страны» проходили на специальном сайте meros.uz, где любой желающий мог проголосовать за объекты.

Акция проводилась с целью расширить кругозор узбекистанцев, познакомив их с культурным наследием страны, а также показать миру богатую историю и культуру Узбекистана. Внесен Мавзолей Кутейбы ибн Муслима в список данного проекта [5].

В Самарканде, в южном конце городища Афросиаб, на самом оживленном месте, у ворот (Аханин) при въезде в город, как будто благословляя каждого входящего, расположена мечеть, носящая имя Хазрат-Хызра - легендарного исламского святого и вечного странника. По поверью мусульман считалось, если кому-либо встретится Хизр, тот человек станет богатым. Если он обратит взор на поля, на сад, на город, то значит обилие всего обеспечено, уверяют поклонники Хазрата. По преданию, в древности от этой мечети начиналось мистическое шествие к мазару Шахи-Зинда, который скрыл от преследователей Хазрати Хизра в глубоком колодце, где тот до сих пор живет в подземных райских кущах. Культ хранителя "живой воды" - Хизра уходит в домусульманские времена и неслучайно мечеть

путешествующих находится в самом оживленном месте Самарканда.По преданиям, арабы, захватив город, решили затопить древнюю крепость - калу, перекрыв плотиной канал Арзис. Но вдруг прилетела белая птица. Воины халифата разбежались в страхе, а птица бросилась на плотину и разрушила ее. После этих событий один из сподвижников Хузаймы - Мухаммад ибн Васм установил у железных ворот, на месте почитаемого согдийцами языческого Канца, первую мусульманскую мечеть Хазрати-Хизр. Культ странника Хизра уходит в домусульманские времена, но ислам включил его в число своих Хазратов (святых), как покровителя вод и лугов. Имеются предания о том, что его настоящее имя было Валка ибн Малкан и его родословная восходила к сыну пророка Нуха Саму. Однако, есть и другие предания, в которых утверждается, что он был пророком Израиля. Аллах наделил Хызра способностью совершать чудеса. Например, где бы он ни садился в пустыне, повсюд вокруг него вырастала зеленая трава. Именно поэтому его называли Хызром. Согласно мнению муфассиров, именно он был тем самым мудрым и набожным человеком, который встретился с пророком Мусой, о чем повествуется в аятах Корана [6]. Однако по поводу того, был ли Хызр пророком или нет, имеются разные мнения. Некоторые считают его просто мудрым праведником. Среди сторонников его пророчества есть и такие, которые отождествляют его с пророком Ильясом (Илией). Имеются споры относительно бессмертия Хызра. В среде некоторых мистиков распространено мнение о его бессмертии в связи с тем, что он нашел источник" живой воды" и выпил эту воду. В связи с этим они считают, что он может являться к людям, усердно занимающимся духовной практикой. Однако данное мнение противоречит аяту Корана: «Никому до тебя Мы не аровали бессмертия»[7].

Неоднократно перестраивавшаяся мечеть Хазрати Хизра стоит на фундаменте самой первой мусульманской мечети, воздвигнутой арабами. По бытующей среди населения легенде, построить на этом месте мечеть Кутайбе ибн Муслиму наказал святой Хизр. По другой легенде, первый кирпич

заложил святой Хизр, а сторону киблы (ориентация на священную Каабу в Мекке) достроили сахобы. Третья легенда гласит, что мехроб (ниша в стене, часто украшенная двумя колоннами и аркой) этой мечети установил Хазрат-Хизр [8]. В.Л.Вяткин в изложении "Самарии" отмечает, что в правление эмира Музаффара (1860-1865 гг.) мечеть была заново отстроена [9]. Судя по фотографии из альбома Панкратьева (1895 г.), у мечети Хазрати-Хизр в это время не было портика со световым фонарем. Начиная с середины XIX века, здание обновлялось и ремонтировалось несколько раз (в 1854, 1884, 1899, 1919 гг.).

Археологические изыскания у мечети Хазрати-Хизр, выполненные в 1961 году археологом Н.Б.Немцовой, вскрыли кирпичи караханидского типа, включенные в кладку мечети и во фрагменты резной неполивной терракоты. Ею же найдена аналогичная резная неполивная терракота при раскопках медресе Томгач Богра хана, расположенного рядом с мавзолеем Кусама ибн Аббаса на территории некрополя Шахи-Зинда. А так как медресе Томгач Богра хана датирована XI веком, то и нынешняя мечеть Хазрати-Хизр стоит на фундаменте мечети XI века, которая была украшена резной неполивной терракотой [10].

Был ли подземный ход, упомянутый в легенде о "Живом царе", между мавзолеем Кусама ибн Аббаса и мечетью Хазрати-Хизр, трудно сказать. Но дорога, связывающая непосредственно мавзолей и мечеть в XI веке, существовала. В XIV веке мечеть Хазрати-Хизр также остается как бы привязанной к мавзолею Кусама ибн Аббаса, но уже другой дорогой через верхнюю группу мавзолеев XIV века, которая развивалась на запад в сторону мечети Хазрати-Хизр. В связи с этим в качестве гипотезы можно предположить, что в XIV веке мечеть была богато декорирована под стать мавзолеям ансамбля Шахи-Зинда. И также блистала великолепными изразцами. Прочная связь культа Хазрати-Хизра с исламом и композиционная взаимосвязанность комплекса Шахи-Зинда с мечетью, находящихся в непосредственной близости и задействованных в одних

ритуалах-шествиях, прослеживается и в XIX веке. Здесь проводились ритуальные обряды, связанные с умилостивлением Аллаха во время продолжительных засух. В мечетях Хазрати-Хизр и Шахи-Зинда устраивались моления.

Существует документ - грамота, в которой сказано о принадлежности одному вакфу мазара Кусама и мечети Хазрати-Хизр, а на печати стоит 1239 год хиджры или 1823(4) год. На основании этого документа можно утверждать с полной уверенностью о существовании этого здания до 1823 года. Сопоставляя собранные сведения, можно предположить, что в 1823 г. мечеть состояла из зимней части (хонако) с небольшим северным айваном. В 1854 г. к ней были пристроены худжры и восточный минарет. В 1899 году мечеть опять реконструируется: добавляются служебные помещения с восточной стороны. В 1910 году декорируются стены полихромной резьбой по ганчу, а также расписывается плафон. Первый вариант дарвоза-хоны с айванчиком и входом с восточной стороны был с самого начала задуман как временный. Интересно, что при таком тщательном оформлении айвана остается нерешенной восточная пристроенная часть мечети. Объем с айванчиком и гульдастов не масштабен и композиционно не увязан, что подчеркивает его временность. К 1919 году дарваза перестраивается более капитально и вместе с новым восточным минаретом придает мечети своеобразный не симметричный, но композиционно завершенный вид. Декор в технике мозаичной штукатурки (кырма), примененной в оформлении экстерьера дарвоза-хоны и минарета, гармонично связался с резьбой по ганчу на стенах айвана и с росписью плафона. В интерьере ажурная резьба по ганчу, в технике "часпак", украсила купол и придала ему кружевную легкость [11].

Мастера, участвовавшие в декорировании здания, усто Махмуд-наккош - художник по росписям [12], усто Фатхулла-чубкор - мастер по дереву [13] и мастер Ибн Мурзафил (вероятно штукатурщик)[14] применили все свое мастерство, опыт и знания в воссоздании мечети. Следует отметить

работу народного мастера зодчего XIX в. - усто Баки Самарканди, который принимал участие в реконструкции мечети в 1854, 1884 годах [15]. А в 1899 и 1919 строительство осуществлялось под руководством его сына - известного народного зодчего XIX века Абдулкадыра Бакиева [16].

Можно констатировать, что развитие паломнического, краеведческого, историко-культурного, познавательного молодежного туризма в настоящее время в нашей республике находится в стадии развития. Объекты, связанные с раннемусульманским культом, такие как мечеть Хазрати Хизра и мавзолей Кутейбы ибн Муслима, могут быть включены в специально разработанный тур, который будет интересен, как соотечественникам разных возрастов и интересов (паломники, краеведы, студенты), так и иностранным туристам. В тур можно включить: гробницу Кусама ибн Аббаса в Самарканде, гробницу автора сборников хадисов Мухаммада ибн Исмаила Бухари, который умер в 870 году в селение Хортанг ближе к Самарканду, а также селение Нур (около Бухары), в котором есть соборная мечеть и много рабатов. Селение Нур славилось своими священными могилами, потому что там погребено много «**табиин**» (людей, при жизни видевших «**сахаба**»).

Разработка подобного туристического маршрута несомненно будет способствовать увеличению туристического потока и экономической прибыли в местные бюджеты, а также повышению интереса к изучению истории Узбекистана периода VII-IX вв.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. История ат-Табари. Перевод с арабского Беляева В.И., Большакова О.Г. и Хамидова А.Б. -Ташкент: Фан.1987, -С. 157-158.
2. Сагдуллаев А.А. История Узбекистана. -Ташкент: Издательство «Донишманд зиеси» 2021, - С.317-319.
3. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. - Душанбе. Ирфан .1989.
4. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. -Ташкент: Шарк .1993. -С.33-34, 44-46.
5. https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B5%D0%BC%D1%8C_%D1%87%D1%83%D0%B4%D0%B5%D1%81_%D0%A3%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%B0
6. Коран, Аль-Кахф 18:60-82.

7. Коран, Аль-Анбиё 21:34.
8. https://www.orexca.com/rus/uzbekistan/samarkand/khazret_hizr_mosque.htm
9. Абу Тахир Ходжа. «Самария», описание древностей и мусульманских святынь Самарканда. Перевод В.Л. Вяткина// Справочная книга Самаркандской области. Самарканд,1899.
10. Н.Б. Немцева. Ансамбль ШАХИ-ЗИНДА: история – археология – архитектура XI-XXI вв. – Самарканд. 2019, 312 с.
11. Али-Заде А. Исламский энциклопедический словарь. Ансар, 2007

Mirislomov Mirdavlat Miraziz o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

TOSHKENT VILOYATINING TURIZM SALOHIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Annotatsiya. O‘zbek turizmi haqida gap ketganda Toshkent viloyatiga alohida to‘xtalmaslikning imkoni yo‘q. Chunki hudud bu yo‘nalish taraqqiyotida alohida rol o‘ynaydi. Ayni paytda viloyatda ekoturizm, agroturizm, sport turizmi kabi turizm turlari rivojlanmoqda. Hudud noyob tabiiy resurslarga ega ekani bilan ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkon beradi. Maqolada, aynan, Toshkent viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida to’xtalamiz.

Kalit so’zlar. O‘zbek turizmi, ekoturizm, agroturizm, Toshkent viloyati.

2022-2026-yillarga mo‘jallangan Yangi O‘zbekistonning tarraqiyot strategiyasida mamlakatda yangi ish o‘rinlarini yaratish,axoli daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakunlariga qadar kambag‘allikni kamida 2 barobar qisqartirishni ko‘zda tutadi.Yuqorida ta’kidlaganimizdek ishsizlik muammosining yechimlaridan biri turizm yo‘nalishi hisoblanadi ushbu taraqqiyot strategiyasiga muvofiq “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln nafarga yetkazishni oldiga maqsad qilib qo‘ygan.Yuqorida takidlab o‘tganimizdek Toshkent viloyati o‘zining turistik imkoniyatlari yuqoriligi bilan shuningdek turistik mahsulotlarning xilma-xiligi bilan boshqa iqtisodiy geografik rayonlardan tubdan farq qilib,bugungi kunda asosan ekoturzim va

ziyorat turizm yo‘nalishlari jadal suratlar bilan rivojlanmoqda.Bugungi kungacha hududa amalga oshirilgan ishlar natijasida turizm sohasidan olinayotgan daromad mablag‘lari Toshkent viloyatining YIM hajmida sezilari ro‘l o‘ynamoqda.Mana shu sabablarga ko‘ra ushbu soha ishlarini yanda rivojlantirish chora-tadbirlarini tashkil e’tish maqsadida soha rivojiga oid ko‘plab chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu sohada 200 mingdan ziyod aholini ish bilan ta’minlash mumkin. SHuningdek, turizmga xizmat qiluvchi umumiy ovqatlanish, transport, chakana savdo kabi yo‘ldosh tarmoqlarda yana ko‘plab ish joylari tashkil etiladi. Buning uchun har bir hududda imkoniyat ham, sayohatchilar diqqatiga sazovor joylar ham etarli ekani qayd etildi. Misol uchun, Yangiqo‘rg‘on tumanida 16 ta dam olish maskanini tiklash hisobiga 1 ming 500 nafar aholini, Bo‘stonliqda 10 ming o‘ringa mo‘ljallangan ko‘chma dam olish maskanlari tashkil etish orqali 8 mingga yaqin kishini ish bilan ta’minlash mumkin.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda milliy urf-odat va qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilish, qishloq joylarda tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va asosiysi, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida oilaviy mehmon uylari faoliyatiga keng yo‘l ochildi.Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 avgustdagi «Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda [2;3 b.].Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida ham sayyohlar, ayniqsa, chet ellik mehmonlar e’tiborini ko‘proq tortish, dam olish va turizm uchun sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, turizm xizmatlari ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish hamda aholi bandligi va turmushi farovonligini oshirish, nisbatan kamxarj va boshqa shu kabi qulayliklari bilan ajralib turadigan mehmon uylari faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun taqdim etilayotgan imkoniyat va imtiyozlar turizm infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Jumladan, sohada bir qadar yangi yo‘nalish – oilaviy mehmon uylari tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlashga qaratilayotgan e’tibor tufayli turizmning mazkur yo‘nalishi

viloyatimizda jadal rivojlanmoqda. Joriy yil boshidan buyon 300 ga yaqin oilaviy mehmon uyi faoliyati yo‘lga qo‘yildi [4;2 b.].Bundan tashqari mehmonhonlar tizimida xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida ,davlat xususiy sherikchillik shartlari asosida qator imtiyozlar joriy e’tildi.Unga ko‘ra qurulgan 3 yulduzli mehmonxonalarning har bir xonasi uchun davlat bujedi mablag‘larihisobiga 30 mln,4 yulduzli mehmonhonalar uchun 40 mln so‘m kompensatsiya ajratish belgilandi[4;2 b.].

Bundan tashqari Toshkent viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyohlar asosan mart oyining o‘rtalaridan boshlab avgust oyining oxirgi haftasigacha bo‘lgan muddatlarda tashrif buyurishar edi mana shu muddatni 12 oyga chiqarish maqsadida tashkil e’tilgan Amirsoy tog‘ chang‘i kurorti ishga tushirilgan edi va bu loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilgani uchun uning 2 qism qurulish ishlari boshlab yuborilib bu hududga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimni kelajakda yanada oshishiga olib keladi. Hududda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib yanada rivojlantirish uchun Rossiya,Qozog‘izton,Yaponiya,Xitoy davlatlari investorlarining loyihalari o‘rganilib chiqilmoqda.

O‘zbekistonda qishki va yozgi turizm uchun cheksiz imkoniyatga ega bo‘lgan eng qulay hudud-Toshkent viloyati hisoblandi. Hudud bo‘ylab turizmni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarimni amalga joriy e’tish orqali ushbu soha rivoji yanada barqaror bo‘lishiga olib kelgan bo‘lar edi:

- Toshkent viloyatida turistik sohani moliyaviy iqtisodiy tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy qilish,mablag‘ bilan ta’minlash manbalarini aniqlash,bu tarmoqdagi investitsiya siyosatining eng maqbul modelini yaratish;
- Turizm tarmoqlarini boshqarishning tashkiliy tuzulmalarini takomillashtirish
- Toshkent viloyati hududini ilmiy asoslangan holda qismlarga bo‘lish orqali turizmning tabiiy va tarixiy-madaniy salohiyatidan muqobil darajada foydalanishni ta’minlash;
- Hududlarning muhandisllik-kommikatsiya va ijtimoiy infiratuzulma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va serviz xizmatlarini rivojlantirish;

➢ Toshkent viloyatida joylashgan tuman va shaharlarni transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini joriy etish, turistik imkoniyati yuqori hududlar bo‘ylab kunlik transport qatnovlarini yo‘lga qo‘yish;

➢ Toshkent viloyati turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berish hamda yer oldi-berdi ishlari yengillashtirilib, jahon andozalariga javob beradigan mehmonxonalar sonini ko‘paytirish, shu orqali raqobatni kuchaytirish, mehmonxona narxlarini arzonlashtirish;

➢ Turizm soha mutaxassislari bilan hamjihatlikda Toshkent viloyati to‘g‘risida bitta ixcham «sayyohlar uchun qo‘llanma» tayyorlanib, uni barcha tillarga tarjima qilib, arzon narxda yoki agarda imkoni bo‘lsa, bepul chet sayyohlik firmalariga tarqatish;

➢ Toshkent viloyatidagi tarixiy arxeologik boyliklari haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan fotoalbomni turizm sohasi mutaxassislari bilan hamkorlikda (ularning g‘oyalari bilan) nashrga tayyorlab, turli tillarda yuqori sifatda chop etish. Uning narxi qimmat bo‘lmasligi zarur va O‘zbekistonda barcha kitob do‘konlari hamda sayyohlar tashrif buyuruvchi do‘konlarda sotishni yo‘lga qo‘yish;

➢ Toshkent viloyati bo‘yicha yilning eng go‘zal va tartibli xonadoni, ko‘chasi, mahallasi, qishlog‘i, tumani, shahri ko‘rik tanlovlari e'lon qilinsa va har yili ularni moddiy rag‘batlantirish yo‘lga qo‘yilsa maqsadga muofiq bo‘lar edi;

➢ Maxsus mobil ilova ishlab chiqilib unda Toshkent viloyatida mavjud turistik joylarning 3D va boshqa farmatlardagi virtual olami yaratish shuningdek hududa tashkil e’tilayotgan milliy bayramlarimiz tadbirlarimiz haqida ma’lumotlar joylanib borilsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustdagi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 16- avgustdagi “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroridan (https://lex.uz/docs/4378526..)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 5- yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son farmonining 1-ilovasidan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning PF-5781-sonli “O’zbekiston Respublikasi turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi qarori. 2019 yil 13 avgust.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni.

6. Aliyeva M.T., Salimova B.X.. «Mehmonxona menejmenti» Darslik T: “Moliya” 2005. -275 b.

Mo’ydinov Hamidullo
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti
E-mail: hamidullofalsaf@gmail.com

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASININING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekistonda turizmning rivojlantrish yo’nalishlari va tarixi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: BMT, AQSH, «Turizm, sport va tarixiy meros sohalarida

XXI asrga kelib turizm dunyoning barcha mamnlakatlarida keng taraqqiy etmoqda. Bugungi kunda turizm sanoati dunyoda eng ilg`or va serdaromad sohalaridan biriga aylandi. BMT ma`lumotlariga ko`ra, dunyoda 200 millionga yaqin kishi ushbu sohada mehnat qiladi, jahon iqtisodiyotida xalqaro turizmdan tushayotgan daromad bir trillion AQSh dollaridan ko`proqni tashkil qilmoqsa, dunyo bo`yicha sayyohlar soni yiliga 4-5 foiz ko`payib, har yili boshqa davlatlarga sayohat qiluvchilar soni bir millondan oshmoqda. Yangi O’zbekistonni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlar negizida turizm sohasini yanada rivojlantirish, uni milliy iqtisodiyot taraqqiyotining yuqori darajasiga aylantirish siyosatini olib bormoqda. Sababi, O’zbekistonda ulkan turistik salohiyat mavjud bo’lib, hozirgi kunda undan foydalanish samaradorligi hali juda past. Demak, asrlar davomida avlodajdodlarimizning mashaqqatli mehnati evaziga to’plangan va biz uchun o’tmishdan meros bo’lib qolgan katta boylikdan o’rinli foydalanish, uni mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylantirish asosida mavjud imkoniyatlarni ro’yobga chiqarish muammosi hal qilinadi.

Hukumatimiz mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab turizmni yanada rivojlantirish bo`yicha qator chora-tadbirlarni ishlab chiqdi va amalga oshirishga harakat qildi. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev rahnamoligida O`zbekistonda turizmni yanada rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish borasida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli chora-tadbirlar bugun o`z samarasini bermoqda. Davlatimiz rahbarining 2016 yil 2 dekabridagi "O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini yanada rivojlantirishni ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida"gi farmoni, 2017 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo`yicha birinchi navbatdagi choratadbirlar to`g`risida"gi qarori, 2022-2026 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo`nalishi bo`yicha 2021 yilning aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6199- sonli «Turizm, sport va tarixiy meros sohalarida davlat boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» [2] gi farmonida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi negizida Turizm va sport vazirligi tashkil qilindi, hamda uning zimmasiga eng muhim vazifalar yuklatildi. Ushbu vazirlik turizm, jismoniy tarbiya, sport va madaniy meros sohalarida oid yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi hamda turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu bilan birgalikda ushbu hujjatlarni xalqaro shartnoma bo'yicha huquqiy vorisi sifatida tan olindi, Mamlakatimizning turizm industriyasini jadal rivojlantirish uchun qisqa muddatda Davlat Standarti ishlab childi va huquqiy asoslarini yaratishga harakat boshlandi. Sohada xususiy sektorni rivojlantirish, uning raqobatbardoshligi va ko`rsatayotgan xizmat sifatini yanada oshirish, hududlarning iqtisodiy daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o`rinlarini tashkil qilish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish maqsadida qulay iqtisodiy, huquqiy, ma`muriy hudud hamda muhit yaratildi.

Butun dunyo siyosatida turizm strategiya va taktiga asoslanadi, shu sababli turizm strategiyasi davlatni qayta qurish va rivojlantirish sohasidagi harakatlarni

belgilab beradi. Turizmda rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish uchun vaqt hamda katta moliyaviy mablag'larni talab qiladigan maqsadli dasturlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Turistik taktika – bu mavjud sharoitlarda maqsadga erishishning aniq choralari va usullarini amalga oshirish bilan birga fuqarolarning turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish niyatida yaratiladigan imkoniyatlar hisoblanadi. Shu bilan birga yangi ish o'rinlari sonini ko'paytirish, byudjet tizimiga soliq tushumlari, xorijiy valyutalarning kirib kelishi va saqlanishi uchun zarur zamonaviy imkoniyatlarga ega yuqori samarali va raqobatbardosh turistik kompleksni yaratish, madaniy va tabiiy merosdan oqilona foydalanish kabi strategiyasida belgilangan vazifalar bu borada muhim qadam bo`ldi. Vatanimizda bu sohada islohatlarni amalga oshirishini ta`minlar ekanmiz, avvalo, yo'lovchilarni uzoq masofasini qisqartiruvchi tez va qulay sanalgan havo transporti hisoblananishini angladik.

Hozirgi kunda xorijiy tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, Britaniyaning "Skytrax" xususiy kompaniyasi har yili ular xizmatidan foydalanadigan sayyoh, yo'lovchilar o'rtasida so'rovnoma va tekshirish o'tkazadi. Ushbu so'rovnomada 112 ta mamlakatning 13 mln.dan ortiq yo'lovchisi ishtirok etadi. Ushbu tekshiruv so'rovnomasi 39 ta bo'limdan iborat bo'lib, unda 550 dan ortiq aeroportlarning qulaylik, tezlik, sanitariya va gigiyena talablari, xodimlarning qaysi xorijiy tillarni bilishi hisobga olingan holda o'tkazildi. Unda birinchi – o'rin Singapurning "Changi" xalqaro aeroporti, ikkinchi – o'rinni Janubiy Koreyaning "Inchxon" aeroporti, uchinchi – o'rinni esa "Myunxen" ayeroporti egalladi.

O'zbekistonda 2019-2025 yillarda turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha yuqorida qayd etilgan asosiy yo'nalishlar va ularni hayotga tatbiq etish uchun nazarda tutilgan chora-tadbirlar tarkibini sinchkovlik bilan tahlil qilar ekanmiz, kelajakda mamlakatda turizm istiqbollari ko'p jihatdan tarmoq iqtisodiyotida davlatning faol ishtiroki, turizm sohasidagi tashkilotchilik va rahnamolik faoliyati bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar negizida turizm sohasini yuqori darajada

rivojlantirish, uni milliy iqtisodiyot taraqqiyotining lokomotiviga aylantirish siyosatini olib bormoqda. Sababi, bugunda O'zbekistonda ulkan turistik salohiyat mavjud bo'lib, hozirgi kunda undan foydalanish samaradorligi hali juda past. Demak, asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning mashaqqatli mehnati evaziga to'plangan va biz uchun o'tmishdan meros bo'lib qolgan katta boylikdan o'rinli foydalanish, uni mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylantirish asosida mavjud imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish muammosi hal qilinadi. Har bir davlatning turizm sohasidagi boshqaruvi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, ularning rivojlanish darajasi, turistik salohiyati bir qator muhim omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Ma`lumki, turistik tashkilotlarining rivojlanish darajalari yuqori bo'lgan davlatlar va mintaqalarda o'z - o'zini tashkil etish modelidan foydalanilmoqda. Ushbu modelda bozor mexanizmlarining roli nisbatan yuqoridir, shu sababli turistik iqlim sharoit darajalari yaxshi, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning turizm sohasini boshqarishda qo'l kelmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta`kidlaganlaridek, "Samarqand shahri dunyo taniydigan megapolisga xalqaro turizm va biznes markaziga aylanmoqda. Namangan ham sanoat, tadbirkorlik, ta`lim, madaniyat sohalarida mintaqaviy markaz sifatida o`z o`rnini topmoqda…Bu poytaxtimiz Toshkent bilan bir qatorda "o`ziga tortuvchi markazlar"ni ko`paytirish bo`yicha boshlagan siyosatimizda yangi amaliy qadam bo`ladi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot Harakatlar strategiyasi dasturi. T. 2022 yil, 28 yanvar, PF-60-sonli Farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.T.: "O`zbekiston", 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug`, hayoti yorug` va kelajagi faravon bo`ladi.3-tom, Toshkent. "O`zbekiston".2019.

4. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga Murojatnomasi. 2022 yil, "Xalq so`zi", 22-dekabr.

5. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.T. «Ma'naviyat»,2008., 174-bet 6. Karimov I. A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq". 1998.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'isida»gi 2020 yil 6 iyuldagi PF-6019-sonli Farmoni. https://www.google.com/ur. lex.uz.

7.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 апрелдаги «Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-

тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6199-сонли Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.04.2021й., 07/21 /5054/0266-сон/.
8.2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi / O'zekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019y. PF-5611-son Farmoni.https://lex.uz/docs/ 4143188
9.O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to`plami, 2002 y, № 9, 375-bet. 10.O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi,1999y.,9-son,227- modda; O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to`plami, 2006 y, 14-son, 113- modda.

Одилов Бобир Ахмаджон ўғли
Тошкент давлат шарқшунослик университети
"Марказий Осиё халқлари тарихи ва этнологияси" кафедраси доценти

ЎЗБЕКИСТОНДА ЭТНОТУРИЗМНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ХУСУСИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Аннотация: Ушбу мақолада мамлакатимизнинг Янгиқўрғон туманида жойлашган, ахолисининг кундалик турмуши, моддий ва номоддий ҳаётида анъанавийликни сақлаб қолган қишлоқлар ва уларнинг вужудга келиш тарихи ҳамда ўзига хос хусусиятларини этнотарихий нуқтаи назар билан кўрсатишга харакат қилинган. Қолаверса, тарнсформацияга учраган қадриятларни асилича тиклаган холда сайёҳларга намойиш қилиш орқали мамлакатимизда туризм имкониятини оширишга кўмаклашувчи мулоҳазалар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Этнотуризм, Янгиқўрғон тумани, қишлоқ, Бекобод қишлоғи, Булоқбошисой, Гайистон қишлоғи, Дўлди қишлоғи, Заркент, Исковот қишлоғи, Кўкёр қишлоғи, Ёртепа, Мамай қишлоғи, Мўғол қишлоғи, Нанай қишлоғи.

Сўнги йиллар Ўзбекистонда туризм индустриясини ривожлантириш, шу жумладан, ички ва ташқи сайёҳлар учун қулайлик яратиш, тармоқнинг рақобатбардошлигини мустаҳкамлаш, кўрсатиладиган хизматлар сифатини яхшилаш ва жаҳон бозорига миллий туристик масканларни фаол танитиб бориш бўйича муҳим ишлар амалга оширилмокда. Ушбу ислоҳотларнинг натижаларини юртимизга кириб келаётган сайёҳлар сонининг йилдан йилга

ортиб бораётганлиги, туристик масканлар инфратузилмасининг модернизация қилинаётганлиги, қолаверса, виза режимини эркинлаштириш борасида сезиларли натижаларга эришишга муваффақ бўлинганлигида кузатиш мумкин (Ozodova Z., 2022). Хусусан, Статистика агентлигининг маълумотларига кўра 2023 йилнинг январь-декабрь ойларида 6,6 млн нафар чет эл фуқаролари туристик мақсадларда Ўзбекистонга ташриф буюрган. Бу кўрсаткич 2022 йилга нисбатан 1,4 млнга ёки 26,6 фоизга ошганлигини юқоридаги фикрларга мисол сифатида қайд этиш мумкин. Ташриф буюрган сайёҳларнинг доимий манзили таҳлил қилинганда 2023 йил давомида энг кўп ташриф Тожикистон (2 млн 155,2 минг), Қирғизистон (1 млн 757,1 минг) ва Қозоғистон (1 млн 333,3 минг нафар)дан бўлганлигига гувоҳ бўлиш мумкин. Сайёҳ сифатида Россиядан 714,3 минг киши келган бўлса, Туркиянинг кўрсаткичи 106,5 минг нафарни ташкил этган. Қолаверса, 2024 йилда 10 миллион хорижлик сайёҳ келиши кутилаётганлиги хақидаги прогнозлар мавжуд (https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/21/tourists/). Ундан ташқари Хитой, Ҳиндистон, Эрон ва Араб мамлакатларидан ҳам минтақа табиати ва инсонлар турмуш тарзига қизиқувчилар бисёр.

Туристик инфратузилмани яҳшилаш бўйича ҳам ҳукумат томонидан изчил чора-тадбирлар амалга оширилаётган бўлиб, таҳлилларга кўра, 2023 йилда 810 та янги туроператор ва турфирмалар фаолияти йўлга қўйилган, туризм ва унга ёндош соҳаларда 70 мингта янги иш ўринлари яратилган, 183 та меҳмонхона, 215 та ҳостел, 356 та оилавий меҳмон уйи ишга тушган. Жойлаштириш воситалари 5477 тага, ўринлар сони эса 142 минг 720 тага етказилган (Ozodova Z., 2022).

Ушбу жараёнлар мамлакатимизда туризмни ривожлантириш орқали кўплаб иш ўрни ва юқори миқдордаги иқтисодий имкониятни яратилиши мумкинлиги билан бирга, ташриф буюрувчиларнинг йўналишиларини кенгайтириш, хусусан, йирик шаҳарлардан ташриф буюрувчи сайёҳлар учун этнотурларни ташкил қилиш ва ташкил қилинган тур маршрутлар бўйича самарали реклама тизимини ишлаб чиқиш заруратини белгилайди. Сабаби,

Ўзбекистон узоқ тарихга эга маскан бўлиб, халқнинг азалий тажрибалари аждодлардан авлодларга ўтиб ривожланиб келмоқда. Хусусан, меҳмондўстлиги, меҳр-оқибат каби инсонпарварлик ғоялари туризмнинг мазкур йўналишини ривожлантириш имкониятини оширади.

Этнотуризм бу - туристларни халқларнинг анъанавий ҳаётига қизиқишига асосланган туризм йўналиши хисобланиб, сайёҳларга халқларнинг турмуш-тарзи, урф-одат ва маросимлари, қадриятлари, моддий маданиятини асилича тақдим қилишни таклиф этади. Ўзбекистоннинг кўплаб локал минтақаларида, мазкур йўналишда турларни ташкил қилиш имконияти мавжуд. Ушбу мақолада этнотуризмни ривожлантириш имкониятларини Наманган вилоятининг Янгиқўрғон туманида жойлашган тарихий қишлоқлари мисолида таҳлил қилиш мақсад этилди.

Янгиқўрғон туманида ўндан зиёд қадимий қишлоқлар жойлашган бўлиб, улар тарихий даврларда Фарғона водийсининг энг сўлим гўшаларидан хисобланиб келган. Бу замин ўзининг салқин ва гўзал табиати, серҳосил ерлари, олмазор боғлари, узумзор ишкомлари, буғдойзор, чорвалари, сокин, осуда оромгоҳлари билан машҳур. Айниқса, бу юртнинг муҳим омили меҳнаткаш, мард, танти, пок нийятли, тоза қалбли ва меҳмондўст одамларидир. Уларнинг кундалик турмуш тарзи содда, анъанавийликнинг сақлаб қолганлиги минтақада этнотуризм имкониятларини оширади.

Тарихий қишлоқлардан яна бири Булоқбоши –булоқлар бошида жойлашган қишлоқ маъносини билдиради. Булоқбоши қишлоғи маҳаллий аҳолини туркий қабилалар билан аралашуви жараёнида вужудга келган. Қишлоқ аҳолисининг қадимий ўзагини қипчоқ аҳолиси таъсирида тил хусусиятлари, урф-одатлари бир мунча ўзгарган ва ўтроқлашган чўнгбағишлар ташкил этади. Уларнинг кундалик ҳаётида чорвадорларнинг ўтроқлашуви натижасида шаклланган ўзига хос маданиятни кузатиш мумкин. Қишлоқнинг сўлим гўшалари ҳам мавжуд бўлиб, Булоқбошисой сайёҳларга гўзал табиатни кузатиш имконини беради. У ернинг асосий жиҳати табиий ер ости, булоқ сувлари хисобланади. Маҳаллий ахолининг

ривоятларига кўра Булоқбоши сойи ер остидан қайнаб чиқиб турган 1001 та булоқлар сувининг қўшилишидан хосил бўлган. Булоқ сувининг жаранглаган овози уни “Жингирбулоқ” деб аталишига сабаб бўлган (дала ёзуви, 2023). Шу ўринда Байкал кўли атрофида жойлашган қишлоқларга ташриф буюрувчи сайёҳлар айни кўл хақидаги ҳикояларга кўпроқ қизиқишларини таъкидлаш ўринлидир.

Гайистон қишлоғи ҳам ўз тарихига эга бўлиб, адирликлар ёнбағрида, Намангансойнинг ўнг соҳилига жойлашган. Адир этакларидаги текисликларнинг асосий қисмида сизот сувлари юқорида бўлганлиги учун ерлари шўрхок. Бу жараён аҳолининг чорвачилик, айниқса, зотли отларни етиштириш ва парваришлаш билан машғул бўлишига сабаб бўлган. Қишлоқ ахолисининг кундалик ҳаётида чорвачилик билан боғлиқ қадриятлар ва тажрибалар сайёҳларни ўзига жалб қилади.

Қадимий қишлоқлардан яна бири Заркент бўлиб, қишлоқнинг пайдо бўлиш даври бундан 800-1000 йилдан ортиқроқ вақтга боғланади. Қишлоқ катта савдо карвонларининг йўлида жойлашганлиги учун ҳам у қадимдан жуда обод ва бой қишлоқ бўлган. Қишлоқ марказидаги катта йўлнинг икки томони савдо расталари, дўкон ва заргарлик устахоналаридан иборат бўлиб, уларда асосан заргарлик буюмлари: тилла ва кумушдан ясалган узуклар, балдоқ, исирға, соч ва кўкрак туморлар ясалиб, зарчопонлар тикилган. Зар, дур, тилла ва кумуш билан савдо қилувчи Қўқонлик, Косонлик, Наманганлик, Тошкент, Самарқанд ва Бухоролик савдогарлар бу ерда бир неча кунлаб қолиб кетишган.

Кўкёр қишлоғи ҳам қадриятларни ўзида сақлаган ахоли манзилгоҳи хисобланиб, табиий жойлашуви ва табиати сайёҳларни ўзига жалб этади. Қишлоққа бундан 300-350 йиллар муқаддам асос солинган. Ўша вақтларда Қозоғистонннинг Сайрам қишлоғида яшаган уйғур, қорамурт қабилалари Подшоотасойнинг ҳозирги Кўкёр қишлоғидан оқиб ўтган ўнг соҳилларига келиб жойлашганлар. “....Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғатит турк” асарида таъкидланишича, ”ёр” сўзи жар, ўйилган ер маъносини беради. Бу

сўздан ўзбек тилининг айрим шеваларида ҳозир ҳам шу маънода фойдаланилади. Ёртепа, Ёркўрғон, Ёрилган каби номлар ҳам шу маъноларда ишлатилган...” (Қирғизов Ю., 1996).

Мамай қишлоғи худудига бундан 800-850 йил муқаддам ҳозирги Тошкент вилоятининг Чотқол тоғи этакларида яшаган чорвадор қирғиз, қипчоқ уруғларининг оилалари кўчиб келиб жойлашганлар. Ўша вақтда қишлоқ ўрни тўқайзор, тоғ олди яйловларидан иборат бўлган. Даставвал овчилик чорвачилик билан машғул бўлган аҳоли тўқайларни ўзлаштириб, ариқлар чиқаришган, янги ерларни ўзлаштириб деҳқончилик қила бошлаганлар. Дарахт экиб, боғлар барпо этганлар. Маҳсулотларини атроф қишлоқлардаги бозорларга олиб борганлар. Қишлоқ кенгайиб, уни бошқариш учун қирғиз уруғи бошлиғи Мамайни қишлоқ бийи этиб сайлаганлар. Қишлоқ ҳам қирғиз бийи номи билан Мамай қишлоғи деб номланган.

Мўғол қишлоғининг тарихи атроф қишлоқларга нисбатан қадимийроқ бўлиб, мўғуллар истилоси даври билан боғлиқ. Қишлоқ ўрни чорва ҳайвонларини боқиш учун қулай тоғ олди яйловларидан иборат бўлганлиги учун бу ҳудудга асосий машғулот тури чорвачилик бўлган мўғол уруғи вакиллари келиб жойлашганлар. Ҳозирда маҳаллий ахоли ҳаётида трансформацион жараёнлар кечган бўлсада, баъзи қадриятлар сақланиб қолмоқда. Ушбу жараён сайёҳларни қизиқтириши табиий албатта.

Нанай қишлоғи ҳам тарихий масканлардан хисобланиб, ушбу қишлоқнинг номланиши билан боғлиқ маҳаллий ахолининг турли ривоятлари мавжуд. Қадимги Месопотамияликлар ва мамлакатимиз худудларида яшаган Зардуштийлар унумдорлик илоҳини Нанай деб аташган. Айни пайтда қадимги Сўғдликлар ҳам етиштирилган мўл ҳосилни Нанидат яъни Нанай эҳсони сифатида қабул қилганлар. “… 1365 йилдаги Чиноз яқинидаги “Жанги лой”дан сўнг аҳолининг бир қисми Чотқол этаклари, Қурама тоғлари оша ҳозирги Нанай қишлоғига келиб ўрнашганлар. Наманган уезд бошлиғи, бир неча йил Нанай қишлоғида яшаган Наливкин ҳам: чорва молларини боқиш учун Бўстонликнинг Нанай қишлоғидан 10 уйлик оила ҳам

кўчиб келганлигини ҳамда бу жойни ҳам Нанай деб аталганини таъкидлаган…” (Қирғизов Ю., 1996) Демак, юқоридагилардан кўриниб турибдики, ҳозирги Тошкент вилоятининг Нанай, Заркент қишлоқлари аҳолиси билан бугунги Наманган вилоятининг Нанай, Заркент қишлоқлари аҳолиси яқин қон-қариндошлик муносабатларида бўлганлар. Шунингдек ҳар икки вилоят қишлоқлари Чотқол, Қурама тоғ тизмалари орасидан ўтган тоғ сўқмоқ йўллари орқали савдо сотиқ қилиш, мол айрибошлаш имконига эга бўлганлар.

Қораёнтоқ қишлоғи ҳам тумандаги энг кўҳна ва қадимий аҳоли яшаш манзилгоҳларидан бири ҳисобланади. Табиий географик жиҳатдан ҳозирги Қораёнтоқ қишлоғида ўтроқ деҳқончиликниниг пайдо бўлиши ва ривожланиши учун етарли шароит ва имконият бўлган. Худудда сой ва булоқларнинг айниқса, унумдор ерларнинг кўплиги, бу ерларда яшаган дастлабки одамларга овчилик, чорвачиликдан ташқари зироатчилик билан ҳам шуғулланиш имконини берган. Овчилик ва чорвачилик билан шуғулланиб, тоғ ва чўл ҳудудларида яшаган кўчманчи қипчоқ қабилалари сой ва булоқлар атрофига келиб ўтроқлашадилар. 12-13 асрларга келиб қишлоқ иқтисодий жиҳатдан анча тараққий этган. Вақтлар ўтиши билан Қоражонтахт атамаси Қоражонтоққа сўнгра Қораёнтоққа айланади.

Юқорида қайд этилган маълумотлардан англаш мумкунки, Янгиқўрғон туманида қадимий, анъаналарга бой қишлоқлар кўпчиликни ташкил этиб, улардан этнотуризм имкониятларини кенгайтиришда фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга хисобланади.

Мазкур туманда, сайёҳларни қизиқтирувчи яна бир қатор муҳим жойлар мавжудки, ушбу масканларни маҳаллий ахоли томонидан эъзозланишини қайд этиш ўринлидир. Хусусан, Навкент қишлоғининг ҳудудида жойлашган Тўрақул Ҳожи масжиди биноси 1774 йилда шу қишлоқлик катта ер эгаси, тадбиркор савдогар Тўрақул ҳожи бой томонидан маҳаллий меъморларга қурдирилган.

Тарихий обидалардан ташқари маълум бир функцияларни бажарган манзилгоҳлар ҳам мавжуд бўлиб, уларга ҳам ахоли томонидан алоҳида эътибор қаратилади. Хусусан, Нанай қишлоқ фуқаролар йиғинининг Мамай қишлоғида жойлашган Тўхтаматтепа тепалиги. Тепаликнинг табиий ёки сунъий тарзда барпо этилганлиги хусусида илмий тадқиқот, кузатув ишлари ўтказилмаган, унинг тузилиши аниқланмаган. Тўхтаматтепа баланд тепалик бўлиб, майдони 0,75 гектардан иборат. Тепалик таркиби тош ва тупроқ аралашмасидан иборат. Тепалик хақидаги маҳаллий ахолининг ўзига хос қарашлари мавжуд.

Шарқ Юлдузи қишлоғининг Гайистон тепалиги худудида жойлашган «Абдуллоҳ бир уруғ» зиёратгоҳи ҳам маҳаллий ахолининг доимий ташриф манзилларидан бири. Зиёратгоҳнинг пайдо бўлиши эрамиздан аввалги 14-15 асрларга тўғри келади. Араб саҳобаларидан бир уруғининг вакиллари ислом динини даъват қилиш учун бу ерга келганлар. Ривоятларда айтилишича кофирлар билан бўлган жангда Абдуллоҳ бир уруғининг жангчилари чекина бориб шу ердаги адирлик устига чиқиб**,** “ёрил ғор” -деб хитоб қилганлар. Шунда улар турган адирлик пойида ер ёрилиб, ғор пайдо бўлади. Абдуллоҳ бир уруғ вакиллари шу ғорга кириб ғойиб бўладилар. Ҳозирда бу худуддаги адирлик остидан чиқаётган булоқ атрофида зиёратгоҳ мажуд бўлиб, вилоятимизнинг қўшни туманларидан ва вилоятларидан кўплаб сайёҳлар зиёратга келиб туришади.

Ақтам ота ёдгорлик мажмуаси (*Оқтом)***.** Оқтом қишлоғининг тарихи бундан 1300 йил аввалги тарихий воқеалар билан боғлиқ. Айни вақтда қишлоқ тарихи билан боғлиқ қатор афсона ва ривоятлар ҳозирга қадар халқ орасида айтиб келинади[22]**.**

Хулоса ўрнида айтиш лозимки, маҳаллий ахоли ва тарихчилар билан суҳбат ўтказиш давомида қўлга киритилган мазкур маълумотлар тарихий жиҳатдан таҳлил этилиши, қолаверса, мазкур тарихий масканларни зарурий қисмларини аслича қайта тикланиши маҳаллий ва ҳорижий сайёхларни жалб

[22] (Ю.Қирғизов, Т.Акрамов. “Бир ўлкаки”. 1996 йил.“Наманган” нашриёти

этишга хизмат қилади. Қолаверса, мамлакатимизда этнотуризм йўналишини янада ривожлантиришга асос яратилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ozodova Z. Turizmning iqtisodiyot rivojiga ta'sirini oshirish va investitsiya muhitidan unumli foydalanish. Scientific Impulse, 1(2), 215-217.
2. Қирғизов Ю., Акрамов Т. “Бир ўлкаки”. 1996 йил.“Наманган” нашриёти.
3. Дала ёзуви. Наманган, Янгиқўрғон, жингирбулоқ маҳалласи. Абдурауф ота, боғбон. 2023 йил, 17-май.
4. https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/21/tourists/

Ozodova O‘g‘iloy Davron qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universtiteti 2-bosqich talabasi
E-mail: ogiloyozodova41@gmail.com

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI – TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMANI MISOLIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent viloyati Parkent tumanida turistik salohiyatga ega bo‘lgan qishloqlar, ularning rivojlantirish bo‘yicha fikr va mulohazalar, shuningdek, “Oltin halqa” konsepsiyasi doirasida bajarilayotgan ishlar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: turizm, “Oltin halqa”, Kumushkon, Xisorak, Zarkent, So‘qoq, gastronomik turizm, ziyoratgoh

Bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillari qatorida turizm sohasi ham yetakchi o‘rinlarni egallayotgani hech birimizga sir emas. Turizmning, ayniqsa, ichki turizmning rivojlanishi davlat iqtisodiyotiga bir qancha afzalliklarni olib keladi. Xususan, madaniy xordiq tufayli ishning samaradorligi oshadi, ikkinchidan, agar mamlakatda aholini qoniqtiradigan turistik markazlar bo‘lmasa, bu aholining moddiy tomondan mustahkam qatlami dam olish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qiladi. Agarda o‘zimizning turizm salohiyatimizni oshirsak, mablag‘ bir yurtdoshimizdan ikkinchisiga o‘tadi va daromad solig‘i shaklida davlat byudjetiga tushadi. Shuning uchun ham yurtimizda turizm sohasiga yuksak e’tibor qaratiladi.

Respublikada.“O‘zbekturizm” kompaniyasi tashkil etildi (1995-yil).15-apreldagi “2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish

Davlat dasturi to‘g‘risida” va 1999-yil 30-iyundagi “O‘zbekistonda turizm uchun malakali kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risidagi” 1999-yil 2-iyuldagi 324 sonli Qarori va boshqalarda ko‘rish mumkin. 1999-yil 2-iyuldagi qaror asosan mamlakatda turizm bo‘yicha zamon talablari darajasida mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan maxsus ta’lim muassasalarini yaratish hamda shu asosda turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsad qilib qo‘yilgan[1]

Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida turli chora tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq boshlandi va bugungi kungacha dolzarb hisoblanib kelinmoqda va amaliy choralar ko‘rilmoqda. Xususan Toshkent viloyatida ichki turizmni rivojlantirish maqsadida “Oltin halqa” turizm konsepsiyasi dasturi qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2019-2021 yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Bu haqda Adliya vazirligi Matbuot xizmati xabar berdi. Qarorga muvofiq, Toshkent viloyatining Bo‘stonliq, Ohangaron, Parkent, Bo‘ka, Chinoz, Zangiota tumanlari va Angren shahri “Oltin halqa” turizm konsepsiyasi asosida rivojlantiriladi. Shuningdek, Parkent tumanining “Kumushkon” MFY hududida “Kumushkon” turizm qishlog‘i tashkil etiladi.[2]

Parkent tumani azaldan ichki turizmda o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zining so‘lim tabiati, xilma-xil taomlari, o‘ziga xos ziyoratgohlari bilan sayyohlarning e’tiborini jalb etib kelgan. Albatta, bu go‘zalliklarni zamonaviy qurilish dizayniga ega bo‘lgan turistik markazlar bilan uyg‘unlashtirish turizm samaradorligini ikki barobar oshirishi shubhasiz. Bu maqsad “Oltin halqa” konsepsiyasi asosida tizimli yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan.

Avvalo, Parkent tumanining turizm uchun mos bo‘lgan hududlari haqida ma’lumot bersak. Ta’kidlash joizki tumanda turizmning turli yo’nalishlariga mos keluvchi hududlar mavjud. Gastronomik turizm, ziyorat yoki sayohat turizmi

uchun mos va ayni paytda har uchalasi uyg‘unlashgan maskanlar ham mavjud. Ulardan biri Kumushkon qishlog‘idir. Qishloqda dam olish uchun so‘lim maskanlar, shuningdek Hazrati Ali buva ziyoratgohi joylashgan. Bugungi kunda Kumushkon turizm qishlog‘i sifatida rivojlantirilishi, zamon talablariga mos dam olish maskanlari barpo etilmoqda.

Kumushkon qishlog‘ida “Kumushkon sport sog‘lomlashtirish” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan loyiha qiymati 3 milliard so‘mga teng bo‘lgan 50 o‘rinli zamonaviy mehmonxona va alohida binolar rekonstruksiya qilindi. Buning uchun 1 milliard so‘m bank krediti va 2 milliard so‘m korxona mablag‘lari sarflandi. Ayni paytda 10 dan ortiq kishi ish bilan ta’minlangan. Sayyohlar, asosan, sportchilar bo‘lib, maskanda sportning 10 dan ortiq turidan mashg‘ulotlar o‘tkazish imkoni bor. Suzish havzasi, boks uchun ring, kurash gilami joylashtirilgan xonalardagi shart-sharoitlar har qanday sportchini befarq qoldirmaydi. Bundan tashqari, hududda “Kumushkon taraqqiyot invest” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qiymati 19 milliard so‘mlik oilaviy sport sog‘lomlashtirish markazi hamda 80 o‘rinli mehmonxona barpo etilgan. Mazkur ikki maskan ham sayyohlar qabulini allaqachon boshlab yuborgan.[3]

Kumushkon qishlog‘idan g‘arbda Xisorak qishlog‘ida ham turizm istiqbollari paydo bo‘la boshlagan. Bu qishloq o‘zining ajoyib manzarasi va O‘zbekistonda yagona bo‘lgan Quyosh ilmiy stantsiyasi bilan sayyohlar e’tiborini tortadi.

Bir necha yil oldin bu strategik obyekt yopiq hisoblangan. Hozir mazkur hududda ilmiy turizm yo‘nalishi rivojlantirilmoqda. Obyekt hamma uchun ochiq bo‘lib, turistlar, talabalar, ichki sayyohlar bemalol kelib, tomosha qilishi, o‘rganishi mumkin.[4]

Ziyorat turizmida Zarkent qishlog‘ining ham o‘rni bo‘lakcha. Zarkent qishlog‘i Parkent shahridan 12 km janubda joylashgan bo‘lib, tog‘ etagida joylashgan so‘lim qishloqlardan biri. Zarkent so‘zining ma‘nosi ham ayrim tadqiqotchilarning fikricha, “tog‘ qo‘ynidagi qishloq” demakdir. Zarkent

qishlog‘ida shu nomdagi ziyoratgoh ham mavjud bo‘lib, har yili ko‘plab sayyohlarni qabul qiladi.

Zarkent qishlog‘ining yuqorisida – tog‘ yon bag‘rida joylashgan. “Zarkent bobo”, “Qushqo‘nmas avliyo” nomlari bilan mashhur bo‘lgan ziyoratgoh. Hozirda ziyoratgoh hududi alohida ajratilgan. 2002-2003 yillarda qayta ta’mirlangan. Zarkent ota ziyoratgohidagi tabiiy buloq Zarkent qishlog‘ini ichimlik suv bilan ta’minlaydi.[5]

Fikrimcha, Zarkentdagi turizm faqatgina birgina ziyoratgoh bilan bog‘liq bo‘lishi to‘g‘ri emas. Uning so‘lim tabiati, shifobaxsh buloqlari dam olish maskanlarini qurish va rivojlantirish uchun asos bo‘la oladi.

Turizmning shunday turi borki, o‘zgacha uslub va yondashuv asosida rivojlanadi. Uning rivojlanishiga ba’zan inovatsion texnologiyalarni ham keragi yo‘q. O‘ta sodda va oddiy sharoitda ham dovrug‘i tezda tarqalishi mumkin. Bu turizm yo‘nalishi – gastronomik turizmdir. Parkentda bu yo‘nalishdagi turizm keng yoyilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Tumanning So‘qoq qishlog‘i o‘zining kaboblari va bahoriy mador somsalari bilan ma’lum-u mashhurdir. Ayniqsa, mador somsa ko‘pchilik sayyohlarning e’tibor markazida. Mador somsani Parkentdan tashqari qo‘shni hududlarda Parkentlik oshpazlar tayyorlashadi va tadbirkorlik faoliyatini yuritishadi.

Asosiy tarqalish hududlari Parkentga qo‘shni tuman va shaharlar va viloyatni boshqa viloyatlar va qo‘shni respublikalar bilan bog‘lovchi asosi magistral yo‘l boylarida keng tarqalmoqda. Buning yaqqol misolini 2021-yil bahoridan viloyatdan o‘tuvchi Toshkent-Qo‘qon magistral yo‘l yoqalarida “Parkent mador somsasi” nomli bahoriy tamaddixonalar ko‘payganidir. Buning natijasida Toshkent viloyati hududlarida gastranomik yo‘nalish koridorlari ko‘payib borayotganini bildiradi.[6]

Ammo e’tiborli tomoni shundaki, Parkentdan tashqari hududlarda tayyorlanishiga qaramay, ko‘pgina sayyohlar aynan Parkentning o‘zida ushbu taomni tanovul qilishni ma’qul ko‘radi. Nazarimda, gastronomik turizmning o‘zgachaligi ham aynan shunda. Bir hududning mashhur taomi shu nom bilan

boshqa hududlarda qancha tayyorlanmasin, sayyohlar aynan o‘sha hududning o‘zida mashhur taomni tatib ko‘rishni afzal ko‘radi. Parkent tumanida bu borada So‘qoq qishlog‘i yetakchilik qiladi. Ammo ko‘rsatilayotgan maishiy xizmat va ovqatlanish joylarining sharoitlarini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish ham foydadan xoli bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Parkent tumanida turizmning turli sohalarini rivojlantirish uchun asoslar yetarli. Faqatgina uni rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Zamon talablariga mos bo‘lgan mehmonxonalar, sanatoriyalar va o‘zgacha uslubda bo‘lgan zamonaviy dam olish maskanlari qurish va iste’dodli kadrlar yordamida bu maskanlarini rivojlantirish orqali, Parkent tumani turizmini nafaqat ichki turizmda balki, mamlakatlararo turizmda ham rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1]. Xoldarov, X. Tulenova Turizm Sayyohlik.Toshkent «Iqtisod-Moliya» 2016, B.20

[2].https://qalampir.uz/uz/news/toshkent-viloyatida-turizm oltin %D2%B3alk-a-asosida-rivozhlantiriladi-12492

[3]https://uza.uz/oz/posts/kumushkon-gozal-hayot-va-sohir-orzular-maskani_263322

[4].https://daryo.uz/2019/04/18/parkentdagi-yopiq-obyekt-hisoblangan-katta-quyosh-pechidan-bu-tamga-olib-tashlandi-foto

[5]. https://meros.uz/object/zarkent-ota-ziyoratgohi

[6]. Baxtiyor Islomboyevich Alimov Toshkent viloyatida gastroturizmni rivojlantirishda milliy taomlarning o`rni // Academic research in educational sciences. 2021. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/toshkent-viloyatida-gastroturizmni-rivojlantirishda-milliytaomlarning-o-rni (дата обращения: 19.02.2024).

Салимова Сарвиноз Фазлиддин кизи
докторант Бухарского государственного университета

ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА ЗА СЧЕТ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ТУРИСТСКИХ МАРШРУТОВ В РЕГИОНАХ

Аннотация. Сложный характер туризма, его прочные межсекторальные связи и региональный аспект бросают вызов инновациям. Одной из задач устойчевого развития туризма в регионах является диверсификация туризма. В этом документе рассматривается концепция диверсификации туризма. Он обеспечивает теоретическую основу для

изучения продуктовой, рыночной, отраслевой и региональной диверсификации, а также связанного с ней разнообразия в туризме. Предлагаются некоторые политические последствия для реализации диверсификации туризма и, в частности, для потенциальной роли туризма в стратегиях устойчевого развития экономики в регионах.

Ключевые слова: диверсификация, диверсификация экономики, диверсификация туризма, диверсификация туристических маршрутов.

Переход к устойчивому развитию выдвигает на первый план важные вопрос управления переходными процессами таким образом, чтобы социальные, экономические и экологические цели могут быть достигнуты посредством единого согласованного процесса [5]. Увеличение видов туристических услуг, расширение внешнего и внутреннего, в том числе паломнического туризма, в постановлении Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристического потенциала республики и дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов” от 26.04.2023 № PQ-135 “Развитие новых направлений туризма и дальнейшее улучшение имиджа Узбекистана в этом плане” особо подчеркнуто законе.

Сглаживание сезонных колебаний в туризме имеет важнейшее значение для эффективного развития отрасли, поскольку способствует привлечению высококвалифицированных кадров и увеличению занятости в регионе; повышает рентабельность бизнеса, что позволяет снизить цены в «высокий» сезон и вести ценовую конкуренцию с зарубежными направлениями [1].

В целях создания благоприятных экономических и организационно-правовых условий для интенсивного развития туризма как стратегической отрасли экономики страны, наиболее полного и эффективного использования огромного туристского потенциала регионов, кардинального совершенствования управления туристской отраслью, создания и

продвижения на мировые рынки национального туристского продукта, формирования положительного имиджа Узбекистана в сфере туризма необходимо диверсификация туристических маршрутов.

Диверсификация – понятие весьма многогранное, в связи с чем в экономической литературе можно встретить большое количество его интерпретаций, предлагаемых авторами, в различных сферах экономической жизни. Сложность изучения сущности диверсификации заключается в отсутствии единого подхода к определению понятия и зачастую его поверхностным характеристикам, относящимся, как правило, лишь к одной сфере, либо отражающим одну из сторон данного процесса. Слово «диверсификация» восходит к латинскому diversus – разный и facere – делать. В самом общем смысле данное понятие можно охарактеризовать как разнообразие видов деятельности хозяйствующего субъекта [2]. Как самостоятельное понятие оно появилось и оформилось в XX в. Российские ученые В. Н. Махнушина и А. Н. Шинкевич отмечают, что слово «диверсификация» употреблялось в первой половине XX в. в зарубежных исследованиях как существительное со значением «разнообразие, многообразие, расхождение». Однако со временем из-за частого употребления в определенном экономическом контексте для обозначения одного и того же явления оно превратилось в понятие и плавно вошло в оборот экономических понятий.

В экономической литературе диверсификация рассматривается, как правило, в качестве базовой экономической стратегии развития корпоративного капитала или производства. Если на корпоративном уровне феномен диверсификации, ее объективных предпосылок и последствий изучен достаточно детально, то на уровне региональной экономики все еще нет четкого представления о целесообразности, направлениях и последствиях диверсификации. Активизация процессов диверсификации в современной экономической жизни регионов обусловлена законами рыночной экономики, развитием производительных сил и производственных отношений. Процессы

диверсификации региональной экономики, положительно влияя на развитие экономики страны в целом, способствуют развитию межрегиональной и внутрирегиональной конкуренции, позволяют насыщать рынок товарами, услугами, увеличивать спрос на товары и услуги различных социальных групп населения и т.д [3].

Диверсификация экономики узбекских регионов, встроенная в общий контекст структурного реформирования отечественной экономики, призвана преодолеть сложившуюся ориентацию многих их них на сырьевой экспорт, модернизировать технологический базис промышленного производства, сформировать эффективную по своим функциям и структуре модель региональной экономической системы, что обеспечит рост конкурентоспособности регионов и их вклад в формирование стратегической конкурентоспособности национальной экономики в целом.

Большинство регионов Республики Узбекистан среди задач, решаемых стратегией, как наиболее актуальные для себя определяют обеспечение круглогодичного туристического потока и развитие всесезонных направлений. Причины такого желания понятны. Среди них можно назвать:

• Обеспечение окупаемости инвестиций в инфраструктурные проекты и экономической эффективности их эксплуатации;

• Намерение повысить конкурентоспособность регионального туристского продукта за счет стоимости услуг на действующих инфраструктурных объектах в течение короткого сезона;

• Решение проблем занятости и устранение фактора сезонности на рынке труда [4].

Создание разнообразных туристических маршрутов является стратегическим подходом, способствующим диверсификации туристических предложений в пункте назначения. Разрабатывая тематические или специализированные маршруты, дестинации могут привлечь разные типы посетителей, заинтересованных в конкретных впечатлениях, мероприятиях

или достопримечательностях. Вот несколько примеров туристических маршрутов, которые могут способствовать диверсификации туризма:

1. Маршрут культурного наследия. Этот маршрут посвящен историческим местам, музеям, культурным событиям и местным традициям, демонстрируя богатое культурное наследие места назначения.

2. Винно-гастрономический маршрут. Этот маршрут, посвященный виноградникам, винодельням, местным продовольственным рынкам и кулинарным традициям, идеально подходит для любителей еды и вина, желающих исследовать гастрономические изыски региона.

3. Тропа экотуризма. Предлагая возможности для прогулок на природе, наблюдения за дикой природой, практики устойчивого туризма и экологически чистого проживания, этот маршрут привлекает путешественников, заботящихся об окружающей среде.

4. Путешествие в оздоровительные и спа-центры. На этом маршруте представлены оздоровительные курорты, спа-курорты, центры йоги, семинары по медитации и оздоровительные мероприятия для посетителей, ищущих расслабления и омоложения.

5. Путь религиозного паломничества. Этот маршрут, соединяющий важные религиозные объекты, святыни, храмы и церкви, привлекает паломников и духовных искателей в поисках культурного и духовного опыта.

6. Кулинарный тур. Этот маршрут, ориентированный исключительно на местные гастрономические впечатления, кулинарные курсы, продовольственные рынки, туры по уличной еде и гастрономические фестивали, является раем для гурманов, желающих окунуться в местную кулинарию.

Исходя из наличии историко-культурных, религиозных, экологических, гастрономических и архитектурных ресурсов региона, по всем территориям Республики Узбекистан можно развивать любой предлагаемый нами видов туристических маршрутов для устранении сезонных ограничений. Развивая и

продвигая разнообразные туристические маршруты, дестинации могут удовлетворить более широкий круг интересов путешественников, продлить пребывание посетителей, более равномерно распределить туристические потоки по региону, стимулировать местную экономику и минимизировать влияние сезонности. Успешная реализация этих маршрутов требует сотрудничества между заинтересованными сторонами, эффективных маркетинговых стратегий, развития инфраструктуры и сохранения аутентичности и устойчивости туристической деятельности.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Каршибаевич П.М., Абдиманабовна К.М. Маркетинговые концепции диверсификации туризма и возможности их использования. Международный журнал по экономике, финансам и устойчивому развитию, 3 (10), 64-69.
2. Махнушина, В. Н., & Шинкевич, А. Н. (2014). Эволюция понятия «диверсификация» в экономической мысли. Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Экономика и управление, (3), 5-9.
3. Коваленко, М. Г. (2012). Диверсификация экономики региона и ее роль в преодолении внутрирегиональных различий. Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика, (4 (111)), 63-67.
4. Zigern-Korn, N., & Kol, O. (2018, August). Diversification of tourism product as the proper way for regional tourism development strategies. In 5th International Multidisciplinary Scientific Conferences on Social Sciences & Arts-SGEM. Bulgaria (Vol. 18, pp. 19-26).
5. Iftikhar, A. (2023). Sustainable Development through Diversification. https://unctad.org/system/files/non-official-document/ciimem4_2023_c01_Pakistan_en.pdf

Solijonov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li
O‘zMU “Amaliy etnologiya” laboratoriyasi stajyor-tadqiqotchisi

ETNOTURIZM NAZARIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqola etnoturizmning nazariy asoslari, uning asosiy tushunchalari, ta’siri va turizmning barqaror rivojlanishida etnoturizm haqida ma’lumotlar berilgan.

Kirish so‘zlar: madaniy antropologiya, madaniy ekologiya, etnoturistlar, global turizm industriyasi, madaniy suvga cho‘mish istagi.

Turizm sohasi davlatlarning rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ijobiy ta’sir ko‘rsatishdan tashqari madaniyatlar almashinuvi jarayonlarini ham turizm sanoatisiz tasavvur etish qiyin,

Shuning uchun, bugungi kunda respublikamizda barcha sohalar singari mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Turizm - iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur. Buni davrning o‘zi taqozo etmoqda”, – deb aytgan so‘zlari mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish naqadar dolzarb masala bo‘lib qolayotganidan darak berib turibdi [1].

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir nechta zarur qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonunlar yurtimizga keng sayyohlar oqimini jalb qilish, tashrif buyurayotgan sayyohlarning uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, ularning xavfsizligini ta’minlash masalalarini huquqiy jihatdan ta’minlab kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2] gi qabul qilgan Farmoni tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, iqtisodiyotda birinchi marotaba turizm sohasiga strategik sektor maqomi berildi, natijada, O‘zbekistonda turizmning xorijiy hamda ichki turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi turdosh sohalari va tarmoqlarining rivojlanishini ta’minlashda milliy turizm sohasining yangi bosqichi boshlandi.

Turizm sanoatini rivojlantirishda uning tarmoqlariga ham ta’sir etmasdan qolmaydi. Etnoturizm, shuningdek, madaniy turizm yoki etnik turizm sifatida ham tanilgan, so‘nggi o‘n yilliklarda global turizm sanoatining muhim jihati sifatida paydo bo‘ldi. Haqiqiy madaniy tajribaga ega bo‘lish istagidan kelib chiqqan etnoturizm, birinchi navbatda, mahalliy yoki etnik jamoalarning urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi va merosi bilan shug‘ullanish va ular bilan tanishish uchun boshqa hududlarga sayohat qilishni nazarda tutadi.

Etnoturizmning kelib chiqishini madaniy izlanish va almashishning ilk shakllari bilan bog‘lash mumkin. Tarixiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, dastlabki sayohatchilar, tadqiqotchilar, missionerlar va savdogarlar bo‘lib, ular dunyo bo‘ylab turli madaniyatlarni birinchi bo‘lib uchratgan va ularni yozib olishgan.

Ularning mahalliy xalqlarning urf-odatlari, an’analari va turmush tarzi haqidagi hikoyalari etnoturizmning paydo bo‘lishida bosh omillardan biri bo‘lib xizmat qildi. Misol uchun, Marko Polo [3] va Ibn Battuta [4] kabi tadqiqotchilarning sayohatnomalari uzoq mamlakatlar va madaniyatlar haqida tushuncha berib, kelajakdagi madaniyatlararo muloqotlar uchun zamin yaratdi.

Biroq, XX asrning ikkinchi yarmida etnoturizm turizm industriyasining alohida segmenti sifatida paydo bo‘la boshladi, bu sayohatga bo‘lgan imtiyozlarning o‘zgarishi, globallashuv va haqiqiy madaniy hayotga qiziqishning ortishi bilan bog‘liq. etnoturizmning zamonaviy konsepsiyasi mahalliy yoki etnik jamoalarga qaratilgan turizmning tizimli shakli sifatida XX asr oxirida madaniy almashinuv, merosni saqlash va barqaror turizm amaliyotiga qiziqish ortib borayotganiga javob sifatida paydo bo‘ldi. Antropologlar va etnograf olimlar Frans Boas, Margaret Mid va Bronislav Malinovski kabi olimlarning mahalliy xalq madaniyatini o‘rganish va yozib olish uchun chekka hududlarga sayohat qilishgani, ko‘pincha mahalliy jamoalar orasida yashab, ularning kundalik faoliyatida qatnashganliklari etnoturizm rivojida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Etnoturizm uning tabiati va dinamikasi haqidagi tushunchamizni shakllantiradigan bir qancha nazariy asoslarga asoslanadi:

1. Madaniy antropologiya: Etnoturizm asosan inson jamiyatlari va madaniyatlarini o‘rganuvchi madaniy antropologiyadan foydalanadi. Antropologik nazariyalar etnoturizm tajribalari davomida duch keladigan madaniy amaliyotlar, e’tiqod tizimlari va ijtimoiy tuzilmalarning xilma-xilligi haqida tushuncha beradi.

2. Turist motivatsiyasi nazariyasi: Etnoturistlarning motivlarini tushunish ularning sayohat xatti-harakatlarini tushunish uchun zarurdir. Turistik motivatsiya nazariyasi odamlarning etnoturizm bilan shug‘ullanish qarorlariga ta’sir etuvchi psixologik, ijtimoiy, madaniy va shaxsiy omillarni, masalan, madaniy sho‘ng‘ish istagi, real tajriba va madaniyatlararo almashinuvni o‘rganadi.

3. Madaniy ekologiya: Etnoturizm madaniy ekologiya bilan kesishadi, u inson jamiyatlari va ularning muhitlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi. Madaniy ekologiya nazariyalari turistik faoliyatning mahalliy

jamoalarning ijtimoiy-madaniy tizimlari, turmush sharoiti va tabiiy resurslariga ta’sirini baholashga yordam beradi.

4. Barqaror turizmni rivojlantirish: Barqaror turizmni rivojlantirish konsepsiyasi etnoturizm nazariyasida markaziy o‘rinni egallaydi. U turizm amaliyotida iqtisodiy o‘sish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglikni muvozanatlash zarurligiga urg‘u beradi. Etnoturizm tashabbuslari ko‘pincha mahalliy hamjamiyatlarning imkoniyatlarini kengaytirish, madaniy merosni saqlash va atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirish orqali barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishga qaratilgan.

Etnoturizm ishtirokchisi bo‘lgan har bir odam uning quyidagi jihatlariga alohida e’tibor qaratadi:

1. Madaniy suvga cho‘milish: Sayohatchilar an’anaviy marosimlar, qadriyatlar, raqslar, musiqa chiqishlari, pazandachilik tajribalari va qo‘l san’atlari namoyishlari kabi madaniy tadbirlarda qatnashish orqali haqiqiy hayot tajribasini oladi.

2. Mahalliy hamjamiyatlarga hurmat: Etnoturizm mezbon jamoalarning madaniy merosi, an’analari va qadriyatlariga hurmat ko‘rsatishga urg‘u beradi. Sayohatchilar mahalliy hamjamiyatlarga foyda keltiradigan va ularning madaniy muhofazasi va iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga hissa qo‘shadigan mas’uliyatli turizm amaliyotlari bilan shug‘ullanishga da’vat etiladi.

3. Barqaror rivojlanish: Etnoturizm atrof-muhit, madaniyat va ijtimoiy tuzilmalarga salbiy ta’sirlarni minimallashtirish bilan birga, tashrif buyuruvchilar va mahalliy jamoalar o‘rtasidagi ijobiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish orqali barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

4. Ta’lim va xabardorlik: Etnoturizm sayohatchilarga turli madaniyatlar, tarixlar va turmush tarzi haqida tushunchaga ega bo‘lish, madaniyatlararo tushunish, qadrlash va bag‘rikenglikni targ‘ib qilish imkonini beradi.

5. Madaniy merosni saqlash: Etnoturizm tashabbuslari ko‘pincha mahalliy xalqlarning tillari, san’ati, hunarmandchiligi, an’anaviy bilimlari va madaniy amaliyotlarini saqlab qolish va jonlantirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni qo‘llab-

quvvatlaydi, madaniy xilma-xillik va merosni saqlashga yordam beradi. Etnoturizm tajribasiga mahalliy aholi qishloqlariga tashrif buyurish, mahalliy oilalar bilan uyda qolish, madaniy festivallar, meros sayohatlari, arxeologik joylar, muzeylar va madaniyat markazlariga ekskursiyalar kiradi. U madaniy almashinuv, barqaror rivojlanish va mahalliy jamoalarning imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, etnoturizm nazariyasi madaniy turizmning murakkabliklarini va uning barqaror turizmni rivojlantirishga ta’sirini tushunish uchun konseptual asos yaratadi. Madaniy antropologiya, sayyohlik motivatsiyasi, barqaror rivojlanish va madaniy ekologiya tamoyillarini o‘z ichiga olgan etnoturizm nazariyasi mahalliy va etnik jamoalarga sayohat qilish bilan bog‘liq motivatsiyalar, tajribalar, ta‘sirlar va muammolar haqida tushuncha beradi. Global turizm industriyasi rivojlanishda davom etar ekan, etnoturizm dunyoning turli yo‘nalishlarida madaniy almashinuvni rag‘batlantirish, madaniy merosni saqlash va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun ham imkoniyatlar, ham mas’uliyatni taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1]. O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 05.01.2019.

[2]. https://lex.uz/uz/docs/-3077025

[3]. "Marco Polo", The New Encyclopædia Britannica Macropedia, vol. 9 (15 ed.), Encyclopædia Britannica, Inc, 2002, ISBN 978-0-85229-787-2

[4]. Dunn, Ross E. (2005), The Adventures of Ibn Battuta, University of California Press, ISBN 978-0-520-24385-9. First published in 1986, ISBN 0-520-05771-6.

Turdimuratov Y.A.
O‘zDJTSU, Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi
t.f.b. falsafa doktori (PhD), dotsenti

ETNOTURIZM SHAKLLARI, YO‘NALISHLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada etnoturizm tushunchasi, ushbu tushuncha haqidagi mutaxassislarning turlicha qarashlari, etnoturizmning asosiy shakllari va

yo‘nalishlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, etnoturizmni rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm, etnoturizm, etnik turizm, etnografik turizm, etnoqishloq, etnoxiyobon, o‘lkashunoslik muzeyi, antropologik turizm, nastolji turizmi, jaylov turizmi.

Turizm biznesi dunyoning ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Etnoturizm – turizmning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u dunyo xalqlarining madaniyati, turmush tarzi va an’analarini o‘rganishga qaratilgan etnik, til va madaniy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Oddiy qilib aytganda, etnoturizm ma’lum bir millatning o‘ziga xos xususiyatlari, uning turmush tarzi va madaniyati haqida tushunchani kengaytirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bunday turizm doirasida o‘z tarixini yaxshiroq bilib olish va ilgarigi davrlarga qaytish, shuningdek, mutlaqo noma’lum turli etnik guruhlar va ularning turmush tarzi bilan tanishish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, etnoturizmning rivojlanishi hududlar barqaror rivojlanishining muhim omilllaridan biri hisoblanadi.

Turizmni, xususan, etnoturizmni rivojlantirish, ayniqsa, qulay iqlim sharoiti va boy tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lgan ko‘p millatli mintaqalarda katta ahamiyatga ega [7; 16]. Etnoturizm madaniy-ma’rifiy turizm yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, jahon amaliyoti turizmning mazkur turi insonning qator ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi mumkinligini isbotladi.

Etnoturizm so‘nggi paytlarda mahalliy va xorijiy yetakchi olimlarning tadqiqotlari asosida tobora ommalashib bormoqda. Ushbu turizm industriyasini rivojlantirish katta investitsiyalarni (sarmoya) talab qiladi. Uni an’anaviy xo‘jalik iqtisodiyotini saqlash va rivojlantirish mumkin bo‘lgan strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rish mumkin. Etnoturizmni rivojlantirish madaniy merosni saqlashga hissa qo‘shish va hududlar barqaror rivojlanishining muhim omili bo‘lishi kerak. YUNESKO ma’lumotlariga ko'ra, etnoturizm turli mamlakatlar

aholisi o‘rtasida tinchlik va o‘zaro hamjihatlikni yaratishning eng samarali usuli hisoblanadi [14, 133].

Etnik va etnografik turizm o‘rtasidagi munosabatlarga turlicha qarashlar mavjud. Masalan, A.I. Shchukin o‘z tadqiqot ishida ta’kidlaydiki, etnografik sayohatlarning asosiy ishtirokchilari etnografiya bilan professional ravishda shug‘ullanadigan odamlardir. O‘z navbatida, etnik turizm ishtirokchilari ma’naviy ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo’lgan sayyohlarning keng auditoriyasidir [18]. V.N. Presnyakov va M.A. Julina etnik va etnografik turizmni sinonim deb hisoblaydi. Sovet davrida “etnografik” turizm tushunchasi (“etnografiya” fani bilan bog‘liq) keng tarqalgan bo‘lib, “etnik” turizm atamasi ishlatilmadi [9]. Chet el adabiyotida V.Smit etnik turizmni madaniy va tarixiy turizmdan ajratadi [13]. So‘nggi paytlarda etnik-madaniy, jaylov va antropologik (aborigen) turizm tushunchalari paydo bo‘ldi. Rus va xorijiy ilmiy adabiyotlarda etnoturizmga yaqin tushuncha sifatida “madaniy turizm” (“cultural heritage tourism”, “heritage tourism” yoki “diaspora tourism”) atamasi qo‘llanilmoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Milliy tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish jamg‘armasi madaniy turizmni “tarixiy joylarga tashrif buyurish va insoniyat tarixini aks ettiruvchi joylar bilan tanishish” deb ta’riflaydi [11]. Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni asrash bo‘yicha xalqaro kengash (ICOMOS) madaniy turizmni ”turizmning maxsus turi” deb ta’riflaydi, uning maqsadi (ko‘plab boshqa maqsadlar qatorida) yodgorliklar va obidalarni kashf etishdir [9]. Etnoturizmga eng yaqin tushunchani, bizningcha, etnomadaniy turizm (ethnocultural tourism) deb hisoblash mumkin. A.G. Butuzov esa bunga etnografik, antropologik, etnik, nostalji turizmni ham kiritgan [3].

Etnoturizm tashqi va ichki bo‘lishi mumkin. Birinchisi, boshqa mamlakatlar xalqlarining urf-odatlari, an’analari, marosimlari, tillari, turmush tarzi va hokazolarni o‘rganish bo‘lsa, ikkinchisi faqat muayyan bir mamlakatga tegishli bo‘ladi [8, 325]. Etnoturizmning asosiy manbasi xalqlarning madaniy-tarixiy merosi hisoblanadi. Uning asosiy shakllari quyidagilardan iborat: ochiq osmon ostidagi etnografik va o‘lkashunoslik muzeylari, etnografik muzey-qo‘riqxonalar,

arxeologik va etnografik majmualar, etnografik qishloqlar, teatrlashtirilgan bayram va marosimlar, tarixiy va xalq yodgorliklari asosidagi etnik sayohatlar. Demak, hududda etnoturizmning rivojlanishiga turtki beruvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: etnoturizmning asosiy manbasi bo‘lgan an’anaviy madaniyatning yuqori darajada saqlanganligi; tarixiy yodgorliklarning mavjudligi; ko‘rgazmalar va ta’lim dasturlari tufayli mahalliy aholi turli shahar va mamlakatlardan mehmonlarni qabul qilish tajribasiga egaligi [8, 327].

Turizm sohasida “etnoqishloq” tushunchasi ko‘pincha qishloq yoki ekologik turizm bilan birgalikda ta’lim turizmini rivojlantirish uchun maxsus jihozlangan majmua sifatida talqin etiladi. Ba’zi mualliflarning fikriga ko‘ra, “etnoqishloq deganda etnik va lokal (mahalliy) identiklikni (o‘ziga xoslikni) aks ettiruvchi barcha tarkibiy qismlari bilan an’anaviy qishloq landshaftining obrazli ko‘rinishi” tushuniladi [5]. Etnoqishloqlarni yaratishdan ko‘zlangan maqsadlar – rekonstruksiya qilingan aholi punktining asosiy iqtisodiy, savdo va maishiy xususiyatlarini namoyish etish, etnik an’analar va asosiy iqtisodiy xususiyatlarni ko‘rsatish, hudud uchun an’anaviy bo‘lgan qimmatbaho, noyob me’moriy inshootlarni asrab-avaylash, mahalliy madaniyat va an’analar bilan tanishish, an’anaviy xalq sayillari va konsertlarini o‘tkazishdan iborat.

Etnoxiyobonlar ochiq osmon ostidagi majmualar bo‘lib, har kimga turli mamlakatlar xalqlarining asl uylari, turmush tarzi, an’analari va madaniyati bilan tanishish imkonini beradi. Etnoxiyobonlar tarixiy, madaniy va tabiiy ob’yektlarni muzey ekspozitsiyasi va madaniy-ma’rifiy turizm ob’yektlariga aylantirish muammolarini hal qilishni rekreatsion maqsadlar bilan birlashtirishga, shuningdek, tashrif buyuruvchilarni xalq madaniyati bilan tanishtirish, xalq sayillari va hunarmanchilik an’analarini tiklashga qaratilgan ommaviy tadbirlar uchun qulay sharoitlar yaratish imkoniyatidan foydalanishga harakat qilmoqda [4].

Etnoturizm xalq turmushi (etnografik) muzeylari bilan tanishishni ham o‘z ichiga oladi. An’anaviy me’morchilik namunalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari va milliy bayramlarga mezbonlik qiluvchi ochiq osmon ostidagi etnografik muzeylar sayyohlarda alohida qiziqish uyg‘otadi. Birinchi bunday ochiq osmon ostidagi

muzey 1891-yilda Shvetsiyada tashkil etilgan. U Skansen nomini olgan [13, 55]. Unda butun Shvetsiyadagi barcha an'anaviy binolar yig'ilgan bo'lib, festivallar o'tkaziladi va milliy raqslar namoyish etiladi.

Etnografik va o'lkashunoslik muzeylari etnomadaniy turizm markazlari va etnoturizmning eng muhim va istiqbolli ob'yektlari hisoblanadi. Etnografik va o'lkashunoslik muzeylari muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradi: xalqlarning madaniy xilma-xilligiga hurmat va turli etnoslar vakillariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini rivojlantirish [12]; an'anaviy hunarmandchilikni qayta tiklash, an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlarini saqlash va ishlab chiqarish; tabiatga ehtiyotkorona munosabat, tarixiy qimmatli madaniy landshaftlarni asrab-avaylash; mahalliy jamoalarni tiklash va etnik aholi punktlarini saqlab qolish [17].

Etnografik turizm ma'rifiy va ko'ngilochar maqsadlarda amalga oshiriladi. Ma'lum bir xalqning madaniyati va turmushi, kiyim-kechaklari, tili, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlari, an'analari bilan tanishtiradi va sayyohlarning keng doirasi uchun mo'ljallangan. Turizmning bu turi o'zining rejalashtirish va me'moriy qiyofasini, yerdan foydalanishning an'anaviy turlarini, odamlarning kundalik turmushi va ijodida xalq madaniyati elementlarini saqlab qolgan tarixiy qishloq aholi punktlariga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi [10, 181].

Etnoturizm yo'nalishlaridan biri bo'lgan aborigen turizmi – bu mahalliy aholi vakillari ishtirokidagi etnik turizmdir. Bunday turizm sayyohning mahalliy aholi muhitiga moslashishi, mahalliy milliy madaniyat bilan bevosita tanishishini anglatadi [6].

Antropologik turizm etnografik turizmning yo'nalishlaridan biri sifatida yo'qolib ketgan etnik jamoalar madaniyatini o'rganish, zamonaviy madaniyat bilan tanishish maqsadida ularning ilgari istiqomat qilgan mamlakatiga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi; shuningdek, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan xalqlar va kichik elatlarning ixcham yashash joylariga tashrif buyurishni nazarda tutadi [2].

Nostalji (genealogik) turizmi (nostalgic tourism, genealogy tourism, ancestral tourism) o'z tug'ilgan joylariga yoki ota-bobolari yashagan joylarga

tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi. 1999-yilda Buyuk Britaniya sayyohlik boshqarmasi (VTA) muhojirlar va deportatsiya qilingan mahkumlarning avlodlarini o‘z vatanlariga qaytishga va ularning nasl-nasabini o‘rganishga chaqirgani turizmning ushbu sohasi rivojlanishi uchun turtki bo‘ldi [1]. Hozirgi vaqtda turizmning mazkur yo‘nalishi ayniqsa Ikkinchi jahon urushi odamlarning ommaviy migratsiyasiga olib kelgan Markaziy Yevropa mamlakatlarida mashhurdir.

Jaylov turizmi etnoturizmning eng yosh kichik turlaridan biri sifatida (qirg‘izcha “jaylo” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, alp o‘tlog‘i, tog‘ yaylovi degan ma’noni anglatadi) ko‘chmanchi hayot sharoitida sivilizatsiya afzalliklaridan uzoqda bo‘lgan ta’til hisoblanadi. Jaylov turizmi Qirg‘izistonda 1990-yillarning oxirida, mahalliy turoperator sayyohlarga bir muddat o‘tov uylarda tog‘ cho‘ponining hayotidek yashashni taklif qilgan paytda paydo bo‘lgan. Shveytsariya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Rossiyadan kelgan sayyohlar birinchi bo‘lib jaylov turizmini sinab ko‘rishdi. Hozirgacha Qirg‘iziston jaylov turizmi bo‘yicha yetakchi hisoblanadi [10, 181].

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan nostalji (genealogik), etnografik, antropologik (aborigen) va jaylov turizmi etnoturizm tarkibiga kiradi, lekin uni sanab o‘tilgan turlarga ajratish shartli hisoblanadi. Ba’zan bir xil yo‘nalishni etnoturizmning bir necha turlariga kiritish mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, turizm iqtisodiyotning umume’tirof etilgan daromadli tarmog‘i va mahalliy aholini ish bilan ta’minlash manbai hisoblanadi. Etnoturizm aholiga o‘z madaniyatini ham, boshqa xalqlar madaniyatini ham yaxshiroq tushunish imkonini beradi va bag‘rikenglik munosabatlarini mustahkamlaydi [15, 127].

Turizmning ushbu turini rivojlantirishning ahamiyati shundan iboratki, etnoturizm ma’naviy va kognitiv ehtiyojlarni qondirishga va etnik madaniyatlararo o‘zaro ta’sirga yordam beradi. Etnoturizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun oliy ta’lim muassasalari turizm va servis sohasi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda katta yordam ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, etnoturizm ko‘plab aholi punktlari, an’anaviy xo‘jalik va turmush tarzining tiklanishiga hissa

qo‘shadigan mintaqa iqtisodiyotiga ta’sir qilishning samarali imkoniyati ekanligi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Birtwistle, M. (2013). Genealogy tourism. Niche Tourism, 59.
2. Бутузов, А. Г. Состояние и перспективы развития этнокультурного туризма в Российской Федерации // Сервис в России и за рубежом. – 2009. – №4. – С. 11–15.
3. Бутузов А.Г. Состояние и перспективы развития этнокультурного туризма в Российской Федерации // Сервис в России и за рубежом. – 2013. – № 4.
4. Гармаев В. История казачества Бурятии: факты, документы, биографии, стихи: республиканская энциклопедия. Улан-Удэ: Весть, 2014.
5. История и культура народов Забайкальского края: музейно-выставочный комплекс ЗабГУ / А. Б. Жуков [и др.]. М., 2012.
6. Курина В. Культурно-познавательные возможности этнического туризма. URL: http://tourlib.net/statti_tourism /kurina.htm
7. Любичанковский А.В. Географический и культурологический подходы к дифференциации объектов культурного наследия // Вестник Оренбургского государственного университета. – №6, 2008. – С. 17–24.
8. Нанакина Ю.С., Рамазанова Л.Р. Этнотуризм как новое направление туриндустрии: значение и факторы социально-экономического развития // XIX Царскосельские чтения, 2027. – С. 324-328.
9. Пресняков В.Н., Жулина М.А. Народные промыслы республики Мордовия и этнический туризм // География и туризм: сб. науч. тр. – Пермь, 2012.
10. Святоха Н.Ю., Филимонова И.Ю. Подходы к классификации этнического туризма // ВЕСТНИК ОГУ. №6 (167)/июнь, 2014. – С. 181.
11. Севастьянов Д.В., Щукин А.И. Предпосылки развития экологического и этнического туризма на северо-западе России // Вестн. С.-Петерб. гос. ун-та. Сер. 7. Геология. География. – 2012. – Вып. 3.
12. Strategiia razvitiia turizma v Rossiiskoi Federatsii na period do 2035 goda: Rasporiazhenie Pravitel'stva Rossiiskoi Federatsii ot 20 sentiabria 2019 goda 2129-r. Oftsial'nyi sait. Retrieved from http: // static.government.ru/ media/fles.
13. Сундуев Ч.Б., Хышиктуева Л.В. Этнотуризм как одно из направлений культурно-познавательного туризма // Вестник Бурятского университета. 2009/4. – С. 55.
14. Turdimuratov Y. A. Etnosport–milliy sport turlari va xalq o ‘yinlarini rivojlantirishning muhim omili //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 132-139.
15. Турдимуратов Я. О ‘zbekistonda etnosportni ommalashtirish va rivojlantirishning asosiy yo ‘nalishlari //Актуальные проблемы спортивной науки. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 125-128.
16. Чепасов В.И. Forecast days with zero values of the average daily air temperature in the harmonic model of tidal gravity change / В.И. Чепасов, О.Б. Попова, И.А. Подосенова // Вестник Оренбургского государственного университета. – №9 (145), 2012. – С. 156–167.
17. Чибилева В.П. Рекреационная география [Электронный ресурс]: учебное пособие для студентов, обучающихся по программам высшего профессионального образования по направлению подготовки 05.03.02, 05.04.02 География / В.П. Чибилева, И.Ю. Филимонова. – Оренбург: ОГУ, 2015.
18. Щукин А.И. Предпосылки и факторы развития этнического туризма на северо-западе Российской Федерации: автореф. дис. … канд. геогр. наук. – СПб.: СПбГУ, 2002.

Турсунов Фаррух Ғуломович
Фан ва технологиялар университети Ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича биринчи проректори, ҚарДУ тадқиқотчиси Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

ЎЗБЕКИСТОН ТОЖИКЛАРИГА ХОС КИЙИНИШ ВА ТЎҚУВЧИЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ЭТНОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ

Аннотация: Мақолада Ўзбекистондаги тожикларнинг кийиниш ва тўқувчилик маданияти, Ўрта Осиё халқларига хос кийимларнинг Хитой манбаларида акс этиши, кийиниш ва тўқувчилик билан боғлиқ жой номлари ҳамда жун, ипак ва пахтадан тўқилган мато номлари ёритилган.

Калит сўзлар: кийиниш, адрас ва дуруя, жома, Буйрапўш, қошбандак, пешонабандак, қасаба, холбинни.

Ўрта Осиё халқлари, жумладан тожикларнинг кийимини Хитойда Тан империяси ҳукмронлик қилган вақтда ҳам жуда қадрлашган. Бу ҳақда бир қатор маълумотлар сақланиб қолган.

Тан сулоласининг атоқли шоири Тан Бай Цзюйнинг “*Раққоса хусюань*” деб номланган машҳур шеъри Хитой зодагонларининг Сўғд маданияти учун севимли машғулотларидан қолганлиги характерлидир. Шоир бу шеърида *хусюань* рақсини жуда ажойиб ҳаққоний тасвирлаган. Тан сулоласи даврида Ўрта Осиё халқларининг кийимлари пойтахт ва бошқа шаҳарларда модада бўлган ва улар хитойликларнинг кийимларига катта таъсир кўрсатган. Тан сулоласи аёллари эркаклар кийимларини кийишни яхши кўрардилар. Ўша пайтда Ўрта Осиё эркаклар костюмининг икки тури жуда машҳур эди. Бу кичкина думалоқ ёқали ва тор енгли халат ва эгилган ёқали ва тор енгли халат. Сиандаги археологик қазишмалар пайтида топилган деворий суратларда ва Тан қабрларида бундай либосларда аёллар тасвирланган. Айниқса, бурама ёқали халат кенг тарқалган эди. Уни Тан аёллари ҳам, эркаклар ҳам кийишни яхши кўришарди[7, 109].

Бухорода ипакчиликнинг кенг тарқалиши ҳақида бир ривоят борки, милоддан аввалги 150-йилларда Хитой маликаларидан бири Бухоро

ҳукмдорига унаштирилган бўлиб, Хитойни тарк этиб, ўзи билан яширинча тут уруғини ҳам, ипак қурти уруғини ҳам олиб, Бухорога ипакчиликни ёяди. Ўз навбатида, уни чет элда тарқалишидан ҳимояланган[2, 19]. XIX асрда Туркистондаги халқларнинг турмуш тарзи ва этнографиясига оид маълумотларда ҳам айрим тўқувчилик дастгоҳлари ва кийимлар тожик тилидан олинган. Ипакни йигириш *чарх-бача* машинаси ёрдамида амалга оширилган.

Жойларда қуйидаги ярим ипак матолар тайёрланади:

Адрас ва дуруя ипак бўялган, тўқуви эса маҳаллий ипдан пахта ва қоғоз. Бу иккала материал ҳам худди канаус тўқилгандек, худди шу тарзда тўқилган. *Адрас* бўлакларнинг эни ва узунлиги бўйича *дуруядан* фарқ қилади: биринчи ўраш учун таглик 16 та ўрамдан (3200 та ип) кўп бўлмаган ҳолда, *дуруя* эса кенгроқ бўлиши мумкин, 20 тагача ўрам (4000 ип); лекин адрас бўлаклари дуруя бўлакларидан икки баробар узунроқ тўқилади, яъни: бир парча адрасда 8 аршиндан сал кўп, дуруяда эса 4 та *аршин* бўлади[2, 36].

Махсус тўқув дастгоҳларини ясовчи усталар яшайдиган гузар "*дукчиҳо*" (*дук* ясайдиган усталар), *"чархчиҳо"* (ип йигирувчи асбоб *чархчи усталар*) деб номланган. Қашқадарё тожиклари қўлда ип йигирадиган кичкина чархнинг ип ўраладиган қисмини *дук* деб атайди. Ип йигириш билан шуғулланувчи шахс исмига эса *дукчи* сўзи қўшиб ишлатилган. Маҳаллий тожиклар ҳали ҳам дукда ип йигириб, *гилем* (гилам) тўқишади. Айрим нақшли гиламларни *ироқи, араби* каби номлар билан аташади. Тожикларнинг *ироқи* деб номланувчи каштачилик намуналари ҳам сақланиб қолган. Шунинингдек, Қашқадарё тожиклари қўй терисидан тўшаладиган *пўстак* тайёрлашган. Яқин кунларгача аксарият тожик хонадонларида юмшоқ ипдан ҳажми унча катта бўлмаган *шол* ёки *шолча* тўқилган. Текисликда истиқомат қилувчи тожиклар ип ёки жундан тўқилган пайпоқларди *жироб* дейишган.

Ўзбекистон тожикларига хос бўлган кийимларда афсона ва ривоятлардаги қаҳрамонлар ёки образлар ҳам ифодаланган. Асрлар давомида жун матолардан ҳам моҳирлик билан қўлланилган бўёқлар кийиниш

маданиятининг алоҳида йўналишини белгилаб берган. Тўқувчилик дастлаб аёлларнинг касби сифатида шаклланган. Бироқ тўқувчилик дастгоҳларини ўрнатиш, бир жойдан иккинчи жойга кўчиришда эркаклар кўмагига суянилган. Ахборотчиларнинг берган маълумотларига кўра, XX асрда тожик хонадонларининг ҳар бирида тўқувчилик дастгоҳлари ўрнатилган бу кунлик даромад манбаи бўлиб хизмат қилган. Қашқадарё воҳасининг тоғли ҳудудлари ва текисликларидаги тожикларнинг кийиниш маданияти бир оз фарқ қилади.

Садикова С[4, 14]. археологик текшириш ва таҳлилий маълумотлар асосида тўқувчилик санъатини Ўрта Осиёда пайдо бўлиш вақтини милоддан аввалги 6-5 минг йилликларга тегишли деб ҳисоблайди.

Тожик эркакларининг ёзги кийими *кўйлак, чолвар, чопон, белбоғ ва дўппидан* иборат. Эркакларнинг кўйлаги *куртайи кифтак* деб аталиб, аёлларникига қараганда енглари тор ва калтароқ бўлади. Кўкрак олди юмалоқ кесилади, ушбу кўйлак тури *куртайи яхтак* деб аталади. Эркакларнинг шимлари аёлларнинг иштони сингари боғичли бўлади. Унинг уст тарафи кенг, ости тор, аёлларникига нисбатан калтароқ қилиб тикилади. Ушбу кўйлак шимнинг устидан тушириб кийилиб, устидан белбоғ, яъни *локи ёки чорсу* боғланади. Ёзги чопон узун, тиззадан тушиб турадиган, енглари қўлларини ёпадиган, *сатранжи* деб аталадиган, кўпинча йўл-йўл матодан тикилади.

Қиш кунлари қавилган пахтали тўн, чакмон ва *норигза* номли кенг чолвор кийилади. Эркаклар оёқларига теридан тикилган *чориқ* ёки ошланган чармдан тайёрланган *мўкки* кияди. Шунингдек, уларнинг бош кийимлари турлича бўлиб, кўпинча чўққайган узун дўппи кийиб юрилади. Қадимда Китоб дўппилари, ҳозирда эса Чуст дўппи кийиш анъанага айланган. Совуқ кунларда дўппи устидан жун салла ўралади ёки телпак кийилади.

Тожик аёлларининг кийим-кечаклари ҳам турлича бўлиб, яшаш жойига қараб ҳар хил матодан тикилади. Аёллар кўйлак, чолвор ва қавилган чопон кийиб, бошларига рўмол ўрайди. Уларнинг лозимлари *озор* ёки *пойжамо* деб

ҳам аталади. Чопон жамо, рўмол ва собадақа деб юритилган[1, 109]. Қашқадарё тожиклари тўнни *жома* деб аташади.

Ғузор туманидаги ҳардури тожик аёллари бошларидаги рўмоллари билан бошқа аёллардан фарқ қилишган. Тожик аёлларининг бош кийими *“қошбандак”, “пешонабандак”* ёки *“қасаба”* деб аталган.

Этнограф олима С.Давлатованинг кўрсатишича, маҳаллий хотин-қизлар уч хил булоқи тақишган. Биринчиси, *«холбинни»* бўлиб, тожикчада «бурундаги хол» деган маънони англатади. Иккинчи хили ўзбекчада «латти», тожикчада «нигина» деб аталади. Унинг шокила булоқи деб аталган учинчи хили эса жуда йирик бўлиб, чиройли безатилган. Зарворли бўлгани учун бир томони қулоққа осиб қўйилган. Чунки бурундаги нафис тешик бу оғирликни кўтара олмай кенгайиши ва ҳатто йиртилиб кетиши ҳам мумкин бўлгани учун шундай эҳтиёт чораси кўрилган[3, 26]. Тожикларга хос бўлган кийиниш маданиятига доир бўлган кўпгина сўзлар жой номларининг келиб чиқишига асос бўлган.

Буйрапўш – Шаҳрисабз туманидаги қишлоқнинг номи. Таркиби: *буйра+-пуш.* Тожикча бурё, ўзбекча буйра - қамиш, ғаровни маълум бир ўлчамда зич қилиб териб, бир неча жойидан ип (тасма) ўтказиб боғлаб тўқилган ёки маҳкамланган тўшама. Тўқимоқ маъносидаги *пушидан* феълининг хозирги замон асоси-*пуш*, маъноси - тўқувчи. Буйрапуш буйра тўқувчи, қамиш пояларидан тўшамчи қилувчи ҳунарманд. Ўтмишда камбағал, оч-юпун юрувчиларни *буйрапуш* дейишган. Қишлоқ номига ана шу касб-кор эгалари номи асос бўлган[5, 73]. Шунга ўхшаш Китоб туманидаги Гулгунпўш қишлоғининг номи *гулгун* – гулга ўхшаш, қишил рангли, *пўш* – киймоқ маъносида ифодаланган.

Мато ишлаб чиқариш деярли ҳамма жойда аёлларнинг касби ҳисобланган. Фақат учта қишлоқда (Эскибоғ, Бутон ва Чунагарда) аҳоли пахта матолари тайёрлаш билан шуғулланган. Бу қишлоқлардаги ишлаб чиқарувчиларнинг аксарияти тожиклар эди. Тайёр газламалардан фақат Ғузор аҳолиси фойдаланар, бу газламалар бошқа саноат тармоқларига

экспорт қилинмас эди, чунки у газламаларнинг сифати (масалан, Қарши ва бошқа шаҳарларникидан) паст бўлган.

Эскибоғ қишлоғи аҳолисининг ярми темирчилик билан шуғулланиб, уй-рўзғор ва хўжаликларда темир асбоблар ясаган. Уларнинг темирчилик асбоблари у қадар ишлатилмаган, чунки Бухорода *қаротегин* пичоғи шуҳрат қозонган. Бошқа қишлоқларда темирчилар тақа, этик ва бошқалар ясаган. Катта-Ўра ва Кичик-Ўрада (Анорбулоқ, Бошчорбоғ, Қизилмазор қишлоқлари) аёллари ҳайвон жунидан кигиз (намад), арқон, жувал, хуржун, гилам ва ҳоказолар ясашган. Гиламлар бадиий тўқилган ва хилма-хил бўлган. Гиламларнинг қуйидаги номлари бор эди: “ҳачарӣ”, “булбулаки”, “имомсултонӣ”, “қохма” (қоқма), “Шермат” ва бошқалар[6, 17].

Тадқиқот жараёнида муаллиф томонидан қишлоқ ва маҳаллаларга тақсимланган ҳолда дала тадқиқотлари материаллари тўпланиб, таҳлил қилинди. Анкета сўровномаларини олиш, аудиоёзувларни тўплаш ва норасмий суҳбат каби социологик ва этнографик тадқиқот усулларидан фойдаланган ҳолда керакли этнографик материаллар қўлга киритилди. Муаллиф Қашқадарё воҳасидаги тожикларнинг мавсумий, тўй ва дафн маросимларида бевосита иштирок этди, сақланиб қолинган кийим турларини саралаб таҳлил қилди. Воҳа тожикларининг моддий маданияти маънавий маданиятга нисбатан кўпроқ ўзгаришларга учраган ва миллатлар ўртасида маданий қоришув жараёни юз берган. Текисликларда яшайдиган тожиклар ўзбекларга хос маданий элементларни ҳам кўпроқ қабул қилган.

Ўзбекистон ҳудудида 140 га яқин миллат, элат ва халқ вакиллари яшайди. Булар ичида ўзбеклардан кейинги энг йирик иккинчи этник гуруҳ тожиклардир. Ўзбекистонда яшовчи тожиклар ўзига хос шеъваларга, урф-одат ва маросимларига ҳамда фольклорига эга. Ўзбекистонда яшовчи тожикларнинг этник тарихи ва этномаданиятини ўрганиш ва тарғиб қилиш орқали этнотуризмни ривожлантиришда янги йўналишни белгилаб беради. Зеро дунёнинг юздан ортиқ мамлакатларида яшовчи тожик миллатига мансуб бўлган шахслар Қадимий Ўзбекистондаги Ғелон, Кўл, Сийпантош каби

этнографик ҳудудларга бефарқ эмас. Ғелон ва Кўл тожиклар яшаб келаётган ҳудуд ҳисобланиб этнотуризмга мослашган қишлоқлар рўйхатига киради. Бу жойлар антропологик ва экологик туризм ривожига ҳам хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Doniyorov A. X., Bo‘riyev O. B., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi / Darslik. - Toshkent: “NIF MSH”, 2020. - B. 109-110.
2. Бродовский М.И. Технические производства в Туркестанском крае. -СПб., 1875. – С. 19, 36.
3. Давлатова С. Ўзбек кийимларининг изоҳли луғати. Т.: «YANGI NASHR», 2014. - Б.26.
4. Садикова Сайёра Абдуракибовна “История зарождения и совершенствования вязального дела таджиков (IV тысячелетие до н.э. – первая половина xx в.)”/ 5.6.1. Отечественная история (исторические науки). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе – 2022. – С. 14.
5. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. Т.: “Муҳаррир” нашриёти, 2009 й. – Б. 73.
6. Эшниёзов М. Шеваи ҳардури. Нашриёти “Ирфон”. Душанбе. 1967. Б. 17.
7. Чжао Сяоцзя. Переселение согдийцев в Китай и их влияние на культурную и бытовую жизнь династии Тан. // Оазисы Шелкового пути: современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии: К 100-летию доктора исторических наук Балкис Халиловны Кармышевой, – М., 2018. – С. 109.

Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
ЎзМУ Тарих факультети “Антропология ва этнология” кафедраси доценти, тарих фанлари доктори
Юлдашева Гулнора Камиловна
Низомий номидаги ТДРУ “Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” кафедраси доцент в.б. тарих фанлари номзоди

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ ВА ИСТИҚБОЛ РЕЖАЛАР

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш шарт-шароитлари, бу борада олиб борилаётган чора-тадбирлар, истиқболдаги режалар ҳамда муаммолар ҳақида фикр билдирилади.

Калит сўзлар: туризм, Ўзбекистон, сайёҳлар, муаммо, маданий, мерос, этник, маданият, мамлакат, халқ, миллий.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда халқнинг тарихий-маданий меросини асраб-авайлаш ва юксалтириш, миллий анъана ва урф-одатларни тиклаш, республикамизнинг диққатга сазовор жойларини тиклаш ва

ободонлаштириш борада муҳим ишлар амалга оширилди. Бу чора-тадбирлар мамлакатимизнинг туристик садоҳиятни оширишда ҳам муҳим ўрин тутади.

Ҳозирги даврда туризм жаҳон иқтисодиётининг етакчи тармоқларидан бирига айланиб бораётгани барчага маълум. Ўзбекистонда ҳам туризм иқтисодиётнинг стратегик тармоқларидан бири сифатида ривожланиб бормоқда. Бу борада Ўзбекистонда туризм соҳасини модернизация қилиш, соҳани барқарор ривожлантириш бўйича норматив-ҳуқуқий базани ривожлантириш ва такомиллаштириш, хорижлик меҳмонларга халқаро андозалар асосида хизмат кўрсатишни ташкил этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

1992-йилдаёқ “Ўзбектуризм” миллий компаниясининг ташкил этилиши миллий туризм моделини шакллантиришда муҳим қадам бўлди, десак хато бўлмайди. Ўшандан бери тузилма тармоқ ташкилотлари фаолиятини мувофиқлаштириб, тегишли кадрлар тайёрлаш, янги моддий-техника базаларини яратиш ва мавжудларини кенгайтириш, туризмнинг барча турларини ривожлантиришни рағбатлантириш, маҳаллий ва хорижий инвестициялар оқимига кўмаклашиш, хорижий тадбирларда иштирок этиш, йирик халқаро форумлар ташкил этишда фаолият кўрсатиб келмоқда.

Республиканинг 1993 йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Жаҳон сайёҳлик ташкилотига аъзо бўлиши туризм йилномасидаги муҳим босқич бўлди. У билан ҳамкорлик доирасида 1994 йилда дунёнинг 19 давлати Ипак йўли бўйлаб сайёҳлик бўйича Самарқанд декларациясини қабул қилди. 1999 йилда ЮНВТО[23], ЮНЕСКО ва Европа Кенгаши томонидан қўллаб-қувватланган Туризм ва маданий меросни сақлаш бўйича Хива декларацияси қабул қилинди. 2002-йилда “Ипак йўли бўйлаб туризм тўғрисида”ги Бухоро декларациясида барқарор туризмнинг афзалликлари таъкидланган ва бу йўналишда маданий ва экологик туризмни рағбатлантириш бўйича аниқ қадамлар белгиланган.

[23] United Nations World Tourism Organization, UNWTO United Nations World Tourism Organization, UNWTO

Бундан ташқари, 2004-йилда Самарқандда Буюк Ипак йўлида туризмни ривожлантиришни мувофиқлаштириш мақсадида ЮНВТОнинг минтақавий ваколатхонаси очилди. Таъкидлаш жоизки, бундай идора фақат икки давлат – Япония ва Ўзбекистонда мавжуд. Унинг асосий вазифаси нафақат минтақавий, балки халқаро туризмни ривожлантириш йўналишларини кўрсатишдир. [Развитие туризма в Узбекистане]

Ўзбекистон улкан сайёҳлик салоҳиятига эга. Мамлакат ҳақли равишда нафақат Марказий Осиёда, балки бутун дунёда туризм марказларидан бири ҳисобланади. Қадимда Хитойни Европа мамлакатлари билан боғлаб турган Буюк Ипак йўли ўтган Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз, Қўқон, Термиз каби жозибадор шаҳарларда сайёҳлар учун турли тарихий даврларга оид кўплаб меъморий ёдгорликлар мавжуд.

Ўзбекистоннинг қадимий шаҳарларида замонавий меъморчилик ўтган асрлардаги миллий меъморчилик ёдгорликлари билан ёнма-ён яшайди. Бинобарин, Республиканинг жаҳон туризм индустриясидаги алоҳида ўрни эътирофга лойиқдир. ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон мероси рўйхатига киритилган турли давр ва цивилизацияларга оид 7 мингдан ортиқ моддий маданий мерос обектлари, жумладан, Бухоро, Хива, Самарқанд ва Шаҳрисабзнинг тарихий марказлари мавжудлиги мамлакатимизнинг туристик имкониятларидан далолатдир.

Дунёга машҳур тарихий обидалар, замонавий шаҳарлар, анънавий миллий таомлари, халқимизнинг беназир меҳмондўстлиги сайёҳларни ўзига тортади. Шу билан бирга, Ўзбекистоннинг бетакрор табиати – чўл ва қўриқхоналардаги турли хил ноёб ҳайвонлар ва ўсимликлар (уларнинг баъзилари фақат Ўзбекистонда учрайди); фаол туризмни ривожлантириш учун катта аҳамиятга эга бўлган тоғ чўққилари ва дарёлар; шифобахш сувли минерал булоқлар; амалий санъат анъаналари ва ўзига хос маданият ҳам кўп сонли хорижий сайёҳларни жалб қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш

бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2018 йил 3 февралдаги ва 2019 йил 13 августдаги «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида», 2021 йил 6 апрелдаги “Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонлари, 2023 йилнинг 26 апрелдаги “Республиканинг туризм салоҳиятини жадал ривожлантириш ҳамда маҳаллий ва хорижий туристлар сонини янада оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори[https://lex.uz/docs] ва бошқа шу каби хуқуқий-норматив хужжатлар Республикамизда туризимни янада ривожлантириш учун қонунинй асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Мазкур норматив хужжатлар ва белгиланган чора-тадбирлардан мақсад туризм бозорининг рақобатбардошлигини ошириш, Ўзбекистон ва хорижий фуқароларнинг сифатли туризм хизматларига бўлган эҳтиёжларини қондиришдир. Ушбу мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифаларни ҳал қилиш керак:

• Ўзбекистоннинг туристик-рекреацион комплексини ривожлантириш;

• туристик хизматлар сифатини ошириш ва қулай туристик муҳитни яратиш;

• ҳудудларнинг инвестицион жозибадорлигини шакллантириш;

• туризмнинг ижтимоий ролини кучайтириш;

• туризм фаолияти хавфсизлигини комплекс таъминлаш ва ҳак.

Туризм соҳасининг ҳозирги ўсиш динамикаси унинг учун кадрлар тайёрлаш тизимини мавжуд воқелик ва истиқболларни ҳисобга олган ҳолда модернизация қилиш зарурлигини тасдиқлайди. 2018-йил 28-июн куни Президентнинг махсус қарори билан Самарқанд шаҳрида Халқаро Ипак йўли туризм университетининг ташкил этилиши ҳам туризм соҳасида кадрлар салоҳиятини ошириш борасида муҳим тадбир бўлди.

Бундан ташқари, Вазирлар маҳкамаси томонидан 2019-2025 йилларда туризмни ривожлантириш миллий концепцияси ишлаб чиқилди. Бу

концепцияга асосан, 2025-йилда мамлакатимизга ташриф буюрадиган хорижлик сайёҳлар сонини 7 миллион нафарга, туризм экспортидан олинадиган йиллик даромадни эса 2 миллиард долларга етказиш режалаштирилган [2019-2025 йилларда туризмни ривожлантириш]

Мазкур ўзгартиришлар билан бир қаторда қатор фармон ва қарорлар асосида бу борадаги шарт-шароитлар кенгайтирилмоқда. Бундан ташқари, 2017-2020 йилларда фуқаролари мамлакатимизга виза талаб қилмайдиган давлатлар сони 9 тадан 86 тага кўпайди, 53 та давлатга электрон виза тизими жорий этилди.

Республика раҳбариятининг саъй-ҳаракатлари билан кейинги йилларда туризм инфратузилмаси анча юқори даражага кўтарилди. Бу борада кўрилаётган чора-тадбирлар самараси гўзал ҳудудимизга келаётган сайёҳлар сони ортиб бормоқда. Ҳар йили дунёнинг турли бурчакларидан туристлар Ўзбекистонга ташриф буюради. Мамлакатимиз, айниқса, Германия, Франция, Италия, Корея Республикаси, Япония, Хитой, Малайзия, Россия, Ҳиндистон фуқаролари орасида машҳур.

UNWTO (Жаҳон сайёҳлик ташкилоти)нинг сўнгги маълумотларига кўра, Ўзбекистон туризм саноати энг тез ривожланаётган дунёдаги 20 та давлат қаторига киради. Хусусан, мамлакатимиз бу рўйхатда тўртинчи ўринни эгаллади. Бу ҳақда Independent ўз мақоласида хабар беради[Туризм].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2023 йилнинг 16 октябрь куни Самарқанд шаҳрида Бутунжаҳон туризм ташкилоти (ЮНВТО) Бош ассамблеясининг 25-сессияси очилиш маросимида сўзлаган нутқида Ўзбекистонда мамлакатни модернизация қилиш бўйича кенг кўламли ва ортга қайтмас ислоҳотлар доирасида туризм тармоғини ривожлантиришга устувор эътибор қаратилаётганини қайд этди.

Кейинги йилларда сайёҳлик бизнесининг барча турларини юритиш учун қулай шарт-шароитлар яратилди, солиқ ва божхона имтиёзлари тақдим этилди, кредит ва молиявий ёрдам кучайтирилди. Меҳмонхона ўринлари сони 140 мингтага етказилди, 70 та янги сайёҳлик маршрути очилди, 6 та

хусусий авиакомпания иш бошлади. Натижада Ўзбекистонга келаётган хорижлик сайёҳлар сони икки баробар кўпайди. Туризм экспортидан тушаётган даромад 4 баробар ўсди [Ўзбекистон Президенти Бутунжаҳон туризм ташкилоти ...]

Статистика агентлигининг маълумотларига кўра, 2023 йилнинг январь-декабрь ойларида 6,6 млн. нафар чет эл фуқаролари туристик мақсадларда Ўзбекистонга ташриф буюрган [Туризм].

Мамлакатимизда нафақат ташқи туризм балки шу билан бирга ички туризмни ривожлантиришга ҳам катта эътибор қаратилмоқда, хусусан, “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!» дастурига асосан ҳудудларга 21 миллион маҳаллий сайёҳ ташрифи ташкил этилди [Тошкентда VII Ўзбекистон гидлар форуми].

Республикамизнинг рекреацион ресурслари йил давомида турли ҳил дам олиш турлари, туристик маршрутлар ташкил этиш ва чет эллик меҳмонларни қабул қилиш имконини беради.

Айни пайтда давлатимиз томонидан янги сайёҳлик маҳсулотларини яратиш, хусусан, қишлоқ, этнографик, экологик ва табиий туризмни ривожлантириш дастури доирасида келаётган айрим туроператорлар ва сайёҳлик агентликларининг саъй-ҳаракатлари фаол қўллаб-қувватланмоқда. Мамлакатимизда Жиззах ва бошқа бир қатор вилоятлардаги қишлоқ аҳоли пунктлари негизида барпо этилган этнографик қишлоқлар хорижлик сайёҳларни ҳам муваффақиятли кутиб олмоқда, туя карвонини севувчилар учун ўз уйлари оромгоҳлари ҳам фаолият кўрсатмоқда.

Сўнгги йилларда кўп сонли туристлар оқимини жалб қилиш мақсадида Мўйноқда “Стихия” халқаро электрон мусиқий, санъат ва илм-фан фестивали, Устюрт текислиги бўйлаб “rally-Muynak” экстремал автопойгаси, “NavrUz” этнофестивали каби маданий ва кўнгилочар тадбирлар ташкил этилмоқда. Бундай тадбирлар кўп сонли меҳмонларни Қорақалпоғистонга жалб қилиш билан бирга, Орол экологик фожиасига дунё эътиборини тортишда ҳам катта аҳамиятга эга.

2021 йилнинг сентябрида Нукус шаҳрида ўтказилган II Халқаро бахшичилик санъати фестивали ўзбек ва қорақалпоқ халқларининг фолъклори ҳамда бахшичилигини, умуман, мамлакатимиз миллий санъати ва маданиятини дунё бўйлаб кенг тарғиб этишда муҳим аҳамият касб этди [Туризм иқтисодий ривожланиш драйвери]

Туризмнинг иқтисодий фойдаси ва мамлакат обрўсини ошириши бор гап, аммо, туризм билан боғлиқ муаммолардан ҳам кўз юмиб бўлмайди. Шу боис, туризмнинг ортиб бораётган аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда ва мамлакатнинг этник-маданий хусусиятларидан келиб чиқиб туризмни ҳар томонлама тадқиқ этиш зарурдир. Бугунги кунда маданий-маърифий маконнинг глобаллашуви жараёнлари, ахборот жамияти ва оммавий маданиятнинг кенгайиши муносабати билан ички ва ташқи туризмини ривожлантириш ҳамда этник-маданий меросдан фойдаланиш муаммоларини кўриб чиқиш алоҳида эътиборни талаб қилмоқда.

Бу бўйича қатор маданий, тарихий ёндашувлар ишлаб чиқилган. Олимларнинг фикрига кўра, этник-маданий меросга зарар етказиш ва уни йўқ қилишнинг асосий омиллари ва сабабларига қуйидагилар киради:

1) маданий мероснинг моддий объектлари ҳолатининг табиий равишда ёмонлашиши;

2) моддий ва номоддий маданиятнинг асл ворислари авлодларининг йўқолиб кетиши;

3) алоҳида халқларнинг этник маданиятини йўқ қилишга олиб келадиган сиёсий, миллатлараро ва маданиятлараро низолар;

4) давлат томонидан маданий мерос соҳасида саводсизларча сиёсат юритиш;

5) оммавий туризмнинг ўсиши, уларга ташриф буюришнинг кўпайиши ҳисобига этник-маданий мерос объектларига бўлган таъсир юкининг кескин ортиши [Бутузов, 2017. С. 89].

Демак, туризм соҳасидаги этномаданий муаммо, туристик талабнинг ортиши маданий меросни сақлашга қарама-қарши таъсир кўрсатиши билан

белгиланади. Яъни, туристик талабнинг кўпайиши бир томондан, мероснинг ҳолати ва мавжудлигига таҳдид солиши мумкин, бироқ, бошқа томондан, туризм фаолиятидан олинадиган даромадлар, туристлар томонидан халқ ҳунармандчилиги ва санъатини кўплаб сотиб олиниши ва бошқалар, анъанавий ҳодисалар ва маданий объектларни сақлашга, деярли ёки бутунлай йўқолганларини эса тиклашга ёрдам беради.

Этник-маданий меросни сақлаб қолиш эҳтиёжи расмий ташкилотлар, норасмий уюшмалар - фольклор ихлосмандлари, рақс жамоалари, ўлкашунослик анъаналарининг ашаддий ҳимоячиларидан доимий эътибор ва ғамхўрликни талаб қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Бутузов А.Г. Этнокультурный туризм. – М.: КНОРУС, 2017. 248 с.
2. Развитие туризма в Узбекистане https://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/ (Мурожаат санаси: 13.03.24)
3. Тошкентда VII Ўзбекистон гидлар форуми // https://yuz.uz/news/ (Мурожаат санаси: 11.03.24)
4. Туризм // https://t.me/statistika_rasmiy/4369 (Мурожаат санаси: 14.03.24)
5. Туризм иқтисодий ривожланиш драйвери // **https://qqtongi.uz/4591** (Мурожаат санаси: 16.03.24)
6. Марказий Осиё экспертлари этнотуризмни ривожлантириш истиқболларини муҳокама қилди // https://sputniknews.uz/20220805/markaziy-osiyo-ekspertlari-etnoturizmni-ri (Мурожаат санаси: 10.03.24)
7. Ўзбекистон Президенти Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеясининг 25-сессиясида қатор муҳим ташаббусларни илгари сурди // https://president.uz/uz/lists/view/6764 (Мурожаат санаси: 13.03.24
8. https://lex.uz/docs (Мурожаат санаси: 15.03.24)
9. 2019-2025 йилларда туризмни ривожлантириш миллий концепцияси //https://nrm.uz (Мурожаат санаси: 9.03.24)

G’aniyeva Oysara Baxtiyorovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti
“Antropologiya va etnologiya kafedrasi” magistranti

BUXORODA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (SHIRIN ETNOTURIZM QISHLOG‘I MISOLIDA)

Turizm butun dunyoda keng ko‘lamda rivojlanib bormoqda, rivojlanish sari u yangi yo‘nalishlar va sayyohlik joylari bilan boyib bormoqda. Shu bilan birga, turizm foydali soha sifatida nafaqat iqtisodiyotni, balki butun jamiyatni jonlantirish va modernizatsiya qilishning ma’lum bir mexanizmi sifatida hayotimizdan o‘rin

olmoqda. Madaniyatning globallashuvi va baynalmilallashuvi sharoitida turli xalqlarning tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylash, rivojlantirish va qayta tiklash muammolari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insonning mohiyatan izlanuvchan va bilimga intilish kabi fazilatlari uning ajralmas xususiyatidir. Turizmning insonparvarlik ahamiyati uning imkoniyatlaridan shaxsni rivojlantirish, ijodiy salohiyatini oshirish, bilim koʻnikmasini kengaytirish va ma'naviy sohani boyitish uchun foydalanishdadir.

Turizm sizga dam olishni boshqa xalqning turmush tarzi, tarixi va madaniyati haqidagi bilimlar bilan muvaffaqiyatli uygʻunlashtirishga imkon beradi. Dunyoni oʻz koʻzi bilan koʻrish, oʻrganish, eshitish, boshqa xalqlar madaniyatining oʻziga xosligini his qilish turizmning tiklash funksiyasining muhim tarkibiy qismlari boʻlib, ular katta gumanitar salohiyatga egaligi bilan ajralib turadi [1, 34].

Boshqa davlat yoki mintaqaning turmush tarzi, urf-odatlari bilan tanishish insonning ma'naviy dunyo qarashini boyitadi. Madaniyat xalq mustaqilligi, suvereniteti va oʻzligini rivojlantirish, saqlash, mustahkamlash jarayonining asosidir. YuNESKO pozitsiyasiga koʻra, turizm madaniy-gumanitar rivojlanishning asosiy omillaridan biri boʻlib, "madaniyatlar oʻrtasidagi muloqot"ni oʻrnatish orqali tinchlikni saqlash va xalqlarni yaqinlashtirishga hissa qoʻshadi.

2003-yil 17-oktabrda Moddiy va madaniy merosni muhofaza qilish boʻyicha xalqaro konvensiya qabul qilingan. YUNESKO, YUNVTO va Ummon Sultonligi hamkorligida 2017-yil 12-dekabrda YuNESKO, Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) vakillari tomonidan imzolangan ikki kunlik Jahon turizm va madaniyat konferensiyasi turizmni rivojlantirishdagi muhim voqea boʻldi. Barqaror rivojlanishga koʻmaklashish maqsadida turli delegatsiyalar, xususiy sektor, mahalliy hamjamiyat va Turizm va madaniyat boʻyicha Muskat deklaratsiyasi NNT tashkil etildi [2, 78].

Deklaratsiya doirasida turli mamlakatlardan 30 ga yaqin turizm va madaniyat vazirlari va oʻrinbosarlari, shuningdek, 70 ta davlatdan 800 nafar

ishtirokchi turizm va madaniyat sinergiyasini mustahkamlash va madaniy turizmning 2030 yilga qadar qo‘shadigan hissasini rag‘batlantirishga sodiq ekanliklarini tasdiqladilar.

O‘zbekiston boshqa davlatlar qatori madaniy turizmni ham faol rivojlantirishga intilmoqda. Deklaratsiya nafaqat mahalliy hamjamiyatlarning imkoniyatlarini kengaytiradigan, balki barqaror rivojlanishni, mezbon-mehmonning o‘zaro hamkorligini va madaniy almashinuvni ta’minlovchi innovatsion yangi turizm modellaridan foydalanadigan madaniy turizm siyosatini shakllantirishga qaratilgan.

Deklaratsiya barqaror madaniy turizmni va madaniy merosni himoya qilishni milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik tizimlariga integratsiyalashuviga yordam beradi. Deklaratsiya 1972-yildagi Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi YUNESKO Konvensiyasi va 2005-yilgi Madaniy ifodalarning xilma-xilligini muhofaza qilish va rag‘batlantirish to‘g‘risidagi konvensiyalariga asoslanadi.

Insoniy qadriyatlar – nafaqat turli davlatlar, balki bir davlat chegaralarida yashovchi xalqlar o‘rtasidagi tinchlik, o‘zaro tushunish va o‘zaro hurmat – bular muhim ijtimoiy ustuvorliklar va turizmni oziqlantirib, rivojlantiradigan unumdor zamindir.

Turizmning bir toifadan ikkinchi toifaga o‘tishi turizmning bir qancha soha va hududlarga tarmoqlanishi jarayonining boshlanishi bo‘lib, etnografik turizmning rivojlanishiga hissa qo‘shdi. O‘z-o‘zini anglash va atrofdagi dunyoni bilish, shaxsiy rivojlanish va maqsadlarga erishishni madaniyat sohasidagi bilimlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. “An’anaviy xalq madaniyati” tushunchasi etnik taraqqiyotning asrlar davomida shakllangan xalq amaliy san’atining turli shakllariga nisbatan qo‘llaniladi. An’anaviy madaniyatning ko‘plab unsurlari yo‘qolib borayotgan bugungi kunda uni ilmiy o‘rganish va ommalashtirish zarurati shubhasiz ko‘rinadi[3, 39].

Xalq madaniyatini o‘rganish maqsadida etnik turizm madaniy qadriyatlarga, jumladan, ko‘plab tarix, arxitektura, adabiyot, arxeologiya yodgorliklariga,

shuningdek, sayyohlarning bo‘lish dasturiga kiritilgan kichik tarixiy shaharlar bayramlar, festivallar, xalq sayillari va boshqalarda ishtirok etish va qishloq aholi punktlariga cheksiz qiziqishga asoslanadi.

Etnografik turizm zamonaviy O‘zbekistonda turizm biznesining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. U o‘tmishni, milliy madaniyatni va uning bugunini tushunish uchun muhim bo‘lgan va ma’lum bir guruh odamlarning madaniy o‘ziga xosligini namoyish etish imkonini beradigan joylarga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi. Bu shunchaki milliy bayramlar va festivallarda qatnashish emas. Etnografik turizmning maqsadi - muayyan millat, elatning turmush tarzi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishdir. Etnoturizm xalq hayotini “ichkaridan” ko‘rish va o‘rganish – uning tarixi, urf-odatlari, marosimlari, tili va afsonalarini his qilish, yashash va o‘rganish imkonini beradi.

Shu bilan birga, bunday turizmning asosiy tamoyili “zarar qilmaslik”, tabiiy, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikni saqlash, uni mamlakat ichida ham, undan tashqarida ham targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. Etnografik turizm ko‘pincha mahalliy xalqlarning an’anaviy yashash va iqtisodiy faoliyat joylarida tashkil etilib, an’anaviy iqtisodiyotni rivojlantirish vositasidir [4, 90].

Masalan, 2018-yil 19-maydagi “2018-2019 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahrining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosi doirasida tashkil etilgan tadbirda xalqimizning hunarmandchilik salohiyati, boy anana va urf odatlari namoyish etildi.

Festival doirasida “Buxoro milliy hunarmandchiligi maktablarining mahorat namoyishlari, jumladan, “Poyi kalon” majmuasida G‘ijduvon kulolchiligi maktabi, “Toqi Zargaron”, “Nodir devonbegi” madrasasida Buxoro mis kandakorlik maktabining, “Nodir devon begi” madrasasi, “Sovg‘a” zardo‘zlik markazi, “Zardo‘zlik fabrikasi”ning Buxoro zardo‘zchilik maktabi mahorat darslari tashkil etiladi. Shuningdek, ipak gilamchilik markazi ipak gilam to‘qish jarayoni, Buxoro temirchilik maktabi “Abdulazizxon”, “Ko‘kaldosh” madrasalarida esa Shofirkon kashtachilik maktabi mahorat darslari namoyish etildi. Bir oz harakat bilan shahar ajoyib sayyohlik brendiga aylanib ulgurgan. O‘z yoshiga ko‘ra, Ipak yo‘li

hududida joylashgan Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri hisoblanadi [5, 14].

Vobkent tumani Buxoro viloyatining sayyohlik salohiyati boy hududlaridan biri hisoblanib, u Buxoro shahridan 20 kilometr uzoqlikda, M-37 xalqaro magistral yo‘li bo‘yida joylashgan. 2022-yilda viloyat hokimi o‘rinbosari Botirjon Shahriyorov boshchiligidagi ishchi guruh viloyatning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarga tashrif buyurib, xorijiy va mahalliy sayyohlarga ko‘rsatiladigan noan’anaviy turizm xizmat turlarini ko‘paytirish hamda ularning sifatini yana-da yaxshilash yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarni ko‘zdan kechirdi.

Ta’kidlash joiz, Shirin qishlog‘i taxminan 1500 yillik tarixga ega bo‘lib, uning nomi 92 o‘zbek urug‘i nomidan kelib chiqqan. E’tiborli jihati shundaki, qishloq ahlining o‘ziga xos tarixi, qadimiy inshootlari va milliy urf-odatlari hozirgi kunga qadar saqlangan[6, 45].

Etnik turizm klasterini tashkil etishda qishloqda sho‘rdanak, quruq meva, milliy shirinliklar, poliz ekinlari va hunarmandchilik buyumlarini tayyorlash jarayonining avloddan-avlodga o‘tib kelishi kabi qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Chet eldan keladigan sayyohlar uchun qishloq turmush tarzini namoyish etish bo‘yicha qator imkoniyatlar mavjud. Mas’ullar zimmasiga namunaviy tipdagi etnoturizm markazi, qo‘shimcha turistik xizmatlarni tashkil etish va ushbu turizm qishlog‘i bo‘yicha 1-3 kunlik turistik paket ishlab chiqish topshiriqlari yuklanib, tuzilgan rejaga binoan zaruriy tavsiyalar berildi.

Hozirgi kunda Shirin qishlog‘ini turizm manziliga aylantirish maqsadida yo‘llar va yo‘l bo‘yi turizm infratuzilma obyektlari ta’mirlanib, gaz va elektr tarmoqlari qayta ta’mirlanib, obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi 5781-sonli Farmonida belgilangan talablaridan kelib chiqqan holda, hududda 20 ta oilaviy mehmon uyi faoliyatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Bugungi kunga qadar 10 ga yaqin mahalliy tashabbuskorning oilaviy mehmonxona uyi tashkil etish to‘g‘risidagi arizalari qabul qilindi. Shirin qishlog‘i

hududida qadimiy tegirmonda makkajo‘xori va bug‘doy uni tortish jarayoni, tandirda non va somsalar yopish, 20 xil turdagi poliz ekinlari ekish va mevali daraxtlardan iborat bog‘ yaratish, 5 ta o‘tov tayyorlash, baliqchilik hovuzi va uy hayvonlaridan iborat chorvachilik burchagini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, meva va sabzavotlarni biologik yo‘l bilan yetishtirib, quritish va qadoqlash jarayoni, jun yigirish va jun mahsulotlarini tayyorlash, sayyohlarga tomorqalardagi tabiiy poliz mahsulotlaridan foydalangan holda mahalliy ovqatlar, shuningdek, sho‘rdanak, meva qoqilari va sut mahsulotlari tayyorlash klasteri, ularning mahorat darslarini ko‘rsatish, milliy folklor jamoalarining madaniy chiqishlari, qishloq hayotini aks ettiruvchi qadimiy buyumlar muzeyini va milliy hunurmandchilik burchagini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, qishloq markazida supermarket, dorixona, go‘zallik saloni, axborot markazi, tikuv sexi, turoperatorlik ofisi, pochta xizmati, avia va temir yo‘l chiptalari kassasi, suvenir do‘koni, elektrotexnika buyumlari ustaxonasi, sartaroshxona, qandolatchilik va milliy shirinliklar tayyorlash sexi, oilaviy mehmon uyi, poyafzal ta’mirlash ustaxonasi, kiyim do‘koni, milliy choyxona, velosiped ijara markazi va nonvoyxonani o‘z ichiga olgan zamonaviy “Shirin turizm majmuasi” maishiy xizmat uyini ham qurish ishlari karantin qoidalariga rioya etilgan holda olib borilmoqda.

Ta’kidlash joizki, yuqori amalga oshirilayotgan ishlarning bari O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasiga muvofiq Buxoro viloyatining ham tuman (shahar)laridagi turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarida “Turizm mahallasi” va “Turizm qishlog‘i”ni tashkil etish, ushbu sohani rivojlantirish mumkin bo‘lgan turli yangi marshrutlardagi obyektlar sonini ko‘paytirishni maqsad qilgan[7, 89].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, keyingi yillarda viloyatning sayyohlik salohiyatini yanada boyitish, sohani rivojlantirish yo‘lida o‘zining munosib hissasini qo‘shishni maqsad qilgan bu kabi tashabbuskorlarimiz va jonkuyar, fidoyi soha vakillari tomonidan olib borilayotgan uzluksiz ishlar o‘z samarasini ko‘rsatib,

kelgusida Buxoro viloyatiga tashrif buyuradigan sayyohlarga manzur bo‘ladigan yangi manzilga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сафарова Т.Р. Этномаданий туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий-маданий омиллари. // 09.00.02 – Онг, маданият ва амалиёт шакллари фалсафаси (маданиятшунослик ва маданият фалсафаси) ихтиссослиги фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2022. – 34 б.
2. Мансуров М.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980-2018 й). 07.00.01-Ўзбекистон тарихи ихтиссослиги бўйича автореферат. – Т., 2020. – 78 б.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21-sentabrdagi “2019-2023-yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 794-sonli qarori. – B. 39.
4. Эгамбердиева Г. Ўзбекистонда туризм соҳасини ислоҳ қилиш босқичлари (XX асрнинг иккинчи ярми – XXI асрнинг биринчи чораги). “ФарДУ. Илмий хабарлари – Научный вестник вестник. ФерГУ”. – Фарғона, 2020. № 2. – 90. б.
5. Buxoro va Xiva shaharlarining 2500-yilligiga bag‘ishlangan xalqaro simpozium tezislari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B. 14.
6. Zohidova S.A. XIX asr oxiri–XX boshlarida Buxoroda shahar madaniyati taraqqiyoti (Nosiruddin ibn amir Muzaffarning “Tuhfat uz-zoiriyn” asari ma’lumotlari asosida): Tarix fan. nomzodi ... diss. avtoref. – T., 2009. – B. 45.
7. Zohidova S.A. XIX asr oxiri–XX boshlarida Buxoroda shahar madaniyati taraqqiyoti (Nosiruddin ibn amir Muzaffarning “Tuhfat uz-zoiriyn” asari ma’lumotlari asosida): Tarix fan. nomzodi ... diss. avtoref. – T., 2009. – B. 89.

3-SHO‘BA. TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA JAHON TAJRIBASI

Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,Turizm va servis kafedrasi, i.f.n., prof
abdumalik1957@mail.ru
Komilov Dostonbek Ro‘zimboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti (PhD)
dkomilov58@gmail.com

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH VA DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA INNOVATSION OMILLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Turizm jahon miqyosida ham, O'zbekistonda ham eng jadal va jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon sayyohlik va turizm Kengashi ma'lumotlariga ko'ra, sayohat va turizmning O'zbekiston YaIMga qo'shgan umumiy hissasi 2017- yilda YaIMning 3,1% foizini (1,3 milliard AQSh dollari) tashkil etdi. Kelgusi yillarda ushbu sektor sezilarli o'sishni davom ettirishi taxmin qilinmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston turizmning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarini maksimal darajada oshirishi uchun uning takliflarini diversifikatsiya qilishi va innovatsion yondashuvlarni ilgari surishi kerak. Ushbu maqolada innovatsion omillardan strategik foydalanish O'zbekistonda turizmni yanada rivojlantirish va diversifikatsiyalashga qanday yordam berishi mumkinligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: iqtisodiy o’sish, iqtisodiy strategiya, YaIM, diversifikatsiyalash, turizmni rivojlantirish, chora-tadbirlar

Turizm dunyoda tez rivojlanayotgan va yuqori daromad keltiruvchi sohalardan biri bo'lib, xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston boy madaniy va tarixiy salohiyatga ega dunyoning yetakchi davlatlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.Muqobil iqtisodiy sohalarni rivojlantirishning turli yo'llari va ularning tarkibiy qismlari tobora ijtimoiy-iqtisodiy doiralarda qizg'in bahs-munozaralarning nishoniga aylanib bormoqda. Bunday alternativlardan biri turizm

bo'lib, u o'z rivojlanishiga to'g'ri yondoshgan holda iqtisodiyotni infratuzilmaviy rivojlantirish uchun yana bir lokomotivga aylanishi kerak. Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotida dinamik va global sohadir.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda turizm valyuta tushumining asosiy manbai va jahon sahnasiga chiqishning asosiy manbalaridan biri bo'lib, bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini va fuqarolarning farovonligini oshiradi.Mutaxassislarning fikricha, asosiy omillar bular sayyohlar soni yillik o'sishiga ta'sir, transport rivojlantirish, aloqa, o'sib borayotgan harakatchanlik, urbanizatsiya, ish vaqti qisqartirish, shuningdek, ijtimoiy boylik oshirish.

Jahon sayyohlik sanoati rahbarlari "Financial Times"nashriga 2017 yil uchun sayyohlar uchun eng issiq yo'nalishlarni tayyorladilar. O'zbekiston ushbu ro'yxatda Nepaldan keyin ikkinchi o'rinda ("2017 yilda qaerga borish kerak?"Financial times, dekabr 27, 2016, *www.ft.com*).

Gazetaning yozishicha, O'zbekiston Ipak yo'li bo'ylab uzoq sayohat qila olmaydiganlar uchun ideal joy. Mamlakatimizda Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlardagi masjidlar, maqbaralar, mozaika va minoralar kabi sayohatlarning barcha jozibalari bilan tanishish imkoniyati yaratilgan.

O'zbekiston jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida mintaqada eng katta sayyohlik salohiyatiga ega. YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan 7000 dan ortiq tarixiy va me'moriy obidalar, bebaho ma'naviy merosni puxta saqlagan qadimiy shaharlar-Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz har yili yurtimizga dunyoning 70 mamlakatidan ikki millionga yaqin xorijlik mehmonlarni jalb qilmoqda.

Mustaqillikka erishgandan buyon respublikada turizm sohasidagi davlat siyosatining tubdan yangi tamoyillari ishlab chiqildi.

1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan turizmni rivojlantirishning milliy modelini shakllantirishga mas'ul bo'lgan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil etish bu borada muhim qadam bo'ldi. Yangi tashkil etilgan kompaniyaga turistik tashkilotlarni muvofiqlashtirish, ushbu sohada o'qitish, turizmning barcha turlarini rivojlantirishni rag'batlantirish,

moddiy-texnik baza va sanoat infratuzilmasini yaratishga investitsiyalarni rag'batlantirish kabi vazifalar yuklatildi.

Mamlakatimizda zamonaviy, yuqori samarali va raqobatbardosh turistik majmuani yaratish maqsadida mustaqillik yillarida 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan "turizm to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida respublikada mustahkam me'yoriy-huquqiy baza shakllantirildi.

Dasturlarning asosiy yo'nalishlari infratuzilmani rivojlantirish, jumladan investitsiyalarni jalb qilish, turizmni diversifikatsiya qilishdan iborat.

Mamlakatda ushbu sohada past darajadan boshlangan ba'zi bir o'sishga qaramay, ushbu salohiyatni hali haqiqatga aylantirish kerak; shu bilan birga, ko'plab muammolar turizm sohasida sezilarli o'sishni cheklaydi, bu esa mamlakatning ushbu sohada katta xalqaro muvaffaqiyatlarga erishishiga to'sqinlik qiladi, masalan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi; eskirgan tartibga solish ramkasi; yaxshi rivojlanmagan infratuzilma; monoton tur mahsuloti va past diversifikatsiya; chet elliklar tomonidan kirish vizasini olish uchun to'siqlar va boshqalar.

1993 yilda O'zbekistonning BMTning Jahon sayyohlik tashkilotiga (BMT JST) kirishi ichki turizm yilnomasida muhim bosqich bo'ldi. Ko'p yillar davomida O'zbekiston ushbu nufuzli xalqaro tashkilot ijroiya kengashi a'zosi bo'lib kelgan. Bugungi kunda u 150 dan ortiq mamlakatlardan iborat.

Bioklimatik sharoitlar sayyohlarga sog'lomlashtirish va sport turizmi bilan faol shug'ullanish imkonini beradi, ayniqsa qishda. Mintaqaning uzoq tarixini aks ettiruvchi, birinchi navbatda Buyuk Ipak yo'li (Farg'ona vodiysi-Toshkent-Samarqand-Buxoro-Urganch-Xiva) tarixi bilan bog'liq O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosi mamlakat jozibadorligining asosiy omillaridan biridir.

O'zbekiston tarixiy va me'moriy obidalar soni bo'yicha dunyoda to'qqizinchi o'rinda turadi. Yuqoridagilar O'zbekiston turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega, degan xulosaga asos beradi.

1-jadval: O‘zbekistonning 1997-2020 yillardagi turizm daromadlarining o‘sishi



Turizm va rekreatsiyaning jadal rivojlanishi kabi jahon iqtisodiyotidagi so'nggi tendentsiyalar Markaziy Osiyo mintaqasiga, shu jumladan O'zbekistonga, turli mintaqa va mamlakatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, mamlakatimiz rahbariyati, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev, shuningdek, sayyohlarni jalb qilish va hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, "O'zbekistonda 2019-2025 yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasi" (Prezident Farmoni..., 2019) qabul qilingani buning yorqin dalilidir.

Chunki, mazkur konsepsiyaga muvofiq, O'zbekistonda turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi, kelgusida hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirish, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish, ish o'rinlarini ko'paytirish, diversifikatsiya va rivojlanishni ta'minlashda turizm sohasini yetakchilik qilishdan iborat. aholining daromadlari, turmush darajasi va sifati, mamlakatning investitsion jozibadorligi va imidjini yaxshilash. Ammo, shu bilan birga, hozirgi kunda O'zbekistonning jahon turizm bozoridagi mavqei, mavjud rekreatsion salohiyatdan – ulkan turizmdan samarali foydalanish darajasi yuqori deyish qiyin. Mamlakatimiz katta sayyohlik salohiyati va imkoniyatlariga

ega bo'lishiga qaramay, taklif etilayotgan mahsulotlar assortimenti unchalik katta emas va ichki mintaqa va viloyatlarning ishtiroki past ekanligi ko'rinib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar, virtual/kengaytirilgan reallik, voqealarga asoslangan turizm, o'ziga xos tajribalar, barqaror hamjamiyatga asoslangan modellar va jahon darajasidagi MICE infratuzilmasi kabi innovatsion omillardan strategik foydalanish O'zbekistonda turizmni diversifikatsiya qilish va yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi. Innovatsion amaliyotlar orqali ushbu dinamik sektorning to'liq iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun muvofiqlashtirilgan ko'p qirrali yondashuv zarur. Bu O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi yetakchi sayyohlik yo'nalishi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNWTO Jahon sayyohlik barometri, URL: http://mkt.unwto.org/barometer.
2. “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish: muammolar, xalqaro hamkorlik, istiqbollar”, “O‘zbekiston milliy davlatchiligi evolyutsiyasi” ilmiy loyihasi, URL: http://www.uzstathood.uz.
3. Qayerga borish kerak - 2017?, Financial times, - 27 dekabr, - 2016, URL: http://www.ft.com.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ma’lumotlar bazasi, URL: http://lex. uz/index.aspx; The Wall Street Journal, AQSh; IIA "Rossiya bugun", - 29 mart, - 2016 yil, "Turkiyaga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 10% dan ortiq kamaydi", Turner R. Travel & Tourism. Iqtisodiy ta'sir. - Malayziya. - L., - 2015 yil.
5. AKT O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish omili sifatida, “infoCOM.UZ” jurnali, – 19 noyabr, – 2016 yil.

Ерметов А.А.
Ўзбекистон Миллий университети, т.ф.д., профессор

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖДАНТИРИШ БОРАСИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистонда туризм соҳасининг ривожланиши, давлат томонидан у билан боғлиқ амалга оширилаётган ислоҳотлар, жаҳон тажрибаси ҳамда мазкур йўналишда республиканинг дунё ташкилотлари билан интеграцияси масалалари хусусидаги мулоҳазалар ўрин олган.

Калит сўзлар: Ўзбектуризм, WTO, Евро комиссия, қарор, иқтисодий тараққиёти, “Ипак йўли” туризм халқаро университети, туризм инфратузилмаси

Бугунги кунда туризм соҳаси жаҳоннинг кўплаб мамлакатлари иқтисодиёти таркибида салмоқли ўрин эгаллайдиган тармоқ даражасига кўтарилган бўлиб, туризм мамлакат иқтисодий тараққиёти ва халқнинг фаровонлигини таъминлаш, жойларда янги иш ўринлари яратишда муҳим ўрин тутади. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикасида туризм саноатини иқтисодиётнинг етакчи тармоғига айлантириш мақсадида “Ўзбектуризм” Миллий компаниясининг ташкил этилиши [1, 5], туристик соҳа ривожининг тўғри баҳоланиши, унинг келажак истиқболларини белгилаб олишда муҳим роль ўйнади. Ўзбекистон 1993 йилда Жаҳон туризм ташкилоти (WTO)га аъзо бўлди. 1994 йили Ўзбекистон туризм соҳасида ўз лойиҳалари билан Индонезиянинг Бали шаҳрида Жаҳон туризм ташкилоти ассамблеясининг X сессиясида иштирок этди [2]. Шунингдек, Ўзбекистоннинг WTO Европа комиссияси раёсати аъзосига айланиши, кейинги йилларда ушбу соҳага қаратилаётган жиддий эътибор, республикага келаётган хорижий сайёҳлар оқимини кўпайтириш борасида кенг кўламли ислоҳотларнинг амалга оширилиши билан боғлиқ бўлди.

Кейинги йилларда ҳам Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш ва келажакда жаҳон андозалари даражасида сайёҳлик индустриясини йўлга қўйиш учун ташкилий-ҳуқуқий асослар қабул қилиниши давом эттирилиб, мазкур соҳани ривожланиши учун давлат томонидан яратилаётган имкониятлар янада кенгайтирилди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 15 апрелдаги “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги Фармони [3], 2006 йил 17 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси 2006-2010 йилларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантиришни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори

[4], 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [5], 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони [6], 2017 йил 16 августдаги “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори [7] бу борадаги ишларни янги босқичга кўтарди. Мазкур ҳужжатларга кўра, туризмнинг анъанавий тармоқларидан ташқари тиббий, рекреация, агро ва экотуризм йўналишлари бўйича алоҳида дастурлар қабул қилиниши ҳам белгилаб қўйилган. Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш, туризмни миллий иқтисодиётнинг стратегик соҳасига айлантириш ва юқори кўрсаткичларга эришиш мақсадида 2019 йил 18 июлда янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни қабул қилинди [8].

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида турли даврларда вужудга келган тўрт мингдан ортиқ архитектура, тарихий ва табиий мерос ёдгорликлари [9, 16] мавжудлигига қарамай, ушбу туристик хизмат салоҳиятидан тўлиқ фойдаланилмоқда, деб бўлмайди. “Ўзбектуризм” экспертларининг маълумотига кўра, 2009 йилда туризм соҳасидаги хизмат ички ялпи маҳсулот умумий ҳажмининг бор-йўғи 0,6 фоизини ташкил этди [10, 25]. 2012 йилнинг дастлабки чорагида Ўзбекистонда туризмдан тушган даромад ЯИМга нисбатан бир ярим фоиздан ошмади [11]. Мамлакатдаги туристик салоҳиятни инобатга олинадиган бўлса, бу жуда кичик кўрсаткич ҳисобланади. Бунинг ўзига хос сабаблари бўлиб, аввало, туризм билан боғлиқ ҳуқуқий хужжатларнинг тўлиқ ишлаб чиқилмаганлиги, валюта конвертациясининг тўлиқ эркинлаштирилмаганлиги (2017 йилгача), хорижий фуқароларнинг Ўзбекистон Республикасига ташрифи учун қулай шарт-шароитлар яратиш ва виза тартиб-таомилларини соддалаштириш тартиби жорий этилмаганлиги каби ҳолатлар таъсир кўрсатган эди.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда мавжуд бой табиий, маданий ва тарихий мероснинг ресурслари ва имкониятларидан самарали фойдаланиш, Буюк ипак йўлида туризм йўналишининг жозибадор маркази сифатида республика қиёфасини шакллантиришни таъминлайдиган, юқори малакали ва жаҳон туризм индустрияси бозорида рақобатбардош кадрларни тайёрлаш бўйича ислоҳотлар изчил давом эттирилиб, 2018 йили Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори билан Самарқанд шаҳрида “Ипак йўли” туризм халқаро университети ташкил этилди [12].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 мартдаги “Транспорт ва туризм объектларида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг самарали тизимини жорий этишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорига мувофиқ, Ички ишлар органлари тизимида Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармаси ташкил этилди [13, 176]. Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармасининг асосий вазифалари юртимизга келаётган хорижий сайёҳларга амалий ёрдам бериш, уларнинг хавфсизлигини таъминлаш, сайёҳлик намойиши ва инфратузилмаси объектларида жамоат тартибини сақлаш, ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олишдан иборат қилиб белгиланди.

Янги таҳрирдаги “Ўзбекистон Республикаси Туризм тўғрисида”ги қонунда ҳам [14] мамлакатда туризмнинг барча соҳаларининг барқарор ривожланиши масаласи илгари сурилди.

Тизимдаги ислоҳотлар жараёнида “Ўзбектуризм” Миллий компанияси ўрнига Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси ташкил этилиши мамлакатнинг туризм салоҳиятини тубдан ошириш, туризмга иқтисодиётнинг стратегик сектори мақомини беришда муҳим аҳамият касб этди. Туризм соҳасида ягона давлат сиёсати ўтказилишига йўналтирилган туризмни ривожлантиришнинг яхлит концепцияси шакллантирилиши ва амалга оширилишини таъминлаш, халқаро стандартларга мувофиқ бўлган туризм инфратузилмасини ривожлантиришга хорижий инвестицияларни жалб этиш, минтақаларда янги туризм

йўналишлари ташкил этилишини таъминлаш кабилар қўмитанинг асосий вазифалари этиб белгилаб берилди.

Хулоса қилиб айтганда, мустақиллик йилларида жамият ҳаётининг барча жабҳаларида амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнида туризм соҳасини ривожлантиришга ҳам алоҳида аҳамият берилди. Туризм соҳасини ҳар томонлама тараққий эттириш мақсадида кўплаб ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар қабул қилиниб, улар асосида тегишли чора-тадбирлар ўтказилган бўлсада, соҳани тўлиқ ривожлантиришда айрим камчиликлар (валюта айрибошлаш, сервис соҳаси ва виза олишдаги узилишлар) ҳам кузатилган эди. Сўнгги йилларда ҳукумат томонидан туризмни ривожлантиришга бўлган эътиборнинг янада кучайтирилиши ва шароитларнинг яхшиланиши натижасида Ўзбекистонга туристларнинг оқими сезиларли даражада ошганини кузатиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. ЎзМА, М-141-фонд, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 5-варақ.
2. Сатторий Ҳ. Карвон йўлларида чироқлар мангу порлайди. // Халқ сўзи газетаси, 1994 йил 7 октябрь, № 197.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-2286-сон фармони 1999 йил 15 апрель. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999, 4-сон, 96-модда.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси 2006-2010 йилларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантиришни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3256-сон қарори 2006 йил 17 апрель. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006, 16-сон, 133-модда.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4861-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016, 49-сон, 558-модда.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017, 6-сон, 70-модда.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3217-сон қарори 2017 йил 16 август. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 33-сон, 845-модда.
8. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. –Тошкент, "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2019 йил 22 июль, 29-сон, 515-модда.

9. Мўминов А. Ўзбекистонда экологик туризмнинг ривожланиш жараёнлари (1991-2020 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Тошкент, 2019. – Б. 16.

10. Сиддиқов Р. Ўзбекисон Республикасида туризм соҳасига кадрлар тайёрлаш муаммолари. – Тошкент.: “Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари” журнали, 2012. – Б. 25.

11. “Ўзбектуризм” миллий компанияси раиси Ф.Ризаевнинг “Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш чора-тадбирлари амалга оширилишининг бориши тўғрисида” 2012 йил якунлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатасида ахбороти.–Тошкент, 2013 йил 26 февраль, 618-II-сон. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис палаталарининг Ахборотномаси, 2013, 2-сон, 29-модда.

12. “Ипак йўли” туризм халқаро университетини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори.–Тошкент; 2018 йил 28 июнь. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.06.2018.

13. Тошкент шаҳар Ички ишлар органлари: кеча ва бугун. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, 2021. – Б.176.

14. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. –Тошкент, "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2019 йил 22 июль, 29-сон, 515-модда.

Kurbanova Mohinur Xabib qizi
Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti

ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBASI VA UNI O’ZBEKISTONDA QO‘LLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AFZALLIKLARI

Annotatsiya. Ko‘plab rivojlanayotgan bozorlar o‘zlarining sayyohlik takliflarini diversifikatsiya qilishlari bilan, e’tiqodga asoslangan turizm butun dunyo bo‘ylab bir qator bozorlar uchun asosiy segmentga aylandi. Shuning uchun biz maqolada asosiy e’tiborni aynan diniy turizim mohiyatiga qaratdik. Shunigdek, ziyorat turizmini rivojlantirishning ilg‘or xorijiy tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llashning ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklari haqida to’xtaldik.

Kalit so’zlar. Diniy turizm, ziyorat turizmi, investitsiya, Butun Jahon Turizm tashkiloti, O‘zbekiston.

Ma’lumki, diniy turizm ish o‘rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashdan tashqari, butun dunyo bo‘ylab logistika infratuzilmasini yaxshilash, obidalarni himoya qilish, ko‘proq rekreatsion takliflarga investitsiya kiritishga yordam beradi.

Diniy sayyohlarning katta oqimini boshdan kechirayotgan hududlarda yangi strategiyalar va infratuzilma loyihalari haddan tashqari turizmning oldini olishga yordam beradi, shu bilan birga o‘sish imkoniyatini beradi.

Butunjahon Turizm Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili taxminan 330 million kishi diniy sabablarga ko‘ra sayohat qiladi [1], bu ma’naviy yoki muqaddas qadriyatlarga ega mamlakatlar uchun muhim bozorni tashkil qiladi. Bu tashriflar ziyoratlarni, shuningdek, yil davomida muhim tarixiy va diniy joylarga sayohatlarni o‘z ichiga oladi.

Diniy turizmga asoslangan iqtisodiyotga ega davlatlarda ziyoratgohlarga diniy sayohatlar yiliga kamida 8 milliard dollar [2] daromad olib keladi, minglab odamlarni ish bilan ta’minlaydi.

Diniy turizm bozorining hajmi 2020-yilda 1,071 million dollarga baholandi va 2028-yilga kelib 1,704,2 million dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa 2021-yildan 2028-yilgacha yillik o‘sish surati 6 foizga oshadi degani [3].

Bozor tadqiqotlarini olib boruvchi Market Reports World kompaniyasi 2022-yilda jahon diniy turizm bozori hajmini 1328,74 million dollarga baholadi [4]. Future Market Insights tahlil kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda diniy turizmdan global daromad 15,1 milliard dollarni tashkil etishi prognoz qilingan va bu ko‘rsatkich 2033-yilga kelib 41 milliard dollarga yetishi mumkinligi ta’kidlangan.

Dunyo musulmonlari aholisi soni 2 milliard kishiga yetdi. 2022-yilda xalqaro musulmon sayyohlar soni 110 million nafar, ya’ni barcha xalqaro tashriflaring 12 % ini tashkil qildi. 2028-yilga kelib musulmon ziyoratchilar soni 230 million, ulardan keladigan daromad esa 225 milliard dollarni tashkil etishi kutilmoqda.

Turli din vakillari uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ziyoratchilar orasida mashhur bo‘lgan ko‘plab yo‘nalishlar mavjud. Har qanday turizm turi kabi ziyorat turizmi ham katta iqtisodiy samaraga ega. Ba’zi ziyorat destinatsiyalari va hududlar daromad olish uchun butunlay turizmning ushbu turiga tayanadilar. Bu, o‘z navbatida, atrofdagi hududlar uchun ham manfaatli bo‘ladi. Mehmonxonalar va

restoranlarda koʻproq joylar band boʻladi, mahalliy doʻkonlar mijozlar bilan toʻladi, gid-tarjimonlar, usta hunarmandlar, fotograf va shu kabi boshqa kasb egalari ham ish bilan band boʻladilar.

Xalqaro Halol turizmni baholash tashkiloti - Mastercard-CrescentRating maʼlumotlariga koʻra, musulmon sayyohlar tashrifi boʻyicha Osiyo yetakchi oʻrinda turadi. 2023-yilda 200 milliondan oshiq sayyoh tashrif buyurgan boʻlsa, ularning 31 foizdan ortigʻi musulmon sayohatchilar boʻlgan.

2023-yilda Islom Hamkorlik tashkilotiga aʼzo mamlakatlar orasida musulmonlarga xizmat koʻrsatish boʻyicha Malayziya va Indoneziya davlatlari bir necha yillardan beri birinchilikni egallab kelmoqda. Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya davlatlari keyingi oʻrinlarda turadi. Oʻzbekiston esa bu roʻyxatda 13-oʻrinni egalladi.

Islom Hamkorlik Tashkilotiga aʼzo boʻlmagan mamlakatlar ichida esa Singapur, Birlashgan Qirollik, Tayvan, Tailand va Gonkong top 5 talikdan oʻrin olgan.

2023-yilda Afrikaga tashrif buyurgan musulmon ziyoratchilar ulushi 21% dan oshadi. Bu Afrika oʻzining boy madaniy xilma-xilligi, tarixiy Islom merosi va Afrikada, xususan, Shimoliy Afrika boʻylab koʻp musulmon aholisi tufayli musulmon sayohatchilar uchun asosiy yoʻnalish ekanligidan darak beradi.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi boshqa davlatlar uchta Ibrohim dini uchun tarixiy va maʼnaviy ahamiyatga ega boʻlgan joylarni tiklash va saqlash bilan shugʻullanadi, bu oʻz navbatida xalqaro sayyohlar kelishini koʻpaytirishga yordam beradi. Misrning Turizm va qadimiy ashyolar vazirligi 2020-yilda “Buyuk Transfiguratsiya” loyihasini ishga tushirgan. Loyihaning asosiy maqsadi Aleksandriya va Sinay shaharlarida yashash sharoitini, turistik xizmatlarni, yoʻllarni yaxshilash, qor koʻchkilari va suv toshqinlarining oldini olishga qaratilgan rejalarni amalga oshirish orqali diniy, ekologik va tibbiy turizm boʻyicha yetakchi destinatsiyaga aylantirish hisoblanadi. Yurtimizda ham xuddi shunday mezo darajadagi loyihalarni amalga oshirish mavjud turistik potensialni

jahon hamjamiyatiga koʻrsatib, ziyorat turizmini mavsumga bogʻliq boʻlmagan holda rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

2023-yilda Amerika qit'asiga 170 milliondan ortiq tashrif buyurgan sayyohlarning 2 foizi musulmon dini vakillari hisoblanadi. Turizmda ba'zi bir koʻrsatkichlarda eng yuqori oʻrinda turuvchi Meksikaning shtatlari, diniy turizmga strategik oʻsish tarmogʻi sifatida qaramoqda. San-Xuan-de-los-Lagos sobori kabi diqqatga sazovor joylarga ega boʻlgan Xalisko shtati diniy sayyohlar uchun afzal yoʻnalishlar boʻyicha Mexikodan keyin ikkinchi oʻrinda turib, 2023-yilda 28 milliondan ziyod kishini jalb qildi va sayyohlikdan 4 milliard dollarga yaqin daromad oldi. Har yili 12 oktyabrda boʻlib oʻtadigan Zapopan diniy festivali mintaqaga 1 milliondan 3 milliongacha sayyohni jalb qiladi. Oʻzbekistonda ham ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida diniy festivallar tashkil etilsa mahalliy va xalqaro turistik oqimni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo boʻylab Okeaniyaga tashriflar soni 2023-yilda 10 ming nafarni tashkil qilgan boʻlsa, ularning 7 foizi musulmon sayyohlar hisoblandi. Indoneziyada Dani qabilasiga boshqa diniy joylar bilan hamohanglikda maxsus turlar tashkil etiladi. Garchi koʻplab Danilar bugungi kunda nasroniy boʻlsalarda, ularning ba'zilari hali ham eski animist xudolaridan kelib chiqqan koʻplab urf-odat va diniy marosimlarga ega. Biroq, choʻchqani kesib, uning xom goʻshtini yeyish kabi ba'zi marosimlar gʻayrioddiy tuyulsada, bunday turistik marshrutlar yevropalik sayohatchilar tomonidan oʻziga xosligi boʻyicha yuqori baholanadi.

Jahon musulmonlarining 67 foizi Osiyo mintaqasida istiqomat qiladi. Mintaqa aholisining kelib chiqishi, tarixi, madaniyati bir-biriga yaqinligini inobatga olib, ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy segmenti deb qarash toʻgʻri sanaladi. 2021-yilda Iordaniya Turizm va qadimiy ashyolar vazirligi Nebo togʻidan Iordan vodiysigacha boʻlgan hududda sarguzasht, madaniy, tibbiy va diniy turizmni rivojlantirishga imkon beruvchi Xristian "ziyorat turizm yoʻli"ni tashkil etish loyihasi ustida ish boshladi.

Saudiya Arabistoniga esa xalqaro tashriflar hozirda Haj va Umra ziyoratlarida qatnashayotgan shaxslar tomonidan amalga oshirilmoqda. Kelayotgan

barcha daromadlar ziyorat turizm info- va infratuzilmasini rivojlantirish evaziga ham bo‘layotganligini inobatga olib texnologiya diniy turizm rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi, ham unga ta’sir qiladi, deb aytish mumkin. Global sayyohlik distributorlik platformasi TBO.com tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, Saudiya Arabistoni diniy sayohatlarga asoslangan Zamzam.com onlayn sayohat agentligi platformasini yaratdi. Kompaniya Umra sayohati xizmatlariga ixtisoslashib, jumladan, vizalar, reyslar va diqqatga sazovor joylarga turistik paketlar kabi takliflari mavjud.

2022-yil sentabr oyida Saudiya Arabistonining Haj va Umra vazirligi “Vision 2030” dasturi doirasida “Pilgrim Experience Program”ga muvofiq Makka va Madinaga diniy maqsadlarda ziyoratlarni rejalashtirishni osonlashtirish uchun rasmiy raqamli platforma - Nusuk ishga tushirildi. Shahardagi raqamli infratuzilmani rivojlantirish va ziyoratchilar bilan hamjihatlikni ta’minlash maqsadida 2023-yil boshida Saudiya Arabistoni milliy telekom provayderi Makkadagi Masjidul Haramda 92 ta radioeshittirish minoralarini, shuningdek, 1,5 m² maydonda yettita aloqa minoralarini o‘rnatdi.

Mamlakatimizda ham mintaqa bilan bog‘liq barcha qadriyatlarni, shaxs, ilm, musiqa, o‘yin, taom kabilarni ko‘rsatib bera olish, ziyoratgohlarga tashkil etiladigan virtual sayohatlar, ziyoratgohlarning GAT (geoaxborot tizimlari) xaritalari, ziyoratgohlar tarixi, buyuk shaxslar haqidagi filmlar namoyishi, teatrlashtirilgan tomoshalar, ziyorat turizmi bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqish sayyohlarni ushbu hududga yanada ko‘proq jalb qiladi.

Bunday amaliyotlarni O‘zbekiston ziyoratgohlari uchun ham qo‘llash, Islom, nasroniy, yahudiy, budda dini vakillari uchun alohida turistik marshrutlarni tashkil etish, masalan, sunniy musulmonlar uchun so‘fiylarning yo‘li, shialar uchun imomlarni ziyorati, hadis ilmiga qiziquvchilar uchun muhaddislar yo‘li, fiqh ilmi vakillari uchun faqihlar ziyorati, hunarmandlar uchun ularning avliyolariga ziyorat marshrutlarini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PQ-2980-sonli “2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

qarorining 1-ilovasida belgilangan “2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish dasturi”ning 6-bandi ijrosining mantiqiy davomi sifatida amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-338-sonli “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 1-bandi ijrosini ta’minlashda xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

ziyorat turlarini tashkil etishda individual emas, balki, tur operatorlarga murojaat qilish. Chunki, ziyoratchilar asosan xavfsizlikni birinchi o‘ringa qo‘yishadi. Bundan tashqari, turistik firmalar orqali borganda ular ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishadi. Shuning sababli, ziyorat turizmga ixtisoslashgan, malakali mutaxassislarga ega turistik firmalar faoliyatini kengroq yo‘lga qo‘yish;

potensial ziyoratchilar orasida destinatsiyaga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularning tashrifini ta’minlash maqsadida diniy ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar bo‘ylab virtual turlarni tashkil etish;

obunachilari ko‘p bo‘lgan bloggerlarni destinatsiyaga iloji boricha bepul va ko‘proq jalb etish, hudud va har bir turistik firmaning veb-sahifasi, ijtimoiy tarmoqlarida ma’lumotlarni doimiy yangilash orqali Internetda katta hajmdagi targ‘ibot ishlarini olib borish;

imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun ham ziyoratlarni tashkil etish, ular uchun qulay infratuzilmani yaratish;

ziyoratchilar asosan autentiklikni ma’qul ko‘rishadi, ya’ni, ma’lum dinlar va ziyoratgohlar bilan, mahalliy aholi bilan bog‘liq haqqoniy, azaldan saqlanib qolgan ma’naviy va madaniy qadriyatlarni his etish, urf-odatlarida shaxsan ishtirok etish imkoniyatini beradigan marshrutlar sonini oshirish.

Ushbu keltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizda turizm sohasi orqali kam xarajat qilib yuqori daromad olish imkonini beradigan tarmoq bu ziyorat turizmi ekanligini isbotini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Future Market Insights” tadqiqot bazasi veb sahifasi. https://www.futuremarketinsights.com/reports/jordan-faith-based-tourism-market#:~:text=According%20to%20the%20World%20Tourism,Madaba%2C%20Pella%2C%20and%20Makower.

2. https://tourismteacher.com/pilgrimage-tourism/

3. https://www.verifiedmarketresearch.com/product/religious-tourism-market/

4. “Market reports” jahon statistikasi. https://www.marketreportsworld.com/global-religious-tourism-industry-research-report-2023-competitive-landscape-market-22358075

5. Mastercard-CrescentRating. Global Muslim Travel Index. 2023

6. “Statista” – Butunjahon statistik ma’lumotlar bazasi. https://www.statista.com/statistics/273598/international-tourist-arrivals-in-europe/#:~:text=The%20number%20of%20international%20tourist,around%20700%20million%20in%202023

U.K. Mukhtarova
Alfraganus University, Senior lecturer of the Department of Economics

DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND WORLD EXPERIENCE

Abstract: The development of tourism is an important spectrum of the industry, which is closely related to the development of the country as a whole. Today, the organization of services in the field of tourism and the creation of a tourism concept is one of the priority directions of economic development. This article is about the development and effective organization of tourism in the Republic of Uzbekistan and its priority areas.

Key words: tourism, cultural heritage, tourism industry, concept, tourist attraction, medical tourism, pilgrimage tourism, electronic visa, hostel, safe tourism.

In modern conditions of development of the world economy, tourism is becoming one of the leading and dynamically developing industries. According to UNWTO data, tourism ranks fourth in global exports of goods and services (7.4%). In terms of profitability, this industry ranks third in the world after the oil industry and the automotive industry. Data from the UN World Tourism Organization shows that tourists prefer to travel within nearby countries, with 80% of tourist arrivals in the world occurring within one region. The majority of arrivals (53%) were made for the purpose of recreation, about 15% of them were business

trips, 27% for other purposes, including visits to relatives and friends, pilgrimage, treatment, health promotion, etc. When In organizing tourist trips, the importance of air travel (52%) as well as land transport (40%) is increasing every day and becoming an integral and significant aspect of tourism development.

Uzbekistan is located on the Great Silk Road and has enormous tourism potential, and on this basis, the republic has launched a process of radical reform of this industry. Its goal is to transform tourism into a strategic direction for the country's development, which will ensure accelerated development of the regions. The fundamental changes taking place today in our country are rapidly penetrating all spheres of the economy, including the tourism sector. According to the State Committee of the Republic of Uzbekistan for the Development of the Tourism Industry, at the beginning of 2022, about 870 travel agencies and tour operators were registered in the country. Currently in There are about 1,800 licensed travel agencies and tour operators in the country. Despite this, in general, the tourism sector in Uzbekistan continues to develop with the active support of the country's government. In particular, as part of the implementation of the National Program for the Development of Tourism until 2025, a number of measures were taken to improve legislation in the field of tourism and improve the system for obtaining licenses and certificates.

In the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 5, 2019 No. UP-5611 "On additional measures for the accelerated development of tourism in the Republic of Uzbekistan" in accordance with the "Concept for the development of tourism in the Republic of Uzbekistan for 2019-2025", special attention is paid to the further strengthening of foreign relations with the countries of Europe and Southeast Asia. President Shavkat Mirziyoyev's far-sighted bet on returning the country to the orbit of international tourism not only brings tangible material results, but helps to increase the country's authority in the international arena. Thus, in October this year, the 5th anniversary session of the General Assembly of the UN World Tourism Organization will be held in Uzbekistan for the first time (UNWTO). Ancient Samarkand will host heads of government

agencies working in the field of tourism, international organizations and representatives of the tourism business from almost 160 countries.

Uzbekistan pays great attention to the tourism industry, because The republic has huge tourism potential and natural resources for tourism development. For example, we can note the main positive trends in the development of international tourism for Uzbekistan:

-many countries in the Middle East are losing their status as attractive tourist destinations as a result of growing political instability in the region;

-the growth of tourist trips made by residents of countries with an unstable political situation creates an opportunity to strengthen the competitiveness of the Uzbek tourism product in the domestic and international tourism markets;

-there is a growing interest in ecotourism and cultural tourism in the world, which makes Uzbekistan the most attractive tourist destination for foreign tourists.

In addition to positive trends, there are also negative aspects, to eliminate which the State Committee of the Republic of Kazakhstan for Tourism Development has adopted programs and concepts for tourism development. Negative trends for Uzbekistan in the development of international tourism:

-high prices for air travel, low coverage of potential markets by domestic and international airlines;

- poor development of transport, social and engineering infrastructure in tourist areas, inaccessibility, low level of service in tourist recreation areas, underdevelopment of roadside infrastructure;

-lack of qualified personnel in the field of tourism, as well as the remoteness of educational programs from the requirements of the labor market, production needs, employers' expectations, etc.;

-insufficient degree of regulatory regulation of the tourism and hotel business, in particular, the lack of standards applied to certain types of accommodation, the lack of rules for regulating social tourism applied to employees and employers, the lack of tax incentives for the tourism industry.

An analysis of the main economic indicators of tourism development showed that the potential of Uzbek tourism is not fully realized, since the development of tourism directly depends on the formation of a modern competitive tourist complex with the necessary infrastructure of the transport and logistics system. There is a need to reconstruct checkpoints across the State Border of the Republic of Uzbekistan (aviation, road, railway) and improve the border crossing process, making it meet the needs of foreign citizens for tourism services. The creation of a tourist complex will also make a significant contribution to the development of the country's economy through the influx of foreign currency, tax revenues to the budget, growth in the number of jobs, and will also contribute to the preservation and rational use of the cultural and natural heritage of Uzbekistan.

One of the most important conditions for sustainable development of tourism is government support. When studying international experience, it was revealed that countries where the state pursues an active policy to create conditions for the development of tourism infrastructure, attract private investors, create favorable economic conditions, supported by legislation, for the activities of tourism industry entities allocate significant budget funds for the implementation of national projects and programs .

It is worth noting that income from tourism, both direct and indirect, quickly pays off the costs of its development, which makes the tourism industry one of the most important engines of the country's socio-economic development.

It is advisable to apply foreign experience of state support for the tourism and hotel business industry in the Republic of Uzbekistan. Thus, international experience shows that the active role of the executive branch in the infrastructure provision of tourism development is one of the significant success factors. All these examples can be called successful, both from the point of view of a powerful impetus for the development of the tourism industry in the country, and taking into account the return of public investment. The unity of goals and objectives for the country's development will make it possible to successfully implement program-

targeted tools for the growth of the cultural level, spiritual potential and well-being of the country and each of its citizens.

The following activities are proposed to support the development of tourism and hotel businesses:

-creating an accessible and comfortable tourist environment;

-improving the quality and competitiveness of the tourism product of Uzbekistan in the domestic and world markets;

-implementation and strengthening of the social role of tourism, including the development of social, pilgrimage, environmental, ethnographic, medical and recreational, children's, youth and youth tourism;

-improvement of the management system and statistical accounting in the field of tourism;

-comprehensive provision of security in the field of tourism and sustainable development of the tourism services sector;

-unification of the quality of tourism services in the country, bringing them into line with international standards;

-creation and development of a comfortable information tourist environment;

-strengthening the role of tourism in education and the formation of the cultural and moral potential of the population of the regions of Uzbekistan;

- promotion of the tourism product of Uzbekistan;

The main indicators of achieving the goal of tourism development in Uzbekistan are: attracting more foreign tourists, increasing demand for domestic tourism products from Uzbek citizens, including through the reorientation of part of consumer demand from outbound tourist destinations to domestic ones, increasing the number of business tourists, international conferences , forums and meetings, expanding the range of services consumed by tourists and extending the period of stay of tourists at domestic resorts.

In conclusion, we can say that the development of tourism in Uzbekistan, the rational use of tourism potential has a positive effect on the development of the

country’s foreign economic activity, the growth of foreign exchange earnings, the improvement and diversification of the export structure, and can become a driver of the Uzbek economy of Uzbekistan. The development of the tourism sector entails the development of related industries and serves as an increase in income with a high multiplier effect. Tourism is an important factor in creating new jobs.

LIST OF USED LITERATURE

1. Uriely Natan (2005) The tourist experience: conceptual developments. Ann Tour Res 32(1):199–216
2. De Carolis B, Novielli N, Plantamura V, Gentile E (2009) Generating comparative descriptions of places of interest in the tourism domain. In Proceedings of the third ACM conference on recommender systems (RecSys ‘09). ACM, New York, pp 277-280
3. Navruz-zoda B. N., Khurramov O. K. Features and opportunities of digital tourism and its development in Uzbekistan //European research: innovation in science, education and technology. – 2020. – С. 22-24
4. Global Sustainable Tourism Council. (2022). Global Sustainable Tourism Criteria. Global Sustainable Tourism Council. https://www.gstcouncil.org/
5. Strategy for the development of tourism in the Republic of Uzbekistan for 2019-2025. (2019). Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. *https://lex.uz/ru/docs/4143186*
6. World Tourism Organization (UNWTO). (2020). Tourism and COVID-19: Impact and Response. World Tourism Organization. *https://www.unwto.org/*
7. "Development of tourism in Uzbekistan: problems, international cooperation, perspectives", Scientific project "Evolution of national statehood of Uzbekistan", URL: http://www.uzstathood.uz
8. State Committee of the Republic of Uzbekistan for Tourism Development. (2020). The Strategy of Development of Tourism Industry of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030. Tashkent, Uzbekistan. https://uzbektourism.uz/

Raxmonova Nilufar Yorqinovna
Buxoro davlat universiteti,Iqtisodiyot va turizm fakulteti magistranti

O`ZBEKISTON NOMODDIY MADANIY MEROSINI TURIZMDA QO’LLASH USULLARI (JAHON TAJRIBASI ASOSIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosiy e’tiborni nomoddiy madaniy merosni turizimda qo’llash masalalriga qaratib, bu borada qilingan jahon tajribasini tahlil qildik. Shuningdek, O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini turizimda qo’llash usullari bo’yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so’zlari. Nomoddiy madaniy meros, nomoddiy meros turizmi, UNESCO, O‘zbekiston.

2003-yil UNESCO ning “Nomoddiy madaniy merosni saqlash to’g’risida”gi konvensiyasidan so’ng jahon hamjamiyatida Nomoddiy meros turizmi salohiyati to’g’risida xabardorlik o’sib bordi. 2008-yilda esa Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlanish dasturi bo’yicha ijro etuvchi agentligi hisoblanuvchi Jahon turizm tashkiloti ham ushbu turizm turining keng salohiyatini tan oldi. Jahon turizm tashkiloti tomonidan tashkil etilgan “Nomoddiy meros va turizm” (“Intangible Heritage and Tourism”) nomli anjumanda nomoddiy madaniy meros ko’rgazmasini namoyish etish, bozorni yanada jozibador qilish uchun diqqatga sazovor joylarni yaratish va to’plash,shu qatorda festivallar va tadbirlarni tashkillashtirishda yoki ularni jonlashtirishda strategiyalari o’rganildi [3].

Bunday turizm turining XXI asrga kelib rivojlanib borayotganligining asosiy sabablaridan biri asrimiz rivoji natijasida biz kun sayin jonsiz elementlar kuzatuvchisiga aylanib qolayotganimizdir. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarning ko’pgina aholi qatlamlari globallashuv qobig`idan chiqib ,tinch va sokin joylarga sayohat qilishni,ular uchun odatiy bo’lib qolgan zamonaviy ruhdagi elementlardan qochib milliylik ruhidagi muhitdan, jonli san’at turlaridan bahramand bo’lishni istashmoqda.Bunday ehtiyojlar nomoddiy madaniy merosning turizm bozoridagi ahamiyatini oshirib bormoqda [4].

“Tirik” merosni o’z ichiga olgan tajriba faoliyati sifatida nomoddiy meros sayyohlar uchun ulkan salohiyatga ega. Oxir oqibat, ko`plab sayyohlar tashrif buyurgan hududlarining “mahalliy rangi”ni his qilishlariga umid qilishadi. To’g’ri ishlab chiqilgan va boshqarilgan bo’lsa, mahalliy aholi a’zolari nomoddiy meros turizmidan foyda olishlari mumkin, ular iqtisodiy jihatdan ham,meros bilan bog`liq amaliyotni himoya qilishda ham foyda ko`rishlari mumkin [2].

Xususan, Rotterdamdagi G’arbiy Kruiskade kabi gavjum savdo ko`chasi, ko’p jihatdan, nomoddiy merosning turli xildagi ko`rinishlari namunalari unda to`planganligi bilan turistlar uchun ahamiyatlidir [5]. Xitoyda esa nomoddiy meros turizmi ajdaho festivali kabi tadbirlar va festivallarni o’tkazadigan turli mahalliy tadbirkorlarning faoliyati natijasida kun sayin rivojlanib bormoqda. Shunga

o’xshab, Gey Pride, Amsterdam kanallari yoki San-Fransisko ko’chalarida har yili o’tkaziladigan rang-barang namoyishlar endi cheklangan maqsadli guruhlar uchun festival emas, balki uzoqdan sayyohlarni jalb qiladigan keng bayramga aylandi [1].

Vatanimizda ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ko’pgina nomoddiy madaniy meros namunalari mavjuddir. Qadimiy hunarmandchilik turlari va hunarmandlarning ishlash texnikalari, an’anaviy mahsulotlarni tarixiy ishlab chiqarish texnikalari, milliy urf-odatlar, marosimlar, tadbirlar, ijrochilik san’at turlari kabi elementlar bizning nomoddiy merosimizga misol bo’la oladi. Turizmda bunday nomoddiy boyliklardan samarali foydalanishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib bizning ayrim nomoddiy madaniy meroslarimiz UNESCO tashkilotining “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi” ro’yxatidan joy olgan .Bular quyidagilar: Shoshmaqom musiqasi (2008), Boysun tumanining etnik ahamiyatga ega bo’lgan hududi (2008), katta ashula (2009), askiyachilik san`ati (2014), palov tayyorlash san`ati va an`analari (2016), Navro’z milliy bayrami (2016) , lazgi raqs turi (2019), baxshichilik san’ati(2021), ipakchilik va to’quv uchun an'anaviy ipak ishlab chiqarish texnologiyasi (2022), Nasriddin Afandi latifalarini aytish an’analari (2022), naqqoshlik san’ati (2023), Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an’analari (2023) hamda O’zbekiston kulolchilik san’ati (2023).

Turizm maqsadlarida nufuzli tashkilot ro’yxatidan joy olgan madaniy meroslarimizni qo’llash bilan chegaralanib qolmay, biz o’z nomoddiy madaniy meroslarimiz ro’yxatini shakllantirishimiz kerak. Fikrimizcha, bu ro’yxatdan quyidagilar joy olishi mumkin: qo’l mehnati bilan sifatli qog`oz ishlab chiqarish san`ati (Samarqand); zardo’zchilik (Buxoro); tandir-go`sht taominining pishirilish texnikasi (Qashqadaryo); qo’lbola tandir tayyorlash yo`llari (O`zbekiston bo`ylab); Buxorcha raqs san`ati (Buxoro); Samarqand nonining pishirilish texnikasi (Samarqand); Kurash san`ati (O`zbekiston bo`ylab); Vodiycha do`ppi tikish san`ati(Farg`ona vodiysi); mashhur Chust pichoqlarining tayyorlanish texnikasi (Namangan); qo`lbola qo`g`irchoq yasash usullari (O`zbekiston bo`ylab); miniatura san`ati (O`zbekiston bo`ylab); Kelinsalom marosimi (O`zbekiston

bo`ylab) .Shuni alohida ta`kidlab o’tish kerakki, ushbu ro`yxatda nomi keltirilganlar nomodddiy madaniy boyliklarimizning faqatgina bir qismidir (1-ilova).

Biz ushbu nomoddiy madaniy merosimiz namunalarini bir nechta tematik guruhlarga bo`lib, ular aks etgan turistik turlar tayyorlashimiz mumkin. Turlarni tematik guruhlarga bo`lish ularning hudud bo`yicha taqsimlanishi orqali amalga oshiriladi (Farg`ona vodiysi bo`ylab tayyorlangan tur, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari bo`ylab tayyorlangan tur va boshqalar).

Bundan tashqari, O`zbekiston bo`ylab nomoddiy madaniy boyliklarimiz aks etgan turli xildagi festivallarni tashkillashtirishimiz mumkin .Vodiycha do`ppi tikish festivali ,G`ijduvoncha kabob festivali ,qo`lbola qo`g`irchoq yasash festivali va boshqa shu turdagi tematik festivallar bunga misol bo’la oladi. Festivallarning yuqori saviyada o`tkazilishi,shuningdek , keng ommani o`ziga jalb qila olishi – ularning turizm uchun ahamiyatini va manfaatini oshiradi. Shuni ta`kidlash lozimki,festivallarning xalqaro saviyaga ko`tarilish va jahon bo`ylab turistlarni o`ziga jalb qila olish imkoniyati homiylarga va albatta, tashkiliy qo`mitaga bog`liq jarayondir. Agarda biz xalqaro sahnalarda aynan bir nomoddiy madaniy merosimizning jahon hamjamiyatidagi tarixiy ahamiyatini asoslab bera olsak, bunday turdagi festivallarga bir nechta jahon tashkilotlari ham homiy bo`la oladi.

O`zbekistonning turistik potensialidan unumli foydalanish va uning xalqaro imiji mavqeini oshirish yo’lida yuqorida ta’kidlab o’tilgan takliflar samarali bo’la oladi. Bunday tashkiliy ishlar hududimizga nomoddiy madaniy meros turizmi ixlosmandlarini jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Turistlar oqimining oshishi esa o`z navbatida, iqtisodiyot uchun ulkan ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. *Aleksandra Djukic*. *Dina Stober*. Placemaking and Networking of Heritage for Sustainable Tourism. December 2023.DOI:*10.1163/9789004542389_004*

2. *Nadia Ahmed*. Tourism Impact on the Cultural Heritage of Countries in the Middle East. January 2024.Journal of Applied Geographical Studies 3(1):41-53. DOI:*10.47941/jags.1623*

3. *José Antonio Folgado-Fernández*. *Nuria Huete-Alcocer*. Information sources and tourism heritage: a sustainable economy perspective. January 2024.Journal of Cultural Heritage Management and Sustainable Development. DOI:*10.1108/JCHMSD-05-2023-0062*

4. *Shuhan Yang*. Research on the Coordination between Cultural Heritage Protection and Sustainable Tourism Development. March 2024.DOI:*10.1051/shsconf/202418703010*

5. *Rumpapak L.* Enhancing innovation in cultural heritage tourism: navigating external factors. January 2024.*Cogent Social Sciences* 10(1).DOI:*10.1080/23311886.2024.2301813*

Sayfullayeva Madina Sirojiddinovna
Buxoro davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi doktoranti

SUSTAINABLE AGRITOURISM SERVICES: ENHANCED QUALITY CONTROL IN UZBEKISTAN

Abstract. In recent years, Uzbekistan has gained recognition as a unique agritourism destination, attracting visitors from around the world with its traditional farming practices, rich cultural heritage, and serene natural landscapes. To ensure the delivery of high-quality agritourism services, a heightened focus on quality control is imperative. This article explores the essential components of sustainable agritourism services and the significance of enhanced quality control in Uzbekistan's evolving agritourism sector with the experience of European countries.

Key words: *agritourism, quality labelling, sustainability criteria.*

In recent years, agritourism has emerged as a popular and sustainable form of tourism that connects visitors with rural agricultural areas. This unique travel experience allows tourists to engage in farm activities, learn about sustainable food production, and immerse themselves in the natural beauty of rural landscapes. As the demand for agritourism continues to grow, it is essential for service providers to prioritize enhanced quality control measures to ensure a memorable and sustainable experience for visitors [1]. In 2023, the global agritourism market was valued at US$65.6 billion. The market is expected to grow at a rate of 11.45% between 2024 and 2032, reaching a valuation of US$ 176.6 billion, according to predictions made by IMARC Group.

One of the key factors in delivering high-quality agritourism services is maintaining a strong focus on sustainability. Sustainable agritourism practices encompass a wide range of environmentally friendly and socially responsible approaches that minimize the impact on the natural environment and support local communities [2]. Through the implementation of sustainable farming methods, resource conservation, and eco-friendly accommodation options, agritourism service providers can contribute to the preservation of the environment while offering an authentic and enriching experience for visitors [3].

In addition to environmental sustainability, ensuring the quality and authenticity of the agritourism experience is vital. Visitors are drawn to agritourism to gain an insight into agricultural practices, connect with local farmers, and savor fresh, locally produced food. Therefore, it is essential for agritourism services to maintain transparent and genuine interactions between visitors and the agricultural community [4]. By offering educational farm tours, hands-on agricultural activities, and opportunities to participate in traditional harvesting or food preparation, agritourism service providers can offer an authentic and immersive experience that fosters a deep appreciation for the agricultural way of life [5].


Enhanced quality control in agritourism also involves creating a safe and enjoyable environment for visitors. Implementing strict quality and safety standards for accommodations, facilities, and activities is crucial in ensuring the well-being of guests. Whether visitors are staying on a working farm, participating in outdoor activities, or dining on farm-fresh meals, maintaining high standards of cleanliness, safety, and comfort is paramount [6].

Moreover, effective customer service and clear communication are essential components of quality control in agritourism. Service providers should prioritize providing accurate and detailed information about their offerings, including the types of experiences available, accommodation options, and expectations for visitor participation. Clear communication helps to manage visitor expectations

and ensures that guests have a comprehensive understanding of the agritourism experience they will enjoy [7].

Uzbekistan's rural regions offer a captivating blend of age-old farming traditions, warm hospitality, and picturesque countryside, making it an ideal setting for agritourism experiences. As interest in agritourism continues to grow, it is critical for service providers to implement stringent quality control measures to uphold authenticity, sustainability, and visitor satisfaction.

Opportunities and challenges associated with agritourism in Uzbekistan: Following independence, the country started focusing on other industries in addition to agriculture, and tourism emerged as a popular trend among them [8]. Nearly all of these travellers came to Uzbekistan on vacation [9].



Given the enormous potential of the country in this sector as a competitive destination, the Uzbek government, along with all other economic sectors, has worked to create an environment that is particularly friendly and supportive to the tourism industry's long-term growth [10]. In recent years, agritourism in rural regions has also drawn more attention from the government. For example, the Ministry of Agriculture and the Ministry of Tourism and Sports of Uzbekistan have been collaborating closely to develop agritourism projects. As a result, over the preceding five years, Uzbekistan has seen a notable rise in the number of

foreign visitors. Around 6.6 million foreign visitors visited Uzbekistan in 2023, according to data from the World Bank.

Supporting the growth of vertically integrated clusters—of which 633 were registered as of 2022—and cooperative systems that provide a full production chain "from the field to consumer" in order to boost productivity is one of the main objectives of ongoing agricultural reforms. Figure 1 illustrates how the quantity of agricultural goods and services has increased over time in all areas. To facilitate this expansion, the government is developing many incentives. Grants and loans totaling $600 million will be directed at digital agriculture, improving land fertility, and implementing modern agricultural technologies.

In conclusion, sustainable agritourism services with enhanced quality control are instrumental in offering memorable and meaningful experiences for visitors in Uzbekistan. By upholding sustainable practices, providing authentic agricultural experiences, prioritizing safety and comfort, and maintaining clear communication with guests, agritourism service providers contribute to the promotion and preservation of rural landscapes while providing visitors with a truly enriching and sustainable travel experience.

LITERATURE REVIEW

1. *Peri G., Rizzo G., and Traverso M. (*2010). Is There a Need for More Effective Quality Awards for Agritourisms? World Applied Sciences Journal 10 (Special Issue of Tourism & Hospitality): 153-163, ISSN 1818-4952, IDOSI Publications

2. Ammirato, S., Felicetti, A. M., Raso, C., Pansera, B. A., & Violi, A. (2020). Agritourism and sustainability: What we can learn from a systematic literature review. *Sustainability*, *12*(22), 9575.

3. Barbieri, C. (2013). Assessing the sustainability of agritourism in the US: A comparison between agritourism and other farm entrepreneurial ventures. *Journal of Sustainable Tourism*, *21*(2), 252-270.

4. Pratt, S., Suntikul, W., & Dorji, U. (2018). Economic sustainability? Examining the linkages and leakages between agriculture and hotels in B hutan. *International Journal of Tourism Research*, *20*(5), 626-636.

5. Bhatta, K., Itagaki, K., & Ohe, Y. (2019). Determinant factors of farmers' willingness to start agritourism in rural Nepal. *Open Agriculture*, *4*(1), 431-445.

6. Choi, H. C., & Sirakaya, E. (2006). Sustainability indicators for managing community tourism. *Tourism management*, *27*(6), 1274-1289.

7. De Rosa, M., McElwee, G., & Smith, R. (2019). Farm diversification strategies in response to rural policy: a case from rural Italy. *Land use policy*, *81*, 291-301.

8. Ibragimov, N., & Khamidov, O. (2023). Stages of formation of theoretical knowledge on the competitiveness of tourist destinations. E3S Web Conf. 431, 07048. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202343107048

9. Sayfullayeva, M. S. (2022). Directions for the Practice of Sustainable Tourism for Ecotourism Destinations in Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, *5*(12), 98-109.

10. Rakhmanov, A., & Ibragimov, N. (2019). The path: From agricultural country to popular travel destination. In *Community-Based Tourism in the Developing World* (pp. 141-151). Routledge.

Tilavoldiyev Asrorjon Ulug‘bek o‘g‘li
O‘zMU Tarix fakulteti Jahon tarixi kafedrasi doktoranti

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA KOREYA RESPUBLIKASI TAJRIBASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Koreya Respublikasining yillar davomida turizm siyosatini rivojlanib borish sabablar va omillari haqida so‘z yuritiladi. Bu strategiyalarni amalga oshirish va mamlakatning ma’daniy-tarixiy tomonlariga e’tibor qaratish orqali o‘zining eng yaxshi sayyohlik yo‘nalishi sifatidagi mavqeyini yanada yaxshilashi va butun dunyodan tobora ko‘proq tashrif buyuruvchilarni jalb qilinishiga erishdi. Shuningdek, mamlakat aholisining aksariyat qismi chet davlatlariga sayohatlardan ko‘ra ichki turizmni afzal ko‘rishining sabablari ham ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: infratuzilma, hanok, hanji, hallyu, atribut, destinatsiya, rekreatsion o‘rmon.

Аннотация. В данной статье говорится о причинах и факторах развития туристической политики Республики Корея на протяжении многих лет. Реализуя эти стратегии и сосредоточив внимание на культурных и исторических аспектах страны, она смогла еще больше улучшить свои позиции в качестве ведущего туристического направления и привлечь все больше и больше посетителей со всего мира.

Также были рассмотрены причины, по которым большая часть населения страны предпочитает внутренний туризм поездкам в зарубежные страны.

Ключевые слова: инфраструктура, ханок, ханджи, халлю, атрибут, предназначение, рекреационный лес.

Annotation. This article talks about the reasons and factors for the development of the tourism policy of the Republic of Korea over the years. By implementing these strategies and focusing on the cultural and historical aspects of the country, it has been able to further improve its position as a top tourist destination and attract more and more visitors from all over the world.

Also, the reasons why most of the the country's population prefers domestic tourism to trips to foreign countries were also considered.

Key words: infrastructure, hanok, hanji, hallyu, attribute, destination, recreational forest.

Koreya Respublikasi so‘nggi bir necha o‘n yillikda turizm sohasida sezilarli o‘sish va rivojlanishga erishdi. Janubiy Koreya (Keyingi o‘rinlarda: Koreya Respublikasi – Janubiy Koreya)da turizmni rivojlantirish mamlakatning noyob madaniy merosi, tabiiy go‘zalligi, zamonaviy infratuzilmasi va turli diqqatga sazovor joylariga e’tibor qaratilgan ko‘p qirrali yondashuvni o‘z ichiga oladi.

Ushbu rivojlanishga hissa qo‘shadigan ba’zi asosiy tajribalar va omillar quyidagilardir:

1. *Hukumat tomonidan turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash siyosati:* Janubiy Koreya hukumati turli siyosatlar, tashabbuslar va investitsiyalar orqali turizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Bunga infratuzilmani rivojlantirish, marketing kompaniyalari, madaniy tadbirlar va festivallarni qo‘llab-quvvatlash kiradi.

Shunday siyosiy tashabbuslardan biri Koreya Respublikasi Bosh vaziri Lee Nak-yon raisligida 2017-yil dekabr oyida turizm bo‘yicha milliy strategiya yig‘ilishi tashkil etildi. Yig‘ilishda nafaqat turizm vaziri, balki tegishli vazirlar, jumladan, tashqi ishlar, transport, huquq va adliya va dengizchilik masalalari bo‘yicha vazirlar ham ishtirok etdi. 2019-yil aprel oyida bo‘lib o‘tgan uchinchi yig‘ilishda mintaqaviy iqtisodiyotni rag‘batlantirish maqsadida xalqaro sayyohlarni ko‘proq jalb qilish va ichki sayohatlarni ko‘paytirish yo‘llari muhokama qilindi[1].

2. *Madaniy-tarixiy meroslarga murojaat:* Janubiy Koreyaning boy madaniy merosi, jumladan, an’anaviy san’ati, oshxonasi, musiqasi va tarixiy joylari butun dunyodan sayyohlarni o‘ziga tortadi.

Janubiy Koreya ko‘plab sayyohlik joylariga ega. Tashrif buyuruvchilar tarixiy-madaniy meros va zamonaviy madaniyat o‘rtasidagi o‘ziga xos uyg‘unlikni his qilishlari mumkin. Koreya Respublikasidagi mashhur sayyohlik joylari orasida zamonaviy qadriyatlar ko‘pincha tarixiy madaniy merosga aks ettiriladi yoki aksincha, zamonaviy joylarga an’anaviy-tarixiy elementlar qo‘shiladi.

Ular nafaqat koreyslar uchun qimmatli madaniy meros va jonli yashash joylari, balki chet elliklarning Koreyaga tashrif buyurishlari uchun boshlang‘ich nuqta sifatida ham xizmat qiladi.

Shunday maskanlardan biri bu – har xil turdagi “*hanok* (tarixiy-an’anaviy koreys uylari)” qishloqlaridir. So‘nggi paytlarda hanok qishlog‘i tashrif buyuruvchilar uchun zamonaviy hanok arxitekturasidan tashqari an’anaviy koreys yog‘och uylaridan tashkil topgan eski qishloqni ko‘rish uchun yangi sayyohlik maskani sifatida mashhur bo‘lib bormoqda.

Seul shahrining ko‘p qavatli binolar bilan gavjum markazida joylashgan Bukchon Hanok qishlog‘i va Namsangol Hanok qishlog‘i tashrif buyuruvchilarga o‘tmish va hozirgi zamonning uyg‘unligini his qilish imkonini beradi. Janubiy Koreyaning eng yirik hanok tumani bo‘lgan Chonju Hanok qishlog‘i zamonaviylashtirilgan hanok arxitekturasi bilan birgalikda 625 ga yaqin an’anaviy plitkali tomli uylardan iborat. Bu qishloq nafaqat diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish uchun madaniy mahsulot bo‘lgani uchun, balki sayyohlar uchun choy marosimi va “*hanji* (an’anaviy qo‘lbola qog’oz tayyorlash madaniyati nomi)” tayyorlash dasturi kabi an’anaviy tajribalarni boshdan kechirish joyi bo'lgani uchun ham ishqibozlar uchun eng mashhur joylardan biri hisoblanadi[2].

3. *Koreya to‘lqini (Hallyu):* Hallyu to‘lqini deb nomlanuvchi Koreya pop madaniyatining jahon miqyosida mashhurligi turizmni sezilarli darajada oshirdi. K-pop musiqasi, koreys dramalari, filmlari, modasi va oshxonasi Janubiy Koreyaga tashrif buyurishga bo‘lgan qiziqishning oshishiga hissa qo‘shdi.

1990-yillarning o‘rtalaridan 2000-yillarning o‘rtalarigacha Janubiy Koreya teledramalari va mashhur musiqalari Xitoy va Yaponiya kabi Osiyo mamlakatlarida katta shuhrat qozondi. 1997-yilda Xitoyning yirik davlat teleradiokompaniyasi China Central Television (CCTV) tomonidan “Muhabbat nima” deb nomlangan teledastur namoyish etilganida, u Xitoyning barcha zamonlarda import qilingan video kontentida ikkinchi o‘rinni egalladi. Keyin birinchi marta Hallyu yoki “Koreys to‘lqini” atamasi paydo bo‘ldi, bu koreys madaniyati uchun global ehtirosni anglatadi.

Koreya to‘lqini Yaponiyaga 2003-yilda KBS telekanalining “Qish sonatasi” seriali NHK orqali efirga uzatilganda kirib keldi. Drama megahitga aylandi va dramani suratga olish joyi bo‘lgan Chunchxondagi Nami oroli yaponiyalik sayyohlar uchun tashrif buyurishi shart bo‘lgan joyga aylandi[3].

4. *Texnologik yutuqlar:* Janubiy Koreyaning texnologiya va innovatsiyalar sohasida yetakchi sifatidagi obro‘si ham sayyohlarni uning yuqori tezlikdagi internet, ko‘pgina futuristik shaharlari va ko‘ngilochar texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari kabi ilg‘or yutuqlarini ko‘rishga qiziqadi. Seul, Pusan va Jeju Janubiy Koreyada aqlli turizm shaharlari sifatida tanilgan. Ular sayyohlarning qoniqishini oshirish uchun aqlli turizm texnologiyasi atributlari va destinatsiya xizmatlaridan foydalanadilar[Taehyee Um, Namho Chung, 1].

5. *Tabiat va ochiq havodagi tadbirlar:* Janubiy Koreyaning turli landshaftlari, jumladan, tog‘lar, plyajlar va milliy bog‘lar piyoda yurish, chang‘i sporti va suv sporti kabi ochiq havoda sayr qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Jeju oroli kabi joylar tabiiy go‘zalligi bilan ayniqsa mashhur.

Mamlakat bo‘ylab jami 22 ta milliy bog‘lar koreyslar tomonidan dam olish joylari sifatida belgilangan, jumladan Naejangsan milliy bog‘i, Odaesan milliy bog‘i, Jirisan milliy bog‘i, Hallasan milliy bog‘i va boshqalar[4].

Bundan tashqari, dam olish o‘rmonlari ham odam tana tizimi va ruhiy ong sistemasi uchun toza tabiatda davolanishiga optimallashtirilgan joylardir. Mamlakat bo‘ylab 170 ta rekreatsion o‘rmonlar mavjud. Ular yozgi dam oluvchilar

orasida mashhurdir. Shuningdek, o‘rmon bog‘lari, yurish yo‘llari va yo‘laklari, avtolagerlar va akvaparklar kabi obyektlar bilan yaxshi jihozlangan.

Gyeonggi-do, Gapyeong shahrida joylashgan Yumyeongsan dam olish o‘rmoni Janubiy Koreyadagi birinchi rekreatsion o‘rmon bo‘lib, 30 yil davomida odamlarning jismoniy yoki ruhiy tiklanishiga hissa qo‘shgan[5].

6. *Tibbiy turizm:* Janubiy Koreya yuqori sifatli sog‘liqni saqlash xizmatlari, ilg‘or tibbiy muassasalar va raqobatbardosh narxlarda kosmetik muolajalarni taklif qiluvchi tibbiy turizm markazi sifatida paydo bo‘ldi.

K-go‘zalligiga(K-beauty), shuningdek, Koreya to‘lqiniga bo‘lgan qiziqish ortib borayotgani singari bu zonaga plastik jarrohlik va kosmetik muolajalar uchun tashrif buyuradigan tibbiy sayyohlar sonining ko‘payishiga yordam berdi.

Seuldagi Gangnam tibbiy turizmning markazi bo‘lib, bu yer eng yaxshi tibbiy xizmatlarni taqdim etadi, xususan, umumiy kasalxonalar, tibbiy markazlar, klinikalar va boshqalar kabi tibbiy muassasalarni teng taqsimlashni o‘z ichiga oladi. Ularning barchasi kosmetik jarrohlik va dermatologiya kabi keng ko‘lamli sohalar bilan shug‘ullanadi[6].

7. *Oshxona va pazandachilik turizmi:* O‘zining jo‘shqin ta’mi va foydali ingredientlari(tarkiblari) bilan mashhur bo‘lgan koreys oshxonasi butun dunyo bo‘ylab mashhurlikka erishdi, bu esa pazandalik turizmiga qiziqishning ortishiga olib keldi. Mehmonlar ko‘pincha kimchi, bulgogi, bibimbap va koreys barbekyu kabi an’anaviy koreys taomlarini izlaydilar.

Koreys taomlari yoki hansik, asosiy taom va garnitura o‘rtasidagi aniq farq, turli retseptlar, hayvon va o‘simlik mahsulotlarining muvozanatli aralashmasi va uzoq vaqt davomida juda ehtiyotkorlik bilan yaratilgan tozalangan fermentlangan ovqatlar bilan tavsiflanadi.

Koreys xalqi, shuningdek, oziq-ovqat va dori-darmonlarning kelib chiqishi bir xil ekanligiga ishonishadi va "ovqat eng yaxshi doridir" degan iboraga amal qilishadi.

“K-Food” o‘zining ajoyib ta’mi va sog‘liq uchun foydasi bilan dunyoni hayratda qoldirdi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (World Health Agency)

hansikni ozuqaviy muvozanatga ega ajoyib pazandachilik modeli sifatida ta’rifladi, ko‘plab tadqiqotchilar hansik semirish va saraton kasalligining oldini olishini ta’kidladilar[7].

8. *Infratuzilmani rivojlantirish:* Transport infratuzilmasiga, jumladan aeroportlar, tezyurar poyezdlar va jamoat transporti tizimlariga investitsiyalar Janubiy Koreya bo‘ylab sayohatni sayyohlar uchun qulay tashkil etilgan.

Janubiy Koreyaning metrolari, poyezdlari va avtobuslari toza, qulay va samarali. Temir yo‘l va shaharlararo avtobus tarmoqlari mamlakatning har bir burchagiga olib boradi[8]. Suv transporti – parom orqali orollarga borish uchun foydalanish mumkin. Bu qiziqarli, byudjetga zarar keltirmaydigan va hayotda bir marta bo‘ladigan tajribadir.

9. *Tadbirlar va festivallar:* Janubiy Koreya yil davomida o‘zining an’analari, san’ati va o‘yin-kulgilarini namoyish qiluvchi ko‘plab madaniy tadbirlar va festivallarga mezbonlik qiladi. “Boryeong” loy festivali, “Jinju” chiroqlari festivali va turli musiqa va kino festivallari kabi tadbirlar mahalliy va xalqaro sayyohlarni jalb qiladi. Shuningdek, turli millatlarning urf-odatlarini aks ettiruvchi festivallar va turli din vakillarining diniy bayramlari ham nishonlanadi.

10. *Xavfsizlik va mehmondo‘stlik tamoyili:* Koreya respublikasi juda xavfsiz davlat. Mamlakat 2024-yilgi xavfsizlik indeksi bo‘yicha dunyoda 16-o‘rinni Osiyoda 11-o‘rinni egalladi[9]. CNN telekanali shuningdek, Seulni 2019-yil uchun eng xavfsiz shaharlar qatoriga kiritdi[10].

Umuman olganda, Janubiy Koreyaning turizm rivojlanishiga madaniy joziba, davlat yordami, texnologik taraqqiyot va turli diqqatga sazovor joylarning kombinatsiyasi sabab bo‘ldi, bu esa uni nafaqat Osiyoda balki butun dunyoda jonli va mashhur sayyohlik maskaniga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Taehyee Um, Namho Chung. “Does smart tourism technology matter? Lessons from three smart tourism cities in South Korea”. Asia Pacific journal of tourism research. Volume 26, 2021 - Issue 4: Smart Tourism Cities. P.396. // URL: https://doi.org/10.1080/10941665.2019.1595691

INTERNET NASHRLARI VA SAYTLARI.

1. “Tourism governance and funding”. OECD tourism trends and policies 2020. OECDiLibrary. // URL: https://www.oecd-ilibrary.org/sites/6e8b663c-en/index.html?itemId=/content/component/6e8b663c-en#section-d1e60591 (data access: 23.03.2024)

2. “Harmony between tradition and modernity”. Korea Information – Tourism. Korean Cultural Center New York. // URL: https://www.koreanculture.org/korea-information-tourism (data access: 25.03.2024)

3. “Hallyu (Korean Wave) Culture and the Arts”. About Korea. Korea.net. Ministry of Culture, Sports and Tourism. //URL: https://www.korea.net/AboutKorea/Culture-and-the-Arts/Hallyu (data access: 24.03.2024)

4. “Nature and Its Healing Power” Korea Information – Tourism. Korean Cultural Center New York. // URL: https://www.koreanculture.org/korea-information-tourism (data access: 24.03.2024)

5. “Nature and Its Healing Power: National parks, recreational parks”. Korea.net. Ministry of Culture, Sports and Tourism. //URL: https://www.korea.net/AboutKorea/Tourism/Recreation-Nature (data access: 22.03.2024)

6. “Medical Tourism”. Korea Information – Tourism. Korean Cultural Center New York. // URL: https://www.koreanculture.org/korea-information-tourism (data access: 25.03.2024)

7. “Food. Korean life.” About Korea. Korea.net. Ministry of Culture, Sports and Tourism. //URL: https://www.korea.net/AboutKorea/Korean-Life/Food (data access: 24.03.2024)

8. Charles Usher. “16 things to know before heading to South Korea”. Lonelyplanet.com. 18.02.2024. // URL: https://www.lonelyplanet.com/articles/things-to-know-before-traveling-to-south-korea (data access: 24.03.2024)

9. “Safety Index by Country 2024”. Numbeo.com. // URL: https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp?title=2024&region=142&displayColumn=1 (data access: 25.03.2024)

10. Chloe M. “Tourism In South Korea Statistics 2023: All You Need to Know”. Go With Guide.com. 12.03.2024. // URL: https://gowithguide.com/blog/tourism-in-south-korea-statistics-2023-all-you-need-to-know-5254 (data access: 20.03.2024)

Turdimuratov Y.A.
O‘zDJTSU, Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi t.f.b.
falsafa doktori (PhD), dotsenti

O‘ZBEKISTONDA TURKIY DAVLATLAR BILAN TURIZM SOHASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda Turkiy davlatlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik aloqalari, mazkur doirada qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ular asosida respublikada tashkil etilayotgan turli yirik tadbirlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *turizm, ziyorat turizmi, loyiha, konsepsiya, etnosport, xalq o‘yinlari, festival, hunarmanchilik, san’at.*

Turizm sohasi dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko‘plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. Turizmning o’sishi birinchi navbatda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanganligi, mamlakatlar, mintaqalar o’rtasida iqtisodiy aloqalar hamda sport faoliyati rivoji, xalqlarning muloqotga intilishi va boshqa mamlakatlar tajribalaridan foydalanishda aks etadi. Turizmni rivojlantirish ta’lim darajasining oshishi, xalqaro standartlar va turistlarning didlariga mos keluvchi xizmatlar madaniyatining oshishiga olib keladi. Mashhur “Nevidimoy eksport” kitobi muallifi M.M. Ananev turizmni “XX asr fenomeni” deb atagan edi.

O‘zbekistonning ziyorat turizm yo‘nalishidagi ulkan salohiyatidan kelib chiqib, bugungi kunda barcha turkiy xalqlarning din va fan namoyondalari, shoirlar, davlat arboblari va boshqa buyuk shaxslarining beqiyos ilmiy va madaniy-ma’rifiy merosini yanada kengroq targ‘ibot etish maqsadida “Tabarruk ziyorat” loyihasi ilgari surilmoqda. “Tabarruk ziyorat” loyihasi doirasida, jumladan, tashkilotga a’zo va kuzatuvchi davlatlar o‘rtasida turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish nazarda tutilgan [6].

Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlik doirasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan “Tabarruk ziyorat” turizm konsepsiyasi bo‘yicha tashabbusni yuqori saviyada tashkil etish, turizm sohasidagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish, shuningdek, Qo‘qon shahri 2022-yili “Turkiy dunyoning turizm poytaxti” deb e’lon qilingani munosabati bilan shaharning madaniy va turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistlar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini takomillashtirish hamda jozibadorligini oshirish maqsadida 2022-yil 29-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror bilan Turkiy dunyo doirasida “Tabarruk ziyorat” turizm konsepsiyasi tasdiqlandi [1].

U quyidagilarni nazarda tutadi: 1) Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar bilan turizm sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash; 2) ziyorat

va madaniy meros ob’yektlariga turlarni tashkil qilish va yangi sayohat marshrutlarini ishlab chiqish; 3) ziyorat va madaniy-tarixiy turizm doirasida muntazam targ‘ibot tadbirlarini tashkil etib borish; 4) Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon, Qo‘qon, Termiz va boshqa tarixiy shaharlarda buyuk allomalarning ilmiy va madaniy merosi to‘g‘risida seminar, simpozium, konferensiya, ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish hamda ilmiy-ommabop nashrlarda materiallar e’lon qilish orqali sayyohlarni jalb etish; 5) Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar bilan hamkorlikda ilmiy-tahliliy materiallar, badiiy, teatr va kino asarlari, videoroliklar, kitoblar, tarqatma materiallar va boshqa ko‘rinishdagi targ‘ibot materiallarini tayyorlash; 6) Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida o‘zaro hamkorlik orqali “Tabarruk ziyorat” brendini yaratish va targ‘ib qilish. Mazkur Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar doirasida ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Konsepsiya amalga oshirilishi natijasida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlardan 2022-2026-yillar davomida mamlakatimizga 5 milliondan ortiq sayyoh jalb etilib, 1,3 milliard AQSh dollariga yaqin turizm xizmatlari eksport qilishga erishiladi. Jumladan: hadisshunos olimlarimiz Imom al-Buxoriy, Muxammad ad-Dorimiy va Abu Iso at-Termiziy merosiga qiziquvchi 101 ming ziyoratchi; Abu Mansur al-Moturidiy merosiga qiziquvchi 26,2 ming ziyoratchi; Naqshbandiya tariqati izdoshlari bo‘lgan 43,3 ming ziyoratchi; Pahlavon Mahmud merosi va pahlavoniya tariqati izdoshlari bo‘lgan 3 ming ziyoratchi; yahudiylar dini merosiga talabgor 39,8 ming ziyoratchilar jalb etish kutilmoqda [1].

Bugungi kunda turizm dunyosi haqiqatan ham xilma-xil va erkin bo‘lib, ayniqsa sport turizmi juda qiziqarli va sayohat qilish uchun ajoyib turtki bo‘lishi mumkin bo‘lgan turizm turi hisoblanadi. Sport turizmi turli xil bo‘lishi mumkin. So‘ngi yillarda mamlakatimizda ot sporti turlarini yanada rivojlantirish, yangi avlod chavandozlarini tayyorlash va tarbiyalash, yoshlar o‘rtasida ot sportini faol targ‘ib qilish va ommalashtirish ishlariga har qachongidanda alohida e’tibor qaratilmoqda [3, 128]. 2022-yil sentyabrda Quvasoy shahrida o‘tkazilgan

“Chavandozlik va ov turizmi” festivaliga qo‘shni Qirg‘iziston davlatining mahoratli chavandozlari ham tashrif buyurdi hamda ular tomonidan chavandozlik mahorat darslari namoyish etildi. Shuningdek festivalga, Rossiya va Turkiya davlatidan xorijiy sayyohlar ham tashrif buyurishdi [8].

2022-yil 11-oktyabr kuni Qo‘qon shahrida, Xudoyorxon saroyida “Qo‘qon etnosport chellenj – 2022” festivali bo‘lib o‘tdi. Mazkur festivalda O‘zbekistonning barcha viloyatlari qatorida Qirg‘izistondan ham vakillar ishtirok etdi. Ma’lumki, mamlakatimizda xalq o‘yinlari va milliy sirk san’atini jahon miqyosida rivojlantirish va keng targ‘ib etish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Ot chopish, nayza uloqtirish, kamondan otish, qoyaga ko‘tarilish kabi xalq milliy o‘yinlariga alohida e’tibor qaratilgan [4, 141]. Mazkur tadbir doirasidagi etnosport va xalq milliy o‘yinlarining ko‘rgazmali chiqishlari tufayli tadbirga tashrif buyurgan mahalliy aholi va sayyohlar uzoq tarixga ega bo‘lgan etnosport o‘yinlari bilan yaqindan tanishish va ularni eslab qolish imkoniyatiga ega bo‘lishdi [5].

Ta’kidlash joizki, etnosport – an’anaviy o‘yinlarning aslligini saqlab qolish va ularni zamon talablariga moslashtirish imkonini beradigan, turizm va sport rivojiga xizmat qiluvchi sport tadbiri turi bo‘lib, mamlakatning boy merosini asrab-avaylashni maqsad qilgan [2, 133]. Ayni paytda mazkur sport turi aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda muhim o‘rin tutadi. Etnosport, shuningdek, Qo‘qon shahriga mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirish kabi tinchliksevar sa’y-harakatlarni ruhlantirish orqali madaniy xilma-xillikni saqlash va qo‘llab-quvvatlash, jahon hamjamiyatida hamjihatlik va samimiy muloqotni rivojlantirish, xalqlar, mamlakatlar, madaniyatlar va shaxslar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda jamiyatlar o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-dekabr kuni qabul qilgan 126-sonli yig‘ilish bayonida an’anaviy “Turkiy xalqlar hunarmandchiligi” mavzusida forumlarni tashkil etish va o‘tkazish belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida Farg‘ona viloyati hokimiligi, O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi hamda O‘zbekiston

Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi ko‘magida 2023-yil 13-14-may kunlari Farg‘ona viloyatining Rishton tumanida An’anaviy “Turkiy xalqlar hunarmandchiligi” Forumi va uning doirasida “Kulollar sayli” milliy kulolchilik mahsulotlari ko‘rgazma-savdosi tashkil etildi. An’anaviy “Turkiy xalqlar hunarmandchiligi” Forumi Rossiya, Polsha, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Isroil va Turkiya kabi xorijiy mamlakatlardan soha mutaxassislari va olimlar ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Forum doirasida “Rishton kulolchiligi: Kecha, bugun, ertaga” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi [7]. Forumning maqsadi jahon iqtisodiyotida muhim tarmoq hisoblangan hunarmandchilikni keng targ‘ib qilish, uning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kulolchilik an’analari va maktablarini saqlash, sohadagi ilmiy izlanishlar ko‘lamini kengaytirish, o‘zaro tajriba almashish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtidorli hunarmandlarni rag‘batlantirishdan iboratdir.

2023-yil 29-31-may kunlari Marg‘ilon shahrida “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor musiqa festivali o‘tkazildi. Mazkur festivalga 500 nafardan ortiq ijodkorlar jalb etildi. Festival doirasida quyidagi tadbirlar o‘tkazildi: 1) “O‘rta asrlarda Marg‘ilon ipak matolarining xalqaro bozordagi ahamiyati” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya; 2) xorijiy va O‘zbekiston folklor jamoalarining konsertlari va badiiy kechalari; 3) folklor jamoalarining ijodiy uchrashuvlari va mahorat darslari; 4) folklor jamoalarining xalqaro ko‘rik-tanlovi; 5) sayillar [8]. Festivalni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad xorijiy davlatlar, xususan, qardosh xalqlar bilan O‘zbekiston o‘rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashdan iborat. “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor musiqa festivali Marg‘ilon shahrida 2018-yildan buyon o‘tkazib kelinmoqda.

2023-yil 11−15-iyul kunlari Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida birinchi “Turkiy tilli yoshlar xalqaro festivali” bo‘lib o‘tdi. Tadbir O‘zbekiston Madaniyat va turizm vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Farg‘ona viloyati hokimligi va Xalqaro turk madaniyati tashkiloti (TURKSOY) hamda Qo‘qon universiteti hamkorligida tashkil etildi. Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlik aloqalarni targ‘ib qilish, ushbu davlatlar yoshlari o‘rtasida

do‘stona aloqalarni o‘rnatish kabi maqsadlarda o‘tkazilgan festivalga Ozarbayjon, Turkiya, Qirg‘iziston va Qozog‘istondan yoshlar qatnashdi [9]. Festival doirasida 3 kun davomida kitobxonlik kuni, milliy va etnosport turlari bo‘yicha sport musobaqalari, madaniy-ko‘ngilochar tadbirlar, biznesni tashkil qilish, hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash bo‘yicha davra suhbatlari, yoshlar bilan taniqli teatr va kino ijodkorlarining ijodiy muloqotlari, elchixona konsullari bilan festival ishtirokchilarining uchrashuvlari tashkil etildi.

2023-yil 7-11-avgust kunlarida Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi “Lochin” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida “Yoshlar turizmi” xalqaro II qurultoyi o‘tkazildi. Qurultoyda Qashqadaryo bilan birodarlashgan viloyatlar va shaharlar qatorida Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmaniston kabi davlatlarning yoshlari ham ishtirok etdi. Qurultoy doirasida tanlov, musobaqa, taqdimot, uchrashuv, aksiya, loyiha hamda kitobxonlik kuni, milliy va etnosport turlari bo‘yicha sport musobaqalari, madaniy-ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etilgan. Xususan, hududlardan kelgan yoshlar tomonidan “Eng yaxshi turizm loyihasi” tanlovi o‘tkazildi. Yoshlar o‘z startaplarini mutaxassislar e’tiboriga havola etishdi. E’tiborga loyiq loyihalar qo‘llab-quvvatlanishi bildirildi [10].

2023-yil 21-23-sentyabr kunlari Qo‘qon shahrida II Xalqaro Hunarmandchilik festivali va unga uyg‘un holda Rishton tumanida birinchi marotaba “Xalqaro kulolchilik forumi” o‘tkazildi. II “Xalqaro hunarmandchilik festivali”ga iqtidorli hunarmandlar va iste’dodli yoshlarni jalb qilish maqsadida “Men Qo‘qonga boraman” shiori ostida ikki bosqichdan iborat ko‘rgazma va ko‘rik-tanlov tashkil etildi. “Hunarmand” uyushmasi tomonidan II “Xalqaro hunarmandchilik” festivali veb-saytini uch (o‘zbek, rus, ingliz) tillarida http://handicrafters.uz yaratildi. Veb-saytda festival, milliy hunarmandchilik, hunarmandlar, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan hunarmandchilik mahsulotlar haqidagi ma’lumotlar joylashtirildi. Rishton tumanida “Xalqaro kulolchilik forumi” doirasida ilmiy-amaliy konferensiya, ko‘rik-tanlov, taqdimot va namoyishlar, ko‘rgazma-savdolar, teatrlashgan konsert-tomosha dasturlari,

madaniy-ma’rifiy va targ‘ibot-tashviqot tadbirlari, O‘zbekistonning turli hududlariga xos bo‘lgan kulolchilik, maktablarining mashhur xalq amaliy san’ati ustalari tomonidan mahorat darslari ham tashkil etildi [11].

Festival va forumda dunyoning 70 ta davlatidan mohir hunarmand va kulollar, taniqli fan, madaniyat va san’at namoyandalari, nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashdi. Tadbirlar doirasida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY bilan hamkorlikda 6-Turk dunyosi moda haftaligi hamda 24-Turk dunyosi opera kunlari ham bo‘lib o‘tdi. An’anaga aylanib borayotgan bu kabi tadbirlar viloyatga xorijlik sayyohlarni jalb etishda muhim omil bo‘lmoqda.

Bugungi kunda turkiy xalqlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy sohalarda o‘zaro munosabatlar rivojlanib bormoqda. Endilikda Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar doirasida Konsepsiyani amalga oshirish orqali mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlar sonini oshirish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida tashkil etiladigan turli tadbirlar va loyihalar natijasida yosh avlod vakillarining o‘zaro madaniy yaqinlashuvi, milliy urf-odatlar va ajdodlarga hurmat kabi yuksak qadriyatlar shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari qatorida O‘zbekistonda ham sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatda xalqaro turizmni rivojlantirish, turistik salohiyatdan oqilona foydalanish mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishiga, valyuta tushumining o‘sishiga, eksport tarkibining takomillashuvi va diversifikatsiyalashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Turizmning tez rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini (naukoyomkiy) va quvvatni ko‘p sarf qiladigan (energoyomkiy) texnologiyani talab qilmaydi. Biroq turizm boshqa sohalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko‘pgina xizmat ko‘rsatuvchi va servisni tashkil etish sohalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq ravishda rivoj topmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 29.07.2022-yildagi PQ-338-son Qarori // www.lex.uz.
2. Turdimuratov Y. A. Etnosport–milliy sport turlari va xalq o ‘yinlarini rivojlantirishning muhim omili //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 132-139.
3. Турдимуратов Я. O ‘zbekistonda etnosportni ommalashtirish va rivojlantirishning asosiy yo ‘nalishlari //Актуальные проблемы спортивной науки. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 125-128.
4. Turdimuratov Y. A., Djo’rabayev A. M. STATE POLICY ON TRAINING SPECIALISTS IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN THE NEW UZBEKISTAN //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 141-146.
5. www.olympic.uz – O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi rasmiy veb-sayti.
6. www.olamsport.com – intertnet portali.
7. *https://handicraftman.uz/* – internet sayti.
8. *https://oz.sputniknews.uz/* – internet sayti.
9. *www.gazeta.uz* – internet sayti.
10. *www.xabar.uz* – internet sayti.
11. *www.xs.uz* – “Xalq so‘zi” gazetasi veb-sayti.

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
O‘zMU Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, PhD

HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY-MADANIY TURIZMNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqola hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda tarixiy-madaniy turizmning ahamiyati haqida bo‘lib, unda hududlarda tarixiy-madaniy turizm yo‘nalishini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, sohani isloh qilish yuzasida islohotlarning samarasi, yutuqlar va o‘z yechimini kutayotgan muammolar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy-madaniy turizm, hududlar iqtisodiyoti, tarixiy yodgorliklar, madaniy meros.

Bugungi kunda turizm ko‘plab mamlakatlarda jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy majmuaning bir sohasidir. Shu boisdan dunyoda turizmning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turizm rivojlanishining hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyati uning tashkiliy shakllarining o‘zgarishi va turizm biznesiga transport, savdo, sanoat va boshqa kompaniyalarning kirib kelishidir.

Turizm sanoati ichki va tashqi bozorlarda o‘z mavqeini sezilarli darajada mustahkamlay boshladi. Bu esa mamlakat va mintaqalarning rivojlanishiga ta'sir ortib borishiga xizmat qilmoqda. Turizm mahalliy infratuzilmani rivojlantirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish va xizmat ko‘rsatish sohalariga rag‘batlantiruvchi ta'sir ko‘rsatish imkonini beryapti. Binobarin, turizmning mamlakat (mintaqa) iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi lokomotivlardan biri ekanligi haqida ham yondashuvlar shakllanishiga turtki bo‘lmoqda. Bunda ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'sir turistlarning tovarlar va xizmatlarga sarflashi, soliqlar, yig‘imlar va turizm sanoati korxonalarining boshqa to‘lovlari orqali byudjetni to‘ldirilishni ta'minlash va shu bilan mamlakat (mintaqa) daromadlarini oshirish natijasidir.

Turistik daromadlar turistik sayohatlar, dam olish paketlari va turlar, turar joy, oziq-ovqat, transport va boshqalar kabi turistik xarajatlardan hosil bo‘lib, bu tashrif buyuruvchining sayohati va belgilangan joyda bo‘lishi davomida qilgan iste'mol xarajatlarining umumiy miqdori sifatida belgilanadi. Sayyohlar o‘z manzilida sarflagan pullari butun mamlakat uchun daromad keltiradi. Mablag‘larning birinchi aylanmasidan olingan va daromad shaklida olingan har bir rubl yana korxona hisobidan chiqadi. Shunday qilib, uchinchi shaxslar turistik korxona uchun etkazib beruvchi sifatida harakat qilsalar, birlamchi daromad natijasida yangi daromad paydo bo‘ladi. Va bu holda, daromad qo‘shimcha ravishda olinadi. Bu jarayon sayyohlarning takroriy xarajatlari ta'sirida namoyon bo‘ladi, bu esa bilvosita ta'sir sifatida mamlakat (mintaqa) iqtisodiyotiga ta'sir qiladi. Ushbu hodisa bitta turistdan olingan, uning turar joyida xizmatlar va tovarlarni sotib olishga sarflagan miqdoridan oshib ketadigan effekti bilan belgilanadi.

Butunjahon sayohat va turizm kengashining hisob-kitoblariga ko‘ra, T&T (“Travel & Tourism” – sayohat va turizm) sektorining to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita faoliyat kombinatsiyasi orqali global iqtisodiyotga qo‘shgan umumiy hissasi jahon yalpi ichki mahsulotining 9,5 foizigacha o‘sgan (7 trillion dollar). Global mehmondo‘stlik sanoati jahon iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga,

jumladan, ishlab chiqarish, chakana savdo, moliyaviy xizmatlar va aloqa sohalariga qaraganda ancha yaxshi natijalarga erishdi. Sayyohlik sanoati dunyoning har bir mintaqasida avtomobil sanoatidan ko‘ra to‘g‘ridan-to‘g‘ri yalpi ichki mahsulotga ko‘proq hissa qo‘shadi, Amerikada uch baravar va Yevropada ikki baravar ko‘p. T&T sektorining yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissasi dunyoning barcha mintaqalarida kimyo sanoati hissasidan kattaroqdir, u yerda u atigi 8% pastroqdir. 2013-yilda T&T sektori natijasida dunyo bo‘ylab 4,7 millionga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi, ya’ni bu soha hozirda 266 million ish o‘rinlarini ta’minlamoqda – bu sayyoradagi barcha ish o‘rinlarining 11 tadan 1 tasini tashkil etadi.

O‘zbekiston respublikasi boy tabiiy, iqlimiy va tarixiy salohiyatga ega, ulardan samarali foydalanish turizm xizmatlari segmentini sezilarli darajada kengaytirish davr talabi hisoblanadi. Ayniqsa mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish uchun yetarli salohiyatga bo‘lib, iqtisodiy jihatdan hali rivojlanmagan hududlarning rivojlanishiga yangi sur’at berishi mumkin.

Tarixiy-madaniy turizm - bu madaniy va tarixiy omillarning kombinatsiyasi bilan belgilanadigan turistik diqqatga sazovor joy. Umuman olganda, tarixiy va madaniy turizm turistlarni jalb qilishning barcha omillari ichida eng faol qismidir. Zamonaviy talqinda madaniy landshaft madaniy va tabiiy meros ob'ekti sifatida universallik, haqiqiylik va yaxlitlik xususiyatlariga ega. Turizm industriyasining rivojlanishida juda muhim rol o‘ynaydigan boshqa omillar qatorida tarixiy-madaniy turizm ham mavjud. Misol uchun, Italiyada 1991 yilda O‘rta yer dengizi havzasiga barcha turistik tashriflarning 36% ga to‘g‘ri kelgan. Italiyaning asosiy turistik resurslari - tog‘lar, ko‘llar va madaniy va tarixiy qadriyatlar - birinchi navbatda mahalliy sayyohlarni emas, balki chet elliklarni jalb qiladi. Xorijiy mehmonlarning 45 foizi uning madaniy va tarixiy qadriyatlarini, 43 foizi iqlimini, 27 foizi tabiatini va 30 foizga yaqini esa mamlakatga kelishning asosiy sabablaridan biri sifatida qayd etilgan.

Tarixiy-madaniy turizm kishilarga har bir mamlakatning tarixini uning o‘tmishdagi voqea-hodisalarini, xalqning urf-odatlarini, turmush tarzini

tanishtiradi. Shu orqali ular mamlakatlarning milliy qaxramonlari jasoratini, olimu-ulamolarining ma’naviy merosini o‘rgani-shadi. Har bir mamlakat fuqurolari o‘zining va boshqa mamlakatlarning o‘tmishidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga, tashqi kuchlarining ta’siri ostida aholining turmush tarzi qanday o‘zgarganiga, rivojlanish bosqichlariga va boshqalarni bilishga qiziqadi. Kishilardagi ushbu xohish mamlakatlarda tarixiy-madaniy turizmni jadal sur’atlar bilan rivojlantirishga undaydi.

Tarixiy-madaniy turizm mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. U tabiiy resurslardan deyarli foydalanmaydi. Aksincha, tarixni eslatuvchi voqea-hodisalarlar, qadimgi topilmalar, yodgorliklar, qo‘l yozmalar kabi ma’naviy meroslardan ko‘p foydalaniladi. Tarixiy-madaniy turizmning ushbu jihati, yurtimiz hududida qadimgi davrlardan boshlab to hozirgacha taraqqiy etgan shaharlar, qishloqlar madaniyatlarning boy o‘tmishini arxeologik jihatdan tadqiq etish va tarixiy jarayonlarni holis tiklash bo‘yicha muayyan ishlarni amalga oshirish vazifasini qo‘yadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yuz berayotgan jadal islohotlar arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish, yirik arxeologik yodgorliklarda keng ko‘lamli tadqiqotlarni olib borish, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizni xalqimizga va jahon hamjamiyatiga targ‘ib qilishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishga va ulardan mamlakat ravnaqi yo‘lida unumli foydalanishga e’tibor berilyapti.

Shuningdek, tarixiy-madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini rivojlantirish, bunday obektlarni qayta tiklash va ularning imkon qadar asl holida saqlanishini ta’minlash borasidagi keng ko‘lamli say-harakatlar o‘z natijasini beryapti. Masalan, Respublikamizda bugungi kunda 4 ming 308 ta arxeologik, 2 ming 79 ta me’morchilik, 694 ta san’at asari, 395 ta diqqatga sazovor joy, jami 7 ming 476 ta moddiy-madaniy meros obekti davlat himoyasiga olingan.

Hududlar mioslida ko‘rib chiqilsa sayyohlar tashrif buyuradigan asosiy obektlar tarixiy madaniy turistik yodgorliklar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Masalan,

Samarqandga tashrif buyuruvchi mahaliy va horijiy sayyohlar asosiy ziyorat tashrif buyurgan joylar: Amir Temur va Ruhobod maqbaralari, Registon ansambli (Sherdor, Tillakori, Mirzo Ulug‘bek madrasalari), Bibixonim va Xazrati Xizr masjidlari, Shohi Zinda yodgorligi, Xo‘ja Doniyor ziyoratgohi, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi, Nodir devonbegi kompleksi, Konigil meros kompleksi, kiyingi o‘rinlarda esa Urgut tumanidagi G‘avsul A’zam, Xo‘ja Omon, Chor Chinor ziyoratgohlari, Payariq tumanidagi Imom Al-Buxoriy kompleksi, Nurobod tumanidagi Xazrati Dovud ziyoratgohlari hisoblanadi. Samarqand viloyatida 2019 yil davomida xorijiy sayyoxlar soni 243148 tadan ziyod tashrif buyurgan bo‘lib, maxalliy sayyoxlar soni esa 4375491 ta tashrif buyurgan. Jami tashrif buyurgan sayyoxlar soni 4 618639 tani tashkil qilgan.

Hozirgi kunda ziyorat turizmi salohiyati yuqori bo‘lgan Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh va arab davlatlaridan ziyoratchilarni mamlakatimiz tarixiy shaharlari, xususan Buxoroga tashrifi sonini oshirish belgilangan. Bilamizki, Buxoro islom dinining markazi, sharif shahar, faxrli shahar, shaharlar imomi kabi nomlar bilan e’zozlanadi. Shahar ayniqsa naqshbandiya tariqatiga asos solgan zamin bo‘lganligi bois ham ma’lum va mashhur. Bugun dunyoda 40 mlndan ortiq naqshbandiylar mavjud. Ularning aksariyati Turkiya, Malayziya va Indoneziyada istiqomat qiladi. Mazkur tariqatning yetti piri ziyoratgohlarining ham bir joyda, ya’ni Buxoroda ekanligi musulmon ziyoratchilari, ayniqsa, naqshbandiylarni o‘ziga doim chorlab turadi. Xalq orasida «yetti pir» nomi bilan mashhur, vohaning beshta tumanida joylashgan 160 kmlik ziyorat yo‘nalishini tashkil etuvchi mazkur ziyoratgohlar bugun xalqaro ziyorat yo‘nalishiga kiritildi. Davlat dasturlari doirasida ziyorat yo‘llari ta’mirlana boshlandi. Har bir ziyoratgohda halol talablariga javob beradigan mehmonxonalarning barpo etilgani ziyoratchilarga qulaylik yaratish bilan birga, vohada qolish davomiyligini uzaytirdi. Tahlillarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, xorijiy ziyoratchilarning Buxoroda o‘rtacha qolish muddati dastlab 1-2,5 kunni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018 yilda 2-2,5 kun, 2019 yilda 2,5-3 kunga yetgan. 2019 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra 215 483 nafar 1-3 kun, 4358 nafar 4-7 kun,

669 nafar 8-28 kun, 63 nafar sayyoh va ziyoratchilar 29-91 kun oralig‘ida Buxoroda tunab qolishgan. Albatta har bir kun hudud uchun xorijiy valyuta, daromad, xizmat ko‘rsatish deganidir.

Andijon viloyatiga 2015 yilda turistik firmalar orqali tashrif buyurgan jami turistlar soni 6581 nafarni tashkil qilgan bo‘lib, shundan 2257 nafari xorijlik sayyohlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Keyingi yillarda viloyatda ham turistlar oqimi bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. 2016 yilda viloyatga tashrif buyuruvchilar jami 9511 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2017 yilda bu ko‘rsatkich 30376 nafarga yetgan. Ayniqsa jami kelganlarning 2015 yilda 34%i, 2016 yilda 33%i, 2017 yilda esa 55%i xorijlik turistlar ekanligi e’tiborni tortadi. Xorijlik sayyohlar ulushining keskin ortishiga qo‘shni mamlakatlar bilan che gara, bojxona va viza tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar sabab bo‘lmoqda. Viloyatga tashrif buyuruvchi mahalliy turistlar asosan Andijon shahri, Xo‘jaobod, Buloqboshi, Jalaquduq, Marhamat, Asaka, Shahrixon tumanlaridagi tabiiy, rekreatsiya, diniy, arxeologik va arxitektura yodgorliklarini 2 ziyorat qilish uchun kelishadi. Ushbu turistlarni aksariyati sayohat uchun aksariyat hollarda 1-2 kun sarflashlari esa mavjud imkoniyatlardan to‘la foydalanilmayotganini ko‘rsatadi. Vaholanki viloyatda mahalliy, respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan 370dan ortiq turistik obekt mavjud. Ular asosan diniy, arxeologik, tarixiy obida va yodgorliklar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, rekreatsiya hamda ekoturistik obektlar hisobalanadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda turizm kompleksining rivojlanishi bir qator muammolar bilan tavsiflanadi. Muhim muammolardan biri potentsial turistlardan ko‘rsatilayotgan xizmatlar turlari, ularning narxi, boshqa turistik resurslarga nisbatan (ham boshqa mintaqalar, ham boshqa mamlakatlar) afzalliklari haqida yetarli ma’lumotlarning yo‘qligi hisoblanadi. Demak, turizm kompleksini samarali rivojlantirish uchun turizm loyihalarini faol axborot bilan ta’minlashga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. Rossiya mintaqalarining turizm kompleksining rivojlanishiga transport infratuzilmasi, turistlarni joylashtirish ob'ektlari va turistik diqqatga sazovor joylar (attraksionlar) ning etarli darajada rivojlanmaganligi

to‘sqinlik qilmoqda. Turizm majmuasining infratuzilmaviy asoslarini har tomonlama va muvozanatli qo‘llab-quvvatlash turizm ob’ektlarining kelgusida faoliyat yuritishi va ularning turistik xizmatlarning potentsial iste’molchilari uchun jozibadorligini oshirishning ajralmas, majburiy omilidir.

Shu kabi muammolarni hal qilish bo‘yicha amaliy ishlar ham yo‘lga qo‘yilganini aytib o‘tish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida 2023 yilda respublika hududidagi turizm va madaniy meros obektlariga olib boruvchi avtomobil yo‘llarini ta’mirlash ishlarining manzilli ro‘yxati tasdiqlandi. Bu esa sayyohlar va ularga xizmat ko‘rsatish bilan band bo‘lgan aholi vakillariga yanada qulaylik yaratishi bilan ham ahamiyatlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hududlarning turistik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi mulohazalarni ilgari surish mumkin:

Avvalo qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish. Davlat hududni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga, raqobatbardosh ustunliklarga, tadbirkorlik tashabbuslarini hisobga olishga, biznes infratuzilmasini hisobga olishga, zarur ma’lumotlarni yetkazib berishga, konsalting xizmatlari ko‘rsatishga, turizm sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlashga intilishi kerak;

turizm mahsulotlarini sertifikatlash va markalashni rivojlantirish, takomillashtirish, turizm faoliyatining turli sohalarida foydalanish uchun turistik xizmatlar. Shuningdek, turizmni barqaror rivojlantirish uchun turoperatorlik va sayyohlik agentliklari faoliyatini litsenziyalash, ushbu soha mutaxassislarining majburiy ixtisoslashtirilgan ta’limi va ish tajribasini oshirish zarur. Bu turizm sohasi xodimlarining saviyasini, tegishli madaniy muhitni va ijobiy imidjning mavjudligini oshirishga foydali ta'sir ko‘rsatadi;

turistlarning mamlakat turizm infratuzilmasining rivojlanishi, tabiiy-psixologik omillar, xizmat ko‘rsatish darajasi, xavfsizlik, mehmondo‘stlik kabilar kabilar hisobga olinishi kerak.

Ko‘pgina tadqiqotlar ko‘rsatganidek, turizm sohasini iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qabul qilgan davlat turizm sohasidagi faoliyatni rivojlantirishga ko‘maklashishi va uning barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi zarur. Strategik yo‘nalishlarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekistonningturli hududlarini turizm uchun jozibador mamlakat sifatidagi imidjini shakllantirishga hissa qo‘shish va ichki turizm mahsulotlarini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Атамуродов У.Н. Самарқанд вилоятида туризм соҳасини янада ривожлантириш борасида туризм инфратузулма объектларини ривожлантиришни мувофиқлаштириш // Academic research in educational sciences, vol. 3, no. TSTU Conference 1, 2022. – С. 218.
2. Бобожонов Ш. Зиёрат туризми — янги Ўзбекистоннинг ташриф қоғози // *https://xs.uz/uzkr/post/ziyorat-turizmi-yangi-ozbekistonning-tashrif-qogozi*
3. Ван Циншен. Историко-культурный туризм и развитие туристических городов // Культура народов Причерноморья. 2002. №35. —С.14.
4. Махмудов С.Х. Тарихий-маданий туризмнинг шаклланиши ва унинг ривожланишидаги баъзи муаммолар // Иқтисодиёт ва таълим / 2020 № 1. – Б.197-201.
5. Потапова К. К. Влияние туризма на социально-экономическое развитие регионов / К. К. Потапова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 24 (128). — С. 219-222. — URL: https://moluch.ru/archive/128/35507/ (дата обращения: 25.11.2023).

Эштаев Алишер
Тошкент давлат иқтисодиёт Университети туризм кафедраси мудири, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор
Хашимов Бахром
Тошкент давлат иқтисодиёт Университети туризм кафедраси катта ўқитувчиси

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Аннотация: Ушбу мақолада Қорақалпоғистон Республикаси Элликқалъа, Тахтакўпир ва Хўжайли туманларининг туризм имкониятлари таҳлил қилиниб, туризм ресурсларидан самарали фойдаланиш, туризм соҳани ривожлантириш борасида янги туризм маҳсулотлари ва йўналишлар яратиш борасидаги таклифлар берилган.

Калит сўзлар: туризм, туризм ресурси, турист, туристик комплекс,

агро, агротуризм, қишлоқ туризм, минтақа, этнографик туризм, турпакет, туризм йўналишлари, тарих, анъанавий ҳунармандчилик, этник объект, халқ ҳунармандчилиги, этнографик музей.

Ўзбекистон Республикасида туризм иқтисодиётнинг етакчи тармоқларидан бирига айланмоқда, қолаверса янги Ўзбекистонни барпо этишда туризм соҳасини ривожлантириш мақсадида давлат томонидан бир қатор устувор вазифалар белгиланган. Хусусан, Давлатимиз раҳбари жорий йилнинг 16 октябрь куни Самарқандда бўлиб ўтган Бутунжаҳон туризм ташкилотининг 25 сессиясида жорий йилда мамлакатимизга жами 7 миллион сайёҳ ташриф буюриши, ушбу кўрсаткични 2030 йилга бориб 15 миллионга, ички туризм оқимини эса 25 миллионга етказиш режа қилинганлигини, туризмни 2030 йилгача комплекс ривожлантириш бўйича ишлаб чиқилаётган стратегияда замонавий туризм ва транспорт инфратузилмасини яратишга устувор аҳамият қаратилишини, юқори тезликда ҳаракатланишга мўлжалланган янги автомобиль ва темир йўллар қурилиши, авиатранспорт парки 2 баробар кенгайтирилиши, авиақатновлар сони тўрт баробар оширилиши, катта шаҳар ва сайёҳлар кўп борадиган манзилларда 30 та йирик туризм кластерлари ташкил этилишини алоҳида таъкидлаб ўтган эди.

Албатта, бу топшириқларнинг ижросини таъминлашда ҳудудларнинг туризм салоҳиятидан, хусусан, Қорақалпоғистон Республикасининг туризм ресурсларидан самарали фойдаланиш, туризм соҳани ривожлантириш борасида янги туризм маҳсулотлари ва йўналишлар яратиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Ўтган давр мобайнида Қорақалпоғистон Республикасида туризм соҳасида бир қатор ишлар амалга оширилганлигини кузатиш мумкин. Хусусан, ушбу ҳудудга 2023 йил давомида хориждан 114 683 нафар турист ташриф буюриб, 1 млн. 44 минг нафар маҳаллий туристларнинг сайёҳатлари амалга оширилганлигини кўришимиз мумкин. Ушбу даврда 25 млн. 665 минг АҚШ долларлик туризм хизматларининг экспорти амалга оширилган.

Қорақалпоғистон Республикасида жами 60 та (2018-2023 йиллар давомида), 2023 йилда 9 та туроператор ва турагентлар фаолияти йўлга қўйилган, 1 та меҳмонхона (46 хона ва 98 ўрин), 3 та оилавий меҳмон уйи (хоналар сони 10, ўринлар сони 26 та), 5 та хостел (хоналар сони 58, ўринлар сони 181 та) фаолияти ташкил этилган.

Ҳудудга хориждан ташриф буюрган туристларни давлатлар кесимида таҳлил қиладиган бўлсак, асосан Россия, Қозоғистон, Франция, Туркия, Германия, Италия, Испания, Буюк Британия, АҚШ ва Хитойдан келганлигини кузатиш мумкин. Хўш Қорақалпоғистон Республикасига туристларни кенг жалб қилиш учун барча имкониятлардан тўлиқ фойдаланиш учун нималарга эътибор қаратиш лозим?

Давлатимиз раҳбарининг 2023 йилнинг 26 апрелдаги “Республиканинг туризм салоҳиятини жадал ривожлантириш ҳамда маҳаллий ва хорижий туристлар сонини янада оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорига биноан, амалиётда илмийликни ошириш, амалиётнинг назария билан интеграциясини йўлга қўйиш мақсадида 11 та олий таълим муассасаси раҳбарлари ҳамда ҳудудлардаги 30 та туман ҳокимлари томонидан туризм ва хизмат кўрсатиш соҳаларини ривожлантиришга қаратилган “йўл хариталари” ишлаб чиқилиб, ижрога қаратилди.

Хусусан, Тошкент давлат иқтисодиёт университетига бириктирилган Қорақалпоғистон Республикасининг Тахтакўпир, Хўжайли ва Элликқалъа туманларида профессор-ўқитувчилар, тадқиқотчилар ва иқтидорли талабалар томонидан туризм соҳасини ривожлантириш мақсадида изчил ҳаракатлар олиб борилмоқда [1].

Олиб борилаётган илмий-амалий тадқиқотлар натижасида ушбу туманларда туризм соҳасини ривожлантириш учун қуйидаги ишларни амалга ошириш лозимлиги аниқланди.

Қорақалпоғистон Республикасининг ҳудудларини ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда туризм маршрутларини амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Масалан, Хўжайли туманига деярли хорижлик туристлар

ташриф буюрмайди. Ташриф буюрганлари хам фақат Миздахкан ўрта аср шаҳри харобаси, Мазлумхон-сулу мақбараси, “Ережеп Халифа” мақбараси, Шамун-наби Мақбарасига ташриф буюради[3].

Хўжайли туманининг туризм салоҳияти ва имкониятлари таҳлил қилиниб, маркетинг тадқиқотлари ўтказилиши натижасида шундай қарорга келиш мумкинки, туманда зиёрат, археологик ва гастрономик туризмни ривожлантиришга эътибор қаратиш, туристларни жалб қилиш мақсадида туризм учун номавсумий бўлган даврларда ҳам турли тадбирларни ташкил қилиш лозим.

Хўжайли туманида зиёрат туризмни йўлга қўйиш учун ҳудудда туризм контентлари мавжуд. Барчамизга маълумки, мамлакатнинг зиёрат туризм салоҳиятини илмий асосланган ҳолда тарғиб қилиш мақсадида 2023 йилдаа Бухорода “Нақшбандия” фестивали, “Халқаро зиёрат туризм ҳафталиги”, Мир Араб мадрасасининг 500 йиллигига бағишланган “Боқий Бухоронинг ислом цивилизациясидаги ўрни” мавзусида халқаро конференция, Термиз шаҳридаги “Имом Бухорий, Доримий ва Термизий: муҳаддисликнинг Мовароуннаҳр мактаби” мавзусида халқаро илмий конференция ўтказилди. Шу муносабат билан, Туркия, Эрон, Бирлашган Араб Амирликлари, Жазоир, Қувайт, Марокаш, Қатар, Россия, Буюк Британия, Франция, Сингапур, Малйзия, Индонезия каби 30 га яқин хорижий давлатлар етук олимлар, илмий тадқиқот марказлари, ОАВ вакиллари ташриф буюрди [2].

Хўжайли туманида туристлар учун туризм инфратузилмасини сифатли фаолият олиб боришини йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ. Туманда 1 та "Хўжайли" хостел (20 та ўрин) ва 2 та оилавий меҳмон уйи фаолият олиб боради. Хостелдаги хизматлар сифати ҳам талаб даражасида эмас, қолаверса, туманга ташриф буюраётган хорижлик туристлар Нукус шаҳридаги меҳмонхоналарга жойлашаётганлиги туфайли деярли бу хостелга туристлар ташриф буюрмайди, фақат туманга шахсий масалалар билан келган фуқаролар ташриф буюради. Туманда туристларни кўпроқ тунаб қолишлари учун туризм контентлари билан биргаликда, улар учун қулайлик яратиш

мақсадида жойлаштириш воситалари, жумладан оилавий меҳмон уйларини кўпайтириш лозим.

Тахтакўпир туманидаги туристик объектларнинг инфратузилмаси Қаратеран кўли, Айдос қалъа (Ақ жағыс), Баракгам-1, Баракгам-2, Жаман қалъа, Қорғанча қала, Қос минар, Қылыш қалъа, Мехтерқалъа, Тақ минарнинг талабга жавоб бермаслиги ва Нукусдан йироқлиги сабабли деярли хорижлик туристлар ташрифи деярли амалга оширилмайди. Ушбу объектларда археологик туризмни, чўл ҳудудларида "сафари", "ралли" ва экстремал туризмни, туманда жойлашган "Қаратеран" кўлида 10 га яқин балиқ турлари, ноёб ўсимликлар ва қушларнинг мавжудлиги овчилик (балиқчилик), экологик туризмни, "Қаратеран кўл"идан 30 метр узоқликда бир нечта булоқлар жойлашган бўлиб, кўл суви 8-10 С ни ташкил этса, булоқлар сувлари 23-25 С ни ташкил этиши эса соғломлаштириш туризмини йўлга қўйишга имконият беради.

Қолаверса, бу туманларда хорижлик туристларни ҳозирда энг оммалашиб бораётган чўл ландшафти, экологик, рекреацион туризм йўналишлари бўйича жалб қилиш чораларини кўриш лозим.

Қуйи Амударё давлат биосфера резервати (олдинги "Бадай-тўқай" давлат қўриқхонаси) - Султон Увайс тоғ тизмаси этаги ва Қоратов тоғининг ўнг тарафида, Амударёнинг ўнг соҳилида жойлашган ҳудудда хорижий ва маҳаллий туристлар учун экотурларни ташкил этиш лозим.

Тахтакўпир туманида 1 та оилавий меҳмон уйи фаолият олиб боради. Туманда бундан бошқа жойлаштириш воситаси йўқ. Сабаби тумандаги туристик объектлар туризм маршрутларига киритилмаганлиги учун ташрифлар деярли йўқ, деса ҳам бўлади.

Қорақалпоғистон Республикасининг Элликқалъа, Хўжайли ва Тахтакўпир туманлардаги ноёб туризм ресурслари рўйхатини қимматлилик даражаси бўйича шакллантириш ва UNESCO рўйхатига киритиш босқичлари бўйича дастурни шакллантириш лозим.

Элликқалъа туманига туристлар ташрифининг таҳлилини кўрсатишича туманга йилига ўртача 25-30 мингта хорижлик туристлар ташриф буюради. Бу туристларнинг аксарият қисми Аёзқалъа ва Тупроққалъага ташриф буюради. Шу билан биргаликда қисман хорижлик туристлар Буран қалъа, Бурли Қалъа, Думанқалъа, Жельдикқалъа – майин шамолли қалъа, Кичик Қирққиз қалъа, Қаватқалъага ҳам ташриф буюради. Аммо, туманга келаётган хорижлик туристларнинг 90 фоизи Хоразм вилояти орқали ташриф буюрмоқда, улар туманда бор-йўғи 4-5 соатгина бўлмоқда. Туристларнинг ҳудудда қолиш муддатини узайтириш мақсадида уларнинг оқимини Нукус шаҳри орқали амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Бу эса ўз-ўзидан янги туризм йўналишларини ишлаб чиқишни талаб қилади.

Элликқалъа туманида “Ақчакўл” туристик рекреацион зонасини ташкил этиш Қорақалпоғистон Республикасига ташриф буюрувчи меҳмонлар учун кўрсатиладиган туризм хизматлари диверсификацияси кенгайтирилишига олиб келади. Таҳлиларига кўра, ушбу ҳудудда экотуризм масканлари, сиҳатгоҳ, турли хизмат кўрсатиш ва маданий кўнгил очар обектларини ташкил этиш ҳамда гастрономик ва ов (балиқ ови) туризмини ривожлантириш учун инфратузилманинг имкониятлари етарли эканлигини кўрсатди. Охирги изланишлар натижасида ушбу ҳудудда юқоридаги каби инфратузилма объектларини жойлаштириш мумкин бўлган 72 та нуқаталар топилди. Ушбу нуқталар ҳар томонлама – жойлашув, бошқарув ва қулайлик нуқтайи назаридан ҳам маъқуллиги аниқланди.Шунингдек, ҳудудда амфитеатр ва меҳмонхона хизматлари ташкил қилиш имкониятлари юқори.

Бундан ташқари, “Ақчакўл” бўйида ҳозиргача 1,5 км. масофадаги кўл соҳилини қамишлардан тозалаш, соҳил бўйида чўмилиш пляжини ташкил қилиш учун 1,2 км. масофага тоза қум ётқизиш, 1,5 км. масофага пиёдалар ва велойўлакчани қуриш, 8 км. масофадан ичимлик суви қувурларини тортиш ишлари амалга оширилган.

Туманда кластерни ривожлантиришнинг асоси қилиб олинаётган рекреацион-соғломлаштириш йўналиши бўйича имкониятларни кўриб

чиқадиган бўлсак, бу борада санаторий ва соғломлаштириш объектларининг нисбатан ривожланган инфратузилмаси мавжудлигини кўрамиз.

Бундан ташқари бу жараёнга устунлик бериши мумкин бўлган омиллардан бири бу ерда бугунга қадар фаолият юритиб келган санаториялар ва бошқа рекреацион марказлар мавжудлигидир. Бу эса туристлар ва меҳмонлар ҳабардорлигини оширишга ёрдам беради.

Ақчакўл туристик рекреацион-соғломлаштириш кластерини ташкил қилишда халқаро тажриба кўрсатишича давлат-хусусий ҳамкорлик тамойиллари асосида ташкил этиш унинг тезроқ ривожланишига ёрдам беради. Амалиётда самарадорликни намоён этувчи давлат ва хусусий секторлар ўртасидаги алоқаларнинг турли шакллари, моделлари ва механизмлари мавжуд. Бунда кластер тузилмасидаги бошқарув компанияси зиммасига давлат-хусусий шериклик муносабатларини ҳам ривожлантириш юклатилади.

Бошқарув компанияси кластернинг ривожлантириш лойиҳаларини ҳам бир вақтда назорат қилиб бориши керак. Бунда Элликқалъа туманида давлат-хусусий шерикчилиги асосида мавжуд ресурслардан фойдаланиш бўйича қуйидагиларни келтириш мумкин:

соғломлаштириш туризмини ривожлантириш учун асос бўлиб хизмат қиладиган санаторий-курорт муассасаларининг ривожланган тизими мавжудлиги;

соғломлаштириш туризми, спа-хизматлар, маданий, сув ва саргузаштли туризмни ривожлантириш учун инфратузилма элементларининг мавжудлиги;

республикамизнинг бошқа ҳудудларга қараганда етарли даражада ривожланган турар жой тизимининг мавжудлиги (кўл бўйидаги меҳмонхоналар, миллий уйларда ташкил қилинган меҳмон уйлари). Бу каби имкониятлардан ҳамкорликда фойдаланиш орқали рақобатбардош туризм маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва инфратузилмани такомиллаштириш мумкин[4].

Кластер тизимини ташкил этишда курорт ва соҳилбўйига эга давлаатлар тажрибасидан фойданилиш мумкин. Бунга мисол қилиб Туркия, Дубай, Грузия каби бир неча давлатларни мисол қилиб олишимиз мумкин ва айнан ушбу давлатлардан етакчи мутаҳассисларни жалб қилиш зарур. Шу билан биргаликда кластер тузилмасига унинг барча иштирокчилари учун умумий бўлган мувофиқлаштирувчи кенгашнинг ва кластернинг тизим интеграторлари сифатида фаолият юритувчи етакчи компанияларнинг киритилиши инновацияларнинг самарали кластерлараро трансферини, кенг миқёсли инвестицион лойиҳаларни амалга ошириш ҳисобига янги бозорларни ўзлаштириш ҳамда диверсификацияланган туризм маҳсулотини яратишни таъминлайди.

Кластер минтақанинг ўз рақобатбардошлигини таъминлаш учун, яъни ўн, йигирма йил ва ундан кўпроқ даврда туризм ташкилотларини ривожлантириш бўйича узоқ муддатли стратегияни яратиш учун ҳақиқий имкониятдир. Бу ерда муваффаққиятга эришишнинг асосий омиллари бизнес раҳбарларининг фаол позицияси ва минтақадаги турли ташкилий гуруҳларнинг манфаатлари орасидаги ижобий ҳамкорликдир. Шундай экан, кластернинг муваффақият калити бўлиб тараққий этган рақобат, самарали бошқарувга йўналтирилганлик ва минтақа маъмурияти томонидан кўрсатиладиган кўмак ҳисобланади.

Қорақалпоғистон Республикасига туристларни янада кенг жалб қилиш учун Элликқалъа туманидаги Тупроққалъа археологик ёдгорлигини туризм объектига айлантириш, шунингдек, “Тупроққалъа этно-музейи”ни ташкил қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Мамлакатимизда илк марта этнотуризмни ривожлантириш, қадимда яшаган маҳаллий халқ этнографик маданияти бойликларини туризм маҳсулоти сифатида тарғиб қилиш орқали сақлаб қолиш, келажак авлодларга етказиб бериш ҳисобланади.

Жаҳондаги кўпгина давлатларда этномузейлар фаолият олиб боради, хусусан, Лондондаги Британия музейи, Оксфорддаги Pitt Rivers этнографик музейи, АҚШнинг Нью-Йорк шаҳридаги табиат тарихи музейи, Чикаго

шаҳридаги Field этнографик музейи, Францияниng Париж шаҳридаги Musee du Quai Branly этнографик музейи, Нидерландиянинг Миллий этнографик музейи, Боливиянинг миллий этнография ва фольклор музейи, Россиянинг “Менинг Россиям”, Озарбойжоннинг Боку шаҳридаги “Гала этномузейи”, Қирғизистоннинг Бишкек шаҳридаги “Манас” этномузейи ва кўплаб хорижий музейларни келтириш мумкин.

Элликқалъа туманида этнографик туризмни шакллантиришнинг ўзига хослиги шундаки, ҳудуддаги мавжуд ресурслар этно-музей ташкил қилиш имконини беради. Мавжуд ресурсларни ҳисобга олиш ва таҳлил қилиш, Қорақалпоғистон ҳудудида сайёҳлик бизнесини янада самарали ташкил этиш имконини беради. Музей туристларни жалб қилувчи ва уларга хизмат кўрсатишда иштирок этувчи барча объектлар туризм ресурсларини қамраб олади. Бунга табиий ресурслар (табиат ёдгорликлари, қўриқхоналар, дам олиш учун ландшафтлар) ва маданий (архитектура ёдгорликлари, музейлар, театрлар, машҳур кишилар ҳаёти билан боғлиқ жойлар) объектлар киради. Минтақанинг туризмни, айниқса таълимни ривожлантириш истиқболлари маданий ва тарихий ресурслар: тарих ва маданият ёдгорликларининг мавжудлиги билан белгиланади. Бунга халқларнинг урф-одатлари, қадриятлари ва турмуш тарзи маданияти ҳам киради.

Элликқалъа туманида Этно-музей ҳудудида ташкил этиладиган объектлар учун барча инфраструктура етарли ҳисобланади. Мазкур этно музей комплекс шаклида, яъни қадимда яшаган халқнинг тарихий қадриятларини, ҳунармандчилик намуналарини, урф-одатларни кўриш, миллий таомларини тайёрлаш ва таътиб кўришни ўзида мужассамлаштирган ҳудуд ҳисобланади. Тупроққалъа ёдгорлиги тарихий аҳамиятини ўрганиш бўйича маълумотларни ўзида мужассамлаштирган контекс, ҳамда туризмни ташкил этишдаги барча зарурий хизматларни ўз ичига олади. Мажмуа жойлашуви, Хоразмдан 30 км, Нукусдан 120 км узоқликда жойлашганлиги ички ва халқаро маршрутларда иштирок этиш имконини беради.

Умуман олиб қараганда, мамлакатимизнинг бошқа ҳудудлари каби Қорақалпоғистон Республикасининг ҳам туризм салоҳиятидан тўлиқ фойдаланилиш мақсадида ижобий ишларни амалга ошириш, туризмнинг янги турларини амалга ошириш, янги туризм маршрутларини яратиш, инновацияларни амалиётга кенг қўллаш соҳада юқори натижаларига олиб келади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 27 июлдаги “Туризм йўналишидаги ислоҳотарни янада жадаллаштириш ва соҳада давлат бошқаруви тизимини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-238 сонли Қарори [1].

2. http://www.uzbektourism.uz [2].

3. Эштаев А.А. Қорақалпоғистон Республикасида туризмни ривожлантириш имкониятлари. YAshil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2023 yil, dekabr 422-425 betlar [3].

4. Норчаев А.Н. Замонавий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари//Doctor of science диссертацияси Тошкент.2021 й [4].

Хашимов Шерахон Жўрахонович
ф.ф.б.ф.д. (PhD), доцент, Самарқанд Иқтисодиёт ва сервис институти
E-*mail – sheraxon64@mail.ru*

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХАЛҚАРО ИМИДЖИНИ ЮКСАЛТИРИШДА ХАЛҚАРО ТУРИСТИК ТАШКИЛОТЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Аннотация. Мақолада Ўзбекистоннинг халқаро имиджини юксалтиришда халқаро туристик ташкилотларнинг тутган ўрни ва аҳамияти масалалари таҳлил қилинган. Ўзбекистоннинг халқаро ташкилотларга интеграциясида миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлиги масаласига ҳам эътибор қаратилган. Ушбу соҳада олиб борилаётган сиёсатнинг ўзига хос хусусиятлари баён қилинган.

Калит сўзлар: Халқаро имидж, халқаро туристик ташкилотлар, интеграция жараёнлари, туризм инфратузилмаси, туризм соҳасидаги имидж, замонавий туризм индустрияси.

Аннотация. В статье анализируется роль и значение международных туристических организаций в улучшении международного имиджа Узбекистана. При интеграции Узбекистана в международные организации

внимание уделяется вопросу гармонии национальных и общечеловеческих ценностей. Описаны особенности политики в этой области.

Ключевые слова: Международный имидж, международные туристские организации, интеграционные процессы, туристическая инфраструктура, имидж в сфере туризма, современная туристическая индустрия.

Abstract. The article analyzes the role and importance of international tourist organizations in improving the international image of Uzbekistan. In the integration of Uzbekistan into international organizations, attention is paid to the issue of harmony of national and universal values. Specific features of the policy in this area are described.

Key words: International image, international tourist organizations, integration processes, tourism infrastructure, image in the field of tourism, modern tourism industry.

Ҳозирги даврда жаҳон миқёсида глобаллашув ва аҳборотлашув жараёнлари амалга ошиб, ушбу жараёнда Ўзбекистоннинг ҳалқаро ҳамжамиятга интеграциялашув жараёнлари содир бўлмоқда. Ўзбекистоннинг иқтисодий интеграциясида унинг жаҳондаги туристик ташкилотлар билан ҳамкорлик алоқаларининг кучайишига катта эътибор қаратилмоқда. Бугунги кунда Ўзбекистоннинг халқаро имиджини юксалтиришда халқаро туристик ташкилотлари муҳим аҳамият касб этиб келмоқда. Имидж сўзи лотин тилида “кўриниш”, “қиёфа”, “тимсол” деган маъноларни билдириб, бугунги кунда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш жараёнида унинг халқаро майдондаги имиджини юксалтириш масаласига эътибор кучайтирилмоқда.

“Бугунги кунда ушбу соҳада олиб борилаётган давлат сиёсати - дейди Президент Шавкат Мирзиёев, - истиқболда ҳудудлар ва уларнинг инфратузилмасини комплекс жадал ривожлантириш, долзарб ижтимоий-иқтисодий вазифаларни ечиш, иш ўринларини кўпайтириш, ҳудудлар диверсификацияси ва ривожланишини таъминлаш, аҳолининг даромадлари,

яшаш даражаси ва сифатини ошириш ҳамда мамлакатнинг инвестициявий жозибадорлиги ва имиджини яхшилашга қаратилган. Туризмни иқтисодиётнинг стратегик тармоғига айлантириш биз учун устувор вазифа бўлиб қолади. Ҳукумат олдидаги энг муҳим вазифалардан бири – яқин йилларда юртимизга келадиган туристлар сонини 10 миллионга етказишдан иборат” [1, 173-174].

Бугунги кунда халқаро майдонда Ўзбекистоннинг туризм соҳасига катта эътибор қаратаётган, ташқи ва ички туризмни ривожлантириш масаласига давлат сиёсати даражасида муносабат шаклланаётган давлат сифатидаги имиджи шакллантирилмоқда. Сўнгги йилларда Ўзбекистонда туризм соҳасидаги қатор масалалар қайта кўриб чиқилди. Сайёҳларга виза бериш кескин либераллаштирилди. Аэропортларда навбатлар ва текширишларга барҳам берилди, яшил йўлаклар ташкил этилди. Меҳмонлар электрон рўйхатдан ўтказиладиган бўлди, улар эркин ҳаракатланиши учун ҳамма шароитлар яратилди. Валюта айирбошлашга чекловлар бекор қилинди. Охирги йилларда Ўзбекистонга келаётган хорижий туристлар сони кўпайди. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш, сайёҳлар оқимини кўпайтириш, уларга қулай ва хавфсиз шароитлар яратиш мақсадида кўпгина шаҳарларда ички ишлар тузилмаларида хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармалари ташкил этилди.

2023 йил 11 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг №ПФ-158-сонли ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди. Ушбу фармонга 1-иловадаги 58 мақсад, - Ўзбекистонда ташқи ва ички туризмни ривожлантириш учун кенг шароитлар яратиш орқали сайёҳлар сонини ошириш, - деб номланган бўлиб, ушбу мақсад доирасида, Туризм хизматлари экспортини 5 миллиард долларга етказиш, тиббиёт ва таълим туризми экспортини йилига 1,5 миллиард долларга етказиш [2], белгиланган.

““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармонга 1-иловадаги 59 мақсад, - Ҳудудларда хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш, деб

номланган бўлиб, ушбу мақсадда, - Ўрта ва йирик шаҳарлар ҳамда аҳолиси 300 мингдан кўп бўлган туманларда замонавий бозор хизматлари, IT, таълим, тиббиёт, юридик, санъат, туризм, меҳмонхона ва умумий овқатланиш ҳамда транспорт хизматларини ривожлантириш [3], вазифалари белгиланган.

Япониянинг “The Japan Times” газетасида чоп этилган “Миллий сиёсат ва савдо муносабатлари барқарор ривожланмоқда” деб номланган мақолада Ўзбекистонда туризм ривожланиши ва унда оммавий ахборот воситаларининг тутган ўрни масаласи ёритилган.

Ўзбекистон улкан туризм салоҳияти ва ғоят бой маданий-тарихий меросга эга, - дейилади ушбу мақолада, - Бу заминда пурвиқор тоғлар билан ўралган водийлар ва жазирама саҳролар, қадимий меъморий обидалари билан машҳур тарихий мажмуалар ва замонавий мегаполислар ажиб бир тарзда уйғунлашиб кетган. Ўзбекистонда 11 та миллий табиий боғлар ва давлат қўриқхоналари, 12 та махсус қўриқхона, 106 та музей, 37 та театр, 187 та маданият ва истироҳат боғи мавжуд. ...2018 йилда ўзбек миллий таомлари “National Geographic” журналининг “Гастрономик туризм” номинациясида биринчи ўринни эгаллади, Ўзбекистон кўплаб хорижий нашрлар, жумладан, “The New York Times”, “The Guardian”, “Lovely Planet” томонидан саёҳат учун энг жозибадор ва қизиқарли йўналиш сифатида эътироф этилмоқда [4, 300].

Euronews халқаро ахборот телеканали ва Европанинг бошқа оммавий ахборот воситаларида ҳам Ўзбекистоннинг туризмни ривожлантириш соҳасидаги имкониятлари ёритиб борилмоқда. Euronews халқаро ахборот телеканали ўзининг ойлик томошабинлар қамрови қарийб 15,2 миллион кишини ташкил этувчи “Focus” саҳифасида Самарқанд туристик маркази замонавий конгресс-маркази, “Абадий шаҳар” тарихий-этнографик хиёбони, гаштак (балиқ тутиш учун сунъий кўл), мусиқали фонтан ўрнатилган марказий сайлгоҳ, Eco Village алоҳида коттежлар мажмуаси, халқаро таснифланган брендлар остидаги 8 та меҳмонхонани бирлаштирган улкан кўп тармоқли мажмуа, Silk Road Samarkand мажмуаси Ўзбекистонга сайёҳлар

оқими келишини кучайтириши тўғрисида маълумот бериб, Ўзбекистоннинг халқаро имиджининг юксалишида туризмнинг муҳим ўрин тутишига ўз эътиборини қаратган. Ўзбекистонда миллий туризмни ривожлантириш жараёнида мамлакатнинг туризм соҳасидаги имиджини сифат жиҳатидан юксалтириш, унга ижобий таъсир кўрсатиш механизмларини янада такомиллаштириш масаласига катта эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон 1993 – йилдан буён Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бутунжаҳон Туризм Ташкилоти (UNWTO) аъзоси ҳисобланади. 2022 йил 1-3 ноябрь кунлари Ўзбекистонда Халқаро зиёрат туризми ҳафталиги ўтказилган бўлса, 5 ноябрда БМТнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти (UNWTO) Бош котиби Зураб Пололикашвили Ўзбекистонга келиб, Самарқандга ташриф буюрди. Россия Туроператорлар уюшмаси (ATOR) ижрочи директори Мая Ломидзенинг фикрига кўра Ўзбекистон МДҲ давлатлари орасида россиялик сайёҳлар учун энг машҳур йўналишга айланди. У ерда турларга бўлган талаб 20 фоизга ўсди. Самарқандга 2022 йилда 1,2 миллион хорижлик сайёҳ келди [5]. Ўзбекистонда миллий туризмни ривожлантириш соҳасида амалга оширилаётган ишлар, Ўзбекистоннинг бой тарихи ва маданияти, туризм соҳасидаги имкониятларидан сўзловчи сифатли медиа контентларни тайёрлаш, уларни мавжуд барча коммуникация каналлари орқали жаҳон аудиториясига мунтазам тарқатиш яхши самара беради. Ана шу мақсадда Ўзбекистон имиджини жаҳон майдонида илгари суришни назарда тутувчи туризмни ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар мажмуини тайёрлаш ва амалга ошириш, Ўзбекистон Республикасининг хориждаги дипломатик ваколатхоналари учун мамлакатимизнинг тарихи, замонавий тараққиёти, сайёҳлик салоҳияти, маданияти ва санъатига оид юқори сифатли фото, видео ва босма материалларни мунтазам тайёрлаш ва етказиб бериш масаласига ҳам бугунги кунда катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистоннинг тарихи ва замонавий тараққиёти, маданияти ва санъати, тарихий шаҳарлари, анъана ва урф-одатлари тарғиб қилинган китоблар, маълумотномалар ва қўлланмаларни хорижда нашр этиш масаласига эътиборни кучайтириш зарур

бўлиб, ушбу асарларнинг хорижий мамлакатларда тақдимотларини ўтказиш, уларни чет эл мамлакатлари парламент, ҳукумат ва эксперт доиралари ўртасида тарқатиш мамлакатимизнинг туризм соҳасидаги имиджини юксалтиришда муҳим аҳамият касб этади. Хорижий мамлакатларда Ўзбекистон имиджининг ўлчов мезони сифатида туризмнинг тутган ўрни ва аҳамияти ошиб бормоқда. Британиялик профессор Ш.Акинернинг фикрига кўра, “туризм миллий имиджни ривожлантириш мумкин бўлган тармоқлардан бири ҳисобланади. Чунки у хорижликларни маҳаллий аҳоли билан тўғридан-тўғри алоқага киритади. Натижада ана шу сайёҳлар онгида улар ташриф буюрган жамиятлар ҳақида ўз шахсий таассуротларининг шаклланишига сабаб бўлади”. Британиялик олим С.Анҳольт фикрига кўра, мамлакат имиджини мустаҳкамлаш жараёнида оммавий ахборот воситалари билан бир қаторда – бошқарув, экспорт, туризм, маданият ва мерос, инвестиция ва имиграция, одамлар ҳам муҳим роль ўйнайди [6].

Бугунги кунда Ўзбекистоннинг халқаро имиджини шакллантиришда туризм соҳасида оммавий коммуникация воситаларидан ташқари турли халқаро форматда ўтказиладиган форумлар, анжуманлар, маънавий-маърифий тадбирлар, маданий кўргазмалар, спорт мусобақалари, этнографик, диний, экологик мавзуларда ўтказиладиган турли тадбирлар муҳим аҳамиятга эгадир.

Ўзбекистоннинг туризмни ривожлантириш соҳасидаги ютуқлари ҳақида чет эл оммавий ахборот воситаларида ва медиамаконида мунтазам мақолалар чоп этиш ва видеоконтент узатиш, шунингдек, туризмни ривожлантириш соҳасида эришилаётган ютуқларни кенг тарғиб қилиш учун брифинглар, давра суҳбатлари, конференция ва семинарлар ўтказиш кутилган натижаларни беради. Халқаро майдонда Ўзбекистоннинг ижобий имиджини илгари сурадиган хорижий PR-агентликлари, халқаро ахборот майдонида нуфузли ва таъсирга эга бўлган хорижий оммавий ахборот воситаларида Ўзбекистоннинг туризм соҳасидаги имкониятлари ва ютуқларини кенг тарғиб-ташвиқ этиш мамлакатимизга келадиган туристлар

сонининг ошишига ижобий таъсир кўрсатади. Хорижий давлатларда Ўзбекистоннинг маданияти ва санъатини тарғиб этувчи турли фестиваллар, конференция ва тадбирларни ўтказиш ҳам ўзининг ижобий натижасини беради.

Ўзбекистонда замонавий туризм индустриясини шакллантириш учун кўплаб имконият ва шарт-шароитлар яратилиб, соҳани ривожлантиришга комплекс ёндашилмоқда, республикада кўплаб замонавий сайёҳлик инфратузилма объектлари шакллантирилмоқда. Миллий туризмни ривожлантиришда, туризм инфратузилмасини шакллантиришда тадбиркорлар фаоллигини рағбатлантиришга ҳам катта эътибор қаратилмоқда. Буларнинг барчаси Ўзбекистонда миллий туризмни тизимли ва қонуниятли жараён сифатида ўрганишни долзарб масала сифатида кун тартибига қўймоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИТЁЛАР РЎЙХАТИ

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2021 йил.
2. https://lex.uz/ru/docs/6600413
3. https://lex.uz/ru/docs/6600413
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон 2020 йил.
5. https://uza.uz/posts/436423
6. https://beruniyalimov.uz/archives/986

Шакиров Ильяс
докторант Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ СТРАН АСЕАН

Аннотация. В статье даются сведения о развитие сферы туризма в странах АСЕАН. Особое внимание в представленной статье уделяется в предоставлении материла о состояние сферы туризма в странах АСЕАН в постковидный период.

Ключевые слова: АСЕАН, туризм, экономика, направление, развитие.

ASEAN DAVLATLARINI TURISTIK POTENTSIALI

Annotatsiya. Maqolada ASEAN mamlakatlarida turizm sohasining rivojlanishi haqida ma’lumot berilgan. Taqdim etilgan maqolada alohida e‘tibor

ASEAN mamlakatlarida Coviddan keyingi davrda turizm sektorining holati to'g'risida material taqdim etishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ASEAN, turizm, iqtisodiyot, yo‘nalish, rivojlanish.

TOURIST POTENTIAL OF ASEAN COUNTRIES

Abstract. The article provides information on the development of the tourism sector in ASEAN countries. Particular attention in the presented article is paid to providing material on the state of the tourism sector in ASEAN countries in the post-Covid period.

Key words: ASEAN, tourism, economy, direction, development.

В XXI веке, когда одну из ключевых ролей в развитие экономики играют современные информационные технологии, особо стоит выделить сферу туризма, вносящая свой вклад в укреплении национальной экономики государств.

В настоящее время руководители государств придают важное значение в развитие туристической инфраструктуры, что заключается в привлечении финансовых средств, создание условий для туристов, а также в подготовке специалистов, которые не только занимаются пропагандой туризма, но и также изучают те или иные аспекты, которые положительно влияют на развитие туризма.

АСЕАН – Ассоциация стран Юго-Восточной Азии, которая была образована в 1967 году. В настоящее время членами АСЕАН являются Бруней, Вьетнам, Индонезия, Камбоджа, Лаос, Малайзия, Мьянма, Сингапур, Таиланд и Филиппины, население которой насчитывает более 600 млн человек[1].

Исследуемый регион привлекателен тем, что страны участники имеют разнообразный туристический потенциал, но при этом близкое друг к другу месторасположение территорий повышает интерес не только к одной единой стране, но и, в целом, к единому региону. При этом, если рассматривать с

точки зрения конкурентоспособности стран, то необходимо отметить приемлемые цены, что обеспечивается большим количеством национальных и мировых участников в сфере туристических услуг. По привлекательности иностранных туристов высокую долю, в основном, занимают Таиланд, Малайзия и Сингапур. Кроме того, по видам туризма и качеству услуг в регионе передовое место занимает Сингапур, хотя по природным и культурным ценностям и естественным географическим данным она уступает в этих позициях другим членам АСЕАН[2].

Необходимо отметить, что по рейтингу индекса конкурентоспособности туризма и путешествий, то в 2015 году из 136 стран – Сингапур занимал 13-е место, Малайзия – 26-е место и Таиланд – 4-е место. Сингапур занимает высокие позиции по первым двум субиндексам, но при этом проигрывает по наличию естественных природных туристических объектов. Малайзия имеет высокий показатель по обеспечению безопасности и самый высокий показатель конкурентоспособности цен среди участников самой организации. Таиланд занимает самый высокий показатель среди участников по наличию инфраструктуры туристических услуг, и при этом имеет низкий показатель по позиции бизнес путешествий и наличию культурных ресурсов[2].

Социалистическая Республика Вьетнам в данном индексе имеет самую низкую позицию по показателю инфраструктуры туристических услуг. Республика Филиппины и Лаосская Народно-Демократическая Республика (ЛНДР) и Камбоджа занимают низкие позиции по показателю наличия культурных ценностей и бизнес туризму. В целом, в страновом разрезе ЛНДР и Камбоджа занимают последние места индексу конкурентоспособности туризма и путешествий[2].

Исследуя вопросы сферы туризма необходимо отметить, что данное направление в странах АСЕАН в 2022 году вступило в период восстановления после COVID-19. Многие страны превысили целевой показатель иностранных посетителей. АСЕАН является идеальным

туристическим направлением за счет духа солидарности региона, красивых природных пейзажей и богатой культуры[3].

По данным Всемирной туристской организации (ЮНВТО), отчет АСЕАН показывает, что количество поисков отелей в регионе увеличилось на 28% с начала 2022 года, а количество бронирований увеличилось на 57%. Общее доверие туристов к региону выросло примерно на 40%. В отчете подчеркивается, что АСЕАН является идеальным туристическим направлением, потому что это единый регион со странами, близкими по топографии, с богатой культурой, разнообразной кухней, множеством исторических достопримечательностей, красивых пейзажей, объектов экотуризма и современных городов[4].

По данным Управления по туризму Таиланда (ТАТ), в 2022 году Таиланд принял 11,81 млн иностранных туристов, что превысило планируемый показатель в 10 млн человек. Иностранные туристы в основном прибывали в Таиланд из Малайзии, Индии, Лаоса, Камбоджи, Сингапура, Южной Кореи, Вьетнама, США, Великобритании и России. В прошлом году Таиланд также занял 5-е место в мире среди самых популярных направлений медицинского туризма, поэтому страна приняла концепцию «Здоровье во имя процветания» для укрепления экономической мощи за счет развития медицинского туризма. Таиланд в 2023 года принял 20 млн иностранных туристов, что принесло доход в размере 2,380 млрд батов[3].

По словам министра туризма и креативной экономики Индонезии Сандиаги Уно, в 2022 году страна приняла почти 5,5 млн иностранных туристов, что более чем на 251,28 % больше показателей предыдущего года. Скорость восстановления отрасли хорошо прослеживается в сравнении с периодом COVID-19. Для того, чтобы возродить отрасль, правительство Индонезии выделит дополнительный бюджет в размере 15 трлн рупий (963 млн долларов США) на развитие пяти приоритетных туристических направлений в течение следующих двух лет. Индонезия поставила

амбициозную цель привлечь до 7,4 млн иностранных туристов до конца 2023 года[3].

По данным Совета по туризму Сингапура, в прошлом году страна приняла 6,3 млн иностранных посетителей, или одну треть от допандемийного уровня. В пятерку лидеров вошли Индонезия, Индия, Малайзия, Австралия и Филиппины, на долю которых пришлось более половины всех туристов. Сингапур внедряет различные туристические программы, мероприятия и услуги, которые поспособствуют тому, что он по-прежнему будет оставаться привлекательным местом[3].

До COVID-19 Юго-Восточная Азия была одним из регионов, наиболее активно развивавших международный туризм. По данным Азиатского банка развития (АБР), в 2019 году Юго-Восточная Азия приняла 137 млн иностранных посетителей и почти 1 млрд внутренних туристов. Индустрия туризма составляет 12,1% валового внутреннего продукта (ВВП) региона. В сфере туризма работает около 42 млн человек[1].

Между тем, страны АСЕАН внесли большой вклад в количество международных посетителей Малайзии, на долю которых пришлось 68,5% от общего числа прибытий до COVID-19. По словам министра туризма, искусства и культуры Малайзии Нэнси Шукри, страны АСЕАН могут работать вместе для улучшения маркетинга и продвижения туристических услуг в регионе, что соответствует новому слогану АСЕАН по туризму: «Пункт назначения каждой мечты». Цель состоит в том, чтобы сделать АСЕАН качественным туристическим направлением, предлагающим уникальный и разнообразный опыт и стремящимся развивать ответственный, устойчивый, инклюзивный и сбалансированный туризм, который внесет значительный вклад в социально-экономическую жизнь АСЕАН.

АСЕАН признает важность туризма для устойчивого развития и устойчивости к кризисам. Стратегический план развития туризма АСЕАН на 2016-2025 гг. заключается в том, чтобы к 2025 году АСЕАН стал высококачественным туристическим направлением. АСЕАН также приложит

усилия к содействию ответственному, устойчивому, инклюзивному и сбалансированному развитию туризма, внося важный вклад в социально-экономическое развитие АСЕАН[1].

Таким образом, опираясь на анализ материалов можно отметить, что АСЕАН являющаяся региональной организацией, члены которой имеет общие схожести в культуре, истории, менталитете уделяют важное значение в сферу туризма.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

1. См подробнее: Марти Наталегава. На что способна АСЕАН. – Москва, 2022. Стр. 328.
2. Бахрамова М., Эшонкулов М. Туризм как фактор регионального экономического развития на примере стран АСЕАН // Вестник юридических наук. – 2018, № 2. – С. 61.
3. АСЕАН продвигает устойчивый туризм [Электронный ресурс] URL: https://huunghivietnga.thoidai.com.vn/detail-article-34491.html (Дата обращения 21.03.2024).
4. World tourism organization. World tourism barometer. Vol 20, Issue 1, January 2022. – P. 4. Pdf.

O’ralov Orzubek Xamza o‘g‘li
O‘zMU tarix fakulteti tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

YAPONIYA TURIZMI: TAHLIL VA TAJRIBALAR

Annotatsiya. Yaponiya davlatining turizm yutuqlariga bag‘ishlangan ushbu mavzuyimiz doirasida Yaponiya erishgan yutuqlari va ulardan o‘rganishimiz kerak bo‘lgan jihatlarni tahlil qilib ko‘ramiz. Bunda yetakchi statistika va turizm saytlarining ma’lumotlariga tayandik

Kalit so’zlar. Gastroturizm, ekoturizm, madaniy turizm, sayohat turizimi, turistik resruslar, tur bazalar, yapon turizimi.

Yaponiya – kunchiqar mamlakat. Mamlakatning sirli va g‘oyat buyuk o‘tmishi, moddiy va ma’naviy madaniyati bilan o‘ziga xos turistik resrus bazasini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Yaponiya turizimining rivojlantirish usullari va isiqbollarini mamlkatimizning uristik salohiyati bilan taqqoslaydigan bo ‘lsak, biz ulardan tajriba almashishimiz va majud turizm bazalarimizni to‘laqonli to‘g‘ri va

unumli foydalanishni yo‘lga qo‘ymog‘imiz lozim. Bu borada Yaponiya turizimi va uning ersihgan yutuqlarini tahlil qilishimiz maqsadga muvoffiq bo‘lar edi.

Turizm umumiy ma’noda sayr-sayohatlar, sarguzashtlarni ifoda etadi. Shu sababdan ular ijtimoiy-turmush va mehnat jarayonlaridan tarkib topadi.Jahonda turizmga bo ‘lgan talab oshmoqda[1]. Chunki, insonlar o‘zlarining sog‘ligi va dam olish ehtiyojlaridan kelib chiqib sayohat qilishga intiladi. Jahon tovarlar va xizmatlar eksportida hozirgi paytda turizm ulushiga butun jahon eksportining 8%ga yaqini, jahon xizmatlar savdosining 30%, jahon yalpi mahsulotining 11%, jahon kapital quyilmalarining 9%, jahon iste’mol harajatlarining 11%, butun dunyo soliq tushumlarining 5% to‘g‘ri keldi[2]. Ushbu natijalar o‘laroq Jahonning yetakchi iqtisodiyotiga ega davlatlari turizmni qo‘llab quvvatlamoqda. Shunday davlatlardan biri bu – Yaponiya.

Yapon turizimi juda katta tezlik bilan o‘sib borayotganligi statistik raqamlar aytib turmoqda. Masalan, bor-yo‘g‘i olti yil ichida xorijdan tashrif buyuruvchilar soni 2011-yildagi 6,2 milliondan qariyb besh baravarga o‘sib, 2017-yilda 28,7 millionga yetdi, bosh vazir Sindzo Abe esa bundan ham yuqoriroqqa erishishni va bu maqsadni 40 millionga o‘zgartishni maqsad qildi. 2020 – yilgacha sayyohlar oqimini yuqoriroq darjaga chiqrarishni maqsad qilib qo‘ydi[3]. Yaponiya turizmi resruslari salohiyatini ko‘rib chiqsak. Yaponiyada gastroturizm ham maromiga yetib rivojlangan.Yaponiyaga tashrif buyuruvchi sayyohlarning ko‘pchiligi yapon oshxonasining mazali va takrorlanmas ta’mini juda yuksak baholaydi.

Yaponiyadagi ko'cha taomlari atrofidagi madaniyat nafaqat taomga, balki tajribaga ham tegishli. Ko'cha taomlari sotuvchilari o'zlarining samimiy va mehmondo'st munosabati bilan mashhur va mahalliy ko'cha taomlarini tatib ko'rish yapon madaniyati va an'analarini his qilishning ajoyib usuli hisoblanadi[4]. An’anaviy ravishda shakllangan oshxonalar, kafelar ham Yaponiyaning gastroturizimiga ta’sir etmay qolmaydi.

Masalan, Tokyo shahrida joylashgan Amayeko savdo rastalarida alohida ko‘cha taomlari sotiladigan rastlar mavjud. Siz ushbu yerda bemalol ko‘cha taomlaridan bahramand bo‘lishingiz mumkin. Yurtimizda ham ana shunday rastali

bozorlar mavjud. Shulardan biri Toshkentning yuragi sanalgan Chorsudagi ovqat bozori. Har ikkala bozorning o‘xshash jihati shundaki, ikkala bozorda faqat oziq – ovqatlar sotiladi. Biroq Amayeko rastalarida siz faqat tez tayyor bo‘ladigan ko‘cha ovqatlarini tanovvul qilasiz. Chorsu bozorida esa milliy taomlarimizning deyarli barcha turlariga ko‘zingiz tushadi. Bizda Yaponiyadagi kabi gastro turizmni rivojlantirish mumkin ,albatta. Buning uchun biz yurtimizning yurli chekkalarida Chorsu bozoridagi kabi gastro turizm nuqtalarni tashkil etishimiz lozim. Yaponiya tajribasi buni ko ‘rsatdi. Sababi mamlakaning har perefekturasida Shunaqa turizm nuqtalari mavjud.

Gastroturizmdan tashqari madaniy turizm ham o‘ziga xos darajada katta istiqbollarga ega. Ayniqsa, yaponlarning an’anaviy san’ati yelpig‘ichlar, soyabonlar va ayniqsa dunyoga mashhur kabuki teatri ham alohida o‘rin tutadi.

An’aviy yapon teatri o’ziga xos madaniy obyekt sanaladi.Yaponiyada teatrlarning eng mashxuri kabuki teatri sanaladi. Kabuki teatrida aktyorlar niqoblar bilan namoyish etishadi. Kabuki - qo'shiq va raqsga ega bo'lgan an'anaviy yapon dramasi hisoblanadi. Musiqa, raqs, mim va ajoyib sahnalashtirish va liboslarning boy aralashmasi bo'lib, u to'rt asr davomida Yaponiyada asosiy teatr shakli bo'lib kelgan. Zamonaviy yapon tilida bu so'z uchta belgi bilan yozilgan: ka, "qo'shiq" degan ma'noni anglatadi bu, "raqs"; va "mahorat"[5]. Ushbu teatr san’ati Yaponiyaga xos bo‘lgan elementlar o‘ziga xos yorqinlik kasb etuvchi yaponcha san’atning barcha jabhalarini ochib beuvchi ajoyib teatr sanaladi. O‘zbek xalqining etnomadaniyatining eng ajoyib namunalarini ham yapon teatri kabi tanitish madaniy turizmni rivojlantiradi. Masalan Yaponiyaning turli qismlaridagi kabuki teatrlari kabi mamlakatimizning turli mintaqalaridagi ashula, askiya va qo‘g‘irchoq teatrlarini ham faqat MDH doirasidgina emas, balki katta – katta arenalarga chiqamoq lozim. Masalan, shunday istiqbolga ega teatr usullaridan biri bu Xorazm qo‘g‘irchoq teatri. Yog ‘och yoki mumdan tayyorlangan qo ‘g ‘irchoqlar yutimizga tashrif buyurgan mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Yapon chinni qo‘g‘irchoqlari kabi ushbu qo‘g‘irchoqlarni brend darjasiga chiqarish orqali xalq amaliy san’atining rivojlantirishga va shuning orqasidan sayyohlar oqimini

oshirishga erishgan bo‘lamiz.Shu bilan birga Yaponiyaning tarixiy merosi bilan birgalikda zamonaviy shaharlari ham alohida ahamiyatga ega. Yaponiyada yirik shaharlarida ham an’anaviy yapon saroylari buddaviylik va shinto ibiodatxonalarini ko‘rishimiz mumkin. Yaponiyaning Kioto, Nagasaki, Xyogo shaharlarida ko‘plab saroylar va tarixiy ibodatxonalar mahbatli budda haykallarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Kamakura ibodatxonasi va budda haykali, Syogun saroyi, Asuka ibodatxonasi, Tokyodagi imerator saroylari, Deva, Sikoku sahridagi madaniy meros obyektlari shular jumlasidandir[7]. Bu jihatlar ham sayyohlarning ham qiziqishlarini oshirmoqda. Bu jihatlarini ham inobatga olgan holda yurtimizning madaniy meros obyektlarini katta rakruslarda ko‘rsatishimiz lozim. Masalan Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi tarixiy – madaniy meros obyektlari va undagi arab – musulmon me’morchiligining yuksak namunalari orqali ziyorat va tarixiy turizm salohiyatini oshirishimiz mumkin. Yaponiya buy yo‘lda an’anviy urf – odatlari va festivallaridan ham yaxshi foydalanmoqda. Masalan, Bahorgi mavsumdagi sakura daraxtining gullashi, qishki an’anviy yangi yil bayrami, mushakbozlik festivallari kabi bizda ham mavjud lola sayillari, Navro‘z, Mehrjon bayramlarini ham keng miqyosda nishonlash ayni muddao bo‘ladi.

Ushbu jihatlar bilan birga biz turistlar uchun turar joy masalalarini hma hal etmog’imiz lozim. Masalan, Yaponiyada yirik mehmonxonalar jahon standartlari doirasida barpo etilmoqda. Eng muhimi unda milliy va an’anaviylikni ko‘rsatib turuvchi juda ko‘p elementlardan foydalanganlar. Bu bilan ular ushbu mehmonxonalarga tashrif buyuruvchilarni o‘ziga jalb etish va yapon mentalitetini ko‘rsatishdir. Dunyoga mashhur DJAL Uorld Xoutelz mehmonxonasi Yaponiyaning eng yirik sayyohlar turar joyi sanladi. Ushbu mehmonxonaning o‘zida 151 ming o‘rin ajratilgan va otdellar soni ham 365 tani tashkil etadi[8]. Albatta ushbu servis xizmatlarining yaxshiligi ham mamlakatda turizm salohiyatini oshiradi. Yurtimiz ham sayyohlik va mehmonxona tizimini ham yanada tshkillashtirishi va mehmonxonalar sifaini oshirishi ayni muddao bo‘lar edi.

Demak, Yapon madaniyati va ularning o‘ziga xos atmosferali muhiti turizmning yuksak darajada shakllanishiga olib kelgan. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan barcha jihatlarni tahlil qilgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Turizm salohiyatini oshirishda barcha turistik resruslarni ishga solish;
- Turistlar uchun ajoyib muhit va erkin, qulay sharoit yaratish;
- Ichki imkoniyatlar va mavjud tur bazalarni jahon darajasiga chiqarish.

Ushbu barcha qilingan ishlar bilan birga hukumatning turistlar uchun qo‘ygan yengilliklari ham shularga qo‘shimcha bo‘ladi.

Menimcha, mamlakatimizda bu sifatlarning barchasi mavjud. Bularni rivojlantirib shakllanirish ko‘p jihatlari bilan kadrlar masalasiga ham taqaladi. Shuning uchun biz Yaponiyadek turizm rivojlangan davlatlardan tajriba almashishimiz maqsadga muvoffiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR.

1. Xoldorov.T., Tulenova. X. Turrizm (Sayyohlik). T.: Iqtisod – Moliya – 2016. B. 7
2. Mamatqulov X.M., Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B. Xalqaro turizm. T.: SamISI – 2008.
3. *https://www.statista.com/chart/15718/international-visitors-to-japan-and-visitor-spending/*
4. *https://traveldudes.com/street-food-in-japan/*
5. *https://www.britannica.com/art/Kabuki*
6. *https://worldpopulationreview.com/world-city-rankings/cleanest-cities-in-the-world*
7. *https://www.japan.travel/en/things-to-do/history*

Mamatqulov X.M., Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B. Xalqaro turizm. T.: SamISI – 2008.

Ғуломова Н.
Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети магистранти

ТУРИЗМ - МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА

Аннотация. Мазкур мақолада туризм миллий иқтисодиётга юқори даромад келтирадиган истиқболли тармоқлардан бири сифатида алоҳида эътибор қаратилади. Шунингдек, туризмни ривожида трэвел-журналистиканинг аҳамияти ҳақида муҳим маълумотлар берилади.

Калит сўзлар: туризм, миллий қонунчилик, иқтисодий ўсиш, сайёҳлар оқими, инфратузилма, туризм кластери, туризм йўналишлари, халқаро тажриба, ҳамкорлик, трэвел-журналистика.

Ўзбекистон Республикаси туризм соҳасида улкан салоҳиятга эга мамлакат. Бу ердаги маданий мерос объектларининг аксарияти ЮНЕСКО рўйхатига киритилган. Буюк Ипак йўлида жойлашган Ўзбекистон Шарқ ва Ғарбни ўзаро боғлайдиган савдо, илм-фан ва маданият марказидир. Унинг туристик имкониятларидан кенг фойдаланиш мақсадида хорижий сайёҳлар эътиборини тортадиган халқаро туризм масканларини, анъанавий турмуш тарзи ва ноёб ҳунармандчиликка эга бўлган туризм қишлоқларини барпо қилиш, янги сайёҳлик маршрутларини очиш, замонавий туризм ва транспорт инфратузилмасини яратиш, туризм кластерларини ташкил этиш, зиёрат туризми, тиббий, экологик, гастрономик, этно, экстремал ва бошқа туризм йўналишларини ривожлантиришга асосий эътибор қаратилмоқда.

Бугунги кунда дунёнинг ривожланган давлатларида туризмга миллий иқтисодиётга юқори даромад келтирадиган истиқболли тармоқлардан бири сифатида алоҳида эътибор қаратилади. Хорижий давлатлар иқтисодиётини ўрганиш туризмнинг мамлакат учун сердаромад соҳа эканлигини кўрсатади.

Ўзбекистон Бутунжаҳон туризм ташкилотининг “Энг тез ривожланаётган туризм масканлари” рўйхатида, шунингдек, машҳур “Геллоп” ижтимоий тадқиқот марказининг “Сайёҳлик учун энг хавфсиз давлат” рейтингида юқори ўринларни эгаллади. АҚШнинг “National geographic traveler awards” рўйхатида “Йил янгилиги” ҳамда “Гастрономик туризм” номинацияларида ғолиб бўлди.

Ўзбекистон ўтган йили “Жаҳон мусулмон сайёҳлари индекси”да “Энг кучли саёҳат йўналиши” сифатида тан олинди [1].

Халқаро рейтингларда эришилган натижалар мамлакатда сайёҳлик иқтисодий тараққиётининг муҳим омилига айланиб бораётганлигини кўрсатади. Бу ўз навбатида аҳолининг умумий фаровонлиги ва барқарор тараққиётини таъминлаш, халқлар ўртасида маданият ва санъат соҳасидаги

алмашинувлар, диний бағрикенглик, илм-фан тараққиётида муҳим рол ўйнайди.

2022-2026-йилларга мўлжаллаган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида ҳам туризм мамлакатнинг иқтисодий ўсиши ва аҳоли фаровонлигини оширишнинг асосий омили сифатида эътироф этилади. Тараққиёт стратегиясида 2030 йилга бориб юртимизга сайёҳлар оқимини 15 миллионга, ички туризм оқимини 25 миллионга етказиш режалаштирилган [2].

Белгиланган устувор вазифаларни амалга ошириш, сайёҳлар оқимини кўпайтириш мақсадида Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясида Давлатимиз раҳбари томонидан 7 та муҳим йўналишда таклифлар билдирилди:

Биринчидан, глобал туризмнинг энг долзарб муаммоси – бу туристларнинг кафолатланган хавфсизлик тизимини таъминлаш;

Иккинчидан, иқлим ўзгаришлари тобора кучайиб бораётган даврда “яшил” туризмни ривожлантириш бўйича халқаро Ҳаракатлар дастурини қабул қилиш;

Учинчидан, имконияти чекланган сайёҳлар учун қулай шароитларни янада кучайтириш ва инклюзив туризм инфратузилмасини ривожлантириш;

Тўртинчидан, Бутунжаҳон туризм ташкилоти ҳузурида Сайёҳлик бўйича тарихий шаҳарлар кенгашини тузиш;

Бешинчидан, Самарқандда ташкил этилган туризм соҳасида мутахассислар тайёрлайдиган ва уларнинг малакасини оширадиган Бутунжаҳон туризм ташкилотининг Халқаро туризм академиясини глобал таълим хабига айлантириш ва жаҳон туризм саноатини янада ривожлантиришга муносиб ҳисса қўшиш;

Олтинчидан, Тошкентда Жаҳон ёшлар туризми саммитини ўтказиш;

Еттинчидан, “Ипак йўли” брендини ривожлантиришга қўшган ҳиссаси учун Ташкилотнинг махсус халқаро мукофотини таъсис этиш.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ташаббуси асосида 2024 йил 26 февраль куни ЮНЕСКО томонидан “2027 йил –Халқаро барқарор ва яшовчан туризм йили” деб эълон қилиш тўғрисидаги резолюциянинг қабул қилиниши [2] туризм иқтисодиётининг глобал даражада янги босқичга кўтарилишида муҳим омил ҳисобланади. Мазкур резолюцияни 80 та мамлакат, жумладан, АҚШ, Буюк Британия, Япония каби ривожланган мамлакатлар томонидан қўллаб-қувватланиши сайёҳлик соҳасини ривожлантириш бўйича мамлакатимизнинг стратегик мақсадлари тўғри қўйилганлигини кўрсатади.

2030 йилга қабул қилинган стратегик дастурларини рўёбга чиқариш ва сайёҳлар оқимини 10 миллионга етказишда мамлакатда экотуризм, тоғ туризми, экстримал туризмни ривожлантириш, яшил туризмга алоҳида эътибор қаратиш; қишлоқ туризмини ривожлантириш, қишлоқ туризмини иқтисодиётнинг муҳим тармоғи сифатида белгилаш; сайёҳликнинг янги йўналишлари, янги локацияларини аниқлаш ва сайёҳлик дастурига қўшиш барқарор ва яшовчан туризмни ривожлантириш долзарб ҳисобланади. Бунинг учун 2030 йилгача тўсиқсиз туризм инфратузилмасини асосий туризм шаҳарларида кенг жорий қилиш; туризм ва маданий мерос объектлари инфратузилмаси ривожлантирилиб, 8 мингдан ортиқ маданий мерос объектларидан самарали фойдаланиш бўйича давлат дастурини қабул қилиш; Зомин, Фориш, Бахмал туманлари ва “Айдар-Арнасой” кўллар тизимида қўшимча туристик зоналар ва дам олиш масканларини барпо этиш, 300 миллион АҚШ долларига тенг лойиҳаларни амалга ошириш ҳисобига 25 минг иш ўринларини яратиш; Самарқандни “Туризм дарвозаси”га айлантириш орқали келгуси беш йилда туризм хизматлар ҳажмини камида 10 бараварга ошириш, туризм соҳасида 40 минг кишининг бандлиги таъминлаш; 2026 йилгача туризм соҳасида банд бўлган аҳоли сони 2 баравар ошириб, 520 минг нафарга етказиш; Қорақалпоғистон Республикаси ва Орол бўйида экотуризмни ривожлантириш бўйича алоҳида дастур ишлаб чиқиш; Хоразм ва Бухоро, Тошкент вилоятлариида туризм

янги иш ўринларини яратиш; Навоий вилоятида зиёрат ва экотуризм салоҳиятидан самарали фойдаланиш ҳамда Тошкент шаҳрида туризм инфратузилмасини янада яхшилаш чоралари кўрилади [2].

Етакчи иқтисодчиларнинг таҳлилларига кўра, ўсиб бораётган туристик оқим иқтисодий ўсишга ижобий таъсир кўрсатиб, хизматлар соҳаси кўлами кенгайиши, бандликни ошиши, хизматлар хилма-хиллиги ва сифати ошиб боришига ижобий туртки беради.

Ўзбекистоннинг сайёҳлик салоҳияти, маданияти, урф-одат ва анъаналарини тарғиб қилиш, сайёҳларнинг эркин ҳаракатланиши учун яратилган шароитлар билан таништириш ва мамлакатга дунё сайёҳлари оқимининг ортишида журналистиканинг ўрни муҳим. Журналистиканинг алоҳида йўналиши бўлган трэвел-журналистика – кенг жамоатчиликда сайёҳат тўғрисида тасаввур ҳосил қилиш, географик жойлашуви, миллий урф-одатлар ва жаҳон халқларининг турлича менталитети, мамлакатлар ва шаҳарларнинг тарихи, маданияти ҳақида энг муҳим маълумотларни беришда алоҳида ўрин тутади [3]. Трэвел журналистикаси масс-медианинг асосий йўналишларидан бири сифатида география, туризм, тарих, маданият ва бошқа мавзуларда маълумот беради ва янги мамлакатлар, халқларни кашф этиш, улар билан ҳамкорлик қилиш, ташқи сиёсий фаолиятига киришга қизиқиш пайдо қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев туризм соҳасининг фаол тарғиботчилари – журналистлар, блогерлар ва оммавий ахборот воситалари вакилларига асосий эътиборни қаратиб, қўшимча платформалар яратиш орқали бу иқтидорли ва жонкуяр ижодкорларнинг катта куч ва салоҳиятини бирлаштириш, етакчи оммавий ахборот воситалари, журналистлар ва энг яхши саёҳат блогерларини ўзида бирлаштирадиган Глобал медиа кампусинини ташкил этиш ҳамда медиа форумларни ҳар икки йилда бир марта ўтказиш таклифини киритди. Ушбу таклифнинг илгари сурилиши нафақат Ўзбекистонда, балки халқаро миқёсида саёҳат

журналистикасини янги босқичга олиб чиқиш учун кенг имкониятлар яратиши билан характерланади.

Трэвел-журналистистика саёҳатчига тарих, санъат, астрономия, этнография ва бошқа жиҳатларни уйғунлаштирган ҳолда маълумот олиш имконини беради. Демак, саёҳат журналистикасини ривожлантириш туризм бизнесини жадал ривожланишига, мамлакат ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлишга, ахборотга эга бўлган эҳтиёжнинг ортишига олиб келади. Трэвел журналистика мамлакатларнинг моддий ва маънавий ҳаёти, ўлка тарихи ва маданияти, урф-одатлари ва маросимлари ҳақида тўлиқ тасаввур ҳосил қилиш имконни беради. Шу боис, сайёҳлик туризми медиаси замонавий аудитория талаблари асосида ривожланмоқда. Зеро Африканинг таниқли тадқиқотчиси Дэвид Ливингстон таъкидлаганидек: “Саёҳат қилиш, уни тасвирлашдан анча осонроқ”.

Замонавий ахборот технологиялари ва Жаҳон интернет тармоғининг National Geographic Traveler, Travel+Leisure, Travel+Leisure Россия, Новости туризма, Uzbekistan trevel каби машхур сайтлар ва YouTube, Instagram, TikTok каби ижтимоий тармоқларга жойлаштириш саёҳларнинг мамлакатга бўлган қизиқишини ошириб, саёҳлар оқимининг кўпайишига ижобий таъсир кўрсатди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, туризмни ривожлантириш ва туризм билан банд бўлган аҳоли сонини ошириш натижасида мамлакатнинг иқтисодий тараққиёти юксалади ҳамда аҳолининг турмуш фаровонлиги яхшиланишига хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президанти Ш.Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи // https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi.

2. “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони

3. Коноплева Е.Ю. Игровые концепции телепередачи «ОРЕЛ и РЕШКА». - Санк-Петербург, 2017. -70 с.

4-SHO‘BA. TURIZM VA ANTROPOLOGIYA

Abdusatorov Sherzod Mavlonjon o‘g‘li
O‘zMU, Antropologiya va etnologiya kafedrasi katta o‘qit. t.f.f.d. (PhD)

GASTRONOMIK TURIZM VA UNI MOBIL ILOVA (APP) ORQALI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI (FARG‘ONA VODIYSI MISOLIDA)

Annotatsiya: E’tiborga taqdim etilayotgan mazkur maqola negizida o‘zbek milliy taomlarini targ‘ib qilish uchun mobil ilova yaratildi. Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda o‘zbek milliy taomlarning mobil ilovasini yaratish taomlar bilan bog‘liq bilimlarni kengaytirish bilan bir qatorda, taom tayyorlanadigan joylarlar haqida oson ma’lumot olish imkoniyatini ham yaratadi. Eng muhimi, bu mamlakatga kelayotgan turistlar uchun yana bir qulaylikdir. Demak, raqamlashtirish orqali gastroturizm imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masaladir.

Kalit so‘zlar: *mobile app, gastronomik turizm, Google Play, Google Maps, turizm, go‘ja oshi, paygir, arpabodiyon, churak.*

Jahon oziq-ovqat sanoatida kechayotgan o‘zgarishlar o‘zbek milliy taomlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ayniqsa, XX asrdan boshlab mintaqaga xorijiy taomlarning kirib kelishi, konserva mahsulotlari va yarim tayyor mahsulotlarning o‘zbek taomnomasidan o‘rin egallashi kundalik iste’molda an’anaviy taomlar tarkibining o‘zgarishi yoki kamayishiga olib keldi. O‘zbekistonda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ijtimoiy hamda iqtisodiy holatni ta’minlash mamlakat mustaqilligining asosiy shartlaridan biridir. Ayniqsa, aholining sog‘lom ovqatlanishi, jismoniy faolligini ta’minlash, sog‘lom va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlarini kengaytirish, sog‘lom turmush tarzini yuritishga oid vazifalarni bajarishda muhim sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-

tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni[1] da etnoturizm (an’anaviy turmush tarzi, hunarmandchilik, taom tayyorlash kabilar)ni rivojlantirish, 2020-yil 10-noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4887-sonli, 2021-yil 22-dekabrdagi “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-58-sonli, 2022-yil 30-apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli qarorlari[2] va sohaga oid boshqa normativ-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Ko‘pgina madaniyatshunoslik, san’atshunoslik sohasida taomlarga aloqador tadqiqotlar olib borilsada, etnologiya va antropologiya bu mavzuga o‘ziga xos yondashuvi bilan ajralib turadi. Etnologiya va antropologiya sohasidagi amaliy tadqiqotlar taomlarning kelib chiqish tarixi, o‘ziga xosligi va uni xalq (inson) hayotidagi o‘rnini aniqlashga harakat qiladi.

Taomlarni o‘rganishga doir yana bir etnologik yondashuv taomlarni xalqlararo, millatlararo muloqot vositasi sifatida tadqiq etishdir.

Bundan tashqari, ayrim tadqiqotchilar taomlanish bo‘yicha kishilarning jinsi va yoshiga oid farqlanishlar, ta’qiq(tabu)lar, salomatlik uchun ahamiyatli hamda ovqatlanish tartibi o‘zgarishi bilan yuzaga keladigan kasalliklarni o‘rganib, jamiyatga targ‘ib qilishga harakat qildilar[3, 205]. Bugungi kunda ham taom va uning xalq bilan aloqasi, xususan, milliy taomlarga doir ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda[4, 107].

So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek milliy taomlarining qanday targ‘ib qilinishi to‘g‘risida ko‘p ma’lumotlar berilmoqda[5, 54]. Bu ma’lumotlarda ijtimoiy medialarning tahlillariga o‘rin berilgan[6, 107].

E’tiborga taqdim etilayotgan mazkur tadqiqot negizida o‘zbek milliy taomlarini targ‘ib qilish uchun mobil ilova yaratildi. Bizningcha, axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda o‘zbek milliy taomlarning mobil ilovasini yaratish taomlar bilan bog‘liq bilimlarni kengaytirish bilan bir qatorda,

taom tayyorlanadigan joylarlar haqida oson ma’lumot olish imkoniyatini ham yaratadi. Eng muhimi, bu mamlakatga kelayotgan turistlar uchun yana bir qulaylikdir.

Demak, raqamlashtirish orqali gastroturizm imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masaladir.

O‘rta Osiyo xalqlarining tarixi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida axborot texnologiyalarining o‘rni haqidagi adabiyotlar soni ko‘p bo‘lsada, Farg‘ona vodiysi milliy taomlari va uning etnografik jihatidan mobil ilovalar orqali targ‘iboti deyarli uchramaydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, internet tarmoqlarida o‘zbek taomlar bilan bog‘liq turli sayt va medialar mavjud bo‘lishiga qaramay, ular, ko‘proq taom tayyorlash sohalariga bag‘ishlangan. Taomlarning etnologik o‘ziga xosligini yoritishga esa e’tibor qaratilmagan. Shu tufayli mazkur tadqiqot ishida taomlar masalasi keng ma’noda, ya’ni Farg‘ona vodiysida oziq-ovqat mahsulotlari, milliy ovqatlanish maskanlari, mehmondo‘stlik g‘oyalari va boshqalarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqildi. Olingan natijalar keladigan mehmonlar uchun shu hudud taomlari haqida tassavur uyg‘otishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda axborot texnologiyalardan unumli foydalangan holda har bir xalqning madaniyatini modellarini yaratish imkoniyati mavjud va modellashtirish tushunchasi ilm-fanning turli sohalarida keng qo‘llanilmoqda.

Shu o‘rinda antropologiya va etnologiya sohasidagi tadqiqotlarda modellashtirish va mobil ilova imkoniyatlaridan foydalanish haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

XXI asr boshlariga kelib vizual antropologiya sohasida nashrlar tobora ko‘payib bormoqda. Mutaxassislar mazkur muammolarni raqamli etnografiya metodologiyasi, raqamli texnologiyaning antropologik tadqiqotlar, madaniyat, til va jamiyatga ta’siri ruknida tadqiq eta boshladilar[7, 5]. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, o‘zbek milliy taomlari va u bilan bog‘liq ovqatlanish madaniyatini mobil ilova orqali targ‘ib qilish amaliy ahamiyatga ega. Mobil ilova (inglizcha: Mobile app[8]) – ma’lum bir platforma (iOS,

Android, Windows, Phone va boshqalar) uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan dasturdir[9].

Ko‘pgina mobil ilovalar qurilmaning o‘zida oldindan o‘rnatiladi yoki ularni App, Store, Google Play[10] va boshqalar kabi onlayn dastur do‘konlaridan bepul yoki pullik bilan yuklab olish mumkin.

Dastlab, mobil ilovalar elektron pochtani tezda tekshirish uchun ishlatilgan, ammo ularning yuqori talablari boshqa sohalarda ham kengayishiga olib keldi, masalan, mobil telefon va GPS o‘yinlari, suhbatlashish, video tomosha qilish va internetdan foydalanish va hak.

Bugungi kunda ko‘plab xorijiy davlatlarda android qurilmalar uchun mo‘ljallangan HTML5, CSS, JS, React JS kabi maxsus dasturlar va shu kabi modellashtirish dasturlaridan foydalanib kelinadi. Mazkur ilova (mobile app)dan O‘zbekiston hududida ichki, tashqi sayyohlikni rivojlantirish, gastroturizm sohasini raqamlashtirish va shu orqali, O‘zbekiston taomlarini keng miqyosda ommalashtirishda samarali foydalanish mumkin.

Internet orqali taom haqidagi nafaqat ma’lumotlar almashiladi, savdo qilinadi, balki onlayn tarzda ushbu hududning milliy taomi bilan tanishish imkonini ham taqdim etadi. Bu esa turizmni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Turizm haqida gap ketganda, O‘zbekiston o‘zining taomlari bilan mashhurligidan ham foydalanish zarurligini, shu bilan birga boshqa narsalarni ham taklif eta olishini va ularni muayyan bozorlar talabiga moslashtirishi lozimligini eslatib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak[11].

Farg‘ona vodiysida gastroturizmni targ‘ib qilish turizm faoliyatini rivojlantirishning muhim imkoniyati hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda quyidagi maqsadlarni amalga oshirish ham ko‘zda tutilgan:

1. Farg‘ona vodiysining milliy taomlaridagi gastrohudud yaratish uchun tasvir aloqasidagi ma’lumotlarni tahlil qilish va boshqarish;

2. Farg‘ona vodiysi milliy taomlari uchun ilova, dastur va veb-sayt bazasini loyihalash hamda ishlab chiqish;

3. Ommaviy axborot vositalari uchun materiallarni tayyorlash;

4. Farg‘ona vodiysi tumanlarida ichki va tashqi sayyohlik uchun imkoniyatlari doirasini aniqlash.

Ma’lumki, turizm – bu mahalliy va milliy miqyosida iqtisodiy rivojlanish uchun turtki beradigan faoliyat turlaridan hisoblanadi. Lekin ushbu faoliyat turi faqatgina hudud resurslari, atrof-muhit bilan imkoniyatlar chegaralanib qolmaydi. Gastroturizm uchun amaliy texnologiyalarni qo‘llash, turizmning sifatli rivojlanishni ta’minlab barqaror daromad keltiruvchi sohaga aylantiradi. Bu esa turistlar va mintaqada yashovchi aholining gastroturizm sohadagi bilimlarini oshirishda qo‘l keladi. Gastroturizm sohadagi bilimlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ovqatlanish madaniyati to‘g‘risidagi ilmiy adabiyotlarning xilma-xilligi;

2. Milliy taomlarni tayyorlash an’analari;

3. Farg‘ona vodiysining har bir hududdagi milliy taomlar atrof-muhitga va aholining turmush tarziga bog‘liqligi.

Mobil ilova yaratish uchun gastroturizm imkoniyatlarini raqamlashtirishda mintaqa tabiati, turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyatini hisobga olish zarur hisoblanadi. Farg‘ona vodiysidagi milliy taomlar tayyorlaydigan maskanlarni aniqlash va ularning joylashuvni mobil ilovaga kiritish lozim. Bu mahalliy aholi va turistlar uchun onlayn tarzda o‘zbek milliy taomlariga oid ma’lumotlarni olishni osonlashtirishadi.

Farg‘ona vodiysida olib borilgan tadqiqotlar milliy taomlar maskanlarini aniqlashga yordam berdi. Taomlar bo‘yicha tadqiqotlar ma’lumotlarini aniqlash, o‘rganish, qo‘llash, uzatish, so‘ngra mobil ilovaga jalb qilingan maskanlar o‘rtasida to‘plangan ma’lumotlarni boshqarishga va O‘zbekistonning boshqa viloyatlarida ham targ‘ib qilish imkonini beradi. Bu albatta, jamiyatning farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Mobil ilovadan foydalanuvchilar tushunishi uchun turli tadqiqot loyihalari natijasida olingan bilimlar asosida ularni kontekst va vaziyatlarga moslashtirishni tanlashni xohlaydigan bir qator amaliy asoslar mavjud.

Axborot texnologiyalari tizmidan ma’lumotni tarqatish va Farg‘ona vodiysining turistik marshrutlarida o‘zbek taomlari haqidagi ma’lumotlardan ham foydalanish kerak. To‘plangan etnografik dala tadqiqotlari ma’lumotlarini modellashtirishni ikkita faoliyat orqali amalga oshirish mumkin.

1. Asosiy faoliyat (o‘zbek milliy taomlariga oid ma’lumot to‘plash usullari);

2. Mobil ilova orqali targ‘ib etish.

O‘zbek milliy taomlarini tasvirlar orqali yetkazish uchun mobil ilova va veb-saytdan foydalanishda dastlab ma’lumotlar bazasi ishlab chiqildi. Bu ma’lumotlar bazasini yaratishda albatta gastroturizm mutaxassislari xizmatlaridan foydalanish zarur bo‘ladi.

Tadqiqotda etnografik usullardan foydalanilgan holda mintaqa bo‘yicha o‘zbek milliy taomnomalarining ro‘yxati tuzildi va so‘rovnomalarga kiritildi.

Milliy taomlar bo‘yicha axborotchi sifatida an’naviy taomlarni yaxshi biluvchi yoshi ulug‘ kishilar, oshpazlar, mahalla oqsoqollari va boshqa shu kabilar tanlandi.

Milliy taomlarga oid mobil ilova yaratish uchun Turizm vazirligi mutaxassislari bilan kelishgan holda taomlar ro‘yxati shakllantirildi.

Milliy taomlarning ko‘rinishi, tayyorlash texnologiyasi va ushbu taomlar tayyorlanadigan maskanlar va shu kabi boshqa ma’lumotlar raqamli fotokameralar va video kameralarga yozib olindi, so‘ng mobil ilova uchun joylashtirildi.

Milliy taomlar tayyorlanadigan maskanlari joylashuvni Google Maps o‘lchash moslamalari GPS, joylashuv o‘lchash moslamalari (Telegram Maps) orqali maskanlar xaritasida ko‘rsatildi va oxirida bu joylashuv mobil ilova veb-saytga joylashtirildi.

Mobil ilova (Mobile App) uchun ma’lumotlarni to‘plash jarayonida avvalo gastroturizmni qo‘llab quvvatlash va turistik ma’lumotlarni keng yoyish uchun milliy taomlar tayyorlangan oshxona, choyxona va boshqa shu kabilarning joylashuvi aniqlandi va ro‘yxati tuzildi.

Tadqiqot jarayonida to‘plangan ma’lumotlar Farg‘ona vodiysida o‘zbek milliy taomlari tayyorlanadigan 26ta maskan borligini ko‘rsatdi. Ushbu maskanlar

har xil o‘zbek taomlariga ixtisoslashtirilgan bo‘lib, mobil ilovada tavsiflangan hamda ilovaga, fotosurati, videolari bilan birga joylashtirilgan.

1. Gastroturizmni qo‘llab quvvatlash va turistik ma’lumotlarni keng yoyish uchun milliy taomlar ro‘yxati va joylashuvini aniqlash. Amaliy dasturlar va ma’lumotlar ba’zasi saytlarini loyihalash va ishlab chiqish jarayonida dastur (mobil ilova) tayyorlovchi mutaxassislar bilan ham hamkorlik qilindi. Farg‘ona vodiysiga oid o‘zbek milliy taomlari aniqlanib, joylashuvlari belgilandi. Joylashuvni tez topishi uchun mobil ilova navigatori *Google Maps* bilan integratsiya qilindi[16]. Jumladan, Farg‘ona vodiysiga oid *osh markazlari, turli kaboblar, sho‘rvalar, somsalar (Oltariq somsa, Kosa somsa, Chinni somsa), mastava, dimlama, baliqdan tayyorlanadigan taomlar, turli xildagi non* kabi milliy taomlar tayyorlanadigan markazlar kontentda belgilandi. Kontent yanada qiziqarliroq bo‘lishi uchun, o‘zbek milliy taomlariga oid etnografik ma’lumotlardan tashqari, turli milliy taom haqidagi rasmlar, videolar va medialar bilan ham to‘ldirildi.

2. Amaliy dasturlar (mobil ilovalar) veb-sayt ma’lumotlar bazasini yaratish. Bunda to‘rt turdagi ommaviy axborot vositalarining integratsiyasi: OAV, mobil ilova, o‘zbek milliy taomlariga oid platformalar va video, rasmlardan iborat veb-saytlar yaratishdan iboratdir.

3. Mobil ilovani sinovdan o‘tkazish va ma’lumotlar bazasi saytlarini yaratish. Farg‘ona vodiysi etnografik dala ma’lumotlaridan foydalanilgan holda tadqiqotning tahlili, xulosasi, mos ravishda mobil ilovaga joylashtirildi. Bu orqali Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos moddiy madaniyati, xususan, oziq-ovqatlari, taomlari va taomlanish an’analari bilan ham tanishtiriladi.

4. Mobil ilovadagi ma’lumotlar bazasi (foto, video) sifatini baholash. O‘zbek milliy taomlari bilan bog‘liq hududda shakllangan madaniyat rasm va videolar orqali ma’lumotlar bazasiga doimiy joylashtirilib boriladi. Asosiy maqsad esa mobil ilovadan foydalanuvchi sayyohlik auditoriyasini shakllantirish va ularga imkoniyatni qulaylashtirishdan iborat bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook) orqali ham yoritilib, xo‘randalarning munosabatlari ham o‘rganiladi.

5. O‘zbek milliy taomlar bazasini doimiy yangilab turishni nazorat qilish. Albatta olingan etnografik materiallarning tahliliy natijalarini umumlashtirish, xulosalar qilish va ularni ustidan nazorat o‘rnatish eng muhim masala hisoblanadi va doimiy ma’lumotlar yangiliklariga e’tibor qaratiladi.

Xulosa qilib, Farg‘ona vodiysidagi an’anaviy milliy taomlarning manzili bo‘yicha raqamlashtirilgan ilova yaratilgan va Farg‘ona vodiysiga oid o‘zbek milliy taomlari aniqlanib, joylashuvlari belgilandi. Joylashuvni tez topishi uchun mobil ilova navigatori *Google Maps* bilan integratsiya qilindi. Kontent yanada qiziqarliroq bo‘lishi uchun, o‘zbek milliy taomlariga oid etnografik ma’lumotlardan tashqari, turli milliy taom haqidagi rasmlar, videolar va medialar bilan ham to‘ldirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сонли Фармони // http://www/lex.ux/docs/41413188
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 ноябрдаги “Аҳолининг соғлом овқатланишини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4887-сонли қарори // http://www/lex.uz/docs/5090241; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 декабрдаги “Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида ислоҳотларни тадқиқ қилиш, стратегик режалаштириш ҳамда бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-58-сонли қарори // http://www/lex.uz/uz/docs/5790013; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 30 апрелдаги “Ички туризм хизматларини диверфикация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-232-сонли қарори // http://www/lex.uz/docs/5991928; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сонли Фармони // http://www/lex.ux/docs/41413188
3. Messer E. Anthropological Perspectives on Diet// annual Review of Anthropology. 1984. N. 13. Pp. 205-249; Nutritional anthropology 2012.
4. Alymbaeva Aida Aaly. National of Plov and Beshbarmak: Central Aisan Food and National Identity on the Internet // The Muslim World. Vol.110, 2020. – Pp. 107-125.
5. Roger Dickinson. “Food and the Media: Production, Representation, and Consumption,” in *Handbook of Food Research,* eds. Anne Murcott, Warren Belasco, and Peter Jackson (London: Bloomsbury Academic, 2016), 439—54.
6. Alymbaeva Aida Aaly. National of Plov and Beshbarmak: Central Aisan Food and National Identity on the Internet // The Muslim World. Vol.110, 2020. – Pp. 107-125.
7. Соколовский С. В. Киборги в киберпространстве: современные исследования в области кибер и цифровой антропологии // Этнографическое обозрение. – Москва, 2020 № 1. – С. 5–22.
8. Ushbu atama 2007-yildan beri juda mashhur bo‘lib, 2010 yilda Amerika Dialektik jamiyati tomonidan “yil so‘zlari” ro‘yxatiga kiritilgan.

9. ПНСТ 277-2018 Российская система качества. Сравнительные испытания мобильных приложений для смартфонов, ПНСТ от 26 июня 2018 года №277-2018“. http://docs.cntd.ru/document/1200159701

10. Google Play Store - ilovalar do'koni, shuningdek Google shirkatidan o'yinlar, kitoblar, musiqa va filmlar do‘koni, uchinchi tomon kompaniyalariga, Android operatsion tizimli qurilmalar egalariga turli ilovalarni o'rnatish va sotib olish taklif qilish imkonini beradi.

11. https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/6667/#_ftn10

12. Go‘ja taomi Buxoro va Xorazm vohalarida ham tayyorlanar ekan.

13. Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. – Тошкент: Меҳнат, 1989. – Б. 60.

14. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари // 2-жилд, – Тошкент: ЎзССР ФА, 1956. – Б. 4, 362.

15. Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. – Тошкент: Меҳнат, 1989. – Б. 199.

16. Google Maps (tarjimasi: Google xaritalari) – Google kompaniyasi tomonidan maps.google.com. manzilida taqdim etilgan va bepul kartografik xizmat va texnologiyalari asosida qurilgan dasturiy qo‘llanma to‘plami.

* Paygir – bog‘langan, o‘ralgan, bog‘liq kabi ma’noni bildiradi.

* Arpabodiyon - urug‘i, mevasida asosan efir moyi, shuningdek, oqsil va boshqa moddalar bo‘lgan, ziradoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘simlik.

Abduzohirov Ravshan Hamdamovich
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti
“Antropologiya va etnologiya” kafedrasi o`qituvchisi

MIGRATSIYA JARAYONLARI VA TURIZM HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Migratsiya va turizm jarayonlari o`tmishda va hozirgi davrda ham o`z ahamiyatini o`zgartirmaydigan hodisa hisoblanadi. Uning natijasida insonlar madaniyatidagi o`zgarishlar, insonning milliy harakteriga ko`chish natijasida ta’sir etgan omillar, migratsiya va turizmning kishilik jamiyatining madaniyatiga ijobiy va salbiy jihatlarini o`rganish doimiy tarzda tadqiqotchilarni diqqat markazida bo`lib kelmoqda. Migratsiya va turizmni barcha davrlarda turli soha vakillari o`z ilmiy tadqiqot doirasida o`rganib kelinmoqda. Ushbu maqolada ikki atamaning mazmun-mohiyati, o`zaro ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so`zlar. Migratsiya, turizm, migrant, turist, globallashuv, madaniyat, etnik turizm, madaniy turizm, ekologik turizm, tarixiy turizm, sayohat, sayyoh va boshqalar.

Globallashuv jarayoni davom etayotgan ushbu asrda migratsiya va turizm sohalari juda dolzarb masalalardan biri bo`lib kelmoqda. Har ikki atama ham

o`zining mohiyati jihatidan chuqur tahlil qilinishi kerak bo`lgan dolzarb masalalarni yuzaga keltiradi. Dastlab migratsiya va turizm atamalarini o`rganilishi hamda mohiyatiga to`xtalib o`tamiz.

Hozirgi kunda migratsiya jarayonlari asosida ko`plab o`zaro farqli ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, oilaviy turmush va siyosiy sabablar mavjudligi uchun migratsiya nazariyasi to`g`risida umume'trof etilgan universal bir konsepsiya orqali yoritib berish murakkab bo`lib qolmoqda. Bundan tashqari migratsiyaga oid ilgari surilgan nazariyalarda migratsiya jarayonlari paydo bo`lgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ekologik, siyosiy va boshqa shart-sharoitlari hisobga olinmagan holda ilgari surilmoqda. Bu esa yuzaga kelayotgan nazariyalarni bir tomonlama yondoshayotganligidan dalolat beradi va bu holat migratsiya holatlarini ayrim jihatlarini yoritish uchun xizmat qilishi mumkinligini ko`rsatadi.

Tadqiqotchi E.Li o`zining migratsiya nazariyasi maqolasida, migratisyani: "umuman olganda yashagan joyini muqim yoki vaqtincha o`zgartirganlar" [5] deb ta'riflagan edi. Tadqiqotchi E. Li ushbu ta'rifida migratsiya harakatnining masofasini ichki va tashqi yoki ixtiyoriy va majburiy bo`lishi to`g`risida ma'lum bir chegara belgilab bermagan. Buning natijasida migratsiyaning vujudga keltirgan sabablar, obyektiv va subyektiv omillarga to`xtalib o`tish chetda qolib ketgan. Chunki migratsiya joylashgan hududdagi o`zgarishlardan tashqari, boshqa turli hodisalarga ham egadir. Masalan, migratsiya hodisasiga, shaxslarning ijtimoiy ta'siri natijasida jamiyat tizimida yuzaga kelgan farqlar, hududiy-ma'muriy o`zgarishlar, tabiiy-ekologik muhitdagi o`zgarishlar, ixtiyoriy yoki shaxsning migratsiya qaroriga sabab bo`ladigan mezonlar va boshqa shu kabilarni keltirib o`tishimiz mumkin.

F.Parmonov, I.Daminov, Sh. Tog`ayev, Sh.To`rayevlarning fikricha "migrant deganda kamida bir yil yoki undan ko`proq o`z vatanidan tashqarida bo`lgan kishi tushuniladi" [8]. Bu qarashlar o`z sohasi yuzasidan to`g`ri bo`lishi mumkin, ammo migratsiya ichki va tashqi bo`lishini inobatga olgan holda uning davriyligi qisqa va uzoq muddatlarga bo`lib ko`rsatish mumkin. Xususan,

Toshkentga kelgan asosiy migrantlarning ko`pchiligi dastlab ma’lum maqsadlar bilan qisqa muddatni ko`zlab keladigan bo`lsa, bu yerda ijtimoiy moslashuv va mehnat faoliyatining yaxshiligi natijasida doimiy yashashga qaror qilish mumkin. Tashqi migratsiyada esa asosan bir yildan besh yilgacha bo`lgan vaqtda amalga oshiriladi. Bu yuqoridagi tadqiqotchilar ta’rifiga to`g`ri keladi.

Tadqiqotchi J.J.Mangalam fikriga ko`ra, “immigratsiya deb atalgan jamoa avvaldan o`rnatilgan ierarxik qadriyatlar to`plami yoki baholangan maqsadlar asosida qabul qilgan qarori bilan o`zaro ta’sirlanadigan tizimlarda o`zgarishlarga olib keladigan doimiy jug`rofiy joylashuvidan boshqasiga qarab uzoqlashishidir” [7].

Bu tushuncha ayni paytda migratsiya jarayonini keng ma’noga ega mobillik (mobility) nazariyasidan ajratmoqdadir. Chunki, mobillik turli masofalarda vaqtincha yoki doimiy bo`lishiga qaramasdan har xil mintaqaviy harakatni o`z ichiga oladi. Biroq migratsiya doimiy joylashuv yerini o`zgartirish bilan aloqador mobillikka qaraganda ko`proq cheklangan hodisadir [6].

Turizm va turist atamalari turli ma’nolarni anglatadi. Bu haqda turli tadqiqotchi olimlarning qarashlar mavjud. Turizm (tourism) terminini birinchi bo‘lib 1830-yilda V.Jekmo tomonidan qo‘llanilgan edi. Bu tushuncha fransuz tilida «tour», sayohat ma’nosida ishlatilgan. Turizm va turist tushunchalari o‘z navbatida bir ma’nodagi tushuncha sifatida qarash noo‘rindir. Turizm keng ma’nodagi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida barcha turistik xizmatlar yig‘indisidan iborat soha hisoblanadi. Turist esa shu sohada ishtirok etadigan muayyan shaxs o‘zi yashaydigan yoki boshqa joy, hudud, mamlakatda bo‘lib xaq to‘lanadigan xizmat bilan mashg‘ul bo‘lmasdan, turli xizmatlardan foydalangan shaxsga aytiladi. Turist o‘z navbatida turizmda band bo‘lgan kishilardir.

Ushbu termin va tushunchalarga Bern universiteti professorlari Xunziker va Krapflar aniqroq baho beradi. Jumladan, turist – bu o‘zi yashaydigan joydan boshqa joyga, hududga, mamlakatga, mamlakatidan tashqariga bo‘sh vaqtlarida

dam olish, sog‘lig‘ini tiklash, sog‘lomlashtirish, mehmonga borish, diniy va ish yuzasidan haq to‘lanadigan maqsadlaridagi tashrifidir**, deb ta’rif beradi.**

Tadqiqotchilar A.Soliev va M.Usmonovlar (2005) turizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: **«aholining o‘zi yashab turgan mintaqa, hudud, o‘lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko‘rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turiga sayohat, ya’ni turizm»[1]** hisoblanadi. 1963-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Xalqaro turizmga oid Rim konferensiyasiga muvofiq **turist deb, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safarga borib, kamida 24 soat ichida o‘sha yerda turib, turistik xizmatidan foydalangan kishiga aytiladi[2].**

Tadqiqotchi R.Abdumalikovning fikricha, turizm – sayohat paytida «tur» (belgi) o‘rganish degan ma’noni bildirib, tog‘, adirlar va uzoq masofalarga sayohat qilish, oxirgi manzilga belgi qo‘yib kelish yoki cho‘qqiga chiqqanlikni bildirish uchun biron belgi qo‘yishni anglatadi, deb ta’riflaydi[3].

Turistlar - bu normal muhitdan tashqarida bo'lgan joylarda, u yerda joylashish niyati bo'lmagan odamlardir. Ular dam olish yoki dam olish maqsadida yangi joylarga sayohat qilishadi. Gretsiya, Tailand va Bagama orollari kabi ko'plab davlatlar iqtisodiyoti global turizm orqali yaratilgan daromadga katta darajada bog'liq. Ushbu sohalarda bandlik ko'p jihatdan xizmat ko`rsatish sohalariga (ya'ni, mehmonxonalar, va kruiz kemalari va taksilar kabi transport xizmatlariga) bog'liq.

O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risidagi qonuni»da (**3 - modda. Asosiy tushunchalar**:) turizm - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy - amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi); turist - O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo‘nab ketgan) jismoniy shaxs[4];

Turistik joylarning uchta tasnifi mavjud:

Ichki turizm: o'z mamlakatida sayohat qiladigan ma'lum bir mamlakat aholisi. (ya'ni Qashqadaryoda yashovchi o`zbek, Samarqandga tashrif buyuradi);

Kiruvchi turizm: ma'lum bir mamlakat chegaralarida sayohat qiluvchi norezidentlar. (ya'ni avstraliyalik sayyoh Xitoy rezidentiga tashrif buyuradi);

Chiqish turizmi: boshqa mamlakat ichida sayohat qiluvchi bir mamlakat rezidentlari (ya'ni, Kanada rezidenti Gretsiyaga tashrif buyuradi).

Bundan tashqari, turizmning besh turi mavjud[11]:

Etnik turizm: juda xorijiy/boshqa muhitdagi mahalliy odamlarni ko'rish uchun tashriflar (ya'ni Nahua hindulari va ularning mahalliy va milliy hukumatlariga sayohat)[10].

Ba'zi faoliyatlar o'ziga xos madaniyat uchun muhim bo'lgan chiqishlar, taqdimotlar va diqqatga sazovor joylarni o'z ichiga oladi.

Madaniy turizm: umumiy darajadagi boshqa madaniyatlarni boshdan kechirish uchun tashriflar (ya'ni Mardi Gras uchun Nyu-Orleanga, Luizianaga sayohat)

Tarixiy turizm: tarixiy joylar yoki yodgorliklarni ziyorat qilish (ya'ni Eyfel minorasini ko'rish uchun Parijga sayohat yoki Registonni ko'rish uchun Samarqandga sayohat).

Ekologik turizm: sayohatchi o'z mamlakatida o'rganganidan butunlay boshqacha muhitni boshdan kechirish uchun tashriflar (ya'ni Antarktidaga sayohat). Bu, shuningdek, Milliy bog'lar xizmati tomonidan atrof-muhitni ko'rish uchun saqlanadigan milliy bog'ga borishni (ya'ni Yelloustoun yoki Yosemitga sayohat) o'z ichiga oladi[12].

Dam olish turizmi: o‘ziga xos tadbirlarda qatnashish uchun tashriflar (ya’ni, “Buqalar yugurishini” ko‘rish uchun Ispaniyaning Pamplona shahriga sayohat)[9]. “Ko`pkari uloq” o`yinini ko`rish uchun Qashqadaryoni turli mintaqalarga borish ham ushbu turizm doirasidagi sayohatga kiradi.

Sayyohlar o'sha millat ichidagi diqqatga sazovor joy bo'lgan mamlakatlarga borishadi. Eng mashhur xalqaro turistik diqqatga sazovor joylar qatoriga Parijdagi Eyfel minorasi, Italiyadagi Piza minorasi va Xitoydagi Buyuk devor kiradi. Buyuk

Xitoy devoriga yiliga 10 millionga yaqin sayyoh tashrif buyuradi. Boshqa madaniy jihatlar, masalan, oshxonadan tatib ko'rish, an'anaviy tadbirlarni boshdan kechirish yoki tilni o'rganish ham sayyohlarni jalb qilishi mumkin. Tarix davomida farovonlik darajasi yuqori bo'lgan odamlar ajoyib sayohatlarga ega bo'lgan. Badavlat odamlar boshqa hududlarga borish uchun ham pulga, ham vaqtga ega, quyi tabaqadagi odamlar esa bunday imkoniyatga ega emaslar. Bu boylikning bir hududdan boshqa hududga kirib kelishi sayyohlarni o'ziga tortadigan mintaqa uchun juda foydali bo'lishi mumkin.

Shu sababdan migratsiya holatlari insonlarda turizm faoliyati uchun imkon beruvchi omil sifatida qaraladi. Yuqorida keltirib o`tilgan fikrlardan kelib chiqib, migratsiya kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun xizmat qiluvchi vosita sifatida ko`rsatish mumkin.

Migrantlar mehnat migratsiyasi natijasida o`z iqtisodiy ahvolini yaxshilash bilan bir qatorda o`zlariga vaqt sotib olishadi. Chunki, o`z yurtlarida iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun 10-15 yil ketadigan bo`lsa, xorijga mehnat migratsiyasi natijasida 3-5 yilda barcha iqtisodiy muammolarini hal qiladi. Buning natijasida kelajak uchun sarmoya ham to`plab qaytishadi. Ularning iqtisodiy bazasi azaldan sayyohlar uchun qulay bo`lgan manzillarga borish uchun xohish va imkon beradi. Migrant qiyinchilik bilan mehnat qilgan yillarini eslagan holda keyingi faoliyatini ish bilan bir qatorda turist sifatida sayohatlar qilish kerakligini anglab yetadi. Bunga misol sifatida Qashqadaryolik sobiq Yevropada ishlab kelgan migrantlardan biri hayotini bu qismini turli sayohatlar bilan o`tkazish kerakligini ta’kidlab, yil boshidan o`zi orzu qilgan Rossiya, Turkiya va Saudiya arab davlatlariga o`zi va yaqinlari turist sifatida tashrif buyurganligini aytib o`tdi.

Migrantlar turist bo`lishi va turistlar ham migrant bo`lishi mumkin. Bunday holatlar qashqadaryolik migrantlar faoliyatida ko`plab uchrab turadi. Masalan, Yevropa mamlakatlariga dastlab turist sifatida borib, so`ngra mehnat migranti sifati qolib ketgan oilalar ham ko`pchilikni tashkil etadi. Bu holat Yevropa mamlakatlaridagi ishchi kuchiga bo`lgan ehtiyoj va yaxshi ish haqi bilan bog`liq. Migrant oilalarning Polshaga turist sifatida borib, Shvetsiyaga mehnat migrant

sifatida o`tib ketishi so`nggi yillarda qashqadaryolik migrantlar orasida ancha ko`paydi. Dastlab bu holat ba'zi turist oilalarda kuzatilgan bo`lsa, hozirgi vaqtda yevropaga chiqish imkoni sifatida qaralmoqda.

So`ngi yillarda mehnat migratsiyasi bilan mashg`ul bo`lgan Qashqadaryolik migrantlar orasida ota-onalarini Islom dinini ado etilishi farz bo`lgan Xaj va Umra safarlariga yuborish odatlari kuchayib bormoqda. Ichki va tashqi migratsiya natijasida iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshilab olgan Chiroqchi tumani Jar qishlog`ining bazi yigitlari sinfdoshlari bilan birgalikda Umra safarlarini ado etish holatlari ham kuzatilmoqda. Bunga misol sifatida qishloqning 1984-yilda tug`ilgan bir sinfda o`qigan sinfdoshlarni Umra safarini ado etib kelganliklarini aytish mumkin. Bu holatlar keyingi yillarda yoshlar uchun o`rnak bo`lgan holda, odat tusiga kirib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, migratsiya va turizm jarayonlari bevosita bir-biriga bog`liq tushunchalar sifatida ko`rish mumkin. Bu ikki jarayonning biri-ikkinchisini to`ldirib borishi, migratsiyaning turizmga yo`l ochishi, sayohat bilan bog`liq odatlarni vujudga kelishi hozirgi kunda bu jarayonlarning o`zaro bog`liqligi va o`zaro hamjihatlatligidan namoyon bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005.
2. Мироненко Н.С., Тведохлебов И.Т. "Рекреационная география" - М. МГУ 1981.
3. Usmonov M.R. "Turizm gegrafiyasi" Samarqand-2020.
4. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi Qonuni. T.: 1999.
5. Lee E.S. "A Theory of Migration". Edited by J.A.Jackson Migration. Great Britain: Cambridge University Press, 1969.P.285. Manba: Theories of International Migration: //http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi=10.1.1.667.4527&rep=rep1&type=pdf.
6. Lewis G.J. Human Migration: A Geographical Perspective. 1982. p. 16.
7. Mangalam J.J. Human Migration: A Guide to Migration Literature in English 1955-1962. Lexington: The University of Kentucky Press, 1968. P.8. Manba: de Haas, H.Op.cit.
8. Пармонов Ф., Тўраев Ш., Даминов И., Тоғаев Ш. Миграция: Мусофир ватангадолар//Монография. "Sano-standart" нашриёти. Тошкент-2015.Б.18.
9. https://en.wikibooks.org/wiki/Cultural_Anthropology/Globalization_and_Migration#cite_note-8.
10. OJEDA-MACIAS. ETNIK TURIZM: KUTZALAN ISHI, MEKSIKA. https://www.msu.edu/user/schmid/ethnic.htm.

11. Marketing Smit, Lavene L. mezbonlar va mehmonlar: turizm antropologiyasi. 2nd ed. Pensilvaniya: Pensilvaniya universiteti P, 1989. Google Kitoblari. Google. 4 Mar. 2009. <http://books.google.com/books?id=YONSh9ItwWAC&printsec=frontcover#PPA4, M1.
12. U.S. Department of the Interior. http://www.nps.gov/

Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi
O‘zMU, Antropologiya va etnologiya kafedrasi stajor-o‘qituvchisi

TIBBIY TURIZMNING JAMIYAT SALOMATLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan jamiyat salomatligini mustahkamlashda turizmning ahamiyati, Tibbiy turizmni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar modellarining O‘zbekiston tibbiy turizmida integratsiya qilinganligi, tibbiy turizmni takomillashtirish chora-tadbirlari xususidagi fikr va mulohazalar keltirilgan. Zero, globallashuv jarayonlarida turizm sohasini rivojlantirishda inson salomatligi omili katta ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: tibbiyot, turizm, sanatoriya, sayyohlik firmalar, mehmon uylari, zamonaviy texnologiyalar.

Insonga Alloh tomonidan berilgan ne’matlar ichida eng birinchi o‘rinda mustahkam iymon tursa, undan keyin albatta, sog‘lik turadi. Islom dinida inson salomatligi eng katta ne’matlardan biri hisoblanib, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Mukammal saodat yo‘li” kitobida yozilganidek, “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam biz ummatlariga salomatlik ne’matini doimo Alloh taoloning O‘zidan so‘rab turishga buyurganlar”[1, B. 85]. Bugungi kunda millionlab odamlar tibbiy muolajalar bilan bir qatorda ham dam olish uchun mamlakatlar va mintaqalar bo‘ylab harakatlanishadi. Bunday jarayonlar tibbiy turizm hisoblanib mamlakat iqtisodiga ham foyda keltiradi.

Tibbiy turizm - bu sayyohlik sohasidagi davolanish uchun xorijiy mamlakatda dam olish bilan birlashtirish imkonini beruvchi yo‘nalish hisoblanib, bemorlarga eng zamonaviy dunyoga mashhur tibbiyot markazlarida professional

tibbiy yordam koʻrsatishdir. Salomatligini tiklash maqsadida sayyohlar asosan ikki xil usulda sayohatni amalga oshirishadi. Ular Sayyohlik agentliklari hamda Tibbiyot uyushmalari orqali dam olish markazlariga yoki sanatoriya tashkilotlariga tashrif buyurishadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga moʻljallangan "Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi" toʻgʻrisidagi PF-60 sonli farmonida keltirilgan 55-maqsadi tibbiy xizmatlarni takomillashtirish natijasida turizm sohasidan keluvchi daromadini sezilarli darajada oshirish va Oʻzbekiston boʻylab sayohat qilish dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini oshirish kabi ustuvor vazifalari qoʻyilgan. Mazkur maqsadlarga erishishda tibbiy turizm muhim ahamiyat kasb etadi[2]. Shuningdek, **Oʻzbekiston Respublikasi** Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 5590 – sonli Qarori, Vazirlar Mahkamasi "2019-2023 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida tibbiyot turizmini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi loyihasini ishlab chiqildi hamda 2021-2025-yillarda Oʻzbekistonda xalq tabobatini rivojlantirish konsepsiyasi hamda uning maqsadli koʻrsatkichlarini amalga oshirishga doir "Yoʻl xaritasi" shakllantirildi. Mazkur konsepsiya tasdiqlanib, amalga joriy etilishi tibbiyotda koʻplab muammolarni hal qiladi. Tibbiy turizmni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar jumladan, Xitoy, Hindiston, Vengriya, Meksika, Singapur, Tailand, Braziliya, Janubiy Koreya, Turkiya davlatlarining ilgʻor tajribasini oʻrganish har tomonlama foydalidir. Bugungi kunda Tibbiy turizmni rivojlantirishda xorij mamlakatlar modellari asosida viloyatlarda tibbiy turizm faoliyatini amalga oshirayotgan korxonalar oʻrtasida hamkorlikni amalga oshirish, tibbiy turizmni amalga oshirish uchun yangi yoʻnalishlarni yaratish, tibbiyot uyushmalari va sayyohlik firmalar faoliyatini birlashtirish, yurtimizga kelgan sayyohlarni davolanishlari uchun yetarlicha imkoniyatlar borligini ularga yetkazish hamda tabiiy giyohlar, shoʻr koʻllar, tuz konlar va xalq tabobati orqali davolanish imkoniyati mavjudligi bilan tanishtirish, xalq tabobati bilan shugʻullanayotgan korxonalar yonida mehmon

uylarini shakllantirish va aholini ish bilan ta`minlash bosqichma-bosqich yo‘lga qoyilmoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda tibbiyot va turizm o‘z sog‘lig‘ini yaxshilash maqsadida sayohatlar, xizmatlar savdosini birlashtirgan turizm faoliyatining mavjudligi amerikalik olimlar M. Bookman va K. Bookmanlarning tadqiqotlarida keltiriladi[3, B. 15]. Olim G. Shekin o‘z ilmiy tadqiqotlarida “tibbiy turizm - turistik xizmat ko‘rsatish orqali tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadi bo‘lgan turistik faoliyat turi” deya ta’rif bergan[4, B. 309]. Tibbiy turizm “Rossiya tibbiy turizm assotsiatsiyasi” bergan ta’rifiga ko‘ra sayohatning bir turi hisoblanib, uning maqsadi sog‘liqni saqlash va tibbiy xizmatlarni amalga oshirishdir[5]. Aynan keltirib o‘tilgan turizm bilan tibbiyotni birlashtirish ham iqtisodiy jihatdan ham daromat manbaiga aylanmoqda.

So‘nggi davrlarda turli xil kasalliklarning ko‘payishi ayniqsa, ekologiya yomonlashayotgan vaqtda sog‘lomlashtiruvchi sanatoriya-kurort tashkilotlari, tibbiyot muassalari bilan bir qatorda og‘ir jarroxlik operatsiyalar uchun ham bu turizm turi juda muhim hisoblanadi. Ko‘p hollarda inson organlarini ko‘chirib o‘tkazish bo‘yicha murakkab operatsiyalar xorij davlatlarida, misol uchun Hindiston, Turkiya, Angliya davlatlarida amalga oshirilmoqdaKam harakat qilishlik va noto‘g‘ri ovqatlanish oqibatida O‘zbekiston aholisining ko‘p qismi vaznning oshib ketishi muammosiga duch kelmoqda. O‘zbekiston aholisining 46 foizi qon tarkibida me’yoridan ortiq xolesterin mavjud bo‘lib, 31 foizida qon bosimi yuqori. Tibbiy turizmning xavf-xatarlari ham mavjud bo‘lib bu davolanish o‘tkaziladigan mamlakatga xos bo‘lgan infeksiyalarni yuqtirish ehtimolidir. Misol uchun, blaNDM-1 geniga ega bakteriyalar Angliya va AQShga Hindiston va Pokistondan olib kelingan Rossiyada ichki tibbiy turizmning eng mashhur yo‘nalishi - stomatologiya. AOMMT ma'lumotlariga ko‘ra, mintaqalarga sayohat qilish orqali davolanishni tejashga intilayotgan rossiyaliklarning ulushi hozirda 4-6% dan oshmaydi.

Tibbiy turizm kishilarning asosiy yashash joylaridan tashqarida dam olish bilan birga yuqori malakali tibbiy yordam olishidir. Bunda tibbiy yordam bo‘lishi

shart emas. Kishilar tog‘ yon bag‘irlarida, o‘rmonzorlarda, suv havzalari atrofida, tabiat qo‘ynida dam olib sog‘lig‘ini tiklashi, shu vaqtning o‘zida professional meditsina xizmatidan foydalanishi mumkin. Yurtimiz dam olish va sog‘liqni tiklash maskanlariga boy bo‘lib, Chorvoq, Beldirsoy oromgohlari, “Mersian”, “Botanika”, “Turon”, “Zomin” kabi 100dan ortiq sanatoriyalar butun dunyoga mashhur. Hozirgi kunda yurtimizda 150dan ziyod xususiy klinikalar, davolanish markazlari aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonning eng xushmanzara, so‘lim maskanlaridan Farg‘ona vodiysi o‘ziga xos tabiati va iqlimi tufayli Markaziy Osiyoning asosiy sog‘lomlashtirish maskanlaridan biri sifatida mashhur. Xususan, Farg‘ona viloyatining barcha hududlarida dam olish uchun sanatoriya va shifo maskanlari mavjud. Bu yerda zamonaviy laboratoriya, konsultativ tekshiruvlar va diagnostika, standart muolajalar va murakkab jarrohlik operatsiyalarigacha bo‘lgan keng ko‘lamli ko‘p tarmoqli xizmatlar o‘rin olgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar – iyun oylarida 2000 nafarga yaqin chet el fuqarolari davolanish maqsadida Farg‘ona viloyatiga kelgan[6] . Hozirgi vaqtda tibbiy xizmatlarning global bozori o‘z infratuzilmasi ya`ni, tibbiy boshqaruv, akkreditatsiya organlari, tibbiy turizm agentliklari va turoperatorlar, tibbiy sayohatlar bo‘yicha mutaxassislar bilan shakllangan.

Tibbiy turizmni yanada rivojlantirish uchun bu kabi shifoxonalarni ko‘paytirish bilan bir qatorda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- aholiga tibbiy xizmatni tashkil etishda nafaqat davlat yoki xususiy mulk formalaridan foydalanish, balki kasalxona, profilaktoriya, sanatoriyalar, sog‘lomlashtirish markazlarini tashkil etish;

- tibbiy markazlar qoshida pullik va bepul tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish;

- tibbiy turizm sohasida band bo‘lgan chet el shifokor mutaxassislarini jalb etish;

- mahalliy tibbiy xodimlarini chet elda o‘qitish, malakasini oshirishni rag‘batlantirish;

-nodavlat tibbiy turizm obyektlar barpo etish.

O‘zbekistonda jadal rivojlanayotgan tibbiyot turizmning rivojlanishi sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasida 2017 yilda PMTI tahliliga ko’ra O‘zbekistonga davolanish maqsadida kelgan sayyohlar soni 28 ming 705 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 69 ming 984 nafarni tashkil etdi. Albatta, bu tibbiyotning rivojlangan davlatlar tomonidan tan olinayotganinig isboti. Shuningdek, zamonaviy tibbiy texnologiyalar bosqichma-bosqich sohaga keng jalb qilinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston sharoitida tibbiy turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud bo‘lib, yanada boyib borayotgan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tibbiy jihozlar va jahonning eng sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatayotgan xorij davlatlarida o‘z malakalarini oshirayotgan malakali kadrlar asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. «Мукаммал саодат йўли» «HILOL NASHR» 2014, 2016, 2019, 2021 2022. –Б.85.
2. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони ПФ-60 сонли. 2022-йил. 28-январ
3. Bookman, M. & Bookman, K. Medical Tourism in Developing Countries. New York:Palgrave MacMillan, 2007.
4. Щекин Г.Ю. Концептуализация феномена медицинского туризма в социологии медицины: диссертация ... доктора социологических наук: / Щекин Геннадий Юрьевич; спец. 14.02.05 [Место защиты: Волгоградский государственный медицинский университет]. – Волгоград, 2013. – 309 с
5. Официальный сайт Ассоциации медицинского туризма России (Russian HealthcareTravel Council (RHTS)). – URL: https://www.rhtc.org
6. Фарғона ва Баткен тиббий туризми истиқболлари — manzur.uz

Азизов А. А.
ЎзР ФА Тарих институти Т.ф.ф.д., кичик илмий ходими т.ф.ф.д (PhD)

ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ЎЙИНЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИГА НАЗАР (ҲАЙВОНЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ЎЙИНЛАР МИСОЛИДА)

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек халқининг ҳайвонлар билан боғлиқ миллий ўйинларидан бўлган “қўчқор уруштириш” антропологик таҳлил этилган. Қадимдан шаклланган ушбу ўйиннинг асл моҳияти очиб берилган ва

сайёҳликни шакллантирган ўйин сифатида ёритиб берилган. Мақолани шакллантиришда қоятош тасвирлари, қадимги шаҳарлардан топилган қадимшунослик ашёлари, деворий суратлар ва тарихий манбалардаги маълумотлардан ҳамда дала тадқиқоти материалларидан фойдаланилган.

Калит сўзлар: *Саймали-Тош, Персопол, Турон, Сополлитепа, Ибн Ҳавқал, ал-Мақдиси, Суғд, Тибет.*

Қадимдан дунёнинг кўплаб халқлари турмуш тарзи ва машғулоти яшаб турган ҳудуди иқлими, атрофини ўраб турган табиат бирликларига боғлиқ равишда хўжалик тизимларини шакллантирганлар. Дастлабки машғулотлар ҳисобланган овчилик ва термачилик жуда узоқ мингйилликлар давомида инсоният турмуш тарзининг асосини ташкил этиб келди. Музлик чекингач, иқлим илий бошлаши ва қулай табиий шароит инсонларнинг янги ишлаб чиқариш машғулотларини кашф этишига олиб келди. Натижада, қадимги аждодларимиз томонидан чорвачилик ва экин-тикинчилик машғулотларига асос солинди. Улар дастлаб ов қилган ёки ўзлари истиқомат қилган ҳудуддаги жониворлар суратларини қоятош тасвирларида чизиб қолдирганлар. Бундай тасвирлар сирасига Такатош, Сузмойил [17, 22], Янгиариқсой [6, 6-7], Қоронғусой [8, 48], Қарноб [18, 87], Зараутсой, Сармишсой, Саймали-Тош [14, 5], Қорақиясой, Хўжакент [12, 68-69], Аравон [4, 9] каби қоятош суратларини келтириш мумкин.

Илк ишлаб чиқарувчи хўжалик асосларидан бири чорвачилик машғулоти бўлиб, тез орада дунёнинг кўплаб ҳудудларига, хусусан, Турон ҳудудига ҳам кириб келди. Қадимги туронликлар тез орада дунёнинг энг илғор чорвадорлари сифатида қорамолчилик, қўйчилик, эчкичилик, паррандачилик соҳаларини ривожлантирдилар. Соҳанинг пайдо бўлиши таҳминан м.а. 7000 йилликларга тўғри келади [1, 161-190]. Ушбу машғулотлар Турон иқлимий имкониятлари нуқтаи назаридан ҳудудий ўзига хос тарзда қарор топиб, кенгайиб борди. Хусусан, қўйчилик қадимги Туронликларнинг энг муҳим машғулотларидан бирига айланди. Турли манзилгоҳлар ва қадимги шаҳарлардан топилган ашёвий далиллар уй

чорвачилиги хўжаликда асосий усуллардан бири бўлганлигини тасдиқлайди. Хусусан, Тошкент воҳасида жойлашган м.а. X – IX мингйилликлар яъни сўнгги мезолит даврига таалуқли Қўшилиш манзилгоҳидаги қазиш ишларида илк қўлга ўргатилганлиги таҳмин қилинган қорамол суяклари аниқланган [11, 29].

Сополлитепада олиб борилган қазишма ишлари натижасида очилган 138 та қабрнинг 63 тасида жониворларнинг суяклари аниқланган. Суяклар асосан, қўй ва эчкига тегишли бўлиб, уларнинг орқа оёқлари, кўкрак, курак ҳамда қовурға суяклари жасад билан бирга дафн этилган [5, 42]. Демак, бронза даврига келиб уй чорвачилиги ўтроқ аҳолининг асосий машғулотларидан бири ҳисобланганлигини тушуниш мумкин.

Қўйчиликни ривожлантириш мақсадида қадимдан наслчилик ишлари талаб даражасида бўлиши зарур ҳисобланган. Шунинг учун қадимги туронликлар томонидан зотдор қўчқорни саралаш тизими йўлга қўйилган. Чунки эрта баҳордан қўйларга наслдор қўчқорни қўшиш орқали ўзларида мавжуд қўй турларини чидамлироқ, маҳсулдорроқ ёки мукаммалроқ этишга урунганлар. Наслдор қўчқорни саралаш учун эса махсус синов усули амалга оширилган. Бу синов усули – қўчқор уруштириш ҳисобланади.

Қадимдан барча чорва турларида шундай усул қўлланиши тизими ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу синов ичида қўчқор уруштириш анча оммавийроқ бўлган. Чунки қўйчилик Турон иқлимий шароити туфайли кенг тарқалган ва алоҳида қўйчилик марказлари шаклланган. Масалан, Бухоро бурама шохли қўйлар ватани ҳисобланади [3, 20]. Айнан қадимги суғдликлар қоракўлчиликка асос солганлар ва қўшни мамлакатларни ҳам таъминлаганлар. Хусусан, Персопол саройидаги тасвирларда суғдликларнинг сара қоракўл қўчқорларини ҳадя сифатида етаклаб келаётганликлари тасвирланган [2, 240]. Бундан ташқари, қўйларни турли усулда парваришлаш тизимини ишлаб чиққанлар ва қўра ҳамда қўтон услубида чорвани парвариш қилиш усулларидан кенг фойдаланганлар [13, 108].

Илк ўрта асрларда Турон ҳудудига келган қатор сайёҳлар Ибн Ҳавқал, ал-Мақдиси ҳам қўйларнинг Туркистонда кўплиги ва қўчқорлари зотдор эканлиги ҳамда бундай қўчқорлар бошқа ерда йўқлигини алоҳида таъкидлаганлар [3, 25].

Қўчқорларнинг саралари Суғдга келтириб турилганлиги ва наслчилик давлат даражасида эътибор қаратилганлигига оид далиллар суғд манбаларида сақланиб қолган. Унга кўра, қўйчилик хўжалтклари энг зотдор қўчқорлардан солиқ сифатида саройга юбориб туриши шарт бўлган. Хусусан, Расмий ҳужжатларда Суғд саройига берилган қўйлар орасида зотдор қўчқорлар санаб ўтилган. Улар наслчилик ишлари учун саройда саралаб олинган. Зотдор қўчқорлар мамлакатнинг турли ҳудудларидан келтирилган. Қўй турлари орасида оппоқ ва тибет зоти борлиги қайд этиб ўтилган [16, 86].

Мунтазам ўтказилувчи қўчқорларни саралаш тадбири ҳар чорва йили бошида яъни 21 – 22 март кунларида ўтказилган. Бундай саралаш тадбирининг Наврўз байрами кунлари ўтказилиши халқ сайлларига уларни ўйин кўринишида аҳамият касб этишига сабаб бўлган. Шунингдек, қўчқорларни саралаб олиш жараёнига кўпроқ чорвадорларни жалб этиш мақсадида мукофотлар жорий этила бошланди. Натижада, моддий манфаат туфайли иштирокчилар сони янада ортган ва кўпроқ зотли қўчқорларни ўзаро синаш имконияти вужудга келган. Кейинчалик саралаш тадбирлари ўйин сифатида талқин этила бошланди. Қўчқор уруштириш кўпинча туя, хўроз, бедана уруштириш каби бозорларда ҳам уюштирилган [10, 195].

Қўй уруштиришнинг зотдор қўчқорларни саралаш усули сифатида қўлланиши аста-секин диний-фалсафий тушунчалар билан қоришиб кета бошлади. Чунки Турон энг қадимги дини ҳисобланмиш Зардуштийликда айрим маъбудлар ҳайвон кўринишида ифодаланиши туфайли соҳага ўз таъсирини ўтказди. Ҳайвонларни уруштириш эса, саралаш мақсадида эзгу амал сифатида баҳоланди. Агар кимда-ким эзгу ният билан бирор ишга қўл урса Ахура Мазда уни тақдирлайди деб қаралган. Бу чорвачилик машғулотига ҳам хосдир [7, 293].

Қўчқор уруштириш икки куч ўртасидаги азалий курашнинг кўриниши сифатида ҳам талқин этилган [15, 324]. Унга кўра, ёвуз кучлар устидан эзгу кучлар ғалабаси қарор топиб, Баҳор фасли кириб келган.

Ўзбек халқи маданиятида чорвачилик билан боғлиқ ўйинлар ичида қўчқор уруштириш алоҳида аҳамият касб этиб келган. Айниқса, чорванинг аксарият қисмини ташкил этган қўйчиликда бу жараён муҳим босқичлардан бири бўлган. Шунингдек, Туроннинг чўлли минтақасида қўйчилик қилиш ўзига хос чақирувларни ва муаммоларни чорвадорлар гарданига юклаб келган. Бундай вазиятда қўчқор уруштириш тадбири катта аҳамият касб этган. Ғолиб бўлган қўчқорнинг нархи энг қиммати бўлган. Уни сотиб ололмаган бошқа чорвадорлар ушбу қўчқор наслидан бўлган қўчқорларни сотиб олишга ҳаракат қилганлар [9].

Мамлакат бўйлаб чорвадорларнинг байрам ёки муайян бозор кунларида бир ерга йиғилиши ички ва ташқи туризмнинг ўша даврларда шаклланиши имконини яратган. Бу тижорий ва кўнгилочар аҳамият касб этган бўлиши эҳтимолдан ҳоли эмас.

Қадимда муайян соҳадаги зотларни саралаш учун ўйлаб топилган жараён, кейинчалик ҳайвонлар билан боғлиқ ўйинларнинг бири сифатида катта аҳамиятга эга бўлган. Натижада, қўчқор уруштириш бозорларда, тўйларда ва турли байрамларда кенг ўтказила бошланган. Бу жараён ўз навбатида ижтимоий ҳаётда аҳоли орасидаги юқори даражани олиб келган. Энг сара қўчқорлари бор чорвадор, яқин ҳудудлар ёки мамлакатдаги энг машҳур инсонлардан бирига айланган. Кейинчалик энг сара қўчқорлар бевосита ҳукмдорларга ҳадя этила бошланган ва уларгина энг зотдор қўчқорларнинг эгаси сифатида талқин этилганлар.

Бугунги кунга келиб қўчқор уруштириш турли мақсадларда амалга оширилади. Ушбу мақсадлар кўнгилочар хусусиятга эга бўлиб, ўзнинг қадимги мазмун-моҳиятидан анча узоқлашган. Натижада, бўш вақтни ўтказувчи, кўнгилочар, тўй тантаналарини ўтказишда инсонларни жалб этувчи ўйинлардан бирига айланди.

Қўчқор уруштиришнинг асл мазмуни ва келиб чиқиш омилларини кенг жамоатчиликка ҳамда сайёҳларга етказиш бугунги кундаги муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Ушбу мақсадни амалга ошириш учун қатор таклифларни билдириш мумкин:

Қўчқор уруштириш тарихий илдизлари кўргазмасини бошқа ҳайвонлар уруштириш ўйинлари билан биргаликда шакллантириш ва сайёҳлар учун махсус тайёрлаш;

Турли сайллар ва фестеваллар доирасида қўчқор уруштириш ўйини маданий жиҳатлари ва ҳудудий ўзига хослигини кўрсатиб бериш;

Ушбу ўйинни миллий ўйинлар қаторида сайёҳлар учун ўтказилиш жойи ва вақтини махсус дастурини тайёрлаб, тадбирлар билан сайёҳларни яқиндан таништириш.

Ўзбек халқи миллий ўйинлари турлича ва хилма-хил бўлиб, халқ маданияти ва минг йиллик тажрибаларининг маҳсули ҳисобланади. Ушбу номоддий меросни кенг жамоатчиликка танитиш ва сайёҳларга миллий маданиятдаги бундай ўйинлар аҳамиятини етказиш долзарб ҳисобланади.

ФОЙДАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Melinda A. Zeder. The domestication of animals//Journal of anthropological research. 2012. – Volume 68. –Number 2. – P. 161-190.

2. Olmstead A.T. History of the Persian empire. Chicago, London: The University of Chicago press. 1948. 240 p.

3. Абдолниёзов Б. Хоразм чорвачилиги – қадим замонлардан ҳозиргача. Урганч, 1992. 20-бет.

4. Анарбаев А., Исломов Ў., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001. – 9-бет.

5. Аскаров А. Древнеземледельцеская культура эпохы бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – 42 с.

6. Бернштам А.Н. Древняя Фергана. – Ташкент, 1951. – С. 6-7.

7. Бобоев Ҳ., Дўстжонов Т., Ҳасанов С. “Avesto” – Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. – Тошкент: Тошкент Молия институти, 2004. 293-бет.

8. Гулямов Я., Мухаммеджанов А. Достижения советской археологии в Узбекистан // Общественные науки в Узбекистане. – 1967. – №11. – 48 с.

9. Дала ёзувлари. Андижон вилояти, Булоқбоши тумани. Кулла қишлоғи. 2018 йил.

10. Джаббаров И.М. Узбеки. – Ташкент: Шарқ, 2007. – 195 с.

11. История материальной культуры Узбекистана. /Ответ. ред. А. Аскаров. Ташкент: Фан, 1975. – 29 с.

12. Кащей О.А. Опыт документирования петроглифов наскальных галерей Каракиясая и Ходжикента с помощью современной цифровой фотографии /

Международная археологическая школа: сборник материалов итоговой конференции. – Казань: Болгар, 2018. – С. 68–69.
13. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида: Терма парчалар / Тузувчи ва тарж. Зоҳир Аъзам; Масъул мухаррир О. Абдуллаев. Юрист-медиа маркази, - Тошкент. 2008. – 108-бет.
14. Помаскина Г. А. Когда боги были на земле… – Фрунзе: Кыргызстан, 1976. – 5 с.
15. Снесарев Г.П. Реликты до мусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969. – 324 с.
16. Фрейман А.А. Описание, публикации и исследование документов горы Муг. – Москва: Издательство восточной литературы, 1962. 85 – 86 с.
17. Хужаназаров М. Наскальные изображения Северо-Восточного Узбекистана//Автореферат. дисс. ... канд. Л., 1985. – С. 22.
18. Шер Я.А. Петроглифы Средней Азии. – Москва: Наука, 1980. – 87 с.

Аскаров М.М.
Тошкент давлат шарқшунослик университети, Марказий Осиё халқлари тарихи ва этнологияси кафедраси доценти. (PhD)

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ И НАСЛЕДИЯ УЗБЕКОВ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация: Данная работа рассматривает важную роль национальной культуры и наследия узбеков в формировании национальной идентичности. Особое внимание уделяется историческому контексту, влиянию традиционных ценностей, обычаев и искусства на формирование самосознания узбекского народа. Также рассматриваются современные тенденции сохранения и продвижения национальной культуры, в том числе через строительство архитектурных памятников, музеев и других культурных объектов. Исследование позволяет оценить вклад узбекской культуры в формирование национальной идентичности и ее значимость для сохранения культурного многообразия в мировом контексте.

Ключевые слова: национальная культура, наследие, узбеки, строительство, национальная идентичность, традиции, архитектура, искусство, самосознание, сохранение.

В эффективном осуществлении проекта национального строительства, продвижении и распространении национальных идей и идентичности связующую роль играют коммуникационные системы.

Действительно, коммуникационные системы (такие как телевидение, радио, газеты, Интернет) являются мощным средством создания, сохранения и продвижения национальной идентичности. Опираясь на теорию печатного капитализма Б. Андерсона, У. Норман отмечает, что технологические достижения в XX веке позволили, с одной стороны, национальным строителям донести национальные послания (например, касающиеся национальной истории, культуры и ценностей) до каждого члена их национального сообщества. С другой стороны, они увеличили возможность (не)прямого взаимодействия соотечественников друг с другом. Иными словами, технический прогресс позволил «соотечественникам обмениваться общими источниками информации, общими историями и быть более осведомленными о существовании друг друга»[1, 43].

С помощью коммуникативных систем непрерывно осуществляется продвижение национальной культуры, например, литературы, народной музыки, исполнительских и классических произведений, национальных праздников, что является необходимым элементом каждого проекта по национальному строительству.

Следует отметить, что национальные культуры не являются стабильными и фиксированными категориями, а скорее подвержены постоянным изменениям, обновлению и реинтерпретации. Важно отказаться от представлений о том, что культура – это просто историческое наследие. Культура – это не магазинная тележка, которая приходит к нам уже загруженной набором исторических культурных ценностей. Скорее мы конструируем нашу культуру, выбирая предметы с полок прошлого и настоящего. Как утверждалось выше, материальная и духовная культура является одним из краеугольных камней в изучении национальной идентичности. Исходя из этого, изучая политику национальной культуры какого-либо государства, можно проследить путь национального строительства, а также определить, насколько эта политика отражает реальность.

Для раскрытия этой реальности зарубежные исследователи в области изучения национальной идентичности, например Т. Эденсор, предложил исследование повседневной жизни народа. Его исследование фокусируется главным образом на популярных и материальных культурах. Он обсуждает роль пространства, ландшафтов, материальных объектов и продуктов материальной культуры в развитии и укреплении чувства национальной принадлежности. Однако инновационный вклад Т. Эденсора заключается в его идее объединить повседневные практики в три основных типа действий: представление нации через формальные и популярные ритуалы и церемонии; представление нации через туристические материалы и мифических героев, изображенных в фильмах; представление нации через общенациональные выставки[2, 69]. Все вышеперечисленные три типа повседневной практики также существуют и осуществляются в Узбекистане.

По мнению, Р. Айзекс и А. Полиса конструирование национальной идентичности может осуществляться за счет действий людей или их групп; например, создание национальной идентичности путем популяризации национальных песен, искусства танца, даже несмотря на возможное отсутствие поддержки со стороны государственных органов[3, 457].

Действительно, в своей работе Р. Айзекс и А. Полис сделали первую попытку среди зарубежных исследователей взглянуть на конструирование национальной идентичности через призму нетрадиционных каналов. Основное внимание исследователей уделяется феноменам, исходящим из глубины общества, которые получают повышенное внимание и популярность и в конечном итоге считаются маркером идентичности для значительной части населения.

Узбекская национальная культура и ее место в развитии узбекской национальной идентичности в период независимости была исследована зарубежными учеными в разных аспектах. Среди ученых, которые исследовали узбекскую культуру в целом, можно выделить Л. Адамс [4], Ш.

Акйилдыз и Р. Карлсон[5], М. Ларюэль[6], А. Сенгупта[7], Д. Макфадйен[8] и др.

Одна из самых популярных исследователей в области национальной культуры и его влияния на идентичность в Узбекистане считается Л. Адамс[9]. Она провела суммарно около года, с 1995 до 1998, в Узбекистане и собирала этнографические данные о национальной культуре. Она исследовала почти все сферы культуры, такие как национальная и фольклорная музыка, национальные праздники, одежда и пища, театр и опера, и другие национальные мероприятия. В итоге, она приходит к выводу, что в таких странах, как Узбекистан, которые работают по советской схеме культурного строительства, ставящей культуру на службу государству, формы, не соответствующие целям государства, не поддерживаются[10].

Полностью согласиться с данным выводом исследовательницы невозможно, так как, в первую очередь, национальная культура должна быть принята народом. Только в таком случае она может получить поддержку и служить целям государства. Если культура, предложенная государством, отвергается народом, государство, несмотря на свои цели, отказывается от этого. Согласно теории М. Биллига[11], ежедневные (банальные) действия народа, даже и не поддерживаемые государством, могут в итоге превратиться в часть его идентичности.

Литература и её влияние на идентичность исследовалась мало. В основном зарубежные исследователи ограничивались упоминанием нескольких имен. Среди них А. Навои, М. Бабур, А. Фитрат, А. Кадири. В нескольких публикациях упоминается о дастане Алпомиш. Среди исследователей данного аспекта, можно подчеркнуть Л. Адамс[12], Кара Халим[13], Х. Паксой[14], Т. Каххар и В. Диркс[15], Х. Штеин[16] и др.

Узбекское кино и его отражение в идентичности практически не исследовано за рубежом. Кроме одной общей статьи С. Грахама[17], не было обнаружено какого-либо специального исследования, в котором узбекского кино принимается в качестве одного из способов продвижения и укрепления

национальной идентичности узбеков. Данная ситуация, возможно, связана с несколькими нижеперечисленными факторами: во-первых, количества государственных фильмов, которые направлены на укрепление патриотического духа народа не так много, а существующие не популярны среди населения; во-вторых, патриотические узбекские фильмы в основном производятся на узбекском языке, не имеют субтитров или переводов на мировые языки; в-третьих, зарубежные исследователи не знают узбекский язык и поэтому не имеют возможности проанализировать содержание данного контента.

Ситуация с национальными ТВ и радио программами и передачами находится не в лучшем положении. Исследователи, в большинстве случаев, только визуально могут увидеть и попытаться понять суть происходящих изменений и трансформаций в узбекском сообществе. Англоязычные издания не имеют возможности передавать всю существующую информацию достоверно и не искаженно. Этим и пользуются некоторые новостные издания для некорректной передачи реальности. В итоге формируется неправдоподобное представление о государстве и его политике.

Узбекская музыка и национальное музыкальное наследие, их роль в укреплении национального чувства и единства были исследованы намного шире, чем вышеупомянутые две категории культуры такими учеными как Т. Левин[18], М. Слобин[19], Ф. Кароматов[20], Э. Кале-Лостуаль[21], А. Джумаев[22], Т. Мерчант[23], Р. Султанова[24], К. Томоф[25] и др.

По нашему мнению, именно национальная музыка и танцы стали отличительной и объединяющей идентичность не только узбеков по отношению к другим народам, но и внутри республики по отношению к самим региональным особенностям внутри Узбекистана. Ярким подтверждением этого являются национальные праздники. Национальная музыка также стала связующим звеном узбекской идентичности во время Советского государства и после обретения независимости.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Norman W. Negotiating Nationalism: Nation-Building, Federalism, and Secession in the Multinational State. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – P. 43.

2. Pawłusz E., Seliverstova O. Everyday nation-building in the post-Soviet space. Methodological reflections // Studies of Transition States and Societies, 2016. – Vol. 8(1). – Pp. 69-86.

3. Polese A., Horak S. A tale of two presidents: Personality cult and symbolic nation-building in Turkmenistan // Nationalities Papers, 2015. – Vol. 43(3). – Pp. 457-478.

4. Adams L. Modernity, Postcolonialism, and Theatrical Form in Uzbekistan // Slavic Review, 2005. – Vol. 64, – № 2. – Pp. 333-354; Её же: Ethnicity and the politics of heritage in Uzbekistan // Central Asian Survey, 2013. – Vol. 32:2. – Pp. 115-133; Её же: Invention, institutionalization and renewal in Uzbekistan's national culture // European journal of cultural studies, 1999. – Vol 2(3).

5. Social and cultural change in Central Asia: the Soviet legacy / edited by S. Akyildiz and R. Carlson. – NY: Routledge, 2014. – Pp. 162-164, 169.

6. The Nation Narrated: Uzbekistan's Political and Cultural Nationalism / in Marlene Laruelle, ed., Constructing the Uzbek State. Narratives of the Post-Soviet Years. – Lanham, MD: Lexington, 2018. – P. 262.

7. Sengupta A. Symbols and the Image of the state in Eurasia / MaulanaAbulKalam Azad Institute of Asian Studies. – Kolkata, India, 2017. – Pp. 37–45.

8. Macfadyen D. Russian Culture in Uzbekistan: One language in the middle of nowhere. – London and NY: Routledge, 2006. – P. 162.

9. Adams L. Modernity, Postcolonialism, and Theatrical Form in Uzbekistan // Slavic Review, 2005. – Vol. 64. – № 2. – Pp. 333–354; Еёже: Ethnicity and the politics of heritage in Uzbekistan // Central Asian Survey, 2013. – Vol. 32:2. – Pp. 115–133; Еёже: Invention, institutionalization and renewal in Uzbekistan's national culture // European journal of cultural studies, 1999. – Vol 2(3).

10. Adams L. Celebrating independence: arts, institutions, and identity in Uzbekistan. Ph.D. dissertation, Sociology. – University of California, Berkeley, 1999. – P. 230.

11. Billig M. Banal nationalism. – London: SAGE Publications, 1995. – 208 p.

12. Adams L. Modernity, Postcolonialism, and Theatrical Form in Uzbekistan // Slavic Review, 2005. – Vol. 64. – № 2. – Pp. 333-354; Её же: Ethnicity and the politics of heritage in Uzbekistan // Central Asian Survey, 2013. – Vol. 32:2. – Pp. 115-133; Её же: Invention, institutionalization and renewal in Uzbekistan's national culture // European journal of cultural studies, 1999. – Vol 2(3).

13. Kara H. Reclaiming National Literary Heritage: The Rehabilitation of Abdurauf Fitrat and Abdulhamid Sulaymon Cholpan in Uzbekistan // Europe-Asia Studies, 2002. – Vol. 54:1. – Pp. 123-142.

14. Paksoy H. Central Asia's New Dastans // Central Asian Survey, 1987. – Vol. 6. – № 1; Его же: Alpamysh: Central Asian Identity under Russian Rule. – Hartford, CT: Association for the Advancement of Central Asian Research, 1989; Его же: Central Asian Monuments. – Istanbul: Isis Press, 1992.

15. Qahhar T. and Dirks W. Uzbek Literature // World Literature Today, 1996. – Vol. 70. – № 3. – Pp. 611-618.

16. Stein H. Turkish Nasreddin Hoca's Appearance as the Uzbek Afandi// Middle Eastern Literatures, 2007. – Vol. 10:3. – Pp. 219-230.

17. Graham S. Contemporary Uzbek Cinema: The Case of Yusup Razykov // Studies in Russian and Soviet Cinema, 2010. – Vol. 4:2. – Pp. 227-233.

18. Levin Th. Music in Modern Uzbekistan: The Convergence of Marxist Aesthetics and Central Asian Tradition // Asian Music, 1980. – Vol. 12. – № 1. –Pp. 149-158; Его же: The Reterritorialization of Culture in the New Central Asian States: A Report from Uzbekistan /

Yearbook for Traditional Music, 1993. – Vol. 25. – Pp. 51-59; The Music of Central Asia / Th. Levin, S. Daukeyeva, and E. Köchümkulova, eds. – Indiana University Press, 2016. – 703 p.

19. Slobin M. Conversations in Tashkent // Asian Music, 1971. – Vol. 2. – № 2. – Pp. 7-13; Его же: Central Asian Film Music as a Subcultural System // Ethnomusicology Forum. – Vol. 18:1. – Pp. 153-164.

20. Karomatov F. On the Regional Styles of Uzbek Music // Asian Music, 1972. – Vol. 4. – № 1. – Pp. 48-58; Karomatov F., Djijiak T., Levin Th. and Slobin M. Uzbek Instrumental Music // Asian Music, 1983. – Vol. 15. – № 1. – Pp. 11-53.

21. Kale-Lostuale E. Varieties of musical nationalism in Soviet Uzbekistan // Central Asian Survey, 2007. – Vol. 26:4. – Pp. 539-558.

22. Djumaev A. Power Structures, Culture Policy, and Traditional Music in Soviet Central Asia / Yearbook for Traditional Music, 1993. – Vol. 25. – Pp. 43-50; Его же: Musical Heritage and National Identity in Uzbekistan // Ethnomusicology Forum, 2005. – Vol. 14:2. – Pp. 165-184.

23. Merchant T. Popping Tradition: Performing Maqom and Uzbek “National” Estrada in the 21st Century // Popular Music and Society, 2009. – Vol. 32:3. – Pp. 371-386.

24. Sultanova R. Music and Identity in Central Asia: Introduction // Ethnomusicology Forum, 2005. – Vol. 14, – № 2. – Pp. 131-142.

25. Tomoff K. Uzbek Music's Separate Path: Interpreting "Anticosmopolitanism" in Stalinist Central Asia, 1949-52 // The Russian Review, 2004. – Vol. 63. – № 2. – Pp. 212-240.

Aziza Zoyidova Faxriddinovna
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

BOZOR ANTROPOLOGIYASINI O‘RGANISHDAGI NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy antropologiyani o‘rganishdagi ilmiy-nazariyalar va ularda bozor antropologiyasi bilan bog‘liq ba‘zi nazariy qarashlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Marjinalizm, kula, sovg‘a almashinuvi, ayirboshlash, qayta taqsimlash, bozor almashinuvi.

Globallashuv davrida iqtisodiy antropologiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, iqtisodiy antropologlar jamiyatlar va madaniy guruhlar o‘z ehtiyojlarini qanday ta‘minlashlarini, odamlar o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun boshqa guruhlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishlarini o‘rganadi. Shuningdek, iqtisodiy antropologiya insonning iqtisodiy xatti-harakatlarini tarixiy, geografik va madaniy miqyosda tushuntiradigan soha bo‘lib, u pul tizimlari, savdo aloqalari va insonlarning yashash sharoitlarini ham tadqiq qiladi.

"Iqtisodiy antropologiya" atamasi dastlab 1927-yilda qo‘llanildi, ammo birinchi fundamental tadqiqotlar oldinroq boshlangan edi [1]. B.Malinovskiyning “G‘arbiy Tinch okeanining argonavtlari” (1922) [2] va M. Mossning “Sovg‘a haqida lavha: arxaik jamiyatlarda ayriboshlashning shakl va funktsiyalari” (1925) [3] asarlari katta rol o‘ynadi.

B. Malinovskiy iqtisodiyotning namoyon bo‘lishida va savdo tizimida kulani “juda katta nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy hodisa” ekanligini ta‘kidlaydi. Kula mahalliy aholi hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u bevosita qabila a‘zolarining g‘oyalari va istaklari bilan chambarchas bog‘langan. Kula nafaqat tovar-pul munosabatlarida, balki barcha odatiy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan ham butunlay farq qilgan va bu butun tizim bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, boshqa ibtidoiy iqtisodiy shakllarga xos xususiyatlarni ifodalaydi. B.Malinovskiy ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini maqsadli dala tadqiqotlari asosida o‘rgangan birinchi etnograf olim edi. U Trobriand orollaridagi melaneziyaliklar xo‘jaligini o‘rganib, batafsil tavsiflab berdi va butun jamiyatning iqtisodiyotini o‘rganib chiqdi va u o‘z tadqiqotlari bilan marjinalizmni “primitiv” jamiyatlarda qo‘llab bo‘lmasligini isbotladi [4].

“Marjinalizm” fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, “so‘nggi”, “qo‘shilgan” degan ma‘noni beradi. Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyondalari (K.Menger, F. Vizer, Bem-Baverk va boshqalar) bo‘lib, ular tomonidan qo‘shilgan tovar nafliligining, qo‘shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borish qonuni degan nazariyalar ishlab chiqildi. Marjinalizm nazariyasi aniq olingan tovarga bo‘lgan talab va uning narxi o‘rtasidagi bog‘liqlik va o‘zaro ta‘sirini tahlil qilishda keng qo‘llaniladi [5]. Marjinalizmning boshlang‘ich nuqtasi tovarlar (narsalar, xizmatlar) soni va bu tovarlarni yaratish vositalarining inson ehtiyojlari bilan solishtirganda doimo cheklanganligini anglatadi.

Fransuz etnografiyasining yetuk namoyondasi M.Moss o‘z tadqiqotlari va etnografik izlanishlari davomida primitiv jamiyatlarda “sovg‘a almashinuvini” o‘rgangan va uning hozirgi jamiyatlarda qanday rol o‘ynashini tushintirgan. Uning

mashhur asari “Sovg‘a” bo‘lib, Moss sovg‘alar hech qachon chinakamiga bepul emasligini, aksincha, insoniyat tarixi o‘zaro almashuvga olib keladigan sovg‘alarga to‘la ekanligini ta’kidlagan [6]. M.Moss uchta majburiyatni ajratib ko‘rsatdi: berish ya‘ni ijtimoiy munosabatlarni yaratish va saqlashdagi zarur dastlabki qadam; qabul qilish – berilgan sovg‘ani olish, agar olishdan bosh tortilsa - ijtimoiy aloqani rad etadi; o‘z majburiyatlarini ko‘rsatish uchun o‘zaro munosabatda bo‘lish [7]. M. Mossning sovg‘a almashinuvi kontsepsiyasidagi muhim tushuncha, berilgan narsalar sovg‘a qiluvchilardan ajratilmaydi; ular "sotish va berishdan ko‘ra qarzga olinadi". Bu hadya qiluvchining shaxsi sovg‘a qilingan narsa bilan doimo bog‘langanligini va bu esa, sovg‘a oluvchini o‘zaro munosabatga kirishishga majbur qiladigan kuchga ega bo‘lishiga olib keladi. Sovg‘alar ajralmas bo‘lgani uchun ularni qaytarib berish kerak va bu sovg‘a - qarzni yaratadi. Shu sababli, sovg‘a ya‘ni qarz qaytarilgunigacha ikki shaxs o‘rtasida munosabatlar yaratiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, sovg‘a berish orqali ijtimoiy aloqa rivojlanadi. M.Mossning fikricha, qaytarilmagan “bepul” sovg‘a qarama-qarshilikdir, chunki u ijtimoiy aloqalarni yarata olmaydi [8].

Iqtisodiy antropologiyaning alohida tadqiqot sohasi sifatida paydo bo‘lishi 1952 yilda Xerskovitsning "Iqtisodiy antropologiya" asarining nashr etilishi bilan namoyon bo‘ldi, unda muallif iqtisod qilishning universalligi, ya‘ni tanqislik sharoitida oqilona tanlash mantig‘ini ilgari surdi [9].

Vengriyalik antropolog Karl Polanyi ayirboshlashning uch xil usuli yoki tamoyillarini aniqladi: o‘zaro, qayta taqsimlash va bozor almashinuvi [10]. Shuni ta‘kidlash kerakki, har bir iqtisodiyot ushbu ayirboshlash tizimlaridan kamida bittasi bilan tavsiflanadi. Biroq, ko‘pgina iqtisodlar ushbu ayirboshlash tizimining ikkita yoki uchtasiga asoslanadi.

O‘zaro munosabat bozordan tashqari, bir-biri bilan ierarxik bo‘lmagan munosabatlarda bog‘langan odamlar o‘rtasida tovar yoki sovg‘a almashinuvini o‘z ichiga oladi. Bu bir-birini biladigan va kuch va maqom jihatidan teng bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi norasmiy sovg‘adir. Bu tovarlarni berish va olish ularning

uzluksiz ijtimoiy munosabatlarining bir qismi bo‘lib, almashinuv ular o‘rtasida munosabatlarni yaratadi va saqlab qoladi.

Polanyi tomonidan qayta taqsimlash tovarlarning ma‘muriy markaz tomon muntazam harakatlanishi va ularni markazdagi hokimiyat organlari tomonidan qayta taqsimlanishi deb ta‘riflaydi. Boshqacha qilib aytganda, guruh a‘zolaridan to‘plangan yoki qo‘shilgan tovarlar jamiyatga qayta taqsimlanadigan markaziy nuqtaga oqib chiqadi. Masalan, davlatning soliq siyosati buning yorqin dalilidir. Fuqarolar hukumatga turli soliqlarni to‘laydilar va ularga turli xizmatlar ko‘rinishida, masalan, yo‘llarni ta‘mirlash, kam ta‘minlanganlarga va qariyalarga moddiy yordam ko‘rinishida qaytadi [11].

Bozor almashinuvi - bu talab va taklif qonuni bilan belgilanadigan narxlarda tovarlar almashinuvi. Iqtisodiy ayirboshlashning bu shaklida ishtirok etgan odamlar bir-birlarini bilishlari shart emas. Bozor almashinuvining asosiy xususiyati shundan iboratki, tovarlar va xizmatlar odamlar puliga sotib olinadi va sotiladi. Ayirboshlovchilarning ijtimoiy va siyosiy rollari muhim bo‘lgan o‘zaro va qayta taqsimlashdan farqli o‘laroq, bozor almashinuvi shaxssizdir va ishtirokchilarning ijtimoiy mavqei qanday bo‘lishidan qat’iy nazar sodir bo‘ladi. Shunday qilib, bozor almashinuvi ayirboshlashning eng sof iqtisodiy modelidir. Umuman olganda, o‘zaro munosabat majburiy sovg‘a almashinuvidir; qayta taqsimlash - taqsimlash markaziga majburiy to‘lov; bozor ayirboshlash esa narx tizimiga tayangan holda sotib olish va sotishdir. Bozor integratsiyalashgan iqtisodiyotda bozor almashinuvi ustunlik qiladi.

Karl Polanyining ayirboshlash nazariyasini o‘rgangan amerikalik antropolog Marshall Sahlins inson jamiyatlarida uch xil turdagi o‘zaro munosabat mavjudligini kuzatdi - umumiy, muvozanatli va salbiy [12].

"Umumiy o‘zaro munosabat" deganda Malinovskiyning nazariyasi bo‘yicha "sof sovg‘asi"dir. Boshqa etnografik ko‘rsatgichlarda "baham ko‘rish", "mehmondo‘stlik", "bepul sovg‘a", "yordam" va "saxiylik" ko‘rinishlarida uchraydi. Bu boshqacha qilib aytganda, darhol qaytib kelishini kutmasdan sovg‘a berish. Misol uchun, yaqin qarindoshlar o‘rtasida ixtiyoriy ravishda oziq-ovqat

bo‘lishish yoki yordam berishdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy daromadni kutish noto‘g‘ri. O‘zaro javob bermaslik munosabatlarni to‘xtatib qo‘ymaydi: tovar juda uzoq vaqt davomida narsasi yo‘qlar foydasiga bir tomonga harakat qiladi.

"Muvozanatli o‘zaro munosabat" to‘g‘ridan-to‘g‘ri ayirboshlashni anglatadi. Aniq balansda o‘zaro almashuv olingan narsaning odatiy ekvivalenti bo‘lib, kechiktirmasdan amalga oshiriladi. Mukammal muvozanatli o‘zaro, bir xil turdagi tovarlarning bir vaqtning o‘zida bir xil miqdorlarga almashinuvidir. Shuningdek, oddiy barter yoki supermarket xaridlari bu tushunchani o‘z ichiga oladi. Agar siz olgan buyumingiz uchun pul to‘lamasdan do‘kondan chiqib ketsangiz, sizni do‘kon xodimlari to‘xtatib qo‘yishi mumkin va ehtimol siz tegishli miqdordagi pulni darhol qaytara olmaganingiz uchun hibsga olinishi mumkin.

Salbiy o‘zaro almashuv munosabatning eng shaxssiz turidir. "Barter" kabi ko‘rinishlarda bu bizning nuqtai nazarimizdan "eng iqtisodiy". Ishtirokchilar bir-biriga qarama-qarshi manfaatlar sifatida qarama-qarshi bo‘lib, har biri boshqasining hisobidan foydani maksimal darajada oshirishga intiladi. Bundan kelib chiqadiki, salbiy o‘zaro munosabat turli darajadagi ayyorlik, hiyla-nayrang, zo‘ravonlik yoki qattiq savdolashishni o‘z ichiga olishi mumkin. Salbiy o‘zaro munosabat**,** kimdir voz kechishni istamagan narsasini almashtirishga urinish bo‘lganda yoki evaziga u kutgandan ko‘ra ancha arzonroq olishga urinish bo‘lganda yuzaga keladi.

Iqtisodiy antropologiyaga Klifford Girts tomonidan kiritilgan madaniy burilish ham ta‘sir ko‘rsatdi. 1960-yillarda Girts talqin qiluvchi ramziy yondashuvni ishlab chiqdi va uning maqsadi madaniyatni jamoaviy tajribalar asosida to‘plashdan iboratdir [13]. Uning antropolog sifatida rivojlanishi Indoneziyaga ekspeditsiyalari bilan bog‘liq. Keyinchalik uning Marokashdagi bozor iqtisodiyoti haqidagi mashhur tadqiqoti madaniy va ijtimoiy institutlar va jarayonlarda bozorning boy tavsifiga muhim hissa qo‘shdi [14]. Girts bozor iqtisodiyoti bo‘yicha ishida axborot iqtisodiyoti bilan mohir va samarali muloqotda bo‘lishni va axborot assimetriyasining xar xil turlarini o‘rganadi . U mahalliy bozorlarning maxsus mexanizmlariga masalan, o‘ziga xos qoidalar bilan

savdolashish va boshqa jihatlarini ochib berdi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bozor munosabatlarini yoritishda iqtisodiy antropologik nazariyalar muhim ahamiyatga egadir. Bu nazariyalar va qarashlar ba‘zan bir-birini rad etsada, bugungi kundagi bozor antropologiyasinining konsepsial jihatlarini o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Белик А.А. Экономическая антропология: взаимодействие экономики и культуры // Экономический журнал, 2010. № 4. − С. 64-86.
2. Malinowski B. Argonauts of Western Pacific. London.This edition published in the Taylor & Francis e-Library, 2005.- 473.p
3. Marcel M. The Gift. London and New York.2002.- 199.p
4. Рязанов В.Т. Антропологический принцип в экономике//Вестник Санкт-Петербургского Университета, 2006, Сер. 5. Вып. 1, 3-18 стр
5. Bobobekov A. XX asrda O‘zbekiston tog‘li tumanlarida etnoiqtisodiy jarayonlar (Sangzor – Zomin mintaqasi misolida). Etnografiya, etnologiya va antropologiya ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent, 2021. – B. 13.
6. Семенов Ю.И. Экономическая антропология // Этнология в США и Канаде. М., 1989. С. 81-163.
7. Robert Kowalski. The Gift – Marcel Mauss and international aid//Journal of Comparative Social Welfare. 2011. P.190-214.
8. Walczak D.The process of exchange, solidarity and sustainable development in building a community of responsibility// Mediterranean Journal of Social Sciences.2015. 6(1S1), p. 506 -512.
9. Herskovits M. J. Economic anthropology. − N. Y., 1952. − P. 3-7, 17-23, 60, 155-163 etc.
10. Polanyi K. Primitive, Archaic and Modern Economies, ed. by G.Dalton, − Boston, 1971. − P.7.
11. Neil J. Smelser and Richard Swedberg. The Handbook of Economic Sociology. – New York: Princeton University Press, 2005. P.13.
12. Sahlins M. Stone age economics. 1972. Aldine · Atherton, inc. Chicago & New York. P.348.
13. Гирц К. Интерпретация культур. М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2004. — 560 с.
14. Geertz C. Suq: The Bazaar Economy in Sefrou. 1979. — 229.p

Каюмов Асрор т.ф.н, доцент.
Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти

ЎЗБЕК ЖАМИЯТИДА АЖДОДЛАР ХОТИРАСИНИНИНГ ТИКЛАНИШИ ВА ГЕНЕАЛОГИК ТУРИЗМ

Резюме: Ушбу мақолада тарихий ва антропологик материаллар асосида ўзбек жамиятида генеалогик ўзликнинг тикланиши, унинг тарихий илдизлари ва генеалогик туризмнинг ривожланиши масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: генеалогия, оила шажараси, генеалогик туризм, аждодлар хотираси, 92 уруғли ўзбеклар, этнографик гуруҳ, этноним.

Revival of ancestral memory and genealogical tourism in Uzbek society

Summary: Based on historical and anthropological materials, this article covers the restoration of genealogical identity in Uzbek society, its historical roots and the development of genealogical tourism.

Key words: genealogy, family tree, genealogical tourism, memory of ancestors, Uzbeks with 92 clans, ethnographic group, ethnonym..

XX асрнинг охирларидан постсовет майдонида миллий, этник, диний, ҳудудий идентикликнинг уйғониши билан жамоавий ва шахсий ўзликни англаш ҳисси шакллана бошлади. Хусусан, ўзбек жамияти ижтимоий-маданий ҳаётида ҳам айнан бу даврда ўзликни англаш, аждодлари кимлигини билишга қизиқиш, ўзликларнинг тарихий, маданий, генетик илдизларини излашга интилиш яққол намоён бўла бошлади. Албатта, аждодлар ҳақидаги маълумотлар бир қанча авлодлар ичида ўз ўрнини излаш, шахсга ўзининг йўқолган ўзлигини тиклашга, “Мен кимман? Менинг илдизларим қаерда? каби саволларга жавоб олишга ёрдам беради.

Ўзбек жамиятида ижтимоий-диний табақалар, ҳукмрон ва мулкдорлар ҳамда этник жамоаларда узоқ тарихий даврлар мобайнида ўз сулоласи, уруғи шажараларини ёзма ёки оғзаки тарзда сақлаб қолишнинг ўзига хос анъанаси мавжуд бўлган. Бу ҳолат айниқса, туркий халқлар учун ўзига хос феноменал ҳодиса бўлиб, ёзма манбаларда, тарихий ҳужжатларда акс этган ҳамда фольклор намуналарида, афсона ва ривоятларда сақланиб қолган. Бу каби генеалогик мерос ҳамиша турли ўзликларни намоён этиш омили бўлган.

Ўзбекистон ва умуман Ўрта Осиё ҳудудларида тарихан шаклланган этноижтимоий манзара – шажарага оид турли генеалогик ривоятларни, тарихий манбаларни, фольклор материалларни, оғзаки тарихни ўрганиш асосида янада ойдинлашади. Масалан, ўзбек оилаларида етти ота аждодини билиш анъанаси яхши сақланиб қолган. Айнан мана шу омил оила қадриятларини, ўзи мансуб бўлган халқ, элат анъаналарини сақланиб қолишига ва провардида турли-туман ўзига хосликларнинг вужудга келишига сабаб бўлган. Тарихий генетик илдиз ва аждодларга мансублик ғоялари, ўзига хос генеалогик ривоятлар ва насл-насаб тизими турли тарихий даврларда ҳам муҳим аҳамият касб этган.

Тарихий манбалар ва илмий тадқиқотлар таҳлилига кўра, генеалогик ўзлик масаласини ўрганишда нафақат этник омил, балки диний-ижтимоий омиллар ҳам муҳим аҳамият касб этади. Шунга кўра, муайян излари бугунги кунгача сақланиб қолган ва тарихий ўзакларига таяниб маълум даражада тикланиб бораётган ўзликлар – этник, диний, сулолавий, касбий, ижтимоий, ҳудудий ва бошқа ўзлик кўринишларидан келиб чиқиб, этник, диний ва ижтимоий-сакрал сулолалар билан боғлиқ ўзликлар яққол ажралиб туради.

Бугунги кунда айнан мана шу омиллар оила қадриятларини, ўзи мансуб бўлган халқ, элат анъаналарини сақланиб қолишига, ва провардида турли туман ўзига хосликларнинг вужудга келишига сабаб бўлган. Тарихий генетик илдиз ва аждодларга мансублик ғоялари, ўзига хос генеалогик ривоятлар ва насл-насаб тизими жамоавий ўзига хосликларнинг сақланиб қолишига сабаб бўлган.

Ўзбекистон мустақилликка эришгандан кейинги даврда миллий, этник, ижтимоий ва диний ўзликларнинг тикланиши фонида генеалогик идентиклик, шажарага доир хотиралар тиклана бошлади. Жамиятдаги барча ижтимоий қатламларда аждодлар илдизи, моддий ва маданий мероси, қондош жамоаларининг тарихий тақдири билан қизиқиш, уни ўрганиш, қондошлар билан топишиш, аждодлари яшаган юртни бориб кўриш истаги пайдо бўла бошлади. Ҳатто тақдир тақозоси билан туғилган жойидан айро,

узоқ хорижий юртларга кетган кўплаб Ватандошларимиз ўз қондошлари, ота-боболари юртларига ташриф буюриб, қон-қариндошлари билан топишга ҳаракат қилиши бу сайёҳликнинг янги йўналиши – генеалогик туризмнинг ривожланишига олиб келди.

Туризмнинг аждодлари хотирасини ўрганишга қизиқган сайёҳлардан ташкил топган сегменти – генеалогик ёки илдиз туризми деб аталади. Бу насл -насаб сайёҳлари ўз ўтмишлари билан боғланиш ва "ота-боболари изидан юриш" учун аждодлари юртига саёҳат қилишади (Ferg K. and Page S. 2000.).

Генеалогик туризм ривожланаётган соҳа бўласа-да, тарихда бир мунча вақт оммавий эммиграцияни бошидан кечирган ва шунинг учун бутун дунё бўйлаб катта диаспора ҳамжамиятига эга бўлган мамлакатларда кўпроқ машҳур бўлган. Генеалогик туризм айниқса Ирландияда машҳур бўлди. Қайд этилган насл-насаб туризми бўйича 2000-йилда оролга 116 000 шажара сайёҳлари ташриф буюрганлиги сабабли энг юқори чўққига чиқди. 2009 йилда Шотландияда насл-насаби бўйича сайёҳларни жалб қилиш учун "уйга қайтиш" фестивали ўтказилган.

1976 йилда Алекс Хейлининг "Илдизлар: Америка оиласининг достони" номли энг кўп сотилган китоби нашр этилгандан сўнг, кўплаб афро-америкаликлар ва Америкадаги бошқа африкалик диаспоралар ўзларининг анъанавий Африка ватанларига саёҳат қилишга интилдилар. Генеалогия сайёҳлари кўпинча ота-боболарининг насл-насабини кузатишда иштирок этадилар; тарихий ёзувларга рақамли кириш, шунингдек, сўнгги йилларда ДНК тадқиқотлари кўпайиб бораётган одамларга ота-боболарининг ватанларини аниқлаш имконини берди.

Оила, сулолалар ва уларнинг генеалогик ўзлиги масалаларини илмий жиҳатдан ўрганиш айниқса, Буюк Британия, Франция, АҚШ, Россия, Туркия, Қозоғистон каби мамлакатларнинг илмий марказларида анча ривожланган ва қатор илмий тадқиқотлар олиб борилган. Буюк Британиянинг Қиролича Мери Университетида Катрин Неш раҳбарлигида генеалогик идентиклик, ирландияликларнинг келиб чиқиши, насабномалари, идентиклиги борасида

тадқиқотлар олиб борилган. Ушбу тадқиқотларда Австралия, Канада, Янги Зеландия ва Қўшма Штатлардаги Европаликлар ва кўпинча ирландлар генеалогик идентиклигининг сақланиб қолиши масаласи ўрганилган.

Шу билан биргаликда ўтган асрнинг 90-йилларидан оила насабларини ўрганишда ирсият фани – генетика ҳам кириб келди. Бу фан йўналишида ҳозирги даврдаги турли халқларнинг ўтмишдаги ўзаро генетик боғлиқлиги масаласи, авлодлар ва аждодлар ўртасидаги шажара занжирини тиклашда ДНК молекулаларидан оилавий тарих ҳужжатлари сифатида фойдаланиш тажрибалари қўлланилмоқда. Бу ўз-ўзини идентификация қилиш имкониятларини кенгайтиради, унинг ёрдами билан насабноманинг етишмаётган баъзи саҳифаларини, ҳаттоки, ёзма манбалар умуман бўлмаган даврларга тегишли жиҳатларини ҳам тиклаш имкониятлари кенгаяади (Nash C. 2002, 2017, Gilroy P. 1991, Зуев Ю.А. 1967, 1981, Исмагулов О.И. 1977, Алпысбесулы М. 1999).

Марказий Осиё халқларида ижтимоий-диний табақалар, ҳукмрон ва мулкдорлар ҳамда этник жамоаларда узоқ тарихий даврлар мобайнида ўз сулоласи, уруғи шажараларини ёзма ёки оғзаки тарзда сақлаб қолишнинг ўзига хос анъанаси мавжуд бўлган. Бу ҳолат айниқса, туркий халқлар учун ўзига хос феноменал ҳодиса бўлиб, ёзма манбаларда, тарихий ҳужжатларда акс этган ҳамда фольклор намуналарида, афсона ва ривоятларда сақланиб қолган. Бу каби генеалогик мерос ҳамиша турли ўзликларни намоён этиш омили бўлган. Айниқса, XX асрнинг бошларига қадар ўзбек, қозоқ, қирғиз, туркман ва қорақалпоқларнинг ранг-баранг ижтимоий стратификацияси ва уруғчилик тизими фонида ривожланган генеалогик идентиклик масаласи кам ўрганилган муаммолардан биридир.

Ўзбекистон ва умуман Ўрта Осиё ҳудудларида тарихан шаклланган этноижтимоий манзара – шажарага оид турли генеалогик ривоятларни, тарихий манбаларни, фольклор материалларни, оғзаки тарихни ўрганиш асосида янада ойдинлашади. Масалан, ўзбек оилаларида етти ота аждодини билиш анъанаси яхши сақланиб қолган. Айнан мана шу омил оила

қадриятларини, ўзи мансуб бўлган халқ, элат анъаналарини сақланиб қолишига ва провардида турли-туман ўзига хосликларнинг вужудга келишига сабаб бўлган. Тарихий генетик илдиз ва аждодларга мансублик ғоялари, ўзига хос генеалогик ривоятлар ва насл-насаб тизими турли тарихий даврларда ҳам муҳим аҳамият касб этган.

Ўзбекистонда ўзбекларнинг уруғчилик тизими, “92 бовли” ўзбек уруғлари, этнотопонимлар этник тарих ва этногенез контекстида ҳамда диний сакрал оила вакиллари, ҳукмдорлар, таниқли маърифтпарварларнинг фаолияти ва шажаралари маълум даражада ўрганилган. Аммо ҳозирги кунгача ёзма ва оғзаки тарзда сақланиб келаётган генеалогик меросни ўрганилишини етарли деб бўлмайди. Аслида геналогия ва идентиклик каби бу икки йўналиш уйғунлиги асосида турли ўзликларнинг тарихий илдизлари, ворисийлиги ҳамда ўзликни англашдаги таъсирини янада чуқурроқ ўрганиш мумкин (Zerubavel E. 2011).

Генеалогик тадқиқотлар асосида инсонларнинг "кимлиги" ва "қаердан келганлиги"ни аниқ билишга бўлган изланиш асосида иложи борича шажара занжирининг бошида турган аждодларининг этник мансублиги ва ижтимоий мавқеига аниқлик киритилади. Генеалогия насл-насаб занжири билан боғланган “оила дарахти” яъни, аниқ ва олдиндан белгиланган жамоавий ўзига хосликни ҳам кўрсатиб беради. Шу билан бирга, у “ҳақиқий” идентификацияни яъни, бир фамилия, уруғ ёки этник келиб чиқишнинг бирлиги билан оила дарахти диапазонини, унинг тарихий, маданий, ижтимоий ва иқтисодий омилларини таҳлил қилади.

Профессор Катрин Неш ёзганидек, “генеалогия – бу ўз-ўзини тасаввур қилиш ва шахсий ўзига хослик ҳақидаги ҳақиқат кафолатларини бирлаштирадиган амалиётдир. Шажаралар ва оила дарахтлари эса генлар, генетика, насл-насаб, этник келиб чиқиши ҳақидаги илмий ва оммабоп фикрлар ўзаро таъсирининг рамзий диаграммасидир” (Nash.C. 2002). Оила насабномаси бир хил фамилия ва қондошликка эга бўлган одамлардан иборат бўлиб, одамнинг оналик наслига эмас, балки умумий эркак аждоддан эркак

авлодларга туташувчи генетик боғламлар бўлиб, уни эркак ва аёлнинг барча авлодларини ўз ичига олган умумий қондошлик диаграммаси билан аралаштириб юбормаслик керак (Terrick V.H. Fitzhugh. 1988.).

Оила ёки уруғ шажараларини ўрганишда биринчи навбатда тадқиқотчи учун ёзма манбалар билан биргаликда этнографик материаллар муҳим аҳамият касб этади. Албатта ўрганилиши мақсад қилинган оила ёки уруғ генеалогиясини тузишда шу оила ёки уруғ вакиллари билан чуқурлаштирилган интервью олиш яъни, уларнинг келиб чиқиши, ўзини англаши, аждодлари ҳақидаги оғзаки маълумотлар ёзиб олинади. Уларнинг шажара дарахти тузилади. Ахборотчилар қанчалик аждодлари ҳақидаги шажаралар ва уларнинг келиб чиқиши борасидаги артефактлар, моддий ашёлар, ривоятларни келтира олса тарихий-маданий боғлиқликни аниқлаш имкониятлари шунчалик кўпроқ бўлади.

Ўзбекларда локал-ҳудудий бирликлар, уруғ-аймоқ (авлод, тўп, уруғ)лар каби турли ўзликлардан иборат ижтимоий-маданий тузилмалар ҳамда уларда бир тарихий макон ва замонда умумий маданий бирлик негизидаги турли ўзликларнинг намоён бўлиши омили бўлган оила шажаралари ва уруғларга бўлиниш тизими сақланиб қолган.

Ўзбекистон ва умуман Ўрта Осиё ҳудудларида тарихан шаклланган бу каби этноижтимоий манзара турли шажарага оид генеалогик ривоятларни тарихий манбаларни, фольклор материалларни, оғзаки тарихни шаклланишига сабаб бўлган. Масалан, ўзбек оилаларида етти отасини, аждодини билиш анъанаси яхши сақланиб қолган. Айнан мана шу омил оила қадриятларини, ўзи мансуб бўлган халқ, элат анъаналарини сақланиб қолишига ва провардида турли туман ўзига хосликларнинг вужудга келишига сабаб бўлган. Тарихий генетик илдиз ва аждодларга мансублик ғоялари, ўзига хос генеалогик ривоятлар ва насл-насаб тизими жамоавий ўзига хосликларнинг сақланиб қолишига сабаб бўлган.

Оила ва уруғ шажараларини хон авлодларига ёки шунга ўхшаш ҳукмрон сулола авлодлари билан боғлаш, машҳур туркий халқлар

этнонимлари билан боғлаш, локал жой номлари билан боғлаш, диний силсилалар билан боғлаш буларнинг барчаси сулолавий ёки уруғчилик асосида ўзликни англашга олиб келган.

Шажарага оид мерос ва аждодлар ҳақидаги хотиранинг тикланиши, хориждаги ўзбеклар ва умуман ватандошларнинг ота-боболари туғилиб ўсган юрт, қариндошларини топиш ва фарзандларига таништириш мақсадида Ўзбекистонга ташриф буюриши генеалогик туризмнинг ривожланишини рағбатлантириди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Feng K. and Page S. 2000. An exploratory study of tourism, migration-immigration nexus: Travel experience of Chinese residence in New Zealand. *Current Issues of Tourism,* 3(3), 246-281.
2. Gilroy, P. (1991). “It ain’t where you’re from, it’s where you’re at…”: The dialectics of diasporic identification. Third Text: Third World Perspectives on Contemporary Art & Culture, 13, 3-16.
3. Nash C. (2017). Genealogical Relatedness: Geographies of Shared Descent and Difference. *Genealogy* vol. 1, (2).
4. Nash Catherine. Genealogical identities//Environment and Planning D: Society and Space 2002, volume 20, pages 27-52.
5. Terrick V.H. Fitzhugh. 1988. How toWrite a Family History (Alpha Books, Sherborne, Dorset) - P.13.
6. Zerubavel E. Ancestors and Relatives: Genealogy, Identity and Community. Oxford: Oxford University Press. 2011, 238 pp.
7. Алпысбесулы М. История Казахстана в казахском шежире (Место шежире в изучении истории). Автореф. дисс. канд. ист. наук. Республики Казахстан, Караганда,1999.
8. Зуев Ю.А. Историческая проекция казахских генеалогических предании//Казахстан в эпоху феодализма (Проблема этнполитической истории). Алматы, 1981.
9. Исмагулов О.И. Этническая геногеография Казахстана. – Алматы. Наука, 1977.

Sultonov Shahzod
O‘zMU Tarix fakulteti Etnografiya, etnologiya va antropologiya yo‘nalishi
I kurs magistranti

QISHLOQ TURIZMINING TA’RIFI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annnotatsiya: Maqolada qishloq turizmi atamasiga qisqacha ta’rif berilgan. Shuningdek qishloq turizmning turlari, qishloqning barqaror riojlanishida va

qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turizmning tutgan roli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qishloq turizmi, turistik salohiyat, ekoturizm, agroturizm, turistik ma’daniyat

Kirish. Mamlakatlar iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘iga tobora aylanib borayotgan turizm sohasi xizmatlar bozorinning alohida tarmog‘i hisoblanadi. Turizm faoliyati bugungi kunda rivojlanyotgan tarmoq bo‘lib kelajak sohasi bo‘lishi ham kutilmoqda. Shu bilan birgalikda, turizm cheklangan resurslar sharoitida iqtisodiyotning barqaror holatini saqlab qolish uchun ham samarali yo‘l sifatida ko‘riladi. Yildan yilga nafaqat bizning mamlakatimizda balki, dunyoning boshqa rivojlanyotgan mamlakatlarida ham aholi daromadlarining o‘sishi evaziga ham sayohat qilish ehtiyoji ortib bormoqda. Bundan ko‘rinadiki, turizmga bo‘lgan talab uning rivojlanishi uchun bir qancha tabiiy sharoitlar evaziga ham rivojlanib bormoqda.Turizm insonlarning ma‘naviy dam olishi, jismoniy tiklanishi, yangi manzillar bilan tanishishi, o‘ziga xosliklardan bahrmand bo‘lish imkoniyatini taqdim etuvchi soha hisoblanadi. Turizm ko‘p tomonlama samaraga ega bo‘lib, bir qator mintaqa destinatsiyalar iqtisodiy rivoji, aholi bandligining o‘sishi, fuqarolarning hordiq chiqarishga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada to‘la qondirilishiga zamin yaratadi.Qishloq turizmiga ham mamlakatimizdagi boshqa turizm sohalari kabi jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Butunjahon Turizm Tashkiloti (United Nations World Tourism Organization-UNWTO)ning ma’lumotlariga ko‘ra qishloq turizmi bu – sayyohlik faoliyatining bir turi bo‘lib, tashrif buyuruvchining faoliyati qishloq xo‘jaligi, qishloqning turmush tarzi, madaniyati, qishloqning diqqatga sazovor joylari, baliq ovlash va shunga o‘xshagan yumushlar bilan bog‘liq holda bo‘ladi [1]. Rossiyalik olim A.B. Zdorov tomonidan “qishloq turizmi” tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: “qishloq turizmi – qishloq xo‘jaligiga yo‘ldosh tarmoq bo‘lib, dam olishni tashkil etish orqali qishloq aholisini ish bilan ta’minlash va kontingentni jalb etish orqali fuqarolarning daromadlarini, asosiy ishlab chiqarish hajmini oshirishdir [2, 12]. Qishloq turizmi qishloq turmush tarzida faol ishtirok etishga

qaratilgan. Buni ekoturizmning bir varianti sifatida ko‘rish mumkin [3]. Xalqaro ekoturizm jamiyati (TIES) ekoturizmni “atrof-muhitni asrash va mahalliy aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi tabiiy hududlarga mas’uliyatli sayohat” deb ta’riflaydi [4].

Rivojlangan Yevropa qishloq turizmi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu mamlakatlar qishloq turizmi rivojlanishiga 50 yildan ko‘proq vaqt oldin kirishgan. Shuning uchun ham qishloq turizmini rivojlantirish bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinni Fransiya qishloqlarining qishloq turizmini rivojlantirishning xalqaro modeli, Buyuk Britaniya modeli, Germaniya modeli va qishloqni rivojlantirishning Italiya modeli egallaydi. Ushbu modellarning tuzilishi va ishlashini o‘rganadigan bo‘lsak, ularni qishloq turizmini rivojlantirishga tatbiq etish hech qanday muammo tug‘dirmaydi. Chunki yurtimizda qishloq turizmini rivojlantirish uchun asosiy resurs va turistik resurslarning xilma-xilligi yuqorida qayd etilgan Yevropa mamlakatlariga qaraganda birmuncha yuqori.

Qishloq xo‘jaligi yuqori darajada mexanizatsiyalashgan va shuning uchun kamroq qo‘l mehnatini talab qiladi. Bu tendentsiya ba'zi qishloqlarga iqtisodiy bosimni keltirib chiqarmoqda, bu esa o‘z navbatida yoshlarning shaharlarga ko‘chib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Biroq, shahar aholisining qishloq joylariga borishga va turmush tarzini tushunishga qiziqadigan bir qismi bor.

Qishloq turizmi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- qancha xarajat bo‘lishidan qat’i nazar, oilaviy an’analar asosida amalga oshiriladi;
- shifokor tavsiyasiga ko‘ra qishloq iqlim sharoitida salomatlikni yaxshilash;
- toza havoda ko‘proq vaqt o‘tkazish;
- ekologik toza va arzon mahsulotlar iste'mol qilish;
- qishloq xo‘jaligida tajriba orttirish imkoniyatlarining mavjudligi;
- boshqa ijtimoiy guruhlar bilan muloqot qilish, ularning madaniyati, urf-odatlari bilan tanishish, ularning bayramlari va o‘yinlarida qatnashish.

Qishloqda dam olish - bu shaharda yillar davomida to‘plangan charchoqdan xalos bo‘lish, toza havo, ekologik toza oziq-ovqat, iqlim o‘zgarishi, aholining zich

emasligi, boshqa tartiblar va turmush madaniyati, bog‘dorchilik, chorvachilik, tabiatni muhofaza qilish va eng arzon bayram ta’tilidir. Turizmning bu turi o‘zining xarakteriga ko‘ra ekologik turizm shakllaridan biridir.Sayyohlar fermerning uyida oilaviy istiqomat qilishlari mumkin, bu sayyohlarga qishloq hayoti va u yerdagi yangi odamlar bilan tanishish, ularning an'analari va qishloq xo‘jaligi amaliyotlari bilan ishlash imkonini beradi. Shubhasiz, bu uy egalari uchun noqulaylik tug‘diradi, lekin ularga ko‘proq pul va innovatsiyalar olib keladi. Turistlar bir yoki bir nechta maxsus xonalar va barcha zarur narsalar bilan ta'minlanadi. Bunday turizmdan davlat ham, fermerlar ham foyda ko‘radi. Shu jihatdan qishloq turizmini qulay va jozibador turizm turi deb hisoblash mumkin. Qishloq turizmining ijobiy jihatlaridan yana biri shundaki, qishloqda aholi bandligini ta’minlash mumkin. Birinchi marta turistlar tashrif buyurganda bu sohada qo‘shimcha ishchi kuchi talab etilmaydi, fermerlarning ko‘pchiligi va ularning oila a’zolari bu ish bilan shug‘ullansa, keyinchalik bu sohadan olinadigan foyda natijasida boshqa turdagi xizmatlarni ham taklif qilish mumkin bo‘ladi. Natijada ortiqcha ish o‘rni vujudga kelib, aholi bandligi taminlanadi.

Qishloq turizmini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- Agroturizm (hosil yig‘ish);
- Amaliy tajriba (qishloq hayoti tajribasi);
- Gastronomik ekskursiyalar (an’anaviy taomlar va ichimliklar);
- Sport turizmi (piyoda, otda, velosipedda sayr qilish);
- Jamoaviy ekoturizm (ekologik jamiyat turizmi);
- Etnografik turizm (mahalliy an’analar bilan tanishish).

Qishloq aholisi uchun turizmning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Qo‘shimcha daromad olish;
- Katta yoshli oila a’zolarining ijodiy faolligini oshirish;
- Bolalar bilan bog‘liq turli muammolarni hal qilish uchun turistlar bilan do‘stona munosabatlar (shaharlarda dam olish, universitetda o‘qishga yordam berish, yordamchi mahsulotlarni sotish va boshqalar);
- Qiziqarli muloqot;

- Ta’lim darajasini oshirish;

- Chet tillarni faol o‘rganishga ko‘maklashish.

Davlat hukumati qishloq turizmning afzalliklaridan quyidagi hollarda manfaatdor bo‘la olishi mumkin:

- Bandlikni oshirishda;

- Ijtimoiy keskinlikni pasaytirishda;

- Uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirishda;

- Oilaviy resurslardan foydalanish hisobiga ushbu turdagi turizmning hokimiyat uchun arzonligi;

- Oilalar tomonidan yig‘ilgan barcha mablag‘lar viloyatda qoladi;

- Davlat organiga turizm tashkilotchilarining qarori (vaqtinchalik va doimiy ish o‘rinlari tashkil etish, aholi turmush darajasini oshirish);

- Madaniyat tashkilotlarining turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyati;

- Turizmda fermerlarning ijtimoiy faolligini oshirish;

- Aholi punktlari qiyofasini yaxshilash;

- Aholining punktlarni toza saqlashga qiziqishini oshirish;

- Sanitariya, yong‘in nazorati uchun qo‘shimcha daromad;

- Keng ko‘lamli xizmatlar byudjetni to‘ldirishning ishonchli manbai ekanligi;

- Kelajakda aholining madaniy saviyasini oshirish orqali jinoiy vaziyatni pasaytirish.

Qishloq turizm xizmatlaridan foydalanuvchi odamlar dam olish uchun keladi, ko‘plab mamlakatlar madaniyati bilan tanishadi va boshqa tomondan ularni ko‘radi. Ular hayotning kuchli sur’ati bilan kurashishdan charchagan va bunday turizm ularga hamma narsani unutishga yordam beradi.Agar siz shovqinli shahardan, doimiy tirbandlikdan, hayotning yuqori sur’atlaridan va har qanday sivilizatsiya belgilaridan charchagan bo‘lsangiz, sizga qishloq turizmi kerak bo‘ladi. Odatiy besh yulduzli mehmonxonalarni ham, ular taklif qilayotgan barcha qulayliklarni ham topa olmaysiz, bularning barchasi o‘rnini dalaning go‘zalligi, shamol shiviri, toza havo va eng “haqiqiy” mahsulot egallaydi. Shu bilan birga,

qishloq turizmi daromad keltiruvchi tarmoq bo‘lib, jahon turizm bozorida alohida o‘rin tutadi. Qishloq turizmi dengiz kurortlari kabi yirik sektor bilan raqobatlasha olmasa-da, turizmni o‘rganish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda qishloq turizmi deyarli mavjud emas. Ammo qishloq ahlining samimiyati, atrof-muhit musaffoligi, ekologik qulayligi tufayli uning kelajagi bor.

Xulosa. Jarayonlarni faol o‘rganib borar ekanmiz soha rivojlanishi uchun imkoniyatlarning mavjudligi e‘tiborimizni oshirib boraveradi. Mamlakatimiz joylashgan hududi, iqlim xususiyatlari, tabiiy geografik relyefi jihatidan ham ayni sohani yo‘lga qo‘yilishi tabiiy omil bo‘lib turibdi. Turizmi rivojlangan, qishloq xo‘jaligi taraqqiy etgan mamlakatlarda bu sohaga e‘tibor kuchayib natijada umumturizmda o‘z hissasiga ega bo‘lib ulgurgan.

Qishloq turizmi ham qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi uchun samarali yo‘l hisoblanadi. Bundan tashqari u sayyohlarga va mahalliy aholining milliy an'analarga hurmatni rag‘batlantirish; aholining madaniy-ma‘rifiy darajasini oshirish; mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish; ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish; tabiiy resurslarni saqlash; turizm xizmati bilan bog‘liq yangi kasblarni o‘zlashtirish; yirik sayyohlik markazlariga yukni kamaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Здоров А.Б. Организационно-экономические основы развития аграрного туризма. Автореферат. – Москва, 2011. – С.12

2.Rural Tourism. February, 2008. USDA Cooperative State, Education and Extension Service. Retrieved December 30, 2008.

3.The International Ecotourism Society, 2014. [Electronic Resource]. URL: http://www.ecotourism.org/ (date of access: 28.06.2019).

4. https://www.unwto.org/rural-tourism

Qlichev Ulug‘bek Abdumavlonovich
IIV Sirdaryo akademik litsey Huququy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi boshlig‘i, tarix fanlari nomzodi.

O‘ZBEKISTONDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLAR BILAN RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy hunarmandchilikning qo‘llab-quvvatlanishi, rivojlantirilishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini ko‘rish

mumkin. O‘zbekiston davlat rahbari va hukumat tomonidan qabul qilingan huquqiy normativ hujjatlarning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritiladi. Maqolada mavzuning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, milliy hunarmandchilik sohalarini yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, bugungi kunda yechimini kutayotgan muammolarning amaliy jihatlari ko‘rsatiladi.

Tayanch so’zlar: hunarmand, amaliy san’at, yog‘och o‘ymakorligi, pichoqchilik, kulolchilik, zargarlik, turizm, festival, shogird.

Аннотация. Мы видим, что народно-прикладное искусство поддерживается, развивается до уровня государственной политики. Ведётся речь о значении правовых и нормативных документов, принятых правительством и руководителем государства Узбекистан. В статье указаны практические решения проблем, которые на сегодняшний день ждут своего решения, также указаны актуальность темы, научное нововведение, прогрессивное развитие сфер национального ремесленничества.

Ключевые слова: ремесленник, прикладной искусство, резба по дереву, по ножовщина, гончарный, ювелирный, туризм, фестивал, подмастерье.

Abstract. The article discusses support and development of national handicrafts has reached the level of state policy. The importance of legal acts adopted by the President and the government is being discussed. The article shows the relevance of the topic, its scientific novelty, the measures taken to further develop the national handicrafts sector, as well as the practical aspects of the problems that are still waiting to be addressed.

Key worlds: Handicraftsman, applied art, wood carving, knives, pottery, jewelry, tourism, festival, apprentice.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan hisoblanib, hunarmandlarga alohida mavqega ega bo‘lgan ijtimoiy sinf sifatida qaralgan. Ular tomonidan yaratilgan jihozlar xalq turmush tarzini ifodalab, nodir san’at asarlari esa, hukmdorlar saroylarini bezab, o‘zga xalqlar e’tiborini

qozongan. Asrlar davomida turli omillar ta’sirida milliy hunarmandchilik sohalari takomillashib borgan.

Sovet hukmronlik davriga kelib esa, asrlar davomida taraqqiy etgan milliy hunarmandchilik sohasi rivojlanishiga keskin zarba berildi. Hunarmandchilik sohasiga bepisand tarzda qarash, unga faqat ko‘rgazma namunasi sifatida munosabatda bo‘lish, ayniqsa o‘zbek xalqi hunarmandchiligi taraqqiyotiga sun’iy to‘siq qo‘yish – sovet hukumatining bu boradagi olib borgan siyosatining mazmun-mohiyatini belgilar edi. Bu esa milliy hunarmandchilikning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ldi.

Aytish mumkinki, 1991-yildan boshlab O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik, xalqning madaniy merosi, an’anaviy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, hunarmandlarga g‘amxo’rlik davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Milliy madaniyatni saqlab qolish va uni rivojlantirish, hunarmandchilik sohasidagi ishlab chiqarishda an’anaviylikni tiklash tabiiy jarayonga aylandi.

Maqolada 1991-yildan boshlab O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikni rivojlantirishda qaratilgan e’tiborning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi masalasi, bu sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar, yangiliklar hamda hunarmandchilik an’analarining tiklanishi qiyosiy tahlil tamoyilllari asosida yoritilgan.

O‘z o‘rnida ushbu mavzu bir qator olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda bir guruh siyosatchi, iqtisodchi, san’atshunos va tarixchi olimlar tarixshunoslikning metodologik tamoyillariga suyangan holda mavzuni har jihatdan qamrab olib, eski aqidalardan xalos bo‘lishga intilayotganliklari diqqatga sazovordir. Davriy jurnallarda nashr etilgan ilmiy maqolalar [1] va adabiyotlar [2] masala mohiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy hunarmandchilikning rivojlanishi va uning istiqbollari haqida iqtisodchi, huquqshunoslar tomonidan ilmiy-ommabop jurnallarda qator maqolalar [3] ham nashr qilingan. Shuningdek, pedagogika va psixologiya yo‘nalishlarida [4] tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilaridan Judit Peltz, Klaus Pander, Gabriele Keller, B. Vollenveber, P. Franke, K. Meklid, B. Mexyu, B. Mexyu, G. Blum, J. Nobl, D. Starnes kabilarning tadqiqot ishlarida ham ta’kidlab o‘tilgan [5].

O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik, xalqning madaniy merosi, an’anaviy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, hunarmandlarga g‘amxo’rlik davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Milliy madaniyatni saqlab qolish va uni rivojlantirish, hunarmandchilik sohasidagi ishlab chiqarishda an’anaviylikni tiklash tabiiy jarayonga aylandi. Milliy hunarmandchilikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida respublikada bir qator jamg‘armalar va uyushmalar tashkil etildi. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy hunarmandchilik rivojida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari hamda hukumat qarorlarining mohiyati kattadir.

1997-yil 24-martda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan imzolangan “Xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari to‘g‘risida”gi [6] farmoni e’lon qilindi. Farmonga ko‘ra, uy sharoitidagi yuksak saviyadagi badiiy hunarmandchilik buyumlar ishlab chiqarayotgan xalq ustalariga joylardagi hokimliklarning amaliy yordami muhim vazifalardan biri sifatida ko‘rsatilgan. Hunarmandlarni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida ular besh yilgacha daromad solig‘idan ozod qilindi, respublikadan chetga chiqariladigan xalq hunarmandchilik buyumlari uchun boj olish bekor qilindi. Ushbu qaror hunarmandchilik sohasi taraqqiyotini yuqori pog‘onaga ko‘tardi.

Shu bilan birga 1997-yil 31-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni [7] muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1997-yilning 1-aprelidan boshlab belgilangan tartibda hokimliklar va soliq idoralarida ro‘yxatdan o‘tgan xonadon sharoitida milliy hunarmandchilik va amaliy san’at buyumlarini ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi mehnat faoliyati

bilan band bo‘lgan shaxslar 5 yil muddatga daromad solig‘i to‘lashdan ozod qilinishi hunarmandchilik sohasi uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etdi [8].

Milliy hunarmandchilik va amaliy san’atning eng yaxshi namoyandalari xizmatlarini va ularning milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga hamda iste’dodli shogirdlarni tayyorlashga qo‘shgan hissasini rag‘batlantirish maqsadida 1998-yil 1-mayda “O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni [9] ta’sis etildi.

Ta’kidlash joizki, milliy hunarmandchilikka bo‘lgan e’tibor jiddiy ravishda ortib bormoqda. Buning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-aprelda “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini rivojlantirishni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [10] Farmoni e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan e’tibor tufayli milliy hunarmandchilik rivojlanishida yangi davr boshlandi. Bu jarayon ayniqsa, hunarmandchilik va turizmni rivojlantirish borasida olib borgan siyosatida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Xalqimizning qadimiy tarixi va madaniy hayotini har tomonlama keng yoritish, nomoddiy madaniy merosimiz bo‘lgan ko‘p qirrali o‘zbek milliy hunarmandchiligini keng namoyish qilish, uning noyob namunalarini targ‘ib etishni nazarda tutadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda o‘zaro tajriba almashish orqali turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlash, madaniy-gumanitar aloqalarni xalqaro miqyosda kuchaytirish, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan kasbiy an’analar va hunarmandchilik maktablarini saqlash va qayta tiklash maqsadida O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni [11] bu borada muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Hujjat bilan quyidagilar respublikada milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

birinchidan, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan fuqarolar va oilalar, ayniqsa, yangitdan o‘z faoliyatini boshlagan hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, «Usta-shogird» maktablari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, va shu asosda yangi ish o‘rinlari tashkil etish;

ikkinchidan, hunarmandchilik sub’ektlariga davlat ro‘yxatidan o‘tishda ko‘maklashish, ularga yer maydonlari va binolar ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, ularni asbob-uskunalar, jihozlar, xomashyo va materiallar bilan uzluksiz ta’minlash, ularga imtiyozli kreditlar berish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

uchinchidan, xalq hunarmandchiligi va ijodiy an’analari keng rivojlangan shahar va tumanlarda hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari tashkil etish, hunarmandchilikning noyob turlarini qayta tiklash va yanada rivojlantirish, iste’molchilarga hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berish uchun bozor infratuzilmasini shakllantirish;

to‘rtinchidan, hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilishni rag‘batlantirish, xorijiy mamlakatlarda o‘tkaziladigan ko‘rgazma va yarmarkalarda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini taqdimot qilishga ko‘maklashish.

2018-yil 1-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev “I – Xalqaro hunarmandchilik festivaliga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida”gi qarori [12] qabul qilindi. Aytish mumkin, 2018-yil 1-noyabrda har ikki yilda bir marta Qo‘qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivalini tashkil etish, birinchi marta ushbu festivalni hamda festival doirasida “Hunarmandchilik va xalq amaliy san’atini rivojlantirish istiqbollari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyani 2019-yilning 10-15-sentabr kunlari o‘tkazish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi.

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 2 mingga yaqin hunarmand faoliyat ko‘rsatadi. Viloyatda 2018-2019-yillarda hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan 304 loyiha amalga oshirilmoqda. Marg‘ilon shahrida an’anaviy o‘tkazib kelinayotgan “Atlas bayrami” xalqaro festivali ham milliy hunarmandchilik

mahsulotlarini jahon miqyosida keng targ‘ib etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Qo‘qon shahrida an’anaviy o‘tkaziladigan xalqaro hunarmandchilik festivali bu yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishga xizmat qiladi.

Xalqaro festivalda ishtirok etish uchun 72 mamlakatdan 111 nufuzli tashkilotlar ro‘yxatga olindi. Jumladan, 5 qit’adan 200 dan ortiq hunarmandlar 24 yo‘nalish bo‘yicha ishtirok etdi. Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, Qo‘qon shahriga yaqinda “Jahon hunarmandlari shahri” unvoni berildi. Jahon hunarmandlari shahri unvoni 2014-yildan buyon dunyodagi 30 shahar sazovor bo‘lgan xolos. Qo‘qon shahri ushbu unvonga loyiq topilgan o‘ttiz birinchi va MDH davlatlari orasidagi birinchi shahar bo‘ldi. Qo‘qon shahrida bo‘lib o’tgan xalqaro festival o‘zining logotipiga ega (1-rasm).



1-rasm. Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro festivalning logotipi.

Jahon hunarmandlar kengashi (WCC) 1964-yilda tashkil etilgan bo‘lib, xalqaro tashkilot jahon hunarmandchiligini rivojlantirish, hunarmandlarning o‘zaro tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish, hunarmandchilik sohasida faoliyat yuritadigan tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini yanada kengaytirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida faoliyat ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi 2019-yil mart oyida Jahon hunarmandlar kengashining a’zosi bo‘ldi.

Xulosa

O‘zbekistonda turizm sohaning rivojlanishi hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish bozori shakllandi. Milliy hunarmandchilik mahsulotlari sovg‘a bozorining negizini, ya’ni hunarmandchilik tijoratining asosini tashkil etdi. Respublikada “Usto”, “Ustozoda”, “Hunarmand”, “Musavvir” kabi tashkilotlar, uyushmalar ochilib, ularning viloyatlarda hududiy bo‘limlari tashkil qilindi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish davlat siyosatida yangi bosqichga ko‘tarilganini kuzatish mumkin. Hunarmand, ustalarni qo‘llab-quvvatlash, ustoz-shogird maktablari faoliyatini takomillashtirish, hunar ta’limini keng targ‘ib qilish, ichki va tashqi turizm faoliyatini takomillashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish chora-tadbirlari masalasi amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shoyoqubov Sh. Hunarmandchilik qanot yoymoqda. Guliston.-Toshkent, 1995. №3. - B.24; Alieva S. Rishtonning moviy sopoli. San’at.-Toshkent, 1998. №1-3. - B.34-35; Gul. E. Usta zargar Fasihiddin Dadamuhamedov. San’at.-Toshkent, 1999. №1. - B.38; Hakimov A. O‘zbekiston badiiy kulolchilik maktablari. Vostok.-Toshkent, 1999.№1. - B.76-79; Gul E. Hunarmandchilik an’analarini saqlab. San’at.-Toshkent, 1999. №2. - B.32.

2. Karamatov H., Jo‘raev N. va boshqalar. O‘zbekiston san’ati -Toshkent.: Sharq. 2001. 240 b; А. Хакимов., Э. Гюль. Байсун: атлас художественных ремёсел. –Тошкент.: 2006. 208 ст. (Karamatov H,Jo`rayev N and others. Art of Uzbekistan-Tashkent.: East. 2001. 240 p; A.Hakimov., E.Gyul.Boysun: atlas of art crafts. - Tashkent.: 2006. 208 Art.)

3. Qurbonova M. Buxoro tandirsozlari. Guliston. –Toshkent, 1991. №11. - B. 28; Norboev A. Millioner Baqoev: Xalq amaliy san’ati ham iqtisodiyot yo‘lida. Iqtisod va hisobot. – Toshkent, 1997. №1. - B. 33. To‘xtaev A. Hunardan unar. Fan va turmush. –Toshkent, 2000. №4. - B. 9.

4. Zohidova D.A. O‘rta kasb-hunar ta’limida o‘rta asr sharq hunarmandlar tayyorlash texnologiyasidan foydalanish. Ped. fan. nom. diss.... –Toshkent.:O‘MKHTRI, 2002. 205 b; Yuldashev X.A. Kichik mutaxassislar tayyorlashda “Ustoz-shogird odobi” an’analaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari (amaliy bezak san’ati misolida). Ped. fan. nom. diss.... – Toshkent.: O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimi kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti, 2006. 156 b.

5. Pander K. Zentralasien. Ostfildern: DuMont Reiseverlag. 2005. B. 384; Judith Peltz. Usbekistan entdeckan. Berlin. 2007. - B. 290; Keller G. Frauen kultur in Usbekistan. Denzlingen. 2002. - B. 288; Wollenweber B., Franke P. Usbekistan. Land zwischen Orient und Okzident. Berlin. Wostok, 2007. - B. 91; Macleod C., Mayhew B. Uzbekistan. The golden road to Samarkand. Hong Kong. Odyssey. 2008. 368 б;

6. O‘zbekiston san’ati. –Toshkent.: Sharq, 2001. - B. 10. (Art of Uzbekistan.-Tashkent.: Sharq, 2001.-P.10.)

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Toshkent.: 1997-yil. mart. №3. - B.21-22. (Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. Tashkent .: 1997. mart.№3. - P.21-22.)

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Toshkent.: 1997-yil. mart.
№3. - B.21-22. (Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. Tashkent .: 1997. mart.№3. - P.21-22.)
9. Xalq so‘zi. 1998-yil. 3-may. (The word of the people. 1998. May 3.)
10. Xalq so‘zi. 2008-yil 4-aprel. (The word of the people. 2008. April 4.)
11. LEX.Uz.
12. LEX.Uz.

Qo‘shboyev Quvonchbek Salimjon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

HUNARMANDCHILIKDA ZOOMORFIK RAMZLAR TASVIRI (MARG‘ILON VA RISHTON HUNARMANDCHILIGI MISOLIDA)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hunarmandchilikda foydalaniladigan tasvirlarning muayyan ramziy ma’nolarga ega ekanligi, ularni yaxshiroq tushunish, hunarmandning dunyoqarashi, ruhiyatini to‘laroq anglashga, insonlar uchun avvalo hunarmand shaxsini, uning yaratgan mahsulotlarining qadr-qiymatini bilishga, ularning asl qiymatiga xolis baho berishga, shuningdek, ushbu buyumlardagi qadimdan shakllanib kelgan va o‘zida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan madaniyatni boshqa hududlarga yoyishga imkon berishi Rishton kulolchiligi hamda Marg‘ilon to‘qimachiligida keng foydalaniladigan zoomorfik tasvirlarning tahlili orqali ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *kulolchilik, hunarmand, kulol, ramz, tasvir, to‘qimachilik.*

O‘zbek milliy hunarmandchiligida ham turli xil ma’no-mazmun kasb etuvchi o‘ziga xos ramzlar keng tarqalgan. Ularda aks etgan rang-tasvirlar, turli shakllar hamda bezaklarni nafaqat san’atshunoslik nuqtai nazaridan, balki etnologik jihatdan ham o‘rganish muhimdir. Chunki, ularni tahlil qilish orqali ma’lum tarixiy davrda yashagan aholi turmush tarzi, madaniyati, diniy e’tiqodi, ruhiy olami, shuningdek, hunarmandlarning tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin. Bundan tashqari, hunarmandchilik buyumlari va undagi aks etgan tasvirlarni yaxshiroq anglash, ular orqali qadimdan shakllanib kelgan o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan madaniyatni boshqa o‘lkalarga yoyish imkonini

ham beradi. Boshqacha qilib aytganda, so‘ngi yillarda mamlakatimiz turistik salohiyatining ortishi va xorijiy mamlakat vakillarining o‘lkamiz hududiga tashrif buyurish ko‘rsatkichlarining ortishi, bevosita ularning o‘zbek milliy hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan qiziqishning ortishi bilan birgalikda kechmoqda. Shu sababdan, nafaqat mahsulot sifati va soni balki, ularda aks etgan o‘ziga xos ramzlarni ham chuqurroq tadqiq etish muhimdir.

Kishilik jamiyati tarixida qadim ajdodlarimizning fikri, dunyoqarashi va tili ramzlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Shu sababdan turli fan sohalaridagi tadqiqotchilar tomonidan turfa-xil ramzlarga ko‘plab ta’rif va tavsiflar berilgan. Jumladan, “ramz” so‘ziga (lotincha “symbolom”, “symbolum” so‘zlaridan kelib chiqib, ma’lum atama sifatida XV asrdan boshlab foydalanila boshlangan [1]) lug‘aviy jihatdan e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, uning “belgi”, “imo-ishora” kabi ma’nolarni bildirishini [2, 346], atama sifatida esa, insonlarning tabiiy munosabatlar bilan anglashiladigan va ko‘rsatiladigan har qanday material, buyum ham ramz bo‘la olishini ko‘rish mumkin [3, 12].

O‘zbekistonda turli hunarmandchilik maktablari va yo‘nalishlari bo‘lib ular orasida Rishton kulolchilik maktabi o‘zga xos ramzlari bilan ajralib turadi. Xususan mazkur maktab hunarmandlarning 300 ga yaqin naqshlari, jumladan anor guli, guldon, qalampir, toj, xo‘roz, dumi kampir, qanoti tug‘, qo‘chqarag‘ kabilar keng foydalanilgan [4, 34].

Bizga malumki, milliy hunarmandchilik buyumlariga tushirilgan tasvirlarni xususiyatlaridan kelib chiqib, hayvonot olami (zoomorfik), o‘simlik dunyosi va geometrik shakllar kabi guruhlarga tasniflash mumkin. Kulolchilik va to‘quvchilik buyumlaridagi deyarli har bir tasvir, hatto, kichik bir detalning ham muayyan ma’noga egaligini alohida qayd qilish mumkin.

Hunarmandchilik sohasida eng ko‘p uchraydigan tasvirlardan biri – bu hayvonot olami bilan bog‘liq shakllar bo‘lib, ularda ko‘pincha haqiqiy yoki xayoliy jonivorlar tasvirlanadi. Ayniqsa, ushbu jonvorlar tasviridan hunarmandchilikning ayrim sohalari: to‘quvchilik, kashtachilik, zargarlik hamda kulolchilikda keng foydalaniladi. Bu jihat o‘zbek xalqining ma’naviy

dunyoqarashida totemistik tushunchalarning chuqur iz qoldirganini anglatadi. Xususan, qushlar tasviri shu makonda yashayotgan insonlarning borliqni idrok etishining o‘ziga xos obrazli belgisi, ramzi sifatida, ruhiy olami, tuyg‘ulari, dunyoqarashini aks ettiradi deyish mumkin [5, 13-19]. Ma’lumki, ba’zi xalqlarda qushlarga vafot etgan insonlarning ruhini samoga olib chiquvchi yoki yangi tug‘ilgan chaqaloqning ruhini esa yerga olib tushuvchi obraz sifatida, ya’ni ikki olam o‘rtasidagi vositachi rolida talqin qilinadi [6]. Bu borada o‘zbeklarning xalq og‘zaki ijodida ham chaqaloq ko‘tarib keladigan laylak haqidagi tushunchalar mavjud bo‘lib, u bevosita “olam shajarasi” uchligi bilan bog‘langanligini, ya’ni, inson shajarasining “quyi olami” (ildizlari) hasharot, qurt-qumursqa, sudralib yuruvchilar, “o‘rta qismi” (tanasi) odamlar bilan hayvonot olami, “yuqori qismi” (shox-shabbasi) esa qushlar dunyosi bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin [7, 272].

Qushlar, ayrim holatlarda esa faqatgina ularning qanotlari ifodalangan tasvirlaridan foydalanish Rishton kulolchiligida azaldan muhim sanalgan. Rishton kulolchiligida har bir usta-kulolning o‘z tasavvuridagi “baxt qushi” mavjud bo‘lib, bu bir tomondan usta-hunarmandlarning haqiqiy ustalik maqomiga erishganlik belgisini bildirsa, ikkinchi tomondan hunarmandlarning rasmiy imzosini ham ifodalaydi. Chizilgan qush tasviriga qarab, ushbu mahsulotning qaysi ustaga tegishli ekanligini ham aniqlash mumkin. “Baxt qushi” sifatida, ko‘pincha afsonaviy “semurg‘ ”, “humo” qushlari hisoblanib, ayrim hollarda bu tovus, bulbul, turna, laylak kabi obrazlarida aks etganligini ham ko‘rish mumkin. Ularning barchasi “baxt qushi” sifatida qabul qilingan bo‘lib, mahalliy aholining tasavvurlariga ko‘ra, kichik, ko‘rimsizgina bo‘lgan qush ham o‘zining qobiliyatlari orqali inson aqlini shoshirib qo‘yadigan sifatlarga egaligiga ishoniladi. Misol tariqasida, jajji qush bo‘lgan bulbul ham o‘zining sehrli xonishi orqali insonlarni maftun qilishi mumkin. Shuning uchun ham usta-hunarmandlar “baxt qushi” turli shaklda yoki ko‘rinishda bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydilar. Qushlarning tasvirlanishi ramziy ma’noda usta-kulollarning halol mehnat qilib, baxtli hayot kechirishini ham anglatadi [8, 361-364].

Bundan tashqari, kulollar yasagan mahsulotlari orasida o‘rdak shaklidagi buyumlar ham ommalashgan. Bu hatto ayrim kulollarning “baxt qushi”ga aylangan. Uni kulollar “mubog‘a” deb atashgan [9, 138]. Axborotchilarning aytishicha, avvallari bunday shakldagi buyumlarga talab yuqori bo‘lgan. Sababi, ushbu idishdan foydalanishdagi qulaylik bemor bo‘lgan insonlar uchun judayam qo‘l kelgan. Uning geometrik shaklidagi ixchamligi bemorga ushbu “mubog‘a”dan foydalanganda yonboshlagan holatda ham bemalol dorilarini qabul qilish imkoniyatini bergan. “Mubog‘a”ning eng qulay jihati shundaki, uning behosdan ag‘darilib ketgan taqdirda ham ichidagi suyuqlik to‘kilib ketmagan [10, 138]. O‘rdaksimon shakldagi buyumlarning hajmi ham har-xil bo‘lib, kattalari bir necha litr, kichik hajmdagilari esa bir necha yuz gramm sig‘imga ega bo‘lgan. Ushbu shakldagi idishlarning tashqi ko‘rinishi o‘rdaksimon shaklda bo‘lganligi yosh bolalarning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortgani tabiiy, albatta. Shu sabab ham ehtimol, ota-onalar o‘z farzandlariga turli xildagi suyuq dorilarni qabul qilishlarida bunday shakldagi buyumlardan unumli foydalanishgan bo‘lishi mumkin. “Biroq, hozirgi kunda bunday turdagi mahsulotlarga talab kam”, - deydi usta kulollardan biri [11]. Bizning fikrimizcha, ushbu mahsulotning vazifasini bajaratigan zamonaviy buyumlarning kirib kelishi, aholining bu buyumga bo‘lgan talab va qiziqishini tushishiga sabab bo‘lgandir.

Hayvonot olami bilan bog‘liq tasvirlar Marg‘ilon to‘qimachiligida ham mavjud. Ulardan eng keng tarqalganlari qo‘chqor shoxi, asalari, ot va tovus tasvirlari bo‘lib, ular ham o‘zida muayyan diniy-afsonaviy tasavvurlarni mujassamlashtirgan. Shunday ramzlardan biri tovusdir. Tovus eng qadimiy diniy e’tiqodlardan biri bo‘lmish zardushtiylikda olamni yorituvchi quyosh hisoblansa, islom dinida esa “jannat qushi”, “baxt qushi” sifatida talqin etiladi. Zardushtiylik diniga e’tiqod qiluvchi insonlar tafakkurida, ushbu jonzotning muayyan ramziylik kasb etgani, keyinchalik, islom dinida ham uning ramziy ahamiyati yo‘qolmagani, inson va hayvonot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik odamlarning diniy tafakkurida ham mujassamlashganini ko‘rsatadi. Hunarmandchilikda tovus tasviridan foydalanish nafaqat o‘zbek xalqida, balki qo‘shni qardosh xalqlar hunarmandchiligida,

jumladan turkmanlarda ham keng foydalanilishi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi [12, 133].

Ma’lumki, hunarmandchilik sohasi birinchi navbatda insonlarning iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, ijtimoiy hayot sohasi bilan bog‘liq jarayonlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Jumladan, hunarmandchilik mahsulotlarida hayvonot olami bilan bog‘liq tasvirlardan keng foydalanilishi insonlarning kundalik hayotida hamda mafkuraviy hayotida hayvonot dunyosining ham muhim izlari borligini tushunish mumkin. Shuningdek, ushbu turdagi ramziy mazmun kasb etuvchi tasvirlarning hozirga qadar ham keng foydalanib kelinayotgani o‘zbek xalqining ma’naviy dunyoqarashida totemistik tushunchalarning naqadar chuqur ildiz otganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, hunarmandchilik mahsulotlariga ishlangan bezaklar orqali o‘sha davr insonlarining etologiyasini, diniy qarashlarini, uning tabiat bilan hayvonot olami bilan azaliy bog‘liqligi mavjudligini tushunish mumkin. Bundan tashqari, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan madaniyatni asrlar davomida o‘zida saqlab kelayotgan milliy hunarmandchilik buyumlari orqali o‘zbek madaniyatini boshqa o‘lkalarga yoyish ham muhimdir. Mamlakatimizda turizmni rivojlanishi va o‘lkamizning tobora turistik mintaqaga aylanishi, hunarmandchilikning barcha jabhalarida, jumladan undagi ramzlar tasvirini ham to‘liqroq tushunish foydadan holi emasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.merriam-webster.com/dictionary/symbol#word-history (murojaat etilgan sana: 05.11.2023).
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмалари. Ж. III. Р – Тартибли / Таҳрир ҳайъати: Т. Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006. – 346 б.
3. Alimkulov E.A. O‘zbekistondagi diniy-mistik ramzlarning tarixiy-qiyosiy tahlili: Tarix. fan. nom. ...diss. aftoref. Toshkent., 2023. – B. 12.
4. Эсонов З.Й. Фарғона водийси қишлоқ аҳолисининг ҳунармандчилик анъаналари (XIX аср охири - XX аср бошлари).: Тарих. фан. ном. ...дисс…Тошкент, 2021. – Б. 34
5. Davlatova S.T. O‘zbek hunarmandchiligi buyumlarida zoomorf naqshlarning qo‘llanishi / International scientific journal «Global science and innovations 2020: “Central Asia”. – Nur-Sultan, Kazakhstan, august, 2020. – P. 13–19.

6. Irina Bogoslovskaya. Zoomorphic Motifs in Karakalpak Ornamental Art // San’at. - 2009. - №2. https://sanat.orexca.com/2009/2009-2/irina_bogoslovskaya-4/ (10.11.2023).

7. Давлатова С. Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида) тарихий-этнологик тадқиқот. Тошкент: Yangi nashr, 2018. – 272 б.

8. Азизов А. А. В поисках птицы счастья (В основе полевых материалов). МАТЕРИАЛЫ VI Международной научно-практической конференции «GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2019: CENTRAL ASIA» IV ТОМ. С. 361-364.

9. Азизов А.А. Узбек маданиятида ҳайвонот олами билан боғлиқ тасаввурлар (фарғона водийси мисолида).: Тарих. фан. ном. ...дисс…Тошкент, 2023. – Б. 138.

10. Азизов А.А. Узбек маданиятида ҳайвонот олами билан боғлиқ тасаввурлар (фарғона водийси мисолида).: Тарих. фан. ном. ...дисс…Тошкент, 2023. – Б. 138.

11. Dala yozuvlari, Farg‘ona viloyati, Rishton tumani. 2023-yil.

12. Азизов А.А. Узбек маданиятида ҳайвонот олами билан боғлиқ тасаввурлар (Фарғона водийси мисолида).: Тарих. фан. ном. ...дисс…Тошкент, 2023. – Б. 133.

5-SHO‘BA. MADANIY MEROS VA BARQAROR RIVOJLANISH

Altiboyev Yuldosh Ergash o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

MADANIY MEROS OBYEKLARIMIZNING MA’NAVIY TARBIYADAGI O‘RNI QASHQADARYO VOHASI MISOLIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy obidalar orqali milliy va diniy qadriyatlar asosida ma’naviy tarbiyani rivojlantirish jarayonlari Qashqadaryo viloyati madaniy meroslari misolida tahlil etilgan. Uning jamiyatdagi zamonaviy taraqqiyoti amaliy ahamiyati asoslab berilgan. ma’naviy tarbiyani rivoji nuqtay’i nazaridan fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy obidalar, milliy, diniy, tarbiyaviy, qadriyat, yoshlar, g‘oya, taraqqiyot, istiqbol, muammo, ilmiy tadqiqot.

O‘zbek xalqining boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob va nodir madaniy merosini asrab-avaylashni kuchaytirish, sohani raqamlashtirish, innovatsion rivojlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jahonning ilg‘or tajribalaridan samarali foydalanish orqali, moddiy madaniy meros obyektlari, madaniy boyliklar, muzey ashyolari va kolleksiyalarini aniqlash, ularning davlat hisobini yuritish hamda sohada ta’sirchan davlat nazoratini amalga oshirish, moddiy madaniy meros sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ularga oid ma’lumotlarning barcha uchun ochiq bo‘lishini ta’minlash, madaniy merosimizning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuviga ko‘maklashish va ularni keng ommalashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida muzeylarni kompleks rivojlantirish, 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorning qabul qilinishi ham bejis emas albatta.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan tan olingan taraqqiyot yo‘limiz hamda bugun olib borilayotgan islohatlarimizdan ko‘zlangan maqsadlardan biri tarixiy obidalar asosida mamlakatimiz fuqarolarini ma’naviy tarbiyalash. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish uchun yoshlarimizni milliy va diniy qadriyatlarimiz aks etgan

tarixiy yodgorlik orqali tarbiyalashimiz ham dolzab masalalardan biridir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Yoshlarda ilm-fanga va ta’lim olishga intilish tuyg‘usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to‘g‘ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xaqlariga islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun muhimdir” [1] Prezidentimiz rahbarligida “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san’atni yuksaltirish, yoshlarni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi [2].

Qadriyatlar ko‘pchilik shaklda ishlatiladigan keng qamrovli, chuqur mazmunli falsafiy kategoriyadir. Shu boisdan unga ilmiy falsafagina ta’rif va tavsif beradi. Uning ta’rifi bizningcha bunday: qadriyatlar deb insoniyat uzoq va yaqin o‘tmishda, hozirgi zamonda yaratgan, uning uchun g‘oyat qimmatli, benihoya qadrli bo‘lgan, elat, xalq, millat, sinf, ijtimoiy guruhlarning manfaat, maqsadlariga xizmat qildiriladigan moddiy va ma’naviy boyliklarga aytiladi. Qadriyatlar mazmuni jihatidan ikki xil: dunyoviy va diniy bo‘ladi. Dunyoviy, real qadriyatlar uch guruhdan iborat bo‘ladi. Bularning birinchisi umuminsoniy qadriyatlar bo‘lib, bular butun insoniyatga, jahon xalqiga xos ilm-fan, moddiy va ma’naviy madaniyat, adabiyot, san’at, axloq, dunyoviy va diniy boyliklardir. Qadriyatlarning ikkinchisi milliy qadriyatlar bo‘lib, ular muayyan elat, xalq, millatga xos bo‘lgan moddiy-ma’naviy boyliklardir. Qadriyatlarning uchunchisi hududiy, regional, ya’ni mintaqaviy moddiy va ma’naviy boyliklardir. Qadriyatlarning asosan to‘rt shakli bor: birinchisi tabiiy qadriyat. Bularga yer osti va usti boyliklari, suv, havo, o‘rmon, o‘simlik va hayvonotlar kiradi; ikkinchisi iqtisodiy qadriyatlar. Bularga moddiy ne’mat, mehnat buyumlari, ishlab chiqarish qurollari, texnika va texnologiyalar kiradi; uchunchisi ijtimoiy – siyosiy qadriyatlar. Bularga inson, uning ozodligi, tengligi, erkinligi, ijtimoiy himoyalanishi, adolat, insonparvarlik, tinchlik, demokratiya, xalqaro hamkorlik, do‘stlik va hokazolar kiradi; to‘rtinchisi ma’naviy qadriyatlar. Bularga ilm-fan, jumladan falsafa, ma’rifat, ma’naviyat,

san’at, adabiyot, tarixiy obida, muzey, axloq, diniy va dunyoviy ta’limotlar va hokazolar kiradi [3].

O‘zbek xalqi juda qadimiy xalqlardan biri hisoblanib, o‘zining boy madaniyati va qadriyatlari bo‘lganki, ular avloddan avlodga o‘tish bilan yanada boyib borgan, xalqlar tarixida dastlabki mehnat qurollari yasash davridan boshlab to hozirgi fan-texnika revolyutsiyasigacha ming asrlar davomida yuzaga kelgan qadriyatlar saqlangan va bizgacha yetib kelgan. Ijtimoiy hayotdan o‘rnini topgan, xalq manfaatlarini ifoda etgan, turmush tarzida sinalgan qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib, yashashda davom etgan. Qadriyatlar haqidagi ma’lumotlardan barcha yoshlarni xabardor qilib borish, ma’naviy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Chunki ular qadriyatlar bilan tanishishganda o‘z xalqi, millati, tarixi bilan tanishishga muyassar bo‘ladilar. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritish bilan tamoman yangi hayot boshlandi. “Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir, - degan edi o‘z vaqtida I.A.Karimov, - O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir” [4].

Yuqorida qayd etilgan umuminsoniy qadriyatlarga ota-bobolarimiz o‘z davrida qurdirgan inshoot, masjit, madrasa, karvonsaroy binolari, maqbara va boshqa inshootlar ham kiradi. O‘sha davr talabi bilan qurilgan va keyinchalik tarixiy me’morlik obidalarini rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qilgan arxitektura binolari jahonga mashhur bo‘lgan. Bu yodgorliklar o‘tmishda xalqimizning qanchalik ma’naviyatli, salohiyatli, mehnatkash, imon-e’tiqodli ekanligini ko‘rsatib turibdi. Qadimiy yodgorliklar o‘tmishimiz ko‘zgusi, ma’naviyat va madaniyatning ifodasidir. Bunday tarixiy yodgorliklarni respublikamizning deyarli barcha joylarida uchratish mumkin. Biz bularni birgina Qashqadaryo misolida ko‘rsatishga harakat qilamiz. Tarixiy manbalardan olingan ma’lumotlarga qaraganda, Qashqadaryo vohasi, unda yashagan xalqlar tarixi, ular

barpo etgan shaharlar va ulardagi yodgorliklar antik davrlarga borib taqaladi. O‘zbekiston olimlari bu haqda anchagina ilmiy izlanishlar qilganlar.

Masalan, L.O.Mankovskaya “Архитектурные памятники Кашкадарьи” nomli monografiyasida Qashqadaryo yerlarida miloddan ming yil avvalgi davrda ibtidoiy odamlarning yashaganligini tahmin qiladi. Buning dalili uchun hozirgi Nishon, Yakkabog‘ va Chiroqchi tumanlaridagi qir va tepaliklarni ko‘rsatib, bular mazkur ilmiy gipotezaga tegishliligini aytadi. Shahrisabz, Kitob tumanlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar ham qadimgi antik davrga tegishli ashyoviy dalillar borligini ko‘rsatadi. Qarshi shahrining shimolida, Koson tumanida joylashgan Yerqo‘rg‘on deb ataluvchi qadimiy shaharcha mavjud bo‘lganligi aniqlandi. U qalin devorlar bilan o‘ralgan, ikkita darvozasi bo‘lib o‘rtasida shahar hukmdorining qal’asi bo‘lgan. Undan tashqari shaharda kulolchilik ustaxonalari va qalin loy devor bilan o‘ralgan, naqshlar bilan bezatilgan bo‘ddaviylik diniga xos ibodatxona joylashganligi ma’lum bo‘ldi. Ayni joyda o‘sha shahar harobalarida zardo‘shtiylik diniga mansub odamlarni dafn etish urf-odatlariga xos yodgorliklar ham topilgan. Bular va shunga o‘xshash boshqa viloyatlardan topilgan tarixiy obidalar bizning qadimiy ajdodlarimizni madaniyatliligi, mehnatsevarligi naqshlar serqirra ekanligini ko‘rsatib turibdi. Bundan xulosa shuki, Markaziy Osiyo xalqi ajdodlarining o‘ziga xos qadriyatlari - sa’nati, madaniyati, mohir ustalari bunyod etgan tarixiy obidalari bo‘lib, ularning ba’zilari hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan Shahrisabz shahri va tumani: Oq Saroy majmuasi, Jahongir maqbarasi, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Ko‘k Gumbaz masjidi, Malik Ajdar maschiti, Xo‘ja Mirxamid maschiti, Temur Daxmasi, Ulug‘bek avlodlari maqbarasi. Qarshi shahri va tumani: Ko‘k Gumbaz maschiti, Shermuhammad madrasasi, Sharobxo‘ja madrasasi, Xo‘ja Qurbon madrasasi, Bekmir madrasasi, Abdulazizxo‘ja madrasasi, Qo‘rg‘oncha madrasasi. Qarshi tumani: Zagza masjidi, Tosh masjid (Beshkent), Chor gumbaz masjidi (Kaxlyak), Xalfa eshon masjidi, Chor gumbaz masjidi (Kuchkak), Gumbaz masjidi (Lagandi), Qo‘yi Orol masjidi, Hazrat Sulton maqbarasi. Kasbi tumani: Xo‘ja Karlik kompleksi, Pandram masjidi, Sulton Mirxaydar kompleksi, Namozgox (Kasbi), Sardoba (Kasbi), Sardoba (Qamashi),

To‘ra masjidi (Kattagan), Xo‘ja Karlikdagi ikki gumbazli maqbara. Koson tumani: Bandi Kushod masjidi, Husan ota kompleksi, Koson qo‘rg‘onidagi masjidi, Po‘lotdagi xonaki masjidi. Chiroqchi tumani: Eski Langar masjidi, Katta xonaqoh, Kichik xonaqoh, Yakkabog‘ tumani: Yodgor Bashir maqbarasi va shu yerdagi masjidi. Nishon tumani: Hazrati imon Muni kompleksi, Hazrati Shayx kompleksi, Qamashi tumani: Langar ota maqbarasi, Langar masjidi. Mirshikor tumani: Avon masjidi (jome) [5].

Qadimgi tarixiy obidalarni, moddiy madaniy meros obyektlarini, madaniy boyliklarni, muzey ashyolari va kolleksiyalarini aniqlash, o‘rganish va ularni xalq orasida tartib qilish sohalarida olimlarimiz talaygina ishlar qilishgan. Bu borada A.Haqqulovning “Ta’mirlash san’ati” [6] monografiyasi tarixiy yodgorliklarni qadrlash va kelgusi avlodga bekamukust yetkazib berish masalasini juda o‘rinli tavsiflagan. Unda yozilishicha, o‘zbek diyorida bobokalonlarimiz yaratgan mazmunli va tarixan bebaho san’at asarlari jahon madaniyati durdonalari qatoridan o‘rin olgan; eshiklarga o‘yilgan turli naqshlar, darchalar tepasidagi ganch yoki marmardan o‘yib ishlangan panjaralar, devorlarning pastki qismiga o‘rnatilgan marmar toshlarning o‘ymakor naqshlari va ko‘kka bo‘y cho‘zgan minoralarning tarovati, ularga mutanosib ishlangan xilma-xil gulkor naqshlar bir vaqtlar Sharqda madaniyati juda yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. Chindan ham bir zamonlar qo‘li gul ustalar yaratgan san’at durdonalari hozirgi kunda yoshu-qariga birdek g‘urur va zavq beradi. Bu madaniy merosimiz boyliklarning mazmunini tushungan yoshlar bebaho qadriyatlarimizni avaylab-asrashga va o‘z ma’naviyatlarini boyitishga harakat qiladi.

Madaniy meros va milliy qadriyatlar orqali fuqarolarimizni, ayniqsa yoshlarimizni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash, ularni turli zararli oqim va yot g‘oyalar ta’siridan asrashga alohida e’tibor qaratish lozim. Buda tarixiy yodgorliklarga sayohatlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ilg‘or mamlakatlar qatoriga yetish uchun bu sohada o‘qish, bilim olish. komil inson bo‘lish uchun ma’naviyatni singdirish yangilanayotgan O‘zbekistonning poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев. Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -35 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2022. 440 б.
3. Назаров Қ. ва бошқалар. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Маънавият нашриёти, 2021. – Б. 778.
4. Каримов И.А. “Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура” Т.: Ўзбекистон 1993 йил, 74-бет.
5. Маньковская Л.О. “Архитектурные памятники Кашкадарьи” номли монографиясида.
6. Хаккулов А. Таъмирлаш санъати, Т.: Мехнат, 2004 йил, 56-бет.

Annayev Jaloliddin Tuxtashevich
O‘zMU, Arxeologiya kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD).

SAYYOHLIK TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY-MADANIY MEROS OBYEKTLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Vatanimizda sayyohlik tizimini rivojlantirishda tarixiy-madaniy meros, xususan arxeologiya merosi obyektlarining tutgan o‘rni, sayyohlikni tizimini rivojlantirishga oid mexanizm va vositalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy-madaniy meros, arxeologiya, Axsikent, “Uchtepa-Buloqmozor” majmualari, Fayoztepa, Qoratepa, Zo‘rmola, Dalvarzintepa, sayyohlik, muzey va ko‘rgazmalar, muzey dasturlari, ekskursiya va gidlar.

Tarixiy-madaniy meros har bir millat madaniy boyligining tarkibiy qismi hisoblanib, millatning madaniy taraqqiyotida muhim o‘ringga egadir. Tarixiy-madaniy meros turli davrlarga oid tarixiy jarayonlar haqida guvohlik beruvchi obyektlardan tashkil topgan. Ular sirasiga an’analar va urf-odatlar, milliy bayramlar, arxeologik va etnografik manbalar, me’moriy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, arxeologiya yodgorliklari va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

So‘nggi yillarda tarixiy-madaniy meros obyektlari mahalliy va xorijiy sayyohlar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Sayyohlar diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish natijasida turli xalqlar tarixi va madaniyati bilan tanishish hamda o‘zaro tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa, o‘z navbatida, ochiq

va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan jamiyatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy-madaniy meros va sayyohlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan sohalar bo‘lib, birining rivojlanishi esa, o‘z navbatida, boshqasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tarixiy-madaniy meros madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, tushunish va bag‘rikenglik ta’moyillarini rivojlantirishga hissa qo‘shgan holda, turli madaniyatlar o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini ham bajaradi. Tarixiy-madaniy meros obyektlaridan biri bu – arxeologiya yodgorliklaridir. Arxeologiya – kishilik jamiyati tarixini arxeologiya yodgorliklari va ulardan aniqlangan moddiy manbalar asosida tadqiq etuvchi tarix fanlari sohalaridan biri hisoblanadi. Arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan qadimgi va o‘rta asrlar davri yodgorliklari hamda moddiy madaniyat namunalari nafaqat boy tariximiz haqida guvohlik beradi, balki uni targ‘ib qilish hamda yangi sayyohlik yo‘nalishlarini yaratishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida Vatanimizda arxeologik tadqiqotlarni zamon talablari asosida yo‘lga qo‘yish, arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ochiq osmon ostidagi sayyohlik obyektlariga aylantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi F-5181-son “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi[1], 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[2], 2022-yil 6-iyuldagi 165-son “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innnovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni[3], shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-son “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori[4] qabul qilindi. Bu kabi amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida Vatanimiz hududida joylashgan Axsikent, “Uchtepa-Buloqmozor” majmualari, Fayoztepa, Qoratepa, Zo‘rmola, Dalvarzintepa kabi yodgorliklar sayyohlik obyektlariga aylantirildi. Bundan tashqari, Vatanimizning eng qadimgi shaharlaridan biri Samarqandda Markaziy

Osiyodagi eng yirik sayyohlik majmuasi barpo etildi. Shuni ta’kidlashimiz kerakki, tarixiy-madaniy meros, xususan arxeologiya merosi obyektlari sayyohlik tizimida yangi sayyohlar oqimini jalb etish va noyob sayyohlik mahsulotlarini yaratishda muhim o‘ringga egadir. Biroq, mazkur obyektlardan sayyohlik tizimini rivojlantirishda foydalanishda ma’lum bir mexanizmlar va vositalarni ishlab chiqish hamda ulardan oqilona foydalanish talab etiladi. Bu mexanizm va vositalar ayrimlari haqida qisqacha ma’lumot:

1. Sayyohlik yo‘nalishlarini ishlab chiqish: bunda har bir hududning tarixiy va madaniy xususiyatlari inobatga olingan holda batafsil sayyohlik yo‘nalishlari ishlab chiqilishi lozim.

2. Sayyohlik yo‘nalishlari talqini: har bir yo‘nalish turli sayyohlar auditoriyasi uchun moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Masalan: Soha mutaxassislari uchun batafsil, oilaviy yoki yakka tartibdagi sayyohlar uchun esa qisqa va qiziqarli ma’lumotlar bazasidan tashkil topishi lozim.

3. Ma’lumotlar taxtachasi: har bir sayyohlik yo‘nalishi obyektlari hududida obyektga tegishli qisqa ma’lumotlar taxtachasi shakllantirilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, yakka tartibda tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun yengillik yaratadi.

4. Muzey va ko‘rgazmalar: muzey va topilmalar ko‘rgazmasiga tashrif buyurish sayyohlar uchun hududning tarixiy-madaniy merosi bilan bog‘liq bo‘lgan ashyolar, tarixiy hujjatlar va boshqa manbalar bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratadi.

5. Muzey dasturlari: sayyohlarning muzeylarda tashkil etilgan dasturlarda bevosita ishtirokini tashkil etish. Masalan: moddiy manbalar restavratsiyasi jarayonida ishtirok etish.

6. Madaniy tadbirlarni tashkil etish: madaniy tadbir va festivallar sayyohlarning mahalliy an’ana va urf-odatlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratadi.

7. Ekskursiya va gidlar: tajribali gidlar yordamida amalga oshirilgan ekskursiyalar sayyohlarga har bir obyektning tarixi va ahamiyatini batafsil yoritishga, ekskursiyaning yanada qiziqarli va mazmunli o‘tishiga ko‘maklashadi.

Yuqorida tilga olingan mexanizm va vositalar esa, o‘z navbatida, turizmning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Buning natijasida ma’lum bir iqtisodiy manfaatdorlikka erishiladi. Masalan:

1. Iqtisodiy o‘sish: sayyohlik infratuzilmasi, mehmonxona va restoran biznesi, mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdoni rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Buning natijasida iqtisodiy o‘sish va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga erishiladi.

2. Tarixiy-madaniy meros obyektlarini saqlash va muhofaza qilish: sayyohlik tizimining rivojlanishi soha mutaxassislari va vakolatli tashkilotlar oldiga tarixiy-madaniy meros obyektlarini kelajak avlod uchun saqlab qolish, ularni ta’mirlash, saqlash va muhofaza ishlarini amalga oshirish vazifalarini qo‘yadi.

3. Aholining bilim va madaniyati darajasini oshirish: sayyohlik aholining tarixiy-madaniy merosini chuqur tushunish va baholash, bilim va madaniyati darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tarixiy-madaniy meros obyektlari sayyohlik tizimida muhim o‘ringga egadir. Shubhasiz, tarixiy-madaniy meros asosida sayyohlik tizimining barqaror rivojlanishida keng qamrovli yondashuv talab etiladi. Tegishli infratuzilmani yaratish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, mahalliy hamjamiyatlar bilan faol hamkorlik qilish hamda ekologik barqarorlik kabi tamoyillariga amal qilish shular jumlasidandir. Aynan bunday yondashuv hududlarda sayyohlik tizimini barqaror rivojlanishini ta’minlash va uning asosi hisoblangan tarixiy-madaniy meros obyektlarini kelajak avlodga yetkazishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normativ – huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi F-5181-son Farmoyishi. “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/3506332

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son Qarori. “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” https://www.lex.uz/docs/4113465

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-sonli Qarori. “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” http://www.lex.uz/docs/4524476
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi 165-son Farmoni “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innnovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/6102462

Аширова Ноила
Чирчикский государственный педагогический университет
Студентка 4го курса
Научный руководитель: Ф.Ш.Илмуродова

ПЕРЕДОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ 3D В ОБЛАСТИ СОХРАНЕНИЯ И РЕСТАВРАЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ

Аннотация: в данной статье излагаются факторы, способствующие исчезновению исторических и культурных объектов, и правовые документы, принятые в международном сообществе в связи с этим, а также изучаются возможности реставрации исторических памятников современной 3D-технологией, а также использования технологии в нашей стране.

Ключевые слова: процесс глобализации, памятники истории и культуры, антропогенное воздействие, вооруженные конфликты, стихийные бедствия, вандализм, 3D-технологии, реконструкция, цифровая археология.

Вопрос о сохранении памятников историко-культурного наследия мира, созданных в прежние века, неоднократно поднимался на протяжении развития цивилизации. Сооружения подвергались воздействию природных катаклизмов, страдали от войн и следовавших за ними переделов территорий, смены режимов, религий и мировоззрений новых владельцев. В настоящее время памятники по-прежнему находятся под угрозой не только из-за возраста своих конструкций или недостаточного финансирования по их сохранению и восстановлению, но и из-за многих других факторов, принципиально важных для каждого отдельного региона -локальные конфликты, обстоятельства неодолимой силы, рост производства и пр. SD-реконструкции историко-культурных сооружений могут отчасти решить эту проблему, а также по меньшей мере зафиксировать не только современное

состояние архитектурных объектов для последующих поколений, но и представить перед потомками различные этапы существования памятника. В процессе сегодняшней глобализации задачи, которые нельзя откладывать в долгий ящик, стоящие перед человеческим обществом, становятся неадекватными. В результате антропогенных и природных воздействий модели процессов тамаддуни человека, то есть памятники истории и культуры, подвержены потере сознания. Это ставит ответственную задачу сохранения истории своих предков перед странами мира, людьми каждой нации, гражданином.

Во второй половине 20 века угроза различных религиозных, национальных, этнических конфликтов, экстремизма и терроризма стала привлекать внимание международного сообщества к этой проблеме. Исходя из этой цели, в 1954 году по инициативе ЮНЕСКО в городе Гааге с 21 апреля по 14 мая была проведена международная конференция с участием 56 государств. На Международной конференции "О защите культурных ценностей во время вооруженного конфликта" [1] Гаагская конференция была принята. 21 мая 1954 года был принят Первый протокол вместе с Гаагской конвенцией[2]. Первый протокол применяется только к движимым памятникам культуры хайкалам, картинам, различным подвижным экспонатам. Недостатки Гаагской конвенции и первого протокола к ней были отчетливо видны из-за нестабильной политической ситуации в мире 80-90-х годов 20 века. В результате в марте 1999 года был принят второй протокол, предусматривающий большую гомогенизацию культурных ценностей, чем Гаагская конвенция и первый протокол к ней. В то время была снесена из-за национального конфликта 1992 года в Баку, 43 шиитские мечети, включая мечеть эмира Мухаммеда, были разрушены в результате восстания в Бахрейне в 2011 году.

Из-за наступления ИГИЛ в 2011-2017 годах, которое было создано в результате экстремистских зверств в Ираке и Сирии, многие исторические,

археологические и культурно уникальные памятники были разграблены и превращены в руины, около 30 древних храмов и ступеней.

Человечество обязано сохранить и передать будущим поколениям памятники, которые исчезают из-за их природного и антропогенного характера. Сегодня ученые всего мира предлагают сохранить и возродить использование передовых технологий в качестве решения проблемы. С помощью передовых технологий можно сохранить исторические памятники, особенно те, которые находятся под угрозой исчезновения, в 3D. 3D-моделирование они создали трехмерный макет на основе любого архитектурного плана или самого артефакта, чертежа, изображения и т.д.

С помощью 3D-моделирования мы создаем технологичный образ любого трехмерного материала, такая техника используется в архитектуре, кинематографе, инженерии, медицине и многих других областях. Также возможно сохранять памятники, демонстрировать их широкой публике путем реставрации или полной реконструкции фрагментов памятников истории и культуры. Создавая вертикальные модели памятников тарчийской культуры, которые не сохранились, их можно эффективно использовать в научных исследованиях. Сейчас в мире становится все более распространенным изучать, сохранять, популяризировать историческое и культурное наследие с помощью вертикальных 3D-моделей. Вертикальное моделирование - это область, которая сейчас развивается в мире. На данный момент в этом Soha завершены десятки работ. Это было дополнительно расширено несколькими профессорами и исследователями из Гарвардского семитского музея. Они говорят, что "современная цифровая 3D-визуализация позволяет выполнять вертикальную реконструкцию древних архитектурных ограждений, которые сегодня лишь повреждены или частично сохранились, в масштабе волны [3]. Используя цифровую анимацию и добавляя цветовые и световые эффекты, можно показать, как эти места и памятники менялись с течением времени, настаивая на том, что они способны показать “от благородного строительства и древнего использования до возможного заброшения и разрушения”.

Они работают с организациями по всему миру над созданием 3D-моделей исторических памятников. Несмотря на распространенность 3D-моделирования музейных экспонатов в Хойзе, создание цифровых моделей крупномасштабных памятников культуры развивается медленно. В Узбекистане созданию моделей реконструкции на основе 3D-моделирования исторических памятников в последние годы уделяется большое внимание. В нашей стране в 2018 году "Шелковый путь" в формате 3D начал работать с IT-специалистами Любинского технологического университета в Польше.

С 14 июня 2021 года в нашей стране "Новый Узбекистан. В рамках программы "Новый взгляд" начал свою работу новый проект по оцифровке исторических памятников и монументалок в 3D [4].

Памятники истории и культуры имеют огромное значение в развитии человечества, в развитии духовного совершенства. Благодаря такому культурному наследию у нас будут знания и вкус к образу жизни, образам хозяйства, культуре, искусству наших предков. Технология 3D позволяет более достоверно и полно отразить эту историю, и сохранение памятников культуры на более длительный период времени имеет огромное значение. Современные передовые технологии способны быстро и точно обеспечивать высокие результаты.

Трехмерные вертикальные реконструкции полностью исчезнувшего государства, городов и памятников стали отличными визуальными эффектами, которые рассказывают историю своего тарси и способны подробно рассказать людям о тарси. Это означает, что создание 3D-моделей памятников истории и культуры позволяет создать набор данных для будущего поколения, а также создать условия для наблюдения и исследования памятников истории и культуры в любое время года, суток, в любом месте для всех. Целесообразно использовать возможности 3D-модели при сохранении и передаче будущему поколению исторических памятников, которые дошли до нас от наших предков на протяжении тысячелетий, и при

развитии индустрии туризма, которая характеризуется наиболее продуктивными отраслями в мире.

Таким образом, можно сделать следующие выводы:

1) использование ЗБ-реконструкций памятников историко-культурного наследия позволяет не просто визуализировать объект, но и провести его комплексный анализ с учетом исторического контекста;

2) постоянное обновление технологии построения ЗБ-моделей и разработка архитектурных модулей для программ компьютерного моделирования выводят работу по созданию реконструкций на новый уровень, при этом повышая качество и достоверность каждого элемента и образа в целом;

3) построение модели уже само по себе является источниковедческим исследованием;

4) современная ситуация требует от специалистов дальнейшего распространения и развития методологии исторического исследования, основывающегося на изучении не только источниковедческой базы, но и визуализированного объекта в воссозданной среде, а также модели взаимодействия участников исторического процесса;

5) увеличение в досугово-развлекательных областях (игры, фильмы) визуального ряда, содержащего смоделированные компьютерными средствами памятники искусства, способствует популяризации истории искусств.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1.”Қуролли тўқнашувлар юз берганда маданий бойликларни химоя қилиш тўғрисидаги конвенцияга Протокол”. Портал.юнеско.орг.1-,3-моддалар.

2. 2347-сонли резолюция: Маданий меросни мухофаза қилишни глобал миқиёсида жорий этиш.

3. Кандулкова Е. “Маданий ёдгорликларни сақлаш учун ахборот технологиялари.2000. 263.

4. Xodjayeva M. Greatsion of 3D models of istorikal monuments application of digital technologies.2021.

5. Нурулин Т.С. 3D реконструкция древнего поселения Еркурган.Т.2022.

Babarahimov T. G’.
O‘zMU, Antropologiya va etnologiya kafedrasi o‘qituvchisi

MAHALLIY AHOLI MADANIY MEROSINI SAQLAB QOLISHDA TURIZMNING O'RNI

Annotatsiya: Maqolada turizmning hunarmandchilik va an’anaviy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga ta’siri, shuningdek, uning mahalliy hamjamiyatlarning madaniy merosi va o‘ziga xosligini saqlashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Turizmning hunarmandchilikka talabni shakllantirish, o‘quv dasturlari va mahorat saboqlarini tashkil etish, mahalliy hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘llari tahlil qilingan. Bu jarayonning mahalliy aholining iqtisodiy mavqeini mustahkamlash va ularning o‘ziga xos madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolishdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: turizm, hunarmandchilik, *turizm maskanlari,* an'anaviy hunarmandchilik, madaniy meros, mahalliy jamoalar, rivojlanish, tabiatni muhofaza qilish, iqtisodiy yordam.

Аннотация: Статья рассматривает влияние туризма на поддержку и развитие ремесел и традиционных промыслов, а также его роль в сохранении культурного наследия и идентичности местных сообществ. Анализируются способы, через которые туризм способствует созданию спроса на ремесла, организации обучающих программ и мастер-классов, а также поддержке местных ремесленников. Обсуждается важность этого процесса для укрепления экономической позиции местных сообществ и сохранения их уникальной культурной идентичности.

Ключевые слова: туризм, ремесла, *туристическое пространство*, традиционные промыслы, культурное наследие, местные сообщества, развитие, сохранение, экономическая поддержка.

Zamonaviy dunyoda jamiyat axborot oqimlari va odamlar harakati uchun tobora ochiq bo'lib bormoqda, bu esa "global jamiyat", "axborot jamiyati" va "xavf/tavakkal jamiyati" kabi ta'riflardan foydalanishga olib keladi. Globallashuv butun dunyo bo'ylab odamlarning harakatchanligini oshirish bilan bog'liq hodisa

sifatida ommaviy turizmning rolini kuchaytiradi. Turistik yo‘nalishlardagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning harakatlantiuvchisi sifatida ikki tomonlama xususiyatga ega. Globallashuv sharoitida u mahalliy hamjamiyatlarda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar va innovatsiyalarni rag'batlantiradi, lekin mahalliy aholi va madaniy muhit uchun muammo va tahdidlarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy nafaqaga bog'liq bo'lgan odamlar milliy madaniyatga bo'lgan sadoqatini yo'qotishi mumkin, an'anaviy xo‘jalik orqali tirikchilik qilayotganlar esa bu majburiyatni saqlab qolish ehtimoli ko'proq.

Madaniy merosni asrab-avaylash va targ‘ib qilishda sayyohlik orqali mahalliy aholining an’analari haqida xabardorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sayyohlik kompaniyalari va mahalliy tashkilotlar ko'pincha turistlarni mahalliy jamoalarning madaniy merosi va an'analari bilan tanishtiradigan ekskursiya va ta'lim dasturlarini taklif qilgan holda, tarixiy joylarga, muzeylarga tashrif buyurish, hunarmandchilik ustaxonalari va an'anaviy tadbirlarda ishtirok etishni o'z ichiga olishi mumkin.

Saytlarda va shaharlarda mintaqaning madaniy merosi va an'analari haqida ma'lumot olishlari mumkin bo'lgan *turizm maskanlari* va axborot punktlarini tashkil qilish potensial sayyohlarga tarixiy, madaniy va antropologik ma'lumotlarni taqdim etgan holda mahalliy madaniyatni yaxshiroq tushunish imkonini yaratadi

Mahalliy gidlar va ekspertlar turistlarning madaniy meros va an’analar haqida xabardorligini oshirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Ularning bilim va tajribasi mintaqa madaniyatining o‘ziga xos qirralarini ochib berishga, mahalliy an’analarni chuqur anglash va qadrlashga yordam beradi.

Sayyohlik saytlari va mahalliy aholi ko'pincha interfaol tadbirlar va madaniy dasturlar, jumladan hunarmandchilik ustaxonalari, pazandachilik namoyishlari, xalq tomoshalari va an'anaviy bayramlarni tashkil qilishi, sayyohlarga nafaqat madaniy an’analarni kuzatish, balki ularda faol ishtirok etish imkoniyatini ochadi.

Turizm tashkilotlari va mahalliy hokimiyat organlari madaniy merosga oid axborot materiallari va resurslarini, masalan, broshyuralar, audio qo'llanmalar, videolar va veb-saytlarni ishlab chiqishi mumkin. Ushbu materiallar mintaqaning madaniy jihatlarini mustaqil o'rganish uchun qo'shimcha ma'lumot va manbalarni taqdim etadi.

Umuman olganda, turizm orqali xabardorlikni oshirish nafaqat mahalliy jamoaning oʻz madaniy merosi va an'analarini yaxshiroq tushunish va qadrlashga yordam beradi, balki turistlarning ushbu jihatlarni saqlashga qiziqishi va qo'llab-quvvatlashini rag'batlantirishi mumkin.

Turizm madaniy meros va tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylashda ham muhim oʻrin tutadi, turli din va millat vakillari oʻrtasida oʻzaro manfaatdorlikni shakllantirish, millatlararo va xalqaro munosabatlarni uygʻunlashtirishga xizmat qiladi. U xulq-atvor namunalarini qabul qilish va madaniy stereotiplarni o'zgartirish imkonini beruvchi ochiq madaniy almashinuv shakli sifatida ishlaydi. Bu XX asr oxirida G'arbiy Evropaning aksariyat davlatlarining postindustrial rivojlanish darajasiga o'tishi bilan bog'liq bo'lib, bu texnologik, tarkibiy va qiymat o'zgarishlariga olib keldi.

Xalqaro turizm bozori koʻplab mamlakatlar iqtisodiyoti uchun asosiy omil boʻlib, sayyohlik xizmatlariga talab tobora ortib bormoqda. Turizm jahon iqtisodiyotining eng daromadli va dinamik tarmoqlaridan biri bo'lib, bu qisman turizm biznesini tashkil etishning nisbatan past xarajatlari va yuqori daromad darajasi bilan bog'liq. U iqtisodiyotning transport, aloqa, savdo, qurilish kabi muhim tarmoqlariga taʼsir koʻrsatadi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning katalizatori hisoblanadi.

Mahalliy aholining madaniy merosi va urf-odatlarini asrab-avaylashda turizmning moliyaviy resurslarini qoʻllab-quvvatlash muhim oʻrin tutishi mumkin.

Turizmdan olingan daromadlar restavratsiya loyihalarini, jumladan, tarixiy obidalar, meʼmoriy yodgorliklar, muzeylar va boshqa madaniy meros obʼyektlarini rekonstruksiya qilish va taʼmirlashni moliyalashtirishga yoʻnaltirilishi mumkin. Bu

ushbu ob'ektlarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish imkonini beradi va ularning sayyohlar va mahalliy jamoalar uchun ochiqligini saqlab qoladi.

Turizmdan olingan moliyaviy yordam mahalliy jamoalarning an'analarini targ'ib qilish va saqlashga qaratilgan madaniy dasturlar, ko'rgazmalar, festivallar va boshqa tadbirlarni tashkil etish uchun ishlatilishi mumkin. Bu mintaqa madaniyatining o‘ziga xos tomonlarini yoritib, madaniy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Turizmdan tushgan daromadning bir qismi turistlar oqimini jalb qilish va qulaylashtirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu madaniy meros ob'ektlarini tashrif buyuruvchilar uchun yanada qulay va jozibador qiladigan yo'llar, bog'lar, sayyohlik markazlari, axborot punktlari va boshqa ob'ektlarni qurishni o'z ichiga oladi.

Turizm mahalliy korxonalar, jumladan, restoranlar, sovg'alari do'konlari, hunarmandchilik do'konlari va turizm xizmatlarini rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bu ish o‘rinlari yaratish va mahalliy aholi daromadlarini oshirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida madaniy-ma’rifiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

as-salamu alaykunna (اَلسَّلَامُ عَلَيْكُنَّ – tinchlik sizga) – uch yoki undan ortiq ayollarga murojaat qilinganda;

as-salamu alaykumu (اَلسَّلَامُ عَلَيْكُمُ – tinchlik sizga) – kamida bitta erkak bo‘lgan uch yoki undan ortiq kishidan iborat guruh yoki eng yuqori davlat lavozimidagi shaxslarga murojaat qilinganda [3].

“Assalomu aleykum” iborasi dunyoning 40 dan ortiq mamlakatida rasmiy salomlashish jumlasi hisoblanadi. Undan 500 dan ortiq millat va elatlar foydalanadi.

Salomlashishning lisoniy manzarasi. Musulmon xalqlari singari o‘zbeklarda ham insonlar bir-biri bilan ko‘rishganda: “assalomu alaykum” yoki “salom alaykum” iborasini qo‘llaydi.

XV asrda yashagan alloma Husay Voiz Koshifiy o‘zining “Futuvvatnomai sultoniy” asarida salomlashishning lisoniy manzarasiga doir fikrlar bildirib, jamoaga nisbatan “As salomu alaykum” deb, bir insonga qarata esa “As salomu alayka” yoki “salomu alayk” deyish zarurligini ta’kidlaydi [4, 91 b.].

Boshqa manbalarni o‘rganish va dala tadqiqotlari kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbeklar orasida salomlashishning jamoaga nisbatan qo‘llanadigan “As salomu alaykum” va “salom alaykum” shakli keng tarqalgan bo‘lib, birlikda qo‘llaniladigan shakli deyarli uchramaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan o‘zbeklar kundalik hayotda bir-birlari bilan ko‘rishganda: “salom”, “As salomu alaykum” deb murojaat qilganligi manbalarda qayd etilgan [5, 25-31 b.]. Ya’ni, salom berishning birlik shakli “As salomu alayka” yoki “salomu alayk” shaklida aholi orasida qo‘llanilmagan. Bizningcha, o‘zbeklar muloqotida “siz” deb murojaat qilishning yuqoriligi aholi orasida salomlashishning jamoaga nisbatan qo‘lanadigan shaklini keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Diniy tavsifga ko‘ra, salom beruvchi “Assalomu alaykum” desa, “Va aleykumus-salomu va rahmatulloh” deb alik olinadi. Agar u “Assalomu alaykum va rahmatulloh” deb salom bersa, “Valeykumus-salomu va rahmatullohi va barakotuh” deb alik olinadi. Salom beruvchi “va barakatuh” qo‘shimchasini ham qo‘shsa, alik oluvchi ham faqat o‘sha qo‘shimchani qo‘shadi [2, 91 b.].

Etnolingvistik tavsifiga ko‘ra, salom beruvchi va qabul qiluvchilar o‘rtasida turli vaziyatlarda, yoshi, jinsi, xo‘jalik hamda kasbiy faoliyati, ijtimoiy va madaniy voqeilikdan kelib chiqib, salom bergandan so‘ng an’anaviy so‘z hamda iboralardan keng foydalaniladi. Jumladan, salom beruvchi inson: “Yaxshi dam oldingizmi”, “Sog‘liqlaringiz yaxshimi?, “Tuzukmisiz?”, “Omonmisiz”, “Xirmonga baraka bersin”, “Xush kelibsiz”, “Bayram muborak bo‘lsin”, “Juma muborak bo‘lsin”,

“Hayit muborak bo‘lsin”, “Sabr tilayman” kabi jumlalarni aytsa, alik oluvchi tomonidan ham aynan shunday iboralar qo‘llanishi kuzatiladi.

O‘zbeklarning salomlashish odatlarining lisoniy tavsifiga ko‘ra, “qalay” (“qanday”) va “yaxshi” so‘zlarining ko‘p qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Birinchi salom bergan inson suhbatdoshidan hol-ahvol so‘rashdan avval “qalay” so‘zini aytib, keyin uning sog‘ligi, ota-onasi va qarindoshlarining omonligi haqida so‘raydi. Bunga javoban, “yaxshi”, “rahmat” so‘zlari dastlab aytilib, o‘zi va yaqin qarindoshlari haqida an’ana bo‘yicha so‘raydi. Salomlashishdagi ushbu lisoniy tavsif qo‘shni qozoq va qoraqalpoq xalqlarida ham xuddi shu mazmunda qo‘llaniladi [6].

O‘zbeklar an’anaviy salomlashishining lisoniy tavsifida oila a’zolari va yaqinlarini sog‘ligini so‘rash ham yetakchilik qiladi. Ularga nisbatan “esonmi” (esanmi), “omonmi” iboralari ham ko‘proq qo‘llaniladi. Bu qadimgi turkiylarga xos murojaat shakli bo‘lib, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “esan” atamasi “eson, sog‘” ma’nolarini anglatib, “esanmisan” iborasi “sog‘misan”, “salomatmisan” ma’nolarida qo‘llanilgan [1, 106 b.].

Umuman olganda, muloqotda salomlashishning lisoniy tavsifida salomdan so‘ng o‘zaro bir-birlari, so‘ngra oila a’zolari va yaqinlarining sog‘lig‘i, kasb-kori hamda xo‘jalik faoliyatlarini so‘rash omili yetakchilik qiladi. O‘tkazilgan etnosotsiologik so‘rovnomada [7] “Siz bilan hol-ahvol so‘rashayotgan insonlarning qanday fikrlar bildirishlarini yoqtirasiz”, deb berilgan savolga respondentlarning 62 foizi “sog‘ligim haqida so‘rasa”, 32 foizi “Oila a’zolarim haqida so‘rasa” deb javob bergan. Yoki “Siz bilan hol-ahvol so‘rashayotgan insonlarning qanday fikrlar bildirishlarini yoqtirmaysiz” degan savolga 20–30 yoshdagi respondentlarning 76 foizi “nima ishlar bilan bandligimni so‘rasa”, 30–40 yoshdagi respondentlarning 79 foizi esa “daromadim bilan qiziqsa”, “Turli hazillarni qilishi” deb javob berdi [8].

So‘rovnoma natijalalari shuni ko‘rsatadiki, salomlashish vaqtida o‘zaro bir-biri, oila a’zolari va qarindoshlarining sog‘ligini bilish, tinch-totuv

yashayotganliklarini aniqlashga qaratilgan so‘zlardan kengroq foydalanilish an’anaviy turmushda ko‘proq saqlanib qolgan.

Dala tadqiqotlarida qishloq aholisi o‘rtasida salom berib, hol-ahvol so‘rashmasdan o‘tib ketishlik hurmatsizlik belgisi sifatida qaralgan. Xozirgi kunda ko‘pchilikning transport vositalarida harakat qilishi bunday ko‘rinishdagi munosabatlarning ko‘payishiga olib kelgan [9].

Salomlashishda amal qilinadigan xatti-harakatlar. Bu jihatdan dunyo xalqlarida o‘ziga xos odat va an’analar shakllangan. Masalan, yaponlarda salomlashish jarayonida yosh, jins va ijtimoiy mavqeining ahamiyati katta bo‘lib, buni salomlashish vaqtida qilinadigan ta’zimlari bilan ko‘rsatadilar. Ta’zimning tez yoki uzoq ushlab turilishiga ko‘ra qisqa yoki chuqur kabi guruhlarga bo‘lish mumkin. Uzoq va chuqur ta’zim qilish odati suhbatdoshga nisbatan katta hurmat deb qaraladi. Qadimgi turkiylarda keng tarqalgan maqollardan biri “Esonda eshoq juq”, ya’ni “sog‘likda nolish yo‘q” degan ma’noni anglatib, unga ko‘ra, o‘zaro munosabatlar jarayonida shoshilmaslik va hovliqmaslikka ishora qilingan [1, 106 b.].

O‘zbeklarning salomlashish vaqtida kuzatiladigan xatti-harakatlarida hududiy va yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan farqlarni kuzatish mumkin. Tarixiy manbalarda suhbatdoshga nisbatan salomlashish vaqtida kamtarinlik va samimiyligini ko‘rsatish xulqi yetakchilik qilishi alohida ta’kidlanadi [10]. Ba’zi tarixiy manbalarda qanday vaziyatlarda salom berishlik va bermaslik, salomlashish vaqtida xatti-harakatlar hamda odoblar xususida ma’lumotlar keltiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbeklar muloqot madaniyatidagi salomlashish etiketlarida etnolokal xususiyatlari mavjud bo‘lib, undagi odatlarni amalga oshirishda vaziyat, yosh darajasi hamda ijtimoiy omillarning alohida e’tiborga olinishi bilan farqlanishini kuzatish mumkin. Salomlashish va xayrlashish odobiga bepisand munosabatda bo‘lish yoki munosabat bildirmaslik o‘zbeklar antropologiyasida ijtimoiy zid voqea sanalib, bu tarbiyasizlik hamda an’analarni tahqirlash kabi salbiy illat sifatida qaraladi.

O‘zbeklar antropologiyasida salomlashish odatida salom berish yoshlarning kattalarga nisbatan aytilgan va sharq mintalitetiga ko‘ra kichikning kattaga bo‘lgan hurmati bilan izohlandi. XX asr davomida o‘zbeklar ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, muloqot madaniyatida asrlar davomida saqlanib kelgan etiket qoidalari: oila a’zolari o‘rtasidagi, yoshga oid stereotib, genderlik bilan bog‘liq munosabatlarni o‘zgartirgan. Globalizatsiya jarayonlari bu jihatlarni yanada tezlashtirib, aholi orasida salbiy qarashlarni keltirib chiqargan. Muloqotdagi salomlashish etiketlarida “yangicha modalar”ni keltirib chiqargan. Yot odatlarga nisbatan yosh avlod harakatlarida chekinish, bajarmaslik tushunchalari o‘rnini odatiy hol degan qarash kengayganligini ko‘rsatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Maxmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Fan, 1960. T.1. – B. 136.
2. Qur’oni Karim. “Niso” surasi. 86-oyat / Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasi va tafsiri. – Toshkent, 2009. – B. 91.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/as-salyamu_aleykum
4. Husay Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy.... – B. 66.
5. Nalivkin V., Nalivkina M. Ocherk bita jenshini..... – S. 25–31.
6. Meyrmanova G. A. Kultura obsheniya u kazaxov: transformatsiya traditsionnogo etiketa. Diss. k.i.n. – M., 2008.; Utebayev M. B. Traditsionnoye i novoye v etikete karakalpakov (etnograficheskiy analiz). Avtoreferat dissertatsii doktora filosofii (PhD) po istoricheskim naukam. – Nukus, 2020.
7. Salomlashishga oid so‘rovnomada ishtirokchilar yosh darajasidan kelib chiqib, ikki guruxga ajratildi: 20–30 va 30–60 yoshgacha bo‘lingan.
8. Etnosotsiologik so‘rovnoma natijalari. Toshkent shahri. 2013 yil.
9. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Yaypan shahri va Islom qishlog‘i. 2018 yil.
10. G‘iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent, 2015. – B. 99.

Qo’shshiyeva Dilshoda A’zamovna
Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Gid-hamrohligi va tarjimonlik faoliyati 2-bosqich talabasi
Dushanova Yulduz Faxriddinovna
Buxoro davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTONDA MADANIY MEROS VA UNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda moddiy va nomoddiy madaniy meros, uni asrab-avaylash zarurati uning barqaror rivojlanishga ta’sirining o‘rni va roli beqiyos ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, arxeologik yodgorliklar, moddiy obyektlar, integratsiyalashuv, umuminsoniy qadriyatlar.

Madaniy meros deganda jamiyat merosining avlodlarga o‘tib kelayotgan moddiy va nomoddiy jihatlari tushuniladi. Bunga tarixiy osori-atiqalar, san’at, me’morchilik va arxeologik yodgorliklar kabi moddiy obyektlar hamda an’analar, marosimlar, til va bilimlar kabi nomoddiy jihatlar kiradi.

Madaniy meros jamiyatning o‘ziga xosligini shakllantirishda, uning o‘ziga xos tarixi va an’analarini saqlab qolishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U odamlarni o‘tmishi bilan bog‘lab, ularning hozirgi va kelajagiga ta’sir ko‘rsatadigan tegishlilik va davomiylik tuyg‘usini ta’minlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev madaniy merosni asrab-avaylash zarurligi haqida quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Biz xalqimizning madaniy merosini saqlashimiz va kelajak avlodlarga yetkazishimiz kerak. Ayni paytda uning tarkibiga 7000 dan ortiq obyektlar kiradi. Afsuski, so‘nggi paytlarda ba’zi bebaho obyektlarga yetkazilgan zarar bu masalaga beparvo munosabatda ekanligimizni ko‘rsatib qo‘ydi”[1]. Bu boradagi ishlar nafaqat Madaniyat vazirligi, balki mahalliy hokimliklar, mahallalar, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilikning doimiy e’tiborini talab qiladi, – dedi prezident.

Umuman olganda, madaniy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish masalasiga kelsak, madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini yaxshilash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun byudjetdan 420 milliard so‘m yo‘naltiriladi. Hududlarda 22 teatr va boshqa madaniyat obyektlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi.

Meros – ajdodlar tomonidan yaratilib, kelajak avlodga yetib kelgan ijtimoiy-madaniy, moddiy hodisalar, madaniy boyliklar, urf-odat, qadriyat, an’ana va axloq normalaridir. Agar meros inson taraqqiyoti uchun ijobiy va dolzarb omil bo‘lsagina, u butun insoniyat qadriyati sifatida e’tirof etiladi. Ijtimoiy taraqqiyot doim rivojlanib, takomillashib borayotgan uzluksiz jarayon ekan, uning negizida muayyan qadriyatlar ham yangilanib boraveradi.

Integratsiyalashuv jarayonida universal asos sifatidagi yangi insonparvarlikning tushunchasi negizida yer sayyorasida istiqomat qiluvchi barcha insonlarning orzu va manfaatlarini o‘zida aks ettirgan va shu orqali butun jahonda umumiy qadriyatlar sifatida e’tirof etiladigan borliq me’yorlari va prinsiplarini qaror toptirish masalalari yotadi.

Insoniyat tomonidan yaratilgan boy moddiy va nomoddiy qadriyatlar shundan dalolat beradiki, milliy madaniy meros va qadriyatlarning tarixi shunchalik teran va cheksiz bo‘lib, u o‘zida insoniyatning ibtido va intihosini mujassam etadi. Jumladan, qadimgi Rim, Misr, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlarni eslaganda insoniyatning boy, betakror nomoddiy va moddiy madaniy merosining nihoyatda hayotbaxsh ekanligiga, yashovchanligiga hamda keyingi avlodga sezilarli ta’sir o‘tkazganligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki, bu meros tufayli xalqlarning tarixi, ilmiy zakovati, o‘tmish falsafasi avloddan avlodga vorisiylik asosida o‘tmoqda. Ajdodlarimizdan qolgan bu madaniy meros va qadriyatlar buyuk taraqqiyot davrlaridan, o‘tmish sivilizatsiyasidan xabar berib, jamiyatda Uchinchi Renessansni bunyod etish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashuvi jarayonida ilm-fan, innovatsiya, sivilizatsiya va san’at rivojlanib boradi. Zero, millatlar bir-biridan ayro holatda emas, bir-biri bilan uyg‘un holatda rivojlanib boradi. “Madaniyatning ko‘p xilligi – ijtimoiy-tarixiy omil bo‘lib, yagona tarix va dunyo sivilizatsiyasi to‘g‘risida gap ketganda uni e’tiborga olish kerak bo‘ladi”[2].

Madaniy merosni asrab-avaylash xilma-xillikni saqlash va turli madaniyatlar o‘rtasida tushunish va hurmatni rivojlantirish uchun muhimdir. Bu o‘z madaniyati bilan faxrlanish va qadrlash, boshqa madaniyatlarni chuqurroq tushunish va hurmat qilish tuyg‘ularini tarbiyalashga yordam beradi.

Faylasuf A. Sharipov ta’biri bilan aytganda, “Madaniy meros-bu insoniyatning o‘tmish bilan chambarchas bog‘liqligi demakdir”[3]. Shunday ekan, har bir millatning o‘ziga xos madaniy merosi betakror xususiyatlari, milliy falsafasi va hayotiy tajribalari jarayoni asosida shakllanib boradi.

Professor I. Ergashevning fikricha, “umuminsoniy qadriyatlarni e’tirof etish hamda milliy-madaniy qadriyatlarni uning negizi ekanligini tan olish, unga asoslanish falsafasi milliy va umuminsoniy manfaatlarga to‘g‘ri keladi. Uning bir-biriga zid, to‘g‘ri kelmaydigan jihati yo‘q. Dunyoning rivojlanishi, yashab qolishi va istiqbolini ana shu uzviy bog‘liqlikdan qidirish ma’noga va amaliy samaraga ega” [4].

Bugungi kunda O‘zbekistonda mavjud boy moddiy va nomoddiy madaniy meroslar turli millat vakillarini o‘z atrofida birlashtirib, nafaqat O‘zbekiston hududida, balki butun jahon miqyosida o‘tkazib kelinayotgan turli milliy va xalqaro tadbirlarda mazkur madaniyat namunalari va obyektlari o‘zining maftunkorligi, jozibasi, boy tarixiy uslubi bilan butun dunyoni lol qoldirib, jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Jumladan, O‘zbekistonning moddiy va nomoddiy madaniy meroslari YUNESKO ro‘yxatiga kiritilganligi ham yuqoridagi fikrlarimizning asosli ekanligini dalillaydi.

YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekistonning madaniy meroslari:

	Nomoddiy madaniy meroslar	Yil
	Shashmaqom musiqasi	2008
	Boysun tumani madaniyat maydoni	2008
	Katta ashula	2009
	Askiya – aql-idrok san’ati	2014
	Palov madaniyati va an’analari	2016
	Navro‘z	2016
	Marg‘ilon hunarmandchiligini rivojlantirish markazi, atlas va adras tayyorlashning an’anaviy texnologiyalarini saqlash	2017
	Xorazm raqsi, lazgi	2019
	Miniatyura san’ati	2020
0	Baxshi san’ati	2021
1	Xo‘ja Nasriddin latifalari	2022
	Ipakchilik va to‘quv uchun an’anaviy ipak ishlab chiqarish	2022

2		

YUNESKOning moddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekistonning madaniy meroslari:

	Moddiy madaniy meroslar	Yil
	Ichan qal’a	1990
	Buxoro tarixiy markazi	1993
	Shahrisabz tarixiy markazi	2000
	Samarqand – madaniyatlar chorrahasi	2001
	G‘arbiy Tyan-Shan	2016

Madaniy meros milliy va xalqaro miqyosda qonunlar, konvensiyalar va YUNESKO kabi tashkilotlar orqali tan olinadi va himoya qilinadi. Ushbu sa’y-harakatlar madaniy merosni kelajak avlodlar bahramand bo‘lishlari va o‘rganishlari uchun saqlash va targ‘ib qilishga qaratilgan.

Muxtasar qilib aytganda, milliy-madaniy meros va qadriyatlarning integratsiyalashuvi jarayonida xalqlar bir-biriga nafaqat madaniy jihatdan yaqinlashadi, balki ular o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va o‘zaro tushunish darajasi ham ortadi. Bundan ayon bo‘ladiki, har bir millat jahon hamjamiyati madaniyatiga o‘ziga xos munosib hissasini qo‘shgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, har qanday milliy madaniyat o‘zining tarixiy an’ana va ildizlariga asoslanishi, ajdodlarning falsafiy merosidan oziqlanishi hamda umuminsoniy tamaddun yutuqlaridan bahramand bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Prezident madaniy meros ob’ektlarini saqlash dasturini qabul qilishni topshirdi // https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/29/culture/
2. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Falsafa. –Samarqand: SamDU, 2021. -B.276.
3. Шарипов А.З. Маданиятшунослик. –Бухоро: 2016. -Б. 42.
4. Эргашев И. Миллий қадриятлар: ёшлар, замон ва келажак // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент: 2006. -№ 1. –Б. 49.
5. Lazizjon Kholikov. PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF NATIONS AND INTERNATIONAL RELATIONS IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS // Current approaches and new research in modern sciences. 2023/7/10.
6. Lazizjon Kholikov. FEATURES OF INTERNATIONAL RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN // Development of pedagogical technologies in modern sciences. 2023/7/10.

7. Lazizjon Kholikov. THEORETICAL FOUNDATIONS OF NATIONS AND INTERNATIONAL RELATIONS // Science and innovation in the education system. 2023/7/10.

8. Lazizjon Kholikov. PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF NATIONS AND INTERETHNIC RELATIONS THROUGH THE EYES OF WESTERN THINKERS // Solution of social problems in management and economy. 2023/7/10.

9. Xoliqov L. O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI YUKSALTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR RIVOJI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022.

10. Xoliqov L. The reforms and achievements in the field of interethnic harmony in Uzbekistan within the framework of the strategy of actions //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021.

11. Lazizjon Xoliqov. MILLATLARARO TOTUVLIK – ADOLATLI MILLIY SIYOSATAMIZ GAROVI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). 2022/7/8.

6-SHO‘BA. TURIZMGA OID MA’LUMOTLARNI YIG‘ISHDA MANBALARNING O‘RNI

Madyarova Salimaxon Numandjanovna
O‘zMU, Jahon tarixi kafedrasi dotsent v.b., t.f.n.

TURKISTON XMN* QOSHIDAGI ILMIY KOMISSIYALAR TOMONIDAN TURKISTON TARIXI VA ETNOGRAFIYASI MASALALARINI O‘RGANILISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 20-yillari boshida Turkiston Xalq maorifi komissarligi qoshida vujudga kelgan O‘zbek milliy ilmiy komissiyasining tashkil etilishi va faoliyati xususida so‘z yuritiladi. O‘rganilayotgan davr mahalliy matbuoti materiallari va respublika arxiv fondlaridan o‘rin olgan tarixiy hujjatlar tahlili asosida mazkur komissiyaning o‘lkada tarixiy-ilmiy jarayonlardagi o‘rni, faoliyatidagi yutuq va kamchiliklar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Milliy komissiyalar, Turkiston, Xalq maorifi nozirligi, Ilmiy bo‘lim, Davlat Ilmiy kengashi, ekspeditsiya, tarix, etnografiya, o‘lkashunoslik, qo‘mita.*

Turkiston tarixi va o‘lkashunosligi rivojida XX asrning 20-yillarning boshlarida vujudga kelgan o‘lkadagi ilmiy komissiyalar, jamiyat va muassasalar alohida tutdi. 20-yillarning boshlaridan boshlab Turkiston Xalq maorifi komissarligi qoshida milliy (O‘zbek, Qirg‘iz, Turkman, Tojik, Qora qirg‘iz), maxsus (Pedagogik, Teatr, Musiqa-etnografik va Mahalliy aholi turmush tarziini o‘rganish) ilmiy komissiyalar faoliyat olib bordi.

O‘zbek, Qirg‘iz, Turkman, Tojik milliy ilmiy komissiyalari faoliyati ikki yo‘nalish (ona tilidagi o‘quv, ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarni nashrga tayyorlash va ularni tarjima qilish hamda Xalq ijodiyotiga oid materiallarni yig‘ish)da borgan. Ayniqsa, xalq ijodiyoti va mahalliy aholining etnografiyasiga oid materiallarni yig‘ishda Qirg‘iz va O‘zbek milliy ilmiy komissiyalari, Musiqa-etnorafik va Turkiston Xalq Komissarlari Soveti qoshida tashkil etilgan

Mahalliy aholi turmush tarzini o‘rganish komissiyalari tomonidan katta ishlar qilingan.

Ilmiy komissiyalar o‘z faoliyatining dastlabki davridanoq tarix, etnografiya, xalq ijodiyoti va darsliklar yaratish bo‘yicha ko‘zga ko‘rinarli ishlarni amalga oshirgan. masalan, O‘zbek milliy komissiyasi xay’ati “eski tarixiy materiallarni tekshirmak uchun Buxoroga o‘z vakillarini yuborgan. Ular tarixiy asarlar, adabiyot va san’at, xalq og‘zaki ijodi namunalarini yig‘ish bilan shug‘ullangan.

1921 yilda Turkiston XKS qoshida Mahalliy aholi turmush tarzini o‘rganish ilmiy komissiyasi ham vujudga keltirildi. Mazkur komissiyaning birinchi galdagi vazifasi Turkistonning etnografik xaritasini tuzishdan ibort edi. Komissiya o‘z faoliyati davomida o‘lka aholisining tarixi va etnografiyasi bilan bog‘liq ko‘zga ko‘rinarlik ishlarni amalga oshirgan.

1922 yil iyun oyida Turkiston XMN Ilmiy kengashining komissiya faoliyatiga doir ma’lumotnomasida “Turkiston tub aholisini o‘rganishni o‘z oldiga qo‘ygan komissiyaning o‘rganish predmeti Turkiston aholisining huquqi, xo‘jalik, ahloqi, dini, turar joyi, asbob-anjomlari, tili, jismoniy turi, geneologiyasi, etnik tarkibi va etnografik xususiyat kasb etuvchi masasalar doirasidagi ishlarni o‘rganishdan iborat ekanligi, alohida etnik guruhlarning turmush tarziga xos bo‘lgan o‘xshashlik va farqlarni aniqlab, xalqlaring hayotidagi o‘ziga xos suratini ochib berish, davlat choralarini to‘g‘ri qurishga oid qimmatli material haqida ma’lumot berishi” ta’kidlab o‘tiladi. Ma’lumotnomada shuningdek, alohida etnik guruhlarning turmush tarzini o‘rganish uchun dastavval etnik tarkibni aniqlash lozimligi, shu bois, o‘lkaning etnografik xaritasini tuzishni komissiyaning birinchi navbatdagi vazifalaridan biri ekani ko‘rsatib o‘tiladi.

1921 yilda komissiya tomonidan Sirdaryo va Samarqand, Zakaspiy oblastlariga 13 kishidan iborat ekspeditsiya tashkillashtirilgan. Ushbu ekspeditsiyalar orqali ko‘p sonli etnografik materiallar yig‘ilgan. Yig‘ilgan materiallari asosida Samarqand oblasti etnografik haritasi tuzilib, qolgan ikki oblast bo‘yicha xarita tuzish ishlari olib borilgan. Bundan tashqari yig‘ilgan

materiallar Turkiston xalqlarini o‘rganish bo‘yicha umumiy xususiyatga ega bo‘lgan xaritani tuzishga xizmat qilishi, ekspeditsiyalar tomonidan qirg‘izlar, o‘zbeklar, arablar, tojiklarning hayoti va ma’naviy va moddiy turmush tarziga oid bir qator yangi va qiziqarli kuzatuvlar o‘tkazishga muvaffaq bo‘linham ko‘rsatib o‘tiladi. Ekspeditsiyalar tomonidan qirg‘izlar, o‘zbeklar, arablar, tojiklarning hayoti va ma’naviy va moddiy turmush tarziga oid bir qator yangi va qiziqarli kuzatuvlar o‘tkazishga muvaffaq bo‘lgan [1, 50].

Etnografik materiallar yig‘ishda ayniqsa, Qirg‘iz milliy komissiyasining xizmatlari ham juda katta bo‘ldi. Bu davrga tegishli arxiv hujjatlaridagi ma’lumotlarda ushbu komissiya tomonidan olib borilgan ishlarga ko‘pincha ijobiy baho berilganini ko‘rish mumkin.

Shu o‘rinda XX asrning 20-yillariga kelib Birinchi Jahon urushi, qolaversa, sovetlarning “xarbiy kommunizm” va Yangi iqtisodiy siyosati (NEP)dan so‘ng Turkiston aholisi turmush darajasiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan edi. Bu o‘z navbatida Turkiston ilmiy hayotiga ham ta’sir ko‘rsatganligini ham ta’kidlab o‘tish lozim.

Moddiy qiyinchiliklar va kadrlar yetishmovchiligi milliy va ilmiy komissiyalar faoliyatining dastlabki davrlaridanoq yuz ko‘rsata boshlagan. O‘zbek milliy komissiyasi raisi sifatida faoliyat olib borgan Mashriq Yunusovning yozishicha, xatto Morif nozirligidan so‘ralgan ko‘maklarning ko‘pi o‘z vaqtida berilmagan [2, 50].

1921 yilning dekabr oyida esa Shtat uchligi tomonidan Xalq maorifi nozirligi Ilmiy kengashi xodimlari sonini 16 tagacha (72 %) qisqartirishga qaror qilingan. Ilmiy kengashning qisqartirilgan xodimlari qatorida Qirg‘iz komissiyasi va O‘zbek komissiyasidan 4 tadan xodim vazifasidan ozod qilingan[3, 9].

Xodimlarni qisqartirilishi komissiyalar ishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. keyingi yillarda ham davom etgan. Masalan, 1924 yilning boshida Davlat ilmiy kengashining “Maxsus shtat komissiyasi” yig‘ilishlaridan birida qabul qilingan qaroriga muvofiq, har bir milliy komissiyada bittadan vakil qolishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu orada Turkiston xalq maorifi komissarligi qoshidagi Ilmiy bo‘lim Ilmiy kengashga aylantirilgan. 1922 yilning mart oyida Turkiston Xalq maorifi komissarligi qoshidagi Ilmiy kengash xay’ati “san’at, teatr masalalariga oid etnografik materiallarni borgan sari yo‘qolib borayotganligi yoki ularni chegara ortidagi agentlar tomonidan sotib olinayotgani”ni e’tiborga olib, bu kabi materiallarni yig‘ib poytaxtga olib kelish bo‘g‘risida qaror qabul qilgan. Shu yilning o‘zida komissiyaning yana bir a’zosi G‘ozi Olim Yunusov Samarqand uyezdlarini ilmiy taftish etish ishiga yuborilgan. G‘.Yunusov bu safari davomida Jizzax, Kattaqo‘rg‘on ham Samarqand uyezdlarida bo‘lib, “bu kungacha shahar o‘zbeklari kabi aynimag‘on, toza o‘zbeklarni tekshirib, til, lahja, urf-odat qiyofatlariga oid bir qancha materiallar keltirgan[4, 3].

M. Yunusov o‘zining “Qizil bayroq” gazetasining 1922 yil 2 aprel sonida e’lon qilgan maqolasida komissiyaning “iqtisodiy qiyinchiliklar chog‘ida ham o‘z vazifasini yaxshi ado etganligi” [5, 2 aprel]ni yozadi.

Ilmiy kengash negizida tashkil etilgan Turkiston Davlat Ilmiy Kengashi faoliyati esa uch asosiy yo‘nalishda borgan: Ilmiy va pedagogik adabiyotlar yaratish, lingvistik, orfografiya, terminologiya, etnografiya xarakteridagi ishlar; Maorif komissarligi ilmiy muassasalari bilan aloqa o‘rnatish; Respublikadagi ilmiy jamiyatlarni muvofiqlashtirish, markaz va federativ resublikalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish.

“Turkiston” gazetasining 1923 yilgi sonlaridan birida nashr qilingan yana bir maqolada “xay’atda (O‘zbek ilmiy komissiyasi hay’ati nazarda tutilmoqda – S.M)) ishlayturg‘on ishlarning har biri istar ilmiy yoqdan bo‘lsun, istar moddiy yoqdan bo‘lsun o‘ziga buyuk kuch istaydur. Bu kuch esa ilmiy xay’atdanda va uning maorif komissarligidanda topilmaydur.

Mana shu yuqorida ko‘rsatilgan ishlarning har biri juda muhim ishlar bo‘lg‘onlig‘i bilan birga, buyuk ilmiy bir kuch va buyuk moddiy bir ko‘makka mutojdir. Bunga esa Maorif komissarligining oyig‘a ilmiy ishqa deb beraturg‘on 250 yohud 500 so‘m aqchasi yetmaydur” [6, 9 mart]_, deb aytib o‘tiladi.

Ilmiy xodimlarga 40-50% (bu ham ma’lum kechikishlar bilan) haq to‘lanayotgani va bu holatni yaxshilash kerakligini [7, 2] Turkiston Davlat ilmiy kengashining o‘zi ham e’tirof etib o‘tadi 1923 yilning 29 aprel kungi yig‘ilishida esa ilmiy komisssiyalar shtatini 23 ta, shu jumladan O‘zbek komissiyasi xodimlari sonini 4 taga ko‘paytirish lozimligi ta’kidlanadi[8, 14].

Ana shunday qiyinchiliklarga qaramay, 1923 yilda ham o‘lkadagi etnografiyaga oid tadqiqot ishlari birmuncha jonlangan. Masalan, G‘ozi Olim Yunusovning yozgi ekspeditsiyasi natijasida anchagina materiallar yig‘ilib, ular klassifikatsiya qilingan. G‘. Yunus tomonidan Samarqand oblastidan 2000 ta maqol, 50 ta qo‘shiq matni, 80 ta aholi turmush tarziga doir suratlar yig‘ilgan. Ushbu materiallar Umumittifoq ko‘rgazmasiga qo‘yilishi ham ko‘zda tutilgan. Komissiyaning yana bir a’zosi G‘ulom Zafariy ham Farg‘onaning bir qancha qishloqlariga borib, xalq ijodiyotiga doir ko‘plab materiallar to‘plab qaytgan[9, 16].

Turkiston aholisi turmush tarzi va etnografiyasi bog‘liq masalalarni o‘rganilishida 1923 yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan Butunittifoq qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ko‘rgazma ishi 2 yo‘nalishda belgilangan: 1. Turkiston mahalliy aholisining turmush tarzi va folklori illyustratsiyasi; 2. Musiqa-etnografik ekspeditsiya tashkil qilish.

Musiqa-etnografik ishlarni ayniqsa juda jadal suratda olib borilgan. Qirg‘iz, O‘zbek Turkman ilmiy komissiyasi tomonidan bu yo‘nalishda anchagina bajarilgan. Ahamiyatli jihati, Xalq maorifi nozirligining boshqa milliy komissiyalari qatori 1923 yili Moskvada o‘tkazilgan Qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasida o‘z eksponatlari bilan qatnashgan O‘zbek komissiyasi eksponatlari birinchi o‘rinni olishga muvaffaq bo‘lgan[10, 29 dekabr].

Bu davrda ilmiy ekspeditsiyalar ham aksariyat hollarda ilmiy komissiyalarning o‘z hisobidan amalga oshirilgan. Turkiston Davlat Ilmiy Kengashining 1924-29 yillarga mo‘ljallangan 5 yillik rejasiga ham “ilmiy komissiyalar kuchi bilan” ekspeditsiyalar tashkil etish vazifasi belgilangan[11, 51]. Bu esa vaqtni, mablag‘ni yo‘qotishga, ba’zi xollarda paralellikni keltirib chiqargan

deyilib, bu yilidan boshlab, ekspeditsiyalarni “jiddiy tashkil qilish va ularni muvofiqlashtirish” ishiga kirishgan. Ya’ni resurslarga bog‘liq bo‘lmagan bir nechta ekspeditsiyalar Davlat Ilmiy Kengashi yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilgan. mazkur ekspeditsiyalar davomida Samarqand, Xorazm, shimoliy Afg‘oniston hadlari hamda Farg‘ona, Yettisuv oblastlari, Tashkent uyezdlari, Buxoro hududi, Chimkent va Chimkent volostining Qoraqalpoq uyezdi, Chuy rayonini etnik-geografik jihatdan o‘rganish shular jumlasidan bo‘lib, ushbu ekspeditsiyalar davomida mazkur hududlarda yashovchi turli urug‘larni aniqlash (etnografik karta tuzish uchun), xalq ijodiyotini o‘rganish, bu hududda istiqomat qilayotgan ijtimoiy, ilmiy va jamoalar hayoti bilan bog‘liq ishlarda faliyat olib borayotgan kishilar to‘g‘risida ma’lumot to‘plash, ularning xalq ommasiga ta’siri va munosabati, tarixiy yodgorliklar va urf-odat va boshqalar haqida ma’lumotlar yig‘ish ko‘zda tutildi. Bundan tashqari turkmanlar, Geografik jamiyat bo‘limi va boshqa ilmiy jamiyatlarning ekspeditsiyalari ham belgilangan. Davlat Ilmiy kengashining 1924-1925 yillarda milliy komissiyalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyalar davomida ham qimmatli ma’lumotlar yig‘ilgan” [12, 5 dekabr].

1924 yilga kelib respublikadagi ilmiy tadqiqotlar, ilmiy ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha chora-tabdirlarga kirishilgan. Ko‘p o‘tmay, O‘rta Osiyoda yashayotgan millatlar etnografiyasi, musiqasi va lingvistikasi bilan bog‘liq materiallarni tizimli yig‘ish ularni ilmiy o‘rganish, o‘zbek tilidagi badiiy adabiyot yaratish masalalarini faollashtirish bilan shug‘ullanganuvchi alohida qo‘mita vujudga keltirildi.

Shunday qilib, XX asrning 20- yillari tarix fani rivojining muhim bosqichlardan biri bo‘ldi. Turkistonda Xalq maorifi nozirligi tasarrufida o‘z faoliyatini boshlagan milliy ilmiy komissiyalar XX asrning 20 yillarida Turkiston tarixi, arxeologiyasi, etnografiyasi va madaniy merosini sovetcha ilmiy o‘rganish yo‘lidagi dastlabki qadamlarni boshlab berdi, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish ishiga yerli o‘lkashunoslar bilan bir qatorda “eski tarix maktabi” vakillari hamda sovet hukumati tashkilotlarida faoliyat olib borgan ilmiy kuchlar jalb qilindi.

Mualliflar yondoshuvlaridagi birmuncha erkinlikning mavjudligi esa bu davrning yana bir xususiyatli jihatlaridan biri bo‘ldi.

Mavjud murakkab shart-sharoitlarga qaramay, o‘lkadagi ziyolilar sa’i-harakati bilan Turkiston tarixi, arxeologiyasi va etnorafiyasiga doir sezilarli ilmiy natijalarga erishildi va bu natijalar kelgusi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

* Xalq maorifi nozirligi

1. O‘zR MDA. R-34-fond. 1-ro‘yxt. 1187-yig‘majild. 50-varaq.
2. O‘sha joyda, 50-v
3. O‘zR MA. R.34-fond. 1-ro‘yxat. 1202-yig‘majild. 9-varaq.
4. O‘zR MDA. R-34-fond. 1-ro‘yxat. 1187-yig‘ma jild. 3-varaq.
5. O‘lka o‘zbek madaniyat va maorif xodimlari qurultoyi 4 - o‘ltirish (Arab alifbosida) // Qizil bayroq. 1922 2 aprel.
6. Turkiston o‘lkasida yashag‘uchi o‘zbek o‘qimishlilarining diqqatiga (Arab alifbosida) // Turkiston. 1923, 9 mart.
7. O‘zR MDA. R-34-fond. 1-ro‘yxat. 1594-yig‘ma jild. 2-varaq.
8. O‘zR MA. R-34. 1-ro‘yxat. 2169-yig‘ma jild. 14-varaq.
9. O‘zR MDA. R-34-fond. 1-ro‘yxat. 1182-yig‘ma jild. 16-varaq.
10. O‘zgarishdan ilgani o‘lkani tanish (Arab alifbosida) // Qizil O‘zbekiston. 1924, 29 dekabr.
11. O‘z MDA. R-34-fond. 1-ro‘yxat. 2630-yig‘ma jild. 51-varaq.
12. Said Ahmad Nazir o‘g‘li. O‘zbekistonda ilmiy tadqiq ishlari va uning inkishofi (Eski o‘zbek alifbosida yozilgan) // Qizil O‘zbekiston. 1924yil, 5 dekabr

Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich
O‘zMU, Arxeologiya kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD).

2023-YILDA ChORVOQ SUV OMBORI SOHILIDAGI ARXEOLOGIK QIDIRUV IShLARI XUSUSIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2023-yil Sijjakda o‘tkazilgan tekshiruv natijasida aniqlangan arxeologik topilmalar tahlilga torlilgan bo‘lib, topilmalarning so‘ngi bronza davri dasht chorvador aholisi qabilalarining andronova madaniyatiga, Toshkent vohasidagi ilk dehqon jamoalarining burgulik madaniyatiga, Sirdaryo o‘rta oqimi o‘ng sohilida o‘ziga xos o‘troq shaharsozlik an’anasini yaratgan aholi vakillarining qovunchi madaniyatiga va O‘rta Osiyo 1-renesansi (IX–XII asrlar) davriga tegishliligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Chorvoq, Sijjak, andronova madaniyati, burgulik madaniyati, qovunchi madaniyati, qabr, kulolchilik buyumlari, sopol, ko‘za, dresva.

Ma’lumki, so‘ngi yillarda O‘zbekistonning turli viloyat va tumanlaridagi turistik ahamiyatga molik joylariga mahalliy va xorijiy sayyohlarning tashrifi jadallashmoqda. Ayniqsa, kunning ochiq, quyoshli mavsumlaridagi dam olish kunlari shaharda yashovchi aholining tabiiy toza havoli va manzarali tog‘larda, adirliklar qo‘ynida, suv bo‘ylarida hordiq chiqaruvchiliri soni keskin ortib bormoqda. Ana shunday sayohatchilar dam olish paytida turli tasodiflarining guvohi ham bo‘lishmoqda. Jumladan, 2023-yilning mart oyida Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanidagi Chorvoq suv ombori qirg‘oqlariga dam olish uchun tashrif buyurgan O‘zbekistinlik sayyohlardan bir guruhi mazkur suv omborning qirg‘og‘ida odam skelet suyaklari sochilib qolganligiga duch kelishgan. Bu xabar aks etgan videoning tarqalishi [1] ushbu hududni aniqlash va odam suyaklar topilgan hududda arxeologik yodgorliklar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida surishtiruv-qidiruv ishlari olib borildi.

Chorvoq suv ombori atroflarida olib borilgan surishtiruv-qidiruv ishlari natijasida odam suyaklari tasvirga olingan joy ushbu suv omborning shimoli-sharqdan kelib qo‘shiladigan Piskomsoyning o‘ng sohilida, hozirda suv ombor hududiga kiradigan qismida, suv omborning “Sijjak” MFYga tutash qirg‘oqlarida, dengiz sathidan 880 m balandlikda joylashganligi aniqlandi. Ushbu hudud tekshirilganda maydoni 0.5 ga keladigan joy qabriston o‘rni bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi. Bu qabristonga ko‘milgan marhumlarning qabrlari Chorvoq suv ombori suvi sathining pasayishi natidasida ochilib qolgan bo‘lib, suv qabrlardagi marhumlarning ayrim suyaklarini oqizib ketgan. Marhumlar musulman an’anaga mos ravishda chalqancha yotqizilib, boshi shimolga, oyog‘i janubga yo‘naltiqilgan, yuzlari esa o‘ng ya’ni, kun botar – qib’la tomonga burib qo‘yilgan holatda dafn etilgan. Qabrlardagi marhumlarning suyaklari suv, nam, quyosh tasirida yaxshi saqlanmagan. Jumladan, ochilib qolgan va nisbatan qoniqarli saqlangan qabrlardan birining eni – 70 sm, bo‘yi 185 sm bo‘lib, bu qabrga dafn etilgan marhum suyaklaridan o‘mirtqa, umrov, kurak, yelka, bilak, tirsak suyaklari, chap qo‘lining ayrim barmoqlari, bosh, pastki jag‘ suyagi va undagi uch dona tishi saqlanib qolgan. Bu skeletning qaysi jinsdagi odamga tegishliligini aniqlashda yordam

beradigan tos suyagi chirigan, o‘mirtqa suyagi esa tuproq bilan qorishib ketgan. Qolgan suyaklari esa suvga oqib ketgan. Shu sababli uning jinsini aniqlash qiyin.

Chorvoq suvi sathining pasaygan sohilida aniqlangan qabristondaga qidiruv ishlarida marhumlarning qabrlari va suyaklaridan tashqari, yer ustida sochilib yotgan sopol idishlarning parchalariga, metall eritishdan hosil bo‘lgan toshqol (shlak)larga ham duch kelindi. Ammo maydonda madaniy qatlam izlari kuzatilmadi. U yerdan topilgan sopol buyum namunalarining qo‘lda va kulolchilik charxida yasalgan xollari topildi. Qo‘lda yasalgan sopol idishlarini o‘zining shakl-shamoili va yasalish uslubiga ko‘ra quyidagicha uch turga bo‘lish mumkin:

1) birinchi guruhdagi sopol idish namunalarining turi kam bo‘lib, ular asosan tuvak shaklidadir. Bu turdagi sopol idish parchalari qoramtir-qizg‘ish rangda. Asosan ularni sirti yelka va bo‘yin qismiga aylanasi bo‘ylab nuqta-nuqta shaklidagi bosma bezaklar berilgan (1-rasm). Botiq nuqtachalardan iborat bo‘lgan bunday bezaklardan uchburchak, to‘g‘ri chiziq, ayri chiziq kabi shakllar hosil qilingan. Idishlar mo‘rt va sifatsiz pishirilgan. Ularni yasash paytida loyiga oq rangdagi chig‘anoqning maydalangan bo‘lakchalari qo‘shilgan. Bu turdagi idishlar tuzilishi, bezalishi va loyi tarkibiga ko‘ra bronza davri dasht chorvadorlarining andronova madaniyati sopol idishlariga o‘xshash [2, 10; 3, 70-78]. Bu madaniyatga xos bo‘lgan ashyoviy dalillar ilgari ham Toshkent vohasining Chirchiq daryosi va uning o‘zanlari bo‘ylaridan, jumladan Chorvoq suv omboridan boshlanadigan shuningdek, Ohangaron daryosi havzasining yuqori oqimi o‘ng sohilidagi Ertoshsoy bo‘yidan va Ohangaronning o‘rta oqimi o‘ng sohilida joylashgan Quyun yodgorliklaridan topilgan. Ular miloddan oldingi II ming yillikning o‘rtalari bilan davrlashtirilgan [4, 233-237; 5, 65-66; 6, 99-112; 7, 147; 8, 279-281]. Bu Chorvoq suv omborining “Sijjak” MFYga tutash sohilidan yangi aniqlangan birinchi turdagi qo‘lda yasalgan idishlarni miloddan oldingi II ming yillikning o‘rtalari bilan sanalashga imkon beradi;

2) qo‘lda yasalgan sopol idishlarining ikkinchi guruhi kichik bo‘laklardan iborat bo‘lganligi sababli ularning tuzilishini tiklash, qanday idishlarga tegishliligini aniqlash mushkul. Ularni asosiy qismining sirtiga yupqa qilib qizil


angob surtilgan (2-rasm). Bu idishlarni devori biroz qalinroq va loyiga maydalangan toshchalar, shamot (o‘t-olovga chidamli qilib pishirilgan loy yoki kaolin)lar aralashtirilgan. Ayrim sopol parchalarini ichki tomonida to‘r shaklidagi motaning izlari saqlangan bo‘lib, bu ularni yasashda mato qolipdan foydalanganligini ko‘rsatmoqda (2.6, 2.9-rasmlar). Yangi aniqlangan ikkinchi guruhdagi idishlarning yasalishi va tayyorlash texnologiyasi Toshkent vohasining Ohangaron daryosi o‘rta oqimi chap sohilidagi Quyun yodgorligidan, o‘ng sohilidagi Burgulik (Burganlik) qishlog‘idan, Kindiqtepa yodgorligidan, Chirchiq daryosi o‘rta oqimi o‘ng sohilidagi Shoshtepa yodgorligidan, Chirchiq daryosi quyi oqimi o‘ng sohilidagi Qovunchitepa va Yug‘ontepa, kabi yodgorliklaridan, shuningdek, Parkent tumanidagi Parkentsoy havzasidagi Qal’aibalo kabi arxeologik yodgorliklardan topib o‘rganilgan sopol idishlarga aynan o‘shxash [9, 251-256; 10, 56-67; 11, 495-496; 12, 522-523; 13, 66; 14, 39-51; 15, 19; 16, 52-53]. Ular miloddan oldingi XIII–IV asrlar bilan belgilangan “burgulik madaniyati” ga oiddir [10, 56-67]. Shunga ko‘ra ikkinchi guruhdagi yangi topilmalarni yuqoridagi madaniyat va uning davri bilan mosligini aytish mumkin;

3) qo‘lda yasalgan uchinchi guruhdagi sopol idish parchalari ko‘za, qadah-kurujka kabi idishlarga tegishli bo‘lib, idishlarning sirtiga qizil rangdagi angob surtilgan (3.1–3.8-rasmlar). Ularning loyiga mayda qum-tosh, ohak, dresva (tog‘ jinslarining nurashidan hosil bo‘lgan sementlanmagan hosilalar – mayda shag‘al)lar qo‘shilgan. Bu turdagi idishlar angoblanishi va loyining tarkibi, yasalish uslubi jihatidan Toshkent vohasida keng topib o‘rganilgan va miloddan oldingi III asrning oxirlari / II – milodiy VI asrning o‘rtalari bilan davrlashtirilgan “qovunchi madaniyati” sopol idishlari bilan bir xil o‘xshashlikda [7, 92-96; 10, 70]. Shuni ham ta’kidlash joizki, ayrim tadqiqotchilar bu “qovunchi madaniyati”ning yakunlani tog‘li mintaqalarda VIII asrlarga qadar dovom etganligini e’tirof etishganlar [17, 16; 18, 184; 19, 84]. Uning davrni qanday sanalanishidan qat’iy nazar “Sijjak” MFY yaqinidan yangi topilgan qo‘lda yasalgan uchinchi guruhdagi idishlarni “qovunchi madaniyati” davri bilan sanalash

mumkin. Ammo ularning aniq bosqichini belgilaydigan ashyolar topilmaganligi sababli idishlarning qaysi bosqichga tegishliligini aytish qiyin;

Chorvoq suv ombori sohilining “Sijjak” MFY yaqinidan topilgan kulolchilik charxida yasalgan sopollarining sirlangan hamda sirsiz bo‘laklari mavjud (3.9–3.18. Ular kosa va ko‘za kabi idishlarga tegishli bo‘lib, kosalarga tegishlilari oq ragda angoblanib, uning ustidan yaltiroq oq va yashil rangda sirlangan (3.9-rasm). Sirsiz idash parchalari ko‘zalarga tegishli bo‘lib, ulardan ayrimlarini sirtiga taroqsimon asbob bilan aylanasiga tirnab bezak berilgan (3.11-rasm). Bu turdagi sirli va sirsiz idishlar Toshkent vohasidagi ko‘plab arxeologik yodgorliklarning qoraxoniylar davri (XI–XII asrlar)ga oid madaniy qatlamlaridan topib o‘rganilgan sopol idishlariga o‘xshashdir [10, 162-163; 13, 92-96]. Shunga asoslanib yangi aniqlangan charxda yasalgan sirli va sirsiz idishlarni yuqoridagi kabi davrlashtrish mumkin.


Shunday qilib, Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanidagi Chorvoq suv omborining “Sijjak” MFY ga tutash hududida olib borilgan qidiruv ishlarida musulmon an’anasida marhumlar dafn etidlgan qabriston, qabriston maydonidan miloddan oldingi II ming yillikning o‘rtalaridan – to milodiy XII asrlargacha bo‘lgan davrlarga tegishli bo‘lgan sopol buyum namunalari topildi. Bu o‘rganilgan hududda yuqorida keltirilgan davrlarda aholi muntazzam yashganligini bildiradi. Shu bilan birga hududdan “burgulik madaniyati”ga tegishli materiallarining topilishi diqqatga sazovvordir. Bunday ashyolar ilk marotaba tog‘li hududa aniqlanganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu avvallari aniqlangganidek, ushbu madaniyat vakillarning nafaqat daryo havzalarining o‘rta oqimida balki, yuqori oqimi havzalarida ham hayot kechirganliklarini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, bu topilmalarning sayyohlar bahonasida topilishi va dastlabki o‘rganilishi kelgusida Chorvoq suv ombori sohillarini uning suv sathi pasaygan mavsumda sinchiklab tadqiq qilish kerakligini ko‘rsatmoqda. Shunda yuqoridagi keltirilgan ayrim munozarali maslarni kengroq hal qilishga imkon tug‘ilishi mumkin.



1-rasm. Chorvoq suv omborining “Sijjak” MFYga tutash qirg‘oqlaridan topilgan “andranova madaniyati”ga oid sopol buyum namunalari.



2-rasm. Chorvoq suv omborining “Sijjak” MFYga tutash qirg‘oqlaridan topilgan “burgulik madaniyati”ga oid sopol idish namunalari.



3-rasm. Chorvoq suv omborining “Sijjak” MFYga tutash qirg‘oqlaridan topilgan “qovunchi madaniyati” va XI–XII asrlarga oid sopol idish namunalari. 1–8-rasmlar “qovunchi madaniyati”ga oid sopol idish namunalari; 9–18-rasmlar XI–XII asrlarga oid sopol idish namunalari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET SAHIFALARI RO‘YHATI

1. Чорвоқ сув омбори қирғоқларида одам суяклари топилгани акс этган видео // https://www.qalampir.uz/news/chorvok-da-topilgan-odam-suyaklari-79838
2. Баратов С. Р. Тошкент воҳаси сўнгги бронза даврида // Тошкент воҳаси археологияси. – Тошкент, 2009. 10-бет.
3. Зубова А. В. происхождение населения андроновской (Федоровской) культуры Западной Сибири по одонтологическим данным // Вестник археологии, антропологии и этнографии. 2012. – № 2 (17). – С. 70–78.
4. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент, 2015. 233 – 237-б. (– 680 б).
5. Воронец М. Э. Браслеты бронзовой эпохи Музея истории АН Уз ССР // Труды Института истории и археологии АН Уз ССР. – Том 1. – Тошкент, 1948. – С. 65–66.
6. Ильясова С. Р., Максудов Ф. А., Хамидов О. А., Лингмей Лин, Вульферт Э. Ф., Нормуродов Д. Р. Раскопки на Куюне в 2018-2019 годах // ИМКУ. – С. 99–112.
7. Оболдуева Т. Г. Погребения эпохи бронзы в Ташкентской области // КСИИМК. – Москва, 1955. – Вып. 59. – С. 147.
8. Тереножкин А. И. Клад андроновских бронзовых предметов из Бричмулла близ Ташкента // СА. – № 3. – Москва, 1962. – С. 279–281.
9. Ergashev O. Toshkent vohasining paleometall davri yodgorliklarining o‘rganilish tarixi // Жамият ва инновациялар. 2022. № 10. 251–256-бетлар.
10. Normurodov D. R. Toshkent vohasining qadimgi va o‘rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi (miloddan avvalgi XIII – milodiy XIII asr boshlari). – Toshkent, 2023. 56–67, 162–163-b. (465 b)
11. Алимов К., Буряков Ю.Ф., Дуке Х. Исследования в Ташкентского области // АО в 1975. – Москва, 1976. – С. 495–496.
12. Алимов К., Буряков Ю.Ф., Дуке Х. Работы по своду археологических памятников Ташкентского оазиса // АО в 1976. – Москва, 1977. – С. 522–523.
13. Буряков Ю. Ф. Генезис и этапы города и городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 66, 70, 92–96. (212 с)
14. Буряков Ю. Ф., Дадабаев Г. Памятники античного времени в Ташкентском оазиса // ИМКУ. Вып. 10. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 39–51.
15. Дуке Х. Туябугузские поселения Бурглюкской культуры. – Ташкент, 1982. – С. 19. (95 с).
16. Спришевский В.И. Археологические памятники на берегах Ташкентского моря // История и археология Средней Азии. – Ашгабад, 1978. – С. 52–53.
17. Иномов О.У. Қовунчи маданияти ва унинг ўзбек халқининг шаклланишидаги роли. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. 16-бет. (54 б)
18. Левина Л.М. Керамика нижней и средней течении Сырдарьи в 1 тыс. н.э. – Москва, 1971. – С. 184. (251 с)
19. Муродалиев Р.Х., Рашидов Н.Н. Сўнгак мозор-қўрғонида 2021 йилда олиб борилган археологик қазишмалар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар: 2021 йил 14-сон. – Самарканд, 2022. 84-бет.

Нурузаде Шахла Тофик кызы
доктор философии по историческим наукам, доцент
Бакинского славянского университета

ТРАДИЦИОННЫЕ ЦЕННОСТИ АЗЕРБАЙДЖАНЦЕВ В КОНТЕКСТЕ ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ И ЭТНОСОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация: В статье исследуется влияние исторических процессов, этнокультурных и этносоциальных процессов, происходящих в Азербайджане, на национально-нравственные ценности народа. Под влиянием глобализации и экономико-политических процессов защита традиционных моральных ценностей и воспитание молодого поколения на основе моральных ценностей является одной из главных задач, стоящих перед государством.

Ключевые слова: азербайджанцы, национально-духовные ценности, традиционная культура, советские ценности, этнополитические процессы.

Abstract: The article examines the influence of ethnocultural and ethnosocial processes occurring in Azerbaijan on the national and moral values of the people. Under the influence of globalization and economic and political processes, the protection of traditional moral values and the education of the younger generation on the basis of moral values is one of the main tasks facing the state.

Key words: Azerbaijanis, national-spiritual values, traditional culture, Soviet values, ethnopolitical processes.

В современное время процессы глобализации, в то же время, подъем национальных чувств и востребованности в обществе национально-духовных ценностей делают актуальным исследование проблемы национально-духовных ценностей. Система духовных ценностей народа дает информацию о его этническом портрете и, в свою очередь, этнопсихологии. На первый план в качестве ценностей национальной культуры выходят: убеждения; фольклор и мифология; церемонии, ритуалы; взгляды на жизнь, идеалы, национальный характер, этнопсихология, традиционный этикет, национальная идеология и так далее. Поскольку традиции рассматриваются как ценности, их можно рассматривать как наследников культурных ценностей. Традиции направляют и корректируют бытовые нормы и поведение.

Сохранение и развитие этнокультурных ценностей является одним из важнейших вопросов современности. Этнологов волнует такие вопросы, как функционируют этнические ценности в материальной, духовной и социально-нормативной культуре в современное время, что мы потеряли и как их восстановить. Проблема экологии этнокультурного наследия является одной из самых обсуждаемых проблем современности. Этнокультурные характеристики или признаки национальной идентичности - язык, элементы соционормативной культуры, национальной психологии, традиционные правила этикета, семейно-бытовых отношений и т.п. усваиваются в соответствующей этнокультурной среде.

Общетюркская культура сыграла важную роль в формировании духовных ценностей азербайджанского народа. Не зависимо от национальности моральные ценности мусульман, особенно религиозные ценности, семейно-бытовые отношения, национальный характер, ценности национальной государственности и т.д., стали общеазербайджанскими.

Хотя духовная культура и традиционные духовные ценности азербайджанцев характеризуются как часть общетюркской, исламской и кавказской культуры, они имеют ряд местных особенностей. Процесс формирования духовных ценностей азербайджанского народа прошел ряд исторических этапов. Религии на территории страны – доисламские религиозные верования, зороастризм, христианство и ислам сыграли важную роль в формировании традиционных ценностей и этнокультурного наследия народа.

В современное время наблюдаются процессы перехода от национальной культуры к глобальной культуре, вмешательство западной массовой культуры в традиционную культуру народа, опасность трансформации национальной культуры и этнокультурных ценностей вследствие создания мировое информационное пространство, виртуальный мир и виртуальный человек делают изучение традиционной культуры актуальным. Процессы глобализации в современном обществе не

воспринимаются однозначно. В такой ситуации встает проблема сохранения языковой и культурной идентичности и самобытности народа.

Президент Ильхам Алиев неоднократно затрагивал эту тему в своих выступлениях: “Конечно, мы разделяем общечеловеческие ценности, мы с большим уважением относимся к европейским ценностям. Но для нас национальные ценности, азербайджанские ценности превыше всего” [İlham Əliyev Bakıda Novruz bayramı münasibətilə ümumxalq şənliyində iştirak etmişdir] .

Одним из самых больших ударов по традиционным моральным ценностям азербайджанцев стало разделение Северного и Южного Азербайджана, с ним и влияние разных культур на азербайджанцев. Установление Советской власти в Северном Азербайджане привело к тому, что национальная культура народа подверглась иностранному влиянию. Однако, несмотря на все это, народу удалось сохранить свою традиционную культуру и культурное наследие. В период нахождения Азербайджана в составе Советского Союза проводилась политика борьбы с традиционной духовной культурой. Основным методом борьбы с традиционными ценностями была политика формирования «советских ценностей» и носителя этих ценностей — «советского человека». С первых лет советской власти была достигнута, хотя и в определенной степени, политика ликвидации индивидуальности народов входящих в союз республик и формирования «общесоветских ценностей». Однако с распадом советской власти в Азербайджане произошли процессы возврата к традиционным ценностям азербайджанцев.

Rossiya musulmonlari, Volga va Qrim tatarlari, Sibir va Turkistonning qirg'iz va sartlari, Kavkazdan tashqari turklar va tatarlar, chechenlar va Kavkaz tog'liklari, masjidlari va ibodatxonalari vayron bo'lgan, e'tiqodlari va urf-odatlari Rossiya podshohlari tomonidan oyoqosti qilingan[3]. Bundan buyon sizning e'tiqodlaringiz va urf odatlaringiz, milliy va madaniy muassasalaringiz erkin va daxlsiz deb e'lon qilinadi. Dastlabki yillarda bolsheviklarning asosiy cheklovlari va to'siqlari cherkovlarga nisbatan amalga oshiriladi. Bolsheviklar nazarida cherkov eskilik sarqiti bo'lib, ular o'ylagan va intilayotgan yangi inson shakli, ideal kommunist insonni tarbiyalashda katta bir to'siq edi. Cherkovga qarshi kurashda ateistik ruhda Ish faoliyatini olib borgan, 1922-yildan nashr etilishi boshlangan "Xudosiz" gazetasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Uning atrofida muxbirlar va kitobxonlar qamrovi kengaytirildi. 1922-yilda RKP Markaziy komiteti huzuridagi cherkovni davlatdan ajratish to'g'risida dekret deb nomlangan, aslida esa ateistik ruhda bo'lgan, sovet hokimyatining dinga qarshi siyosatini amalga oshirish uchun SSSR da mas'ul bo'lgan partiya – davlat organi tashkil topdi[4].

Ilk qurultoyda komissiya boshlig'i etib Lev Trotskiyni tayinlashdi ammo politbyuro uning o'rniga Popovni rais etib tayinlashadi. 1923-yilda politbyuro qarori bilan uning o'rniga komissiya raisi etib Y. Yaroslavskiy tayinlanadi. Shu yilning sentyabr oyida Markaziy qo'mitaning dinga qarshi komissiyasi ateistik tashkilotlarni tashkil etishni istiqbolli deb topdi. 1921-1923-yillarda Volgabo'yida kuchli ochlik vujudga kelib, cherkov yordam tariqasida pul yig'ib ko'plab yordamlarni ko'ngilli sifatida amalga oshirishdi. Patriarx Tixon provaslavlarga murojatida o'z birodarlariga yordam berishni, cherkov marosimlarida ishlatilmaydigan oltin va kumushdan yasalgan anjomlarni topshirishni aytadi. Keyinchalik esa pul tanqisligini bahona qilib cherkovlarni musodara qilish siyosatini amalga oshira boshladilar. Ushbu harakatlarning tashabbuskori, rahnamosi Lev Trotskiy bo'ldi. Uning boshchiligida minglab madrasalar musodara qilindi va oltindan yasalgan barcha buyumlar tortib olindi[5]. Bundan g'azablangan xalq turli namoyishlar o'tkazib, o'z noroziligini bildira boshlagan. Bu namoyishlardan eng yiriklaridan birida hattoki o'nlab odamlar jarohatlanadi.

Bunday voqealar dindor aholining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. 1925-yilda patriarx Tixon vafon etadi va hukumat patriarx tayinlashni man etadi.

Erishev. A. muallifligidagi "Din – xalqlar teng huquqliligi va do'stligining dushmani" nomli ushbu davrga oid manbada Sovet hokimyatining O'zbekistondagi diniy konfessiyalarga nisbatan munosabati ochib berilgan. Unda keltirilishicha kommunistik jamiyat kishilarni tarbiyalab yetishtirish kabi sharafli ish butun partiya, sovet, kasaba soyuz, Komsomol tashkilotlarining hamda ko'p sonli xo'jalik, ilmiy va madaniy muassasalarning diqqat markazida bo'lishi aytiladi. Kommunizm qurish uchun bo'lgan harakatda ya'ni bu dunyoda "Jannat" qurish harakatida oxiratga ishonish, dinni ulug'lash inkor qilingan. Dinga e'tiqod qiluvchilarni esa og'ir sinovlarga duchor qilishgan. Diniy e'tiqodlarga rahbarlik qiluvchi shaxslar ya'ni ruhoniylar, cherkov xizmatchilari sifatida qilgan xizmatlari uchun (Sovet hukumatining ichki va tashqi siyosatini quvvatlashga qaratilgan, 7 soatlik ish kuniga o'tish, soliqlarni bekor qilish, Tinchlik uchun kurash va shu kabilar) davlat tomonidan rag'batlantirilishi yoki mukofotlanishlari mumkin emas deb belgilangan.[6]

Bu davrda ayniqsa dinga nisbatan noto'g'ri talqin qilish holatlari aholining ongida asosan ateizm g'oyasini targ'ib qilishga qaratilgan tashviqotlar olib borildi. Xususan, jamiyat hayotining moddiy sharoiti o'zgargani sayin, din ham o'zgarib, har gal hukmron sinflarning ehtiyoj va manfaatlariga moslashadi, ularga xizmat qiladi deb tushuntirildi. Shu narsa diqqatga loyiqki, hech bir dalilsiz xristian dini, yaxudiy dini, islom dini, buddizm hamda boshqa dinlar va diniy sektalarning turli formalari ekspluatatorlik munosabatlari zaminida vujudga kelgan, kapitalizm davrida ham, din mehnatkashlarni ezuvchi sinfiy zulm quroli sifatida targ'ib qilindi va oddiy aholini dindan qaytarishga urinishlar amalga oshirildi. Bu narsa achinarli bo'lsada o'sha davrda xalqlarning diniy hayotini izdan chiqishiga olib keldi. 70 yil davomida Sovet hukumati xalq qalbidan haqiqiy e'tiqodni siqib chiqarishga urindi. Diniy qadriyatlarni turli bahonalar bilan oyoq osti qildi.[7] Natijada bebaho madaniyat - arxitektura yodgorliklari, masjid va madrasalar, cherkovlar, xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviyati dunyoqarashi muxrlangan solnomalar, diniy asarlar va

qo’lyozmalar yo’q qilindi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, 1920-1930-yillar xalq uchun juda aziyatli kechganini aytish mumkin. Misol tariqasida, 1929-1930-yillarda birgina Turkiston hududining o’zida 14 ming masjid yoqib yuborilgan. Toshkent hududida 1911-yilda 26 madrasa bo’lsa, shulardan 1930-yillarda 23 tasi vayron qilinganligini manbalar isbotlaydi. Keyingi yillarda ham bu siyosat davom ettirildi. Masalan, 1950-yillardan keyingi davrda 20 minga yaqin yodgorliklar buzib yo’q qilingan. Farg’ona vodiysida tarixiy yodgorliklarning uchdan bir qismigina saqlanib qolgan.[8]

Bu davrda Sovet hokimyati faqat islom diniga tazyiq va taqiqlar qo’ygan deyish mutlaqo hato fikrdir. Islom dini bilan birgalikda ushbu hududdagi boshqa konfessiyalar ham ko’plab yo’qotishlarga uchragan. Bu haqida mitropolit Vladimir “Bolsheviklar provaslav va islom diniga bir xilda g’azab bilan tajovuz qildilar. Bu o’lkada ular ibodatxonalarni portlatdilar, masjidlarni yoqdilar. O’sha chekistlarning o’zlari ruhoniyni ham, mullani ham qamadilar” deb ushbu davr haqida fikr bildiradi. Rim-katolik cherkovi O’zbekistondagi ordinariusi K. Kukolkaning kostel binosi tarixiga to’xtalar ekan sovet davrida “Kostel binosini turar joyga moslashtirib, har xil maqsadlarda foydalanildi. Turli yillarda bu binoga kabel zavodi yotoqxonasi, Respublika akusherlik maktabi yotoqxonasi, O’zbekiston tibbiyot texnikasi boshqarmasi va omborxonasi, organ musiqasi zali kabilar joylashtirilgan” i haqidagi ma’lumotlarni keltirishi ham o’sha davrlarda barcha din vakillariga adolatsiz munosabat ko’rsatilganidan guvohlik beradi[9]

Yevangel-lyuteran cherkovi ibodatxonasi – 100 yildan ortiq tarixga ega bo’lgan kirxa taqdirida ham shunday holatlar kuzatilgan. Bu haqida V. Kornelius shunday ma’lumotlarni keltiradi. “1937-yil kirxa yopilganidan keyin, to ikkinchi jahon urushiga qadar bo’sh holatda turdi. Urush davrida esa ushbu bino omborxona vazifasini bajardi. Keyinchalik uni ikki qavatga moslashtirilib, Geologiya boshqarmasi joylashtirildi. Itboqar jamiyati, militsionerlar yotoqxonasi sifatida foydalanildi”.[10]

Minglab yodgorliklar umuman shafqatsizlarcha yo’q qilib yuborildi, ko’plari e’tiborsiz qolishi yoki turli omborxanalar yoki hammomlarga aylantirilishi

natijasida o’zining asl ko’rinishini va ahamiyatini yo’qotdi. Yillar mobaynida turli dinlar o’rtasida shakklangan do’stona munosabatlar va bag’rikenglik tamoyilini yo’q qilmoqchi bo’ldilar. Biroq bu munosabatlarga zarar keltirish yoki yo’qotish oz muddat talab qilmaydi. Misol tariqasida Turkistondagi uchta mahalliy ibodatxona qurilishida musulmonlar mablag’ bilan yordam qilganlarini keltirish mumkin. “Chirchiq shahrida hozirgi kungacha saqlanib, faoliyat yuritayotgan Svyato-Georgiy ibodatxonasining qurilishi uchun mablag’ mahalliy imom tarafidan to’langan. Samarqanddagi Svyato-Aleksev ibodatxonasining qurilishidagi asosiy mablag’ beruvchilar ro’yhatida musulmon savdagorlari Alimbekovlar sulolasi qayd etilgan.[11] Toshkentdagi Iosif-Georgiy ibodatxonasi, Qo’qondagi Qozon soborini slavyan va turkiy xalqlari san’ati uyg’unligi desa bo’ladi. O’zida XVII asrning rus me’morchilik usullarini aks etib, sharq usulida bezatilgan bu ibodatxona o’zbek ustalari tomonidan qurilgan.

O’zbek hunarmandlarining ibodatxonalar barpo etishda ishtirok etganlarini xristianlar bugungi kunda ham faxr bilan esga oladilar. Bolshevik-ateistlar dinga nisbatan tajovuzkorona siyosat olib bordilar va dinni sun’iy ravishda mafkuraviy kurashning o’ta qizg’in jabhalaridan biriga aylantira oldilar. Shuningdek, ular dinni kishilarning aql-idrokini egallsh uchun kurashda o’zlarining eng kuchli dushmani deb hisoblar edilar. Shuning uchun Sovet hokimyati dinni kamsitish, ruhoniylarni yo’qotish va omon qolganlarini bo’ysundirish yo’lida keskin choralarni amalga oshirdilar. Bunday qattiq siyosat natijasida barcha dindorlar qaysi dinga e’tiqod qilishlariga qaramay bir-birlariga imkon boricha yordam berishga urinar edilar. Mitropolit Vladimir tarixning bunday og’ir damlarida musulmon va pravoslavlarning o’z jonini havfga qo’yib, bir-birlariga yordam berganlaridan hayratlanib, shunday ma’lumotlarni keltiradi: “…Toshkent shahridagi Botkin qabristoni ortida surgun qilingan pravoslavlar joylashgan bo’lib, bu joyni mahalliy xalq Shanxay deb nomlashar edi. U yerdagi chayla va yerto’lalarda 3000 dan ziyod ruhoniy va rohibalar yashar edi. Ma’lumotlarga qaraganda, “Shanxay” ga har kuni qatag’onlik havfiga qaramay o’zbek musulmonlari ovqat va kiyim-kechak olib kelib, shu yerdagi aholiga tarqatar ekanlar. “Otish” ga hukm qilingan,

Toshkentdagi Svyato-Nikolsk dargohi rohibasi Igumeniya Lidiyaning qochishiga Jo'ra ismli musulmon yigit yordam bergan" i haqidagi ma'lumotlarni ta'kidlab o'tadi.

Ushbu ma'lumotlar bizga o'sha davrda dinlar o'rtasida asrlar mobaynida shakllangan mustahkam munosabat uzilmasdan, balki yanada mustahkam bo'lganini anglatadi. U yana Leonid Levitinning "O'zbekiston tarixiy burilish chorrahasida" kitobi haqida o'z fikrlarini bayon qilar ekan, ikki xalq o'rtasidagi do'stlik rishtalarining mustahkamlanishiga xizmat qilgan yana ba'zi bir ma'lumotlarni keltirib o'tadi: "…Rossiya davlati g'aznasi hisobidan ellik ming nushada chop etilgan Qur'oni karimni musulmonlar boshqarmasiga beg'araz sovg'a qilingani, Toshkentdagi jome masjidining podshox Aleksandr III mablag'i hisobidan ta'mirlangani, Rus arxeologi V. Vyatkinning ko'p izlanishlardan so'ng, Ulug'bek observatoriyasini aniqlagani kabilar ikki xalq o'rtasida shakllangan do'stona aloqalar e'tiqod jihatidan ham bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga xizmat qilganini takidlaydi. Biroq Sovet hokimyati davrida dinga nisbatan qo'llangan siyosat natijasida yillar davomida shakllangan ushbu munosabatlardan tashqari xalq har tomonlama ko'plab yo'qotishlarga duchor bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1 Mustafaeva N. O'zbekistonda Sovet hukumatining diniy siyosati. // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2005. -№2, 35-43 betlar

2 Saidboev T. Sovet turmush tarsi va islom dini. – T. : O'zbekiston, 1979. 29-bet.

3.Abdurahmonov A. Din va Siyosat. – Namangan, 2001. 104-bet

4.Абдусамедов. А. И. Фан ва дин. – Т. Ўзбекистон. 1971. – 40 б.

5. А. Еришев. Дин – халқлар тенг ҳуқуқлилиги ва дўстлигининг душмани. – Т. Қизил Ўзбекистон, 1962. – С 14-15.

6. Ибрагимов Н. Нет народа без храма…// Человек и политика. – Т, 1991. - №10. -С. 25-27.

7. Куколка К. Из истории католичество в Узбекистане Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Т., 1999. - № 3-4. – Б. 156.

8.Корнелиус В. Евангелическо – лютеранская церковъ // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Т. 1999. - №3-4. – Б.158.

9. Ўз Р МДА, И – 17 Ф., 1-рўйхат, 15271-иш, 6-варақ.

10. Saidboev T. Sovet turmush tarsi va islom dini. – T. : O'zbekiston, 1979. 29-bet.

11. Архиепископ Владимир. …А друзей искатъ на Востоке. – Т . 2000. – С. 42.

Hidirov Mukhsin
PhD, Associate professor of “History and Cultural Heritage” Department “Silk Road”
International University of Tourism and Cultural Heritage

ANCIENT WATER SUPPLY SYSTEM FACILITIES OF CENTRAL ASIA AS CULTURAL HERITAGE OBJECTS

Annotatsiya. Maqolada O’rta Osiyoda suv ta’minoti uchun qadimgi davrda va o’rta asrlarda barpo etilgan gidrotexnik inshootlar ko’rib chiqilgan. Ushbu gidrotaxnik inshootlarni barpo etilishi o’lkada mavjud iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat bilan yaqindan bog’liqdir. Dehqonchilik faoliyatining sun’iy sug’orish bilan chambarchas bog’liqligi gidrotexnik inshootlarning yuqori darajada tashkil qilinishining asosiy omillaridan hisoblanadi. Asrlar davomida gidrotexnik inshootlarning qurilishida oddiy asyolardan foydalanganligiga qaramasdan, mahalliy ustalar yirik gidrotexnik inshootlarning barpo etishni uddalashgan. Oddiy qurilish ashyolari hisoblangan tabiiy tosh, loy va yog’ochdan foydalanilgan holda qurilgan gidrotexnik inshootlarda mahalliy ustalarning yuqori darajadagi qurilish madaniyatini kuzatish mumkin. Mahalliy ustalar yirik to’g’onlar, sug’orish kanallari va o’ziga xos suv havzalari va suv tarqatish inshootlarini qurib, suvdan unumli foydalanishgan.

Kalit so’zlar: gidrotexnik inshootlar, to’g’onlar, sug’orish kanallari, suv havzalari, suv tarqatish inshootlari, qurilish madaniyati.

Абстракт. В статье рассматриваются гидротехнические сооружения, построенные в древности и средние века для водоснабжения в Средней Азии. Строительство этих гидротехнических сооружений было тесно связано с экономической и социальной ситуацией в стране. Тесная зависимость сельскохозяйственной деятельности с искусственным орошением является одним из основных факторов высокого уровня организации гидротехнических сооружений. Несмотря на использование на протяжении веков простых материалов при строительстве гидротехнических сооружений, местным мастерам удавалось возводить крупные гидротехнические сооружения. Высокий уровень строительной культуры местных мастеров можно наблюдать в гидротехнических сооружениях, построенных с

использованием природного камня, глины и дерева, которые считаются простыми строительными материалами. Местные мастера строили большие плотины, оросительные каналы, уникальные водохранилища и водораспределительные сооружения, эффективно используя воду.

Ключевые слова: гидротехнические сооружения, плотины, оросительные каналы, водохранилища, водораспределительные сооружения, строительная культура.

Abstract. The article examines the hydro technical structures built in the Ancient Times and Middle Ages for water supply in Central Asia. The construction of these hydro technical structures is closely related to the economic and social situation in the country. The close connection of agricultural activity with artificial irrigation is one of the main factors of the high level of organization of hydro technical facilities. Despite the use of simple materials in the construction of hydro technical structures for centuries, local craftsmen managed to build large hydraulic structures. The high-level construction culture of local craftsmen can be observed in hydro technical structures built using natural stone, clay and wood, which are considered simple construction materials. Local craftsmen built large dams, irrigation canals and unique reservoirs and water distribution facilities, making efficient use of water.

Key words: hydro technical structures, dams, irrigation canals, reservoirs, water distribution structures, building culture

A large part of the earth suitable for farming, including Central Asia, has a water shortage, and therefore, since ancient times, people have spent a lot of effort and labor to correct the imbalance of natural factors and increase the water supply of the land. Since ancient times, water supply is a set of activities related to the provision of water to urban residents and for agricultural activities. Water supply has been known for thousands of years. In ancient Egypt, underground water was dug by very deep wells and extracted using simple mechanisms. They used ceramic, wooden, metal (copper and lead) pipes. Ancient Rome had a large

centralized water supply system. Water supply in Central Asia is known from the 6th-5th centuries BC. For example, in the water supply of the ancient city of Samarkand, a large dam was built at the entrance to the city, and a large canal was passed over it to the city. According to archaeologists, traces of the ditch still exist (4).

Due to the geographical location of Central Asia and its extremely continental climate, summer months are hot and rainless, and winter months are cold and rainy. Artificial irrigation is required for farming in accordance with natural and climatic conditions. The history of irrigation systems in Central Asia goes back to the distant past. Irrigation systems can be seen in the example of canals, dams and other hydro technical structures built in the valleys of Amudarya, Syrdarya and Zarafshan rivers, which are the major rivers of the country (1).

In ancient times, one of the most difficult issues was getting water from the river to the canals through water receiving structures. Centuries of practical work has shown that dam structures known as piles of branches or "*sepoyas"* were used to get water into the canals. Longitudinal dams were built from the riverbed and they served as side walls of the canal. The length of the dam was extended or shortened to control the volume of water flowing into the canal.

Irrigation systems were developed in the states that existed in the ancient Khorezm, Sugdiyana and Fergana valleys, and various structures and devices were widely used for water supply. For example, the Dargom canal was used to supply water to the city of Samarkand, while the Shahrud canal was used to provide water to the city of Bukhara.

To supply Samarkand and its surroundings with water, they used the ancient Dargom canal, which takes water from the Zarafshan river. The canal starts from the dam near the village of Ravothoja and continues to the Karnab desert. Historical sources mention that the canal was dug in the 5th-6th centuries BC. On the map made by Claudius Ptolemy (II century), the Dargom channel is called "Dargomany". In the past, the main dam of the canal was destroyed several times. The main dam was demolished by Genghis Khan in 1220. Floods of the 18th

century washed away the dam several times. Water from the Dargom canal is delivered to the city of Samarkand through the Shavdar and Bogishamol distributors. In 1220, the upper part of the canal was destroyed by the invaders of Genghis. As a result, rural areas around Samarkand were flooded. For this reason, the local people called Dargom "Dardu-gham" (Pain and suffering). This name is derived from the Persian language (5).

A different method of irrigation was used in the lower reaches of Khorezm and Amudarya. In these regions, only the change of the water level in the river was skillfully used. When the water level rises, the irrigation canals overflow, and when the water level falls, the water inflow into the canals decreases or stops altogether. In this case, an additional water intake is built at a distance of one hundred to two hundred meters above or below the water intake. As a result of archaeological research, the development of irrigation systems in the lower part of Amudarya dates back to the 6th - 4th centuries BC. We can see this in the example of the Gavhar canal, which was built from the Amudarya River to irrigate the Sultaniztog Heights located on the right bank of the oasis (2).

The structure of the Sokh canal in the Fergana valley has its own characteristics. Previously, water was pumped from the Sokh river into fan-shaped canals using "*sepoyas*" made of horn and stone, and water was released into more than a hundred irrigation ditches. The length of the Sokh river is more than 10 kilometers and it spreads out into the valley 1.5 kilometers wide. Previously, more than a thousand "*sepoyas*" of 6-8 meter high poplar trees were installed at a distance of 10 kilometers. Watering in this way was carried out twice in early spring and late spring. A lot of people were involved and a lot of money was spent on these works.

Tube wells and horizontal water collectors are used to extract groundwater. Spring water is collected in catchment structures (brick tanks, chambers, etc.). Underground water channels – "koriz" were used to collect underground water and bring it to the surface for agricultural use (6).

Folk craftsmen have rich experience in building various hydro technical structures in the past. In self-propelled channels and deepened channels, channels that move with the help of water-distributing forces are used. They served to release water to the surface of the earth. This method of irrigation was widely used in Khorezm agriculture. According to historians, thousands of cisterns were used in the lower reaches of Amudarya, and thousands of hectares of land were watered.

A device known as a "*nova*" was widely used for irrigation. One end of the "*nova"* was closed, and the other end was open. A pole was placed between two dug pits and a "*nova*" was placed on top of it. The waterman lowered the closed end of the "*nova*" into the water pit, and when the "*nova*" was filled with water, he turned it to the other side and poured the water into the second pit. In this way, water was released from a lower place to a higher place for irrigation. This method was used to irrigate small plots of land.

Currently, Uzbekistan is giving great importance to the development of various directions of tourism. In particular, the organization of tourism neighborhoods in rural areas is spreading widely. For the development of this direction, the use of devices and structures related to water supply as objects of cultural heritage is an urgent issue.

REFERENCES

1. Barthold V.V. Turkestan in the Mongol era. Geographical essay Maverennakhra // Bartold V.V. Essays. Volume 1. - Moscow.: Nauka, 1963. p. 140.

2. Gulyamov Ya.G. Kushan kingdom and ancient irrigation of Central Asia // Central Asya in the Kushan era.Volume 1. - Moscow: Nauka, 1974. p. 119.

3. Eshonkulov U. History of irrigation in Upper Zaravshan (from the early 20th century to the late 20th century): abstract of dissertation of candidate of historical science. – Samarkand, 1989. p. 5.

4. Muhammadjanov A.R. Irrigation history of the Lower Zarafshan Valley. (From ancient times to the 20th century). "Fan", Tashkent – 1972.

5. Muhammadjanov A.R. Ancient hydrotechnical structures of Uzbekistan. "Uzbekistan" Tashkent - 1977.

6. Nazilov D.A. Architecture of the mountainous regions of Central Asia. - Tashkent: Publishing house of TSTU named after Aburaikhan Beruni, 1999. p. 133-147.

7. Rtveladze E.V., Iskhakov M.Kh. Dam Sari - Band // Architecture and construction of Uzbekistan. - 1977. Tashkent, #1. Str. 18 - 20.

“TARIXIY OBYEKTLAR VA TABIIY MASKANLAR UYG‘UNLIGI ASOSIDA O‘ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MAQOLALARI TO‘PLAMI

****

СБОРНИК СТАТЕЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

«ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ГАРМОНИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ И ПРИРОДНЫХ ОБЪЕКТОВ»

****

COLLECTION OF ARTICLES OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

"MAIN DIRECTIONS AND PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF THE TOURIST ORGANIZATION OF UZBEKISTAN BASED ON THE HARMONY OF HISTORICAL AND NATURAL OBJECTS"

Maqolada keltirilgan ma’lumotlar va mulohazalar uchun mualliflar shaxsan javobgar hisoblanadi.